O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

IQTIDORLI TALABALAR ILMIY TADQIQOT
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BO'LIMI

# IQTIDORLI TALABALAR ILMIY XABARLARI

ILMIY-USLUBIY JURNALI

3-SON 2025-YIL

NAMANGAN - 2025

***Bosh muharrir:*** *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B. Xusanov*

***Mas'ul muharrir:*** *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M. Qodirxonov*

***Mas'ul muharrir o'rinbosari:*** *Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i R. Tursunov*

**TAHRIR HAY'ATI**

***Aniq va tabiiy fanlar:*** *k.f.d., prof. Sh. Abdullayev, f-m.f.d., dots. R. Xakimov, k.f.n., dots. M. Qodirxonov, b.f.d., dots. A. Batashov, f-m.f.n., dots. T. Abdullayev, PhD. A. Sobirxanov.*
***Texnika fanlari:*** *t.f.d., prof. A. Umarov, PhD. Sh. Xudoyqulov, PhD. A. Abdunazarov.*
***Ijtimoiy gumanitar fanlar:*** *s.f.d., prof. T. Fayzullayev, tar.f.d, prof. A. Rasulov. f.f.d., prof. M. Ismoilov, t.f.n. dots. A. Isoqboyev, PhD., dots. J. Yuldashev, PhD. dots. A. Abdullayev, PhD, A. Qambarov, PhD. B. Ataxanov, PhD. S. Botirova, PhD. E. Gapparov.*
***Pedagogika fanlari:*** *p.f.d., prof. U. Inoyatov, p.f.d., prof. B. Xodjayev, p.f.d., prof. SH. Yusupova, p.f.d., prof. O'. M. Asqarova, p.f.d., prof. M. Sobirova, PhD. M. To'raboyeva, PhD. E. Tojiboyev, PhD. N. Suyarov.*
***Filologiya fanlari:*** *fil.f.d., prof. N. Uluqov, fil.f.d., prof. H. Usmanova, p.f.n., dots. S. Misirov, PhD., dots. E. Abduvoxidov, PhD. R. Tillayeva.*

***Texnik muharrir: D. Maxkamov***

***Tahririyat manzili*: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy**.

***Pochta indeksi:*** 160136,

***Faks:* (**0369) 227-27-21,

***E-mail***: Info@namspi.uz

*"Iqtidorli talabalar ilmiy xabarlari" ilmiy-uslubiy jurnali NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2025-yildagi 11-oktabrdagi 10-sonli kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 10). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI – 2025**

# IQLIM ISISHIGA QARSHI KURASHISHDA "YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASINING AHAMIYATI

***Qoriyev Mirzoxid***
Namangan davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti.
**E-mail:** koriyevmirzohid88@namspi.uz
**Tel:** (+99893) 056-60-26

***Ikramova Nozima***
Namangan davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi.
**E-mail:** nikramova49@gmail.com;
**Tel:** (+99894) 304-82-81

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda 2021-yildan beri amalga oshirib kelinayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida millionlab ko'chatlar ekib, yashil maydonlarni kengaytirishning global iqlim isishiga qarshi ijobiy ta'siri muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** global iqlim isishi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi, o'simlik, o'rmon, $CO_2$.

**Kirish.** Butunjahon meteorologiya tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra 2024-yildagi yer yuzasining o'rtacha harorati 1850-1900 yillardagi o'rtacha ko'rsatkichdan 1,55°C (noaniqlik chegarasi ±0,13°C) yuqori bo'lganligini ta'kidlab, bu rekord darajadagi eng issiq yil ekanligini tasdiqladi [12]. Bu borada Markaziy Osiyodagi, xususan, O'zbekistondagi vaziyat yanada murakkab hisoblanadi. Bu xususda mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasidagi (COP28) nutqlarida "Mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobar ko'pdir. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar

maydonining uchdan bir qismi yoʻqoldi" deya alohida ta'kidlab oʻtganlar [11].

Global haroratning ortishi tabiatda keskin oʻzgarishlarga va salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Qutb va baland togʻ muzliklarining tez erib ketayotganligi, suv tanqisligi va qurgʻoqchilikning kuchayib borayotganligi shular jumlasidandir [5, 6].

Global iqlim isishini inson xoʻjalik faoliyatiga koʻrsatayotgan salbiy ta'siri va jiddiy oqibatlarga olib kelayotganligi bois, bu jarayonga qarshi kurashish boʻyicha jaxon miqyosida, xususan, Oʻzbekistonda ham koʻplab ishlar amalga oshirilmoqda. Mana shunday ishlardan biri mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasining ishga tushirilganligi va har yili ushbu loyiha doirasida butun mamlakat boʻylab millionlab mevali va manzarali buta hamda daraxt koʻchatlarini ekilayotganligi hisoblanadi.

**Asosiy qism.** "Yashil makon" umummilliy loyihasi, dastlab, 2021-yilning 2-noyabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida oʻtkazilgan videoselektorda xayrli tashabbus sifatida ilgari surildi. Shundan soʻng mamlakat boʻylab ushbu tashabbus keng qoʻllab-quvvatlandi va koʻplab korxona-tashkilotlar, fuqarolar ham bu maqsadga oʻz hissasini qoʻshdi. Natijada shu yilning oʻzida mamlakat boʻylab 85 million tup koʻchatlar oʻtqazilishiga erishildi [7]. Mazkur tashabbusni yanada qoʻllab quvvatlash maqsadida Prezidentimizning 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada koʻkalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-46-son Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmonga binoan butun mamlakat miqyosida "Yashil makon" umummilliy loyihasini tadbiq etish va shu loyiha asosida daraxtzorlarni

ko'paytirishga qaratilgan quyidagi muhim vazifalarni bajarish belgilandi, jumladan:

- daraxtlarni ekish va parvarish qilish sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish;

- ilmiy yondashuvlar asosida hududlarning tuproq-iqlim va boshqa xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot va tahlillarni amalga oshirish hamda buning natijasida hududlar kesimida respublika xaritasini ishlab chiqish;

- ko'chatxonalar sonini ko'paytirish, tuproq unumdorligini hisobga olgan holda, hududlar iqlimiga mos xorijiy manzarali daraxtlarni mahalliylashtirish;

- hududlarda "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari"ni barpo etish;

- daraxtlarni sug'orish tizimini qayta ko'rib chiqish, uning samarali faoliyatini ta'minlash;

- har bir daraxtni parvarish qilish uchun mas'ul bo'lgan shaxslarni belgilash, bu borada rag'batlantirish mexanizmlarini keng joriy etish;

- daraxtlarni shikastlantirish va nobud qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini yanada oshirish [4].

Prezidentimiz raisligida 2022-yil 2-fevral kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish borasidagi dolzarb vazifalar muhokama qilindi. Unda ""Yashil makon" umummilliy loyihasi bir yillik tadbir emas. Uning doirasida kelgusi besh yilda 1 milliard tup daraxt ko'chatini ekishni maqsad qilganmiz. Bu umummilliy harakatning natijasi har bir mahallada ko'rinishi kerak, bu savobli ishni havas bilan qilish kerak", — dedi davlat rahbari [8]. Mazkur tashabbusni butun mamlakat bo'ylab qo'llab

quvvatlanishi oʻlaroq 2022-yilda jami boʻlib 202,7 million tup daraxt koʻchatlari ekilgan [7].

Prezidentimiz tomonidan 2023-yil 11-sentabrda "“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-158-son Farmoni e’lon qilindi [8]. Mazkur strategiya 5 ta ustuvor yoʻnalish hamda 100 ta maqsaddan iborat boʻlib, uning 67-maqsadi Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga bagʻishlangan. Buning uchun “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish, mamlakat boʻylab faollik bilan tadbiq etishga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur maqsaddan kelib chiqib:

- har yili mamlakat boʻylab 200 million tup daraxt ekib borish va respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, ekiladigan har bir daraxtni parvarish qilish va sugʻorish tizimini yaratish.

- 1 984 ta yashil bogʻlar barpo etish, shu jumladan 112 ta yirik sanoat korxonasi tomonidan oʻz va tutash hududlarida uch yil davomida 30 million tup koʻchatdan iborat “yashil belbogʻ”lar barpo etish.

- Barcha davlat idoralari, korxonalar, ta’lim muassasalari hududlarida “yashil bogʻlari”ni tashkil etish.

- Toshkent shahrida yashil maydonlar hududini 5 barobar koʻpaytirib, 5 ming gektarga yetkazish.

- “Yashil makon” umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yoʻlga qoʻyish.

- Shahar va tuman markazlarida har 50-100 ming aholi uchun “jamoat parklari”ni tashkil etish kabi vazifalar belgilandi.

Bundan tashqari, Oʻrmonlar maydonini kengaytirish deb nomlangan 68-maqsad doirasida yerlarni eroziyadan va melioratsiya obyektlarini qum koʻchishidan saqlash uchun 26 200 gektar ihota daraxtzorlarini barpo etish; respublikada oʻrmon bilan qoplangan

maydonlarni 6,1 million gektarga yetkazish; oʻrmon fondining togʻ va togʻoldi hududlari plantatsiyalarini barpo qilish; choʻl hududlarida oʻsimliklarni koʻpaytirish; hududlarda himoya oʻrmonzorlarini barpo etish vazifalari belgilandi.

Orolboʻyi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta'sirini yumshatish deb nomlangan 69-maqsad doirasida esa Orolboʻyi mintaqasidagi oʻrmonzorlarni 2,3 million gektarga yetkazish; Orol dengizining qurigan tubida qoʻshimcha 600 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, ularning umumiy hajmini 2,6 million gektarga yoki hududning 80 foiziga yetkazish koʻzda tutilgan.

Eng asosiysi "Iqlim oʻzgarishi salbiy ta'sirining oldini olish" maqsadi doirasida choʻllanish, qurgʻoqchilik, chang-qum boʻronlari va haroratning koʻtarilishiga qarshi chora sifatida jami 600 ming gektar maydonda "yashil qoplamalar" — himoya oʻrmonzorlarini barpo etish belgilandi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasini har yili izchillik bilan davom ettirish, shu bilan birga uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida keying yillarda yana bir qator Prezident qaror va farmonlari e'lon qilindi. Bu boʻyicha, Prezidentimizning 2024-yil 30-noyabrdagi ""Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-804-son Qarori [11] hamda 2025-yil 30-maydagi ""Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hamda oʻrmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-90-son Farmonlari [1] shular jumlasidandir.

Umuman olganda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida o'tgan 4 yil davomida respublika bo'yicha jami 872 mln tup daraxt va buta ko'chatlari ekildi [9].

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda daraxt ko'chatlarini ekib, hududlarni yashillashtirishga va shu orqali iqlim isishiga qarshi kurashishga katta e'tibor qaratilmoqda. Haqiqattan ham daraxtlar iqlimni mo'tadillashtirishga juda katta xissa qo'shadi. Bunga quyidagilar orqali ishonch hosil qilishimiz mumkin. Jumladan:

1. O'simliklar yashil barglari orqali quyosh nurlari ta'sirida fotosintez reaksiyasini amalga oshiradi va eng asosiy parnik gazi hisoblanadigan karbonat angidrid ($CO_2$) gazlarini o'zlashtirib, atrof muhitdagi ortiqcha $CO_2$ miqdorini kamaytirishga hissa qo'shadi.

2. O'simliklar fotosintez reaksiyasi orqali o'zlashtirgan $CO_2$ gazlarini o'z tanalarida, jumladan, ildizlari, barglari, novdalari va o'lik organik qoldiqlari tarkibida uglerod shaklida uzoq vaqt saqlanadi. Shu tarzda yillar davomida katta hajmdagi $CO_2$ uglerod shaklida "saqlanadi" va atmosferaga qaytishi sekinlashadi.

3. Okeanlardan keyingi eng katta tabiiy karbonat angidridni o'zlashtiruvchilar – bu o'rmonlar, ayniqsa tropik yomg'ir o'rmonlari hisoblanib, ular yilga millionlab tonna $CO_2$ ni yutib qoladi va yer yuzasidagi uglerodining taxminan 30 % ini o'zida saqlaydi.

4. O'simliklar barglari orqali transpiratsiya qiladi, ya'ni, o'simliklar ildizlari orqali tuproqdan so'rib olgan suvni barg og'izchalari yordamida bug'latib, havoga chiqaradi. Shu orqali yaqin atrofdagi havoni sovutib, mahalliy mikroiqlimni shakllantiradi. Ayniqsa daraxtzor va bog' hududlarida bu jarayonlar mahalliy haroratni yoz oylarida 2–5°C gacha pasaytiradi. Bu bo'yicha Toshkent shahridagi Parkent va Mahtumquli ko'chalarida o'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra daraxt

bor joydagi havo harorati daraxt yo'q joydagi havo haroratidan 7°C gacha pastroq bo'lgani aniqlangan (1-rasm) [10].




1-rasm. Daraxtlarni havo haroratiga ta'sirini aniqlash bo'yicha Toshkent shahridagi Parkent va Mahtumquli ko'chalarida o'tkazilgan tajriba natijalari [10].

5. Daraxtzorlar shamol tezligini pasaytiradi va iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, yoz faslida issiq garmsel shamollarininng tezligini kamaytirib, tuproqdan namni bug'lanib ketishidan, qishloq xo'jaligi ekinlarini qurib qolishidan va shamol eroziyasidan himoya qiladi. Qishda esa izg'irin sovuq shamollar tezligini kamaytirib, daraxtlarni sovuq urishidan muhofaza qiladi.

6. Daraxtlarning ildizlari tuproqni mustahkamlaydi, eroziyaning oldini oladi. Tuproq eroziyasi iqlim o'zgarishini kuchaytiradigan $CO_2$ chiqishiga sabab bo'ladi. Shu bois daraxtlar tuproqni karbon yutuvchi sifatida saqlashga xizmat qiladi.

7. Daraxtlar nafaqat $CO_2$ ni yutadi, balki metan ($CH_4$) va azot oksidi ($N_2O$) kabi boshqa parnik gazlarning atmosferadagi ta'sirini bilvosita kamaytirishga yordam beradi.

8. Yashil daraxtzorlar tuproq yoki asfaltga qaraganda quyosh nurini ko'proq yutib, issiqlikni qaytarishni kamaytiradi va hududiy iqlimni mo'tadillashtiradi.

9. Daraxt barglari havodagi chang zarralari, tutun, og'ir metall va zararli gazlarni ushlab qoladi. Bu nafaqat inson salomatligini himoya qiladi, balki iqlimga ta'sir qiluvchi ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytiradi.

10. Shaharlardagi ko'p sonli daraxtlar yoz oylarida haroratni pasaytirib, energiya sarfini kamaytiradi. Masalan, konditsionerlardan foydalanishni qisqartiradi. Bu esa elektr energiyasi ishlab chiqarishda chiqadigan $CO_2$ miqdorini ham kamaytiradi.

11. Daraxtzorlar ko'plab hayvon va o'simlik turlarining yashash joyi hisoblanadi. Natijada ekotizim barqarorligi ta'minlanadi. Uning barqarorligi esa iqlim tizimining barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Daraxtlarning iqlimga ijobiy ta'sirini quyidagi jadval orqali yanada aniqroq ko'rishimiz mumkin (1-jadval)

1-jadval

Daraxtlarning iqlimga ijobiy ta'siri

| **Jarayon** | **Daraxtlarning roli** | **Iqlimga ta'siri** |
|---|---|---|
| Fotosintez | $CO_2$ gazini yutib, kislorod chiqaradi | Atmosferadagi parnik gazlarini kamaytiradi |
| Uglerodni saqlash | Tanasi, bargi, ildizida karbonni saqlaydi | $CO_2$ ning atmosferaga qaytishini sekinlashtiradi |

| | | |
|---|---|---|
| Karbon yutuvchilar | O'rmonlar yiliga millionlab tonna $CO_2$ ni o'zlashtiradi | Yer yuzasidagi karbon balansini barqarorlashtiradi |
| Transpiratsiya | Barglari orqali suvni bug'lantiradi | Havoni sovutadi, mahalliy mikroiqlim hosil qiladi |
| Shamolni kamaytirish | Shamol tezligini pasaytiradi | Issiq garmsel va izg'irin sovuq shamollardan himoya qiladi |
| Tuproqni mustahkamlash | Ildizlari tuproqni tutib turadi | Tuproq eroziyasidan asrab, tuproq qatlamidagi $CO_2$ ni havoga chiqib ketishini kamaytiradi |
| Atmosfera tozaligi | Chang, tutun, zararli gazlarni ushlab qoladi | Havoni tozalaydi, issiqxona effektini kamaytiradi |
| Shahar issiq oroli effektini kamaytirish | Soya salqinlik hosil qiladi, havoni salqinlashtiradi | Shaharlarda haroratni pasaytiradi, energiya sarfini qisqartiradi |
| Biologik xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash | Hayvon va o'simliklar uchun yashash joyi yaratadi | Ekotizim va iqlim barqarorligini mustahkamlaydi |
| Energiya tejamkorligi | Binolarga soyabondek ta'sir etib, yozda quyosh nuridan, qishda sovuq shamoldan himoya qiladi | Isitish-sovutishga ketadigan energiya sarfini kamaytiradi |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, daraxtlar iqlimga benihoya ijobiy ta'sir ko'rsatadi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda samarali yechim bo'la oladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, daraxtlar karbon yutuvchi, havo tozalovchi, mikroiqlimni tartibga soluvchi va bioxilma-xillikni qo'llab-quvvatlovchi tabiiy tizim sifatida iqlimni mo'tadillashtirishda beqiyos

ahamiyatga egadir. Shu bois iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda yashil o'simliklarni muhofaza qilish hamda o'rmonlar maydonini kengaytirishning ahamiyati juda yuqoridir. Bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda samarali usul ekanligini anglash qiyin emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-804-son Qarori. 2024-yil 30-noyabr. Toshkent sh.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-90-son Farmoni. 2025-yil 30-may. Toshkent sh.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr. Toshkent sh.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-son Farmoni. 30.12.2021 y. Toshkent sh.

5. Qoriyev M. Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o 'zgarishlar //Farg'ona davlat universiteti. – 2024. – №. 2. – С. 141-141.

6. Qoriyev M., Mushtariy M. Global iqlim isishini o'simliklar vegetatsiyasiga ta'siri //Journal of Experimental Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 10-14.

7. www.daryo.uz – Bosh prokuratura: "Yashil makon" loyihasiga mas'uliyatsiz yondashgan 29 nafar rahbar javobgarlikka tortiladi. 05.08.2023. https://daryo.uz/2023/08/05/bosh-prokuratura-yashil-makon-loyihasiga-masuliyatsiz-yondashgan-29-nafar-rahbar-javobgarliklikka-tortiladi

8. www.gazeta.uz – 1 martdan «Yashil yillik» umummilliy tadbiri boshlanadi. 2022-yil, 3-fevral. https://www.gazeta.uz/oz/2022/02/03/green-year/

9. www.kun.uz.uz – O'zbekistonda 2030 yilgacha yashillik darajasi 30 foizga yetkaziladi. 02.06.2025. https://kun.uz/news/2025/06/02/ozbekistonda-2030-yilgacha-yashillik-darajasi-30-foizga-yetkaziladi

10. www.kun.uz. – Toshkent ko'chalarida tajriba – daraxtlar haroratga qanday ta'sir ko'rsatadi? 21.08.2023. https://kun.uz/19324992

11. www.xabardor.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasidagi (COP28) nutqi. 02.12.2023. https://xabardor.uz/uz/25660

12. www.wmo.int – WMO confirms 2024 as warmest year on record at about 1.55°C above pre-industrial level. 10 January 2025. https://wmo.int/news/media-centre/wmo-confirms-2024-warmest-year-record-about-155degc-above-pre-industrial-level

# QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANISH

**Dusov Yoʻldosh Shodiyevich**
DXX CHQ "Yosh chegarachilar" HAL
"Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasi fizika fani bosh oʻqituvchisi
**Email:** yuldoshdusov@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada quyosh energiyasidan foydalanishning ilmiy, texnologik va amaliy asoslari tahlil qilingan. Quyosh nurlanishining fizik xususiyatlari, energiyaning Yerga yetib kelish miqdori va uning inson hayotidagi ahamiyati keng yoritilgan. "Qaynoq quti", geliokonsentrator, quyosh issiqxonalari, quyoshli batareyalar kabi geliotexnik qurilmalar yordamida past va yuqori haroratli energiyani olish usullari koʻrib chiqilgan. Shuningdek, shoʻr suvni tuzsizlantirish, issiqxona samaradorligini oshirish, quyosh energiyasida payvandlash kabi sohalarda quyosh energiyasining qoʻllanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Oʻzbekistonning iqlimiy sharoiti ushbu energiya manbaidan keng foydalanish uchun qulay zamin yaratishi ta'kidlangan. Maqola yakunida quyosh energiyasining ekologik tozaligi, energiya tejamkorligi hamda barqaror rivojlanishdagi oʻrni alohida qayd etiladi.

**Kalit soʻzlar:** Quyosh energiyasi, Geliotexnika, quyoshli isitkichlar, qaynoq quti, shoʻr suvni tuzsizlantirish, quyosh issiqxonasi, geliokonsentrator, katta quyosh pechi, ekologik toza energiya, energiya tejamkorligi, quyosh pechi, quyoshli batareyalar, iissiqxona samaradorligi, payvandlashda quyosh energiyasi, chuchuk suv ta'minoti, energiya mustaqilligi.

**Аннотация**: В данной статье проанализированы научные, технологические и практические основы использования солнечной энергии. Широко освещаются физические свойства солнечной

радиации, количество поступающей на Землю энергии и ее значение в жизни человека. Рассмотрены способы получения низкотемпературной и высокотемпературной энергии с помощью таких гелиотехнических устройств, как" кипяток", гелиоконцентратор, солнечные теплицы, солнечные батареи. Также были проанализированы возможности применения солнечной энергии в таких областях, как опреснение рассола, повышение парниковой эффективности, сварка на солнечной энергии. Было отмечено, что климатические условия Узбекистана создают благоприятную почву для широкого использования этого источника энергии. В заключение статьи особо подчеркивается роль солнечной энергии в экологичности, энергосбережении и устойчивом развитии.

**Ключевые слова:** солнечная энергия, гелиотехника, солнечные обогреватели, кипяток, опреснение рассола, солнечная теплица, гелиоконцентратор, большая солнечная печь, экологически чистая энергия, энергосбережение, солнечная печь, солнечные батареи, эффективность теплиц, солнечная энергия при сварке, пресноводное водоснабжение, энергетическая независимость.

**Annotation:** this article analyzes the scientific, technological and practical foundations of the use of solar energy. The physical properties of solar radiation, the amount of energy reaching the Earth, and its importance in human life are widely covered. Methods for obtaining low and high temperature energy using heliotechnical devices such as" boiling box", helioconsentrator, solar greenhouses, solar batteries have been considered. Solar applications have also been analyzed in areas such as salt water desalination, greenhouse efficiency, solar welding. It is noted that the climatic conditions of Uzbekistan provide a favorable basis for the widespread use of this energy source. At the end of the

article, the role of solar energy in environmental friendliness, energy economy and sustainable development is noted separately.

**Keywords:** solar energy, Heliotechnics, solar heaters, boiling box, salt water desalination, solar greenhouse, helioconsentrator, large solar furnace, environmentally friendly energy, energy saving, solar furnace, solar batteries, greenhouse efficiency, solar energy in welding, fresh water supply, energy independence.

**Kirish**

Bugungi kunda energetika sohasida yuzaga kelayotgan muammolar — yoqilg'i resurslarining kamayib borishi, energiya narxlarining ortishi hamda ekologik muhitga salbiy ta'sirlar tufayli, muqobil energiya manbalaridan oqilona foydalanish zarurati ortib bormoqda. Xususan, Quyosh energiyasi insoniyat uchun eng toza, barqaror va tugamaydigan energiya manbai sifatida alohida e'tiborni talab qiladi.

Quyoshdan Yerga yil davomida tushadigan nurlanish energiyasi insoniyat hozirgi davrda iste'mol qilayotgan umumiy energiyadan minglab barobar ortiqdir. Shu bois, bu ulkan tabiiy potensialdan foydalanish — global miqyosda ham, O'zbekiston sharoitida ham energetika mustaqilligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hurmatli prizidentimiz 27.03.2025 yildagi PF-63-son qarorida quyosh panellari, geliokollektorlar va issiqlik nasoslariga subsidiyalar ajratish bo'yicha bir nechta ko'rsatmalar berilgan.[1]

Maqolada Quyosh energiyasining fizik xossalari, uning turli sohalarda qo'llanishi, geliotexnik qurilmalarning ishlash prinsiplari va amaliy samaradorligi keng yoritiladi. Ayniqsa, past va yuqori haroratli isitish tizimlari, sho'r suvni chuchuklashtirish, issiqxonalarda qo'llanilishi, quyoshli payvandlash va yuqori haroratli texnologik

jarayonlar misolida ushbu energiya manbaining istiqbollari tahlil qilinadi. Shu orqali, Quyosh energiyasidan keng foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari va O'zbekiston uchun ahamiyati ochib beriladi.

**ASOSIY QISM.**

Olimlar insoniyat oxir-oqibatda energiyaning Yerdagi asosiy manbayi Quyoshga murojaat etishi kerak degan fikrni aytib keladi. Bir yil davomida Yer Quyoshdan taxminan $6 \cdot 10^{16} kW \cdot h$ nurlanish energiyasini oladi, bu butun insoniyat hozirgi vaqtda sarflayotgan energiyadan 20 ming martadan ko'proqdir. Uning 0,001 qismidan kamrog'idan o'simlik va odamlar foydalanadilar.

Energiyaning nurlanish manbayi sifatida Quyosh turli-tuman to'lqinlarni chiqaradi. Quyosh energiyasining katta qismi spektrning infraqizil sohasiga, deyarli yarmi spektrning $4 \cdot 10^{-7} m$ dan $7 \cdot 10^{-7} m$ gacha to'lqin uzunliklari sohasiga to'g'ri keladi. Bu energiya Yer yuziga ko'rinuvchan yorug'lik ko'rinishida yetib keladi.

Gelioqurilmalar yordamida yorug'lik energiyasidan foydalanish mumkin.

Sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishlarda temperaturasi 100°C gacha bo'lgan suv va havo kerak bo'ladi. Odam hayotiy zaruriyati (hammom, dush, kirxona) uchun uncha yuqori bo'lmagan temperaturali suvni ishlatadi. Bu maqsadda quyosh nurlanish energiyasidan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.




Turli ko'rinishdagi past temperaturali isitkichlarning samaradorligini ilmiy o'rganish «qaynoq quti» deb nomlangan isitkich eng manfaatliligini ko'rsatdi. Quti *(1)* yog'ochdan yasalgan bo'lib, uning ichiga (2) qoraytirilgan qoplama joylashtirilgan va *(3)* shisha plastina

(deraza oynasi) bilan yopilgan. «Qaynoq quti»da jarayon quyidagicha ketadi: quyosh nurlari spektrining qisqa toʻlqinli sohasi qoraytirilgan qoplama tomonidan yutiladi, qutining tubi esa issiq uzun toʻlqinli nurlarni chiqaradi, (3) shisha plastina bu nurlarni tashqariga oʻtkazmaydi. Natijada qutidagi havo isiydi, termoizolyator yordamida qutining devorlari va tubidan befoyda issiqlik sarfi kamaytiriladi. Qutini shunday joylashtirish kerakki, shisha qopqoqning sirtiga quyosh nuri tik tushish kerak. Yozda bunday qutida temperaturani 70—75°C gacha yetkazish mumkin. Agar 2—2,5 sm oraliq bilan ikkinchi shisha qopqoq qoʻyilsa, temperatura 95°C gacha koʻtariladi. Shisha qatlami 8 ta boʻlganda 210°C gacha temperaturani olish mumkin. Agar bunday qutini gorizontal joylashtirib, ichiga qoraytirilgan tunukadan yasalgan tova qoʻyilsa va unga suv quyilsa, suvning temperaturasi 60°C gacha koʻtarilishi mumkin.

Aniqlanishicha, choʻl va yarimchoʻl maydonlarning yarmi yer osti suv zaxirasiga ega ekan. Suv uncha chuqurda emas, uni chiqarish oson. Fizika-texnika institutining geliobazasida yaratilgan quyoshli batareya bilan ishlaydigan qurilmadan foydalanib yer osti suvni chiqarish mumkin. Lekin bu suvning shoʻrligi tufayli ishlatib boʻlmaydi. Okean va dengiz suvlari ham shunday suvlar hisoblanadi. Suv yaxshi erituvchi hisoblanadi. Okean va dengiz suvlarida oʻrtacha 35 $^{g}/_{l}$ gacha turli xil tuzlar bor. Qoraqumdagi yer osti suvida 22 $^{g}/_{l}$ gacha tuz erigan. Odam shoʻrligi $(1-1{,}5)$ $^{g}/_{l}$ boʻlgan suvni iste'mol qila oladi. Shuning uchun shoʻr suvni tuzsizlantirish katta ahamiyatga ega, chunki chuchuk suv zaxirasi sezilarli kamayib bormoqda. Suvni tuzsizlantirishning asosiy usuli dastlab uni



bug'lantirib, so'ng kondensatsiyalash (ya'ni, suvni haydash)dan iborat. Buning uchun ko'p yoqilg'i talab etiladi, shu sababli tuzsizlantirish qimmatga tushadi. Hozirgi vaqtda tuzsizlantirgichlarning turli konstruksiyalari ishlab chiqilgan, ularda issiqlik energiyasi sifatida quyosh radiatsiyasidan foydalaniladi. Qiya-pog'onali tuzsizlantirgich «qaynoq quti»dan iborat bo'lib, quti ichidagi mayda toshli beton pog'ona bo'yicha suv jildirab oqadi. Toshli pog'ona suvning bug'lanish sirtini, binobarin, qurilmaning unumdorligini oshiradi.

Xalqni yil bo'yi yangi sabzavotlar bilan ta'minlab turishda, issiqlikka talabchan sitrus o'simliklarni (apelsin, limon, mandarinlarni) yetishtirishda quyosh issiqxonasi muhim ahamiyatga ega.



Issiqxonalarni yoqilg'i bilan isitish qimmatga tushadi, daromadning 60—70% i faqat isitish uchun sarf bo'ladi. Shu sababli quyosh radiatsiyasi yil bo'yi yuqori bo'lgan tumanlarda issiqxonalarni quyosh energiyasidan foydalanib isitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Issiqxonaning FIK ni ko'tarish uchun, albatta, geliotexnika talablariga amal qilish lozim. Issiqxonaga tushayotgan yorug'lik energiyasidan to'laroq foydalanish uchun:

a) issiqxonaning oynaklangan tomoni aniq janubga qaratilgan bo'lishi kerak;

b) romlarning qiyaligini joyning geografik kengligiga teng qilib olish kerak;

d) issiqxonada kunduzi to'plangan quyosh issiqligidan kechki va tungi vaqtlarda foydalanish lozim.

Bizning yurtimiz sharoitida issiqxonaning ichidan qazib olingan tuproq uning shimol tomoniga to'kiladi, janub tomoni esa oyna solingan yoki shaffof parda bilan qoplangan romlar bilan berkitiladi. Ortiqcha issiqlik tuproq orqali o'tuvchi zovurlar yordamida tuproqda to'planadi.

Parniklar ham issiqxonaga o'xshagan, lekin ularda sabzavot ko'chatlari yetkaziladi va sabzavotlarni erta yetkazib berish uchun mavsumi kelganda bu ko'chatlar ochiq maydonga ekiladi.

Xalq xo'jaligida va turmushda nisbatan yuqori temperaturali hamda bosimli issiqlik energiyasi talab qilinadi. Masalan, ovqat pishirish uchun 100°C dan yuqori temperatura kerak; payvandlash va ba'zi metallarni eritish uchun 1000—2000°C, keramikani eritish uchun esa yanada yuqoriroq temperatura kerak bo'ladi. Bunday hollarda quyosh energiyasidan foydalanish uchun uni konsentratorlar yordamida to'plashga to'g'ri keladi.




Quyosh energiyasi konsentratorlari turli xil ko'zgular: silindrik, sferik, parabolasilindrik yoki konus shaklidagi ko'zgulardan, shuningdek, ko'zgu bo'lakchalaridan tashkil topgan faset ko'zgulardan iborat. Ba'zi hollarda konsentratorlarga quyosh energiyasi geliostat deb nomlangan yassi ko'zgular yordamida yo'naltiriladi.

Konus shaklidagi konsentrator ichki sirti ko'zgu qilib yasalgan va cho'qqisi to'g'ri burchakli konusdan iborat bo'lib, to'g'ri burchak- ning diagonali bo'yicha 1 silindrik qozon joylashtirilgan. Quyosh nurlari konusning ichki ko'zgu sirtiga 45° burchak ostida tushib, undan qaytgach, qozon devoriga perpendikulyar tushadi. Konusli konsentrator parallel nurlarni bir



nuqtaga emas, balki qozon bo'yicha fokal chiziq deb ataladigan chiziqda to'playdi.

Parabola silindrik konsentrator ichki sirti ko'zgusimon qaytaruvchi silindrik sirtning bir qismidan iborat. Bunday konsentratorda ham fokus nuqta bo'lmaydi, yorug'lik fokal chiziq bo'yicha to'planadi.

Quyosh energiyasidan materiallarni payvandlash va kavsharlashda ham keng foydalanish mumkin. Payvandlashning klassik usullariga, masalan, gaz alangasida va elektr yoyda payvandlashga qaraganda quyosh energiyasida payvandlash mutloq sterilliligi bilan, payvandlanayotgan buyumlarning elektr va magnit xossala- riga bog'liq emasligi bilan farq qiladi. Payvandlash quyosh qurilmalarining ishlash prinsipi juda oddiy: aniq paraboloid sirt yordamida konsentratsiyalangan quyosh energiyasi buyumlarning tutashgan joyiga yuboriladi va qirralarning erishi hisobiga chok hosil bo'ladi. Amaliy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday ishlar Fizika-texnika institutida akademik S.A. Azimov, muxbir a'zo G.E. Umarovlarning bevosita rahbarligida olib borilgan va ularning shogirdlari tomonidan olib borilmoqda. O'zbek olimlarining ilmiy izlanishlari natijasida 1000 kW quvvatga ega bo'lgan yirik geliotexnik qurilma - Katta quyosh pechi yaratildi va 1987- yilda Toshkent viloyatining Parkent tumanida ishga tushirildi. Qurilmaning fokusida 2700-3000°C gacha temperaturaga erishildi. Bu pechda fan hamda texnika uchun kerakli o'ta toza keramik mahsulot olish mumkin.[i]

**Xulosa.** Quyosh energiyasidan foydalanish bugungi kunda ekologik toza, tejamkor va barqaror energiya manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Quyosh nurlanishining ulkan salohiyati sanoat, qishloq xo'jaligi, turmush va ilmiy sohalarda muvaffaqiyatli

qo'llanilmoqda. Past haroratli isitkichlar, sho'r suvni chuchuklashtiruvchi qurilmalar, issiqxonalar, yuqori haroratli quyosh pechlari kabi geliotexnik uskunalar yordamida energiyadan to'laqonli foydalanish imkoniyati yaratilmoqda. Quyosh energiyasi yondiriladigan yoqilg'ilarga muqobil bo'lib, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan insoniyatning energiyaga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida quyoshli kunlar ko'pligi ushbu manbadan keng foydalanish uchun katta imkoniyat yaratadi. Shu bois, kelajakda quyosh energiyasini yanada kengroq joriy etish -energiya mustaqilligi va ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PF-63-son (27.03.2025) *Quyosh panellari va geliokollektorlar uchun subsidiyalar ajratish to'g'risida.*

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

3. Prezidentimizning PF-220-sonli farmoni va PQ-57-sonli va PQ-156-sonli qarorlari

4. **M.H. O'LMASOVA. Fizika optika, atom va yadro fizikasi . Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010- y.**

5. Azimov S.A., Umarov G.E. *Geliotexnika va quyosh energiyasidan foydalanish texnologiyalari*. Toshkent: Fan, 1990. (O'zbekiston sharoitida quyosh energiyasini qo'llash usullari va ilmiy asoslari haqida to'liq ma'lumotlar).

6. Kurskiy V.N. *Solar Energy Engineering*. New York: McGraw-Hill, 1982.

7. Duffie J.A., Beckman W.A. *Solar Engineering of Thermal Processes*. Wiley, 2013.

8. Kalogirou S.A. *Solar Energy Engineering: Processes and Systems*. Academic Press, 2009.

9.Vasilev V.V. *Solar Greenhouses: Theory and Practice*. Springer, 2005.

10. International Renewable Energy Agency (IRENA) *Renewable Energy Technologies: Cost Analysis Series*. 2021.

## OILAVIY NIZOLARNING PAYDO BO‘LISH SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

***Ravshanov Sobir Abdimalik o‘g‘li***
Guliston davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
**Tel**: +998999144472

***Raxmatullayeva Malika Abduazim qizi***
Guliston davlat universiteti
Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
**Tel**: +998930861007

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oilaviy nizolar va ularning kelib chiqish sabablari hamda bartaraf etish masalalari rivojlantrishdagi jarayonlar haqida fikrlar va ularning yechimlari haqida masalalar keltrilgan.

**Kalit so‘zlar:** oila, talabalar, kishi ruhiyati, konfilikt, insonlar psixologiyasi, idrok, tafakkur, xulq-atvor, kogntiv jarayonlar, oyilaviy ajrimlar nizolar.

**Аннотация:** В статье представлены представления о процессах развития семейных конфликтов, их причинах и проблемах устранения, а также о методах их решения.

**Ключевые слова:** семья, студенты, психика человека, конфликт, психология человека, восприятие, мышление, поведение, когнитивные процессы, семейные разлуки, конфликты.

**Abstract:** This article presents ideas about the processes of development of family conflicts and their causes and elimination issues, as well as issues of their solutions.

**Keywords:** family, students, human psyche, conflict, human psychology, perception, thinking, behavior, cognitive processes, family separations, conflicts.

Har qanday oila o'z hayoti davomida muammoli vaziyatlarga duch keladi, ularni hal qilish qarama-qarshi individual ehtiyojlar, motivlar va manfaatlar sharoitida amalga oshiriladi. Ziddiyat qarama-qarshi maqsadlar, manfaatlar, pozitsiyalar, fikrlarning to'qnashuvi sifatida tavsiflanadi. Oilaviy mojarolar nizolarga bo'linadi: turmush o'rtoqlar, ota-onalar va bolalar, har bir turmush o'rtog'ining turmush o'rtog'i va ota-onasi, buvisi va buvasi. Oilaviy munosabatlarda oilaviy nizolar asosiy rol o'ynaydi. Ular, ehtimol, turmush o'rtoqlarning ehtiyojlarini qondirmaslikdan kelib chiqadi.Tashqi omillar oilaviy nizolarning paydo bo'lishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda: ko'p oilalarning moddiy ahvolining yomonlashishi; turmush o'rtoqlardan birining (yoki ikkalasining) ish joyida ortiqcha ish bilan ta'minlanishi; turmush o'rtoqlardan birini normal ish bilan ta'minlashning iloji yo'qligi; uylarining uzoq vaqt yo'qligi; bolalarni uyushtirish uchun imkoniyat yo'qligi bolalar muassasasi va boshqalar. Ko'pchilik uchun ajralish dushmanlikdan, yoqtirmaslikdan, aldashdan va ularning hayotini

qoraytirgan narsalardan xalos qiladi. Albatta, bu ham salbiy oqibatlarga olib keladi. Ular ajralishlar, bolalar va jamiyat uchun har xil. Ajralishda eng zaif tomon odatda bolalari bo‘lgan ayoldir. U ko‘proq asab-psixiatrik kasalliklarga moyil odam.

Olimlarning fikricha, oilaviy nizolarning kelib chiqishiga ayrim erlarning ishga mukkasidan ketishi, xotining e’tiborsizliklari, uy-ro‘zg‘or ishlariga, bola tarbiyasi va boshqalarga e’tiborsizligi sabab bo‘larkan. Darhaqiqat, ayrim erkaklar o‘z uylarini bir yotoqxonaday tasavvur qiladilar. Bundan tashqari erlarning xotinlariga nisbatan qiladigan eng yomon ishi xiyonat sababli ham nizolar kelib chiqadi.

Ayollarning ko‘pchiligi uchun uy, oila, turmush butun bir olam, ishga borayotib ham oila haqida o‘ylaydi, qaytishda esa bozorga kir, bog‘chaga chop, ovqat qil kabilar. Ayollar ko‘pincha ishda o‘zlarini "Mehmondek" his qilishadi: ayniqsa, dushanba kunlari, erlar esa buning aksi, ular uyda o‘zlarini xo‘jayindek his etadilar. Divanga yonboshlab gazeta o‘qiydilar, televizor ko‘radilar. Madaniy dam olish deb shuni tushunadilar, ayollar ishdan oilaga shoshilsa, erkaklar uydan ishga qochishadi. Xotiniga bir og‘iz shirin so‘zni ayab, ishxonadagi ayollar bilan og‘izdan bol tomib gaplashishadi.

**2. Oilaviy nizolar sabablari**. Unga "taxt talashuv" ham sabab ekan. Er-xotin yoshi o‘rtasidagi farq kichik masalan, 5-8 yosh emas 2-3 yosh bo‘ladi. Ayrim ayollar o‘zlarini erlaridan aqlliroq ko‘rsatib yashaydi, ayrim hollarda ovozi ko‘tarilib do‘q urushgacha yetib boradi.

Oilaviy nizolarda ko‘pincha kelinlarning uy-ro‘zg‘or ishlariga tayyor emasligi, uy bekaligini bajaraolmasligiga sabab bo‘lishi mumkin ekan. Masalan, shahar joylarda qizlarni sport, musiqa, badiiy to‘garaklarga ko‘p vaqt ajratishi natijasida uy-ro‘zg‘or ishlariga no‘noq bo‘lib qolishlari mumkin. Qizbola ota-ona uyidaligida ovqat qilish,

dasturxon yozish, mehmon kutish, uyni toza tutishni yaxshi o'rgansa, hayotda qiynalmaydi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytilmagan.

Oy ko'rish vaqtidagi ruhiy holatlar ham hisobga olinishi lozim. Oilaviy nizolar bolalar tarbiyasi tufayli ham kelib chiqishi mumkin. Bola tarbiyasida ota-ona bir fikrda turishlari lozim. Ba'zi oilalarda ona bolasini ursa, jazolasa, ota o'z himoyasiga oladi yoki aksincha. Ota onalarining bunday zaif tomonlarini payqab olgan bola goh otadan, goh onada himoya qidiradi, natijada bunday ota-onalarning tarbiyasi bolasi uchun ta'sir kuchini yo'qotadi. Bolada o'z xulq-atvori, xatolariga tanqidiy qarash shakllanmaydi.

O'zini goh ota, goh ona tomonidan asosiz jazolarigan hisoblaydi.

Ba'zan bola o'zi bir chetda qolib er-xotin o'zlarining haq ekanliklarini isbotlashga tushadilar. Ayrim ota yoki ona bolani o'ziga yaqinroq qilib olishga harakat qiladilar. Masalan, ona bolada otaga nisbatan salbiy munosabatni shakllaritiradi, bunday hollarda otaning obro'siga putur yetadi.

Bunday bolalar ulg'aygach ota yoki onaga qo'l ko'tarishgacha borib yetishi mumkin. Er-xotin janjallashganlarida esa "Mana sening tarbiyang natijasi" deya bir-birlariga ta'na qiladilar.

Oilaviy nizolarning navbatdagi sababi, er-xotinning jinsiy hayotda asab sistemalarining turlicha bo'lishi mumkin. Masalan er "boyo'g'li", xotin esa "zag'cha" erta yotib, erta turadi, boyo'g'li esa teskarisi kech yotib kech turadi.

Bir-birini tushunmaslik oqibatida kelib chiqadigan janjallar bunday oilalarning hatto ajralib ketishiga olib kelishi mumkin.

Oilaviy nizolarning ko'pi farzandsizlik tufaylidir. Yillar o'tib, bola ko'rmagan er-xotin, farzand, baxtiyor ota-onalarni ko'rganda ruhan

eziladilar. Ota-onalar, tanish-bilishlar bunday oilalar orasiga sovuqchilik tushira boshlaydilar.

Oilaviy nizolarning yana bir sababi rashkdir. Rashkni yuzaga keltiruvchi sabablarni ruhiyatshunoslar taxminan 2 guruhga bo'ladilar: Birinchi sababi shaxsiy tajriba orqali paydo bo'ladi, xalqona aytganda "Har kim o'z qarinchi bilan o'lchaydi". Bunda erkak yoki ayoldan biri o'zi vafosizlik qilib, o'z juftini ham shubha ostiga oladi. O'z tajribasidan kelib chiqib xiyonatni ham osongina tasavvur qiladi.

Ikkinchi sabab bu o'zgalar tajribasini ko'rib, paydo bo'ladi. Ota-onalarning, hamkasblarning vafosizligi, er-xotin vafosizligi to'g'risidagi yaqin do'stlar va dugonalar orasida bo'lib o'tgan gaplar, turli latifalar, ayrim kishilarga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularda "barcha erkaklar yoki ayollar vafosiz" degan fikrning shakllanishi va ongida mustahkam o'rnashib qolishiga olib keladi.

Shifokorlar kasalliklar sababini o'rganar ekanlar, ko'p kasalliklar oilaviy janjallar tufayli vujudga keladigan asabiy holatlardan boshlanishini aniqlaganlar. Ularning aniqlanishicha infarkt va insultlarning yarmi oilaviy janjallardan so'ng yuz bergan.

**3. Ruhiyatshunos maslahatlari.** Quyidagi maslahatlarni bilish va undan foydalanish har bir er-xotin uchun zarur deb biladilar.

- Jahlga jahl bilan javob bermaslik kerak. Iloji boricha janjalni bir oz kechiktirish lozim.

- Munozarada daxlsiz narsalarni, shuningdek o'tmishni eslamasdan, faqat janjal boisi bo'lgan mavzu ustida gapirish lozim. Janjalda ehtiroslarni jilovlash, ovoz ko'tarmaslik zarur. Masalani tahlil qilganda er ham, xotin ham o'z aybiga iqror bo'lishi lozim.

- Munozarani janjalga aylantirib yubormaslik lozim, chunki munozarada sabab birgalikda axtariladi. Janjalda esa ikki tomon bir-birlarining nozik joylarini topib, nayza sanchishga tushadilar.

- Munozara yoki janjalda er-xotin, ota-ona, qarindosh urug', do'stlar, tanishlarning o'zlariga nisbatan salbiy baholarini tilga olmaslik kerak, uni bir-birlariga qarshi qurol qilib ishlatmaslik kerak.

- Munozara va janjallardan keyin jahl ustida ota-ona yoki do'stlarinikiga ketib qolishni odat qilmaslik kerak.

- Munozaralarning mazmunini ota-onalarga aytib ko'ngil bo'shatish, ota-onalardan himoya qidirish ham yaxshi emas, er-xotin urushi doka ro'mol qurishi bo'lsa, ota-onalar ancha vaqtgacha unuta olmaydilar, tunlarni bedor o'tkazadilar, tinchliklari buziladi, qolaversa uydagi sirni ko'chaga chiqarish hech qanday yaxshilikka olib kelmagan, olib kelmaydi ham.

- Munozara va janjallardan keyin gaplashmay arazlab yurish yarashmaydi. Sal narsaga qovoqni solib yurmaslik kerak.

- Qorni och yoki ishdan cbarchab kelgan odam bilan hech vaqt munozaraga kirishish tavsiya etilmaydi. Bunday paytda odam tutoqib ketishi mumkin.

- Birso'zlilik yoki baqinb gapirish ayol kishining quroli bo'lolmaydi. Ayollarning kuchi uning zaifligida, nozik-latifligida, boringki ayolligida, ko'ngilchangligidadir.

- Munozara va janjallarda uzil-kesil xulosa chiqarishga oshiqmaslik kerak.

- Juftimizni hayotiy qadriyatlariga qarshi chiqmaslik lozim.

Umuman olganda, oilaviy hayotdagi munozara va janjallarda g'olib ham, mag'lub ham bo'lmaydi. Er-xotin birgalikda yutadilar yoki

yutqizadilar, shuni unutmaslik lozim. Oilada kim yetakchi, irodali, sabrli bo'lsa o'sha birinchi bo'lib murosaga qo'l uzatadi.

Xotin haqiqatda erining himoyasida bo'lsa, albatta erning qadriga yetishi lozim. Uning yaxshiliklarini xotindan chiqarmasdan, arzimas aybi uchun o'zidan xafa qilmog'i to'g'ri emas. Qay xotin shunday xatti-harakat qilsa, erining muhabbati unga ziyoda bo'lib, umri xursandchilikda o'tadi, bu dunyo va oxiratda mamnun bo'ladi. Ibn Abbos (r.a) dedilar "Nabiy alayhissalom dedilar: Menga do'zax olovini ko'rsatdilar, u yerdagilarni aksan noshukur ayollar edilar".

Ashob so'radilarki: "Yo Rasullolloh, bu ayollar xudoga nisbatan noshukurlik qildilarmi?" Hazrat javob berdilar: "Ular o'z erlariga noshukurlik qilganlar. Agarda ularga bir umr yaxshilik ko'rsatsanggu arzimas ayb sendan o'tsa, noshukur xotin "Men sendan hech bir yaxshilik ko'rmadim deb aytadi" deydilar Paygamhar (s.a.v.) deydilar.

"Qaysi bir ayol o'lsa, eri undan rozi bo'lgandagina jannatga kiradi".

Tekshirishlar natijasiga ko'ra kuyov qishloqlik bo'lsa, kelin shaharlik bo'lsa nizolar ko'p bo'ladi. Agar aksincha ya'ni kuyov shaharlik, kelin qishloqlik bo'lsa ijobiy hal bo'ladi.

Ota-onalar moddiy jihatdan ta'minlanishi ham iloji boricha teng bo'lishi kerak. Agar "Qiz bersang bir pog'ona yuqoriga ber, qiz olsang bir pog'ona past ol" maqoliga amal qilinsa ham yaxshi.

Bundan tashqari erning ma'lumot va madaniyat, saviyasi xotindan yuqon yoki teng bo'lishi kerak. Agar buning aksi bo'lib xotinning ma'lumoti erinikidan yuqori bo'lsa nizolar ko'proq uchraydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. D. Levinson. "Madaniyatiararo nuqtai nazardan oiladagi zo'ravonlik". Newbury Park, Kalifomiya: Sage. (1989)

2. H. Makkubbin, S. Figli, "Stress va oila: Normativ oʻtishlar bilan kurashish". Nyu-York: Bruner / Mazel. (1983)

3. S. Pavlina. "Oilaviy munosabatlarning muammolarini tushunish" (2006).

4. V. V. Kunitskaya. "Oilaviy nizolar va ularni hal etish yoʻllari" Ijtimoiy oʻqituvchi . (2017)

## YOSHLAR ONGIDA VATANPARVARLIK TUYGʻULARINI UYGʻOTISHNING OʻZIGA XOSLIK XUSUSIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

***Xamrakulov Oʻtkirjon Maxmudovich***
Fargʻona Davlat Universiteti,
falsafa fanlari boʻyicha izlanuvchi
**Tel:** 97 965 60 50
**E-mail:** hamrakulovutkirzon@gmail.com

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada yoshlar ongida Vatanparvarlik tuygʻularini uygʻotishdagi oʻziga xoslik xususiyatlari hamda bu jarayonni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada Vatanparvarlik tarbiyasining tarixiy, ijtimoiy va maʼnaviy mezonlari, shuningdek, zamonaviy sharoitda yoshlar ongiga taʼsir qiluvchi asosiy omillar muhokama qilinadi. Pragmatik va konseptual yondashuvlar orqali amaliy takliflar ilgari suriladi.

**Аннотация.** В статье анализируются особенности пробуждения патриотических чувств в сознании молодёжи, а также научно-теоретические основы совершенствования этого процесса. Рассматриваются исторические, социальные и духовные критерии

патриотического воспитания, а также основные факторы, влияющие на сознание молодёжи в современных условиях.

Практические предложения выдвигаются с использованием прагматических и концептуальных подходов.

**Annotation.** The article analyzes the features of awakening patriotic feelings in the consciousness of young people, as well as the scientific and theoretical foundations for improving this process. Historical, social and spiritual criteria of patriotic education are considered, as well as the main factors influencing the consciousness of young people in modern conditions. Practical proposals are put forward using pragmatic and conceptual approaches.

**Kalit so'zlar:** Vatanparvarlik, yoshlar, ong, milliy qadriyat, tarbiya, ijtimoiy-falsafiy tahlil, milliy g'oya.

**Ключевые слова:** Патриотизм, молодежь, сознание, национальная ценность, образование, социально-философский анализ, национальная идея.

**Key words:** Patriotism, youth, consciousness, national value, education, socio-philosophical analysis, national idea.

**Kirish**

Har bir millatning barqarorligi va taraqqiyoti, avvalo, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga, ayniqsa, ularda Vatanga muhabbat, sadoqat va fidoyilik tuyg'ularining shakllanishiga bog'liq. O'zbekistonda ham yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida Vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo globallashuv sharoitida yoshlar ongidagi qarashlar va afzalliklar tez o'zgarmoqda, shu boisdan Vatanparvarlikni shakllantirish usullarini ham takomillashtirish talab etiladi.

Har bir millatning barqarorligi va taraqqiyoti, avvalo, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga bog'liq. Ayniqsa, yoshlarda Vatanga muhabbat, unga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish orqali jamiyatning ma'naviy poydevori mustahkamlanadi. Bu esa nafaqat bugungi kunning, balki kelajak avlodning ham barkamol shaxs sifatida voyaga yetishida hal qiluvchi omil sanaladi.

**Asosiy qism. Vatanparvarlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati**

Vatanparvarlik — bu faqat tuyg'u yoki muhabbat emas, balki shaxs ongidagi faol ijtimoiy pozitsiya, fidoyilik va mas'uliyatning ifodasidir. Falsafiy nuqtai nazardan Vatanga bo'lgan munosabat insonning o'zligini anglash jarayonida asosiy o'rin tutadi. Bu tuyg'u faqat ta'lim orqali emas, balki milliy an'analar, tarixiy xotira, urf-odatlar va ijtimoiy muhit orqali ham shakllanadi.

Vatanparvarlik – bu insonning o'z Vataniga bo'lgan muhabbati, sadoqati va uning ravnaqi uchun fidokorona xizmat qilishga tayyorligi bilan tavsiflanadigan yuksak ma'naviy-axloqiy tuyg'udir. U millat, davlat va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni hurmat qilish asosida shakllanadi. Vatanparvarlik faqat hissiy holat emas, balki chuqur falsafiy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy jarayondir.

**Vatanparvarlikning ijtimoiy mohiyati**

Ijtimoiy nuqtai nazardan vatanparvarlik:

- jamiyat a'zolari o'rtasida birdamlikni, millat va davlat atrofida birlashishni ta'minlaydi;
- umummilliy maqsadlar sari harakat qilishni rag'batlantiradi;
- yosh avlod tarbiyasida muhim omil sifatida xizmat qiladi;
- ijtimoiy barqarorlik va milliy xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Shu jihatdan vatanparvarlik jamiyatning ma'naviy ustuni sifatida namoyon bo'ladi.

## Vatanparvarlikning Falsafiy mohiyati

Falsafiy jihatdan vatanparvarlik:

- insonning o'zligini, shaxsiy va milliy o'ziga xosligini anglash bilan bog'liq;
- "men" va "biz" tushunchalari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlovchi ma'naviy bog'lovchi vosita;
- insonning Vatan, jamiyat, xalq, tarix, qadriyatlar va kelajak oldidagi mas'uliyatini anglatadi;
- ong va ma'rifat darajasi bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan vatanparvarlik insonning ezgu maqsadlarga intilishi, ma'naviy kamolot sari harakat qilishidagi asosiy ma'naviy manbadir.

Vatanparvarlik – bu yuksak ma'naviy va falsafiy qadriyat bo'lib, u faqat tarixiy xotira emas, balki jamiyatning kelajagi, uning barqarorligi va taraqqiyoti uchun zarur ruhiy-ma'naviy poydevordir. Uning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini teran anglash va unga asoslangan tarbiyani amalga oshirish bugungi kunda har bir fuqaro va davlat uchun muhim vazifa sanaladi

## Yoshlar ongidagi o'ziga xoslik xususiyatlari

Bugungi yoshlar axborotlashgan, tezkor o'zgaruvchan dunyoda hayot kechirmoqda. Ulardagi Vatanga nisbatan munosabat individual tafakkur, emotsional ta'sir va ijtimoiy media orqali shakllanadi. Shu bois, ularning ongiga ta'sir o'tkazishda an'anaviy uslublar bilan birga interaktiv, zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Yoshlar – har qanday jamiyatning faol, yangilikka intiluvchan va taraqqiyotga muhtoj qatlami hisoblanadi. Ularning ongidagi o'ziga xosliklar nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki butun jamiyatning kelajagiga ham ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar ongidagi o'ziga xoslik deganda, ularning tafakkuri, dunyoqarashi, qadriyatlarga bo'lgan munosabati va ijtimoiy faolligi kabi jihatlarni tushunish mumkin.

**Yoshlar ongidagi o'ziga xoslik xususiyatlari:**

Idealizm va orzuqoshlik: Yoshlar aksar holda hayotga romantik, orzuviy nuqtai nazardan qaraydilar. Ular kattalarga nisbatan kelajak haqida ko'proq orzu qilishadi va o'zlarining jamiyatdagi o'rnini yaxshilashga intiluvchan bo'ladilar.

Tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish: Zamonaviy yoshlar axborot manbalarining ko'pligi tufayli voqelikka nisbatan tanqidiy qarashni shakllantirmoqdalar. Bu esa ularda mustaqil fikr va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Texnologik ong ustunligi: Sifrovizatsiya davri yoshlar ongida axborotni tez anglash, tahlil qilish va o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirdi. Ularda raqamli tafakkur, innovatsion yondashuv va internet madaniyati ustuvorlik kasb etmoqda.

Ijtimoiy adolatga intilish: Yoshlar ko'p hollarda jamiyatdagi kamchiliklarga befarq bo'lishmaydi. Ular inson huquqlari, tenglik, imkoniyatlar yaratilishi kabi masalalarga nisbatan faol munosabatda bo'ladilar.

Individuallik va shaxsiy erkinlikka intilish: Bugungi yoshlar o'zligini anglash, shaxsiy rivojlanishga erishish, erkin fikr bildirishga katta e'tibor qaratadi. Bu esa ularning ongida individuallik va o'zini boshqalardan farqli etib ko'rish ehtiyojini shakllantiradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar oʻrtasidagi muvozanat: Yoshlar bir vaqtning oʻzida milliy an'analarga muhabbat va global dunyoqarashni uygʻunlashtirishga harakat qilishadi. Ular oʻz milliy ildizlariga tayangan holda dunyo maydonida oʻz oʻrnini topishga intilmoqda.

Yoshlar ongidagi oʻziga xosliklar – ularning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va intellektual faolligiga ta'sir qiluvchi muhim omildir. Davlat va jamiyat tomonidan yoshlar ongidagi ushbu xususiyatlarni toʻgʻri yoʻnaltirish va qoʻllab-quvvatlash, ularda ijobiy dunyoqarash va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, yoshlar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlar, psixologik va ijtimoiy mexanizmlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Vatanparvarlik tuygʻusini uygʻotishdagi asosiy mexanizmlar**

1. Ta'lim tizimi orqali: Maktab va oliy ta'lim muassasalarida milliy gʻoya, tarix, madaniyat va fuqarolik ta'limini chuqurlashtirish.

**Sizning fikringiz** – "Ta'lim tizimi orqali: maktab va oliy ta'lim muassasalarida milliy gʻoya, tarix, madaniyat va fuqarolik ta'limini chuqurlashtirish" – bugungi kunda juda muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu mavzu yuzasidan maqola yoki tezis yozish uchun quyidagi tarzda kengroq bayon etish mumkin:

Ta'lim tizimi orqali milliy gʻoya, tarix, madaniyat va fuqarolik ta'limini chuqurlashtirishning ahamiyati

Bugungi kunda jamiyatni ma'nan yuksaltirish, yoshlarda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va milliy gʻurur tuygʻularini shakllantirishda ta'lim tizimi yetakchi omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Ayniqsa, maktab va oliy ta'lim muassasalarida milliy gʻoya, tarix,

madaniyat hamda fuqarolik ta'limini chuqurlashtirish orqali barkamol avlodni tarbiyalash mumkin.

**Milliy g'oya va tarix ta'limi:**

O'quv dasturlariga milliy g'oya va istiqlol g'oyasini singdirish, O'zbekiston tarixini xolis va chuqur o'rgantirish orqali yosh avlodda o'z millatining o'tmishiga nisbatan hurmat va iftixor tuyg'usi shakllanadi.

**Milliy g'oya va tarix ta'limi**

Har qanday millatning o'zligi, mustaqilligi va barqarorligi, avvalo, uning tarixiy xotirasi va milliy g'oyasi bilan uzviy bog'liqdir. Milliy g'oya millatning hayot falsafasi, maqsad va intilishlarini ifoda etuvchi ruhiy-ma'naviy poydevordir. Bu g'oya yosh avlod ongiga singdirilishi uchun eng samarali vositalardan biri tarix ta'limidir. Tarix fani nafaqat voqealar ketma-ketligini o'rgatadi, balki vatanparvarlik, fidoyilik va millatga sadoqat tuyg'ularini shakllantiradi.

**Asosiy g'oyalar**

**Milliy g'oyaning mazmuni va ahamiyati**

Milliy g'oya — millatni birlashtiradigan, uning istiqbolini belgilaydigan mafkuraviy asos. Uning asosida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ma'naviy meros, davlatchilik an'analari yotadi.

**Tarix ta'limi — milliy g'oyani singdirish vositasi sifatida**

Ta'lim jarayonida tarix fanini faqat ma'lumot manbai sifatida emas, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega fan sifatida qarash lozim. O'quvchi tarixiy shaxslar faoliyati, milliy qahramonlar misolida vatanparvarlikni anglaydi.

O'quv jarayonida milliy g'oya va tarix uyg'unligi

Tarix darslariga milliy g'oya bilan bog'liq mavzularni kiritish, interfaol metodlar orqali muhokamalar o'tkazish, tarixiy hujjatlar, video va fotomateriallardan foydalanish bu jarayonni yanada samarali qiladi.

## Yoshlarda milliy tafakkurni shakllantirish

Milliy g'oya va tarix ta'limi orqali yoshlarda o'zligini anglash, mustaqil fikrlash, o'z yurti va xalqiga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otish mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlod ongida milliy tafakkurni shakllantirish jamiyatning barqarorligi, davlat suvereniteti va milliy qadriyatlarni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy tafakkur — bu millatga xos dunyoqarash, tarixiy xotira, ma'naviy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar majmuasidir. Uni shakllantirish har bir fuqaroning Vatanga bo'lgan sadoqati, o'zligini anglashi va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishiga zamin yaratadi.

### Milliy tafakkur tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

**Milliy tafakkur** — xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy dunyosi, madaniyati va an'analarini aks ettiruvchi, muayyan umumiy qarashlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy ruhiy holatdir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

**Tarixiy xotira** – milliy o'tmishni, buyuk ajdodlarni tan olish va ulug'lash.

**Madaniy meros** – xalq og'zaki ijodi, adabiyot, san'at, arxitektura.

**Milliy qadriyatlar** – oila, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat va boshqalar.

**Ijtimoiy ong** – milliy manfaatlar, umummilliy g'oyalarga ishonch.

### Milliy tafakkurni shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni

Yoshlar ongida milliy tafakkurni shakllantirish jarayonida ta'lim muassasalari hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu jarayonda:

Darslik va o'quv dasturlari milliy mazmundagi materiallar bilan boyitilishi lozim;

O'qituvchilar milliy ruhdagi tarbiyani beruvchi asosiy shaxslar sifatida tayyorlanishi;

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali yoshlarda milliy g'urur va faxr tuyg'usi shakllantirilishi kerak.

**Ommaviy axborot vositalari va Internetning ta'siri**

Axborot makoni orqali yoshlar turli xil g'oyaviy ta'sirlarga duch kelishadi. Shu bois:

Milliy ruhdagi kontentlarni ko'paytirish;

Yosh blogerlar, jurnalistlar va ijodkorlarni milliy g'oyalar bilan ruhlantirish;

Sotsial tarmoqlarda milliy qahramonlar, tarixiy voqealar haqidagi ma'lumotlarni ommalashtirish maqsadga muvofiq.

**Oila va jamoatchilikning ishtiroki**

Milliy tafakkur asoslari avvalo oilada shakllanadi. Ota-onalar o'z farzandlariga:

Madaniy va diniy an'analarni o'rgatishi;

Milliy bayramlar va marosimlar mohiyatini tushuntirishi;

Fuqarolik javobgarligi, Vatanga sadoqat kabi xislatlarni singdirishi zarur.

**Milliy tafakkurni shakllantirish** — bu faqat bir sohaning emas, balki butun jamiyatning umumiy vazifasidir. Ta'lim, oila, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari va davlat siyosatining uyg'unligidagina bu jarayon samarali kechadi. Milliy tafakkurga ega yoshlar esa kelajakda Vatan ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan va o'z millatining iftixori bo'lgan shaxslarga aylanadi.

**Madaniyat va an'analarni o'rgatish:**

Ta'lim jarayonida xalqimiz madaniyati, urf-odatlari va milliy merosi haqidagi bilimlar alohida o'rin tutishi kerak. Bu orqali talabalarda milliy identifikatsiya hissi mustahkamlanadi.

**Fuqarolik ta'limi:**

Fuqarolik jamiyati asoslarini o'rgatish, huquq va majburiyatlar haqida to'liq bilim berish orqali yoshlar mas'uliyatli fuqaro sifatida kamol topadi. Bu ularning faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

**Integratsiya va zamonaviy yondashuv:**

Mazkur bilimlar faqat alohida fanlar doirasida emas, balki barcha o'quv predmetlarida integrativ tarzda berilishi maqsadga muvofiq. Masalan, adabiyot, san'at, jismoniy tarbiya, geografiya kabi fanlarda ham milliy qadriyatlarni aks ettirish mumkin.

2. Oila muhiti: Vatanparvarlik tarbiyasida oilaning hissasi beqiyos. Ota-onaning shaxsiy namunasi bola ongiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi.

3. Media va madaniyat: Milliy qahramonlar obrazi, tarixiy filmlar, madaniy tadbirlar orqali yoshlar qalbida g'urur uyg'otish.

4. Fuqarolik jamiyati institutlari: Yoshlar tashkilotlari, volontyorlik harakatlari, harbiy-vatanparvarlik tadbirlari.

## Pragmatik yondashuvlar va takliflar

Vatanparvarlikni real hayot misollari orqali anglatish. Masalan, hayotdagi oddiy insonlarning fidoiylik namunalarini yoshlarga yetkazish.

Ijtimoiy tarmoqlarda patriotik kontentni ko'paytirish, ayniqsa yoshlar ko'p foydalanadigan platformalarda.

Yoshlar orasida fikr yetakchilarini shakllantirish: ular orqali g'oyalarni ommalashtirish.

O'quv dasturlariga tahlilli o'yinlar, interaktiv muhokamalar, hayotiy ssenariylar asosidagi mashg'ulotlarni joriy etish.

**Xulosa**. Vatanparvarlik tuyg'usi insonning ongi va qalbida o'z-o'zidan shakllanmaydi — bu uzviy ravishda maqsadli tarbiya, ta'sirchan muhit va faol fuqarolik pozitsiyasi natijasida vujudga keladi. Yoshlar ongida bu tuyg'uni uyg'otishda zamonaviy yondashuvlar, ijtimoiy-ruhiy xususiyatlarni hisobga olish va maqsadli targ'ibot ishlarini olib borish alohida ahamiyatga ega. Maqolada ko'rsatilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga tatbiq qilinsa, yoshlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat yanada mustahkamlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdullayev, E. (2020). O'zbekistonda yoshlar siyosati: muammo va yechimlar. Toshkent: "Fan".

2. Karimov, I. A. (1997). Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: O'zbekiston.

3. Ҳасанов, С. (2022). "Ватанпарварлик тарбиясининг замонавий асослари". Ижтимоий фанлар, №3.

4. Ziyoev, Sh. (2023). "Milliy qadriyatlar va yoshlar ongi". Falsafa va hayot, №4.

5. APA (2020). Publication Manual of the American Psychological Association (7th ed.). Washington, DC: APA.

6. Xamrakulov O'.M. (2025).Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning konseptual jihatlari, 95-100.

7. Xamrakulov O'.M. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda pragmatik yondoshuvlar, 110-115.

8. Xamrakulov O'.M. (2025). Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarni o'rni, 53-57.

9. Khamrakulov Utkirjon. (2025) MakhmudovichSocial And Philosophical Factors In Enhancing The Sense Of Patriotism Among Youth, 1-8.

10. Khamrakulov Utkirjon. (2025) Specific Features of Instilling Patriotic Feelings in Youth, 443-447.

11. Xamrakulov O'.M. (2025). Yoshlarda Vatanparvarlik Tuyg'usini Yuksaltirishning Ijtimoiy-Falsafiy Omillari, 263-264.

12. Хамракулов У. М. (2025). Социально-философские факторы укрепления чувства патриотизма у молодежи, 122-129.

## OILADA ZO'RAVONLIK TURLARI VA OQIBATLARI

***Murodova Nilufar Anvar qizi***
O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
Psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti talabasi
**Tel:**+998938263772
**E-mail:** murodovanilufar556@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola oilaviy muhitda sodir bo'layotgan zo'ravonlik holatlarini chuqur psixologik tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda zo'ravonlikning asosiy turlari – jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy shakllari alohida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Oiladagi zo'ravonlik, jismoniy va ruhiy tazyiq, psixologik yordam, kognitiv-hulqiy terapiya, oilaviy psixotera-piya, gender tenglik, ijtimoiy profilaktika, zo'ravonlik oqibatlari, reabilitatsiya markazlari, huquqiy himoya.

**Аннотация:** Статья посвящена углублённому психологическому анализу случаев насилия в семье. Отдельно

рассматриваются основные виды насилия – физическое, психологическое, сексуальное и экономическое.

**Ключевые слова:** Домашнее насилие, физическое и психологическое давление, психологическая помощь, когнитивно-поведенческая терапия, семейная психотерапия, гендерное равенство, социальная профилактика, последствия насилия, реабилитационные центры, правовая защита.

**Abstract:** This article is devoted to an in-depth psychological analysis of cases of violence occurring in the family environment. It separately considers the main types of violence - physical, psychological, sexual and economic forms.

**Keywords:** Domestic violence, physical and psychological pressure, psychological assistance, cognitive-behavioral therapy, family psychotherapy, gender equality, social prevention, consequences of violence, rehabilitation centers, legal protection.

Globallashuv davri insoniyat oldiga katta imkoniyatlar bilan birga murakkab sinovlarni ham qo‘ymoqda. Masalan, jamiyatimizning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oila institutiga salbiy ta’sir qilayotgan omillar ko‘paydi. [1]

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirobod tumanlararo sudi raisi Behzod Sagatov oila instituti, unga salbiy ta’sir qilayotgan holatlar haqida o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashdi:

– Oila millatning ma’naviy poydevori, farzandlarning sog‘lom voyaga yetishi uchun muhim qo‘rg‘ondir. Shuning uchun ham azaldan xalqimiz oilani muqaddas bilib, tarbiyaning eng muhim maskani sifatida qadrlagan. Ammo bugungi globallashuv sharoitida oilalarda ham turli muammo va o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. [2]

BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi ayollarning taxminan 70 foizi hayoti davomida zo'ravonlikni boshdan kechirgan. Erkaklar ko'pincha turmush o'rtog'i, ota onasi, farzandlari, xonadoshlariga nisbatan tajavvuzkorlik namoyon etsa, ayollarda esa asosan, ota-onalar va bolalarga nisbatan kuzatiladi. Turmush o'rtog'i va sherigiga nisbatan zo'ravonlik kamdan-kam holatlarda qayd etiladi. Oiladagi zo'ravonlikning bir necha turlari mavjud: jismoniy, jinsiy, psixologik va iqtisodiy. [3]

Jismoniy zo'ravonlik - bu jabrlanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir o'tkazish, jismoniy zarar yetkazish maqsadida, kaltaklash, tan jarohati yetkazish, tanaga og'ir shikast yetkazish, kaltaklash, turtish, tepish, tarsaki ko'rinishida bo'ladi

Jinsiy zo'ravonlik - bu odam o'z xohishlariga qarshi jinsiy aloqada bo'lishga majbur qilish, tahdid qilish yoki aldangan paytdagi zo'ravonlik harakati.

Psixologik zo'ravonlik - inson psixikasiga zarar yetkazish, haqorat qilish, qo'rqitish, tahdid qilish, shantaj qilish, nazorat qilish kabilar

Iqtisodiy zo'ravonlik - bu moddiy bosim bo'lib, o'qishni, ishlashni ta'qiqlash, moddiy yordamdan mahrum qilish va daromadlarni to'liq nazorat qilishda o'zini namoyon qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, shaxsiy daxlsizlik va xavfsizlik har qanday shaxsning ajralmas huquqi xisoblanadi. 1948 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida barcha insonlar zo'ravonliksiz yashash huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan. Insonni manipulyatsiya qilish va o'z kuchlarini ko'rsatish uchun tajovuzkorlar turli xil xatti-xarakatlardan foydalanadilar:

Hukmronlik - zo'ravon o'zaro munosabatlar uchun javobgarlikni his qilishlari kerak. Ular turmush o'rtog'i va boshqa oila a'zolari uchun

qarorlar qabul qilishadi, ularning nima qilishini aytib berishadi va so'roqsiz ularga bo'ysunishni kutishadi. Zo'ravon o'z qurboniga xizmatkor, bola yoki hatto uning mol-mulki kabi munosabatda bo'lishi mumkin. [4]

Xo'rlik - tajovuzkor o'z qurbonini nomukammal, kamsitilgan his qilishi uchun hamma narsani qiladi. Bunday vaziyatda, u o'z qurbonining hech nimaga arzimasligiga va hech kim u bilan boshqa munosabatlarni o'rnatishini istamasligiga ishonsa, ketish haqida qaror qabul qilish ehtimoli kamroq bo'lishini kutadi. Ta'qib qilish, suiiste'mol qilish, tanbeh berish va ijtimoiy kamsitish qurbonning qadr-qimmatini pasaytirish va o'zini nochor his qilish uchun qilingan zo'ravonlik qurolidir. [5]

Izolyatsiya - zo'ravon qurbonini o'ziga bog'liqligini oshirish uchun uni tashqi dunyodan uzib qo'yishga harakat qiladi. U oilasi yoki do'stlarini ko'rishni ta'qiqlashi yoki hatto ish yoki maktabga borishini ta'qiqlashi mumkin. Qurbon biror narsa qilishi, biron joyga borishi yoki kimnidir ko'rishi uchun ruxsat so'rash kerak bo'lishi mumkin.

Tahdidlar - tajovuzkorlar, odatda, qurbonlarini o'zidan uzoqlashishini oldini olish uchun tahdidlardan foydalanadilar yoki ular haqida xabar berolmasligi uchun qo'rqitishga harakat qilishadi. Zo'ravonlik qurboniga, farzandlariga, boshqa oila a'zolariga yoki hatto uy hayvonlariga zarar yetkazish yoki o'ldirish bilan tahdid qilishi mumkin. U, shuningdek, o'z joniga qasd qilish bilan tahdid qilishi mumkin, o'z qurboniga qarshi soxta ayblovlar qo'zg'atishi yoki tegishli tashkilotlarga xabar berishi mumkin.

Bezorilik - zo'ravon o'z qurbonini bo'ysundirish uchun turli xil bezorilik xarakatlaridan foydalanishi mumkin. Bunday xarakatlarga tahdid soluvchi ko'rinish yoki imo-ishoralar, mol-mulkni yo'q qilish va

uy hayvonlariga ogʻriq keltirish kiradi. Bu xolat boʻysunmaslik dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkin degan signaldir.

Oilaviy zoʻravonlik tasodifan yuzaga keladigan holat emas. Bu holat koʻpincha bir nechta omillarning oʻzaro ta’siri, insoniy munosabatlardagi muvozanat buzilishi va jamiyatdagi ijtimoiy-tarixiy sharoitlar natijasida vujudga keladi. Zoʻravonlikka olib keluvchi asosiy sabablar orasida shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, gender stereotiplari, alkogol va psixoaktiv moddalar ta’siri, shuningdek, huquqiy va ma’naviy savodsizlik kabi omillar alohida oʻrin tutadi. Shaxsiy omillar jumlasidan, zoʻravon shaxslarning psixologik xususiyatlari ularning oilaviy munosabatlarda tajovuzkorlikka moyilligini belgilaydi. Oʻz-oʻzini past baholovchi, oʻzini kamsitilgan yoki ojiz his qilgan shaxslar koʻpincha oʻz ustunligini kuch ishlatish orqali namoyon qilishga harakat qiladilar. Agressiv xarakter, gʻazabni boshqara olmaslik, portlovchi kayfiyat va impulsivlik zoʻravonlik xatti-harakatlariga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, bolaligida oʻz yaqinlaridan zoʻravonlik koʻrgan shaxslar bu modelni odatiy munosabat shakli sifatida qabul qilib, kattalikka yetganida ham xuddi shunday munosabatlarni davom ettiradi. Bu holat “uzluksiz zoʻravonlik aylanishi” deb nomlanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham zoʻravonlikning kuchayishiga olib keladi. Jumladan, ishsizlik, moliyaviy tang-liklar, qarzlar, ogʻir yashash sharoitlari va turmush tarzidagi boshqa qiyinchiliklar stress va nizolarning kuchayi-shiga sabab boʻladi. Bunday sharoitda oila a’zolari oʻzaro murosaga kelish oʻrniga zoʻravonlikka murojaat qili-shadi. Shuningdek, madaniy va gender stereotiplari ham bu muammoning ildizida yotadi. Ba’zi jamiyatlarda erkakning ustunligini tabiiy deb bilish, ayol esa itoatkor boʻlishi kerak degan patriarxal qarashlar zoʻravonlikni yashirin me’yor sifatida qabul

qilishga olib keladi. Ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini pasaytirish, ularni ishga chiqish yoki oʻqish imkoniyatlaridan cheklash orqali iqtisodiy va psixologik jihatdan qaram holga keltirish ham koʻplab zoʻravonlik holatlarining omiliga aylanadi. Zoʻravonlikka nisbatan murosali munosabat, ya'ni "bu oilaviy ish", "sabrsiz ayol ajrashadi", "yaxshi ayol indamaydi" kabi iboralar esa jabrlanuvchini jim turishga va holatni yashirishga majbur qiladi. Bundan tashqari, alkogol va giyohvandlik vositalarining haddan ortiq iste'moli ham oilaviy muhitga salbiy ta'sir koʻrsatadi. Mast holatdagi inson oʻz his-tuygʻularini va harakatlarini nazorat qila olmaydi, bu esa tajovuzkorlikka olib keladi. Koʻplab hollarda ichkilikbozlik zoʻravonlikni oqlash vositasi sifatida ishlatiladi. Bunday muhitda oʻsib ulgʻaygan bolalarda esa jiddiy psixologik muammolar paydo boʻlishi mumkin. Nihoyat, ma'naviy va huquqiy savodsizlik ham muammoning davom etishiga sabab boʻladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Karimova, V. (2020). Oila psixologiyasi asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti. [1]

2. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (WHO). (2021). Violence Against Women: Key Facts. [2]

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zoʻrlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 02.07.2018 yildagi PQ-3827-sonli Qarori// URL: http://www.lex.uz

4. 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikas«Xotin-qizlami tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida» Qonuni

5. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2008). Self-Determination Theory and

the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being. American Psychologist. [4]

6. UNFPA O'zbekiston. (2022). Oilaviy zo'ravonlik holatlarida psixosotsial yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma.

https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/viendec93.shtml

7. Akmalova, P. D. (2019). The concept of moral personality development in creativity of thinkers of central asia. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 9(1), 135-141. [3]

# OTA-ONALARNING BOLAGA MUNOSABATI VA OILAVIY ZO'RAVONLIKNING BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

***Abdumuradova Feruza Nuriddin qizi***
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Jizzax filiali Psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
**Tel:** +998883748448

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabati va oilaviy zo'ravonlikning bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir qilishi va Oilaviy zo'ravonlikning og'ir oqibatlarga olib kelishi va ularni bartaraf etish shart sharoitlari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ota-onalik munosabati, oilaviy zo'ravonlik, bolalar rivojlanishi, psixologik ta'sir, hissiy beparvolik, ijobiy tarbiya, bolalar psixologiyasi, travma.

**Аннотация:** в статье представлена информация о взаимоотношениях родителей и детей, влиянии домашнего насилия

на всестороннее развитие детей, а также о серьёзных последствиях домашнего насилия и условиях их устранения.

**Ключевые слова:** родительские отношения, домашнее насилие, развитие ребёнка, психологическое воздействие, эмоциональное пренебрежение, позитивное воспитание, детская психология.

**Abstract:** this article provides information about the relationship between parents and children and the impact of domestic violence on the comprehensive development of children, as well as the serious consequences of domestic violence and the conditions for their elimination.

**Keywords:** parental relationship, domestic violence, child development, psychological impact, emotional neglect, positive upbringing, child psychology.

Zamonaviy jamiyatda bolalarning sog'lom rivojlanishi oila muhitining sifatiga bevosita bog'liq. Ota-onalarning bolalarga nisbatan munosabati va xatti-harakatlari bolaning jismoniy, emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar bolalarda ishonch, mustaqillik va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirsa, salbiy munosabatlar va ayniqsa oilaviy zo'ravonlik bolalarda uzoq muddatli psixologik, emocional va xulq-atvor muammolariga olib kelishi mumkin.

Oilaviy zo'ravonlik nafaqat bevosita qurbonlar, balki unga guvoh bo'lgan bolalar uchun ham jiddiy psixologik trauma manbai hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy zo'ravonlikka guvoh bo'lgan bolalar depressiya, tashvish, travmadan keyingi stress buzilishi (PTSD), o'qishda qiyinchiliklar va ijtimoiy moslashuv muammolari kabi kasalliklarni rivojlanish xavfi yuqori. [1]

· Ota-onalik munosabati turlari va ularning bolalar rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish;

· Oilaviy zo'ravonlikning bolalarning psixologik, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sirini o'rganish;

· Mavzuga oid xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarni sistemli tahlil qilish;

· Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish va bolalarning sog'lom rivojlanishini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot usuli: Maqolada mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni sistemli sharhlash usuli qo'llanildi. 2000-2024-yillar oralig'ida chop etilgan 14 ta ilmiy maqola, shu jumladan PubMed, Child Encyclopedia, PMC kabi ishonchli manbalar tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot sistemli adabiyot sharhlash (systematic literature review) usuliga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ota-onalik munosabati va oilaviy zo'ravonlikning bolalar rivojlanishiga ta'siri haqidagi mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirishdir. [2]

Ma'lumotlar bazalari: PubMed, Google Scholar, ScienceDirect, ResearchGate

Tanlash mezonlari: Inklyuziya mezonlari: to'liq matnli ilmiy maqolalar, empirik tadqiqotlar bolalar rivojlanishiga qaratilgan ishlar, ota-onalik munosabati yoki oilaviy zo'ravonlikni, o'rgangan tadqiqotlar. Eksklyuziya mezonlari: dastlabki qidiruv natijasida 45 ta maqola topildi, ulardan mezonlarga mos keladigan 14 ta asosiy manba tanlab olindi. Tanlangan manbalar orasida 8 ta empirik tadqiqot, 4 ta sistemli sharh va 2 ta meta-tahlil maqolasi mavjud. [3]

Mavzuga oid xalqaro tadqiqotlar ota-onalik munosabati va oilaviy zo'ravonlikning bolalar rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sirini ochib beradi. Ota-onalik munosabati va bolalar rivojlanishi tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabati ularning psixologik, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Parents' Attitudes and Beliefs (2024) tadqigotida ta'kidlanishicha, ota-onalarning iliq va qo'llab-quvvatlovchi munosabati bolalarda ishonch, mustaqillik va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga olib keladi. Aksincha, salbiy munosabatlar bolalarda tajovuzkorlik va depressiya kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. [4]

Brandeis universiteti tadqigoti (2023) ota-onalik uslublarining bolalarning tengdoshlari bilan munosabatlariga ta'sirini o'rganib, demokratik va oqilona nazorat qiluvchi ota-onalar farzandlari maktabda yaxshi muvaffaqiyat qozonishini va ijtimoiy jihatdan moslashuvchanroq ekanligini anqladi.

Oilaviy zo'ravonlikning psixologik oqibatlari. Oilaviy zo'ravonlikka guvoh bo'lgan bolalar qisqa va uzoq muddatli jiddiy psixologik oqibatlarga duchor bo'ladilar. PMC jurnalida chop etilgan sistemli sharh (2023) oilaviy zo'ravonlikka guvoh bo'lgan bolalarda quyidagi muammolar keng tarqalganligini ko'rsatadi:

· Depressiya va tashvish buzilishlari (62% hollarda)

· Travma keyingi stress buzilishi (PTSD) (45%)

· Uyqusizlik va bosh og'rig'i kabi jismoniy alomatlar (38%)

Levendosky va boshq. (2001, 2002) ning ketma-ket tadqiqotlari oilaviy zo'ravonlik muhitida yashaydigan bolalarda PTSD alomatlari va tajovuzkor xatti-harakatlar sezilarli darajada yuqori ekanligini tasdiqladi. [5]

Kognitiv va ta'limiy ta'sirlar. Oilaviy zo'ravonlik bolalarning aqliy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Huth-Bocks va boshq. (2001) tadqigoti shuni ko'rsatadiki, oilaviy zo'ravonlik onalik depressiyasiga olib keladi, bu esa o'z navbatida uy muhitining intellektual sifatiga ta'sir

ko'rsatib, bolalarning og'zaki va vizual-fazoviy qobiliyatlarini pasaytiradi.

Spilsbury va boshq. (2008) ning 1000 dan ortiq bolalar ustida olib borgan keng qamrovli tadqiqoti oilaviy zo'ravonlikka guvoh bo'lgan bolalarda:

· Maktabda qiyinchiliklar (71%)

· Ijtimoiy moslashuv muammolari (65%)

· Past IQ darajasi (o'rtacha 7-10 ball past)

Barnardo's tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, oilaviy zo'ravonlikka guvoh bo'lgan bolalar uchun o'z vaqtida psixologik yordam ko'rsatish va maxsus dasturlar ishlab chiqish ularning rivojlanishidagi salbiy oqibatlarni 40-60% ga kamaytirishi mumkin. Australian Institute of Family Studies (2023) oilaviy zo'ravonlikning bolalarga ta'siri yoshga qarab farq qilishini ta'kidlab, har bir yosh guruhi uchun individual yondashuv muhimligini alohida ta'kidlaydi. Ota-onalarning bolaga munosabati oila ichidagi muhitni shakllantirib, bolaning jismoniy, emotsional va kognitiv rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy munosabatlar bolalarda ishonch, mustaqillik va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirsa, salbiy munosabatlar va oilaviy zo'ravonlik esa uzoq muddatli psixologik va xulqiy muammolarga olib kelishi mumkin.

**Xulosa.** Ota-onalik munosabati bolalarning psixologik, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Demokratik va qo'llab-quvvatlovchi munosabat bolalarda ishonch, mustaqillik va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi..

- Profilaktika dasturlari - Ota-onalar uchun ijobiy tarbiya usullari, konfliktlarni hal qilishning konstruktiv yo'llari va psixologik yordam olish muhimligi haqida o'quv dasturlari ishlab chiqish.

- Erta aniqlash va aralashuv - Maktablar va sog'liqni saqlash muassasalarida oilaviy zo'ravonlik alomatlarini erta aniqlash tizimini joriy etish.

- Psixologik yordam - Oilaviy zo'ravonlikka guvoh bo'lgan bolalar uchun mutaxassis psixologlar tomonidan individual va guruh terapiya dasturlari tashkil etish.

- Jamiyat ishtiroki - Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishda mahalla, maktab va oilalarning faol ishtirokini ta'minlash. Xulosa qilib aytganda, bolalarning sog'lom rivojlanishini ta'minlash uchun ota-onalarning ijobiy munosabati va oilaviy zo'ravonlikning bartaraf etilishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Parents' Attitudes Toward Domestic Violence as a Risk Factor for Child Behavioral Problems - Journal of Interpersonal Violence, 2022. - https://pubmed.ncb i.nlm.nih.gov/34865554/ [1]

2. Parents' Attitudes and Beliefs: Their Impact on Children's Development - Encyclopedia on Early Childhood Development, 2024. - https://www.child-encyclopedia.com/parenting-skills/according-experts/parents-attitudes-and-beliefs-their-impact-childrens-development[2]

3. Psychological complications of children exposed to domestic violence: A systematic review - BMC Psychology, 2023. - https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC10213576/

4. Effects of domestic abuse on children - Barnardo's Research Report, 2023. - https://www.barnardos.org.uk/get-support/support-for-

parents-and-carers/child-abuse-and-harm/children-affected-domestic-abuse-violence [3]

5. The Effect of Parental Attitudes and Practices on Peer Relationships in Middle Childhood - Brandeis University Journal of Psychology, 2023. - https://scholarworks.brandeis.edu/esploro/fulltext/graduate/The-Effect-of-Parental-Attitudes-and/9923880080701921 [4]

6. Domestic violence impacts children differently at different ages - Michigan State University Extension, 2023. - https://www.canr.msu.edu/news/domestic_violence_impacts_children_differently_at_different_ages

7. Children's exposure to domestic and family violence - Australian Institute of Family Studies, 2023. - https://aifs.gov.au/resources/policy-and-practice-papers/childrens-exposure-domestic-and-family-violence [5]

8. Witnessing Domestic Violence: The Effect on Children - American Academy of Family Physicians, 2002. - https://www.aafp.org/pubs/afp/issues/2002/1201/p2052.html

9. Levendosky, A. A., & Bermann, W. G. (2001). Domestic violence and maternal functioning: Impacts on children's emotional and behavioral regulation. Journal of Family Psychology, 15(2), 258-272.

10. Huth-Bocks, A. C., Levendosky, A. A., & Semel, M. A. (2001). The direct and indirect effects of domestic violence on young children's intellectual functioning. Journal of Family Violence, 16(3), 269-290.

# RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYO TARIXI TARIXSHUNOSLIGI AYRIM JIHATLARI

***Samiyev Alisher Saidniyoz o'g'li***
Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi
**E-mail:** samiyevalisher40@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada IX–XV asrlarda O'rta Osiyo tarixshunosligi rivojlanishining asosiy bosqichlari tahlil qilinadi. Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar va Temuriylar davrida yaratilgan tarixiy manbalar, ularning mazmuni va tarixiy ahamiyati o'rganiladi. Shuningdek, Narshaxiy, Juvayniy, Rashididdin, Nizomiddin Shomiy va Xondamir kabi tarixchilarning asarlariga tayangan holda, o'rta asrlar tarixshunosligining shakllanish jarayoni yoritiladi. Maqolada o'rta asr tarixchilari asarlarining ilmiy, siyosiy va ma'naviy ahamiyati haqida xulosa beriladi.

**Аннотация:** В статье анализируются основные этапы развития историографии Средней Азии в IX–XV веках. Рассматриваются исторические источники, созданные в эпохи Саманидов, Караханидов, Сельджуков, Хорезмшахов и Тимуридов, их содержание и историческое значение. На основе трудов Наршахи, Джувейни, Рашид ад-Дина, Низам ад-Дина Шами и Хондамира раскрывается процесс формирования средневековой историографии. В статье делаются выводы о научном, политическом и духовном значении трудов средневековых историков.

**Abstract**: This article analyzes the main stages in the development of historiography in Central Asia during the 9th–15th centuries. It examines historical sources created during the Samanid, Karakhanid, Seljuk, Khwarazmian, and Timurid periods, exploring their content and historical importance. Based on the works of Narshakhi, Juvayniy,

Rashid al-Din, Nizam al-Din Shami, and Khwandamir, the study highlights the evolution of medieval historiography. The article concludes with an assessment of the scientific, political, and cultural significance of medieval historians' writings.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, tarixshunoslik, manbashunoslik, Narshaxiy, Temuriylar, tarixiy manbalar.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, историография, IX–XV века, источниковедение, Наршахи, Тимуриды, исторические источники.

**Keywords:** Central Asia, historiography, 9th–15th centuries, source studies, Narshakhi, Timurids, historical sources.

**Kirish.** Insoniyat tarixida o'rta asrlar davri — madaniyat, siyosat, iqtisodiyot va ilm-fan sohalarida chuqur o'zgarishlar yuz bergan, tarixshunoslik rivojining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari uchun IX–XV asrlar davri "rivojlangan o'rta asrlar" deb ataladi. Bu davrda yirik davlatlar — Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar va Temuriylar imperiyalari tashkil topdi. Mazkur siyosiy tuzilmalar nafaqat iqtisodiy va harbiy sohada, balki ilm-fan, madaniyat, adabiyot va tarixiy tafakkur sohasida ham yuksak natijalarga erishgan edi. O'rta Osiyo tarixshunosligi ana shu davrda shakllanib, keyingi asrlarda ham ilmiy an'analar uchun asos bo'lib xizmat qildi. IX–XV asrlar oralig'ida yozilgan tarixiy manbalar o'sha davr voqealari, siyosiy jarayonlari, shahar hayoti, ilmiy muhit va davlat boshqaruvi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Shu sababli bu davr tarixshunosligini o'rganish nafaqat o'tmish voqealarini yoritadi, balki o'sha davr ilmiy tafakkur darajasi va tarixga bo'lgan yondashuvni ham ko'rsatadi.

IX–XII asrlarda Abu Bakr Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" asari, Gardiziyning "Zayn al-axbor", Bayhaqiyning "Tarixi Bayhaqiy",

shuningdek, arab va fors tillarida yozilgan boshqa koʻplab manbalar Oʻrta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritishda muhim rol oʻynagan. Bu asarlar orqali oʻsha davr Buxoro, Samarqand, Xorazm, Termiz kabi yirik ilmiy va madaniy markazlarning hayoti haqida batafsil maʼlumot olish mumkin. XIII–XV asrlarga kelib, tarixshunoslik yanada yuksak bosqichga koʻtarildi. Bu davrda moʻgʻullar istilosi, Chingizxon imperiyasining shakllanishi, Temur va Temuriylar davlati siyosiy faoliyati tarixchilar diqqat markazida boʻldi. Ato Malik Juvayniyning "Tarixi Jahonkushoy", Rashididdin Fazlullohning "Jomeʼ ut-tavorix", Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari, shuningdek, Xondamirning "Habib us-siyar"i oʻsha davrning eng muhim tarixiy manbalari sifatida alohida eʼtirof etiladi. Ushbu asarlarda voqealar ketma-ketligi, tarixiy shaxslar faoliyati, davlatlararo munosabatlar va madaniy hayot haqida keng maʼlumotlar berilgan.

Oʻrta asrlar tarixchilarining yondashuvi oʻziga xos boʻlib, ular tarixni nafaqat voqealar majmui sifatida, balki axloqiy, siyosiy va diniy saboqlar manbai sifatida koʻrganlar. Shuning uchun ham tarixshunoslik oʻsha davrda faqat faktlarni qayd etish emas, balki ularni maʼnaviy va siyosiy mazmun bilan boyitish yoʻlida shakllandi. Bugungi kunda IX–XV asrlar Oʻrta Osiyo tarixshunosligini oʻrganish ilmiy ahamiyatini yoʻqotmagan. Chunki bu davr asarlari orqali biz nafaqat oʻtmish siyosiy tizimlarini, balki tarixiy tafakkurning evolyutsiyasini ham tahlil qila olamiz. Tarixiy manbalarni oʻrganish orqali oʻsha davr xalqlari dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari, davlat boshqaruvi va madaniy qadriyatlarini anglash imkoniyati yaratiladi. Demak, rivojlangan oʻrta asrlar davrida shakllangan tarixshunoslik nafaqat Oʻrta Osiyo, balki jahon ilm-fani taraqqiyotiga ham katta taʼsir koʻrsatgan. Mazkur maqolada shu davrda yaratilgan tarixiy manbalar, ularning mualliflari

va mazmuni, shuningdek, tarixshunoslikdagi uslubiy yondashuvlar tizimli tarzda tahlil qilinadi.

**Asosiy qism.** O'rta asrlar insoniyat tarixida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davr qadimiy dunyo tamaddunidan yangi zamonaviy davrga o'tish jarayonini ifodalaydi. Tarixshunoslikda "rivojlangan o'rta asrlar" tushunchasi asosan IX–XV asrlarni qamrab oladi va bu bosqichda siyosiy markazlashuv, iqtisodiy o'sish, ilm-fan va madaniyatning yuksalishi kabi jarayonlar kuzatiladi. Aynan shu asrlarda O'rta Osiyo xalqlari nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosida ilmiy-ma'naviy markazga aylangan. Rivojlangan o'rta asrlar davri O'rta Osiyoda Somoniylar davlatining vujudga kelishi bilan boshlanadi. IX asr o'rtalarida tashkil topgan Somoniylar davlati (865–999) Markaziy Osiyoda mustaqil musulmon davlatining shakllanishida burilish davrini boshlab berdi. Ular arab xalifaligidan siyosiy jihatdan mustaqillikka erishib, o'z madaniy siyosatini yurita oldilar. Aynan Somoniylar davrida Buxoro va Samarqand islom olamining eng yirik ilm markazlariga aylandi. Shu davrda tarix, fiqh, falsafa, tibbiyot, matematika va astronomiya sohalarida yirik asarlar yaratildi[2].

Tarixshunoslik nuqtayi nazaridan bu davrda Abu Bakr Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" asari eng muhim manbalardan biridir[9]. Ushbu asarda Buxoro vohasining qadimiy tarixi, uning siyosiy hayoti, madaniy rivoji va islom dinining kirib kelish jarayonlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Narshaxiy asari nafaqat tarixiy voqealar majmuasi, balki o'rta asr tarixiy tafakkurining yuksak namunasi sifatida ham katta ahamiyatga ega[1]. Somoniylardan so'ng siyosiy sahnaga Qoraxoniylar davlati (999–1212) chiqdi. Bu davlat turkiy sulola sifatida Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutadi. Qoraxoniylar davrida davlat boshqaruvi, huquqiy tizim va madaniyatda o'ziga xos uyg'unlik

vujudga keldi. Shu bilan birga, tarixshunoslik sohasida diniy ruhdagi, ammo tarixiy haqiqatga asoslangan asarlar yozila boshlandi. Bu jarayonda arab tili bilan bir qatorda fors va turkiy tillar tarixiy adabiyot tiliga aylandi. Aynan shu davrda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" va Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari paydo bo'ldi — ular tarixshunoslik va madaniyatshunoslik uchun qimmatli manbalar hisoblanadi[4].

XII asrning oxiri — XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlati (1097–1231) siyosiy jihatdan mintaqaning eng qudratli kuchiga aylandi. Xorazmshohlar davrida davlat boshqaruvi, diplomatiya va harbiy ishlar yuksak darajada rivojlandi. Ammo bu davrda tarixshunoslik siyosiy propagandaga xizmat qilgan holatlar ham uchraydi — ko'plab tarixchilar davlat manfaatlariga mos yozgan. Shunga qaramay, o'sha davrda yozilgan asarlar, jumladan, Gardiziy, Bayhaqiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn al-Asirlarning ishlari o'zining tarixiy qiymatini yo'qotmagan. Ayniqsa, Beruniyning "Osor ul-boqiya" va "Hindiston" asarlari tarixshunoslikda ilmiy tahlil tamoyillarini shakllantirishda alohida o'rin tutadi[6].

XIII asr o'rtalarida mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyo tarixshunosligida yangi bosqichni boshlab berdi. Chingizxon yurishlari va ularning oqibatlarini yoritgan Ato Malik Juvayniyning "Tarixi Jahonkushoy" asari nafaqat tarixiy voqealarni tasvirlab bergan, balki mo'g'ul davri siyosiy tafakkurining o'ziga xos jihatlarini ochib bergan yirik manbadir. Shundan so'ng Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning "Jome' ut-tavorix" asari butun Sharq tarixshunosligining eng mukammal namunalaridan biri bo'lib, unda O'rta Osiyo, Xitoy, Hindiston, Eronga oid tarixiy voqealar tizimli tarzda yoritilgan.

XIV–XV asrlar esa tarixshunoslikning eng yuksak cho'qqisi — Temuriylar davri bilan bog'liq. Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari davrida tarixga bo'lgan qiziqish, uni siyosiy va ma'naviy jihatdan asoslash ehtiyoji ortdi. Bu davrda Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si, Sharafiddin Ali Yazdiyning shu nomdagi asari, hamda Xondamirning "Habib us-siyar"i tarixshunoslikning yuksak namunalaridir[3]. Ularning asarlarida tarixiy voqealar chuqur tahlil etilgan, hukmdorlarning siyosiy faoliyati adolat, ma'naviyat va davlatparvarlik tamoyillari bilan bog'langan. Tarixshunoslikda bu davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, tarixchilar nafaqat voqealarni qayd etish, balki ularning sabab va oqibatlarini ham tahlil qilishga harakat qilganlar. Bu esa tarixiy tafakkurda ilmiylik, tahliliy yondashuv va falsafiy tushunchalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, tarixni yozishda adabiy uslub, she'riy ifoda, diniy ma'nolar va siyosiy g'oyalar uyg'unlashtirilgan.

Demak, IX–XV asrlar oralig'idagi rivojlangan o'rta asrlar davri O'rta Osiyoda tarixshunoslikning shakllanishi, uning mavzu va uslub jihatidan boyib borish davri bo'ldi. Bu davrda tarix yozish jarayoni diniy rivoyatlardan mustaqil ilmiy yondashuvga o'tgan, tarixchi shaxsining o'rni kuchaygan, tarixiy haqiqatni izlash tamoyillari shakllangan. Aynan shu sababli, mazkur davr tarixshunosligi keyingi asrlardagi O'rta Osiyo va butun Sharq tarixiy tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Rivojlangan O'rta asrlar davrida O'rta Osiyo tarixini yoritgan tarixiy manbalar va ularning ahamiyati. Rivojlangan O'rta asrlar (IX–XV asrlar) davri O'rta Osiyo xalqlari tarixida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy taraqqiyotning eng yuksak bosqichlaridan biri bo'ldi. Bu davrda tarixiy manbashunoslik fani ham yuksak darajada rivojlandi. Ayniqsa, tarixchilar, geograf va adiblar tomonidan yaratilgan asarlar o'sha davr

hayoti, siyosiy tuzumlar, shahar madaniyati hamda ilm-fan rivojini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

IX–X asrlar O‘rta Osiyo tarixiy manbashunosligining shakllanish davri hisoblanadi. Bu davrda arab tilida yozilgan ko‘plab asarlar paydo bo‘ldi. Masalan, al-Tabariyning "Tarixi ar-Rusul va-l-muluk" ("Payg‘ambarlar va shohlar tarixi") asari, al-Yoqut al-Hamaviyning "Mu’jam al-buldon" ("Mamlakatlar lug‘ati") kitobi, Ibn Xurdodbeh, al-Istaxriy, Ibn Havqal, al-Muqaddasiy singari geograflarning asarlari O‘rta Osiyo shaharlarining siyosiy va iqtisodiy ahvolini yoritgan eng qadimiy yozma manbalardir. Bu asarlarda Movarounnahr va Xurosonning shaharsozlik, savdo yo‘llari, irrigatsiya tizimi va etnik tarkibi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan[2].

XI–XII asrlarda turkiy xalqlar orasida yozma tarixiy asarlar paydo bo‘ldi. Bu davrda Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit-turk" asari nafaqat tilshunoslik manbasi, balki tarixiy va etnografik jihatdan ham beqiyos ahamiyatga ega. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asari o‘sha davr siyosiy-axloqiy qarashlarini, davlat boshqaruvi tizimini va jamiyatning ijtimoiy tuzilishini yoritib berdi. XIII asrning boshlaridan mo‘g‘ullar istilosi O‘rta Osiyo tarixshunosligiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Shu davrda yaratilgan Ata-Malik Juvayniyyning "Tarixi Jahongusha", Rashididdin Fazlulloh Hammadoniyning "Jome’ ut-tavorix" asarlari nafaqat Eron va O‘rta Osiyo, balki butun Yaqin Sharq tarixini yoritishda asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda[5]. Juvayniyy Buxoro, Samarqand, Xorazm, Marv va boshqa shaharlarda mo‘g‘ul istilosi oqibatida yuzaga kelgan vayronagarchiliklarni batafsil tasvirlab bergan.

XIV–XV asrlarga kelib, Temuriylar davrida tarixshunoslik yanada yuksaldi. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari Amir

Temurning hayoti va siyosiy faoliyati, yurishlari hamda davlat tuzilishini yorituvchi eng ishonchli manbalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va Xondamirlarning asarlari Temuriylar davrining siyosiy, madaniy va ijtimoiy tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Bu davr manbalarining yana bir muhim jihati shundaki, ular tarixiy voqealarni faqat siyosiy nuqtayi nazardan emas, balki madaniy va ilmiy rivoj nuqtayi nazaridan ham yoritgan. Masalan, Abdurazzoq Samarqandiy o'zining "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" asarida Hindiston, Eron va Movarounnahr o'rtasidagi diplomatik aloqalar, savdo-sotiq va madaniy almashinuvlar haqida boy ma'lumotlar keltirgan. Demak, rivojlangan O'rta asrlar davridagi O'rta Osiyo tarixiy manbalari nafaqat o'sha davr voqealarini yoritish, balki xalqimizning ma'naviy va siyosiy o'zligini anglashda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu manbalar tarixni o'rganish, tahlil qilish va tarixiy xotirani saqlashda bugungi kunda ham ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

**Xulosa.** Rivojlangan O'rta asrlar davrida (IX–XV asrlar) O'rta Osiyoda tarixshunoslikning shakllanishi va yuksalishi nafaqat bu mintaqaning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga, balki butun musulmon Sharqi ilmiy merosiga katta hissa qo'shdi. Shu davrda yaratilgan manbalar O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy davlat tuzumi, siyosiy jarayonlari, shahar madaniyati, iqtisodiy tizimi, diniy hayoti va ilmiy an'analarini chuqur o'rganish imkonini beradi. Tarixiy manbalar orqali biz o'tmishdagi voqealarni nafaqat yodga olamiz, balki ularni zamonaviy nuqtayi nazardan tahlil qilish imkoniyatiga ham ega bo'lamiz. Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, al-Biruniy, Rashididdin, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy singari tarixchilar va olimlarning asarlari bugungi kunda ham o'z ilmiy ahamiyatini

yo'qotmagan. Ularning asarlari orqali O'rta Osiyo xalqlarining siyosiy mustaqillikka intilishi, madaniy o'zligini saqlashga bo'lgan urinishlari va ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Temuriylar davrida tarixshunoslikning yangi bosqichga ko'tarilgani, tarixiy voqealarni yozma shaklda, aniq manbalar va guvohliklarga tayangan holda yoritish an'anasi shakllangani bu fanning rivojlanishida muhim qadam bo'ldi. Aynan shu jarayon tufayli O'rta Osiyo tarixiy tafakkuri Sharq va G'arb tarixshunoslik maktablari bilan tenglashdi. Bugungi kunda bu manbalar faqat tarixiy faktlarni o'rganish uchun emas, balki xalqimizning o'zligini, madaniy merosini va milliy qadriyatlarini chuqur anglash uchun ham asosiy vosita hisoblanadi. Tarixni bilgan inson jamiyatda o'z o'rnini aniq anglaydi, o'tmishdagi yutuq va xatolardan to'g'ri xulosa chiqara oladi. Shu boisdan, rivojlangan O'rta asrlar davrida yaratilgan tarixiy manbalarni o'rganish nafaqat tarixchilar, balki keng jamoatchilik uchun ham muhim ilmiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, IX–XV asrlardagi O'rta Osiyo tarixshunosligi – bu faqat o'tmish haqidagi yozuvlar emas, balki xalqimiz tafakkurining, ilmiy va madaniy salohiyatining yorqin ifodasidir. U bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar, tarixiy xotirani tiklash va milliy o'zlikni anglash yo'lida mustahkam tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ahmadova, U. S. (2024). Buxoro tarixi: Narshaxiy asarlarida shaharning tasviri. FarDU jurnali №5–6, 78–96.

2. Rahimov, D. A. (2023). O'rta Osiyoda tarixshunoslik va manbashunoslikning shakllanish bosqichlari. Tarix va jamiyat jurnali, №4, 112–121.

3. Karimova, N. M. (2022). Temuriylar davri tarixnavisligining oʻziga xos jihatlari. Oʻzbekiston tarixi jurnali, №3, 55–67.

4. Islomov, B. R. (2021). Movarounnahrda yozma manbalar an'anasi va ularning ilmiy ahamiyati. Sharqshunoslik tadqiqotlari, №2, 98–108.

5. Qodirov, S. T. (2020). Rashididdinning "Jome' ut-tavorix" asarida Oʻrta Osiyo voqealari. Milliy meros jurnali, №1, 64–75.

6. Ergashev, H. J. (2019). Oʻrta Osiyo tarixiga oid arab manbalari tahlili. Fan va taraqqiyot, №6, 87–95.

7. Mahmudov, B. X. (2020, 30-oktabr). Qarluq–Qoraxonlar davlatida shaharsozlik va islomlashish jarayeni. "Fan tarixi rivojiga akademik A. R. Muhammadjonovning qoʻshgan hissasi" toʻplami, 431–435-betlar.

8. Xodjaev, D., & Turdiyeva, D. (2021). Qoraxoniylar xoqonligi tarixi Xitoy Xalq Respublikasi olimlari tadqiqotlarida. Toshkent: Fan ziyosi nashriyoti, 148 b.

9. Narshaxiy, A. B. M. ibn Ja'far an-. (n.d.). Buxoro tarixi (A. Rasulyev, Tarj.; A. Urinboev, M. muharrir). n.ziyuz.com. https://n.ziyuz.com

10. Дониёров А. Х. Марказий Осиё халқлари тарихшунослиги / Дарслик. Тошкент: NIF MSH, 2021. 470 б.

# SHAXSNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYANING O'RNI

**Ravshanov Sobir Abdumalik o'g'li**
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
**E-mail:** sobirravshanov3@gmail.com

**Djuraboyeva Dinara  Afzal qizi**
Guliston davlat universiteti
psixologiya yo'nalishi talabasi
**E-mail:** gulmiraerlaliyeva@gmil.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolda shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda motivatsiyaning o'rni,  ahamiyati, shaxs rivojlanishidagi muhim omilari, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantrish omillari haqida malumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** salohiyat, motivatsiya, qobiliyat, shaxs, globallashuv, estetika, etika, motiv, ilm, tarbiya.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о роли, значении мотивации в развитии творческого потенциала личности, значимых факторах развития личности, факторах развития творческих способностей.

**Ключевые слова:** потенциал, мотивация, способности, личность, глобализация, эстетика, этика, мотив, наука, воспитание.

**Annotation:** this article presents information about the role, importance of motivation in the development of the creative potential of an individual, important factors in the development of an individual, factors for the development of creative abilities.

**Keywords:** capacity, motivation, ability, personality, globalization, aesthetics, ethics, motive, science, upbringing.

Bugungi globallashuv davrida jamiyatning har bir sohasida yangilik yaratishga, innovatsion fikrlashga qodir shaxslarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. Shaxsning ijodiy salohiyatini shakllantirish va uni rivojlantirish jarayonida motivatsiya muhim o'rin tutadi. Chunki har qanday ijodiy faoliyatning asosi – bu ichki ehtiyoj, qiziqish va intilishdir. Demak, shaxsni ijodkorlikka undaydigan psixologik omillarni chuqur o'rganish va ularni to'g'ri yo'naltirish ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy salohiyat — bu shaxsning yangi, original, foydali g'oyalarni yaratish, mavjud bilim va tajribani yangicha usulda qo'llay olish qobiliyatidir. U tafakkur kengligi, tasavvur boyligi, muammoni turlicha ko'rish va nostandart yechimlarni topish bilan ifodalanadi.

Psixologik adabiyotlarda ijodiy salohiyatning asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar qayd etiladi:

- Intellektual omillar (tahlil qilish, umumlashtirish, muammoni hal etish qobiliyati);
- Shaxsiy omillar (mustaqillik, tashabbuskorlik, o'z fikrini erkin ifoda etish);
- Emotsional-irodaviy omillar (sabr-toqat, qat'iyat, o'zini rag'batlantira olish).

Motivatsiya — bu shaxsni faoliyatga undovchi ichki yoki tashqi omillar tizimidir. U shaxsning ehtiyojlari, qadriyatlari, maqsadlari va hayotiy pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Psixologiyada motivatsiya quyidagi turlarga ajratiladi:

- Ichki motivatsiya – shaxsning o'z faoliyatidan zavq olishi, yangilik yaratishga bo'lgan tabiiy ehtiyoji bilan belgilanadi;
- Tashqi motivatsiya – mukofot, tan olinishi, baho yoki ijtimoiy maqom orqali yuzaga keladigan rag'batdir.

- Ijodiy faoliyatda aynan ichki motivatsiya yetakchi rol oʻynaydi. Chunki ijodkor shaxsni tashqi mukofot emas, balki yangilik yaratish jarayonining oʻzi qoniqtiradi.

- Motivatsiya va ijodiy salohiyat oʻzaro bogʻliqligi

Motivatsiya shaxsning ijodiy faolligini faqat ragʻbatlantiribgina qolmay, uni barqaror qiladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, yuqori ichki motivatsiyaga ega shaxslar quyidagi xususiyatlarga ega boʻladi:

- mustaqil fikrlaydi va oʻz qarorlarini mustahkam asoslay oladi;
- yangi gʻoyalarni sinovdan oʻtkazishdan qoʻrqmaydi;
- muvaffaqiyatsizlikni oʻsish imkoniyati sifatida qabul qiladi;
- oʻz oʻrganish jarayonini boshqarish qobiliyatiga ega.

Demak, ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun motivatsiyani shakllantirish — bu shaxsni oʻzini anglashi, oʻz qobiliyatlariga ishonchini mustahkamlash bilan chambarchas bogʻliq jarayondir.

Ijodiy motivatsiyani rivojlantirish omillari

Ijodiy motivatsiyani rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik va psixologik sharoitlar muhim hisoblanadi:

- Erkin fikrlash muhitini yaratish — talaba yoki oʻquvchi oʻz fikrini erkin bildira oladigan, xatodan qoʻrqmaydigan muhitda ijodiy yondashuv kuchayadi.

- Ragʻbat tizimini takomillashtirish — tashqi mukofotlar bilan bir qatorda, ichki motivatsiyani qoʻllab-quvvatlovchi shakllarni joriy etish (masalan, oʻz-oʻzini baholash, ijobiy teskari aloqa).

- Innovatsion oʻqitish metodlaridan foydalanish — loyiha asosida oʻqitish, muammoli vaziyatlar, kreativ mashgʻulotlar ijodiy fikrlashni faollashtiradi.

- Shaxsiy maqsadlarni shakllantirish — o'quvchining individual qiziqishlari va hayotiy maqsadlarini o'rganish orqali motivatsiyani oshirish mumkin.

Shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda motivatsiya markaziy o'rin egallaydi. Ayniqsa, ichki motivatsiyani shakllantirish — ijodkorlikning barqaror manbai hisoblanadi. Ta'lim tizimida o'quvchilarning qiziqishini, mustaqil fikrlashini va o'zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ijodiy motivatsiyani kuchaytirish mumkin. Natijada, shaxs o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqaradi va jamiyat rivojiga ijodiy hissa qo'shadi.

Shaxsiy motivatsiya va o'zini rivojlantirish jarayonlari zamonaviy psixologiya, pedagogika va ijtimoiy fanlar doirasida muhim ilmiy mavzular sifatida qaraladi. Ushbu maqolada shaxsiy motivatsiyaning psixologik asoslari, o'zini rivojlantirishning nazariy va amaliy yondashuvlari keng tahlil qilindi. Shaxsiy motivatsiya, birinchi navbatda, insonning ichki kuchini uyg'otish va maqsadlarini amalga oshirishga bo'lgan ishtiyoqni faollashtirishga qaratilgan. Maslonning ehtiyojlar piramidasidan Franklning logoterapiyasigacha bo'lgan psixologik nazariyalar, shaxsning o'zini rivojlantirish va motivatsiya jarayonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Maslon (1943) tomonidan ilgari surilgan ehtiyojlar piramidasining asosiy g'oyasi, motivatsiya har bir insonning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa, Frankl (1946) o'zining logoterapiya yondashuvi orqali motivatsiyani inson hayotining ma'nosi va maqsadlari bilan bog'lashni taklif etadi. Rogers (1961) esa o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini amalga oshirish kontseptsiyasi orqali insonning ichki potentsialini kashf etish jarayonini o'rganadi. Gardnerning ko'p intellektual nazariyasi (1983) o'zini rivojlantirishning turli shakllarini anglashga yordam beradi, bu

esa shaxsning oʻz salohiyatini toʻliq namoyon qilish imkoniyatini yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Abdullaeva, N. (2022). Ijodiy tafakkur psixologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti

2. Abdimalikovich, R. S. (2024). XXI ASRDA OʻZBEKISTON PSIXOLOGIYASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(2), 7-12.

3. Karshiyeva, Y., & Ravshanov, S. (2023). HISTORY OF EMERGENCE AND FORMATION OF SCIENTIFIC SCHOOLS IN UZBEKISTAN PSYCHOLOGY. Science and innovation, 2(B6), 198-201. https://scientists.uz/view.php?id=4845

4. Saboxat, S., & Abdimalik oʻgʻli, R. S. YIGITLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK SHART–SHAROITLARI.

5. https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/73134

# ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К СОЗДАНИЮ И ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНИКОВ: АНАЛИЗ ТЕНДЕНЦИЙ И ПЕРСПЕКТИВ

**Абдулвохидов Элёр Абдулхамидович**
доцент, доктор философии по педагогическим наукам.

**Дадамирзаева Муслима**
магистрант Наманганского государственного
педагогического института

**Аннотация.** В статье рассмотрены современные подходы к созданию и применению электронных учебников в образовательном

процессе. Проанализированы мировые тенденции, выделены ключевые инновации — адаптивные технологии, мультимедиа, искусственный интеллект и аналитика обучения. Выявлены основные проблемы внедрения цифровых учебников и определены перспективные направления развития. Предложены рекомендации по повышению эффективности использования электронных учебников в образовательных учреждениях.

**Ключевые слова**: цифровизация образования, адаптивное обучение, мультимедийность, интеграция, модернизация, интерактивность, педагогика, инновации.

**Annotation**. The article considers modern approaches to the creation and use of electronic textbooks in the educational process. World trends are analyzed, key innovations are highlighted - adaptive technologies, multimedia, artificial intelligence and learning analytics. The main problems of the introduction of digital textbooks have been identified and promising areas of development have been identified. Recommendations for improving the efficiency of the use of electronic textbooks in educational institutions are proposed.

**Keywords**: electronic textbook, digitalization of education, adaptive learning, multimedia, artificial intelligence, interactivity, digital pedagogy, innovations.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida elektron darsliklarni yaratish va qo'llashning zamonaviy yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Jahon tendensiyalari tahlil qilingan, asosiy innovatsiyalar — moslashuvchan texnologiyalar, multimedia, sun'iy intellekt va ta'lim tahlili ajratib ko'rsatilgan. Raqamli darsliklarni joriy etishdagi asosiy muammolar aniqlangan hamda rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlari

belgilab berilgan. Ta’lim muassasalarida elektron darsliklardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamlashtirilgan ta’lim, moslashuvchan ta’lim, multimedia, integratsiya, modernizatsiya, interfaollik, pedagogika, innovatsiyalar.

**Введение**

В условиях цифровой трансформации образования электронные учебники становятся неотъемлемой частью учебного процесса. Они позволяют сочетать традиционные методы преподавания с современными информационными технологиями, обеспечивая интерактивность, мобильность и персонализацию обучения. Целью настоящей статьи является анализ инновационных подходов к созданию и использованию электронных учебников, выявление тенденций, проблем и перспектив их развития.

1. Теоретические основы и понятие электронного учебника

Электронный учебник (ЭУ) представляет собой интерактивный программный продукт, включающий учебный материал, мультимедиа-компоненты, средства навигации, тестирования и обратной связи [1]. Современные электронные учебники включают адаптивные алгоритмы, интерактивные задания, встроенные мультимедийные ресурсы и автоматизированные средства оценки.

2. Современные тенденции развития электронных учебников

В мировой практике можно выделить несколько направлений развития ЭУ:

1. Мультимедийность и визуализация. Использование видео, анимаций и интерактивных схем повышает вовлечённость обучающихся и способствует лучшему усвоению материала [2].

2. Адаптивные технологии и искусственный интеллект. Применение алгоритмов ИИ позволяет анализировать прогресс студента и автоматически корректировать сложность заданий [3].

3. Интеграция с LMS и облачными платформами. ЭУ создаются как часть экосистемы обучения, синхронизируются с Moodle, Canvas, Google Classroom и др.

4. Открытые образовательные ресурсы (OER). Тенденция к созданию открытых электронных учебников, доступных бесплатно, особенно заметна в университетах Европы и США [4].

5. Инклюзивность и универсальный дизайн. Электронные учебники разрабатываются с учётом потребностей студентов с ограниченными возможностями, включая функции озвучивания текста и масштабирования интерфейса [5].

3. Проблемы внедрения электронных учебников

Несмотря на очевидные преимущества, использование ЭУ сопровождается рядом трудностей: недостаточная цифровая компетентность педагогов, отсутствие единых стандартов и методик оценки качества ЭУ, технические ограничения, вопросы авторского права и сопротивление традиционных структур.

4. Перспективы развития электронных учебников

В ближайшие годы ожидается усиление тенденций к развитию "умных учебников", внедрению VR/AR, созданию мобильных офлайн-версий, использованию аналитики обучения и расширению международных образовательных платформ. Для успешного внедрения ЭУ требуется системный подход, включающий подготовку педагогов, разработку нормативных документов и государственную поддержку.

Заключение

Электронные учебники становятся важным инструментом модернизации образования. Их эффективность определяется не только технологическими возможностями, но и педагогическим дизайном, методической обоснованностью и степенью интеграции в образовательную среду. Инновационные подходы к проектированию ЭУ, основанные на принципах адаптивности, мультимедийности и интерактивности, способны существенно повысить качество обучения и доступность знаний.

**Список литературы**


1. Кузнецова Е. А. Инновационные технологии в цифровом образовании. — М.: Просвещение, 2023. — 214 с.
2. Broadhurst D. Perspectives on e-books and digital textbooks and the way forward // Insights. — 2022. — № 35. — С. 45–58.
3. Tay N. W., Yang S.-C., Lee C.-S. Ontology-based Adaptive e-Textbook Platform for Student and Machine Co-Learning // arXiv preprint. — 2018.
4. OpenStax: Free and open textbooks for higher education [Электронный ресурс]. — URL: https://openstax.org (дата обращения: 09.10.2025).
5. Zou Y., Kuek F., Feng W. Digital learning in the 21st century: trends and challenges // Frontiers in Education. — 2025. — Т. 10. — С. 1–14.

# LANGUAGE AND IDEOLOGY IN GEORGE ORWELL'S *1984*: A PHILOLOGICAL AND IDEOLOGICAL INQUIRY

***Shokirov Samandar Narimon o'g'li***
Fergana State University, 4th-year student
+998907872232
gulyorayoqubjonova85@gmail.com

**Annotation:** This paper explores the intricate relationship between language and ideology in George Orwell's *1984*, combining philological and ideological perspectives to reveal how linguistic manipulation functions as a central mechanism of totalitarian control. By situating Orwell's linguistic invention "Newspeak" within the frameworks of linguistic determinism (Sapir, 1929; Whorf, 1956) and discourse power theory (Foucault, 1972; Fairclough, 1989), the study examines how the novel transforms language from a vehicle of communication into an apparatus of domination. Newspeak, with its deliberate reduction of vocabulary and simplification of syntax, illustrates how political regimes can restrict not only what individuals are permitted to say but also what they are capable of thinking.

Drawing on philological analysis, the paper investigates how Orwell reconfigures English through processes of semantic inversion, lexical reduction, and syntactic compression, effectively dramatizing the erosion of linguistic diversity and historical memory. From an ideological perspective, the study highlights how such linguistic engineering reflects the Party's ambition to reshape perception, abolish dissent, and construct a uniform collective consciousness. The analysis further considers the Appendix on Newspeak as a meta-philological commentary that frames language as both a historical artifact and a moral barometer of civilization.

**Keywords:** *Orwell, 1984, philology, ideology, Newspeak, linguistic determinism, discourse, totalitarianism*

**Introduction:** Language is not only a medium of communication but also a vehicle of thought, culture, and power. In George Orwell's *1984*, language becomes the primary instrument through which ideology sustains totalitarian control. The Party's systematic reconfiguration of English into "Newspeak" demonstrates how linguistic form can embody political intent. By reducing vocabulary and distorting meaning, the regime in *1984* redefines the very structure of reality and human consciousness. This paper aims to analyze Orwell's depiction of linguistic manipulation through a combined philological and ideological lens, situating the novel within broader linguistic and cultural theories of the twentieth century.

The study proceeds from the assumption that language constructs perception—a premise rooted in the Sapir-Whorf hypothesis of linguistic relativity (Whorf, 1956). Orwell dramatizes this principle through the invention of Newspeak, which eliminates words representing rebellious or abstract ideas. From a philological standpoint, this deliberate linguistic evolution reflects the capacity of language to shape, and ultimately limit, cognition. As a literary text, *1984* offers an unparalleled fictional experiment in linguistic engineering and ideological discourse. The article's central argument is that Orwell's philological construction of Newspeak represents both a critique and a prophecy: a warning of how political systems can weaponize linguistic form to suppress dissent and manipulate truth.

**Methodology:** This study employs a qualitative textual analysis grounded in philological and critical discourse analytic frameworks. The philological approach focuses on the historical, etymological, and

semantic properties of Orwell's invented lexicon and its relationship to "Oldspeak" (standard English). It examines the mechanisms of lexical reduction, semantic inversion, and syntactic simplification in *1984*'s depiction of Newspeak.

In parallel, the ideological analysis draws upon Critical Discourse Analysis (CDA) as formulated by Fairclough (1989) and Foucault's (1972) notion of discourse as power. These frameworks illuminate how linguistic choices reflect and reinforce systems of authority. The study also considers linguistic determinism and relativity theories from Sapir (1929) and Whorf (1956) to explain the cognitive implications of language restriction.

The data consist of textual excerpts from Orwell's *1984*—particularly passages describing the principles of Newspeak and Party slogans ("War is Peace. Freedom is Slavery. Ignorance is Strength."). The analysis focuses on the interplay between linguistic structure and ideological function, interpreting Orwell's linguistic invention as both a literary device and a political commentary.

**Results:** Orwell's portrayal of lexical reduction—the systematic elimination of words—illustrates how restricting vocabulary constrains thought. The Party's goal, as described in *The Principles of Newspeak* (Appendix to *1984*), is to narrow the range of expression until "thoughtcrime" becomes literally unthinkable. Words such as *freedom*, *honor*, and *justice* are eliminated or replaced by simplified terms (*ungood*, *plusgood*, *doubleplusgood*), eroding semantic nuance. From a philological viewpoint, this process exemplifies semantic impoverishment—the loss of conceptual richness due to linguistic simplification.

By severing etymological roots and minimizing lexical diversity, Orwell's fictional language creates what Foucault (1972) would call a

discursive enclosure—a closed linguistic system that defines the limits of what can be said and known. The result is cognitive confinement: language ceases to reflect reality and instead constructs a politically authorized version of it.

The Party's slogans epitomize semantic inversion—a process whereby meanings are reversed to produce ideological compliance. "War is Peace. Freedom is Slavery. Ignorance is Strength." Each phrase negates its literal sense, compelling citizens to internalize contradictory truths. This linguistic manipulation transforms paradox into orthodoxy, demonstrating what Fairclough (1989) terms ideological discourse, where power operates through normalization of distorted meaning.

From a philological perspective, Orwell's deliberate inversion of semantic fields reconfigures traditional oppositions embedded in English. The word "peace" loses its denotation of harmony and becomes synonymous with perpetual war. This resemanticization illustrates how ideology reshapes the historical and moral associations of words. As a linguistic experiment, *1984* thus exposes the vulnerability of meaning to political distortion.

Beyond vocabulary, Orwell manipulates syntactic structure to illustrate how grammar can constrain cognition. Newspeak eliminates complex sentences and subordinate clauses, enforcing a grammatical simplicity that mirrors intellectual obedience. The absence of flexible syntax parallels the disappearance of abstract reasoning. The linguistic reform reflects what Whorf (1956) described as the "grammar of thought"—the notion that syntactic patterns influence conceptual possibilities.

Philologically, this structural reductionism contrasts sharply with the historical development of English, which evolved toward greater

syntactic flexibility. Orwell's reversal of this trend signals an ideological regression: from linguistic diversity to uniformity, from thought expansion to thought containment. The result is a linguistic system engineered to eradicate ambiguity, nuance, and individuality—the very features that constitute the richness of natural language.

**Discussion:** The findings confirm that Orwell's linguistic design in *1984* operates simultaneously on philological and ideological levels. Philologically, the invention of Newspeak demonstrates a deliberate manipulation of linguistic evolution, reversing natural processes of enrichment and diversification. Ideologically, the transformation of language into an instrument of control embodies the totalitarian ambition to dominate consciousness.

From a theoretical standpoint, Orwell's fictional experiment exemplifies linguistic determinism in practice. The Party's control over language ensures control over thought: "If thought corrupts language, language can also corrupt thought" (Orwell, 1946). This statement encapsulates the feedback loop between linguistic form and ideological content. The Party's linguistic engineering parallels real-world instances of propaganda, censorship, and euphemism—mechanisms by which regimes attempt to dictate perception through words.

Furthermore, Orwell's *Appendix on Newspeak* functions as a meta-philological commentary. Framed as an academic analysis written in the future tense, it suggests that Newspeak has become a dead language—a linguistic fossil of a repressive past. This self-reflexive structure underscores the historical consciousness of philology: language not only evolves but also records the moral and intellectual history of its speakers. The appendix implies that philology preserves what ideology seeks to destroy—memory, nuance, and truth.

The relationship between language and ideology in *1984* also resonates with Foucault's (1972) assertion that discourse is both an instrument and an effect of power. Orwell's Party controls not just what people say but what they are capable of imagining. By monopolizing discourse, the state colonizes consciousness. In this respect, Orwell anticipates the concerns of later critical linguists such as Fairclough (1989), who argue that power relations are encoded in linguistic choices and that discourse is central to social domination.

Finally, Orwell's philological imagination turns *1984* into more than a political novel—it becomes a linguistic case study in how **form shapes ideology**. The deliberate construction of Newspeak mimics the methods of real philological systems: classification, derivation, and simplification. Yet, in Orwell's hands, these linguistic processes become moral allegories. The act of reducing language equates to reducing humanity. The destruction of words symbolizes the destruction of freedom, memory, and individuality.

**Conclusion:** This study demonstrates that Orwell's *1984* operates as both a literary and philological exploration of how language mediates ideology. By combining textual analysis with linguistic theory, the paper has shown that Orwell's invention of Newspeak represents a systematic attempt to codify totalitarian thought through linguistic engineering. The mechanisms of lexical reduction, semantic inversion, and syntactic simplification function as tools of ideological control, illustrating the symbiotic relationship between language and power.

From a philological perspective, *1984* dramatizes the historical stakes of linguistic evolution: when language loses diversity and nuance, society loses the capacity for independent thought. Orwell's insight remains relevant in contemporary discourse, where euphemism, political

spin, and algorithmic communication continue to shape perception and reality. The novel's enduring warning is philological as much as political: to safeguard language is to safeguard freedom.

**References:**


1. Sapir, E. (1929). *The status of linguistics as a science. Language,* 5(4), 207–214.
2. Whorf, B. L. (1956). *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf*. Cambridge, MA: MIT Press.
3. Foucault, M. (1972). *The Archaeology of Knowledge*. London: Tavistock.
4. Fairclough, N. (1989). *Language and Power*. London: Longman.
5. Orwell, G. (1949). *Nineteen Eighty-Four*. London: Secker & Warburg.
6. Orwell, G. (1946). *Politics and the English Language. Horizon,* 13(76), 252–265.

# O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR VA BU DAVRDA MULOQOT XUSUSIYATLARI.

***Roziqova Malika Olim qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
**Tel:** +99893 364-46-38

***Jo'raboyeva Rislig'oy Murodjon qizi***
Psixologiya yo'nalishi 2- kurs talabasi:

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ontogenez psixologiyasi doirasida o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. O'smirlik shaxsning shakllanishi va ijtimoiylashuvi jarayonida muhim bosqich hisoblanadi.Ushbu davrda yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlar, emotsional beqarorlik, mustaqillikka intilish, o'zlikni anglash kabi holatlar ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, o'smirlik davridagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari psixologik yondashuvlar asosida ko'rib chiqilgan.Maqola ota-onalar, pedagoglar va psixologlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar**: ontogenez, o'smirlik psixologiyasi, shaxs rivoji, emotsional o'zgarishlar, o'zlikni anglash, psixologik muammolar.

**Аннотация:** В данной статье анализируются психологические особенности подросткового периода в рамках психологии онтогенеза. Подростковый возраст является важным этапом формирования и социализации личности. В статье рассмотрены психологические изменения, возникающие в этот период, такие как эмоциональная нестабильность, стремление к независимости, осознание своей идентичности, основанные на научных источниках. Также обсуждаются проблемы подросткового возраста и пути их решения с

психологической точки зрения. Статья содержит рекомендации, имеющие практическое значение для родителей, педагогов и психологов.

**Ключевые слова:** онтогенез, психология подростков, развитие личности, эмоциональные изменения, осознание идентичности, психологические проблемы.

**Annotation**: This article analyzes the psychological characteristics of the adolescent period within the scope of ontogenetic psychology. Adolescence is an important stage in the formation and socialization of personality. The article discusses the psychological changes that occur during this period, such as emotional instability, striving for independence, and self-awareness, based on scientific sources. Additionally, it addresses problems associated with adolescence and ways to overcome them from a psychological perspective. The article includes recommendations that hold practical significance for parents, educators, and psychologists.

Keywords: ontogeny, adolescent psychology, personality development, emotional changes, self-awareness, psychological issues.

O‘smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davmi tashkil etadi.Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sish oldinroq namoyon bo‘lmoqda. Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas»- ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. [1]

O‘smirlik psixologiyasida quyidagi asosiy jihatlar o‘rganiladi:

1. Identifikatsiya (kimligini anglash). O‘smirlar o‘zlarini anglash va dunyodagi o‘rnini tushunishga intilishadi. Bu jarayon "kimlik inqirozi

"deb ataladi. O'smirlar o'zlarini kim ekanini jamiyatda qanday rolda bo'lishni va kelajakda qanday yol tutishini aniqlashga harakat qilishadi.

2.Hissiy o'zgarishlar. Ushbu davrda o'smirlar his tuyğularda keskin o'zgarishlarni boshdan kechirishadi. Garmonlarning o'zgarishi tufayli kayfiyatlar tez tez o'zgarib turishi mumkin. Bazi paytlarda ular juda xursand, bazida esa tushkunlikka tushishlari odatiy xol. Ushbu xissiyotlarni boshqarishni o'rganish o'smirlikni muhum qismidir.

3.ljtimoiy tasirlar.Dostlar va sinfdoshlar osmirlar hayotida katta ro'l o'ynaydi. Osmirlar tengdoshlari bilan yaqin aloqada bo'lishni istaydi va ular uchun qabul qilinish muhum hisoblanadi. Shu sababli, ular bazan o'zini boshqalarga o'xshatishga harakat qiladi, bu esa bazi paytlarda hatarli bo'lishimumkin (masalan, giyohvand modda yoki zararli odatlarga ergashish).

4. Oilaviy munosabatlar. O'smirlik davrida ota-onalar va bolalar o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'lishi mumkin. O'smirlar o'zlarining mustaqilligi uchun kurashadi, bu esa kõpincha ota-onalar osmirlar bilan ixtilofga olib keladi. Bu holatda ota-onalar o'smirlarni qo'llab quvvatlash va ularning nuqtai nazarini tushinishga intilishlari kerak.

5. Kasb tanlash muammosi. Bu yoshda o'smirlar kelajak kasblari va maqsadlari haqida o'ylay boshlashadi. Ularga hayotiy rejalashtirish va qiziqishlariga mos keladigan kasblarni o'rganishga yordam berish muhim. Akademik bosim o'smirlarning ruhiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ularning maqsadlariga mos sharoit yaratish kerak.

O'smirlikning asosiy xususiyatlaridan biri muhim odamlarning o'zgarishi va kattalar bilan munosabatlarni qayta qurishdir. O'smirlik davrining eng muhim ehtiyojlaridan biri ota-onalar, o'qituvchilar, umuman, oqsoqollar nazorati va homiyligidan, ular o'rnatgan tartib-

qoidalardan xoli boʻlishdir. Buning sababi, birinchi navbatda, kattalar psixologiyasida, oʻsmirning ichki dunyosidagi oʻzgarishlarni sezishni istamaydigan ota-onalardir. Xulosa qilib aytganda, ota-onalar oʻz farzandlari haqida boshqalardan, hatto bolaning oʻzidan ham koʻproq bilishadi. Ammo bolada sodir boʻladigan oʻzgarishlar juda tez sodir boʻladi va ota-onalar hali ham uni bir necha yil avvalgidek koʻrishadi. Oʻsmirlikning murakkab olamida nimalar boʻlayotganini tinglashga va tushunishga shoshilmaslik, ojizlik va istamaslik, muammoga oʻgʻil yoki qizning nigohi bilan qarashga harakat qilish, oʻz begʻuborligiga ishonch – bu, birinchi navbatda, oʻsib borayotgan bolalar oʻrtasida psixologik toʻsiq yaratadi. Tadqiqotchilar yana bir jihatga e'tibor qaratishadi. Kattalar, oʻsmirning oʻsib borayotganini koʻrib, koʻpincha bu jarayonning faqat salbiy tomonlarini sezadilar: oʻsmir "yaramas", "sirli" boʻlib qoldi - va umuman ijobiy yangi narsalarni sezmaydilar. Oʻsmirlik davrida oʻsmirning kattalarga hamdard boʻlish, ularga yordam berish, qaygʻu yoki quvonchini qoʻllab-quvvatlash istagi rivojlanishi ana shunday nihollardan biridir. Kattalar, eng yaxshi holatda, oʻsmirning oʻziga hamdardlik va hamdardlik koʻrsatishga tayyor, lekin oʻspirinning bunday munosabatini qabul qilishga mutlaqo tayyor emas va u bilan teng huquqli boʻlish juda zarurdir [3].

Oʻsmirlik davrida shaxslararo muloqotga yanada keskin ehtiyoj seziladi. Muloqot oʻz-oʻzidan maqsad boʻlib, unda oʻsmirlar oʻz qiziqishlarini amalga oshiradilar, oʻzlari va atrofidagi dunyo haqida gʻoyalarni shakllantiradilar. Oʻsmirlikning asosiy tendentsiyasi tengdoshlar bilan muloqotga qayta yoʻnaltirishdir. Oʻsmirlik davri oʻz fikrini tengdoshlari fikri bilan taqqoslash asosida oʻz fikrini shakllantirish bilan tavsiflanadi. [4]

O‘smir uchun muloqot jarayonida ishtirok etishning o‘zi qimmatlidir. Aynan o‘smir o‘zini shaxs sifatida anglaydi, o‘zi va atrofidagi dunyo haqida mulohazalarni shakllantiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, muloqot o‘smir shaxsining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Chunki muloqot nafaqat axborot almashinuvi (masalan, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi), balki o‘zaro ta’sir, o‘zaro ta’sirdir. O‘smir muloqotni nafaqat intellektual, balki fiziologik va hissiy darajada ham "boshdan kechiradi". Ota-onalar bilan bog‘liq muammolar, asosan, noto‘g‘ri tushunish bilan bog‘liq (ba’zi ota-onalar o‘z farzandlarida tez sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga rioya qilmaydilar) paydo bo‘ladi. Bir tomondan, bola ota-onasiga bog‘lanib, ulardan tushunishni kutadi, ikkinchi tomondan, u ba’zi masala va muammolarni hal qilishda ko‘proq mustaqillikka da’vo qiladi. Ta’kidlanishicha, muloqotga bo‘lgan ehtiyoj yuqori bo‘lgan o‘smirlik davrida, o‘smirlarning aksariyatida muloqot qobiliyatlari va fazilatlari darajasi ancha past bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Z. T. Ntshanova Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya /darslik/. - Toshkent: «Inuovatsiya-Ziyo", 2020, 418 bet.

2. 2. Davletshin M. G. va boshqalar "Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya" T.TDPU. 2009.

3. Mudrik, A.V. Muloqot maktab o‘quvchilarini tarbiyalash omili sifatida / A.V. Mudrik. - M: Pedagogika, 1984 yil

4. <p>Ахметова Е.И. ОСОБЕННОСТИ МЕЖЛИЧНОСТНОГО ОБЩЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ // Материалы V Международной студенческой научной конференции «Студенческий научный форум» URL: <a href="https://scienceforum.ru/2013/article/2013008572">https://sciencef

orum.ru/2013/article/2013008572</a> (дата обращения: 16.09.2025 ).</p>

# 8 MILLIARDLIK AHOLI: INSONIYAT QANDAY BU DARAJAGA YETDI?

***Ne'matullayeva Muxtasar***
Namangan davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi
**E-mail:** muxtasar1005@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada insoniyat tarixida aholi sonining o'sish jarayoni bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Qadimgi davrlarda sekin o'sib borgan aholi soni sanoat inqilobi, tibbiyot yutuqlari va texnologik taraqqiyot natijasida keskin ortgani yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** aholi soni, demografik jarayonlar, aholi o'sishi, aholi prognozi, yer sayyorasining demografik holati.

**Kirish.** Insoniyat tarixi — bu sonlar, o'sish va taraqqiyot tarixidir. Bir paytlar yer yuzida atigi bir necha million kishi yashagan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 8 milliarddan oshdi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Yer aholisi 1830-yilda 1 milliard, 1930-yilda 2 milliardga yetgan. Aholining 3 milliardlik bosqichga chiqishi uchun atigi 30 yil kerak bo'ldi va bu jarayon 1960-yilda sodir bo'ldi. 1975-yilga kelib 4 milliard, 1987-yilda 5 milliardga yetdi. Bugungi kunda esa jahon aholisi 8 milliarddan ortiqni tashkil etadi [1].

**Asosiy qism:** Aholi sonining ortib borishida ishlab chiqarishning rivojlanishi, mehnat taqsimoti, chorvachilik va dehqonchilikning shakllanishi muhim omil bo'lgan. Eramizdan avvalgi 7–8 ming yillarda Yaqin Sharq hududlaridagi ko'plab qabilalar ovchilikdan chorvachilik va

dehqonchilikka o'ta boshlagan. Xo'jalik yuritishdagi bu o'zgarish oziq-ovqat zaxiralarining yaratilishiga va aholining o'lim holatlari kamayishiga olib keldi [2].

Jahonda aholi sonining eng tez o'sish davri XX asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. 1985–1990-yillar orasida dunyo aholisi yiliga o'rtacha 87 million kishiga ortgan bo'lsa, 1990–1995-yillarda bu ko'rsatkich 81 millionni tashkil etdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti prognozlariga ko'ra, XXI asrning o'rtalariga kelib, dunyo aholisi soni 10,5 milliardga yetishi mumkin (1-jadval) [3].

1-jadval

Dunyo aholisi sonining tarixiy o'sish bosqichlari [3].

| **Yil** | **Aholi soni (mlrd)** | **Izoh** |
|---|---|---|
| 1830 | 1 | Birinchi milliard |
| 1930 | 2 | Ikkinchi milliard |
| 1960 | 3 | Sanoatlashuv davri |
| 1975 | 4 | Texnologik o'sish |
| 1987 | 5 | Global urbanizatsiya |
| 2022 | 8 | Axborot asri davri |

BMT ma'lumotlariga ko'ra, Yer aholisi 8 milliardlik bosqichga 2022-yil 15-noyabrda yetgan. 7 milliarddan 8 milliardgacha o'sish uchun 12 yil kerak bo'lgan. Keyingi bosqichlarda 9 milliard aholiga 2037–2038-yillarda, 10 milliardga esa 2050–2060-yillar oralig'ida erishilishi prognoz qilinmoqda.

Aholining o'sishi faqat son jihatdan emas, balki tug'ilish, o'lim, migratsiya va yosh tarkibi kabi omillar bilan ham bog'liq. Masalan, o'lim darajasining kamayishi va o'rtacha umr ko'rishning oshishi aholi o'sishiga sezilarli hissa qo'shgan. Rivojlangan mamlakatlarda aholi o'sishi sekinlashgan yoki kamayish holatlari kuzatilmoqda,

rivojlanayotgan davlatlarda, ayniqsa Afrikada esa tez oʻsish davom etmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida har soniyada taxminan 4,3 kishi tugʻiladi va 2 kishi vafot etadi. Natijada, har soniyada aholi soni oʻrtacha 2–3 kishiga ortib bormoqda. 1950-yilda oʻrtacha umr 46 yil boʻlgan boʻlsa, 2024-yilda bu koʻrsatkich 73,3 yilga yetgan. Bu esa tibbiyot, sanitariya va ijtimoiy infratuzilmaning jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi [2].

**Xulosa.** Zamonaviy demografik tahlillar shuni koʻrsatadiki, XXI asr oʻrtalariga borib, aholi oʻsish sur'atlari pasayish bosqichiga oʻtmoqda. Bu insoniyatni yangi strategik yoʻnalishlarga – barqaror rivojlanish, demografik boshqaruv va inson kapitali sifatini oshirishga undaydi.

Insoniyatning 8 milliardlik bosqichga erishishi tarixiy yutuq boʻlish bilan birga, yangi mas'uliyat davrining boshlanishidir. Demografik oʻsishni nafaqat son, balki sifat jihatidan boshqarish global taraqqiyotning asosiy shartidir. Shu bois, insoniyat kelajakda resurslardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va aholi farovonligini oshirish orqali demografik muvozanatni saqlashga intilishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. M.J.Maxmudova. Jahon geografiya // Oliy oʻquv yurti talabalari uchun darslik. – Namangan, 2022.

2. Z.M.Tojiyeva. Aholi geografiyasi/darslik/. – Toshkent.: «Innovatsiya-Ziyo", 2020.

**3.** BMT. World Population Prospects 2024 ma'lumotlari.

# ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI YOSH AVLODNI ILM-FANGA JALB ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

***Sulaymonbekov Suhaylbek***
IIV Buxoro akademik litseyi Huquqshunoslik fani oʻqituvchisi,
Buxoro davlat pedagogika instituti I bosqich magistranti
**Tel:**+998907129095
**E-mail:** sulaymonbekovsuhaylbek@gmail.com

***Sharipova Nargiza Shermat qizi***
a master student of the department of English Literature
at the Asia International University
**E-mail:** nargizasharipova553@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning yosh avlodni ilm-fanga jalb etishdagi oʻrni va istiqbollari tahlil qilinadi. XXI asrda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, oʻquvchilarda ilmiy fikrlashni shakllantirish va ularning innovatsion salohiyatini roʻyobga chiqarish ta'lim tizimining ustuvor vazifasiga aylangan. Shu nuqtai nazardan, maqolada STEAM ta'limi, raqamli texnologiyalar, loyiha asosida oʻqitish, robototexnika va boshqa interaktiv metodlarning yoshlar orasida fan va texnologiyaga boʻlgan qiziqishni kuchaytirishdagi ahamiyati koʻrib chiqiladi. Pedagoglarning malakasini oshirish, ilmiy toʻgaraklar faoliyatini yoʻlga qoʻyish va zamonaviy oʻquv muhitini yaratish orqali yoshlarni ilm-fanga jalb etish boʻyicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль и перспективы современных педагогических технологий в привлечении молодого поколения к науке. В условиях XXI века модернизация образовательного процесса, формирование научного мышления у учащихся и раскрытие их инновационного потенциала

становятся приоритетными задачами системы образования. В статье анализируется значение STEAM-образования, цифровых технологий, проектного обучения, робототехники и других интерактивных методов в повышении интереса молодежи к науке и технологиям. Также предлагаются практические рекомендации по повышению квалификации педагогов, организации научных кружков и созданию современного образовательного пространства с целью вовлечения молодежи в научную деятельность.

**Annotation:** This article explores the role and prospects of modern pedagogical technologies in engaging the younger generation in science. In the 21st century, the modernization of the educational process, the development of scientific thinking among students, and the realization of their innovative potential have become key priorities of the education system. The article discusses the importance of STEAM education, digital technologies, project-based learning, robotics, and other interactive methods in fostering youth interest in science and technology. Practical recommendations are proposed for enhancing teacher qualifications, organizing scientific clubs, and creating a modern learning environment to effectively attract young people to scientific activities.

**Kalit so'zlar**: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilm-fanga qiziqish, yosh avlod, STEAM ta'limi, innovatsion yondashuv, interaktiv metodlar, axborot texnologiyalari, ilmiy tafakkur, loyiha asosida o'qitish, motivatsiya

**Kirish.** So'nggi yillarda O'zbekistonda ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda, iqtidorli yoshlarni nufuzli milliy hamda xalqaro olimpiadalar, musobaqalar va tanlovlarda salmoqli

natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, innovatsion g‘oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.[1]

Sohada qilinayotgan o‘zgarishlarga qaramasdan, zamonaviy yosh-avlodni ilm-fanga qiziqtirish jarayoni juda ham sust rivojlanmoqda. Bugungi fan-texnika rivojlangan bir davrda ham ilm qilish igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli ish bo‘lib qolmoqda. Binobarin raqobat kuchaygan, ilmiy yangiliklarga talablar oshgan globallashuv davrida yoshlarni eski usullar bilan ilm-fanga qiziqtirish samarasizligi ko‘rinmoqda.

Yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish bugungi kunda har qachongidan ham muhimroq. Axborot texnologiyalari rivojlanib, yoshlarning diqqat-e’tibori ko‘proq raqamli dunyoga yo‘nalgani sababli, an’anaviy ta’lim uslublari ularni ilm-fanga jalb etishda yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Yoshlarning ilm-fanga qiziqmasligi natijasi esa malakali kadrlar kamayib ketishiga, pedagogika va boshqa sohalarda ilmiy inqirozlarga olib kelishi mumkin. Kadrlar tanqisligi deganda ilmli PhD yoki DSc darajadagi ustozlarning Yoshi o‘rtacha 40-60 yosh bo‘lsa, 20 yildan so‘ng ularning 70-80 foizi o‘z faoliyatini yakunlaydi. Hozirgi yoshlarning bu ilmiy darajalarni olishga qiziqishi kamaygani tufayli sohada kadrlar tanqisligi yuzaga keladi.

Shu sababli quyidagi maqolada biz yoshlarning ilm fanga qiziqishini zamonaviy yo'llar bilan oshirishning usullarini ko'rib chiqamiz.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 maydagi "Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'rsida"gi 313-sonli qarorida hududlarda yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatga keng jalb qilish, yoshlar texnoparklarini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalariga investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy markazlar tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan

Shuningdek davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2020-yilning murakkab shart-sharoitida xalqimiz salomatligi yo'lida bajarilgan ishlar, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruvida davr talab qilgan yangi usullarga o'tilgani, xalq xo'jaligining barcha sohalarida tezkor moslashuv va yangi yechimlar natijasida o'sish va rivojlanish ta'minlanganini ta'kidladi.

Prezidentimiz Murojaatnomada ilm-fan va innovatsiyalarga alohida to'xtalib, "Mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir", degani barchamizda g'urur va faxr-iftixor

tuyg‘ularini uyg‘otish bilan birga, zimmamizga ulkan mas’uliyat ham yukladi.[2]

**Tadqiqot metodologiyasi**

O‘zbekistonda yoshlarning ilm-fanga qiziqishi past bo‘lishining bir nechta asosiy sabablari bor. Quyida ularni tadqiqotlar asosida tahlil qildik. Anketa so‘rov shaklida o‘tgan bu jarayonda IIV Buxoro akademik litseyi 150 nafar o‘quvchisi, Buxoro pedagogika institutining I kurs magistratura bosqichi talabalari va Osiyo xalqaro universitetining II kurs magistratura bosqichi talabalari qatnashdi va savollarga javob berdi.

So‘rovnomadan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, quyidagilar ilm-fanga qiziqish pasayishiga olib kelmoqda:

- Yoshlarda motivatsiya va rag‘bat yetishmasligi;
- Ta’lim tizimi faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan muammolar;
- Zamonaviy texnologiyalarning yoshlarni chalg‘ituvchi ta’siri;
- Namuna bo‘ladigan rol modellar(olim,fan nomzodlarining, akademik) ning yetishmasligi;
- Ish o‘rinlari va kelajak kafolatining noaniqligi;
- Ijtimoiy va iqtisodiy bosimlar;
- Tadqiqot infratuzilmasining zaifligi.

Motivasiya va rag‘batning yetishmasligiga ilm-fan bilan shug‘ullanuvchilarga insonlarga ayniqsa, yoshlar ko‘pincha ilmiy faoliyatning rag‘batlantirmasligi, Ilm-fan bilan shug‘ullanuvchilarning jamiyatdagi mavqei past bo‘lishi, yutuqlarga erishish uzoq vaqt va sabr talab qilishi misol bo‘ladi.[3]

Zamonaviy o‘quv metodlarining yo‘qligi yoki eskirgan darsliklarning ko‘pligi, ilmga oid darslarining nazariy bo‘lib, amaliyotga e’tibor kamligi va o‘qituvchilarning malakasi past bo‘lishi yoki o‘z ishiga

qiziqmasligi esa ta'lim tizimining faoliyatiga ta'sir koʻrsatayotgan muammolar hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalardan notoʻgʻri foydalanish ya'ni Ijtimoiy tarmoqlar, oʻyinlar va koʻngilochar kontent yoshlarni ilmiy faoliyatdan chalgʻitmoqda. Shuningdek, yoshlar internetda koʻproq "mashhurlik"ka intilishi ularda ilmiy muvaffaqiyatdan ustun qoʻyilmoqda.

Olimlarning oʻziga xos va jamiyatga ohangrabodek tortadigan xarakterining yoʻqligi ularning keng jamoatchilikdan uzoqlashtirmoqda, buning natijasida yoshlarning kumiri olimlar emas, balki vayner, qiziqchi, videograflar va treyderlar boʻlib qolmoqda. Shuningdek yoshlar orasida mashhur boʻlgan shaxslar koʻpincha san'at, sport yoki blogerlik sohasidan boʻlib, olimlar ommaviy axborot vositalarida kam koʻrinadi.

Ilmiy karyerani tanlaganlar uchun ish oʻrinlarining cheklanganligi, shuningdek, olim boʻlib muvaffaqiyatga erishishning murakkabligi bu faoliaytga qiziqishni soʻndirmoqda.

Oila yoki jamiyat tomonidan "tezroq pul topish" bosimi natijasida bu sohaga oʻz munosabatini bildirgan yoshlarni ilm-fandan chetlashtirmqoda. Qoʻshimcha ravishda oliy ta'lim olish oʻrniga daromadli ish izlashga undovchi omillar ham yoshlarni ilm olishiga toʻsqinlik qiladi.

Zamonaviy laboratoriya va texnologiyalarning yoʻqligi va ilmiy loyihalarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar cheklanganligi bu ham ilm-fanga qiziqishni kamaytirgan sabablaridan biri boʻladi

**YECHIMLAR VA TAKLIFLAR**

1. Motivatsiyani kuchaytirish va ragʻbat tizimini yaratish;

- Ilmiy grantlar, stipendiyalar va mukofotlar tizimini kengaytirish.
- Ilmiy muvaffaqiyatni ommalashtirish, yosh olimlarni targʻib etish.

- "Ilm haftaligi" yoki "Yoshlar innovatsion forumi" kabi tadbirlarni yo'lga qo'yish.

2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish:

- STEAM ta'limini rivojlantirish;

- Loyiha asosida o'qitish va gamifikatsiya metodlarini qo'llash.

3. Pedagoglarning malakasini oshirish:

- "Digital Pedagog" kurslarini tashkil etish;

- Mentorlash tizimini yaratish.

4. Zamonaviy infratuzilma va ilmiy muhit yaratish:

- Mini-laboratoriyalar, robototexnika xonalari tashkil etish;

- Ilmiy to'garaklar faoliyatini jonlantirish.

5. Axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish:

- Onlayn laboratoriyalar va elektron platformalardan foydalanish.

6. Rol modellarni yaratish va ommalashtirish.

- O'zbekistonlik olimlarni yoshlar orasida targ'ib etish.[4]

**Xulosa.** Zamonaviy ta'lim tizimi faqat bilim beruvchi emas, balki, ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi tizimga aylanishi lozim

Yoshlar orasida ilm-fanga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish uchun ularning ichki va tashqi rag'batini uyg'otuvchi sharoitlar yaratish muhimdir. Rag'batlantiruvchi grantlar, tanlovlar, ilmiy loyihalar va xalqaro olimpiadalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning o'z salohiyatiga bo'lgan ishonchi ortadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida yosh olimlarning muvaffaqiyatlarini targ'ib qilish, "ilmiy yulduzlar" obrazini yaratish orqali ijtimoiy motivatsiya kuchayadi.

. Yoshlarning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini oshirish mamlakatning intellektual salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ta'limda

zamonaviy yondashuvlar, raqamli muhitga moslashgan o'qituvchi va o'quvchi kelajakdagi ilmiy jamiyatning kafolatidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari", Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019, 55-bet.

2. Shuxrat Sattorov, "Biz g'alaba qozonamiz","Bilim va intellektual salohiyat" nashriyoti 2018 y.

3. "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.08.2019 yildagi PQ-4433-son

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 maydagi "Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'rsida"gi qarori VMQ 313-son.

5. B.M. Toshmamatov, G.N. Uzakov, S.M. Shomuratova, L.Z. Temirova, "Calculation of energy efficiency of the solar installation for the processing of municipal solid waste", International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 6, Issue 12, pp 12097-12102, December 2019, India.

**6.** Uzakov G.N., Toshmamatov B.M, Mamedova D.N.,Temirova L. Experimental solar installation for the processing of municipal solid waste EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5 | Issue: 3 | March 2020 - Peer Reviewed Journal. SJIF Impact Factor

# XVIII–XIX ASRLARDA O‘RTA OSIYODA QULCHILIK MUNOSABATLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Abduqahorov Anvarjon Alijon o‘g‘li**
Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqotchisi
**E-mail:** anvarabduqahhorov34@gmail.com
ORCID ID 0009-0004- 4836-9867

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XVIII–XIX asrlarda O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan qullik tizimining shakllanishi, rivoji va o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Muallif O‘rta Osiyo xonliklari — Buxoro, Xiva va Qo‘qon davlatlarida qullik tizimining iqtisodiy, siyosiy hamda diniy asoslarini yoritgan. Shuningdek, qul savdosining manbalari, qul bozorlarining faoliyati, Eron va Rossiya bilan bo‘lgan siyosiy aloqalar, diniy fatvolarning qullikka ta’siri va qul qo‘zg‘olonlari haqida daliliy ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqotda qullik tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, uning mintaqaviy va mafkuraviy omillar bilan bog‘liqligi, hamda XIX asr oxirida bu tizimning tanazzulga uchrash sabablari ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности рабовладельческих отношений в Средней Азии XVIII–XIX веков. Автор анализирует экономические, политические и религиозные основы рабства в Бухарском, Хивинском и Кокандском ханствах. Освещены источники работорговли, функционирование рабских рынков, дипломатические отношения с Ираном и Россией, влияние религиозных фетв на институт рабства, а также восстания рабов. В статье выявлены региональные и идеологические особенности рабовладельческой системы и причины её упадка во второй половине XIX века.

**Abstract**: This article examines the distinctive features of slavery relations in Central (Middle) Asia during the 18th and 19th centuries. The author analyzes the economic, political, and religious foundations of slavery within the Bukhara, Khiva, and Kokand Khanates. The study highlights the sources of slave trade, the operation of slave markets, diplomatic relations with Iran and Russia, the influence of religious fatwas on slavery, and major slave uprisings. The article identifies the unique regional and ideological characteristics of slavery in Middle Asia and the main factors that led to its decline in the late 19th century.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, qullik tizimi, qul bozori, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, Eron, Rossiya, diniy fatvolar, qul qo'zg'oloni, siyosiy tahlil.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, рабство, рабский рынок, Бухарское ханство, Хивинское ханство, Кокандское ханство, Иран, Россия, религиозные фетвы, восстание рабов, политический анализ.

**Keywords:** Middle Asia, slavery system, slave market, Bukhara Khanate, Khiva Khanate, Kokand Khanate, Iran, Russia, religious fatwas, slave rebellion, political analysis.

**Kirish.** Insoniyat tarixining eng og'ir va murakkab sahifalaridan biri bu — qullik tizimidir. Qullik qadim zamonlardan boshlab deyarli barcha sivilizatsiyalarda mavjud bo'lgan bo'lsa-da, u har bir mintaqada o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lgan. Ayniqsa, XVIII–XIX asrlarda O'rta Osiyo xalqlari hayotida qullik nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy tizimning bir bo'lagi, balki siyosiy va mafkuraviy vosita sifatida ham muhim o'rin tutgan. Qullik munosabatlari mintaqaning ichki ijtimoiy tuzilmasiga, tashqi savdo aloqalariga hamda xalqaro siyosiy munosabatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

O'rta Osiyo hududida, xususan, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida mavjud bo'lgan qullik tizimi o'zining murakkabligi, ijtimoiy qatlamlarga chuqur kirib borishi va davlat siyosatining bir qismiga aylanganligi bilan ajralib turadi. Bu tizimning ildizlari qadimiy davrlarga borib taqalsa-da, aynan XVIII–XIX asrlar unga eng yuqori darajada rivojlanish bosqichini olib keldi. Shu davrda qullik O'rta Osiyo xonliklari iqtisodiyotining, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, chorvachilik va xizmat ko'rsatish sohalarining muhim mehnat resursi sifatida ishlatilgan.

Qullik tizimining shakllanishida bir nechta omillar muhim rol o'ynagan:

1. Harbiy bosqinlar va urushlar, natijasida qo'shni mamlakatlardan asirlar olinib, qul sifatida ishlatilgan.

2. Olomonchilik (reydlar) — turkman va qozoq qabilalari tomonidan Eron, Afg'oniston, hatto Kavkaz hududlariga uyushtirilgan talonchilik yurishlari orqali asirlar olib kelingan.

3. Ijtimoiy tengsizlik va qarz munosabatlari

Shunday qilib, O'rta Osiyoda qullik tizimi tabiiy mehnat munosabatlarining bir qismi emas, balki iqtisodiy, siyosiy va diniy omillarning kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lgan.

XVIII–XIX asrlarda O'rta Osiyodagi qullik tizimining o'ziga xos jihati shundaki, u faqat iqtisodiy manfaat bilan emas, balki diniy e'tiqod va siyosiy mafkura bilan ham mustahkamlangan edi. Buxoro amirligi va Xiva xonligida shariat fatvolari orqali qullikni oqlovchi hujjatlar ishlab chiqilgan. Ulamolarning ayrimlari hatto shia e'tiqodidagi musulmonlarni "haqiqiy mo'min emas" deb e'lon qilib, ularni asir olish va qulga aylantirishni joiz deb topganlar. Natijada, diniy qarama-

qarshiliklar (shia va sunniy ziddiyatlari) qullikni mafkuraviy asosda oqlash vositasiga aylangan[2].

Bu davrda Eron bilan bo'lgan aloqalar ham qullik tizimining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Eronning shimoliy viloyatlarida yashovchi aholining katta qismi, ayniqsa shialar, turkman va qozoq bosqinchilari tomonidan asir olinib, Buxoro yoki Xiva bozorlarida sotilgan. Eronlik tarixchi manbalar hatto ayrim hollarda eronlik hokimlar o'zlari ham bu qul savdosida bevosita vositachi bo'lganini qayd etadi. Shu tariqa, O'rta Osiyo va Eron o'rtasida bir necha asrlar davomida "qul almashinuvi tizimi" shakllangan.

Rossiya imperiyasining XVIII asr oxiridan boshlab O'rta Osiyo bilan shu masalada diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yishi ham bu masalaga yangi siyosiy tus berdi[7]. Rossiya qulchilikka qarshi "abolitsion siyosat" olib borayotganini e'lon qilgan bo'lsa-da, aslida bu siyosat O'rta Osiyo ustidan mustamlakachilik nazoratini o'rnatish vositasiga aylangan. Buxoro yoki Xiva davlatlaridagi rus asirlari masalasi Rossiyaning mintaqadagi harbiy aralashuvlarini oqlash uchun ishlatilgan. Shu ma'noda, qullik tizimi mintaqaviy siyosatning bir qismi sifatida Rossiya, Eron va O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi geosiyosiy raqobatda markaziy o'rin tutgan.

O'rta Osiyodagi qullik tizimi o'zining madaniy jihatlari bilan ham ajralib turgan. Qullar faqat mehnat kuchi sifatida emas, balki saroy hayoti, hunarmandchilik, harbiy xizmat, hatto diplomatik faoliyatda ham ishtirok etgan. Ayrim hollarda qullar xo'jayinlarining ishonchini qozonib, yuqori lavozimlarga ham ko'tarilgan. Buxoro va Xiva saroylarida "mamluk" (ozod etilgan sobiq qul) toifasiga mansub amaldorlar faoliyat yuritgan[12]. Bu holat O'rta Osiyodagi qullik

tizimining boshqa mintaqalardan — masalan, Yevropa yoki Amerikadagi qullikdan — farqli xususiyatini koʻrsatadi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiyaning mintaqaga kirib kelishi, xalqaro savdo yoʻnalishlarining oʻzgarishi natijasida qullik tizimi asta-sekin tanazzulga yuz tutdi. Biroq bu tizim 1870–1880-yillargacha yashirin shaklda saqlanib qoldi. Mazkur maqolada Oʻrta Osiyodagi qullik tizimining shakllanishi, iqtisodiy asoslari, diniy va siyosiy omillari, shuningdek, bu tizimning tanazzul bosqichi hamda tarixiy ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, Oʻrta Osiyoda mavjud boʻlgan qullikning boshqa mintaqalardagi qullik tizimlaridan farqlovchi jihatlari aniqlanadi.

**Asosiy qism.** Oʻrta Osiyoda qullik tizimi qadimiy tarixiy ildizlarga ega boʻlib, u dastlab urush asirlarini mehnatga jalb qilish shaklida paydo boʻlgan. Ammo XVIII–XIX asrlarga kelib, bu tizim ancha murakkablashib, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy jihatdan mustahkamlanib bordi. Qullik faqat alohida shaxslarning mulkchilik huquqini ifoda etuvchi ijtimoiy hodisa emas, balki butun davlatlar miqyosida shakllangan iqtisodiy mexanizm, diplomatik vosita va mafkuraviy boshqaruv quroliga aylangan edi. Bu davrda Oʻrta Osiyoda — xususan, Buxoro amirligi, Xiva va Qoʻqon xonliklarida — qullik tizimi oʻzining eng faol davrini boshdan kechirdi. Qullar nafaqat ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalarida, balki saroy, harbiy va maʼmuriy tizimlarda ham keng miqyosda ishlatilgan. Oʻrta Osiyoda qullik tizimining shakllanishiga olib kelgan omillarni uch asosiy toifaga ajratish mumkin: harbiy, iqtisodiy va ijtimoiy-diniy omillar.

**a) Harbiy omillar**. XVIII asrda mintaqada doimiy urushlar, qabilaviy toʻqnashuvlar va bosqinlar qullik tizimining asosiy manbalaridan biri boʻlgan. Koʻchmanchi turkman va qozoq qabilalari

o'zining "olomonchilik" deb atalgan reydlari orqali Eron, Afg'oniston va Kaspiybo'yi viloyatlariga bostirib kirib, erkak, ayol va bolalarni asirga olib, keyinchalik O'rta Osiyoning turli qul bozorlarida sotishgan[1].

Bu amaliyot o'z davrida davlatlar tomonidan ham ma'lum darajada qo'llab-quvvatlangan. Masalan, ingliz sayyohi Aleksandr Borns (1834) o'z asarida Xiva xoni qo'shinlariga "har bir yurishdan olingan o'ljaning beshdan bir qismini davlatga topshirish majburiyati" yuklatilganini yozadi[5]. Bu esa qul savdosining davlat nazoratida bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, A. Vamberi (1863) o'z "Travels in Central Asia" asarida O'rta Osiyo bozorlarida ko'rgan manzaralarni batafsil tasvirlab, "Buxoroda qul savdosi go'yo chorva yoki paxta savdosiga o'xshash tarzda amalga oshirilardi" deb yozadi[9].

**b) Iqtisodiy omillar.** Qullik tizimi iqtisodiy jihatdan mintaqaning ishlab chiqarish tizimiga bevosita bog'liq edi. O'rta Osiyo davlatlarining asosiy boyligi — yer va mehnat edi. Shu sababdan qul mehnati arzon, ishonchli va doimiy ishchi kuchi sifatida qadrlangan. Qullar dehqonchilik plantatsiyalarida, chorvachilikda, hunarmandchilikda, shuningdek, karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlashda xizmat qilgan. Xiva xonligida qullar asosan paxta, bug'doy va sabzavot yetishtiradigan yirik dehqon xo'jaliklarida ishlagan.

Buxoro amirligida esa qullar shahar hunarmandlari, savdogarlar va boylar xizmatida bo'lgan. Ular nafaqat mehnat qilgan, balki xo'jayinlarining iqtisodiy faoliyatini kengaytirishda ham vositachilik qilganlar. Manbalarga ko'ra, XIX asr o'rtalariga kelib, faqat Buxoro amirligining o'zida 30–40 mingdan ortiq qul mavjud bo'lgan. Bu raqam o'sha davr O'rta Osiyo jamiyatining iqtisodiy hayotida qullikning qanchalik keng tarqalganini ko'rsatadi.

**c) Diniy va mafkuraviy omillar**. Qullik tizimining barqarorligiga eng kuchli turtki — diniy fatvolar va mafkuraviy qarashlar edi. Shariat asosida qulchilik to‘liq taqiqlanmagan, aksincha, ba’zi holatlarda qonuniy deb topilgan. Bu imkoniyatdan O‘rta Osiyo ulamolari va xonlari faol foydalanganlar. XV asrda Buxorolik shayx Shamsiddin boshchiligidagi diniy doiralar shialarni "bid’atchi" deb e’lon qilib, ularni asir olib qul qilishni joiz deb topganlar[6]. Bu esa siyosiy raqiblarni dinga asoslangan tarzda qulga aylantirish imkonini bergan. Shu tariqa, diniy mafkura qullikni yo‘qotuvchi emas, balki uni mustahkamlovchi vosita vazifasini bajargan. O‘rta Osiyodagi qullik tizimi o‘zining keng savdo geografiyasi bilan ajralib turgan. Qullarning asosiy manbalari quyidagilar edi: Eronning shimoliy viloyatlari (Mazandaron, Gurgon, Kirmon), Afg‘onistonning shimoli, Qora dengiz bo‘ylaridan keltirilgan rus va kavkazlik asirlar. Eron manbalariga ko‘ra, XVIII asr oxirida Qojarlar sulolasining vakili Og‘a Muhammadxon Kermon shahrini bosib olganidan so‘ng, minglab ayollar va bolalar asir olinib, O‘rta Osiyo bozorlarida sotilgan. Bu qullarning ko‘pchiligi shia e’tiqodidagi forslar bo‘lgan. Boshqa tomondan, O‘rta Osiyo qullari ham ba’zan Eron va Afg‘onistonga olib ketilgan. Masalan, 1840-yillarda Eron va Xiva o‘rtasida "qul almashinuvi" diplomatik yo‘l bilan amalga oshirilgan — bu tarixda nodir hodisadir.

Qul bozorlari asosan Buxoro, Xiva, Urganch, Marv, Karshi va Qo‘qon shaharlarida faoliyat yuritgan. Har bir bozor haftaning muayyan kunlarida ochilgan. Qullar narxi yosh, jins, jismoniy holat va kasb-hunariga qarab belgilanar edi: Masalan, 10–15 yoshlar orasidagi erkak qulning bahosi o‘rtacha 35 tilla bo‘lgan. 15–25 yoshlar orasidagi kuchli qullar 45–50 tilla, 25–40 yosh oralig‘idagilar esa 80 tilla atrofida sotilgan. Bu yosh chegarasidagi erkaklar og‘ir mehnatga eng yaroqli

davrda bo'lgani bois, ularga talab yuqori bo'lgan. Cho'rining qiymatida esa biroz boshqacha mezon amal qilgan: 10–15 yoshlar oralig'idagi chiroyli cho'rilar 70–80 tilla turishi mumkin bo'lgan. 15–25 yoshlar orasidagi cho'rilar odatda 50–60 tilla baholangan. 25–40 yoshlar esa uy xizmatida samaradorlik pasaygani sababli 40 tilla atrofida sotilgan[8].

Qullik tizimi ko'p hollarda davlat siyosatining bir bo'lagi sifatida qaralgan. Masalan Xiva xonligida xon har bir sotilgan quldan 20% soliq (boj xarakteridagi to'lov) undirar edi[11]. Shuningdek qul savdosidan olinadigan soliq davlat xazinasining muhim manbalaridan biri bo'lgan. Shuningdek, har bir asir yoki qul harbiy yurishdan keyin rasmiy ravishda ro'yxatga olingan. Bu tartibning mavjudligi qulchilikni davlat tomonidan tan olingan iqtisodiy faoliyat sifatida ko'rsatadi. Qullik tizimi, shuningdek, diplomatik vosita sifatida ham ishlatilgan. Eron, Rossiya va O'rta Osiyo o'rtasida qul masalasi ko'p hollarda siyosiy bosim vositasi sifatida qo'llangan. Masalan, Rossiya imperiyasi XIX asrda Buxorodagi rus asirlarini ozod etish bahonasida harbiy bosim o'tkazgan. Bu esa mintaqada Rossiya ta'sirining kuchayishiga olib kelgan.

Qullik tizimi O'rta Osiyo jamiyatining ijtimoiy tuzilishiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Jamiyat qatlamlari aniq ajratilgan: amaldorlar, yer egalari, erkin dehqonlar va qullar. Qullar inson sifatida emas, balki iqtisodiy resurs sifatida qaralgan. Bu ijtimoiy tafovut mintaqaning ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga ham ta'sir etgan, jamiyatda qat'iy ierarxik tizimni shakllantirgan. Shunga qaramay, ayrim qullar o'z xo'jayinlariga sodiqlik evaziga erkinlikka erishgan. Bu jarayon natijasida "ozod qilingan qullar" — mamluklar paydo bo'lgan[10]. Ularning ayrimlari keyinchalik harbiy yoki ma'muriy lavozimlarga tayinlangan, bu esa tizim ichidagi ma'lum ijtimoiy harakatchanlikni ko'rsatadi.

XVIII–XIX asrlarda O'rta Osiyoda qullik tizimining shakllanishi ko'p omilli jarayon bo'lgan. U harbiy talonchilik, iqtisodiy manfaat va diniy mafkura uyg'unligida yuzaga kelgan murakkab hodisadir. Qullik mintaqaning iqtisodiy tizimini harakatlantirgan, siyosiy barqarorlikni ta'minlagan, ammo inson huquqlarini butunlay poymol qilgan tizim sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan.

**Xulosa.** XVIII–XIX asrlarda O'rta Osiyoda shakllangan qullik tizimi mintaqa tarixining eng murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisalaridan biridir. U faqatgina iqtisodiy ekspluatatsiya shakli emas, balki davlat boshqaruvi, siyosiy mafkura va diniy e'tiqod bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab tizim bo'lib shakllandi. Qullikning mavjudligi o'sha davr jamiyatining siyosiy tuzilmasi, ijtimoiy ierarxiyasi hamda xalqaro munosabatlari bilan chambarchas bog'liq edi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo xonliklarida — Buxoro, Xiva va Qo'qon davlatlarida — qullik tizimi bir necha asosiy omillar ta'sirida rivoj topgan: urushlar natijasida olingan asirlar, iqtisodiy tengsizlik, diniy fatvolar va siyosiy manfaatlar bu tizimning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari bo'lgan. Qullar mehnati nafaqat xo'jalikning turli sohalarida, balki saroy va davlat boshqaruvida ham faol ishlatilgan.

Xiva xonligi va Buxoro amirligida qul savdosidan olinadigan boj davlat byudjetining bir qismi sifatida shakllangan. Bu tizim shunchaki mehnat ekspluatatsiyasi emas, balki iqtisodiy mexanizm darajasigacha ko'tarilganini anglatadi. Qullar ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida asosiy ishchi kuch bo'lib, ularning mehnati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlagan. Qullik tizimining siyosiy xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xonlar va amirlar qullarni siyosiy sodiqlikni sinovdan o'tkazuvchi vosita sifatida ishlatgan, ba'zi hollarda esa sobiq qullar yuqori lavozimlarga tayinlangan. Shu

bilan birga, qullik masalasi Rossiya va Eron kabi davlatlar bilan diplomatik munosabatlarda ham siyosiy bahona sifatida xizmat qilgan. Rossiya imperiyasi “insonparvarlik” niqobi ostida O‘rta Osiyoga kirib borib, bu mavzuni mustamlakachilik siyosatiga oqlov sifatida ishlatgan.

Diniy jihatdan esa qullik tizimi shariat qoidalari bilan asoslanib, ulamolar tomonidan ma’naviy jihatdan oqlangan. Ayrim diniy yetakchilar shia yoki “kofir diyoridan” keltirilgan asirlarni qulga aylantirishni joiz deb topgan. Natijada, diniy mafkura qullik tizimining barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biriga aylangan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiya imperiyasining mintaqaga kirib kelishi, xalqaro savdo yo‘llarining o‘zgarishi, yangi ma’rifatparvar g‘oyalarning tarqalishi va jadidchilik harakatining kuchayishi natijasida bu tizim asta-sekin inqirozga yuz tutdi. Biroq u 1880-yillargacha yashirin shaklda saqlanib qolgan. Umuman olganda, O‘rta Osiyodagi qullik tizimi insoniyat tarixining og‘ir, biroq muhim sahifalaridan biridir. U mintaqa jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotiga chuqur iz qoldirgan. Qullik tizimining tahlili bizga o‘tmishdagi ijtimoiy adolatsizlik, diniy ekstremizm va iqtisodiy ekspluatatsiya ildizlarini anglash imkonini beradi. Shu bois, bu mavzu nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kunda ham inson huquqlari, ijtimoiy tenglik va adolat masalalarini chuqur o‘rganish uchun muhim ilmiy saboqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abduqahhorov, Anvarjon. Buxoro xonligida qul savdosi // Bulletin of Central Science. – 2024. – №7. – B. 7–11.

2. Abduqahhorov, Anvarjon. Markaziy Osiyoda qul savdosi tarixi: tarixiy va siyosiy tahlil. [Matn]: monografiya. – Farg‘ona, 2025. – 23 bet.

3.Abduqahorov, A. (2025). XIX asrda Markaziy Osiyo xonliklarida qullar manbalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy roli. In Yangi O‘zbekiston

ilmiy tadqiqotlar jurnali (Vol. 2, No. 9, pp. 159–164). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.17267201

4. Becker, S. M. (1968). Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. Cambridge, MA: Harvard University Press. – 382 pp. pp. 173, 318–320.

5. Burnes, A. (1834). Travels into Bokhara: Being the account of a journey from India to Cabool, Tartary, and Persia, performed by order of the Supreme Government of India, in the years 1831–1833. London: John Murray. – 3 vols., ~420 pp. (Vol. 2 relevant) Vol. 2, pp. 145–148, 213–215.

6. Eden, Jeff. Slavery and Empire in Central Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – P. 34.

7. Ekaterina II. "Указ от 28 января 1767 г. о мерах по освобождению русских плен." // Сборник Русского исторического общества, т. 35. – Санкт-Петербург, 1911.

8. Fayziyev, Turg'un. Buxoro xonligida qulchilik munosabatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1976.

9. Vambery, A. (1864). Travels in Central Asia: Being the account of a journey from Teheran across the Turkoman desert on the eastern shore of the Caspian to Khiva, Bokhara, and Samarcand. London: John Murray. – 443 pp. 75, 250–251, 336–337.

10.https://kun.uz/news/2023/07/06/qullikdan-bosh-vazirlikkacha-buxoro-amirligining-kelib-chiqishi-qul-bolgan-qushbegilari

11. https://share.google/dpJ5Np8MZuJc3yEyG1

12.https://zamin.uz/uz/jamiyat/118417-buxoro-amirligining-kelib-chiqishi-qul-bolgan-qushbegilari-foto.html

# RAG'BATLANTIRUVCHI VA CHEKLOVCHI FISCAL SIYOSAT

***Adilova Yulduz Shavkatovna***
Qarshi davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi

***Choriyev Asadbek,***
***Ganjiyev Elbek***
**S-Iqtisodiyot 505-22 guruh talabalari**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat turlari, ularning maqsadlari va iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ish o'rinlarini yaratish va iste'mol talabini oshirish maqsadida davlat xarajatlarini ko'paytirish yoki soliq stavkalarini kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Boshqa tomondan, cheklovchi fiskal siyosat inflyatsiyani nazorat qilish va davlat qarzini qisqartirish maqsadida xarajatlarni kamaytirish yoki soliq stavkalarini oshirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqola har ikki siyosatning ijobiy va salbiy tomonlarini, shuningdek, ularning iqtisodiy muvozanatni saqlashdagi rolini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar**: Fiskal siyosat, rag'batlantiruvchi siyosat, Cheklovchi siyosat,iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, davlat xarajatlari, soliq stavkalari, iste'mol talabi,ish o'rinlari,moliyaviy barqarorlik.

**Kirish**. Fiskal siyosat – bu davlatning iqtisodiy faoliyatini boshqarish uchun soliq va davlat xarajatlari orqali amalga oshiriladigan siyosatdir. U ikki asosiy turga bo'linadi: rag'batlantiruvchi (ekspansiv) va cheklovchi (restriktiv) fiskal siyosat. Har ikki tur ham iqtisodiy o'sishga, inflyatsiyaga va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qiladi.

Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat iqtisodiy faollikni oshirish maqsadida davlat xarajatlarini ko'paytirish yoki soliq stavkalarini kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Bu siyosat asosan quyidagi

holatlarda qo'llaniladi:

1. Iqtisodiy inqiroz yoki resessiya: Iqtisodiyot pasayganida, ish o'rinlari kamayadi va iste'mol talabining pasayishi kuzatiladi. Rag'batlantiruvchi siyosat yordamida davlat xarajatlarini oshirib, iqtisodiy faollikni tiklashga harakat qilinadi.

2. Iste'mol va investitsiyalarni rag'batlantirish: Soliq stavkalarini kamaytirish yoki ijtimoiy dasturlarni kengaytirish orqali iste'molchilar va bizneslar uchun qo'shimcha mablag'lar yaratiladi, bu esa iste'mol va investitsiyalarni oshiradi.

3. Ish o'rinlarini yaratish: Davlat xarajatlari orqali yangi loyihalar amalga oshirilishi natijasida ish o'rinlari yaratiladi, bu esa ish bilan ta'minlash darajasini oshiradi.

Cheklovchi fiskal siyosat esa iqtisodiy faollikni pasaytirish maqsadida davlat xarajatlarini kamaytirish yoki soliq stavkalarini oshirish orqali amalga oshiriladi. Bu turdagi siyosat quyidagi vaziyatlarda qo'llaniladi:

1. Inflyatsiya bosimining ortishi: Agar iqtisodiyot juda tez o'sayotgan bo'lsa va inflyatsiya darajasi yuqori bo'lsa, cheklovchi fiskal siyosat orqali talabni pasaytirish zarurati tug'iladi.

2. Davlat qarzining ortishi: Agar davlat qarzi yuqori darajada bo'lsa, cheklovchi siyosat yordamida xarajatlarni qisqartirish va soliq daromadlarini oshirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsad qilinadi.

3. Iqtisodiy muvozanatni saqlash: Iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish va muvozanatni saqlash uchun cheklovchi fiskal siyosat qo'llanilishi mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish bilan bog'liq katta o'zgarishlar bilan bir qatorda, ularning huquqiy

asoslari ham ta'minlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 148-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Fuqarolarning hamda fuqarolik jamiyati institutlarining budjet jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonun bilan belgilanadi.

Davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish xisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga monetar siyosat vositalari qatori fiskal siyosat orqali xam erishiladi. Fiskal siyosat shuningdek, byudjet-solik siyosati deb ham aytiladi. Byudjet-solik siyosati deganda noinflyatsion YAIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to'lik bandlilikni ,to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi.Iqtisodiyot turgunlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan ragbatlantuvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi.Ya'ni,davlat qisqa muddatda iqsodiyotning pasayishi muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish,yoxud ikkalasini bir vaqtning o'zida olib borish evaziga xal etadi.Uzoq muddatda davlat xarajatlarining yuqori bo'lishi va soliqlarni kamaytirish ishlab chiqarish omillarining o'sishiga va natijada,iqtisodiy saloxiyatning ko'tarilishiga olib kelishi mumkin.Ammo,bunga Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatidan samarali

foydalanish va davlat xarajatlari tarkibini maqbul xolatga olib kelish orqaligina erishish mumkin.Iqtisodiyotda to'liq bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyatsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskalsiyosat-fiskal restriktsiya olib boriladi.Cheklovchi fiskal siyosatda davlat xarajatlarini (G)kamaytirish yoki soliqlarni(T) oshirish yoki bo'lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali

Iqtisodiyotning davriy o'sishini chegaralashdan iborat.Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirlar talab inflyatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin.

## Xulosa

Umuman olganda, mamlakatimizda fiskal siyosatni muvaffaqiyatli raqamlashtirish davlat idoralari, xususiy sektor manfaatdor tomonlari va jamoatchilikning muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarini talab qiladi. Bu jarayonning tashkiliy va huquqiy jihatlarini ko'zda tutuvchi, shu bilan birga foyda jamiyatda teng taqsimlanishini ta'minlaydigan aniq qarash va keng qamrovli strategiyani ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini oshirish kengaytiruvchi fiskal siyosatning mashhur usullari hisoblanadi. Ular iqtisodiy pasayish, turg'unlik davrida iqtisodiy faollikni rag'batlantirish uchun qo'llaniladi. Bozor sharoitlari yomonlashganda iste'molchilar va korxonalar xarajatlarni kamaytiradi, bu esa iqtisodiy faollikning yanada pasayishiga olib keladi. Shu nuqtada kengaytiruvchi fiskal siyosat iqtisodiy pasayishni yumshatish uchun muhim himoya vositasiga aylanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligidagi videoselktr yig'ilishi, 2020-yil 22-sentyabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir), 2023-yil 30-aprel.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari to'g'risidagi 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari to'g'risidagi 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079- son Farmoniga 23-ilova.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079- son Farmoniga 23-ilova.

7. O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budjet" portali Davlat budjeti daromadlari 2022-yil ijrosi.

8. Sh.I.Omonova "Respublikada mamalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri" magistrlik dissertatsiyasi;

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5813–sonli Farmoni;

10. Omonova Shohista. "Fiskal siyosatni raqamlashtirishning ahamiyati". "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. (2023): 87-89.;

# KAM TA'MINLANGAN OILA FARZANDLARI BILAN IJTIMOIY ISH OLIB BORISHDA PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHNING AHAMIYATI (O'RTA YOSHLI BOLALAR TIMSOLIDA)

***Abduraxmonova Zuxraxon Ikromjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola aynan kam ta'minlangan oilalarning o'rta (7 va 11) yoshli farzandlarining ruhiy kechinmalari, dunyoqarashi, adaptatsia va inqirozlariga qaratilgan bo'lib, bundan tashqari yurtimizning kambag'allik ko'rsatkichi o'sishi va pasayashi to'g'risida batafsil yoritilgan. Maqola barcha turdagi oilalarga va o'rta yoshli farzandi bor ota-onalatga tavsiya etiladi.

**Kalit so'z:** adaptatsia, emotsional reaksiya, muvaffaqiyat, stress, inqiroz.

**Annotation:** This article examines the psychological experiences, worldview adaptations, and crises of middle-agedcchildren from low-income families. It highlights the rise and fall of the poverty rate in our country. The article is recommended for all families and parents with middle-aged children.

**Keyword:** adaptation, emotional reaction , success, stress, crisis.

**Аннотатция:** В статье рассматриваются психологические особенности, мировоззрение, адаптация и кризисы детей среднего возраста (7–11 лет) из малообеспеченных семей, а также подробно рассматривается рост и снижение уровня бедности в нашей стране. Статья рекомендована для всех типов семей и родителей детей среднего возраста.

**Клучючевое слово:** адаптация, эмоциональная реакция, успех, стресс, кризиз.

Har bir bola rivojlanishida kattalarning yordami orqali yangi imkoniyatlar ochadi. Shuning uchun har bir so'z va har bir qo'llab-quvvatlash bola ongida o'z izini qoldiradi.

**Levs Vigotskiy** (rus faylasufi)

Har bir jamiyatning asl boyligi – uning moddiy ne'matlarida emas, balki inson qalbida mujassam bo'lgan mehr ishonch va ezgulikdadir. Ayniqsa kam ta'minlangan oila farzandlarining hayoti – bu jamiyat vijdonining sinovidir. Chunki insonparvarlikning eng yukasak ko'rinishi, boshqalar quvonchidan yiroq bo'lgan paytda ularning qalbiga iliqlik ulashishdir.

Faylasuf Konfutsiy aytganidek **"Jamiyatning qudrati – uning eng zaif a'zolariga ko'rsatilgan g'amxo'rlikda namoyon bo'ladi".** [1.33-b] Shu ma'noda, kam ta'minlangan oila farzandlariga nisbatan psixologik yordam bu nafaqat kasbiy faoliyat, balki insoniy burch, ijtimoiy mas'uliyatdir.

Kam ta'minlangan oila farzandlari ijtimoiy hayotda ko'plab psixologik, ijtimoiy va hissiy muammolarga duch keladilar. Bunday bolalar ko'pincha o'z tengdoshlariga nisbatan o'ziga ishonchsizlik, past ijtimoiy faollik, tabaqalanish, stress, ijtimoiy ajralish yoki hissiy beqarorlik holatini boshdan kechiradilar. Shu bois ularni psixologik qo'llab-quvvatlash ijtimoiy ishning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Psixologik qo'llab-quvvatlashning maqsadi:**

- bolaning emotsional holatini barqarorlashtirish;
- ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish;
- o'ziga ishonch va mativatsiyasini oshirish;
- ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini rag'batlantirish;

- bolaning salbiy ruhiy holatini bartaraf etish (tashvish, qo'rquv, uyatchanlik, o'zini past baholash).[2.26-b]

O'rta yoshdagi bolalarning psixologik va ijtimoiy hayotdagi rolini ko'rib chiqadigan bo'lsak ular odatda 7 yoshdan11 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davr bolaning maktab davriga moslashish, mustaqil fikrlash, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish jarayoni faol kechadigan bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga o'rta yoshdagi bolalar ijtimoiy jamiyatda shaxs sifatida shakillanishining asosiy psixologik poydevorini yaratadi. Kam ta'minlangan oilalarda voyaga yetayotgan bolalar ko'pincha ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik cheklovlar ta'sirida ulg'ayadi. Ularning hayotidagi moddiy tanqislik, ota-onaning bandligi yoki ruhiy bosimi natijasida bola o'ziga nisbatan emotsional beqarorlik, o'ziga ishonchsizlik ijtimoiy izolatsiya kabi muammolarga dush keladi. Ushbu yosh davrida bolaning hissiy dunyosi shakillanadigan, o'zini jamiyat hayotida anglash jarayoni boshlanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shuning uchun o'rta yoshli bolalarning rivojalanish ya'ni ijtimoiylashish jarayonida psixologik ko'mak bolalarni yaqindan o'rganish nechog'lik to'g'ri ekanligini anglab boramiz.

Yuqorida aytganimizdek kam ta'minlanganlik va ota-onaning bandligi o'rta yoshdagi bolalarning shaxsiy rivojlanishida katta to'siq bo'ladi. Nima uchun? Chunki har qanday farzad toki yetuklikka erishmaguncha har qanday yosh davrida aynan ota-onaga suyanadi va ular tasirida rivojlanib o'sib boradi. Kam ta'minlangan o'rta yoshli bolalarning dastlabki ijtimoiylashuv jarayoni ayni kichik maktab davriga to'g'ri keladi. Ushbu davrda bolalarda kichik inqiroz davri bo'lib, o'quv jarayoniga adaptatsia shakillanadi. Jamiyat bilan bevosita bog'lanish ijtimoiylashish jarayonlari jadal olib boriladi. Quyidagilarni inobatga olgan holatda kam ta'minlangan oila bolalarida ijtimoiy va

psixologik yordamni kuchaytirish jamiyatga qo'shilishiga yordam berish asosiy vazifa hisoblanadi. Dastlab bolalarda ijobiy muhitni yaratish orqali: bola bilan iliq do'stona munosabatda muloqotga kirishish, uning muvafaqiyatlarini rag'batlantirish, stress keltiruvchi muhitni kamaytirish (baqiriq, bosim, qo'rquvni oldini olish). Bundan tashqari musiqa va raqs orqali bolaning shaxsiy chegaralarinin yengish va yanada ijtimoiylashishiga yordam berish maqsadga muvofiq. Shuningdek kam ta'minlanga oila bolalarining ijtimoiylashish jarayonida bevosita ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashda bola bilan ota-ona oilaviy ijobiy muloqotini kuchaytirish birgalikda o'yin, suhbat yurutish bizningcha to'gri uslublardan biri.

Bugungi kunda O'zbekiston bo'yicha kam ta'minlangan oilalar yoki qashshoqlik darajasi statistikasi quyidagicha:

- 2024-yil oxirida O'zbekiston Respublikasining aholi qashshoqlik darajasi- 8.9% ga pasaydi
- Kam ta'minlangan oilalar ro'yxatida 2025- yilning sentabr holatiga ko'ra 567 026 ta oila mavjud ;

Quyida kambag'allikni keltirib chiqaruvchi ayrim omillarni ko'rib chiqamiz

**Kambag'allika ta'sir ko'rsatuvchi omillar;**

- Iqtisodiy infratuzilma va ish o'rinlarining yetishmasligi;
- Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining past sifati;
- Urush, siyosiy beqarorlik;
- Iqlim o'zgarishi resurs tanqisligi.[3.30-b].

Yuqorida ko'rib chiqilgan statistik tendetsiyalarga ko'ra kam ta'minlanganlik darajasi dunyo miqyosidagi muammo hisoblanib uning turli ko'rinishlari ayni oilalarda o'z aksini topadi va bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita ta'sir qiladi.

Shuningdek, yurtboshimiz tomonidan olg'a surilayotgan siyosatlarning eng urg'u berilayotgani ham kambag'allikni qisqartirish bandlikni ta'minlash hisoblanadi. Shu asnoda asosiy chora tadbir sifatida bugungi kunda "Temir daftar", "Ayollat daftari","yoshlar daftari", kabi loyihalar orqali kam ta'minlangan oilalarni tizimli qo'llab-quvvatlash. Kambag'al oilalar farzandlarini bog'cha va maktab bilan bog'liq xarajatlaridan ozod qilish, ta'lim va kasb-hunar tayyorgarlikni rivojlantirish. Kam ta'minlangan oilalarni tadbirkorlikka jalb etish, o'z bizninesini boshlash imkoniyatini yaratish orqali jamiyatimizdagi kam ta'minlangan oilalarning ham ota-ona va farzanlariga ijtimoiy ko'mak berish ularni qo'llab-quvvatlash amaliy ahamiyatini ko'rsatishda davom rtmoqda.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, kam ta'minlangan oila farzandlari bilan ishlash- bu nafaqat ijtimoiy yordam, balki inson qalbiga mehr ekish jarayonidir. Psixologik qo'llab-quvvatlash orqali biz nafaqat bolaga, balki butun jamiytning ruhiga yorug'lik olib kiramiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


**1.** Mirziyoyev Sh. M. Inson qadri uchun. – T.: O'zbekiston, 2022.

**2.** Karimova V.M. Psixologik maslaxat asoslari.-Toshkent: "Yangi asr avlodi" 2021-y

**3.** Maslou A.H. Motivation and Personality-New-York Harper& Row 1954

**4.** O'zbekiston Respublikasi " Aholining ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonun.

**5.** www.ihma.uz- " Kam ta'minlangan oilalar ro'yxati statistikasi", 2025

6. www.stat.uz- O'zbekiston Reapublikasi statistika agentligi ma'lumotlari 2025

# BUYUK IPAK YO'LINING O'ZBEKISTON TARIXIDAGI O'RNI VA BUGUNGI DAVRDAGI AHAMIYATI

***Obidova Rayhona Ahmadjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti talabasi
**Tel:** 507771216

**Ilmiy rahbar:** ***Pozilova Muqaddas Xikmataliyevna***
Namangan davlat pedagogika instituti
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

**Annototsiya:** Markaziy Osiyo tarixida Buyuk Ipak yo'li alohida o'rin egallagan bo'lib, uning eng muhim bo'g'inlaridan biri aynan O'zbekiston hududidan o'tgan. Ushbu maqolada Ipak yo'lining mamlakatimiz shaharlarining yuksalishiga, savdo-sotiq, ilm-fan va madaniyat rivojiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bugungi davrda Ipak yo'lining turizm, xalqaro hamkorlik va yoshlarni tarixiy meros ruhida tarbiyalashdagi dolzarbligi ko'rsatib beriladi. Biroq mavjud muammo shundaki: ko'plab yoshlar Ipak yo'liga faqat savdo yo'li sifatida qarab, uning keng qamrovli madaniy va ilmiy ahamiyatini to'liq anglab yetmayabdi. Bu esa tarixiy merosni yuzaki qabul qilishga olib keladi. Mazkur maqolada esa ushbu muammoni bartaraf etish bo'yicha takliflar ham ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** Buyuk Ipak yo'li, O'zbekiston, savdo-sotiq, madaniy meros, iqtisodiyot, transport, globallashuv, Markaziy Osiyo, zamonaviylik.

**Abstract:** The Great Silk Road occupied special place in the history of Central Asia, and one of its most important links passed through the territory of Uzbekistan. This article analyzes the impact of the Silk Road on the rise of the cities of our country, the development of trade, science

and culture. It also shows the relevance of the Silk Road in tourism, international cooperation and the upbringing of young people in the spirit of historical heritage in our time. However, the existing problem is that many young people view the Silk Road only as a trade route and do not fully understand its wide cultural and scientific significance. This leads to a superficial acceptance of historical heritage. This article also puts forward proposals to overcome this problem

**Keywords:** Great Silk Road, Uzbekistan, trade, cultural heritage, economy, transport, globalization, Central Asia, modernity.

**Аннотация:** Великий Шёлковый путь занимал особое место в истории Центральной Азии, и один из его важнейших звеньев проходил через территорию Узбекистана. В статье анализируется влияние Шёлкового пути на расцвет городов нашей страны, развитие торговли, науки и культуры. Также показана актуальность Шёлкового пути в сфере туризма, международного сотрудничества и воспитания молодёжи в духе исторического наследия в наше время. Однако проблема заключается в том, что многие молодые люди рассматривают Шёлковый путь только как торговый маршрут и не до конца осознают его широкое культурное и научное значение. Это приводит к поверхностному восприятию исторического наследия. В статье также предлагаются варианты решения этой проблем

**Ключевые слова:** Великий Шёлковый путь, Узбекистан, торговля, культурное наследие, экономика, транспорт, глобализация, Центральная Азия, современность.

**Kirish.**

Insoniyat tarixida xalqlarning bir-biriga bog'lagan yo'llar ko'p bo'lgan, biroq ular orasida Buyuk Ipak yo'li alohida o'rin tutadi. U Sharq va G'arbni tutashtiribgina qolmay, nafaqat iqtisodiy aloqalarni, balki

madaniy, ilmiy va ma'naviy almashinuvni ham rivojlantirgan. U orqali turli xalqlar o'rtasida do'stlik rishtalari o'rnatilib, yangi g'oyalar, ilmiy kashfiyotlar va san'at yutuqlari yoyilgan. Ayniqsa, O'zbekiston hududi bu yo'lning markaziy qismi bo'lgani tufayli, mamlakatimiz tarixida Ipak yo'li muhim ro'l o'ynagan. Savdo-sotiq, hunarmandchilik mahsulotlari, ilmiy bilimlar va diniy g'oyalar aynan shu yo'l orqali keng yoyilgan. O'zbekiston hududi Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashgani tufayli qadimdan yirik chorrahaga aylangan. O'zbekistondagi ko'plab shaharlarda xalqaro savdo qizg'in kechgan. Bu jarayon xalqimizning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida beqiyos iz qoldirgan. Bugungi kunda ham Buyuk Ipak yo'li mavzusi dolzarbligini yo'qotmagan. U xalqaro turizm va madaniy tadbirlar orqali yana jonlanmoqda. Shu bilan birga, yoshlar uni faqat oddiy savdo yo'li sifatida tushinishi muammo tug'dirmoqda. Shu sababli mazkur maqolada Buyuk Ipak yo'lining O'zbekiston tarixidagi, bugungi davrdagi ahamiyati hamda yoshlar orasida mavjud qarashlarni to'g'ri shakllantirish masalalari yoritiladi.

**Asosiy qism**

Har bir xalqning o'z tarixida muhim iz qoldirgan davrlar mavjud bo'lib, ular millat taraqqiyotining poydevorini tashkil etadi. Shunday tarixiy jarayonlardan biri – insoniyat sivilizatsiyasining eng muhim belgilaridan sanalgan Buyuk Ipak yo'lidir. Bu yo'l qadimdan Sharq va G'arbni, turli madaniyatlar va xalqlarni bir-biriga bog'lab turgan ulkan savdo yo'li sifatida tarixda alohida o'rin egallaydi. Bu esa g'oyalar va madaniyatlarning tarqalishiga, dunyoda buyuk dinlarning tug'ilishiga, iqtisodiyotni va millatlarning o'sishiga turtki bo'lgan. Dengiz, okean yo'llari ochilmasidan oldin bu yo'llar muhim ahamiyat kasb etgan [1]. Eramizdan avvalgi II asrlarda Xitoy imperiyasi bilan Markaziy Osiyo xalqlarning o'rtasidagi savdo aloqalari kuchayishi natijasida

shakllangan Buyuk Ipak yo'li 12 ming kilometrgacha uzunlikda bo'lgan. U Sariq dengiz sohilidan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rtayer dengizi sohillarigacha borgan. Bu yo'lda Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, va boshqa bir qancha qadimiy shaharlar joylashgan. Shuningdek, janubiy tarmoqlari Hindiston va Arabiston orqali Afrikaning shimoliy qismigacha yetgan [2]. "Buyuk Ipak yo'li" nomini 1877-yilda nemis olimi Rixthofen taklif qilgan. Bu nom o'z-o'zidan saqlanib qolgan, chunki bu yo'l bo'ylab faqat ipak emas, balki turli xil yuklarni tashiydigan karvonlar o'tgan. Odamlar tunashi mumkin bo'lgan birinchi mexmonxonalar va karvonsaroylar ko'pincha yirik aholi punktlariga, keyin esa shaharlarga aylangan. Savdoning gullab-yashnashi shahar xo'jaligi va hunarmandchilik savdo markazlari sifatida shaharlarning paydo bo'lishiga olib keldi [3]. Ipak yo'li oddiy savdo yo'lagi emas, balki butun dunyo xalqlarini bog'lovchi o'ziga xos "madaniy ko'prik". Shuningdek, Buyuk Ipak yo'li Markaziy Osiyo hududidan o'tganligi sababli aynan O'zbekiston yerlarida u o'zining eng muhim chorrahalaridan birini tashkil qilgan. O'zbekiston hududi orqali o'tgan yo'llar Xitoy ipaklari, Hindiston ziravorlari, Eron gilamlari almashinuvida bevosita ro'l o'ynagan. Bu esa o'zbek xalqining hunarmandchiligi, san'ati va madaniyat rivojida ham asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlardagi me'moriy yodgorliklar YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ular butun dunyo sayyohlarini jalb etmoqda. Shuningdek, hozirgi zamonda qadimgi Ipak yo'lining g'oyasi zamonaviy transport loyihalari orqali davom etmoqda. Masalan, "Yangi Ipak yo'li" (One Belt – One Road) tashabbusi orqali Xitoy, O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya, Turkiya va Yevropa davlatlarini bog'laydigan yangi temir yo'l va

avtomobil yo'llari barpo etilmoqda. 2013-yilda "Bir makonva yo'l" tashabbusi ham e'lon qilingan. Bunga ko'ra, mazkur dastur Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi [3]. Bu loyiha nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy aloqalarni ham mustahkamlamoqda. O'zbekiston bugungi kunda ham qadimgi Ipak yo'li an'analarini davom ettirib, xalqaro savdo, transport-logistika markazi sifatida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Shu bilan birga, yosh avlodni bu tarixiy merosni chuqur o'rganishga, uni faqat savdo yo'li emas, balki madaniyatlar va ilm almashuvi ramzi sifatida tushunishga undash zarur. Bugungi kunda Buyuk Ipak yo'li tarixiy yo'lak sifatida mavjud bo'lmasa ham, uning g'oyasi O'zbekistonda yangi ko'rinishda davom etmoqda. Bugun esa biz boshqa davrda yashaymiz — karvonlar o'rnini esa internet va global aloqalar egalladi. Shu bois, Buyuk Ipak yo'liga bo'lgan qiziqish ko'proq tarixiy yodgorliklar va turizm bilan cheklanmoqda. Yoshlarning aksariyati uni faqat savdo yo'li sifatida tasavvur qiladi. Ular orasida tarixiy merosni faqat muzey eksponatlari sifatida ko'rish odatiy holga aylangan. Yoshlar bu boy tarixdan ilxom olib, uni zamonaviy hayotda qo'llash imkoniyatlarini anglamayapti. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida Ipak yo'liga oid mavzular ko'pincha quruq faktlar shaklida yoritiladi. Natijada, tarixiy merosni yangi avlod ongida tirik holda saqlab qolish qiyinlashmoqda.

**Takliflar:**

1. Ta'lim jarayoniga chuqurroq kiritish: Maktab va oliy ta'lim muassasalarida Buyuk Ipak yo'li tarixini chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus darslar, ochiq mashg'ulotlar yoki amaliy seminarlar tashkil etish. Bu yoshlarning tarixiy bilimlarini boyitadi va tasavvurlarini kengaytiradi.

2. Madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish, ya’ni, Ipak yo‘li mavzusida zakovatlar va ko‘rgazmalar orqali ularni bu merosga qizishlarini oshirish mumkin.

3. Muzeylarga va tarixiy obidalar joylashgan manzillarga ekspeditsiyalar uyushtirish. Bu orqali esa o‘quvchilarni tarixiy manbalar haqida yanada ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishlariga, hamda, ular haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Bugungi kunda ham Buyuk Ipak yo‘lining merosi biz uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ammo, afsuski, ayrim yoshlar uni faqat savdo yo‘li sifatida ko‘rishadi, uning asl tarixiy va ma’naviy ahamiyatini chuqur tushunmaydilar. Shu sababli, yoshlar ongida bu merosga nisbatan to‘g‘ri qarashni shakllantirish, uni qadrlash va zamonaviy talqinda targ‘ib etish zarur. Buyuk Ipak yo‘li — o‘tmish faxrimiz, hozirgi taraqqiyotimiz va kelajak poydevoridir. Uni asrab-avaylash, o‘rganish va yoshlar ongida jonlantirish — barchamizning burchimizdir. Buyuk Ipak yo‘li O‘zbekiston tarixida savdo, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirgan ulkan merosdir, uni yosh avlodga to‘g‘ri yetkazish zamonaviy hayotda qo‘llash orqali mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada oshirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov Sh., Tursunov Sh., Yo‘ldoshev R. Tarix: 6-sinf uchun darslik. — Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2023. — 160 bet.

2. Докашева Е. Великий Шёлковый путь. Полная история. — Москва: АСТ nashriyoti, 2020. — 320 bet.

**Foydalanilgan internet manbalar:**

3. https://dunyo.info/uz/about_uzb/ipak-yolni-qayta-tiklash-boyicha-yangi-loyihalar-hitoy-ommaviy-ahborot-vositalari-diqqat-markazida

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Buyuk_Ipak_yo%CA%BBli

## OILADAGI ZO'RAVONLIK VA UNING KO'RINISHLARI

***Murodova Nilufar Anvar qizi***
O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
Psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti talabasi
**Tel:** +998938263772
**E-mail:** murodovanilufar556@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada oiladagi zo'ravonlik va uning ko'rinishlari va yosh oilalarda zo'ravonlik oqibatida kelib chiquvchi nizolarni bartaraf etishni ta'minlash chora-tadbirlari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, shaxs, rivojlanish, shakllanish, nikoh, din, tarbiya, metod, nizo, oiladagi zo'ravonlik.

**Аннотация:** В статье представлена информация о домашнем насилии и его проявлениях, а также о мерах, обеспечивающих устранение конфликтов, возникающих на почве насилия в молодых семьях.

**Ключевые слова:** семья, личность, развитие, формирование, брак, религия, воспитание, метод, конфликт, домашнее насилие.

**Abstract**: This article provides information on domestic violence and its manifestations, as well as measures to resolve conflicts arising from violence in young families.

**Keywords:** family, personality, development, formation, marriage, religion, parenting, method, conflict, domestic violence.

Oiladagi zo'ravonlik (shuningdek, oila zo'ravonligi yoki oilaviy zo'ravonlik deb ham ataladi) oila sharoitida, masalan, nikoh yoki birgalikda yashashda sodir etiladigan zo'ravonlik yoki boshqa zo'ravonlik turidir. Oiladagi zo'ravonlik ko'pincha yaqin insoni yoki sherik zo'ravonligining sinonimi sifatida ishlatiladi, u boshqa shaxsga nisbatan yaqin munosabatlardagi odamlardan biri tomonidan qo'llanadi va munosabatlarda yoki sobiq turmush o'rtoqlar yoki sheriklar o'rtasida sodir bo'lishi kuzatiladi. Keng ma'noda oiladagi zo'ravonlik bolalar, ota-onalar yoki qariyalarga nisbatan zo'ravonlikni ham o'z ichiga oladi. [2] U bir nechta shakllarni o'z ichiga olishi mumkin:jismoniy, og'zaki, hissiy, iqtisodiy, diniy, reproduktiv yoki jinsiy zo'ravonlik kabi. Bu eng oddiy zo'rlash shakllaridan tortib, nikoh davrida zo'rlash va boshqa zo'ravonlik shakllaridan tortib jismoniy zo'ravonlikgacha bo'lishi mumkin, masalan, bo'g'ish, kaltaklash, ayollarning jinsiy a'zolarini kesish va kislota tashlash kabi zararlashi yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan va insonni nazorat qilish uchun buyumdan foydalanishni o'z ichiga oladi, misol tayoq. Maishiy qotillik toshbo'ron qilish, kelinni yoqish, nomus uchun o'ldirish va ba'zan birga yashamaydigan oila a'zolarining zo'ravonligini o'z ichiga oladi. 2015-yilda Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligi oiladagi zo'ravonlik ta'rifini nazoratni o'z ichiga olgan holda majburiy tarzda kengaytirgan. [1]

Zo'ravonlikka uchragan yoki unga guvoh bo'lgan shaxs bilan ishlashda quyidagi bosqichlar muhim hisoblanadi:

- Jabrlanuvchining ruhiy holatini aniqlash va xavfsizlikni ta'minlash;
- Stress, qo'rquv, aybdorlik yoki g'azab holatlarini

kamaytirish;

- O'zini qadrlash hissini tiklash, o'ziga ishonchni oshirish;
- Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'ini shakllantirish.
- Huquqiy maslahatlar berish (himoya orderi, ajralish, aliment masalalari bo'yicha);
- Ijtimoiy xizmatlar, boshpana yoki bandlik markazlariga yo'naltirish;
- Oila a'zolari bilan vositachilik (mediatsiya) orqali ishlash;

Psixologik yordamning maqsadi zo'ravonlik qurboni uning boshidan kechirgan travmaning keyingi rivojlanishiga salbiy ta'sirini kamaytirish, xulq -atvoridagi og'ishlarning oldini olish va jamiyatda qayta moslashishga yordam berishdan iborat. Ushbu maqsadlarga asoslanib, psixolog quyidagicha taktik vazifalarni qabul qiladi.

- zo'ravonlik qurbonining ruhiy salomatlik darajasini baholaydi va boshqa turdagi yordam ko'rsatuvlarini aniqlaydi;
- vujudga kelgan muammolarni hal qilish uchun undan yanada to'g'ri foydalanish uchun bolaning individual psixologik xususiyatlarini o'rganadi;
- muammolarning mustaqil hal qilinishini ta'minlab, bolaning yashirin psixologik resurslarini safarbar qiladi;
- shaxsiy nomuvofiqlik va ijtimoiy moslashuvni tuzatishni amalga oshiradi;
- shaxsni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ochib beradi;
- jabrlangan bolaga psixologik yordam ko'rsatish uchun boshqa oila a'zolari, qarindoshlari, tengdoshlari, ishonchli kishilari va ma'lumotli shaxslarni jalb qiladi. [3]

Mamlakatimizda oiladagi (maishiy) zo‘ravonliklarni oldini olish borasida keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy qonunchiligimizdagi mavjud bo‘shliqlar to‘ldirilib, zarur choralar ko‘rilmoqda.

Oiladagi zo‘ravonlikning asosiy maqsadi, shaxsni qo‘rqitish orqali jabrlanuvchi ustidan mutlaq hukmronlik o‘rnatishdir. Ayrim ota-onalar shu yo‘l orqali hurmat qozonishga harakat qilsa, ba’zi er-xotin yoki sheriklikda yashayotgan shaxslar sodiqlik va vafodorlikni saqlab qolmoqchi bo‘ladilar. [4]

Og‘zaki janjal, haqorat qilish, kaltaklash, tuhmat, mol-mulkka qasddan shikast yetkazish va boshqa holatlar zo‘ravonlikning oilalardagi eng ko‘p tarqalgan turlaridan biri bo‘lib, zo‘ravon jabrlanuvchi shaxsini tahqirlash orqali vaziyatni shaxsan nazorat qilishga intiladi. Ta’kidlab o‘tish lozim og‘zaki janjal va haqoratlar ortidan shaxsga tan-jarohati yetkazish kabi ma’muriy huquqbuzarliklar, jinoyatlar sodir etiladi.

Shaxsga yetkazilgan tan-jarohatlari bo‘yicha ma’muriy ishlar Ichki ishlar organlari tomonidan rasmiylashtirilib, sudga yuboriladi. Sudda har ikkala tomon ishtirok etishi shart, biroq gumonlanuvchi sud tomonidan aybdor deb topilgan taqdirda sud ayblanuvchiga jarima yoki ma’muriy qamoq jazosini qo‘llashi mumkin. Lekin masalaning muhim jihati shundaki, bu toifadagi ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqishda jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni undirish masalasi ochiq qoldiriladi va kelgusida jabrlanuvchi o‘ziga yetkazilgan zararni undirish uchun fuqarolik tartibida sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 8-moddasida (oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an’analarning qo‘llanilishi)

qonunchilikda oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar boʻlmagan taqdirda, Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligi tamoyillariga zid boʻlmagan mahalliy urf-odat va an'analar qoʻllaniladi deb, koʻrsatib oʻtilgan.

Odatda, soʻnggi davr ya'ni asal oyidan keyin munosabatlar birinchi bosqichga qaytadi va sikl takrorlanadi. Vaqt oʻtishi bilan har bir bosqich oraligʻi qisqaradi, zoʻravonlik xolatlari tez-tez uchraydi va koʻproq zarar keltiradi. Zoʻravonlik qurboni vaziyatni oʻzi hal qila olmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday vaziyatda aql bilan ongli ravishda harakat qilish juda qiyin boʻlib qoladi. Agar insonga eng yaqin odamlaridan tahdid tugʻilsa, qaror qabul qilish va zoʻravonlik xolatini tugatish uchun ulkan jasorat talab etiladi. Yuz berayotgan bu sharmandalik xolatini, qarindoshlar, qoʻshnilar yoki ishdagi hamkasblar bilib qolishidan qoʻrqish, koʻpincha, bu muammoni hal qilishga toʻsqinlik qiladi. Bundan tashqari, bizning mentalitetimizda oilada yuzaga keladigan muammolar haqida sukut saqlash kerak degan qarashlarning mavjudligi muammoni yashirishga majbur etadi. Odatda koʻpchilik shunday qiladi: jimgina chidaydi va hamma narsa oʻtib ketishini kutadi. Afsuski, bu zoʻravonlik yana va yana bir necha marta sodir boʻladi. Oiladagi zoʻravonlik va oddiy, shaxslararo nizo oʻrtasidagi asosiy farq mana shu. Uyingizdagi zoʻravonlikni bir marotaba toʻxtatish toʻgʻrisida qaror qabul qilish insonni yanada azoblanishdan qutqaradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Karimova, V. (2020). Oila psixologiyasi asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti. [1]

2. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (WHO). (2021). Violence Against Women: Key Facts. [2]

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zoʻrlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 02.07.2018 yildagi PQ-3827-sonli Qarori// URL: http://www.lex.uz

4. 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikas«Xotin-qizlami tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida» Qonuni

5. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2008). Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being. American Psychologist. [4]

6. UNFPA Oʻzbekiston. (2022). Oilaviy zoʻravonlik holatlarida psixosotsial yordam koʻrsatish boʻyicha qoʻllanma.

https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/viendec93.shtml

7. Akmalova, P. D. (2019). The concept of moral personality development in creativity of thinkers of central asia. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 9(1), 135-141. [3]

## MODERN TEACHING TECHNIQUES IN EDUCATION

***Ne'matullayeva Mushtariybonu***
4th-year student, Fergana State university

**Abstract:** Modern teaching techniques, including technology, are widely used and beneficial for educators worldwide, leading to effective education and comprehension among students. However, it is important to consider both the intended and unintended consequences of using these techniques for teacher professional development. Students and

teachers need certain skills to effectively use these technologies, so it is crucial to prepare them for this new age of education. A study found that blogging in college education can increase participation in the course and exposure to course material, emphasizing the importance of engagement and revisiting coursework. The increased use of technology in education means that students and teachers will increasingly make use of it within open and flexible learning systems. Technology plays a vital role in enhancing and developing our learning system.

**Introduction.** The use of modern teaching techniques, including technology, is widespread and beneficial for educators worldwide, leading to effective education and comprehension among students. In today's rapidly evolving digital landscape, the use of modern teaching techniques has become increasingly essential in providing a dynamic and engaging learning experience for students. By incorporating multimedia tools, virtual simulations, and online resources, educators can create more interactive and stimulating learning environments that cater to diverse learning styles. This not only enhances student engagement but also fosters the development of essential 21st-century skills such as digital literacy, critical thinking, and problem-solving. Moreover, modern teaching techniques enable personalized learning, allowing educators to tailor their instruction to individual student needs and interests, ultimately leading to improved academic performance and a more positive attitude towards learning. Overall, teaching with modern techniques not only enhances the quality of education but also prepares students for the demands of the digital age, equipping them with the skills they need to succeed in an increasingly technology-driven world. However, it is important to consider both the intended and unintended consequences of using these techniques for teacher professional

development. Students and teachers need certain skills to effectively use these technologies, so it is crucial to prepare them for this new age of education. A study found that blogging in college education can increase participation in the course and exposure to course material, emphasizing the importance of engagement and revisiting coursework. The increased use of technology in education means that students and teachers will increasingly make use of it within open and flexible learning systems. Technology plays a vital role in enhancing and developing our learning system. The education of tomorrow should be able to make individuals creative, innovative, and effective. The Kothari Commission Report [1] recommended the supply of teaching aids to every school for the improvement of teaching quality. Innovative teaching methods with the latest teaching technologies help students achieve excellence in education. Modern Teaching Techniques are important and preferred in the technological age. With modern teaching aids such as speakers, online streaming videos, interactive whiteboards, visualizers, response systems, CD's, projectors, educational software, teachers can explain concepts more effectively and clear all doubts with modern teaching techniques. Teachers must use various types of modern teaching techniques to connect with students.

**Methods**

Both quantitative and quantitative methods were employed to gather comprehensive data on this field. Quantitative methods involved conducting surveys and collecting numerical data from a large sample of students and educators. This allowed  to analyze trends and patterns in the usage and effectiveness of modern learning tools such as e-book readers and computer-based learning. On the other hand, qualitative methods involved conducting interviews and focus groups to gain a

deeper understanding of the experiences and perspectives of individuals using these techniques. This approach helped to uncover valuable insights into the benefits associated with learning with interactive games and cooperative learning. Combining both quantitative and qualitative methods provided a well-rounded analysis of modern learning techniques and their impact on student learning outcomes. For gathering data using quantitative method,30 teachers of a primary school were asked if they use any kind of modern teaching techniques with questionnaire. According to the result,24 of them which equals 72% use techniques such as Brain Storming and Cooperative Learning. The test 6 teachers (28%) prefer teaching in a traditional way, with no modern teaching techniques.

| | | |
|---|---|---|
| Total number of teachers | 30 | 100% |
| Teachers who are using methods | 24 | 72% |
| Teachers who are preferring not using methods | 6 | 28% |

**Techniques associated with Teaching Method**

Brain Storming

Micro Teaching Technique

Programmed Learning

Inquiry-Based Learning

Mind Map

Cooperative Learning

**Media involved in Modern Teaching Techniques**

Audio Aids

Visual Aids

Audio-Visual Aids

Interactive Electronic White Board

Brainstorming.

The technique known as brainstorming is used to generate a large number of ideas to solve a problem. Problem solving involves using effective tools and behaviors to achieve a goal, such as scientific methods, critical thinking, decision making, examination, and reflective thinking. This technique helps students approach problems confidently and scientifically, encouraging them to benefit from others' ideas and provide mutual assistance. Practicing teaching skills is essential for becoming a better teacher. Teaching skills are specific behaviors that effectively bring about desired changes in students' behavior. There are now 37 identified teaching skills, but it is not feasible to train all teachers in all of these skills due to time and financial constraints. Therefore, a set of teaching skills that are applicable across subject areas has been identified, including the skill of asking probing questions, explaining concepts, illustrating with examples, reinforcing learning, varying stimuli, managing the classroom, and effectively using the blackboard.

Micro Teaching techniques.

To become better teachers, it is necessary to practice teaching skills. Teaching skills refer to effective teaching behaviors that bring about desired changes in students' behavior. In 1966, Allen and Ryan identified 20 teaching skills at Stanford University, which has now increased to 37. However, due to time and budget constraints, it is not possible to train all pupil teachers in all these skills. Therefore, a set of teaching skills that cut across subject areas has been identified, including probing questions, explaining, illustrating with examples, reinforcement, stimulus variation, classroom management, and using the blackboard. These skills have been found to be useful for every teacher and can be assessed through observation scales.

Mind maps.

Mind Maps were created by Tony Buzan in 1960 as an innovative teaching method. They visually depict the connections between ideas and concepts using circles or boxes to represent each concept and linking them with words or phrases that explain the relationship. This technique helps students organize their thoughts, understand information, and establish new connections. Mind Maps also assist in retaining information in the long term and promote effective learning.

Cooperative learning.

Cooperative Learning involves small groups of students with different abilities working together to improve comprehension.

Audio aids.

In the past, tools like cassettes and recorders were used to teach English language learners, effectively enhancing their phonetics, pronunciation, and spoken English skills.

Visual aids.

In addition to traditional visual aids like charts, pictures, and models still used in classrooms, there are also modern visual aids that have been used in recent years. These aids include picture slides, motion pictures, and the like. In modern times, there has been technological development in portable electronic devices called e-book readers, primarily used for reading digital books.

Audio-visual.

These devices are being widely adopted and used in many educational institutions that have dedicated audio-visual rooms or labs. Due to technological advancements, children are showing increased interest in computer-based learning, such as PowerPoint presentations. This type of learning fosters teamwork among students as they are required to work in teams for project-based learning. In project-based

learning, the teacher acts as a facilitator to the students, encouraging active participation.

## Conclusion

The influence of modern teaching techniques in education is undeniable. The integration of technology and innovative learning tools has revolutionized the way students learn and engage with educational content. The findings from my research indicate that modern teaching techniques, such as cooperative and audio-visual learning, have shown to be effective in enhancing student learning outcomes. As technology continues to advance, it is crucial for educators to embrace modern teaching techniques and adapt their instructional practices accordingly. By incorporating these techniques into their classrooms, educators can create dynamic and interactive learning environments that cater to the needs and preferences of today's digital-native students.

## References

1. Cleaver, Samantha. "Hands-On is Minds-On"http: //www.scholastic.com.

2. Nagarajan K., Natarajan S. and Manivasagan C.R. (2013). Educational Innovations &Curriculum Development.Chennai.Sriram Publishers.

3. Zaidi S.F. (2013). ICT in Education. New Delhi. APH Publishing Corporation

4. Westwood, P. (2008). What teachers need to know about Teaching methods. Camberwell,Vic, ACER Press

5. https://en.wikipedia.org/wiki/Teaching_method Retrieved

6. Assistant Professor, Sri Ramakrishna Mission Vidyalaya College of Education (Autonomous), SRKV Post, Coimbatore – 20.

# TANQIDIY FIKR VA RAQAMLI ONG: MEDIA SAVODXONLIK NEGA BUGUN MUHUMROQ?

***Mirzamuradova Shaxnoza Bobirjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi

**Ilmiy rahbar:** B.A.Tillayev Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bugungi globallashuv sharoitida, media savodxonlik tushunchasining jamiyatdagi dolzarbligi, ayniqsa, uning tanqidiy fikrlash va raqamli ong bilan uzviy aloqasi tahlil etiladi. Axborot maydonining haddan tashqari kengayishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri, yolg'on yoki manipulyativ kontentlarning ko'plab tarqalayotgani, zamonaviy insondan ongli axborot iste'molini talab qilmoqda. Shu jihatdan qaralganda, media savodxonlik – axborotni baholash, haqiqatni farqlash, tanqidiy fikrlash asosida tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyati sifatida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: Media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, raqamli ong, axborot xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlar, axborot iste'moli, raqamli madaniyat, ta'lim va media, manipulyatsiya, fuqarolik jamiyati.

**Abstract.** This article examines the growing importance of media literacy in the context of rapid digitalization and globalization. The exponential expansion of the information space and the widespread dissemination of false, misleading, or manipulative content via the internet and social media demand a conscious and critical approach to information consumption. In this context, media literacy is defined as the ability to analyze, evaluate, and distinguish reliable information through the lens of critical thinking and digital awareness.

Keywords: Media literacy, critical thinking, digital awareness, information security, social media, information consumption, digital culture, education and media, manipulation, civil society.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается возрастающая значимость медиаграмотности в условиях стремительной цифровизации и глобализации. Стремительное расширение информационного пространства, а также широкое распространение ложного, манипулятивного и недостоверного контента в интернете и социальных сетях требуют осознанного и критического подхода к потреблению информации. В этом контексте медиаграмотность определяется как способность анализировать, оценивать и различать достоверную информацию на основе критического мышления и цифрового сознания.

Ключевые слова: Медиаграмотность, критическое мышление, цифровое сознание, информационная безопасность, социальные сети, потребление информации, цифровая культура, образование и медиа, манипуляция, гражданское общество.

**Kirish.**

Bugungi kundan kunga taraqqiy etayotgan texnologiyalar asri insoniyat hayotining barcha sohalariga, xususan, kommunikatsiya va axborot almashinuvi tizimlariga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan bir necha yillar oldin axborot manbayi sifatida televizor radio yoki gazeta jurnallar hisoblangan bo'lsa hozirda internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va boshqa raqamli platformalar orqali insonlar avvalgiga nisbatan juda katta hajmdagi axborot oladi va uni iste'mol qiladi. Avvallari soxta axborot tushunchasi axborotga nisbatan deyarli ishlatilmagan ham. Hozir esa bu katta axborot oqimi bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Soxta yangiliklar (fake news),

manipulyatsiyalar, noto'g'ri ma'lumotlarning tez tarqalishi bir media ongni chalg'ishiga va katta bir muammolar kelib chiqishiga asos bo'lmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi media ong yoki media savodxonlik nima, va qanday kirib keldi bu tushuncha?

Media savodxonlik — bu axborot vositalaridan foydalanish qobiliyati, axborotni baholash va talqin qilishga asoslangan tanqidiy yondashuv, shuningdek, axborot maydonida o'zini tutish madaniyati hisoblanadi.[1]

Media savodxonlik tushunchasi dastlab XX asr oxirlarida paydo bo'lib, axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan ahamiyati keskin ortdi.[2] Zamonaviy jamiyatda media savodxonlikning dolzarbligi nafaqat ijtimoiy kommunikatsiya nuqtai nazaridan, balki demokratik jarayonlar, fuqarolik jamiyati rivoji va axborot xavfsizligi kontekstida ham yuqori baholanmoqda. Chunki axborot xurujlari, soxta yangiliklar va manipulyatsiyalar jamiyatda ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarishi, odamlarning qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun media savodxonlikni rivojlantirish, yoshlarni va jamiyatning boshqa qatlamlarini axborot maydonidagi bu xavflardan himoya qilish muhim vazifaga aylanmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev media savodxonlik va axborot xavfsizligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Prezidentning so'zlariga ko'ra, "yoshlarni axborot maydonidagi soxta yangiliklar va manipulyatsiyalardan himoya qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, raqamli madaniyatni oshirish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish zarur".[3] Bu yo'nalishdagi davlat siyosati media savodxonlikni rivojlantirish va fuqarolarning axborot xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Asosiy qism**

Media savodxonlikning eng muhim asosiy elementlaridan biri — tanqidiy fikrlash, ya'ni axborotni qabul qilishdan oldin uni chuqur tahlil qilish, kontekstni tushunish va manipulyatsiyani aniqlash qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash insonning har qanday axborotga munosabatini shakllantirishda, ijtimoiy va siyosiy voqealarni to'g'ri baholashda, shuningdek, noto'g'ri va manipulyativ kontentga qarshi immunitet hosil qilishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli ong esa raqamli muhitda xavfsiz va mas'uliyatli faoliyat yuritishni, axborot xavfsizligini ta'minlashni va ijtimoiy-axloqiy normalarga rioya qilishni anglatadi. Shunday qilib, media savodxonlik tanqidiy fikrlash va raqamli ongning uyg'unlashuvidan tashkil topgan kompleks kompetensiya hisoblanadi. Bugun internet — nafaqat axborot manbai, balki ta'lim, ish, moliyaviy xizmatlar, ijtimoiy aloqalar va hatto davlat xizmatlariga kirish vositasidir. Shunday ekan, raqamli ongga ega bo'lmagan shaxs **ijtimoiy tenglik, iqtisodiy raqobatbardoshlik** va **fuqarolik faolligi**dan chetda qoladi.Bunga misol tariqasida keltirishimiz mumkinki, COVID-19 pandemiyasi butun dunyoda onlayn ta'limning keskin ommalashishiga sabab bo'ldi. Ammo raqamli ong darajasi past bo'lgan o'quvchilar, talabalar va hatto o'qituvchilar bu yangi sharoitga moslasha olmadi. O'zbekistonda ham bu muammo sezildi: texnik vositalarning yetishmasligi, onlayn platformalar bilan ishlash qiyinligi, axborot izlash madaniyatining pastligi o'quv jarayonining samaradorligini kamaytirdi. Shuning uchun O'zbekistonda bunga yechim bo'ladigan bir qator dasturlar ishlab chiqildi. Hozirda O'zbekiston hukumati raqamli transformatsiya strategiyasi doirasida internet infratuzilmasini yaxshilash, "raqamli iqtisodiyot", "raqamli maktab", "raqamli universitet" kabi tashabbuslarni ilgari surmoqda. Lekin raqamli

infratuzilma mavjud bo‘lishi — raqamli ong mavjudligini anglatmaydi. Bu yo‘lda quyidagi muammolar dolzarb:

- **Internetdan faqat ijtimoiy tarmoqlar uchun foydalanish**: Ko‘pchilik foydalanuvchilar internetni asosan ko‘ngilochar va ijtimoiy aloqa vositasi sifatida qabul qiladi, biroq izlanish, ta’lim, huquqiy ma’lumot olish yoki kontent yaratishda foydalanish darajasi past.
- **Kattalar va o‘smirlar o‘rtasida farq**: Yoshlar texnik jihatdan ko‘proq bilimga ega bo‘lsa-da, xavfsizlik, etik va tanqidiy baholash ko‘nikmalarida qiyinchiliklarga duch keladi.
- **Raqamli etikani tushunmaslik**: Internetda mualliflik huquqi, shaxsiy hayotni hurmat qilish, nojo‘ya xatti-harakatlardan tiyilish madaniyati yetarlicha shakllanmagan.

Takliflar va yechimlar

O‘zbekiston kontekstida media savodxonlik va tanqidiy fikrlash darajasini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar samarali bo‘lishi mumkin:

1. **Maktab dasturiga majburiy fan sifatida kiritish**: Umumta’lim muassasalari darsliklariga media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va raqamli ong asoslarini majburiy fan sifatida qo‘shish. Bu yoshda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.
2. **O‘qituvchilarning malakasini oshirish**: Media savodxonlik, fact-checking, axborot etikasi bo‘yicha o‘qituvchilar va pedagoglarning treninglari muntazam tashkil etilishi zarur. Faqat nazariy emas, amaliy mashg‘ulotlar va case-studiyalar asosida.
3. **Fact-checking platformalarini rivojlantirish**: Mustaqil va ishonchli fajct-checking tashkilotlariga qo‘llab-quvvat berish,

ularning resurslari va qamrovini kengaytirish. Jumladan, onlayn vositalar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlarda botlar orqali yolg'on xabarlar aniqlanishi.

4. **Mahalliy kontentni яxshilash va tarqatish**: Axborot manbalari, televideniya, radio, vebsayt va ijtimoiy tarmoqlarda sifatli kontentlar yaratish va insonlarning tushunishini ko'taruvchi mazmunga e'tibor berish. Lokal tillarda, madaniyatga mos uslublar orqali.

5. **Qonunchilikni takomillashtirish**: Axborot olish huquqi, so'z erkinligi, journalistlarning himoyasi, yolg'on axborot tarqalishini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni yaratish va takomillashtirish. Shu bilan birga, fuqarolarni avvaldan ogohlantirish va javobgarlik masalalari bo'yicha ochiq hamkorlik.

**6. Ommaviy axborot kampaniyalari va jamoat tashabbuslari**: Media savodxonlik ko'nikmalarini ommaviy targ'ib qilish, axborot madaniyati bo'yicha jamoatlikni jalb qilish — teleradio, ijtimoiy tarmoq, blogerlar orqali. Yoshlar markazlari, kutubxonalar, madaniyat markazlari bu borada faol bo'lishi mumkin.

**Xulosa:**

Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiyalar inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, yangi platformalar va vositalarning paydo bo'lishi insonlarning fikrlash, axborotni qabul qilish va uni baholash usullarini tubdan o'zgartirdi. Shu sharoitda ikki asosiy kognitiv ko'nikma — tanqidiy fikrlash va raqamli ong — jamiyatda ongli, ma'lumotga asoslangan, xavfsiz va mas'uliyatli hayot kechirish uchun muhim omilga aylandi. Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashning mohiyati va uning zamonaviy ahamiyati, shuningdek, raqamli ong tushunchasi,

uning asosiy elementlari va bugungi kun ehtiyojlari batafsil tahlil qilindi.

Ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oʻquvchilarning nafaqat akademik yutuqlarini oshiradi, balki ularni jamiyatdagi murakkab muammolarni tahlil qila oladigan, mustaqil fikr bildiradigan, fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarga aylantiradi. Shu bois ta'lim tizimida tanqidiy fikr metodlarini joriy qilish, interaktiv dars uslublarini qoʻllash zarurati dolzarbdir. Shuningdek, fuqarolik jamiyatining sogʻlom rivojlanishi uchun ham tanqidiy fikr mustahkam poydevor boʻlib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1.** Hobbs, R. (2010). Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. Corwin Press.

**2**. Potter, W. J. (2013). Media Literacy. SAGE Publications.

3.Mirziyoyev, Sh. (2020). Nutq. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti.

# MUSTAQILLIK YILLARIDA OʻZBEKISTON VA XITOY OʻRTASIDAGI HAMKORLIKNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

***Nurqulova Dilorom***
Navoiy davlat universiteti tarix fakulteti 4-kurs talabasi
**E-mail**: diloromnurqulova43@gmail.com

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, Xitoy Xalq Respublikasi bilan oʻzaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy sohalarda olib borilgan hamkorlik jarayonlari yoritilgan. Mustaqillik yillarida ikki davlat oʻrtasida

diplomatik munosabatlarning yo'lga qo'yilishi, savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi, fan va ta'lim sohasidagi integratsiya, shuningdek madaniy almashinuvning kuchayishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston–Xitoy hamkorligining xalqaro miqyosdagi ahamiyati, bu munosabatlarning mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotdagi o'rni ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.

**Аннотация**: В данной статье рассматриваются процессы сотрудничества между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой после обретения независимости. Анализируются установление дипломатических отношений, расширение торгово-экономических связей, развитие научного и культурного обмена. Особое внимание уделяется значению узбекско-китайского партнерства на международной арене и его роли в обеспечении региональной стабильности и устойчивого развития.

**Abstract**: This article examines the process of cooperation between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China after Uzbekistan gained independence. It analyzes the establishment of diplomatic relations, the expansion of trade and economic ties, and the development of scientific and cultural exchange. Special attention is given to the significance of Uzbek–Chinese partnership on the international stage and its role in ensuring regional stability and sustainable development.

**Kalit so'zlar**: mustaqillik, xalqaro munosabatlar, iqtisodiy hamkorlik, siyosiy aloqalar, madaniy integratsiya, fan va ta'lim, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi.

**Ключевые слова**: независимость, международные отношения, экономическое сотрудничество, политические связи, культурная интеграция, наука и образование.

**Keywords**: independence, international relations, economic cooperation, political ties, cultural integration, science and education.

**Kirish**. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mamlakat tashqi siyosatida yangi sahifa ochildi. O‘zbekiston xalqaro maydonda o‘zining mustaqil siyosatini yurita boshladi va jahon hamjamiyati bilan teng huquqli munosabatlarni o‘rnatdi. Shu jarayonda O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etdi. Xitoy, O‘zbekistonning mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan ilk davlatlardan biri bo‘ldi va 1992-yil 2-yanvarda ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi[10]. Mazkur davrdan boshlab O‘zbekiston–Xitoy munosabatlari siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy yo‘nalishlarda jadal rivojlandi. Bu aloqalar o‘z ildizlarini qadimgi Buyuk Ipak yo‘li davridan olgan bo‘lsa-da, mustaqillik yillarida ular yangi mazmun kasb etdi.

Buyuk ipak yo‘li orqali shakllangan tarixiy, iqtisodiy va madaniy rishtalar zamonaviy davrda strategik hamkorlik darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan davlatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini hayotimizga joriy etishda ko‘ramiz. Biz butun ma’rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik tarafdorimiz”.

Ushbu fikr O‘zbekistonning tashqi siyosatida Sharq mamlakatlari, xususan, Xitoy bilan munosabatlarni rivojlantirishda asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Chunki Xitoy nafaqat Osiyoning eng yirik davlatlaridan biri, balki global miqyosda iqtisodiy, siyosiy va madaniy ta’sir kuchiga ega mamlakatdir. Shu bois, O‘zbekiston tashqi siyosatida Xitoy bilan o‘zaro manfaatli, tenglik

tamoyillariga asoslangan hamkorlikni mustahkamlash strategik ahamiyatga ega bo‘ldi.

1990-yillardan boshlab O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari — mustaqil tashqi siyosatni shakllantirish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni kengaytirish, hamda Sharq mamlakatlari bilan integratsion aloqalarni rivojlantirishdan iborat bo‘ldi. Shu jarayonda Xitoy bilan aloqalar davlatlararo hamkorlikning yangi bosqichiga ko‘tarildi. 1992-yilda ikki mamlakat o‘rtasida “O‘zaro munosabatlarning tamoyillari to‘g‘risida Shartnoma”, shuningdek, qishloq xo‘jaligi, transport, tibbiyot va madaniyat sohalarida qator bitimlar imzolandi.

O‘zbekiston–Xitoy hamkorligi nafaqat siyosiy darajada, balki iqtisodiy va ilmiy sohalarda ham sezilarli yutuqlarga erishdi. Xususan, 1994-yilda ikki mamlakat o‘rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘shma komissiya tuzildi, 1995-yilda esa Xitoyning Toshkentdagi elchixonasi ochildi. Bu esa ikki tomonlama munosabatlarning barqaror tizimini yaratishga zamin bo‘ldi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda Xitoy investitsiyasi ishtirokidagi 100 dan ortiq korxona tashkil etildi, bu esa iqtisodiy aloqalarning amaliy natijasini ifodaladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi va iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda Xitoy bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Xitoy O‘zbekiston uchun yirik sarmoya manbai, texnologik hamkor, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlovchi hamkor sifatida namoyon bo‘ldi. Bugungi kunda “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida O‘zbekistonning Xitoy bilan strategik sherikligi yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy

hamkorlikning shakllanish bosqichlarini tahlil qilish, ularning zamonaviy tarixdagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iboratdir. Ilmiy yangiligi shundaki, maqolada O'zbekiston–Xitoy munosabatlari mustaqillik yillarida shakllangan yangi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar nuqtayi nazaridan o'rganilib, ikki tomonlama hamkorlikning xalqaro tarixshunoslikdagi o'rni qayta baholangan.

Asosiy qism O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Sharq davlatlari, xususan Xitoy bilan diplomatik va siyosiy aloqalarni yo'lga qo'yish bo'ldi. Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan oldi hamda 1992-yil 2-yanvarda ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Shundan so'ng o'zaro hamkorlikni mustahkamlovchi bir qator shartnomalar imzolandi. 1992-yil mart oyida O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov boshchiligidagi hukumat delegatsiyasi Pekinga rasmiy tashrif buyurib[9], ikki davlat o'rtasida yigirmaga yaqin muhim hujjatlar, jumladan "O'zaro munosabatlarning tamoyillari to'g'risida Shartnoma", qishloq xo'jaligi, savdo va transport sohalarida hamkorlik bitimlari imzolandi. Mazkur hujjatlar ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning huquqiy asosini yaratdi.

1994-yilda XXR Davlat Kengashi rahbari Li Penning O'zbekistonga tashrifi natijasida ikki tomonlama hamkorlikning yangi bosqichi boshlandi. Muzokaralar yakunida kredit, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, havo transporti aloqalarini yo'lga qo'yish hamda mintaqaviy xavfsizlik masalalarini qamrab olgan hujjatlar imzolandi. Tashrif davomida ikki davlat rahbarlari Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash zarurligini ta'kidlab, bu borada hamkorlikni davom ettirishga kelishib oldilar.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning keyingi yillardagi Xitoyga qilgan tashriflari (1999, 2005, 2011) o'zbek-xitoy aloqalarini yangi bosqichga olib chiqdi[4]. Jumladan, 1999-yilda imzolangan ekstraditsiya to'g'risidagi bitim, telekommunikatsiya va turizm sohalarida hamkorlik to'g'risidagi hujjatlar ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamladi. Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan ilgari surilgan "Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zona" g'oyasi Xitoy tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi. 2004-yil iyun oyida Xitoy Raisi Xu Szintaoning O'zbekistonga davlat tashrifi O'zbekiston–Xitoy strategik sherikligining yangi bosqichini boshlab berdi[3]. Muzokaralar chog'ida ikki mamlakat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda sheriklikni yanada rivojlantirishga qaratilgan qo'shma deklaratsiya imzolandi. Shu davrda O'zbekiston Xitoyning "xavfsizlik kamari" tamoyilini qo'llab-quvvatlab, terrorizm, ekstremizm va narkobiznesga qarshi kurashda faol hamkorlik qildi.

2011-yil aprel oyida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Pekinga davlat tashrifi davomida 25 dan ortiq hukumatlararo bitim imzolandi. Ularning umumiy qiymati 5 milliard AQSH dollaridan oshdi. Shuningdek, transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, "Sharqiy Xitoy – Navoiy – Yevropa" havo yo'lagini ochish, yangi temiryo'l magistrallarini qurish kabi loyihalar muhokama qilindi. Bu tashrif ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi[8].

O'zbekiston–Xitoy iqtisodiy hamkorligi mustaqillikning ilk yillaridan boshlab davlatlararo munosabatlarning asosiy yo'nalishiga aylandi. 1994-yilda tuzilgan Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiya faoliyati orqali ikki mamlakat o'rtasida savdo, investitsiya va sanoat sohalarida izchil aloqa o'rnatildi.

1993-yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi 71,9 million AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 1994-yilda bu ko'rsatkich ikki barobarga oshib, 165 million dollarga yetdi. 2000-yillarga kelib, o'zaro savdo hajmi bir necha barobarga ortdi. O'zbekiston Xitoyga asosan paxta tolasi, ipak, mineral o'g'itlar, rangli metallar, kimyo mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilgan, Xitoydan esa elektronika, texnika, to'qimachilik buyumlari, choy va mexanik jihozlar import qilgan[7].

O'zbekiston iqtisodiyotida Xitoy investitsiyasining o'rni tobora ortib bormoqda. 2000-yillar boshida mamlakatimizda Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi 100 dan ortiq korxona faoliyat ko'rsata boshladi. Shular qatorida "Suvjihozgaz" (gaz hisoblagich ishlab chiqarish), "Rivoj–Tyanjin" (Andijon viloyatida), "Huawei Technologies" va "ZTE" kompaniyalari bilan amalga oshirilgan loyihalar iqtisodiy hamkorlikning amaliy natijasidir. Xitoy investitsiyalari hajmi 435 million AQSH dollaridan oshdi, savdo aloqalari esa har yili kengayib bordi[5].

2004-yilda imzolangan qo'shma deklaratsiyadan so'ng, ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar "strategik sheriklik" bosqichiga o'tdi. Xitoy bugungi kunda O'zbekistonning eng yirik savdo hamkorlaridan biriga aylangan. 2011-yilgi davlat tashrifi chog'ida imzolangan bitimlar transport, energetika, geologiya, axborot texnologiyalari va infratuzilma sohalarini qamrab oldi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov iqtisodiy hamkorlikning mohiyatini quyidagicha ta'riflagan edi: "Xom ashyoni eksport qilishdan ko'ra, O'zbekiston uchun ko'proq naf keltiradigan yo'nalishlarga o'tish zarur. Bular jumlasiga qayta ishlash, mashinasozlik, ilm-fanga asoslangan tarmoqlar va tayyor mahsulotlarni chet ellarga sotish kiradi". Bu yondashuv O'zbekiston–Xitoy iqtisodiy hamkorligida ham o'z

ifodasini topdi. Xitoy bilan qo'shma loyihalar O'zbekistonda ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga, yangi ish o'rinlari yaratishga va texnologik yangilanishga xizmat qildi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi madaniy va ilmiy aloqalar qadimdan mavjud bo'lib, mustaqillik yillarida bu hamkorlik yangi mazmun kasb etdi. 1990-yillardan boshlab ikki mamlakat o'rtasida madaniyat kunlari, kino haftaliklari, san'at ko'rgazmalari, talabalar almashinuvi va ta'lim sohasida bir qator qo'shma dasturlar amalga oshirildi. Oliy ta'lim sohasida Xitoy universitetlarida o'qiyotgan o'zbekistonlik talabalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Xitoy tilini o'rganish va tarjimonlik sohasida hamkorlikni kengaytirish maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Xitoy tili markazi tashkil etildi.

Fan sohasida hamkorlik asosan texnologiyalar almashinuvi, energetika, transport, kimyo sanoati va IT sohalarida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston va Xitoy olimlari o'rtasida ilmiy ekspeditsiyalar, konferensiyalar o'tkazilib, O'zbekiston Fanlar akademiyasi institutlari va Xitoy ilmiy markazlari o'rtasida qo'shma ilmiy loyihalar ishlab chiqilmoqda. Madaniy diplomatiya sohasida esa ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va o'zaro hurmat tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston poytaxti Toshkentda Xitoy madaniyat markazi, Pekinda esa O'zbekiston madaniyat markazining ochilishi xalq diplomatiyasining amaliy ifodasidir.

Xulosa O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar mustaqillik yillarida yangi mazmun kasb etib, o'zaro ishonch va manfaat tamoyillariga asoslangan strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston mustaqilligini Xitoyning dastlabki e'tirofi va 1992-yil 2-yanvarda diplomatik aloqalarning o'rnatilishi ikki davlat o'rtasidagi

hamkorlik uchun muhim tarixiy bosqich bo'ldi. O'tgan yillar davomida O'zbekiston–Xitoy aloqalari siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy yo'nalishlarda izchil rivojlanib bordi. Siyosiy sohada ikki mamlakat rahbarlarining muntazam uchrashuvlari, imzolangan shartnomalar va qo'shma bayonotlar o'zaro ishonchni mustahkamladi. Bu esa ikki davlat o'rtasida barqaror diplomatik asos yaratdi.

Iqtisodiy sohada esa Xitoy O'zbekistonning eng yirik savdo hamkorlaridan biriga aylandi. Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar mamlakatimiz iqtisodiyotining ko'plab tarmoqlarida faoliyat yuritmoqda — jumladan, energetika, telekommunikatsiya, sanoat va transport sohalarida. "Huawei Technologies", "ZTE" kabi kompaniyalarning O'zbekistonda faoliyati ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarning amaliy natijasidir. Madaniy va ilmiy sohada ham hamkorlik tobora kengayib bormoqda. Xitoy oliy o'quv yurtlarida o'zbekistonlik talabalar sonining ortib borishi, madaniyat kunlarining o'tkazilishi, tarjima loyihalarining yo'lga qo'yilishi ikki xalq o'rtasidagi yaqinlikni yanada mustahkamlamoqda. Bular O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish va milliy madaniyatini targ'ib qilishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston–Xitoy hamkorligining eng muhim jihatlaridan biri — u mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga va yangi transport-logistika yo'laklarini shakllantirishga yordam bermoqda. Ayniqsa, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida O'zbekistonning geografik o'rni strategik ahamiyat kasb etib, mamlakatni Osiyo va Yevropa o'rtasidagi muhim bog'lovchi halqaga aylantirmoqda. Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi do'stona aloqalar nafaqat ikki tomon manfaatlariga, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligi va taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Shu sababli,

Oʻzbekiston–Xitoy munosabatlari kelajakda ham iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalarda yanada kengayib, yangi sifat bosqichiga chiqishiga shubha yoʻq. Mavzudan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi hamkorlik Oʻzbekiston tashqi siyosatining muhim ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida mustahkam oʻrnashdi. Bu hamkorlik nafaqat iqtisodiy manfaatlarni, balki siyosiy barqarorlik, madaniy yaqinlik va mintaqaviy taraqqiyotga xizmat qiluvchi global omil sifatida namoyon boʻlmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1997. – 41 b

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

3. Oʻzbekiston – Xitoy: strategik sheriklik sari. // Xalq soʻzi gazetasi. – 2004-yil 5-iyun. – №112 (3482). – B. 2–3.

4. Oʻzbekiston – Xitoy hamkorligi: tarix va istiqbollar. // Oʻzbekiston tarixi jurnali. – 2020. – №3. – B. 45–52.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy axborot agentligi (OʻzA). "Oʻzbekiston–Xitoy strategik hamkorligi" maqolalar toʻplami. – Toshkent, 2015. – 98 b.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Xitoyga rasmiy tashrifi toʻgʻrisida axborot. // Jahon axborot agentligi. – 2011-yil 20-iyun. – B. 1–2.

7. Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. Oʻzbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi oʻrtasidagi diplomatik munosabatlar tarixi. – Toshkent: TIV nashriyoti, 2019. – 132 b.

8. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi O'zaro munosabatlarning tamoyillari to'g'risidagi Shartnoma. – Toshkent, 1992-yil 2-yanvar. – 6 b.

9. Saidov A.X. O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquq sohasidagi tashqi siyosati. – Toshkent: TDYI nashriyoti, 2015. – 224 b.

10. "O'zbekiston–Xitoy munosabatlari xronologiyasi." – Kun.uz, 2023-yil 21-may. – URL: https://www.kun.uz/news/2023/05/21/ozbekiston-xitoy-munosabatlari-xronologiyasi (murojaat sanasi: 20.10.2025).

# KO'ZGA YOQIMLI, ONGGA XAVFLI: REKLAMALARDAGI MANIPULYATSIYA SAN'ATI

***Yusupova Aziza Abdulaziz qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi
**Tel:** +998884648800
**E-mail:** yusupova.aziza8800@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola marketingning ajralmas qismi va uning inson hayotidagi o'rni haqida, ya'ni reklamalar haqida. Ular nafaqat mahsulotlarni targ'ib qiladi, balki insonlar ongiga ta'sir o'tkazadi. Insonlar biror narsa sotib olishayotganda qaysi mahsulotni olishidan tortib uning rangini tanlashgacha bo'lgan jarayoniga qadar reklamalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'zga yoqimli ko'rinayotgan manipulyatsiya aslida qanchalik insonlarga zarar keltirishi ushbu maqolada batafsil ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Manipulyatsiya, moliyaviy inqiroz, telekanallar, dvigatel moyi, sintetik moddalar, plastik, mexanizm, tanqidiy fikrlash.

**Annotation:** This article discusses advertising as an essential element of marketing and its role in human life. Advertisements not only promote products, but also influence human consciousness. From choosing a product to deciding its color, advertising plays a crucial role in the purchasing process. This seemingly attractive form of manipulation may in fact have harmful effects on individuals — a topic examined in depth throughout the article.

**Keywords:** Manipulation, financial crisis, TV channels, engine oil, synthetic substances, plastic, mechanism, critical thinking.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается реклама как неотъемлемая часть маркетинга и её роль в жизни человека. Реклама не только продвигает товары, но и оказывает влияние на сознание людей. От выбора продукта до определения его цвета — реклама играет важную роль в процессе покупки. Эта на первый взгляд привлекательная манипуляция на самом деле может причинить вред человеку, и в статье подробно освещаются её последствия.

**Ключевые слова:** Манипуляция, финансовый кризис, телеканалы, моторное масло, синтетические вещества, пластик, механизм, критическое мышление.

Bugungi raqamli asrda manipulyatsiya har qachongidan kengroq tarqalmoqda. Global miqyosda insonlarning psixik holatlarini axborot orqali boshqarishdan tashqari, maqsadli reklamalar orqali iste'molchilar xulq-atvorini ham o'zgartirmoqda. Manipulyatorlar uchun qurolga aylangan vositalar insonning qalbidagi nozik tuyg'ular va zaif jihatlar hisoblanadi. Ular ana shunday zaifliklar orqali boshqalarning ongini egallashni maqsad qiladilar. Ko'plab insonlar manipulyativ reklamalar orqasidan o'zlari istamagan narsalarni ham xarid qilishadi. Aksariyat shunday holatlarning oxiri moliyaviy inqirozlarga olib boradi.[1]

Hammaga ma'lumki, telekanallar orqali deyarli barcha sohalarga oid bo'lgan reklamalar ommaga namoyish etilmoqda, ular teleseriallar, kinofilmlar, ko'ngilochar ko'rsatuvlarning namoyishi davomida taqdim etiladi. Reklamalar chiroyli va jozibador, yorqin va o'zgacha ranglarni o'z ichiga oladi. Tabiiyki, bu ranglar diqqatni tez tortadi. Undan tashqari, inson qulog'iga yoqimli eshitiluvchi so'zlardan foydalanishadi. Bunday so'zlar bilan insonni tez manipulyatsiya qilish oson. Reklamalarda insonni ruhlantiruvchi shiorlardan foydalanishadi. Odamlar agar reklama qilinayotgan mahsulotni sotib olishsa, o'zlarini baxtli his qilishlariga ishontiriladi. Yana shuni qo'shimcha qilish kerakki, reklamalar har bir telekanalda har kuni namoyish qilinishi ortidan insonlar qayta-qayta ularni eshitishadi va natijada ularning ongostiga singib ketadi. Natijada, ular savdo do'konlariga borganlarida ixtiyorsiz ravishda reklama qilinayotgan mahsulotni sotib olishadi.

«Reklama to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 17-moddasiga ko'ra, (televideniye va radiodagi reklama) teleradiotashkilotlar uchun reklamaga ajratilgan ko'rsatuv vaqti ko'rsatuvning har bir soatiga 10 foizdan, ya'ni 6 daqiqadan oshib ketmasligi kerak. Shunga ko'ra, 45 daqiqadan ortiq davom etadigan konsert-tomosha va sport dasturlari, kino- va telefilmlar reklama uchun to'liq 45 daqiqalik vaqt oralig'ida ko'pi bilan bir marta uzib qo'yilishi mumkin. Vaholanki, telekanallar orqali efirga uzatilayotgan o'rtacha 45-50 daqiqalik teleserial orasida eng kamida 3 marta, har birining davomiyligi 3-5 daqiqa bo'lgan reklama e'lonlari joylashtiriladi. 10 daqiqadan kam davom etadigan teleko'rsatuvlarga umuman reklama joylashtirilishi mumkin emas. 10 daqiqadan ortiq davom etadigan teleko'rsatuvlarga esa bu teleko'rsatuvlarning mualliflik huquqi egasi bilan kelishmasdan turib reklama joylashtirilishi mumkin emas. Davlat

anjumanlari va marosimlari olib ko'rsatilayotgan paytda uni uzib turib reklamani ko'rsatish taqiqlanadi. Bolalar davrasiga (o'n to'rt yoshgacha bo'lganlarga) mo'ljallangan ko'rsatuvlarda reklama qo'yish mumkin emas. Lekin, real hayotda bunday talablarga to'liq rioya etilmayotgan holatlar ko'zga tashlanmoqda. Masalan, bolalar uchun mo'ljallangan "Bolajon" telekanal orqali reklamalar namoyish etilmoqda. Hech e'tibor berganmisiz, film yoki serial ko'rib o'tirganingizda birdaniga reklama efirga uzatiladi-yu, nimagadir televizoringizning ovozi o'z-o'zidan balandlashib ketadi. Bu aslida reklama tarqatuvchining (ya'ni telekanallar) tomoshabin e'tiborini tortishga qaratilgan hiylasi, desak adashmagan bo'lamiz. Vaholanki, qonun talabiga ko'ra dasturlarning reklama qismlari tovushini teleradiodasturning tovushiga nisbatan balandroq qilish taqiqlanadi.[2]

Reklamalardagi holatlarga insonlar ommaviy ravishda taqlid qilishadi. Misol uchun, reklamada darhol ikkita saqich yostiqchasini og'izga qo'yishni namoyish etish orqali ishlab chiqaruvchilar o'z savdolarini ancha ko'paytirishdi. Bu hol sodir bo'lganining sababi oddiy odamlar xuddi reklamada ko'rsatiganidek birdaniga ikkita saqichni olishni boshlashdi.[3]

Reklamalardagi oziq-ovqat mahsulotlari hayotdagi ko'rinishidan tubdan farq qilishini sezganmisiz? Yorqin rangdagi olmalar, tiniq rangi va jozibador tutuni bilan ko'zni oluvchi choy yoki kofe, mukammal holatdagi kremli mahsulotlar, bularning bari tabiiy holatda bo'lmaydi yoki ularni reklamadan keyin yeb bo'lmaydigan holga keladi. Reklamadagi mevalar silliq va yorqin bo'lishi uchun ular laklanadi. Dvigatel moyi esa sirop yoki hatto asal o'rniga ishlatiladi. Shirinliklar ustidagi asaldek ko'rsatilgan narsa aslida dvigatel moyi bo'ladi va uning ko'rinishi ishtahani ochishga xizmat qiladi. Tortlar haqiqiy bo'lmaydi,

ularning ichi kartondan yasaladi, kremi esa yeb bo'lmaydigan sintetik moddalardan qilinadi. Haqiqiy muzqaymoq tasvirga olish mobaynida erib ketgan bo'lardi, shuning uchun uning o'rniga kartoshka pyuresidan foydalaniladi. Yana tez erib ketadigan mahsulotlardan biri bu- muz, va reklama jarayonida uning o'rniga plastikdan foydalaniladi. Kofedan chiqib turadigan bug' aslida sun'iy ravishda hosil qilinadi. Bunday holatlardan bexabar iste'molchilar reklamada ko'rganlariga osongina aldanishadi.[4]

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilgan holda shuni aytish mumkinki, reklama — bu shunchaki mahsulotni targ'ib qilish emas, balki inson ongiga kuchli ta'sir qiluvchi vositadir. U ba'zi hollarda bizning ehtiyojlarimizni emas, orzularimiz va emotsiyalarimizni nishonga oladi. Manipulyatsiyaning jozibasi bizni o'ziga tortadi, biroq bu joziba ortida ehtiyot bo'lish lozim bo'lgan murakkab mexanizmlar yotadi. Shu sababli, har bir iste'molchi reklama ortidagi niyatni anglay olishi, tanqidiy fikrlashni o'zida shakllantirishi lozim. Faqat shu yo'l bilan biz go'zal tasvirlar ortidagi haqiqatni anglab, ongimizni himoya qila olamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. https://julienflorkin.com/uz/psixologiya/ijtimoiy-ta%27sir/manipulyatsiya/.
2. https://share.google/6ILP9kyRvF9CFQoC3.
3. https://youtu.be/Yqabhvzc2yU?si=dVYEKoUQnuT4iq8l.
4. https://share.google/I3xy3KZ0MEbMxSZkY.

# IMPROVING LISTENING AND SPEAKING SKILLS THROUGH ONLINE GAMES AND COLLABORATION

***Iskandarova Sumbula Jafarovna***
Student of Chirchik State Pedagogical University
**Scientific advisor:** ***Tulyaganova Nargiza Farxod qizi***
English teacher, Chirchik State Pedagogical University
The English language theory and practice department

**Abstract:** This article explores the potential of online games and collaborative activities in enhancing listening and speaking skills among English language learners. With the rapid growth of digital technology, interactive tools such as multiplayer games, voice-based platforms, and virtual communication spaces have transformed traditional learning approaches. These platforms encourage real-time conversation, active participation, and contextual language use. The study discusses how gamification promotes motivation, reduces language anxiety, and fosters peer-to-peer communication. It also highlights the importance of cooperation, problem-solving, and authentic dialogue in virtual environments. By integrating online games with collaborative learning strategies, educators can create dynamic and engaging language experiences that significantly improve communicative competence.

**Keywords:** Online games, listening skills, speaking skills, collaboration, gamification, EFL learning, digital pedagogy

**Аннотация:** В данной статье рассматривается потенциал онлайн-игр и совместных действий в развитии навыков аудирования и говорения у изучающих английский язык. С быстрым развитием цифровых технологий интерактивные инструменты, такие как многопользовательские игры и голосовые платформы, изменили традиционные методы обучения. Эти среды способствуют живому

общению, активному участию и использованию языка в реальном контексте. Исследование подчеркивает, как геймификация повышает мотивацию, снижает языковую тревожность и развивает взаимодействие между учащимися. Особое внимание уделяется сотрудничеству, решению проблем и аутентичному диалогу в виртуальных пространствах. Интеграция онлайн-игр и коллективного обучения позволяет создать эффективную и увлекательную языковую среду, значительно улучшая коммуникативную компетенцию.

**Ключевые слова:** Онлайн-игры, аудирование, говорение, сотрудничество, геймификация, изучение английского, цифровая педагогика

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini oʻrganuvchilar orasida tinglash va gapirish koʻnikmalarini rivojlantirishda onlayn oʻyinlar va hamkorlikdagi faoliyatning ahamiyati yoritiladi. Raqamli texnologiyalar tez rivojlanishi natijasida koʻp foydalanuvchili oʻyinlar, ovozli platformalar va virtual muloqot maydonlari an'anaviy ta'lim yondashuvlarini oʻzgartirmoqda. Bu platformalar real vaqtli suhbat, faol ishtirok va tilni kontekstda qoʻllash imkonini beradi. Tadqiqotda gamifikatsiya motivatsiyani oshirishi, til tashvishini kamaytirishi va oʻzaro hamkorlikni kuchaytirishi ta'kidlanadi. Virtual muhitlarda hamkorlik, muammo yechish va autentik dialog muhim omil sifatida koʻrsatiladi. Onlayn oʻyinlar va hamkorlik strategiyalarini birlashtirish orqali oʻqituvchilar jonli hamda samarali til muhitini yaratib, kommunikativ kompetensiyani sezilarli darajada yaxshilashlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** Onlayn o'yinlar, tinglash ko'nikmasi, gapirish ko'nikmasi, hamkorlik, gamifikatsiya, ingliz tili ta'limi, raqamli pedagogika

## INTRODUCTION

In recent years, the rapid integration of digital technologies into education has reshaped traditional methods of language teaching and learning. Among these innovations, online games and collaborative platforms have gained significant attention for their ability to create immersive, interactive environments where learners actively engage in real-time communication [1]. Listening and speaking skills—considered the core components of communicative competence—are often the most challenging to develop in conventional classroom settings due to limited exposure to authentic dialogue and lack of motivation. However, digital game-based learning offers a dynamic alternative, allowing learners to practice English in realistic contexts while interacting with peers worldwide.

Online games, particularly those featuring voice chat, role-play, and cooperative missions, provide a space where learners must listen carefully, respond quickly, and negotiate meaning to achieve shared goals [2]. This natural need for communication encourages spontaneous speech, fluency, and pragmatic language use. Collaboration within these platforms fosters teamwork, problem-solving, and peer support, creating a sense of community that traditional exercises may fail to achieve. Furthermore, the playful nature of gaming reduces anxiety and builds confidence, especially for learners who hesitate to speak in formal settings.

The purpose of this paper is to examine how online games and collaborative activities contribute to the improvement of listening and

speaking skills in English language learning. It explores both the pedagogical benefits and the practical challenges of integrating such tools into modern classrooms. By analyzing theoretical foundations and real-life applications, the study aims to highlight the potential of digital collaboration as a powerful strategy in enhancing oral proficiency. Ultimately, this research advocates for a blended approach, where educators combine traditional instruction with engaging digital platforms to create meaningful and motivating learning experiences.

The development of listening and speaking skills has long been central to communicative language teaching (CLT), which emphasizes meaningful interaction over rote memorization. According to communicative competence theory, learners must not only possess grammatical knowledge but also the ability to understand and produce language in real-life contexts [3]. Traditional classroom practices, such as scripted dialogues and controlled drills, often fail to replicate the spontaneity and authenticity required for oral proficiency. Therefore, modern pedagogy advocates for interactive methods that encourage active participation and negotiation of meaning.

In this context, gamification and digital learning theory provide a strong foundation for integrating online games into language education. Gamification refers to the use of game elements—such as challenges, rewards, and ranking systems—to increase motivation and engagement. Research in educational psychology suggests that game-based environments stimulate intrinsic motivation by offering autonomy, competition, and collaboration [4]. Learners are more likely to take communicative risks when the atmosphere is relaxed and non-judgmental, which is often the case in digital gaming settings.

Moreover, sociocultural theory, particularly Vygotsky's concept of the Zone of Proximal Development (ZPD), supports collaborative learning as a means of language development. In multiplayer games, learners interact with peers at different proficiency levels, receiving immediate feedback and linguistic input within a shared task. This interaction promotes scaffolding, where stronger players help weaker ones, reinforcing both listening comprehension and spoken fluency.

Additionally, constructivist learning theory emphasizes experiential learning—acquiring knowledge through active discovery. Online games offer immersive narratives and problem-solving missions, requiring players to interpret instructions, engage in dialogue, and adapt language to context. Rather than memorizing phrases, learners use English purposefully, constructing meaning through real-time interaction.

Overall, these theoretical perspectives demonstrate that online games and collaboration are not merely forms of entertainment but can be powerful educational tools. They align with 21st-century learning principles, fostering autonomy, creativity, and communicative competence [5]. By bridging theory and practice, digital platforms create opportunities for authentic language use that traditional classrooms may struggle to provide.

Online games provide a unique environment where language learning occurs naturally through interaction rather than formal instruction. In multiplayer and role-playing games, players must listen to instructions, follow dialogue, and respond quickly to teammates. This constant exchange helps learners strengthen both listening comprehension and spontaneous speaking skills.

One of the greatest advantages of online games is authentic communication. Players are exposed to real accents, informal expressions, and conversational language that textbooks rarely provide. Features such as voice chat, in-game missions, and group strategy discussions create real-life scenarios, pushing learners to practice active listening and quick verbal responses [6]. Additionally, online games reduce language anxiety. Unlike traditional classrooms where learners fear making mistakes, gaming environments are relaxed and reward participation rather than perfection. This makes learners more confident and willing to speak, even if their language is not flawless. Furthermore, online games encourage repetition and practice without boredom. Replaying missions, negotiating strategies, and discussing game progress naturally reinforce vocabulary, pronunciation, and fluency. Over time, learners develop the ability to listen attentively, interpret meaning, and convey thoughts clearly in English.

**CONCLUSION**

The integration of online games and collaborative activities into English language education presents a powerful approach to enhancing listening and speaking skills. Unlike traditional classroom methods, digital platforms create interactive, dynamic environments where learners engage in authentic communication. Through real-time dialogue, problem-solving, and cooperative tasks, students are encouraged to listen actively, respond confidently, and develop fluency in natural contexts.

Gamified learning reduces anxiety, increases motivation, and promotes participation, making language practice more enjoyable and meaningful. Collaboration with peers—whether through teamwork, voice chat, or shared missions—helps learners build communication

strategies, improve pronunciation, and acquire conversational skills. By combining technology with cooperative learning principles, educators can create richer language experiences that better prepare learners for real-world communication.

**References**


1. Gee, J. P. (2007). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Palgrave Macmillan.
2. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
3. Tulyaganova, N. (2024). Interactive games for enhanced English language teaching. *Builders Of The Future*, *4*(04), 305-309.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
5. Tulaganova, N. F. Q., & Yusupova, S. B. (2022). Madaniyat, san'at va adabiyotning tilga ta'siri: uzbek va ingliz tillarining óziga xos xususuyatlari. *Academic research in educational sciences*, *3*(4), 794-797.
6. Prensky, M. (2001). Digital Game-Based Learning. McGraw-Hill.
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
8. Абдуллаева, Ш., & Туляганова, Н. (2025). Exploring the role of technology in modern language education. *Инновации в современной лингвистике и преподавании языков*, *1*(1), 9-12.

# HAYVONLARNING PSIXIK FAOLIYATI VA RIVOJLANISHI JARAYONLARI

***Bahodirova Madina Ilxom qizi***
Guliston davlat universiteti
Psixologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi
**Tel:** +998932669383
**E-mail:** bahodirovb948@gmail.com

***Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li***
Guliston davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
**Tel:** +998999144472
**E-mail:** sobirravshanov3@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada, zoopsixologiyaning, fiziologiya bilan aloqasi asoslab berilgan. Zoopsixologiyani o'rganishda J.B.Lamark, hayvonlarning xatti-harakatlarini va darajalarini qanday tizimlashtirganligi ochib berilgan. Asab tizimigacha bo'lgan davr va asab tizimining paydo bo'lishida ko'plab olimlarning tadqiqotlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** etologiya, filogenez, amyoba, protorlazma, stimul, impuls, zol, retikulyar shakltsiya,to'rsimon, ganglionar.

**Abstract:** this article substantiates the relationship between zoopsychology and physiology. In the study of zoopsychology, it is revealed how J.B. Lamarck systematized the behavior and levels of animals. The period before the nervous system and the research of many scientists on the emergence of the nervous system are considered.

**Keywords:** ethology, phylogenesis, amoeba, protoplasm, stimulus, impulse, sol, reticular formation, reticular, ganglionic.

**Аннотация:** В статье обосновывается взаимосвязь зоопсихологии и физиологии. В рамках зоопсихологии раскрывается

систематизация поведения и уровней развития животных Ж. Б. Ламарком. Рассматривается период до возникновения нервной системы и исследования многих учёных, посвящённые её возникновению.

**Ключевые слова:** этология, филогенез, амёба, протоплазма, стимул, импульс, золь, ретикулярная формация, ретикулярный, ганглиозный.

Hayvonlarni psixologik jihatdan o‘rganish bilan birga, hozirgi kunda hayvonlarni biologik tarzda o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu etologiya sohasining tarkibiga kirib ular shu soha bilan shug‘ullanishadi. Etologlar birinchi navbatda, hayvonlarning xatti-harakatini ekologik omil asosida o‘rganishadi, bunda hayvonlarni ma’lum bir sharoitlariga moslashish holatlari o‘rganiladi. Bir vaqtning o‘zida etologiya filogenezda hayvonlarning xatti-harakatini o‘zgarish holatlarini ham tadqiq etadi. Etologik o‘ziga xoslik asosida, albatta, hayvonlarning instinktiv xulq atvorlari yotadi. Dala sharoitida kuzatishlar natijasida etologlar xatti-harakat biologiyasi nazariyasini yaratdilar. Bunda asosiy o‘rinda instinktiv xulq-atvor birlamchi o‘ringa chiqadi. Ular evolutsion bilimlarga, funksional morfologiyaga, ommaviy ekologiyaga, hayvonlar tizimiga, zoogeografiyaga va boshqa sohalarga katta foyda keltirdilar.

Zoopsixologiyaning fiziologiya bilan aloqasida ham uzviylik mavjud. Ayniqsa, neyrofiziologiya, oliy nerv fiziologiyasi bilan. Zoopsixologdan farqli ravishda fiziolog psixik aks ettirish jarayonlarini o‘rganadi. Fiziologik tadqiqotlar xuddi zoopsixologiya kabi o‘tkaziladi, unda xatti-harakatlar tahlil qilinadi va albatta, fiziolog oliy nerv faoliyatiga o‘z e’tiborini qaratadi.Uning birlamchi funksiyasi faoliyat tizimlari va a’zolarini o‘rganishdan iborat. Sodir bo‘layotgan holatlarni

o'rganayotgan vaqtda, albatta, psixik aks ettirishlarni ham kuzatish mumkin, biz organizmni yaxlitligicha idrok qilishimiz zarur bo'ladi.

Biroq fiziologik jarayonlar xatti-harakat shakli, fiziologik mexanizmlarni anglashga yordam beradi, Demak, fiziologik mexanizmlar va alohida jarayonlar orasidagi chegaralarni yo'qotadi. Shuning uchun ham fiziologiyani o'rganayotgan vaqtda etologik yoki zoopsixologik nuqtai nazarlar bilan yondashish mumkin emas. Fiziologlarni funksiyasi zoopsixolog va etologlarnikidan farqlidir. Yuqoridagi hech bir fan boshqasining o'rnini bosa olmaydi, ular faqatgina hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishlari mumkin. Bu yo'nalishlar orqali hayvonlarni to'liq tahlil qilish imkoniyatini yaratishimiz mumkin.

Hayvonlarni tadqiq qilish asosan zoopsixologiya o'zining sa'y-harakatlarini hayvonlar xulq-atvorini o'rganishga qaratadi. Biroq psixik omillarsiz hayvonlarning biologik jihatlarini o'rganish mumkin emas, va aksincha laboratoriya sharoitida amalga oshiriladi. Zoopsixologiya fanidan hayvonlarning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari ham o'rganiladi. Hayvonlarni o'rganishda to'plangan tajribalari asoslangan holda yangi tajriba usullarini ishlab chiqish mumkin.[1]

J.B.Lamarkning zoopsixologik nazariyalari. XIX asrning boshlarida tabiiy fanlar falsafadan ajralib chiqdi. Bu holat esa, zoopsixologiya fanining paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qildi. Biroq zoopsixologiyaning markaziy konsepsiyasi hali ham mavjud emas edi.

XIX asrga qadar hayvonlarning xatti-harakatlarini va darajalarini hech kim tizimlashtirgan emas edi. Bu vazifani Jon Batist Lamark amalga oshirdi. 1809-yilda u o'zining mashhur asari "Zoologiya falsafasi" kitobini chop ettirdi. Kitobda zoopsixologiya alohida fan sifatida tahlil qilingan bo'lib, J.B. Lamark evolutsiyaning yakunlangan nazariyasini

yaratdi va bu nazariyada tirik organizmlar xulq-atvorining asosida tashqi muhitning ta'siri yotadi, deb talqin qilingan. Lamarkning fikriga ko'ra organizmlardagi o'zgaruvchanlik tashqi muhitning ta'sir ostida sodir bo'ladi deb ta'kidlangan. Tirik jonzotlar reaksiyasining asosiy omili sifatida tashqi muhit ta'sirini o'rganadi. Organizmlarning xulq-atvori tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkinligini e'tirof etgan. Lamarkning talqinicha "Organizmlar tashqi muhit ta'sir ko'rsatishi tufayli o'zgaradi, muhit hayvonlar psixikasini o'zgartiradi" Lamark zoopsixologiya faniga qimmatli kashfiyotni taqdim etdi. U psixikaning asab tizimiga bog'liqligini aniqlab, psixik faktlar tasnifini tuzdi. Eng sodda xatti-harakat sifatida qo'zg'atuvchining organizmga ko'rsatgan ta'sirini, murakkab omil sifatida sezuvchanlikning mohiyatini tushuntirib berdi.[2]

Asab tizimigacha bo'lgan davr va asab tizimining paydo bo'lishi Amerikalik tadqiqotchi Jennigs eng sodda jonzotlarda tadqiqot ishlarini olib borgan. Ma'lumki, amyobaning tanasiga tegilsa, uning holati o'zgaradi. Tegilgan joyda yolg'on oyoqlar paydo bo'ladi. Bular psevdopodiyalar deb ataladi, amyoba shu oyoqlari bilan obyektni ushlab oladi, agar bu obyekt ozuqa bo'lsa amyoba uni o'zlashtiradi, agar ozuqadan boshqa narsa bo'lsa amyoba uni tashlab yuboradi. Bunga yaqin javobni distant qo'zg'atuvchilar orqali ta'sir qilinganda kuzatishimiz mumkin. Ba'zi bir holatda amyoba ma'lum bir masofada turgan obyektga yaqinlasha boshlaydi va uni ushlab oladi, boshqa vaziyatlarda esa ular teskari xatti-harakatlarni amalga oshira boshlaydilar. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra buni quyidagicha izohlash mumkin, zaif qo'zg'atuvchilar amyobalarda faol reaksiyani vujudga keltiradi va aksincha kuchli qo'zg'atuvchilar teskari effektni vujudga keltiradi, bu esa amyobani qo'zg'atuvchidan uzoqlashishiga

sabab bo'ladi. Amyobaning tanasi bir xil bo'lmagan qavatlar protoplazmasidan iborat. Tashqi protoplazma gel holatida bo'ladi, ichki protorlazma zol (suyuqlik) holatida bo'ladi. Protoplazmaning tashqi qavati tashqi ta'sirga qo'zg'aluvchan bo'ladi, shundan so'ng u zol holatiga o'tadi. Bu yolg'on oyoqlarning shakllanishiga sabab bo'ladi, shundan so'ng amyoba harakatlanadi.

Foterning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, amyobaga 20 marta zaif mexanik ta'sirdan 2 tasiga javob qaytaradi, zaif yorug'likka esa umuman javob bermagan, biroq kuchli yorug'lik va mexanik stimullarning 20 tasidan, 16 tasiga javob qaytargan.

Mayer va Shreyr taxminlariga ko'ra zaif qo'zg'atuvchilarga nisbatan ijobiy, kuchli qo'zg'ovchilarga nisbatan salbiy ta'sirotlar vujudga keladi.

Bless va Leontevlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, dafniya yorug'likka nisbatan to'g'ri harakatlanmasdan, balki yoysimon harakatlanar ekan.

Polyak olimi Dembrovskiyning tadqiqotlarida ham sodda hayvonlarga kerakli harakatlarni amalga oshirishni o'rgatish mumkinligi ko'ringan. U bir hujayrali hayvonlarni dumaloq idishga solib qo'yib, ularni qanday harakatlanishini kuzatgan, ularning harakatlari boshida xaotik xarakterga ega bo'lgan, ma'lum muddat o'tgandan so'ng esa, bu tartiblangan harakatga aylangan. Tadqiqotchilar juda qiziq ma'lumotlarni qo'lga kiritishgan. Bir hujayrali hayvonlarda qo'zg'alishning tarqalishi sekundiga 1-2 mikrondan oshmasa, eng sodda asab tizimiga ega bo'lgan hayvonlarda tezlikni tarqalishi ancha yuqori, u sekundiga 50 sm ni tashkil qiladi, qurbaqaning asab tizimida nerv impulsining tarqalish tezligi 25 metrga, insonniki esa sekundiga 125 metrni tashkil qilar ekan.

Bu holatlar shuni koʻrsatadiki, yuqori tuzilishli asab tizimiga ega boʻlgan hayvonlarda asab tizimining tezligi oshar ekan. Bularning hammasi evolutsiya jarayonida asab tizimining shakllanishiga asos boʻlib xizmat qilgan. Eng birinchi asab tizimi toʻrsimon asab tizimi hisoblanadi. Bu asab tizimining tolalari toʻrga oʻxshash boʻlganligi sababli u toʻrsimon asab tizimi deb yuritilgan. Nerv tolalari juda kuchli sezuvchanlikka ega boʻladi. To ʻrsimon asab tizimi yuqori umurtqalilarda «retikulyar shakltsiya» deb nomlangan toʻrsimon tuzilmani eslatadi. Biroq retikulyar shakltsiya yuqori darajada rivojlangan hayvonlarda asab tizimining past bosqichi hisoblansa, koʻp hujayrali past darajadagi hayvonlarda asab tizimining yagona shakli sifatida talqin etiladi. Bunday asab tizimi koʻpgina afzalliklarga ega, lekin u harakatni boshqara olmaydi.Toʻrsimon asab tizimi nafaqat kontakt qoʻzgʻatuvchilar, balki distant qoʻzgʻatuvchilarga nisbatan ham sezuvchanlikning ortishiga asos boʻladi. Toʻrsimon asab tizimi bir qator kamchiliklarga ega. Banday asab tizimida asosiy boshqaruv funksiyalari mavjud emas.

Nemis olimi Bets dengiz yulduzlari oʻrtasida tadqiqot oʻtkazgan. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, dengiz yulduzchalarining bittasi yetakchiga aylanadi, unga taʼsir qilinganda shu tola orqali hamma aʼzolar javob bera boshlaydi. Biroq shu yetakchi nur olib tashlansa, boshqa nur uning funksiyasini boʻyniga olishi mumkindir. Bu esa dengiz yulduzining nera apparati oʻsha tamoyilda qolganligini koʻrsatadi. Yangi asab tizimining paydo boʻlishiga sabab boʻlib, ular xatti-harakatini boshqara oladilar. Shu sharoitlar markaziy asab tizimini yanada shakllanishini taʼminlaydi.Bunday asab tizimini chuvalchanglarda ham kuzatish mumkin. Ularda koʻplab nerv tugunlari mavjud boʻlib, ganglionar asab tizimi deb yuritiladi. Bu asab tizimida oldingi

gangliyaning paydo boʻlishi muhim ahamiyatga ega boʻlib, u asab tizimining boshqaruv apparatini tashkil etadi. Chuvalchanglarning asab tizimini filogenezning nisbatan yakunlangan taraqqiyot bosqichiga kiritish mumkin.

Xulosa. Zoopsixologiya fanida hayvonlarni tadqiq qilish asosan, zoopsixologiya oʻzining sa'y-harakatlarini hayvonlar xulq-atvorini oʻrganishga qaratadi. Psixik omillarsiz hayvonlarning biologik jihatlarini oʻrganish mumkin emas, va aksincha laboratoriya sharoitida amalga oshiriladi. Zoopsixologiya fanidan hayvonlarning atrof-muhit bilan oʻzaro munosabatlari oʻrganiladi. Hayvonlarni oʻrganishda toʻplangan tajribalari asoslangan holda yangi tajriba usullarini ishlab chiqish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**


1. Филиппова Г. Г. Зоопсихология и сравнительная психология: учеб. пособие. - 5—е изд., стер. - М.: Академия, 2009. -. 544 с.
2. Вагнер В.А. Сравнительная психология. – М.: Ин-т практ. психологии, 1998.
3. Рожкова А.П. Зоопсихология психология и сравнительная психология: Учебное пособие. – Курган: Изд-во Курганского гос. унта, 2005.
4. Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 428.
5. Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition, The University of Texas at Austin, 2008. P.11.
6. Umumiy psixologiya / Muhamedova D.Gʻ., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I.; mas'ul muharrir E.Gʻ.Gʻoziyev. – Toshkent: MUMTOZ SOʻZ, 2018. – 298 b.

# AQLI ZAIF BOLALARDA NUTQ BUZILISHINING O'ZIGA XOSLIGI

***Abdullayeva Dildora Xayrullo qizi***
Guliston davlat universiteti talabasi
**Tel:** +998941131806

***Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li***
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
**Tel:** +998999144472
**E-mail:** sobirravshanov3@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi aqli zaif o'quvchilarning nutq jarayonlari, nutqidagi buzilishlar va ularning ruhiy holati hamda jamiyatdagi o'rni, shu bilan birga, til va nutqida uchraydigan kamchiliklar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Til va nutq, talaffuz me'yorlari, nutqiy tafakkur, aqli zaif bolalar, nutq buzilishlari, nutqiy jarayonlar, nutq nuqsonlari.

**Аннотация:** В данной статье говорится о речевых процессах, речевых нарушениях и их психическом состоянии, и месте в обществе, а также о дефектах языка и речи учащихся с задержкой психического развития, участвующих в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** Язык и речь, нормы произношения, речевое мышление, умственно отсталые дети, речевые нарушения, речевые процессы, дефекты речи.

**Abstract:** This article talks about speech processes, speech disorders and their mental state and place in society, as well as language and speech defects of students with mental retardation participating in the educational process.

**Key words:** Language and speech, pronunciation standards, speech thinking, mentally retarded children, speech disorders, speech processes, speech defects.

Insonning eng muhim fazilatlaridan biri uning nutq vositasida o‘zaro aloqa bog‘lay olishi, fikrlay olishi hamda so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lishidir. Har xil tovushlarning ma’lum tartibda birgalashib qo‘shilishidan yuzaga kelgan ma’noli nutq muayyan organizmlarning faoliyati natijasida paydo bo‘ladi.

Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til birliklarini o‘rinli qo‘llash yotadi. Tilning murakkab sistemasi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo‘lib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda o‘zlashtirib olinadi. Nutq rivojlanishi jarayonida tafakkur qobiliyatlari, bilish faoliyatining oliy jarayonlari shakllanadi. So‘zning ahamiyati o‘z – o‘zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi hamda shu munosabat bilan o‘zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o‘xshash emas, shuning bilan birga ma’lum darajada bir – biriga bog‘liq bo‘lmagan holda paydo bo‘ladi. Ammo bolaning ruhiy rivojlanish jarayonida murakkab, sifati jihatidan yangi birlik nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo bo‘ladi. [3]

Nutq bilan tilni ayni bir narsa deb hisoblab bo‘lmaydi. Nutq inson boshqa kishilar bilan munosabatda bo‘lish maqsadida tildan foydalanadigan faoliyatdir. Har bir odam muomalani o‘zicha amalga oshiradi. Biroq bu muomala muayyan millat foydalanadigan o‘sha bir xil vositalari yordamida yuz beradi. Til esa ana shu vositalar yordamida vujudga keladi. Til tovush hamda so‘z boyligi, shuningdek, grammatik shakldir. Til ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyoti davomida kishilar

o'rtasidagi nutq vositasidagi muomala jarayonida paydo bo'ladi va uni inson tayyor holda o'zlashtirib oladi.

Tafakkur bilan nutq bir – biri bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Shaxs o'ylayotganda, odatda, fikrlar so'zlar, jumlalar tarzida, ichki nutq deb ataladigan nutq tarzida ifoda etiladi. Biroq shunday hollar ham bo'ladiki, shaxs fikrini so'zlar bilan ifoda eta olmay qoladi. Bu holda inson ichki nutqdan tashqi ifodaga o'tishda o'z fikrini boshqa kishilarga tushunadigan qilib bayon etishda qiynaladi.

Bola nutqining normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o'zlashtirib olishga, tevarak – atrof haqidagi bilim hamda tasavvurlarni kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Bolaning atrofidagi katta odamlar qaysi tilda gaplashsalar, bola ham shu tilni o'rganadi. Nutqni egallashdek juda ham qiyin jarayonni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiqa oladi. Bola rivojlanishida psixik jarayonlar bilan birga eshitish qobiliyati juda katta ahamiyatga ega. Bolaning normal rivojlanishida hamda umuman olganda, barkamol bo'lib o'sishida barcha psixik jarayonlar bilan eshitish qobiliyati chambarchas bog'liq ravishda, hech qanday nuqsonsiz rivojlangandagina uning nutq boyligi normal darajada rivojlanadi.

Aqli zaif bolaning xususiyati shundaki, uning psixikasi qoidaga bo'ysunmaydigan sharoitlarda, anomal taraqqiy topish jarayonida shakllanadi. Aqli zaif bola sog'lom tengdoshlaridan shu bilan farqlanadiki, uning avvalgi tajribasi va rivojlanishida bundan keyingi psixik kamol topish uchun zarur shart – sharoitlarni tashkil etuvchi mexanizmlar va psixik jarayonlar shakllanmagan bo'ladi. Shunday qilib, aqli zaif bolaning umumiy psixik taraqqiyot darajasi odatdagi sharoitlarda uning maktab bilimlari, ko'nikma va malakalarni ongli sur'atda egallashini ta'minlay olmaydi. Bolaning psixik kamol topishiga

uni ommaviy maktabda o'qitib ko'rish zarar yetkazadi. U maktab yoshiga yetarkan, o'qish uchun yetarli tayyorlanmagan holda bo'ladi, o'quv topshiriqlarining maqsadiga diqqatini to'play olmaydi va qiyinchiliklarni yengib o'ta olmaydi. Maktabdagi tartib qoidalarga bo'ysuna olmaydi. Bularning hammasi o'zlashtirmaslikka olib keladi. Shuning uchun ham yordamchi maktabning muhim vazifalaridan biri o'quvchini umumiy taraqqiy topishida ilgari siljitish uchun pedagogik jarayonga korreksion vaziyatlarni singdirishdan ibotatdir. Yetakchi faoliyat uning psixik jarayonlari bilan shaxsiy xususiyatlarida eng bosh o'zgarishlarni taqozo etibgina qolmay, balki uning o'sib borishida yaxshi ko'rsatkich hamdir.

B.N. Pinskiy ta'kidlashicha, aqli zaif bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlari mustaqil holda yoki o'qituvchining ozgina ko'magi bilan bajara oladigan vazifalarni uddalashlari uchun propedevtik va korreksion tarbiyaviy tadbirlarga muhtojdir. Nutqini o'z vaqtida to'g'ri egallash bolaga atrofini o'rab turgan odamlar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o'z nutqini boshqarishiga ko'maklashadi va nihoyat maktabda ta'lim – tarbiya berish jarayonini ancha yengillashtiradi. [2]

Aqli zaif bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlaridan farqli o'laroq ancha kech tilga kiradilar. Birinchi so'zni aytish muddati bolaning uch, ba'zan besh yoshigacha kechikadi. Avvalambor, bu yerda talaffuzdagi nuqsonlarni qayd etish kerak. G.A. Kainning tadqiqotlariga ko'ra, yordamchi maktab o'quvchilarining 66 foizi tutilib gapirishning u yoki bu shakliga duchor bo'lishadi. Aqli zaif bolalarda nutqiy nuqsonlarning shunchalik katta miqdorda uchrashi tasodifiy hol emas. Zero, bosh miya po'stlog'ining shikastlanishi, fonematik eshituvning buzilishiga, artikulatsion apparat harakatining izdan chiqishiga olib keladi. Aqli zaif bolalar tilning lug'aviy boyligini egallashda jiddiy qiyinchiliklarga duch

keladi. Aqli zaif o'quvchilar qo'llaydigan so'zlar zaxirasi odatdagi me'yorga tenglashtirib bo'lmaydigan darajada tor hisoblanadi.

Yetakchi pedagog-defektologlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, ta'limning maxsus tashkil etilgan sistemasi yordamida aqli zaif bolalarning nutqiy faoliyatidagi nuqsonlarni korreksiyalab borish, tafakkurning kechikishidagi nuqsonlarni oshirish mumkin. Aqli zaif bolalar juda ko'p tovushlarni, ya'ni sirg'aluvchi, til orqa, sonor tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Bunday holat bola nutq apparatining yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Bu guruhga kiruvchi bolalar orasida tovushlarni buzib talaffuz etish, boshqa tovushlarga almashtirish ko'proq foizni tashkil etadi. Shuning uchun ham logopedlarning, o'qituvchilarning asosiy vazifasi aqli zaif bolalar nutqini har tomonlama o'stirishdir. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish bola artikulatsion apparatining yaxshi uyg'unlashib, moslashib ishlashiga bog'liqdir. Hamma vaqt tovushlar ustida ish olib borilar ekan, albatta artikulatsion gimnastikalar o'tkaziladi. Ayrim unli va undosh tovushlar asta-sekin egallab boriladi. Bolalarning ko'pchiligi ayrim tovushlarni, ya'ni R, S, K, G, M, SH, CH tovushlarini talaffuz etishda qiynaladilar, so'zlarni buzib talaffuz etadilar. Ayrim bolalar so'zdagi bo'g'inlar o'rnini o'zgartirib, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladilar.

Rus psixologi A.R. Luriya fikricha «Nutq tovushlarini idrok etishda nutqiy oqimdan signalli, fonematik belgilar ajraladi va nutq tovushlarini differensiatsiya qilish ushbu maxsus belgilarni kuchaytirishni hamda muhim bo'lmagan, tasodifiy, fonematik ahamiyatga ega bo'lmaganlardan ajratish asosida amalga oshadi. Shuni aytib o'tish zarurki, aqli zaif bolalarda faqatgina faol nutqning rivojlanishi kechikib qolmaydi. Bolalar ularga qaratib so'zlagan nutqni yaxshi tushunmaydilar. Kattalarning savollari, talablari, tushuntirishlari va

ko'rsatmalari ularning hayotida birmuncha boshqa, ahamiyatsiz rol o'ynaydi». [4]

Aqli zaif bolalarning maktabgacha tarbiya davridagi nutqiy aloqa qilish faoliyati bilan bog'liq tajriba kamroq vaqtni 3-4 yilni o'z ichiga oladi. Shunda ham uning rivojlanish sur'ati keskin orqada qolgan, nutq faolligining zaifligi kuzatiladi. Bolaning maishiy so'zlashuv nutqi yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Bu esa oligofren bolaga kattalar bilan nutqiy aloqa qilishni qiyinlashtiradi. Bola suhbatlarda ishtirok eta olmaydi, savollarga bir xil tarzda, doim ham to'g'ri javob beravermaydi. Topshiriq va vazifalarni bajarish unga qiyinchilik keltirib chiqaradi. Aqli zaif bolalar uchun xarakterli bo'lgan fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi hamda nutq harakatidagi kamchiliklar bir-biriga ta'sir etadi va nutqning rivojlanishini tormozlaydi. Biroq shuni nazarda tutish lozimki, nutq a'zolari harakatidagi kamchiliklarni haddan tashqari ko'pirtirib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'lmaydi, negaki bu buzilishlar keyinchalik oson bartaraf etilishi mumkin. Asosiy, yetakchi rol fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligiga tegishli bo'lib, u aqli zaif bolalarning umumiy rivojlanish nuqsonlarining oqibati hisoblanadi. Aqli zaif bolalar talaffuzidagi nuqsonlar – nutqning to'liq rivojlanmaganligining ko'rinishlaridan biridir. Me'yorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatiladigan talaffuz nuqsonlaridan farqli ravishda aqli zaif bolalarda uchraydigan talaffuz kamchiliklari boshqa, anchayin murakkab, shuning uchun ham bartaraf etish birmuncha qiyin bo'lgan sabablarga ega bo'ladi. Ularning asosida bola tomonidan ona tilining tovush tomonini o'zlashtirish sekinlashganligi yotadi. Aqli zaif bolaga eshitilishi bo'yicha o'xshash fonemalarni ajratish hamda so'zning tovush tahlilidagi qiyinchiliklardan namoyon bo'ladigan fonematik buzilishlar xosdir. Bular talaffuz nuqsonlarini keltirib chiqaradi.

Darhaqiqat, o‘xshash tovushlarni yetarlicha aniq ajrata olmasdan bola ularni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgana olmaydi, negaki mustaqil ravishda o‘zining talaffuzini nazorat qilib, takomillashtira olmaydi. So‘zning tovush tahlili va sintezning nuqsonlari o‘z navbatida ularning tuzilishini egallab olishga to‘sqinlik qiladi. So‘zlarda tovushlarni tashlab ketish, o‘rnini almashtirish, shu bilan birga, so‘zni oxirigacha aytmaslikka olib keladi.

Aqli zaif bolalarda so‘zlar boyligi odatda juda sekinlashgan bo‘lishi kuzatiladi. Ular ko‘pincha doimo uchraydigan, yaxshi tanish bo‘lgan predmetlarning nomlarini ham bilmaydilar. G.L.Vigotskiyning ma’lumoticha, aqli zaif 1—2-sinf o‘quvchilari lug‘atida asosan ot va fe’llar ustunlik qiladi. G.M.Dulnev aqli zaif bolalar o‘z nutqida sifatlardan kam foydalanadilar, deb ko‘rsatadi. [7]

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, yordamchi maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 40—60% da turli nutq kamchiliklari uchraydi. Bu nuqsonlar orasida asosiy qismni tili chuchuklik, manqalanish, duduqlanish tashkil etadi. Aqli zaif bolalar nutqining aloqa vositasi sifatidagi roli barcha tomonlardan zararlangan bo‘ladi. Bunda nutqning axborot, hissiy-iroda, boshqaruvchanlik vazifalari buzilgan bo‘ladi. Bunday bolalarda nutq bilan faoliyat orasida muvofiqlik ko‘zga tashlanmaydi. Nomuvofiqlik aqli zaif bola nutqi bilan uning xulqi orasida ko‘zga tashlanadi. Aqli zaif bolalar o‘zlarini nazorat qilish uchun o‘z nutqlaridan foydalana olmaydilar. A.R.Luriyaning ta’kidlashicha, sog‘lom bolalar bog‘cha yoshidanoq nutqdan nazorat quroli sifatida foydalana olar ekanlar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, aqli zaif bolalarning nutqidagi buzilishlarni va kamchiliklarni chuqur o‘rganish, tahlil qilish,

kelib chiqadigan muammolarni aniqlash va shu muammolarni bartaraf etish yo'llarini topgan holda ularga yordam berish juda ham zarurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Berdiyev G. Boshlang'ich sinflarda shaxslararo munosabatdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish. — Toshkent, 1995. [5-70 b]

2. E. G'oziyev - Yosh psixologiyasi. — T., 1994. [6-193 b]

3. L.R. Mo'minova. Nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. — T., 2012. [1,2-34-36 b]

4. L. R. Mo'minova, S. R. Mamarajabova Maxsus Psixologiya - O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2013. [3,4-104-107 b]

5. Mamedov K.Q., Shoumarov G'. B. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. — T., «O'qituvchi», 1994. [7-126 b]

6. Mamedov K.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalar va o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari (psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida). Doktorlik dissertatsiya, 1994.

7. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika, Oligofrenopedagogika «G'afur G 'ulom». — T., 2005.

8. Z.Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi, 2005.

# MEDIASAVODXONLIKNING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

***Abdusamatova Zilola Muxtorjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti,
Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili yo'nalishi talabasi

**Ilmiy rahbar: B. Tillayev**
Tarixiy va falsafiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**: Ushbu maqola orqali axborot texnologiyalari rivojlangan zamonda mediasavodxonlikning jamiyatda tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** mediasavodxonlik, axborot texnologiyalari, UNESCO, media.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль медиаграмотности в обществе в эпоху передовых информационных технологий.

**Ключевые слова:** медиаграмотность, информационные технологии, ЮНЕСКО, медиа.

**Abstract**: This article discusses the role of media literacy in society in the era of advanced information technologies.

**Keywords**: media literacy, information technologies, UNESCO, media.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini ilg'or tajribalar va zamonaviy talablar asosida tashkil etish, oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, umumiy o'rta ta'lim muassasalari va oliy ta'lim o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash, ta'lim mazmunini raqamli metodlar talablariga mos yangilash hamda ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. «Media sohasini tizimli isloh qilish, axborot yetkazish samaradorligini oshirish hamda mehnat bozorining

zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash» ustuvor yo'nalish etib belgilandi.[1] Bu borada oliy ta'lim muassasalari talabalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish samaradorligiga erishishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

Bugungi kunda mediasavodxonlik va axborot madaniyati, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot inson ongiga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo'llanilishi va bugungi kunda mediata'lim, mediasavodxonlik, mediatanqid va mediani o'rganishga bo'lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir

Media savodxonlik – insonlarga turli media shakllarini va xabarlarni tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plamidir. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto'g'ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo'lgan odam osongina sezishi mumkin bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, media savodxonlik – bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo'llash qobiliyati. Binobarin, dunyodagi barcha voqea va hodisalar u yoki bu tarixiy manbaga o'ziga xos tarzda oydinlik kiritishi va ayni paytda muhim tarixiy ma'lumotlarning ochilishi uchun sabab bo'lishi mumkin.[2] O'tmish tarixi, ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'rganishda falsafa, madaniyatshunoslik, etnologiya, etnografiya, san'atshunoslik, sotsialogiya va boshqa shu kabi fanlar etakchilik qilmoqda. Biroq, mohiyatiga ko'ra, bu fan tarixining muhim tarkibiy qismidir. Tarixiy

manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, ibtidoiy odam o'z fikrini o'zi o'ylab topgan turli belgilar va tasvirlar yordamida ifodalashga harakat qilganligini bilib olamiz.

Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi katta ta'sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rishimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanadi. Ommaviy axborot vositalarini iste'molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko'nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi. Media savodxonligi ko'nikmalarini o'rganishning ushbu jarayoni media ta'lim deb ataladi. UNESCO tashkiloti tomonidan XXI asrda media ta'limni targ'ib qilish madaniy-ma'rifiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etildi hamda aynan shu yo'l bilan media savodxonlikni oshirish mumkinligi takidlandi. UNESCO odamlarning tanqidiy fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish darajasini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va media savodxonlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.[3]

Mamlakatimizda axborotni to'plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish bilan ko'plab tashkilotlar shug'ullanadi: kutubxonalar, statistik markazlar, axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalari. Birinchi marta "axborot savodxonligi" tushunchasi 1977-yilda AQSHda kiritilgan va oliy ta'limni isloh qilish milliy dasturida qo'llanilgan. A.P.Ershov kompyuter savodxonligini "kompyuter yordamida muammolarni hal qilish, harakatlarni rejalashtirish va ularning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, informatikaning asosiy g'oyalarini

tushunish, rolini tushunish qobiliyati deb tushunadi. Oliy ta'lim o'qituvchisining axborot-pedagogik kompetensiyasi uning umumiy pedagogik madaniyatining tarkibiy qismi, uning kasbiy mahorati va oliy ta'lim sohasidagi jahon andozalariga muvofiqligining eng muhim ko'rsatkichidir. [4]

Hozirgi davrda ijodkorlar oldida nafaqat moddiy borliq, balki virtual olamda ham ijoq qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Internet deb atalmish bu imkoniyat vositasi sahifalarini varaqlab, go'zallik naqadar cheksiz xilma-xillikka ega ekanligidan hayratga tushish mumkin. Zamonaviy madaniyat va san'atni keng targ'ib etuvchi vosita esa kompyuter texnologiyalaridir. Kompyuter texnologiyalari va Internet ijodkor uchun o'z asarlari bilan turli ko'rgazmalarda qatnashish, tomoshabin bilan jonli muloqot qilish imkoniyatini ham baxsh eta oladi. Global tarmoqda sayt orqali tezkor va hozirjavob axborot almashuvidek imkoniyatni taqdim etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlardan ko'r ko'rona foydalanish, ayrim "ijtimoiy media markazlar" tomonidan tarqatilayotgan turli diniy ekstremistik mazmundagi ma'lumotlarga, yolg'on habarlarga aldanib qolmaslik uchun, avvalo, foydalanuvchilar keltirilgan ma'lumotlar asosli ekanligini tekshirishi, ma'lumotlar nima maqsadda tarqatilayotganlik sabablarini chuqur tahlil qila bilishlar lozim. Bunda, albatta, bizga mediasavodxonlik fani yordam beradi. Shunday ekan bu fanni o'rganish hozirgi ilm-fan va texnologiyalar rivojlangan, axborot tarqatish tezligi jadallashgan zamonda jamiyat kelajagi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdullayeva B. S. "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" T.: 2024

2. Abdullaeva, N. “Mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari” – Toshkent: Fan va texnologiya. 2022

3. To‘raqulova, M. “Yoshlar orasida mediasavodxonlikni shakllantirish muammolari”. Oliy ta’limda innovatsiyalar, №3, 45–52-betlar

4. Qodirova, D. “Raqamli davrda mediasavodli shaxs modelini shakllantirish”. Pedagogik izlanishlar jurnali, №1. 78–84-betlar

# EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA O‘QUV JARAYONINING MINTAQAVIY KOMPONENTINI KUCHAYTIRISH

***Rahmatova Nargiza***
Namangan davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (kimyo) mutaxassisligi magistri
**E-mail:** nargizarakhmatova0606@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ekologik xavfsizlikni ta’minlashda o‘quv jarayonining mintaqaviy komponentini kuchaytirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Unda mintaqaviy ekologik xususiyatlarning ta’lim mazmuniga integratsiyalanish zaruriyati, bu jarayonning didaktik imkoniyatlari hamda o‘quvchilarda ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada ekologik xavfsizlikni ta’minlashda o‘lkashunoslik, amaliy tadqiqotlar, raqamli texnologiyalar va virtual ta’lim muhitidan foydalanishning afzalliklari tahlil qilinadi. Ushbu maqolada ekologik xavfsizlikni barqaror ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida baholab, mintaqaviy komponentni integratsiyalash orqali

ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish bo'yicha metodik takliflar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ekologik xavfsizlik, mintaqaviy komponent, ekologik ta'lim, o'lkashunoslik, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, integratsiya, virtual ta'lim, ekologik kompetensiya.

**KIRISH:** Bugungi globallashuv davrida insoniyat duch kelayotgan eng jiddiy muammolardan biri — bu ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasidir. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, antropogen ifloslanish va bioxilma-xillikning yo'qolishi insoniyat sivilizatsiyasi uchun real tahdidga aylangan. Shu bois ekologik xavfsizlikni ta'minlash faqat texnik yoki siyosiy muammo emas, balki ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaralishi zarur.

Ta'lim tizimida ekologik xavfsizlik masalasini samarali hal etish uchun mintaqaviy komponentni kuchaytirish zarurati tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki har bir hududning tabiiy, ijtimoiy va ekologik sharoiti o'ziga xos bo'lib, o'quvchilar aynan o'z yashab turgan muhitdagi ekologik holatni o'rganish orqali amaliy bilim, ko'nikma va mas'uliyat hissini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'lim va tarbiya sohasida bir qator hujjatlar qabul qilingan. Xususan, "Ekologik ta'lim va ma'rifat konsepsiyasi" (2020-yil), "Atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun, "Yashil makon" umumxalq harakati doirasida ekologik ongni rivojlantirish choralari — bularning barchasi mintaqaviy ekologik yondashuvning amaliy asosini mustahkamlaydi. Shunday ekan, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda o'quv jarayonining mintaqaviy komponentini integratsiyalash — bu ekologik ta'limni faqat nazariy emas, balki amaliy, tizimli va barqaror shaklda tashkil etishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Ekologik xavfsizlik — bu jamiyatning tabiiy

muhit bilan uyg'unlikda yashashini, inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimal darajada ushlab turishni ta'minlovchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimdir. Ekologik xavfsizlik faqat tabiatni muhofaza qilish choralarini emas, balki inson ongida ekologik mas'uliyatni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimi bu jarayonning asosiy manbai bo'lib, o'quvchilarda ekologik bilim, ko'nikma, qadriyat va faoliyat madaniyatini shakllantiradi. Shu bois ekologik xavfsizlikni ta'lim jarayonida ta'minlash uchun mahalliy (mintaqaviy) ekologik holatlarni o'rganish zarur. Mintaqaviy komponent — bu o'quv dasturlarida, fan mazmunida, darsliklarda va amaliy mashg'ulotlarda mahalliy ekologik, tabiiy, madaniy va iqtisodiy xususiyatlarni aks ettiruvchi bilimlar majmuasidir. U o'quvchilarga o'z atrofidagi muhitni o'rganish, tahlil qilish va muhofaza qilishga yo'naltirilgan faol yondashuvni shakllantiradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, mintaqaviy komponent quyidagi funksiyalarni bajaradi: Axborot funksiyasi – o'quvchilarni o'z hududining ekologik xususiyatlari bilan tanishtiradi; Motivatsion funksiyasi – o'quvchilarni o'z mintaqasidagi ekologik muammolarga befarq bo'lmaslikka undaydi; Tarbiyaviy funksiyasi – ekologik mas'uliyat va tabiatga hurmatni shakllantiradi; Amaliy funksiyasi – tadqiqot, kuzatuv, monitoring va loyiha faoliyatlari orqali bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. O'zbekistonning tabiiy-geografik mintaqalari o'ziga xos ekologik xususiyatlarga ega. Masalan: Farg'ona vodiysida havo ifloslanishi, sanoat chiqindilari va qishloq xo'jaligi pestitsidlari asosiy ekologik muammolardan biridir; Qoraqalpog'iston Respublikasida Orol dengizi fojiasi ekologik va ijtimoiy muhitga kuchli ta'sir ko'rsatgan; Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida suv resurslarining tanqisligi va cho'llanish jarayonlari sezilarli; Toshkent va

Samarqand viloyatlarida urbanizatsiya, transport chiqindilari va chiqindilarni qayta ishlash muammolari dolzarb. Shunday mintaqaviy ekologik muammolarni oʻquv jarayoniga kiritish, oʻquvchilarni ularni tahlil qilishga, yechim topishga oʻrgatish — bu ekologik xavfsizlikni ta'lim asosida ta'minlashning real yoʻlidir.

Oʻquv jarayonida mintaqaviy komponentni samarali integratsiyalash uchun quyidagi yoʻnalishlar muhim:

Lokal tadqiqot loyihalari – oʻquvchilar mahalliy suv havzalari, oʻsimliklar yoki tuproq sifatini oʻrganadi;

Ekologik ekspeditsiyalar – tabiiy muhitni joyida kuzatish, foto-monitoring qilish;

Virtual laboratoriyalar – oʻquvchilarga real ekologik jarayonlarni 3D formatda kuzatish imkonini beradi;

STEM yondashuvi – ekologik masalalarni fizika, kimyo, biologiya va texnologiya bilan bogʻlab oʻrganish;

Integrativ darslar – masalan, "Ekologik kimyo", "Mahalliy florani himoya qilish" kabi mavzular orqali fanlararo bogʻlanish yaratish.

Oʻlkashunoslik ta'limning mintaqaviy komponentini boyitadi, chunki oʻquvchilar oʻz yashash hududining tabiiy va madaniy boyliklarini oʻrganish orqali ekologik qadriyatlarni anglaydi. Mahalliy oʻsimlik turlari, hayvonot olami, iqlim xususiyatlari, suv manbalari haqida ma'lumotlarni oʻrganish ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim vositadir.

Masalan, Namangan viloyatida "Chortoq mineral suvlari", "Chust togʻli ekotizimi", "Norin daryosi havzasi" kabi obyektlar oʻquv jarayonida ekologik amaliyot obyekti sifatida ishlatilishi mumkin. amonaviy ta'lim texnologiyalari mintaqaviy ekologik xususiyatlarni raqamli formatda oʻrganish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar, GIS (geoinformatsion

tizimlar), AR (kengaytirilgan reallik) ilovalari o'quvchilarga o'z mintaqasining ekologik holatini vizual va interaktiv tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Misol uchun: Virtual xaritalar yordamida suv ifloslanish darajasini o'lchash; AR ilovalar orqali o'simlik turlarining o'zgarishini kuzatish; Sun'iy intellekt asosidagi ekologik modellar orqali chiqindilar dinamikasini tahlil qilish mumkin.

Bu nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki ularni XXI asr kompetensiyalariga mos ekologik tafakkur egasiga aylantiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, o'quv jarayonining mintaqaviy komponentini kuchaytirish ekologik xavfsizlikni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega. U nafaqat ekologik bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki yosh avlodda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabat, ekologik tafakkur va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Mintaqaviy yondashuv — bu global ekologik muammolarga mahalliy yechimlar topish yo'li bo'lib, ta'lim tizimini barqaror rivojlanish maqsadlariga yaqinlashtiradi. Shuning uchun ekologik xavfsizlikni ta'lim mazmuniga chuqur integratsiyalash, o'lkashunoslik, raqamli texnologiyalar va virtual ta'lim vositalaridan kompleks foydalanish bugungi kunning eng muhim ilmiy-pedagogik vazifalaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologik ta'lim va ma'rifat tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yil.

2. M. Yo'ldosheva. M. Isroilova "perspectives for the integration of natural sciences" republican scientific and practical conference. Jurnali november 22, 2024 -bet 151

3. A.Karimov K.Koʻchkarov S.Teshaboyev БИОХИМИЯ. Педагогика институтларининг химия-биология факультета студентлари учун Кулланма ТОШКЕНТ 1УК.ИТУВЧИ» 198S bet-132,133,134,

4. "Atrof muhitni muhofaza qilish toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, 2023-yil.

5. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris, 2017.

## AXBOROT TIZIMIGA RUXSATSIZ KIRISHDAN HIMOYALANISH

***Mamasharipova Dilshoda Murod qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yoʻnalishi 1- bosqich talabasi
**Ilmiy rahbar**: ***B.A.Tillayev***
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta oʻqituvchisi

**Annotatsiya:** Axborot tizimiga ruxsatsiz kirish turli yoʻllar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ushbu maqola orqali axborit tizimini nazorat va boshqarishning masofaviy usullaridan foydalanish mumkinligi va ulardan himoyalanish usullari haqida maʼlumotlar keltirilgan.

**Kalit soʻzi:** Hujjatlarni toʻgʻridan-toʻgʻri oʻgʻirlash yoki kompyuter operatsion tizimlariga xakerlik qilish variantlarning faqat kichik bir qismi hisoblanadi.

**Аннотация:** Несанкционированный доступ к информационной системе может осуществляться различными способами, поскольку

для них могут быть использованы дистанционные методы контроля и управления

**Ключевое слово:** Непосредственное кража документов или взлом компьютерных операционных систем - лишь малая часть вариантов.

**Abstract:** Unauthorized access to the information system can be carried out in various ways. Electronic means of information storage are considered the most vulnerable, since remote control and management methods can be used for them.

**Keywords**: Direct document theft or hacking of computer operating systems are only a small part of the options.

Bugungi kunda axborot tizimiga ruhsatsiz kirish xolatlari juda ko‘p uchramoqda. Axborot tizimiga ruxsatsiz kirish turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Hujjatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘g‘irlash yoki kompyuter operatsion tizimlariga xakerlik qilish variantlarning faqat kichik bir qismi hisoblanadi. Axborotni saqlashning elektron vositalari eng zaif deb hisoblanadi, chunki ular uchun nazorat va boshqarishning masofaviy usullaridan foydalanish mumkin.

Axborot – huquq ob’ektidir. Kompyuter jinoyatchiligi uchun asboblar sifatida telekommunikasiya va hisoblash texnikasi vositalari, dastur ta’minoti va intellektual bilimlar, ularni mukammallashgan sohalari nafaqatgina kompyuterlar, korporativ va global tarmoqlargina bo‘lib kolmasdan, balki zamonaviy yuqori axborot texnologiyalari vositalari ishlatiladigan, katta xajmdagi axborotlar qayta ishlanadigan, masalan, statistika va moliya institutlari, faoliyatni istalgan sohasi bo‘lishlari mumkin. Istalgan muassasaning faoliyati aloqa kanallari bo‘yicha axborotlarni olish, qayta ishlash, qarorlar qabul qilish, uzatish jarayonlarisiz mumkin emasdir. Bu jarayonlarni ta’minlaydigan barcha

vositalar kompyuter jinoyatchiligi uchun asboblar hisoblanadi yoki asboblar sifatida ishlatilishi mumkin. O'zbekistonda, MDH barcha davlatlaridagi kabi, yaqin vaqt-largacha kompyuter jinoyatchiliklari bilan samarali kurashishni imkoniyati yo'q edi. Hozir esa vaziyat o'zgara boshladi. Informatika, axborotni himoya qilish va davlat sirlari sohasida bevosita qonunchilik asoslari 10 dan ortiq asosiy qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentini bir qator farmoyishlarida aks ettirilgandir. Asosiy qonunlarda axborotni va axborotli resurslarni maqsadlari, ob'ektlari tushunchalari va huquqiy asoslari aniqlangandir.[1]

"Axborot, axborotlashtirish va axborotni himoya qilish to'g'risida"gi qonun fuqarolarni axborotga konstitusion huquqini ta'minlash, uni ochiqligini va unga murojaat qilishlikni, fukarolar va tashkilotlar tomonidan qonunchilik, ijroiya va sud xoqimiyati organlari to'g'risidagi axborotni va boshqa axborotni olishni, jamoat va shaxsiy manfaatga ega bo'lgan ta'minlashga, hamda jamiyatda axborot bilan mulokot qilishga va axborotlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish uchun da'vat qiladi. Unda axborotni xujjalashtirish va uni axborot resurslarini ochiq va cheklangan murojaat qilish toifalariga tegishligi, axborotga murojaat qilish bo'yicha mexanizmlarni va vakolatlarni aniqlash, axborotni huquqiy himoya qilish tartibi masalalari, bu sohada buzg'unchiliklar uchun javobgarlikni o'rnatish mexanizmlari masalalari aks ettirilgan.

Kompyuterlarni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish usullari dasturiy-apparat va texnik vositalarga bo'linadi. Birinchisi ruxsatsiz foydalanuvchilarni kesib tashlasa, ikkinchisi ruxsat etilmagan odamlarning kompaniya binolariga fizik kirishini oldini olish uchun mo'ljallangan.

Ruxsatsiz kirishdan samarali himoyalanish uchun quyidagilarni bajarish muhim hisoblanadi:

ma'lumotlarni saralash va sinflarga bo'lish, foydalanuvchilarning ma'lumotlarga kirish darajasini aniqlash hamda foydalanuvchilar o'rtasida ma'lumot uzatish imkoniyatini baholash (xodimlar o'rtasida aloqa o'rnatish uchun). Ushbu chora natijasida kompaniyada ma'lum ma'lumotlar ierarxiyasi [4] paydo bo'ladi. Bu xodimlarning faoliyat turiga qarab ma'lumotlarga kirishini cheklash imkonini beradi. Ma'lumotlarga kirishni tekshirish axborot xavfsizligi vositalarining funktsional qismi bo'lishi kerak.

2020 yilda milliy .UZ domenida 342 ta hodisa ro'y bergan bo'lib, ularning 306 tasi veb-saytlarga ruxsatsiz kirish va 36 tasi veb-saytning asosiy sahifasini noqonuniy o'zgartirib(deface) qo'yilishi bilan izoxlanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, davlat sektori(81 ta hodisa) hususiy sektorga (261 ta hodisa) nisbatan 3 barobar kamroq hujumga duch kelgan. [5]

Nufuzli xalqaro kompaniyalarning geosiyosiy xatarlar sohasidagi so'nggi tadqiqotlariga ko'ra, 2021 yilda dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan jinoyatlarning o'sish dinamikasi kuzatilmoqda. Xalqaro ekspertlarning xulosalari Kovid-19 pandemiyasi oqibatlari bilan bog'liq karantin cheklovlari davrida dunyodagi vaziyatni chuqur tahlil qilish asosida qilingan. Shu bilan birga, mutaxassislarning fikriga ko'ra, 2020 yilda kibermakonda jinoyatlar sodir etilishining asosiy omillari quyidagilardir: – kompaniyalar (tashkilotlar) xodimlarining masofadan ishlashiga o'tish; – onlayn ta'lim; – Internet-do'konlarda xavfsiz bo'lmagan xaridlarni amalga oshirish; – IOT qurilmalaridan (kameralar, qurilmalar, sensorlar va boshqalar) keng foydalanish; – tovlamachi-

viruslarining tarqalishi.7 Shuni ta'kidlash kerakki, o'tgan 2020 yilda bo'lgani kabi, 2021 yilda ham Internetga qo'shilgan yangi so'nggi qurilmalar sonining tez sur'atlarda o'sishi kuzatiladi.

Hulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, axborot xavfsizligi bo'ladigan taxdidlarni oldini olish yoki vujudga kelgan taxdidlarni bartaraf etish uchun me'yoriy xuququy bazaning mavjudligi, axborot xafvsizligini ta'minlash soxasidagi mutaxasislarining bilim va malakalarining mavjudligi muxim ahamiyat kasb etadi.

Sanab o'tilgan AX xavfsizligi choralarini axborot himoyasi yo'lida ketma-ket qo'yilgan to'siq yoki chegaralar sifatida olib qarash mumkin. Himoya qilinayotgan axborotlarga yetib borish uchun, ketma-ket bir nechta himoya chegaralarini bosib o'tish lozim bo'ladi. Axborotlarni himoyalashning texnik va dasturiy vositalari Zamonaviy axborot - kommunikasiyalar texnologiyalarining yutuklari ximoya uslublarining bir kator zaruriy instrumental vositalarini yaratish imkonini berdi. Axborotlarni ximoyalovchi instrumental vositalar deganda dasturlash, dasturiy - apparatli va apparatli vositalar tushuniladi. Ularning funksional tuldirilishi xavfsizlik xizmatlari oldiga kuyilgan axborotlarni ximoyalash masalalarini yechishda samaralidir. Xozirgi kunda tarmok xavfsizligini nazorat kilish texnik vositalarining juda keng spektri ishlab chikarilgan

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sultonov M. "Axborotni ruxsatsiz foydalanishlardan himoyalash" "Journal of universal science research" TATU Ilmiy axborotnomasi, 2023.

2. Alimov, S. "Axborot tizimlarida himoya mexanizmlari va ularning amaliy qo'llanilishi." – TATU Ilmiy axborotnomasi, 2021.

3. Yo'ldoshev, A., & Xoliqov, I. Axborot xavfsizligi asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2020.

4. O'rozboyev, S. "Kiberxavfsizlikda autentifikatsiya va kriptografiya usullarining ahamiyati." – Axborot texnologiyalari jurnali, 2022.

5. Akbarova M.R. "Axborot xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlar" "Экономика и социум" №6(85) ч.1 2021

# O'QUVCHILAR O'RTASIDA KITOBXONLIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH VA UNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI

***Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlar o'rtasida kitobxonlikni shakllantirishning ahamiyati va bu borada yurtimizda olib borilayotgan islohotlar to'g'risidagi fikrlar yoritib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье освещается важность формирования чтения среди молодежи и реформы, которые происходят в нашей стране в связи с этим.

**Abstract:** This article discusses the importance of the formation of reading among young people and their views on the ongoing reforms in our country.

**Kalit so'zlar:** savodxonlik, intellektual rivojlanish, kitob, loyiha, ruhiy muvozanat, umuminsoniy qadriyat.

**Ключевые слова:** грамотность, интеллектуальное развитие, книга, проект, душевное равновесие, общечеловеческая ценность.

**Keywords:** literacy, intellectual development, book, project, mental balance, universal value.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Kitob - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lguvchi sodiq do'st. Insonning ruhiy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitobchalik kuchli qudratga ega vosita yo'qdir. Shu boisdan azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilm-u odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Tarbiyaning barcha mezon va unsurlari, avvalo, oilada shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham oilaning o'rni nihoyatda kattadir. Qush uyasida ko'rganini qiladi, degan naqlga tayansak, bu mohiyat yanada dolzarb bosqichga ko'tariladi.

Zero, xalqimiz tilida ham kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Bilim – aql chirog'i", "Go'zallik – ilm-u ma'rifatda". Bunday hikmatli naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-

tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash, kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ'ib qilish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayni vaqtda yurtimizning istalgan go'shasi, kitob do'konlari-yu, maktab kutubxona ham taqdim etilgan ko'plab adabiyotlar jumladan Prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyev asarlari, taniqli adiblarimiz Abdulla Oripovning she'rlar tuplami, Tohir Malikning asarlar to'plami, Zulfiya, Pirimqul Qodirov asarlari va boshqa adabiyotlar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Kitobga oshno kishidan hech vaqt yomonlik chiqmaydi. Farzandlarimizga kitob o'qishni targ'ib etishimiz emas, balki ularga o'rnak bo'lishimiz lozim. Yurtimizda, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi to'g'risida"gi qarori loyihasi muhokama uchun e'lon qilindi.

Loyihaga ko'ra, O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqish, infratuzilma va o'quv tizimi, kitobxonlik bilan bog'liq muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish maqsadida, 2020-2025-yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanadi.

Dasturni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanadi:

- kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda moddiy-texnik bazasini takomillashtirish;

- xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni belgilash;
- joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda kitob yetkazish tizimini tubdan takomillashtirish choralarini ko'rish;
- milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq muhim masalalarni hal etishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish;
- ta'lim muassasalari va hududiy kutubxonalarni markazlashgan kutubxona – "Yagona elektron kutubxona" loyihasi asosida birlashtirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni belgilash;
- hududlar, aholi punktlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan aniq mexanizmlar ishlab chiqish;
- har yili yosh ijodkorlarning innovatsion loyihalarini amaliyotga joriy qilish orqali mamlakatimizga kiritilayotgan investitsiyalardagi yosh ijodkorlarning ulushi oshishini ta'minlash;
- o'quvchilarning qiziqishini o'rganish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish orqali kitob mahsulotlari ishlab chiqishni yo'lga qo'yish;
- kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini belgilash;
- kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish.

Loyihada keltirilishicha, O'zbekistonda 2021-yildan boshlab har yili aprel oyining birinchi haftasini "Kitobxonlik haftaligi" etib belgilanadi.

Dastur uch bosqichda amalga oshiriladi:tadbirlar ishlab chiqish;

- ikkinchi bosqich – 2022-2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;
- uchinchi bosqich – 2024-2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning madaniy savodxonligi o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

Loyihada keltirilishicha, O'zbekistonda 2021-yildan boshlab har yili aprel oyining birinchi haftasini "Kitobxonlik haftaligi" etib belgilanadi.

Dastur uch bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich – 2020-2021-yillarda tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratish va chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Ikkinchi bosqich – 2022-2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

Uchinchi bosqich – 2024-2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning madaniy savodxonligi o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash. Hozirgi kunda yoshlar orasida kitobxonlik va ma'naviy savodxonlikni oshirish barchamizning oliy burchlarmizidan biri bo'lib turibdi. Chunki aynan shu bilangina nafaqat ilmli va savodli, balki tirishqoq va bir maqsad yo'lida tinmaydigan kadrlarni ham yetishtirish mumkinInson hayoti uchun eng zarur narsalar qatorida birinchi non bo'lsa, ikkinchisi kitobdir. Non insonning moddiy ehtiyojini qondirsa, kitob ma'naviy boylik, o'zlikni anglash, eng muhimi insoniy tarbiyaning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Aynan tarbiyaviy omilning kitobxonlik darajasi bilan bog'liqligi mutolaa ishining har qanday davrda ham davlat va jamiyat uchun asosiy masala ekanligini anglatadi.

Bu o‘rinda mamlakatimizda aholi o‘rtasida, ayniqsa yoshlarda kitobxonlik darajasini oshirish, tarixiy xotira asosida farovon kelajakni barpo qilish yo‘lida qator tadbirlar amalga oshirilayotganini alohida ta’kidlash joiz. Xususan, istiqlol yillarida milliy ma’naviy qadriyatlarni tiklash, millat va xalqning ma’naviy qiyofasini shakllantirish, o‘zlikni anglash yo‘lida mehnat qilgan ma’rifatparvarlarimizning hayoti va asarlarini haqqoniy o‘rganish, jahon ilm-fanidagi yutuqlardan bahramand bo‘lish borasida olib borilgan ishlar samarasi o‘laroq ijtimoiy turmushimizning barcha jabhasida hayotga nisbatan qarash o‘zgardi, milliy iftixor va vatanparvarlik hissi shakllandi. Inson ichki olamini hech narsa kitobchalik benazir boyita olmaydi. Ruhiyatimizni hech narsa kitobchalik, o‘qish-o‘rganish, mehnatchalik muvozanatga, to‘g‘ri yo‘lga sola olmaydi. Hattoki, intellektual rivojlanishda ham kitob eng asosiy o‘rin tutadi. Chunki kishining o‘zini-o‘zi tarbiyalashida kitob ham bilim manbai, ham o‘zini yaxshi tomonga o‘zgartirish, taqqoslash, taqlid qilish, munozara yuritish, bahslashishda ma’lum darajada ko‘zgu vazifasini o‘taydi. Hayotda inson yolg‘iz o‘zi yashay olmaydi. Albatta, atrofidagi odamlar bilan munosabatda bo‘ladi. Ana shu munosabatlarda qiynalgan, to‘g‘ri yo‘l izlagan paytda suygan kitobimizga murojaat qilamiz. Ba’zan ulardan quvvat olib, to‘g‘ri yo‘lni o‘zimiz uchun lozim tutamiz. Demak, biz avvalo kitobdan ilmni, sabrni, insonlar bilan go‘zal muomalada bo‘lishni hamda kechirimli bo‘lishni o‘rganamiz. Evaziga esa halovat topib, ruhiy muvozanatimizni to‘g‘rilaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

**1.** Avloniy. A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

**2.** Inomova M.Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi.Fan, 1999.

3. Mahkamov. U. Axloq odob saboqlari. Toshkent: Fan, 1994.

**Foydalanilgan axborot resurslari:**

1. Lex.uz
2. https://hozir.org/kirish-i-bob-kitobxonlarda-oqish-madaniyatini-tarbiyalashning.html?page=4

# XIX ASR O‘RTA OSIYO TARIXI TARIXSHUNOSLIGINING RIVOJLANISH OMILLARI

***Nishonov Aziz Lazizjon o‘g‘li***
Navoiy davlat universiteti tarix fakulteti 4-kurs talabasi
**E-mail:** nishonovaziz@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XIX asr O‘rta Osiyo tarixshunosligining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillar tahlil qilinadi. Unda mahalliy tarixnavislik an’analari, Rossiya va Yevropa olimlarining ilmiy yondashuvlari, yangi manbalar va arxeologik topilmalar, jadidchilik harakati hamda ilmiy markazlarning faoliyati o‘rganilgan. Maqolada tarixshunoslik jarayonlariga siyosiy, mafkuraviy va metodologik omillar ta’siri ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari XIX asr O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishning shakllanish bosqichlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

**Аннотация:** В статье анализируются основные факторы, повлиявшие на формирование и развитие историографии Средней Азии XIX века. Рассмотрены местные традиции летописания, научные подходы российских и европейских востоковедов, использование новых источников и археологических данных, а также деятельность джадидов и научных центров. Особое внимание уделено политическим и идеологическим аспектам исторического процесса.

Результаты исследования позволяют глубже понять этапы становления историографии Средней Азии XIX века.

**Abstract:** This article analyzes the main factors that influenced the formation and development of historiography in nineteenth-century Central Asia. It examines local historical traditions, the scholarly approaches of Russian and European orientalists, the introduction of new sources and archaeological findings, as well as the role of the Jadid movement and emerging research institutions. The study also discusses the political, ideological, and methodological aspects that shaped historical research during this period. The findings contribute to a deeper understanding of the evolution of Central Asian historiography in the nineteenth century.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, tarixshunoslik, manbashunoslik, jadidchilik, Bartold, ilmiy maktab, Rossiya imperiyasi.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, историография, источниковедение, джадидизм, Бартольд, научная школа, Российская империя.

**Keywords:** Central Asia, nineteenth century, historiography, source studies, Jadidism, Bartold, scientific school, Russian Empire.

**Kirish.** Tarix har bir xalqning o'zligini anglashida, milliy ong va tafakkurning shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. Ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganish masalasi doimo ilmiy jamoatchilikning diqqat markazida bo'lib kelgan. XIX asr bu hudud uchun o'ziga xos tarixiy burilish davri bo'lib, unda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda kechdi. Mazkur asrda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi ichki siyosiy raqobatlar, tashqi bosimlar, ayniqsa Rossiya imperiyasining

mustamlakachilik siyosati O'rta Osiyo tarixini o'rganishda yangi bosqichni boshlab berdi.

XIX asr O'rta Osiyo tarixshunosligi, avvalo, mavjud mahalliy tarixnavislik an'analari asosida shakllandi. Ahmad Donish, Muhammad Hakimxon To'ra, Mirzo Olim Mahdum Hojiy kabi tarixchilar o'z davrining siyosiy va ijtimoiy manzarasini o'z asarlarida aks ettirdilar. Ularning asarlari o'zbek tarixshunosligi taraqqiyotida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu davrda tarixni o'rganish faqat mahalliy mualliflar bilan cheklanib qolmay, Yevropa va Rossiya ilmiy doiralarining ham e'tiborini tortdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo hududiga olib borilgan harbiy-ekspeditsiyalar natijasida mazkur mintaqa haqida to'plangan ma'lumotlar ilmiy muomalaga kirib keldi. V. V. Bartold, A. L. Kun, N. P. Ostroumov, A. N. Samoylovich kabi rus sharqshunos olimlarning asarlari O'rta Osiyo tarixini o'rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. Aynan shu davrda tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, ularni tizimlashtirish va ilmiy asosda baholash metodlari paydo bo'ldi. Shunday qilib, tarixshunoslik empirik kuzatuvlardan ilmiy izlanish darajasiga ko'tarildi.

Tarixshunoslikning rivojlanishida jadidchilik harakati ham muhim o'rin tutadi. XIX asr oxirida shakllangan bu harakat tarixni milliy uyg'onish va o'zlikni anglash vositasi sifatida talqin etdi. Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Sadriddin Ayniy kabi ziyolilar tarixiy jarayonlarni yangicha ilmiy tafakkur asosida talqin qilishga urindilar. Ularning qarashlari O'rta Osiyo tarixshunosligining g'oyaviy doirasini kengaytirdi. Shuningdek, XIX asrda O'rta Osiyoda tarixiy manbalarni ilmiy jihatdan o'rganish va nashr qilish ishlariga katta e'tibor qaratildi. Arxeologik topilmalar, yozma manbalar, sayyohlar va

elchilar xotiralari asosida mintaqaning o'tmishi haqida muhim ilmiy xulosalar chiqarila boshlandi. Shu bilan birga, Peterburg, Moskva va Toshkentda tashkil etilgan ilmiy jamiyatlar, ekspeditsiyalar va nashrlar (masalan "Туркестанские ведомости") O'rta Osiyo tarixini o'rganishning ilmiy asosini mustahkamladi.

Demak, XIX asr O'rta Osiyo tarixshunosligining rivojlanishiga bir qator ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatgan. Ichki omillarga mahalliy tarixnavislik an'analari va jadidchilik harakati kirsa, tashqi omillarga Rossiya imperiyasi va Yevropa sharqshunoslik maktablarining ilmiy faoliyati, manbashunoslik yondashuvlarining kirib kelishi, ilmiy markazlarning shakllanishi kiradi. Shu sababli, XIX asr O'rta Osiyo tarixshunosligini o'rganish nafaqat o'tmish haqidagi bilimlarni kengaytiradi, balki, bugungi tarixiy tafakkurning shakllanish jarayonlarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

**Asosiy qism.** O'rta Osiyo xalqlari o'tmishdan beri tarixiy voqealarni yozib borish, xronikalar tuzish, siyosiy va madaniy hayotni hujjatlashtirish an'analariga ega bo'lgan. Ayniqsa, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida tarixiy yozuvlar saroy madaniyatining muhim qismiga aylangan edi. XIX asrda bu an'analar yanada rivojlandi va tarixiy asarlar faqat voqealar bayoni emas, balki muallifning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifodalovchi manbaga aylandi.

Shu davrda faoliyat yuritgan Ahmad Donish (1827–1897) o'zining "Navodir ul-vaqoe" asarida Buxoro amirligidagi siyosiy tuzum, ijtimoiy adolatsizlik va xalqning og'ir ahvoli haqida yozib, tarixiy tahlilni ijtimoiy tanqid bilan bog'lay oldi. Donish tarixni inson va jamiyat taraqqiyotini tushuntiruvchi fan sifatida talqin etdi[9]. Bu esa o'zbek tarixshunosligida tanqidiy tafakkur unsurlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, Mirzo Olim Mahdum Hojiyning "Tarixi

Turkiston" asari va Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix" asari ham XIX asr tarixshunosligining yirik yutuqlari bo'ldi. Ular o'z asarlarida voqealarni muayyan tarixiy kontekstda, ya'ni siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog'lab yoritishga urindilar. Bu asarlar o'sha davr tarixnavislik maktabining ilmiy darajasi yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoga olib borilgan ekspeditsiyalar natijasida bu mintaqa Yevropa ilm-fani uchun "ochiq" bo'ldi. Harbiy yurishlar ortidan ko'plab olimlar, geograflar, etnograflar va tarixchilar O'rta Osiyoga tashrif buyurib, o'z kuzatuvlarini ilmiy asarlarda jamladilar. Rossiya sharqshunoslik maktabining shakllanishi bilan O'rta Osiyo tarixini o'rganish ilmiy-metodik bosqichga o'tdi. V. V. Bartoldning "Туркестан в эпоху монгольского нашествия" asari, A. L. Kun, N. P. Ostroumov, N. I. Veselovskiy kabi olimlarning ishlari O'rta Osiyo tarixini ilmiy asosda tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qildi[1]. Bartold O'rta Osiyo tarixini global tarixiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida ko'rdi. U turkiy xalqlar tarixini islomiy dunyo, Yevropa va Sharq o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar kontekstida tahlil qildi. Shu tariqa, XIX asr oxirida O'rta Osiyo tarixshunosligi mahalliy chegaradan chiqib, xalqaro ilmiy diskursning bir qismiga aylandi.

Rossiya imperiyasi hukmronligining siyosiy maqsadlari ham tarixshunoslik yo'nalishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Ko'plab rus tadqiqotchilari O'rta Osiyoni "orqada qolgan" mintaqa sifatida tasvirlab, Rossiyaning mustamlakachilik siyosatini "madaniy missiya" sifatida asoslashga urindilar. Biroq, shunga qaramay, ularning asarlari O'rta Osiyo tarixining qimmatli manbalari bo'lib, keyinchalik mahalliy olimlar tomonidan tanqidiy tahlil qilindi.

XIX asrda tarixshunoslikning rivojlanishiga turtki bergan eng muhim omillardan biri — yangi manbalar bazasining kengayishi edi. Shu davrda koʻplab arab va fors tillaridagi tarixiy asarlar tarjima qilindi, qoʻlyozmalar toʻplandi va ularning ilmiy tahlili boshlandi. Oʻrta Osiyoning qadimiy shaharlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar (Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Xorazm) tarixiy manbalarni boyitdi va tarixni moddiy dalillar asosida oʻrganish imkonini berdi. Peterburg va Moskva universitetlarida, shuningdek Toshkentda tashkil etilgan ilmiy jamiyatlar — Imperator Arxeologiya jamiyatining Turkiston boʻlimi, Rossiya Geografiya jamiyati — Oʻrta Osiyo tarixini ilmiy oʻrganishning markazlariga aylandi[2]. Ular oʻz faoliyati davomida yuzlab tarixiy hujjatlarni nashr etib, tarixiy tafakkurning shakllanishiga hissa qoʻshdilar. Bu davrda tarixshunoslikda manbashunoslik yondashuvi mustahkamlandi. Manbalarni tanqidiy oʻrganish, ularning kelib chiqishiga, muallifga, yozilish vaqtiga va gʻoyaviy yoʻnalishiga e'tibor qaratish metodlari paydo boʻldi. Bu esa Oʻrta Osiyo tarixini subyektiv qarashlardan xoli, ilmiy asosda oʻrganish imkonini berdi.

XIX asr oxirida Oʻrta Osiyoda paydo boʻlgan jadidchilik harakati tarixshunoslikda yangi milliy va ma'rifiy yondashuvni shakllantirdi. Jadidlar tarixni xalqni uygʻotuvchi, milliy gʻururni oshiruvchi, zamonaviy tafakkurni shakllantiruvchi kuch deb bildilar. Abdurauf Fitratning asarlari tarixni diniy asosda emas, balki ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilgan ilk asarlardan biridir. U tarixni insoniyat taraqqiyotining umumiy jarayonlari bilan bogʻlashga urindi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Sadriddin Ayniy, Behbudiy kabi jadidlar tarixiy tafakkurni milliy ruh bilan uygʻunlashtirdilar. Ular uchun tarix – oʻtgan davrni eslash vositasi emas, balki kelajakni anglash va millatni uygʻotish quroli edi. Shuning uchun jadid tarixshunosligi

O'rta Osiyo tarixini yangicha, milliy mustaqillik g'oyasi bilan bog'liq talqinlarda qayta ko'rib chiqdi. Bu yondashuv sovet davrigacha bo'lgan tarixiy tafakkurda o'z izini qoldirdi[6].

XIX asrning oxiriga kelib, O'rta Osiyo ilmiy hayotida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Toshkentda, Samarqandda va boshqa shaharlarda rus-tuzem maktablari, gimnaziyalar, va madrasalarning yangicha shakllari paydo bo'ldi[8]. Bu jarayon tarixni o'rganish va uni o'qitishning ilmiy tizimini shakllantirishga yordam berdi.

Ilmiy nashrlar, xususan, "Туркестанские ведомости", "Среднеазиатский вестник" ва кейинчалик "Известия Русского географического общества" singari jurnallar tarixiy ma'lumotlarni targ'ib qildi[5]. Bu nashrlar orqali O'rta Osiyo tarixiga oid ilmiy maqolalar keng jamoatchilikka yetkazildi.

Shu tariqa, ilmiy markazlar, ta'lim muassasalari va nashrlar tizimi tarixshunoslikni mustahkam ilmiy asosga qo'ydi. Bu tizim keyinchalik XX asr boshlarida milliy tarixshunoslikning shakllanishi uchun poydevor yaratdi. Tarixshunoslik hech qachon siyosiy jarayonlardan butunlay mustaqil bo'lmagan. XIX asrda O'rta Osiyo tarixining o'rganilishi ham o'sha davr siyosiy va mafkuraviy konteksti bilan chambarchas bog'liq edi[3]. Rossiya imperiyasi o'zining mustamlakachilik siyosatini "madaniy missiya" deb e'lon qilgan bo'lsa, mahalliy ziyolilar bunga javoban tarix orqali milliy o'zlikni himoya qilishga intildilar. Bu davr tarixshunosligida ikki xil yo'nalish vujudga keldi:

1. Imperialistik tarixshunoslik, ya'ni O'rta Osiyoni Rossiya siyosatiga bo'ysundirishga asoslangan yondashuv;

2. Milliy tarixshunoslik, ya'ni tarixni xalq, madaniyat va mustaqillik ruhida talqin etuvchi yondashuv.

Ushbu ikki yo'nalish o'rtasidagi ziddiyat tarixshunoslikni faqat faktlarni to'plash emas, balki g'oyaviy kurash maydoniga aylantirdi. Natijada, tarixiy tafakkur yanada faol, tanqidiy va tahliliy tus oldi. Shu tarzda XIX asr O'rta Osiyo tarixshunosligi o'z taraqqiyotida ko'p qirrali jarayonlarni o'z ichiga oldi: mahalliy tarixnavislik merosining davom ettirilishi, Rossiya va Yevropa ilmiy maktablarining ta'siri, yangi manbalar va arxeologik topilmalar, jadidchilik harakatining milliy uyg'onish ruhi, shuningdek ilmiy markazlarning tashkil etilishi bu jarayonning asosiy omillari bo'ldi.

**Xulosa**. XIX asr O'rta Osiyo tarixshunosligi mazmunan va shaklan yangi bosqichga ko'tarilgan davr bo'lib, bu asrda tarixiy voqealarni yoritish, yozma manbalarni tahlil qilish, mahalliy hamda xorijiy manbalarni solishtirish asosida tarixiy tafakkur shakllandi. Ayniqsa, bu davrda Markaziy Osiyo hududiga nisbatan Rossiya imperiyasi, Angliya va boshqa g'arbiy davlatlarning geosiyosiy manfaatlari kuchaygani sababli tarixni siyosiy tahlil qilish, manbalar asosida ilmiy izlanishlar olib borish zarurati paydo bo'ldi. Shu boisdan, tarixshunoslik endilikda faqat voqealarni bayon etish bilan cheklanmay, balki ularning sabablari, oqibatlari va xalq hayotiga ta'sirini tahlil qilish bosqichiga o'tdi.

O'rta Osiyo tarixining XIX asrdagi o'ziga xos jihatlaridan biri — mahalliy tarixchilar bilan bir qatorda chet ellik tadqiqotchilar, sayyohlar, diplomatlar va missionerlarning ham faol ishtirok etganidir. Ularning asarlari o'sha davr siyosiy tuzilmasini, iqtisodiy hayotni, xalq urf-odatlari va ijtimoiy munosabatlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, rus sharqshunoslari, ingliz sayyohlari, fors va turk tarixchilari tomonidan yaratilgan asarlar o'sha davr tarixini turli nuqtai nazarlardan yoritishga imkon berdi.

Shuningdek, XIX asr tarixshunosligining rivojlanishida O'rta Osiyoda bosmaxona ishining yo'lga qo'yilishi, madrasalarda tarixiy fanlarga e'tiborning ortishi, shuningdek, yozma manbalarni to'plash va saqlash tizimining shakllanishi ham muhim omil bo'ldi. Bu esa tarixiy merosni ilmiy tahlil qilish imkoniyatini kengaytirib, tarixshunoslikni ilmiy fan sifatida mustahkamladi. Natijada, XIX asr O'rta Osiyo tarixshunosligi keyingi davr tadqiqotlari uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda ham bu davrda yaratilgan tarixiy manbalar va asarlar O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini chuqur o'rganishda bebaho ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, XIX asr tarixshunosligi O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy xotirasini asrash, milliy o'zlikni anglash va tarixiy tafakkurni shakllantirishda muhim o'rin tutgan ilmiy bosqich bo'lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Allworth, E. (1990). The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. Stanford: Hoover Institution Press.

2. Бартольд, В. В. (1963). Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Москва: Издательство Восточной литературы.

3. Becker, S. (1968). Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. Cambridge: Harvard University Press.

4. Брегель, Ю. (1980). Источники по истории Средней Азии XIX века // Советская этнография, №3, 45–58.

5. Бородин, В. А. (1987). Российская историография об экономике и общественном строе Бухары XIX века // Вопросы истории, №7, 99–110.

6. Рашидов, Ж. (2022). Ўрта Осиё тарихшунослигида XIX аср манбаларининг ўрни // Ўзбекистон тарихи журнали, 3(2), 45–52.

7. https://share.google/nOmVP0MA6zzqysrsk

8. Manba: Wikipedia https://share.google/tqv0ZuxjCcml7irmq
9. Manba: NamDU.uz https://share.google/dbekopEEprTxX9ART

# O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING RIVOJLANISHI VA UNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

***Baratova Shoxzoda Nazirjonovna***
Zarmed Unversiteti Buxoro Kampusi
Filologiya va biznes fakulteti 2-bosqich talabasi
**E-mail:** shaxzodabaratova3@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning o'rni, uni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat tomonidan yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsion jarayonlardagi roli ochib beriladi. Tadqiqotda mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishning samarali yo'llari ilmiy asosda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xususiy sektor, iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik, investitsiya, innovatsiya, bandlik, iqtisodiy o'sish.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируется роль частного сектора в экономике Узбекистана, государственная политика, направленная на его развитие, существующие проблемы и перспективные направления. Освещаются меры, предпринимаемые для поддержки предпринимательства, улучшения инвестиционного климата и стимулирования инновационной деятельности. Рассматривается вклад частного сектора в экономический рост,

создание новых рабочих мест и обеспечение социальной стабильности.

**Ключевые слова:** частный сектор, экономический рост, предпринимательство, инвестиции, инновации, государственная политика, конкурентная среда.

**Abstract:** This article provides a scientific analysis of the role of the private sector in Uzbekistan's economy, the state policy aimed at its development, existing challenges, and future directions. The paper highlights measures taken to support entrepreneurship, improve the investment climate, and promote innovative activities. It examines the contribution of the private sector to economic growth, job creation, and social stability.

**Keywords:** private sector, economic growth, entrepreneurship, investment, innovation, state policy, competitive environment.

**Kirish:** Oʻzbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonida xususiy sektorning roli tobora ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning asosiy vazifalaridan biri — xususiy mulkchilikni himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va raqobat muhitini kengaytirishdan iborat. Xususiy sektorning rivojlanishi mamlakatda iqtisodiy oʻsishning barqaror manbai, yangi ish oʻrinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Soʻnggi yillarda Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Soliq siyosatini soddalashtirish, kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, byurokratik toʻsiqlarni kamaytirish va erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish bunga yorqin misoldir.

Xususiy sektor — bu bozor iqtisodiyotining yuragi bo'lib, ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Jahon tajribasida iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida xususiy sektor ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda xususiy sektor YaIMning qariyb 80 foizini tashkil etmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy drayveri sifatida uning rolini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi sanoat, savdo, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarida sezilarli darajada ortib bormoqda.

Jahon tajribasidan ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda xususiy sektor iqtisodiy faoliyatning 85–90 foizini tashkil etadi. O'zbekiston ham bu yo'nalishda bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirmoqda. Masalan, 2017–2024 yillar oralig'ida mamlakatda 600 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi.

Shuningdek, "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida xususiy mulk daxlsizligi, biznesni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu esa xususiy sektorning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitni yaratmoqda.

O'zbekiston hukumati tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bir qator mexanizmlarni joriy etgan:

**Soliq imtiyozlari:** kichik va o'rta biznes uchun soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi, ayrim sohalar uchun soliq ta'tillari joriy qilingan.

**Kredit va moliyaviy yordam:** "Tadbirkorlikni rivojlantirish jamg'armasi" orqali imtiyozli kreditlar ajratilmoqda, xususan, yoshlar va ayollar biznesi uchun alohida yo'nalishlar ochilgan.

**Davlat-xususiy sheriklik (DXSh):** infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda xususiy sektor ishtiroki kengaymoqda (energetika, transport, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida).

**Raqamli xizmatlar tizimi**: "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" orqali 200 dan ortiq biznes xizmatlar onlayn shaklda taqdim etilmoqda.

Bundan tashqari, "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" va "Ayollar daftari" dasturlari orqali minglab fuqarolar o'z biznesini yo'lga qo'ymoqda. Bu tashabbuslar nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlamoqda. Shunga qaramay, ayrim tizimli muammolar xususiy tadbirkorlik faoliyatini to'liq erkinlashtirishga to'sqinlik qilmoqda:

**1. Moliyaviy resurslar yetishmasligi:** tijorat banklarida kredit foiz stavkalari hali ham nisbatan yuqori, garov talablari esa murakkab.

**2. Malakali kadrlar tanqisligi:** zamonaviy menejment, marketing va raqamli texnologiyalar bo'yicha tajribali mutaxassislar yetishmaydi.

**3. Byurokratik to'siqlar:** ayrim hududlarda ruxsatnoma va litsenziya olish jarayonlari hanuz sekin.

**4. Soliq bojxona tizimidagi murakkabliklar:** va ayrim tartiblarning murakkabligi tadbirkorlik subyektlariga ortiqcha yuk bo'lmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv zarur: bu jarayonda raqamli boshqaruv, korrupsiyaga qarshi mexanizmlar va kadrlar malakasini oshirish muhim rol o'ynaydi.

Kelgusida xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini yanada oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb:

**Innovatsion biznesni rivojlantirish:** startaplar, IT-parklar, texnoparklar faoliyatini kengaytirish.

**Eksport salohiyatini oshirish:** mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozorlarga chiqish uchun sertifikatlash va logistika tizimini soddalashtirish.

**Ayollar va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish:** grantlar, subsidiyalar va trening dasturlarini kengaytirish.

**Raqamli iqtisodiyot asoslarini mustahkamlash:** sun'iy intellekt, elektron tijorat va avtomatlashtirilgan xizmatlar tizimini keng joriy etish.

Bu yo'nalishlar nafaqat iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirishga ham xizmat qiladi.

**Xulosa:** Xususiy sektorning rivojlanishi O'zbekiston iqtisodiy siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki u iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, raqobatni kuchaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatda biznes yuritish sharoitlari yaxshilandi, xalqaro reytinglarda O'zbekistonning mavqei sezilarli darajada oshdi. Ammo bu yo'lda hali hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham ko'p: moliyalashtirish tizimining samaradorligini oshirish, huquqiy muhitni mustahkamlash va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini to'liq ishga solish zarur.

Kelajakda xususiy sektorni yanada rivojlantirish uchun quyidagi strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim:

xususiy mulk daxlsizligini ta'minlovchi kafolatlarni mustahkamlash;

soddalashtirilgan soliqqa tortish va hisobdorlik tizimini kengaytirish;

hududiy biznes-inkubatorlar va innovatsion markazlar tarmog'ini rivojlantirish;

xalqaro investitsiyalarni jalb etish uchun huquqiy va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, xususiy sektor O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlovchi, xalq farovonligini oshiruvchi va innovatsion rivojlanishni tezlashtiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu bois, davlat va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari bu yo'nalishda yanada yuqori natijalarga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF–101-son Farmoni "Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida".

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2024-yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

4. Xolmurodov B. Bozor iqtisodiyotida xususiy sektorning roli. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

5. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi.

6. World Bank. Private Sector Development Report 2023.-Washington D.C.,2023

# DIALEKTAL MATNLARDA SOʻZ YASALISHI VA SINTAKTIK TAHLIL

***Olimova Odinaxon Ma'rufjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada dialektal matnlarda soʻz yasalishi va sintaktik xususiyatlarining oʻziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Dialektal nutqda qoʻllaniladigan soʻz yasash modellari, affikslar, fonetik oʻzgarishlar hamda ulardan hosil boʻladigan yangi ma'nolar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, dialektal matnlarda uchraydigan gap tuzilishidagi oʻziga xosliklar, sintaktik birliklarning qoʻllanishi, dialektal sintaksisning adabiy til normalaridan farqlari ham tahlil qilinadi. Maqolada xalq shevalarining tilshunoslikdagi ahamiyati, ularning milliy tilni boyitishdagi roli, shuningdek, zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlarida dialektal materiallardan foydalanishning ilmiy-metodik ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit soʻzlari**: dialektal matnlar, soʻz yasalishi, sintaksis, affiks, fonetik oʻzgarish, sheva, adabiy til, morfologiya, sintaktik birliklar, lingvistik tahlil

**Аннотация**: В данной статье анализируются особенности словообразования и синтаксических характеристик в диалектных текстах. Рассматриваются модели словообразования, аффиксы, фонетические изменения и новые значения, возникающие в диалектной речи, на научной основе. Также исследуются особенности построения предложений в диалектных текстах, употребление синтаксических единиц и различия диалектного синтаксиса от норм литературного языка. В статье раскрывается значение народных говоров в лингвистике, их роль в обогащении национального языка,

а также научно-методическое значение использования диалектного материала в современных лингвистических исследованиях.

**Ключевые слова:** диалектные тексты, словообразование, синтаксис, аффикс, фонетические изменения, говор, литературный язык, морфология, синтаксические единицы, лингвистический анализ.

**Annotation**: This article analyzes the specific features of word formation and syntactic characteristics in dialectal texts. It scientifically examines the models of word formation, affixes, phonetic changes, and the new meanings that arise in dialectal speech. The article also explores the peculiarities of sentence structure in dialectal texts, the use of syntactic units, and the differences between dialectal syntax and the norms of the literary language. Furthermore, it highlights the linguistic importance of folk dialects, their role in enriching the national language, and the scientific-methodological significance of using dialectal material in modern linguistic research.

**Keywords**: dialectal texts, word formation, syntax, affix, phonetic change, dialect, literary language, morphology, syntactic units, linguistic analysis.

Dialektal matnlar tilshunoslikning muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi, chunki ular nafaqat xalq og‘zaki ijodining ifodasi, balki adabiy tilning shakllanishi va boyishida ham katta o‘rin tutadi. Dialektal matnlarda so‘z yasalishi jarayonlari o‘ziga xos bo‘lib, ular orqali shevalarda mavjud bo‘lgan leksik birliklarning shakllanishi va qo‘llanilishida o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi. Masalan, ayrim dialektlarda umumadabiy tilda ishlatilmaydigan yoki tarixiy shaklda qo‘llangan affikslar yordamida yangi so‘zlar hosil qilinadi. Bu esa dialektal matnlarni morfologik tahlil qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

So'z yasalishida qo'llaniladigan affikslar ko'pincha fonetik o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, -chi qo'shimchasi ayrim dialektlarda -či shaklida talaffuz qilinishi yoki -dor qo'shimchasining -dur tarzida qo'llanishi mumkin. Dialektlarda so'z yasalishi jarayonida o'ziga xos fonetik qisqarishlar va assimilyatsiyalar ham uchraydi. Shu bois dialektal matnlarni o'rganishda fonetik va morfologik o'zgarishlarni birgalikda tahlil qilish muhim hisoblanadi. Dialektal matnlarda yangi ma'no hosil qilish ham keng tarqalgan hodisa. Masalan, umumadabiy tilida biror narsani bildiradigan so'z ayrim shevalarda boshqa ma'noni anglatishi mumkin. Bunday o'zgarishlar semantik tahlilni talab etadi. Shu bilan birga, so'z yasalishida qadimiy shakllar ham uchraydi. Masalan, qadimgi turkiy tilga mansub affikslar ayrim hududiy shevalarda hanuzgacha faol qo'llanib kelmoqda. Bu esa tilning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda dialektal materiallarning ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Sintaktik tahlil dialektal matnlarni o'rganishda alohida e'tiborga loyiq, chunki gap tuzilishidagi farqlar adabiy til va shevalarni ajratib turuvchi muhim belgilar sanaladi. Dialektlarda gap tuzilishi ko'pincha qisqa, sodda va xalqona bo'ladi. Murakkab gaplar o'rniga ko'proq sodda gaplarning ketma-ket qo'llanishi kuzatiladi. Shuningdek, bog'lovchi vositalarsiz gaplarni bog'lash hollari keng tarqalgan. Masalan, umumadabiy tilida bog'lovchilar yordamida tuziladigan qo'shma gaplar ayrim shevalarda sodda gaplarning ketma-ket qo'yilishi orqali ifodalanadi. Bu esa sintaktik soddalikning dialektal matnlarga xos jihati ekanligini ko'rsatadi.

Dialektal matnlarda so'z tartibi ham o'ziga xosliklarga ega bo'lib, ba'zida aniqlovchi va aniqlanmish o'rin almashadi yoki kesim gap oxirida emas, balki o'rtasida keladi. Bu kabi sintaktik xususiyatlar

adabiy tildan farqli bo‘lib, dialektlarning jonli xalq nutqiga xosligini namoyon etadi. Ayrim dialektlarda kesimning fe’l shakli o‘zgacha ifodalangan holda keladi. Masalan, umumadabiy tilida fe’lning hozirgi zamon shakli -yapti qo‘shimchasi bilan ifodalansa, ayrim shevalarda -vatdi shaklida uchraydi. Bunday o‘zgarishlar sintaktik birliklarning shakllanishida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Dialektal matnlarning sintaktik tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalq nutqida ko‘pincha qisqa gaplar uzun murakkab gaplardan ustun turadi, chunki jonli so‘zlashuvda oddiylik va tezkorlik muhim rol o‘ynaydi. Dialektlarda gaplarning emotsional bo‘yoqdorligi ham yuqori bo‘lib, ular ko‘pincha hissiy ohang va urg‘u orqali kuchaytiriladi. Bu esa sintaktik tahlilda pragmatik jihatlarni ham hisobga olishni taqozo etadi.

Dialektal matnlarni morfologik va sintaktik tahlil qilish nafaqat tilshunoslik uchun, balki milliy madaniyatni o‘rganish uchun ham katta ahamiyatga ega, chunki dialektlar xalqning tarixiy hayoti, urf-odatlari va dunyoqarashini ifoda etadi. Dialektal matnlarda so‘z yasalishi va sintaktik birliklarning qo‘llanilishi adabiy til uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ko‘plab adabiy asarlar yozuvchilari dialektal so‘z va sintaktik shakllardan foydalanib, o‘z asarlariga xalqona ruh bag‘ishlagan. Dialektal materiallar til boyligini kengaytirishda beqiyos manba hisoblanadi. Shu sababli dialektal matnlarda so‘z yasalishi va sintaktik birliklarni tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Dialektal matnlarni o‘rganish o‘zbek tilshunosligida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ularni fonetik, morfologik va sintaktik jihatdan tahlil etish tilning rivojlanish bosqichlari hamda xalq nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shevalarda so‘z yasalishi usullari til taraqqiyotining tabiiy jarayoni sifatida yuzaga chiqadi, chunki xalq tili doimo harakatda bo‘ladi va turli

hududlarda yashayotgan odamlar ehtiyojidan kelib chiqib yangi so'zlar yaratiladi. Eng ko'p uchraydigan usul bu affiksatsiya bo'lib, unga qo'shimchalar yordamida yangi so'z yasash kiradi. Shevalarda qo'shimchalar ko'pincha adabiy tildan farqli shakllarda namoyon bo'ladi, masalan, -chi o'rniga -či, -dor o'rniga -dur, -li o'rniga -lык ko'rinishida ishlatiladi. Bunday misollar dialektlarda morfologik o'zgarishlarning faol ekanligini ko'rsatadi. Shevalarda shuningdek, kompozitsiya yo'li bilan ham ko'plab so'zlar yaratiladi. Bu usul so'zlarni qo'shib yangi birlik hosil qilishni anglatadi. Masalan, tuxumbarak, qizilcha, shokosa kabi birliklar xalqona nutqda keng qo'llanadi. Bu jarayon tilning tabiiy rivojida muhim ahamiyatga ega, chunki unda xalq tafakkuri va nutq madaniyati ifodalanadi.

So'z yasalishi shevalarda ko'pincha ot, sifat, fe'l va ravishlarda faol kuzatiladi. Otlarda kasb egalarini bildiruvchi qo'shimchalar juda unumli bo'lib, surnaychi, naychi, pöllakash, salmысapaz kabi birliklar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Sifatlarda ham affikslar yordamida yangi so'zlar hosil bo'ladi, masalan, urushqoq, yumuq, purg'un kabi shakllar xalq nutqining o'ziga xosligi sifatida diqqatga sazovordir. Old qo'shimchalar ham faol qo'llanib, ba, be, no, ser, ham kabi shakllar bilan turli sifatlar yaratiladi. Masalan, bamaza, befoyda, notinch, serhosil, hamtovoq kabi so'zlar xalq nutqida keng ishlatiladi. Bu jarayonlar shevalarning boyligini ko'rsatadi va ularni o'rganish o'zbek tilining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Sintaktik tahlil shevalarda so'zlarning birikishi va gap tuzilishini o'rganadi. Dialektlarda gap bo'laklarining joylashish tartibi ko'pincha adabiy tilnikidan farq qiladi. Masalan, umumadabiy tilida kesim odatda gap oxirida kelsa, ayrim shevalarda u gap o'rtasida yoki boshida kelishi mumkin. Bu esa jonli so'zlashuv jarayonida nutqning tabiiyligi va

oddiyligini ta’minlaydi. Shevalarda gap tuzilishi sodda bo‘lib, murakkab gap o‘rniga ko‘proq sodda gaplarning ketma-ket qo‘llanishi kuzatiladi. Masalan, adabiy tilida Men bozorga bordim va do‘stlarim bilan uchrashdim kabi gap shevada Men bozorga bordim, do‘stlarim bilan uchrashdim shaklida ifodalanadi. Bu esa sintaktik soddalikni ko‘rsatadi.

Gap bo‘laklari shevalarda turlicha shakllanadi. Ega ko‘pincha ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, infinitiv yoki ish otidan yasaladi. Masalan, Men kelaman, Sening aytganing to‘g‘ri, O‘qigan bola yaxshi, O‘qimoq kerak kabi misollar buni ko‘rsatadi. Kesim ham turli shakllarda bo‘lib, fe’l, sifat, olmosh, son, infinitiv, ish oti, ravish bilan ifodalanadi. Masalan, Qish sovuq, Ikki yetar, Maqsadim o‘qimoq edi, U bugun yo‘q kabi misollar bunga dalildir. To‘ldiruvchi va hol bo‘laklari ham xalq nutqida keng uchraydi. Ravish holi, payt holi, o‘rin holi kabi shakllar shevalarda ko‘pincha oddiy va hissiy bo‘yoqdor tarzda ifodalanadi.

Dialektal matnlarni sintaktik tahlil qilishda gap bo‘laklarining joylashish tartibi alohida ahamiyatga ega. Masalan, ega-kesim, ega-to‘ldiruvchi-kesim, ega-to‘ldiruvchi-hol-kesim kabi shakllar dialektlarda turli variantlarda namoyon bo‘ladi. Ayrim hollarda ega bilan kesim orasiga boshqa bo‘laklar tushishi yoki aniqlovchi-qaralmishlar o‘rnini almashtirishi mumkin. Bu esa shevalarning jonli va xalqona nutqini ifoda etadi.

Shevalarda sintaktik birliklarning pragmatik xususiyatlari ham muhimdir. Gaplar ko‘pincha hissiy ohang bilan boyitilib, qisqa va lo‘nda shakllarda aytiladi. Masalan, adabiy tilda U bugun kelmadi desak, shevalarda U bugun yo‘q tarzida aytilishi mumkin. Bu esa xalq nutqining oddiy va bevosita ifoda uslubini ko‘rsatadi. Dialektlarda gaplarning emotsional bo‘yoqdorligi ularni jonli qiladi va xalqona ruh

bag'ishlaydi. Shu bois sheva matnlarini tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy ahamiyatga ham ega.

O'zbek dialektologiyasida ko'plab olimlar shevalarda so'z yasalishi va sintaktik xususiyatlarni o'rganib muhim natijalar chiqargan. Masalan, Sh. Shoabdurahmonov, X. Doniyorov, F. Abdullaev, A. Aliev, B. Jo'raev, Y. Jumanazarov, N. Rajabov, K. Sharipova va boshqa olimlarning ishlari bu borada asosiy manba sifatida e'tirof etiladi. Ularning tadqiqotlari shevalarning boyligini ilmiy asosda tahlil qilib, o'zbek tilining taraqqiyot qonuniyatlarini yoritishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, dialektal matnlarni o'rganish o'zbek tilining boy qatlamini ochib beradi. Shevalarda so'z yasalishi va sintaktik birliklarning qo'llanishi xalqning dunyoqarashi va nutq madaniyatini ifoda etadi. Shevalar til boyligini kengaytiradi va adabiy tilni yangi imkoniyatlar bilan boyitadi. Shu bois dialektal matnlarni morfologik va sintaktik tahlil qilish tilshunoslik fanining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega, chunki ular o'zbek tilining kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini belgilashga xizmat qiladi. Dialektal so'z yasalishi va sintaktik tahlil milliy merosni asrab, avlodlarga yetkazishda muhim ilmiy manba bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Jo'rayev, M. (2012). O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Rahmatullayev, Sh. (1995). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
3. Orifiy, M. (2010). O'zbek tilida so'z yasalishi masalalari. Toshkent: Yangi asr avlodi.

4. Qodirov, A. (2016). Shevalarda leksik-semantik oʻzgarishlar. Samarqand: SamDU nashriyoti.

5. Usmonov, M. (2008). Oʻzbek tili sintaksisi va uslubiyati. Toshkent: Universitet nashriyoti.

6. Yoʻldoshev, M. (2017). Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.

7. Karimov, X. (2019). Dialektal nutqda sintaktik birliklarning qoʻllanilishi. — Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali, №3, 55-63-betlar.

8. Rasulov, B. (2021). Lingvistik tahlil asoslari. Toshkent: Ma'naviyat.

# THE CREATION OF PARTICULAR LEARNING METHODS FOR BLIND CHILDREN

***Gʻulomova Dilobar***

undergraduate student of Fergana State University

**Tel:** +998931900321

**Email:** gdilobar21@gmail.com

**Abstrakt:** This article is to provide disseminate view on the methods for learning for visually impaired children. In some countries blind children suffer from social and political ignorance causing to low education and literacy. From this article I explored a number of methods, that are useful for this kind of students while learning, gathering and analyzing the information from various literatures. After seeking data on learning techniques, Braille method which is code system of connecting of dots that represents letters of the alphabet sensed by touching with fingers was found as the oldest and common method. As this method is difficult and not much available in some countries such as India, there

was an another method called Spatial audio technology which is used in India for both education and other enjoyable activities. VR application conducted for improving cognitive functions of blind children in two ways: the first one is building spatial maps to find various environments while the second one is that by listening to the operation of acoustic events central auditory system should be focused. Games based on VR application are found very useful for blind children to learn effectively.

**Keywords:** Braille method, spatial audio technology, VR application, visually impaired children, special pedagogy.

**Introduction.**

There is no doubt that human beings do not progress without education as it has been crucial for a long time for people to develop human society. Education help us to understand the world, broaden our horizon, widen our perspective towards real life and also clarify phenomena that occurs in real life. Every person encounters learning and unlearning events, feelings, characters in their life but these conditions assist them to have experiences towards real life and show how life works. While people identify themselves with a help of education, it has an important role in the development of nations and human kind.

Even though education is essential, there are some people who are unable to learn and have low literacy rate. In some cases, visually impaired children suffer from social and political ignorance causing incomplete education and illiteracy so that it leads to a barrier of progress of country. It is true that, the main provider of a detailed and continuous source of data is vision. If child is blind, it restricts to learn and receive direct information. In the Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education, "every child has a fundamental right to education and must be given the opportunity to achieve and maintain

an acceptable level of learning…those with special needs must have access to regular schools, which should accommodate them within child centered pedagogy capable of meeting these needs: (UNESKO, 1994, p. iii)." [5]

That's why some researchers and scientists have been investigating suitable learning methods for blind children as these methods become intense and prevalent. Krishnendu Roy (2018) said that, "Depending on individual circumstance, learning methods vary leading to the same result of imparting education to all irrespective of physical deficiency." [3] There are a number of learning styles for blind children, according to their habitual acquiring skills. Even though all methods are useful and play crucial role, they differ from each other because of easiness to apply, effectiveness and comfort while experimenting among children who are visually impaired. There are a number of in-born talented and genius blind children but there is a lack of encouragement to demonstrate them. The teaching-learning process is a key to open the opportunities. In this study we investigated, analyzed and chose the best activities and methods that help to educate blind children properly.

**Methods and materials**

In this study I chose secondary method for learning and exploring activities for blind students. According to data that I gathered, Krishnendu Roy who is research scholar in Department of Education, University of Kalyani, Nadia, West Bengal provide disseminate view on the methods for visually impaired children. In India blind children suffer from social and political ignorance causing to low education and literacy. From this article writer explored a number of methods, that are useful for this kind of students while learning, gathering and analyzing the information from various literatures. After seeking data on learning

techniques, Braille method which is code system of connecting of dots that represents letters of the alphabet sensed by touching with fingers was found as the oldest and common method. As this method is difficult and not much available in some countries such as India, there was an another method called Spatial audio technology which is used in India for both education and other enjoyable activities. VR application conducted for improving cognitive functions of blind children in two ways: the first one is building spatial maps to find various environments while the second one is that by listening to the operation of acoustic events central auditory system should be focused. Games based on VR application are found very useful for blind children to learn effectively.

While conducting this study, I also used different qualitative data, such as, questionnaires, focus group discussion and document analysis, that were conducted by Bornes Cheongetich Korir. With the help of qualitative and quantitative methods responses came from a total 200 participants in this study were analyzed. This study asked questions dividing two groups: males and females. All the students with visual impairment in the two schools were interviewed basing their total population which is reasonably small as compared to their sighted counterparts in an integrated school environment. According two the constitution of Kenya Society for the blind, one student with visual impairment is equated to a class of 40 sighted students. [4]

The 160 respondents were given the fact that students in the school shared the same experiences. There were 32 teachers who responded and the director of the two schools. Data was collected through the use of three types of questionnaires. The first type was for students both the sighted and the visually impaired. The second type of questionnaire was designed for the head teachers and the third one was for the teachers in

schools. All data was presented by tables and data from interviews were analyzed using descriptive methods.

**Results**

After results gathered, it was found that Braille is an effective learning tool for literacy for the blind or low sighted individuals who are unable to reach functional reading speed. In order to achieve Braille education, it is important to remember that merit varies from person to person and thus cognitive ability is essential for acquiring knowledge. According to Eikospentaki (2015), visually impaired children obtain information on their environment with the help of their cognitive abilities produced from variety of experiences. [2] However as per Danna (2015), lacking in vision, delays in motor, cognitive and social development. Thus a great deal of information is provided to the blind child through touch which is the core essence of learning through Braille method. [1]

Spatial audio technology which is as old as Braille method for learning is used within VR (virtual reality) application both for studying human perception as well as for recreational purpose. The use of spatial audio in India has currently exceeded pre-existing sources of auditory localization. It is used as a tool for investigating cognitive functions among blind children which is undoubtedly the most important factor for receiving education. This particular learning helps the young one in two ways. (Krishnendu Roy. 2018). [3]

After gathered responses from students, teachers and head teachers, it is fair to put students with visual impairment and those that are sighted under the same school environment. This can be best achieved by also incorporating the necessary learning and teaching materials for the different student categories. It is evident from the study that students with visual impairment are not treated like abnormal

students in their respective schools. The integrated education program of mixing students with visual impairment and the sighted ones has improved the public image about the visually impaired students in the society. The teachers however do not perceive the program from a positive view. This could be attributed to the fact that most of them are not trained to handle these students. There is lack of knowledge about the existence of this program. One head teacher came to learn about the program on his transfer to the school. Many teachers are caught unaware by the presence of the students with visual impairment in their classes and often left with no option but to assume them.

**Discussion**

The creation of methods for supporting blind children at school ensures a systematic and comprehensive approach. By conducting a needs assessment, involving stakeholders, providing training and resources and monitoring the results, schools can continually improve their support for blind students. Regular evaluation and feedback mechanisms are essential for identifying areas that require further improvement and for implementing necessary adjustments. It is important to note that the methods outlined in this article are not a one-size-fits-all solution. Every blind student is unique, and their individual needs must be considered when implementing the methods. Close collaboration between educators, families and experts in the field of visual impairment education is vital for creating an inclusive and supportive educational environment for blind children.

**References**

1. Danna (2015)
2. Eikospentaki (2015)

3. “Particular learning methods for blind children” Krishnendu Roy Research Scholar, Department of Education, University of Kalyani, Kalyani, Nadia, West Bengal.

4. “The Perception of Students and Teachers on the Integration Programme of Students with Visual Impairment in Secondary Schools: A Case of Ainamoi Sub County, Kericho County, Kenya” Bornes Chepngetich Korir P. O. Box 2031- 20200 Kericho, Kenya.

5. UNESKO, 1994, p. iii.

## MILLIY G‘OYA –BUYUK AJDODLAR MEROSINING DAVOMCHISI SIFATIDA

***Hasanova Diyora Abdimo‘min qizi***
Navoiy davlat universiteti
“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada milliy g‘oya va ma’naviyatning shakllanishida jadidchilik harakatining o‘rni hamda buyuk ajdodlarimiz merosining zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimiga ta’siri yoritilgan. Jadid bobolarimizning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ularning ta’lim, madaniyat va jamiyat rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil etilgan. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston strategiyasi doirasida milliy o‘zlikni anglash, yoshlarni vatanparvarlik va ma’rifat asosida tarbiyalash jarayonida ajdodlar merosidan foydalanishning dolzarbligi ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar**: milliy g‘oya, ma’rifat, jadidchilik, ajdodlar merosi, Yangi O‘zbekiston, ta’lim, tarbiya, vatanparvarlik.

**Аннотация**: В статье рассматривается роль джадидского движения в формировании национальной идеи и духовности, а также

влияние наследия великих предков на современную систему образования и воспитания. Анализируются просветительские идеи джадидов, их вклад в развитие культуры и общества. Особое внимание уделено использованию духовного наследия предков в процессе воспитания молодежи на основе патриотизма и просвещения в рамках стратегии «Новый Узбекистан»

**Ключевые слова**: национальная идея, просвещение, джадидизм, наследие предков, Новый Узбекистан, образование, воспитание, патриотизм.

**Abstract**: This article explores the role of the Jadid movement in shaping the national idea and spirituality, as well as the influence of the great ancestors' heritage on the modern education and upbringing system. The paper analyzes the educational and cultural contributions of the Jadids and their impact on the development of society. It also emphasizes the importance of utilizing ancestral heritage in fostering patriotism and enlightenment among youth within the framework of the "New Uzbekistan" strategy.

**Keywords**: national idea, enlightenment, Jadidism, ancestral heritage, New Uzbekistan, education, upbringing, patriotism.

**Kirish**: Har qanday xalqning milliy g'oyasi uning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va buyuk ajdodlar merosiga tayanadi. Milliy g'oya – bu xalqni birlashtiruvchi, uni ezgu maqsadlar sari yetaklovchi, kelajakka ishonch bag'ishlovchi ma'naviy kuchdir. O'zbekiston xalqi tarixida jadidchilik harakati, ma'rifatparvar allomalar va buyuk mutafakkirlarning faoliyati milliy o'zlikni anglash, mustaqillik g'oyalarini shakllantirish va ma'naviyatni yuksaltirishda beqiyos o'rin tutadi.

Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston strategiyasi" doirasida yoshlarni ma'naviy barkamol, vatanparvar va bilimli etib tarbiyalashda ajdodlarimizning boy ilmiy merosidan, jadid bobolarimizning ma'rifatparvarlik g'oyalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, milliy g'oyaning hayotiyligi ham, uning xalq qalbiga singib borishi ham o'z tarixini, ildizini chuqur anglash bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu maqolada milliy g'oyaning shakllanishida jadidchilik harakati va buyuk ajdodlar merosining tutgan o'rni, shuningdek, ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonlariga ta'siri ilmiy tahlil asosida yoritiladi.

Asosiy qism: Jadidchilik oqimi dastlab jamiyatga yumshoq qadam bilan, ya'ni madaniyat va san'at tarzida kirib keladi. Teatrlar tashkil etiladi. Spektakllar yozilib, sahnalashtiriladi va keng omma orasiga turli sahnalashtirilgan hayotiy voqealar xuddi oyna kabi kirib, xalqning kundalik maishiy muammolarini yorita boshlaydi. Xalq orasida yengil yumor kayfiyati shakllanadi. Jadidchilarning keyingi bosqichi satira, ya'ni achchiq kulgu ostida davom etadi. Behbudiyning "Padarko'sh", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boy ila xizmatchi" asari katta sahanalarga chiqadi.[3,45-b]. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Adabiyot nadur?" maqolasidai "Bizni ulamo va eshonlarimiz to'n kiymakdan, avomlarimiz choyxonalarga chiqub choy ichmakdan va ziyolilarimiz esa Ovrupo kiyimliklaridan va qiymatlik papiro'slaridan lazzat olurlarki, «adabiyot nima?» desang, javobida yuqorida aytilgancha «ya'ni, masalan»dan boshqa javoblari yo'qdir", degan satrlarida[4,62-b]. ilgari surilgan turli illatlarga qarshi kurashish, jaholat va qoloqlikka barham berishdagi chuqur tahliliy qarashlarini, tajribalarini o'rganishimiz zamonaviy tarbiya sohasida milliy modulimizni yaratishimizda tajriba maktabi vazifasini bajaradi.

Jadid bobolarimiz taraqqiyotning eng katta omili sifatida ta'lim va tarbiyaga katta e'tibor qaratishgan. Xususan Abdulla Avloniyning ta'lim sohasida olib borgan amali vvva ilmiy metodik ishlari ta'lim sohasini rivojlantirishda o'qituvchining pedagog-menejerlik jihatlarini ochib beradi.[5,28-b]. Talim va tarbiyaning egizak soha sifatida talqin etilishi, maktab muammolarining to'g'ridan-to'g'ri pedagog tomonidan bartaraf etilishi, o'quvchi ehtiyoji chuqur o'rganilishi, ayniqsa, bilim va ko'nikma berishda o'quvchiga har tomnlama shart-sharoit yaratilish jihatlarining ustunligi bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamiridagi tub mohiyatni ochib berishga xizmat qilishi shubhasiz.

Davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida yoshlarning ongu tafakkurini allomalarimiz va jadid bobolarimiz tomonidan ilgari surilgan g'oya kabi ma'rifat asosida shakllantirish va tabiyalash haqidagi masala o'rtaga tashlanishi bejizmasligini yuqorida keltirilgan misollar zamirida asoslaymiz.[1,103-b].

Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasiga jadidlar orzusi kabi bilim va tafakkurga intilgan ma'rifatparvar davlat hamda kitobsevar millat iborasi bilan chizgi berish mumkin. Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi, degan qarashning negizida ta'limni isloh qilish eng dolzarb masala ekanligi yotadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning bundan bir asr avval aytgan quyidagi gaplari aynan bugun ham ehtiyojimizni qanoatlantiradi: "Maorif yo'lida ishlatturg'on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar!"[3,77-b].

Ko'rinib turibdiki, bizning diyorda azaldan mamlakatni taraqqiy ettirish, mustaqillikni mustahkamlash, xalq farovonligini ta'minlash ilm

va maorif sohasi bilan bog'langan. Shuningdek, xalqning, ayniqsa, yurt yoshlarining bilim olishlari, moliyaviy, huquqiy, tibbiy savodxon bo'lishlari uchun ko'maklashlgan, jamiyat hayotida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida ularning ijtimoiy harakatlari shakllantirilgan va eng asosiysi huquqiy asoslari ta'minlanib, aniq rejalar va g'oyalarga xizmat qiluvchi dasturlar bilan qurollantirilgan. Bugun jamiyat hayotida ziyolilar tashabbuslarini ko'paytirish, ularning bilim va tajribalaridan unumli foydalanishni ilgari surish ham aynan yaqin o'tmishimizdagi tajribalarga tayanadi. Shu bois, Davlat rahbarining tashabbusi bilan joriy yildan boshlab chop etila boshlangan "Jadid" gazetasi matbuot maydonida yurt ziyolilari, ma'rifatparvarlari minbari sifatida paydo bo'lgan bo'lsa-da, aslida ziyolilarning bilim va tajribalarini jamiyat hayotiga tatbiq etuvchi, ma'rifatli media makonni shakllantirishga xizmat qiluvchi maqsadlarga ham unumli xizmat qiladi.

Joriy yilda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning tashkil etilishi, hamda qator jadidchilik g'oyalari tadqiqotchilarining mamlakatga jalb etilishi jadidchilik harakatining ma'rifatparvarlik g'oyalarini bugungi kunga tatbiq etishga ilmiy yondoshuvni aks ettiradi va shu bilan birga ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda bizda ulkan tajriba maktabi borligini ilgari surdi. Jadidchilik tarixi muzeyining tashkil etilishi esa mazkur fikrlarning ilmiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 73-maqsadidagi buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish vazifasi asosida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub asarlarning xalqchil

tarjimalari yaratilayotgani va ular asosida ilmiy va ommabop risolalar nashr etilayotgani ham yuqorida tilga olingan maqsadlar mukamalligiga xizmat qiladi.[1,214-b].

Shuningdek, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ular faoliyati davlat tomonidan keng qo‘llab quvvatlanmoqda.[10,59-b]. 2022 yilda Buyuk mutafakkir qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi YUNESKO shafe’ligida xalqaro miqyosda keng nishonlanishi ma’rifatparvar jamiyat qurishda O‘zbek moduli tub ildizlarga egaligini targ‘ib etdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.[9,88-b].

Bugun mahalla yoshlari o‘rtasida “Ajdodlar merosi ibrat va tarbiya maktabi” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar olib borilishi negizida ham yoshlarda milliy o‘zligini anglash va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ajdotlarimizning milliy merosidan foydalanish yotganligi ham ayni haqiqat.[6,45-b].

Yoshlarda milliy g‘urur va vatanparvarlikni oshirish, milliy armiyamizning jangavor ruhini yanada ko‘tarish maqsadida “Temur tuzuklari bitlimdoni”, “Jaloliddin izdoshlari” xarbiy vatanparvarlik loyihalari tashkil qilib borilmoqda. Mazkur loyihalar ham bevosita ajdodlar merosidan suv ichganligi va ularning negizida shakllangani bilan e’tiborlidir. Holbuki, yoshlarni vatanparvarlik asosida tarbiyalashda tarixziy ildizlarimizning, o‘zligimizni anglashimizning ahamiyati nihoyatda katta.

Bugun xalqimizning madaniy saviyasini belgilab beruvchi kitobxonlikni shakllantirishda jadid bobolarimiz merosiga katta e’tibor

qaratilayotgani, xususan, "Jadidlar" va "Allomalar" rukni ostida ommabop risolalar, avtobiografik qo'llanmalar, falsafiy-qomusiy adabiyot va jadidlar qalamiga mansub durdona asarlar qayta-qayta nashr etilayotgani, axborot ressurs markazlarining jadid namoyandalari asarlari bilan boyitilishi masalalari ilgari surilayotgani mamlakatimizda ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surayotgan ezgu harakatlarning ommalashishi va ularga qarata aholining ayniqsa yoshlarning munosib javob berishini shakllantirishga qaratilgan.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, milliy g'oya — bu ajdodlar merosining zamonaviy davrda davom etuvchi ma'naviy poydevoridir. Jadidchilik harakati va buyuk allomalarimizning ma'rifatparvarlik g'oyalari bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lida muhim ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. [2,97-b]. Ularning ta'lim, madaniyat, adabiyot va ijtimoiy hayotdagi ilg'or fikrlari millatni uyg'otish, yoshlarni bilim va tafakkurga chorlash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi. Bugungi islohotlar jarayonida ajdodlar merosini chuqur o'rganish, uni yoshlar ongiga singdirish, milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlash orqali milliy g'oyamiz yanada hayotiy va mazmunli tus olmoqda. Demak, milliy g'oyaning kuchi — ajdodlar merosini qadrlashda, ularni davom ettirish va zamon talablari asosida yangicha mazmunda rivojlantirishdadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019.

4. Fitrat A. Millat, madaniyat va taraqqiyot haqida. – Toshkent: Fan, 2018.

5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.

6. Qodirov A. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019.

7. Jo'rayev M. Milliy g'oya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Akademiya, 2020.

8. Xo'jayev X. Jadidchilik va milliy uyg'onish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.

10. Karimova N. Ma'naviy meros va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.

# INSON HUQUQLARI — JAMIYATNING ENG MUHIM QADRIYATI

***Sharopova Diyora Davron qizi***
Navoiy davlat universiteti, Tarix fakulteti,
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada inson huquqlari tushunchasining mohiyati, uning xalqaro va milliy darajadagi huquqiy asoslari, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, davlat siyosatida inson huquqlari ustuvor yo'nalish sifatida belgilanganligi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishdagi dolzarb masalalar ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** inson huquqlari, Konstitutsiya, demokratiya, huquqiy davlat, BMT, Ombudsman, huquqiy madaniyat, islohotlar.

**Аннотация:** В данной статье проанализирована сущность понятия прав человека, его международно-правовые и национальные основы, а также реформы, направленные на обеспечение прав человека в Республике Узбекистан. Кроме того, отражено, что права человека определены как приоритетное направление государственной политики, и рассмотрены актуальные вопросы повышения правовой культуры граждан.

**Ключевые слова:** права человека, Конституция, демократия, правовое государство, ООН, Омбудсман, правовая культура, реформы.

**Annotation:** This article analyzes the essence of the concept of human rights, its international and national legal foundations, as well as the reforms aimed at ensuring human rights in the Republic of Uzbekistan. It also highlights that human rights are defined as a priority direction of state policy and discusses the urgent issues of improving citizens' legal culture.

**Keywords:** human rights, Constitution, democracy, rule of law, UN, Ombudsman, legal culture, reforms.

Inson huquqlari – bu har bir inson tug'ilganidan boshlab ega bo'ladigan tabiiy, ajralmas va daxlsiz huquqlardir. Bu huquqlar millat, jins, din, til, ijtimoiy mavqe yoki siyosiy qarashlardan qat'i nazar, barcha insonlar uchun tengdir. Inson huquqlarini e'tirof etish va ularni himoya qilish har bir demokratik davlatning asosiy burchi hisoblanadi. Inson huquqlari masalasining har qanday sivilizatsiyalashgan,adolatli fuqarolik jamiyatini qurishdagi rolini kamaytirib bo'lmaydi.Tarixga nazar tashlasak, inson huquqlari uchun kurash uzoq asrlar davomida

kechgan. Qadimgi davlatlardan boshlab inson erkinligi va adolat uchun kurashlar davom etgan. Ammo zamonaviy ma'noda inson huquqlari tushunchasi Ikkinchi jahon urushidan so'ng, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" orqali aniq shaklga keldi. Ushbu hujjat bugungi kunda insoniyat tarixidagi eng muhim huquqiy manbalardan biri sanaladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyutsiya 217 A (III) bilan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan va e'lon qilingan.Ushbu deklaratsiya o'zining muqaddimasida inson huquqlariga oid bir qancha qadriyat va huquqlarni inobatga olib qabul qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari deklaratsiyada insonning yashash huquqi, erkin fikrlash, so'z va vijdon erkinligi, ta'lim olish, mehnat qilish, tinch hayot kechirish kabi asosiy huquqlari mustahkamlangan. Bu huquqlar nafaqat davlat tomonidan, balki har bir fuqaro tomonidan hurmat qilinishi zarur. Chunki inson huquqlariga hurmat – bu jamiyat madaniyatining, insoniylik va adolat tuyg'usining ko'zgusidir.

O'zbekiston Respublikasida ham inson huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Davlatimiz inson huquq va erkinliklari bo'yicha asosiy hujjatlarga qo'shilishi bilan xalqaro huquqning asosiy umum e'tirof etilgan prinsiplari bosqichma-bosqich milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilib borilmoqda.Mustaqillik yillarida bu borada katta ishlar amalga oshirildi. 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati – oliy qadriyat" deb belgilangan. Shu asosda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi ko'plab qonunlar qabul qilindi. Bugungi kunda mamlakatimizda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Bola

huquqlari bo'yicha vakil, Ombudsman kabi muhim institutlar faoliyat yuritmoqda. Ular fuqarolarning murojaatlarini o'rganadi, adolat tiklanishiga ko'maklashadi va inson huquqlarining buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.Inson huquqlariga rioya etish — bu faqat hukumatning emas, balki har bir insonning mas'uliyatidir. Chunki huquq va erkinliklar qadrlangan jamiyatda tinchlik, totuvlik va ishonch muhitini yaratish mumkin. Agar inson o'zining va boshqalarning huquqlarini hurmat qilsa, u holda jamiyatda adolat, tenglik va taraqqiyot barqaror bo'ladi.

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta"minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan demokratik islohotlarning bosh mezoniga aylanib bormoqda. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma –bosqich implimentatsiya qilinmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tomonida ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o'z aksini topmoqda. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar inson hayotini, dunyoqarashlarini hamda turmush tarzini o'zgartirmoqda.

Zamonaviy dunyoda inson huquqlarini himoya qilish global ahamiyatga ega masalaga aylangan. Texnologiya, migratsiya, axborot oqimi kuchaygan hozirgi davrda inson sha'ni va erkinligini saqlash yanada dolzarbdir. Ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, tolerantlik va huquqiy madaniyat ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.Inson huquqlarini hurmat qilish - bu faqat qonuniy talab emas, balki insoniy burchdir. Har bir inson o'z huquqini bilib, uni asrab-avaylasa va boshqalarning huquqlarini ham hurmat qilsa,

shundagina adolatli, ozod va farovon jamiyatni qurish mumkin.Inson huquqlari — demokratik jamiyatning poydevori va huquqiy davlatning ajralmas qismidir. Har bir insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlat siyosatining eng muhim vazifasidir. O'zbekiston bu yo'nalishda xalqaro standartlarga asoslangan mustahkam tizimni shakllantirib, inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etgan davlat sifatida tan olingan. Inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish esa har bir fuqaroning burchi va mas'uliyatidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi". Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) 1948-yil 10-dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.

3. "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt". – Nyu-York, 1966-yil.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyunidagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–6012-son farmoni.

5.O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Adolat" nashriyoti 2010-yil.

# MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

**Kucharboyeva Durdona Otamurod qizi**
Navoiy davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya**: Ma'lumotlar ruhiy boylik va tarixiy xotiraning jamiyat barqarorligi va rivojiga bo'lgan markaziy rolini o'rganadi. Tadqiqot milliy qadriyatlar xalq ruhi, asrlar davomida shakllangan madaniyat, til, din va urf-odatlar o'rtasidagi aloqani o'rganadi, ularning siyosiy va ta'lim jarayonlaridagi o'rnini tavsiflaydi. Qadriyatlar asrlar davomida tarbiya qadriyatlar mustahkamlab kelgan ruxiy bazaning ifodasidir. Ushbu maqola milliy qiymatlar bo'yicha siyosat ishlab chiqishda ta'lim va madaniyat bilan yoshlar ongini mustaxkamlash yo'llarini ko'rsatadi, merosni himoya qilish uchun indikatorlar muhimligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** mentalitet, madaniy meros, qadriyat, madaniyat, til, din, urf-odatlar, jamiyat, tarixiy xotira, tarbiya.

**Annotation:** Data explores the central role of spiritual wealth and historical memory in the stability and development of society. The study explores the connection between national values in the spirit of the people, culture, language, religion and Customs formed over the centuries, characterizing their place in political and educational processes. Values are an expression of the spiritual base, which for centuries has strengthened the values of upbringing. This article shows ways to empower youth minds with education and culture in policy making on national values, emphasizing the importance of indicators to protect heritage.

**Keywords:** mentality, cultural heritage, value, culture, language, religion, traditions, society, historical memory, upbringing.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma'naviy merosni asrab-avaylash masalasi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir xalqning taraqqiyoti, avvalo, uning milliy o'zligiga, ma'naviy boyligiga, tarixiy xotirasiga tayanadi. Milliy qadriyatlar xalq ruhiyatining ko'zgusi, uning asrlar davomida shakllangan ma'naviy asosidir. Shu bois, milliy o'zlikni saqlash, ma'naviy merosni e'zozlash – jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Milliy qadriyatlarimiz, ajdodlarimiz merosi biz uchun bebaho boylik bo'lib, ularni asrab-avaylash va yoshlar ongiga singdirish – barchamizning muqaddas burchimizdir." Mazkur fikr zamirida jamiyat taraqqiyotining ildizi milliy o'zlikda, ma'naviy merosni avloddan-avlodga yetkazishda ekanligi yaqqol ifodalanadi.

**Metodologiya.** Milliy qadriyatlarning tarixiy va falsafiy ildizlari Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy taraqqiyoti, urf-odatlari, diniy e'tiqodlari, tili va madaniyatining mahsulidir.[1] O'zbek xalqining qadriyatlari chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, ularning shakllanishida qadimiy Turon sivilizatsiyasi, Zardushtiylik davri, Islom madaniyati va Temuriylar davrining ma'naviy merosi alohida o'rin tutadi. Sharq mutafakkirlari – Al-Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Jomiy, Bahovuddin Naqshband kabi allomalar o'z asarlarida inson kamoloti, axloq, odob, adolat va ezgulik g'oyalarini ilgari surganlar. Ularning fikrlari milliy qadriyatlarning falsafiy poydevorini tashkil etadi. Milliy qadriyatlar faqat tarixiy xotira emas, balki bugungi kun jamiyatining axloqiy, huquqiy va madaniy me'yorlar tizimidir. Har bir xalqning o'z qadriyatlarini asrab-avaylashi, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtira olishi – milliy taraqqiyotning kafolatidir.[2]

Ma'naviy meros va jamiyat taraqqiyoti o'zaro bog'liqligi Jamiyatning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy va siyosiy omillarga, balki ma'naviy asosga ham bevosita bog'liqdir. Ma'naviy meros – bu xalqning asrlar davomida to'plagan tajribasi, bilimlari, e'tiqodi, axloqiy qarashlari va san'ati majmuidir. Bugungi kunda O'zbekistonda milliy merosni o'rganish, uni yoshlar ongiga singdirish maqsadida ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari, "Yangi O'zbekiston" g'oyasi doirasida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlanmalar bu boradagi muhim qadamdir. Agar jamiyat o'z ma'naviy ildizlarini yo'qotsa, u o'z yo'nalishini ham yo'qotadi. Shu bois ma'naviy merosni chuqur o'rganish va uni yangicha yondashuvda rivojlantirish zamonaviy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

**Natijalar va muhokamalar**

Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni Yosh avlod – millatning kelajagi. Ularni milliy ruhda, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, odob-axloq, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash milliy qadriyatlarning eng muhim jihatidir. O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, maktab va oliy ta'lim muassasalarida "Ma'naviyat soati", "Vatan tuyg'usi", "Tarbiya" fanlari kiritilgan. Bu jarayonlar yoshlar ongida milliy qadriyatlarning mustahkam o'rnashuviga xizmat qilmoqda.

Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan yoshlar har qanday global ta'sirlarga bardosh bera oladigan, mustaqil fikrlaydigan, millat manfaatini ustun qo'yadigan insonlar bo'lib shakllanadi.[3]

Rivojlanish omillari va zamonaviy yondashuvlar Bugungi kunda raqamli texnologiyalar asrida ma'naviy meros va qadriyatlarni saqlash yangi shakllarda amalga oshirilmoqda. Virtual muzeylar, onlayn

arxivlar, elektron kutubxonalar orqali tarixiy merosni keng ommaga yetkazish imkoniyati mavjud. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimi orqali qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish, ularni zamon ruhida talqin etish dolzarb vazifadir.[4] Ma’naviyatni faqat so‘z bilan emas, balki amaliy faoliyatda — madaniy tadbirlar, teatr, san’at, adabiyot va ilmiy izlanishlar orqali singdirish zarur. Milliy qadriyatlarni global jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, lekin o‘zligimizni yo‘qotmaslik – yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim mezonidir.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar va ma’naviy meros jamiyat taraqqiyotining poydevoridir. Har bir xalq o‘z o‘tmishini chuqur bilib, uni zamonaviy hayotga mos tarzda rivojlantira olsa, barqaror taraqqiyotga erishadi. Bugungi O‘zbekiston taraqqiyoti ham aynan milliy qadriyatlarga, ma’naviy merosga tayanib, zamon bilan hamnafas rivojlanmoqda. Shunday ekan, milliy o‘zligimizni asrash, ajdodlar merosini e’zozlash va uni yosh avlodga yetkazish – barchamizning muqaddas burchimizdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2016.

4. Al-Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.

5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.

6. Najmiddinova M.N., Najmiddinova G.N. “Pedagogical mechanisms for improving student knowledge with the help of Artificial

Intelligence". International journal of scientific researchers". www.wordlyknowledge.uz. Volume: 2, Issue: 1, 2023.

7. Najmiddinova M.N., Najmiddinova S.N. "Ways to organize the activities of teachers in the process of distance Education". Asian Journal of Multidimensional Research, ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 5, May 2022.

8. Najmiddinova M.N. "Practical basis of the problem of teaching foreign languages in high education system". International Conference on Sustainable Development and Economics. June 24-25.

9. Najmiddinova M.N. Linguodidactic features of proverbs related to the concept of "hospitality" (Examples from English and Uzbek languages) // il va adabiyot.uz Ilmiy-metodik elektron jurnal. -tilvaadabiyotuz@gmail.com, 6-son.2025.-B.227-230. https: //oak.uz/pages/4802

10. Najmiddinova M.N., Furqatova H.A., Nabiyeva D.G‘. "Linguistic features of phraseological units with a common meaning "hospitality", "Modern trends of teaching in the context of innovative and digital

technologies in higher education: prospects, problems and solutions". November 29, 2024. –B.607-609.https://doi.org/10.5281/zenodo.14259715.

11. Najmiddinova M.N. "Linguocultural and linguopragmatic features of the concept of "hospitality" in English and Uzbek"//International conference Philology, Methodology, Translation Studies: Current Issues of Modern Science. -8-9.11.2024.-P.306-309.https://doi.org/10.2024/1xm0b673.

12. Najmiddinova M.N. "Linguoculturalogical features of proverbs on "hospitality" in English and Uzbek", Tamaddun nuri // The

light of civilization, ISSN 2181-8258, 10(61), 2024.-P.74-79. https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/article/view/972

13. Najmiddinova M.N., Qahramonova M.U. "Innovation in language teaching, learning and assessment" // Results of National Scientific Research International Journal, Volume 4| Issue 3 Researchbib 9.1, ISSN: 2181-3639,2025. -P.132-140. https://doi.org/10.5281/zenodo.15111294

14. Najmiddinova M.N. "Mehmondoʻstlik" tushunchasiga oid maqollarning pragmatik tahlili//"Universal journal of social sciences philosophy and culture". -https://scienceresearch.uz/index.php/UJSSPC/article/view/286 ISSN: 2992-8834 IMPACT FACTOR: 8.0,2025.-B.44-50.. https://zenodo.org/records/14732811

15. Najmiddinova M.N. Similarities and differences between values of Uzbek and English cultures // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion gʻoyalar.2025.-B.107-111. https://phoenixpublication.net/index.php/TANQ/article/view/3802

16. Najmiddinova M.N., Rahmatova M.U. The role of Pragmatics in Intercultural Communication with an Emphasis on Politeness // Tamaddun Nuri/The light of civilization. -ISSN 2181-8258 IF-9.347 DOI 10.69691,4-son (67) 2025.-P.237-240. https://doi.org/10.2024/1xm0b673.

17. Najmiddinova M.N. Linguistic features of phraseological units with a common meaning "hospitality" // Qoʻqon DPI. Ilmiy xabarlar,3-son. ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti.2025.-P.1886-1891. www.kspi.uz journal.kspi.uz

18. Najmiddinova M.N. Linguopragmatic analysis of phraseological units and idioms relating to the concept of hospitality in English and Uzbek //FarDu, Ilmiy xabarlar jurnali, ISSN 2181-

1571.Volume 31 Issue 4, 2025. -P.73-84. DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss4/a94. https://journal.fdu.uz/

# EKOLOGIK TA'LIMDA MUAMMOLI VAZIYATLAR METODINING QO'LLANISHI

***Avazova Maryamxon***
*Namangan davlat pedagogika instituti,*
*biologiya yo'nalishi talabasi*
**Tel**: +99890 106-01-16
**E-mail:** *avazovamaryamxon7@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ekologik ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar metodidan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muammoli vaziyat metodi o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ekologik muammolarga tanqidiy yondashish ko'nikmasini shakllantiradi hamda atrof-muhit muhofazasi bo'yicha ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi. Tadqiqotda ekologik darslarda muammoli vaziyatlardan foydalanish samaradorligini oshirishga oid metodik tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologik ta'lim, muammoli vaziyat, interfaol metod, ekologik ong, mustaqil fikrlash, ekologik madaniyat, ta'lim texnologiyalari.

**Annotation:** This article analyzes the theoretical foundations and practical possibilities of using the problem situation method in the process of ecological education. The problem situation method develops students' independent thinking, forms skills for a critical approach to ecological problems, and increases social responsibility regarding environmental protection. The research presents methodological

recommendations for increasing the effectiveness of using problem situations in ecological lessons.

**Keywords:** ecological education, problem situation, interactive method, ecological consciousness, independent thinking, ecological culture, educational technologies.

**Аннотация:** В данной статье анализируются теоретические основы и практические возможности использования метода проблемных ситуаций в процессе экологического образования. Метод проблемных ситуаций развивает самостоятельное мышление учащихся, формирует навыки критического подхода к экологическим проблемам и повышает социальную ответственность в отношении защиты окружающей среды. В исследовании представлены методические рекомендации по повышению эффективности использования проблемных ситуаций на уроках экологии.

**Ключевые слова:** экологическое образование, проблемная ситуация, интерактивный метод, экологическое сознание, самостоятельное мышление, экологическая культура, образовательные технологии.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarni tayyor bilimlarni yod olishga emas, balki ularni tahlil qilish, izlanish, xulosa chiqarish va amalda qo'llay olishga o'rgatishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan muammoli vaziyatlar metodining ekologik ta'limdagi o'rni beqiyosdir[1,5]. Ushbu metod o'quvchilarni real hayotdagi ekologik muammolarni tahlil qilishga, sabab va oqibatlarni aniqlashga, shuningdek, ekologik masalalarning yechimini topishga yo'naltiradi.

Ekologik ta'limning asosiy maqsadi — yosh avlodda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, ularni ekologik ong va madaniyat ruhida tarbiyalashdir. Bu jarayonda muammoli vaziyatlar

metodi o'quvchilarni faol o'quv sub'yektiga aylantiradi, ularni dars jarayonining markaziga qo'yadi.

Ekologik ta'limda muammoli vaziyatlar metodi (ingliz tilida Problem-Based Learning – PBL deb ataladi) o'quvchilarni real hayotdagi ekologik muammolar bilan ishlashga jalb qilish orqali ularda tanqidiy fikrlash, mustaqil tadqiqot va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion usuldir. Bu metod an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, o'quvchilarni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'radi[2,6]. Ekologik ta'limda ushbu metodning qo'llanilishi atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga, shuningdek, barqaror rivojlanish tamoyillarini o'rgatishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, PBL o'quvchilarning ekologik savodxonligini oshiradi va ularni global muammolarga tayyorlaydi.

Muammoli vaziyatlar metodining mohiyati va bosqichlari

Muammoli vaziyatlar metodi o'quvchilar oldiga ochiq, murakkab muammo qo'yish orqali ularda qiziqish uyg'otadi va yechim izlash jarayoniga jalb qiladi. Bu usul nemis pedagogi Yoxann Friedrich Herbartning g'oyalariga asoslangan bo'lib, keyinchalik Jon Dyui va boshqa mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan[3,7]. Ekologik ta'lim kontekstida muammo real yoki simulyatsiya qilingan bo'lishi mumkin, masalan, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi yoki biologik xilma-xillikni yo'qotish.

Jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Muammoni taqdim etish: O'qituvchi o'quvchilarga muammo beradi, masalan, "Mahalliy daryoning ifloslanishi qanday oqibatlarga olib keladi va uni qanday oldini olish mumkin?" Bu bosqichda o'quvchilar muammoning mohiyatini tushunishga harakat qiladi.

2. Muammoni tahlil qilish: Guruhlarda muhokama oʻtkaziladi. Oʻquvchilar sabablarni (masalan, sanoat chiqindilari), oqibatlarni (suv hayvonlarining nobud boʻlishi) va ta'sir etuvchi omillarni aniqlaydi.

3. Ma'lumot yigʻish: Oʻquvchilar tadqiqot oʻtkazadi – kitoblardan, internetdan, mutaxassislar bilan suhbatdan yoki laboratoriya tajribalaridan foydalanadi. Bu bosqichda ekologik ma'lumotlar bazalari (masalan, EPA yoki UNESCO resurslari) ishlatilishi mumkin.

4. Yechim ishlab chiqish va sinovdan oʻtkazish: Oʻquvchilar bir nechta variantlarni taklif qiladi, masalan, chiqindilarni filtrlaydigan tizimni loyihalash yoki jamoatni xabardor qilish kampaniyasini tashkil etish. Yechimlarning samaradorligini baholash uchun modellar yoki simulyatsiyalar qoʻllaniladi.

5. Refleksiya va baholash: Jarayon yakunida oʻquvchilar oʻz faoliyatini tahlil qiladi – nima ish berdi, nima yaxshilanishi kerak. Bu bosqich oʻquvchilarning metakognitiv koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu bosqichlar oʻquvchilarni nafaqat bilim olishga, balki uni amaliyotda qoʻllashga oʻrgatadi.

Ekologik ta'limda qoʻllanilishi

Ekologik ta'limda PBL real muammolarga asoslangan boʻlib, oʻquvchilarni atrof-muhitni saqlashga faol jalb qiladi. Masalan, oʻquvchilar mahalliy ekologik muammolarni oʻrganib, loyihalar ishlab chiqishi mumkin. Bu usul maktab, kollej va hatto kattalar ta'limida qoʻllaniladi.

- Interfaol va guruhli ish: Oʻquvchilar guruhlarda ishlaydi, bu hamkorlik va aloqa koʻnikmalarini oshiradi. Masalan, bir guruh suv resurslarini boshqarish boʻyicha loyiha ishlab chiqsa, ikkinchisi chiqindilarni qayta ishlash tizimini loyihalashi mumkin.

- Tanqidiy fikrlash va innovatsiyalar: Oʻquvchilar muammoning murakkab tomonlarini koʻrib chiqadi, masalan, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni. Bu ularga turli yechimlarni taqqoslash va eng yaxshisini tanlashga yordam beradi.

- Ekologik ongni shakllantirish: PBL oʻquvchilarda atrof-muhitga e'tiborli munosabatni rivojlantiradi, chunki ular muammolarni oʻzlari hal qilishga harakat qiladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, PBL oʻquvchilarning ekologik savodxonligini sezilarli darajada oshiradi.

Amaliy misollar va case studies

PBL ning ekologik ta'limda qoʻllanilishiga oid koʻplab misollar mavjud. Quyida ba'zi real va simulyatsiya qilingan misollar:

Mahalliy muammo: Chiqindilarni boshqarish. Oʻquvchilarga maktab atrofidagi chiqindixonadagi muammo beriladi. Ular chiqindilarni saralash tizimini joriy etish, aholini xabardor qilish kampaniyasini tashkil etish yoki qayta ishlash loyihasini ishlab chiqadi. Masalan, AQShdagi Sidwell Friends School maktabida oʻquvchilar oʻrta maktab bosqichida shunga oʻxshash loyihalarda ishtirok etib, ekologik muammolarni hal qilish koʻnikmalarini oshirgan.

Global muammo: Iqlim oʻzgarishi. Oʻquvchilarga "Mahalliy jamoada iqlim oʻzgarishiga qarshi qanday choralar koʻrish mumkin?" degan vazifa beriladi[4,8]. Ular karbon emissiyasini kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqadi, masalan, daraxt ekish kampaniyasi yoki energiya tejash loyihasi. Indoneziyada oʻtkazilgan tadqiqotlarda PBL ekologik ta'limda muvaffaqiyatli qoʻllanilgan va oʻquvchilarning atrof-muhitga mas'uliyatini oshirgan.

Simulyatsiya: Invaziv turlar. Oʻquvchilarga zebra midiyalari (zebra mussels) kabi invaziv turlarning muammosi beriladi. Ular muammoning ta'sirini (suv ekotizimiga zarar) tahlil qilib, oldini olish

choralarini taklif qiladi[5,9]. Bu misol ekologik fanlarda keng qo'llaniladi va o'quvchilarda empatik fikrlashni rivojlantiradi.

Tadqiqotga asoslangan misol: Ochiq havoda ta'lim. AQShdagi ba'zi maktablarda PBL ochiq havoda o'tkaziladi, masalan, bog'larda yoki tabiat qo'riqxonalarida. O'quvchilar loyihalar orqali atrof-muhitni o'rganadi, bu ularning motivatsiyasini oshiradi.

Yana bir case study: Isroildagi boshlang'ich maktab o'qituvchilari PBL ni ekologik ta'limda qo'llab, o'quvchilarning barqarorlik haqidagi tushunchalarini oshirgan.

Afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari:

- O'quvchilarning faolligi va mustaqilligini oshiradi.
- Ekologik muammolarga chuqur yondashishni ta'minlaydi, chunki o'quvchilar real ma'lumotlar bilan ishlaydi.
- Amaliy ko'nikmalarni (tadqiqot, loyiha boshqaruvi, jamoaviy ish) rivojlantiradi.
- O'quv jarayonini qiziqarli qiladi va uzoq muddatli esda qolishini ta'minlaydi.
- Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, PBL o'quvchilarning ekologik literasiyasini oshiradi.

Kamchiliklari:

- O'qituvchidan yuqori malaka va resurslar talab qiladi (vaqt, materiallar).
- Ko'p vaqt talab qilishi mumkin, shuning uchun an'anaviy darslar bilan birlashtirish kerak.
- Ba'zi o'quvchilar mustaqil ishlashda qiyinchilik ko'rishi mumkin, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda.
- Baholash murakkab bo'lishi mumkin, chunki natijalar subyektiv.

## Xulosa

Muammoli vaziyatlar metodi ekologik ta'limda o'quvchilarni faol, mas'uliyatli va ijodiy shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. U nafaqat ekologik bilimlarni mustahkamlashga, balki global muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ammo muvaffaqiyat o'qituvchining tayyorgarligi va o'quv muhitiga bog'liq.

Muammoli vaziyatlar metodining ekologik ta'limdagi afzalliklari shundaki, u o'quvchilarda o'rganilayotgan muammoni chuqur anglash, muqobil yechimlarni tahlil qilish va ekologik ong asosida qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Muammoli vaziyatlar metodini ekologik ta'limda qo'llash o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ekologik ongini va mas'uliyatini oshiradi. Har bir ekologik darsda kamida bitta real hayotga oid muammoli holat kiritilishi zarur. O'qituvchilar uchun ekologik ta'lim metodikasiga oid maxsus seminar-treninglar tashkil etilishi lozim. Maktab o'quv dasturlariga muammoli vaziyatlarga asoslangan interfaol topshiriqlar va ekologik loyihalar kiritilishi tavsiya etiladi. O'quvchilarni ekologik qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish — ularning mas'uliyatini mustahkamlaydi va ekologik madaniyatni chuqurlashtiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. (2022). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. — Paris: UNESCO Publishing.
2. Qodirov M. (2021). *Ekologik ta'lim metodikasi*. — Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Ergasheva S. (2020). *Muammoli o'qitish asoslari*. — Toshkent: "Fan va texnologiya".

4. Ismoilova N. (2023). "Ekologik ongni rivojlantirishda innovatsion metodlar." — *Ta'lim va fan jurnali*, №2, 45–52-betlar.

5. G'ulomov, A., & Tojiboyev, A. (2019). *Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar*. — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".

6. Koriyev, M., Rahimov, A., Toshmirzaeva, G., Umurzakova, U., & Juraev, Z. (2024). A case study on terracing and mulching in Namangan region hills located in Uzbekistan. *Journal of Applied & Natural Science*, *16*(4).

7. Кориев, М. Р., & Тошмирзаева, Г. Р. (2023). Оценка возможностей развития лалминского садоводства на основе естественной влажности бурных почв. Экономика и социум, (4-2 (107)), 613-618.

8. Koriev, M. R., & Toshmirzaeva, G. R. Researching the Natural Moisture of the Hilly Soils of the Namangan Region with the Aim of Developing Rain-fed Gardening. JournalNX, 9(11), 39-44.

9. Тошмирзаева, Г. Р. (2023). Ўзбекистоннинг тоғолди адир ҳудудларида лалмикор деҳқончиликни ривожлантириш имкониятлари. *Экономика и социум*, (4-2 (107)), 606-612.

10. Rasulova, M. (2022). "Muammoli ta'lim metodining ekologik darslardagi o'rni." — *UzEdu Ilmiy axborotnomasi*, №3, 15–22-betlar.

11. Koroleva, E. V. (2018). *Problemnoe obuchenie v shkole: teoriya i praktika*. — Moskva: Prosveshchenie.

12. Tursunova, Z. (2020). *Interfaol metodlardan ekologik ta'limda foydalanish*. — Toshkent: TDPU.

13. UNESCO-UNEP. (2020). *Teaching and Learning for a Sustainable Future: A UNESCO Digital Resource Kit*. — Paris: UNESCO.

14. Baxtiyor ogli, R. I. TALIM JARAYONIDA ELEKTRON RESURSLAR SALMOG „INI OSHIRISH BO „YICHA SAMARALI STRATEGIYA ISHLAB CHIQISH.

15. Абдурахмонов, Б. М., Рахимов, И. Б., & Турдалиев, И. Э. (2025). СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ СРЕДСТВ ОБУЧЕНИЯ В ГЕОГРАФИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. Экономика и социум, (6-1 (133)), 933-937.

# FARG'ONA VODIYSIDA MUHOFAZAGA OLINGAN *ASTRAGALUS AURATUS* O'SIMLIK TURINI IUCN MEZONLARI ASOSIDA BAHOLASH NATIJALARI

***Umaraliyeva Shodiyona Farhodjon qizi***
Namangan davlat universiteti
Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi
**Tel:** +9989938910413
**E-mail**: shodiyonaumaraliyeva738@gmail.com,

**Annotatsiya:** Maqolada Farg'ona vodiysida muhofazaga olingan ayrim o'simlik turlarini IUCN mezonlari asosida baholash natijalari keltirilgan. Natijalarga ko'ra Astragalus auratus: maqomi 1 (CR) – yo'qolib borayotgan, B2ab(ii,iii,iv,v); GeoCAT tahlillari bo'yicha uning tarqalish areali EOO, taxminan 93 km$^2$, AOO, taxminan 16 km$^2$. Mazkur o'simlik O'zbekiston "Qizil kitob"ining navbatdagi nashri uchun 10 ta banddan iborat yangi for- matda baholash amalga oshirildi.

**Kalit so'zlar**: muhofaza, Farg'ona vodiysi, IUCN, "Qizil kitob", Astragalus auratus

**Аннотация:** В статье приведены результаты оценки некоторых видов растений, взятых под охрану в Ферганской долине. Согласно

полученным результатам, Astragalus auratus: статус 1 (CR) – находится под угрозой исчезновения, B2ab (ii, iii,iv,v). Анализ GeoCAT показывает, что ареал его распространения составляет EOO, около 93 км$^2$, AOO, около 16 км$^2$. Оценка данных растений была осуществлена в новом формате, состоящем из 11 позиций для очередного издания «Красной книги» Узбекистана.

**Ключевые слова***: охрана, Ферганская долина, МСОП, "Красная книга", Astragalus auratus*

**Annotation:** The article features the results of assessing certain plant species of protection in the Fergana Valley on the basis of IUCN criteria. According to the results, *Astragalus*

*auratus:* status 1 (CR) - endangered, B2ab (III, II, IV, IV, V); Its distribution area by geocat analysis EO, about 93 km2, AOO, about 16 km2. The plant was implemented for the next publishing "Red Book of Uzbekistan" in 10 sets.

**Keywords:** Protection, Fergana Valley, IUCN, "Red Book", *Astragalus auratus*

**Kirish.**

Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyo mintaqasida aholisi zich joylashgan (1 km$^2$ ga 300–400 kishi), tabiiy landshafti qisqarib borayotgan hududlardan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. So'nggi o'n yillikda insonlarning vodiy bo'ylab atrof-muhitga ta'siri

sezilarli darajada oshdi. Aholi punktlarining kengayishi, sanoat zonalarining ko'payishi, yaylov maydonlarining qisqarishi va boshqa omillar Farg'ona vodiysining kamyob va endem turlari populyatsiyasining zaiflashishiga olib keldi [1]. Vodiyning O'zbekiston qismida muhofaza etiladigan tabiiy qo'riqxonalarning yo'qligi va tabiat yodgorliklariga (vodiy hududining 0.1%i) antropogen bosimning ortishi

mavjud vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. Oʻzbekiston "Qizil kitob"ining soʻnggi nashriga (2019) mazkur hudud dan 57 ta tur roʻyxatga olingan [2]. Bugungi kunda Fargʻona vodiysida alohida ahamiyatga ega botanik hududlar, tabiat yodgorliklari va Pop milliy tabiat bogʻi mavjud boʻlib, ular muhofazaga muhtoj turlarni saqlash uchun yetarli darajada muhofaza koʻrsatkichlariga ega emas.

Talabdan kelib chiqgan holda: 1) Fargʻona vodiysida tarqalgan ayrim muhozafaga muhtoj turlarning kamyoblik maqomini xalqaro IUCN (International Union for Conservation of Nature) kategoriyalari boʻyicha baholash, 2) geofazoviy tarqalish (GeoCAT) xaritasini yaratish, 3) muhofaza qilinadigan hududlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil etish tadqiqot vazifalari etib belgilandi

**Material va usullar**

Tadqiqotlar "Oʻzbekiston Respublikasi Qizil kitob holatini tanqidiy baholash. Jizzax, Samarqand va Fargʻona, Andijon, Namangan viloyatlarida tarqalgan turlar boʻyicha ma'lumotlar tayyorlash" (2023–2025) loyihasi doirasida amalga oshirildi. Hudud boʻylab 2023–2024-yillar davomida (mart–iyul) maqsadli va marshrutli dala tadqiqotlari olib borildi. Turning joylashuv koordinatalari GPS navigator (Garmin Gpsmap 64s navigator) yordamida aniqlandi. Gerbariy ma'lumotlari Oʻzbekiston Milliy

gerbariysi (TASH), Komorov nomidagi Rossiya Botanika instituti gerbariysi (LE), virtual gerbariy fondlari (MW; https://www.plant.depo.msu.ru) hamda Global bioxilma-xillik ma'lumotlar bazasidan (GBIF; https://www.gbif.org) foydalanildi. Taksonlarning nomenklaturasi Plants of the World Online (POWO; ) xalqaro katalogi boʻyicha keltirildi [5, 6, 7].

Kamyoblik maqomi IUCN [8, 9] metodologiyasining B (B2) va C

(C2) mezonlari (EOO, AOO) asosida baholandi. Turning GeoCAT xaritasi Bachman metodik tavsiyalari

asosida tayyorlandi [10]. Qo'riqlanadigan hududlar (WDPA; https://www.protectedpla- net.net/en) xalqaro bazasidan foydalanildi [11].

**Natijalar**

Olingan natijalarga ko'ra, O'zbekiston "Qizil kitob"ining navbatdagi nashri uchun 10 ta banddan iborat yangi formatda baholash amalga oshirildi.

***Astragalus auratus* Gontsch.** Zarhal astragal.

1. **Maqomi** (CR) — yo'qolib ketish arafasida, B2ab(ii,iii,iv,v); (IUCN Categories and Criteria version 3.1). Oloy hamda Turkiston tizmalarida o'sadigan kamyob endemik tur. GeoCAT tahlillari uning tarqalish areali (EOO, taxminan 93 $km^2$) va populyatsiyalari egallagan maydon (AOO, taxminan 16 $km^2$) keskin qisqarayotganligini ko'rsatdi. Turning o'sish joylari chorva mollarini o'tlatish va ekstremal ekologik omillar tufayli qisqarib bormoqda. Populyatsiyalar juda kichik va parchalangan. O'zbekiston Qizil kitobining avvalgi nashrlariga (1984, 1998, 2006, 2009, 2019) tur 1-maqom bilan kiritilgan.



**1-rasm. *Astragalus auratus* turining tabiatdagi ko'rinishi**

(R.G'ulomov, X.Hoshimov).

2. **Tahdidlar.** Chorva hayvonlarining ko'plab boqilishi sababli o'simlik maydonlari keskin qisqarib ketgan.

3. **Qisqacha tavsifi.** Bo‘yi 15 sm.ga yetadigan, deyarli poyasiz, ko‘p yillik o‘t. Pastki barglari oddiy, yakka, yuqoridagilari esa juftli, bargchalari teskari tuxumsimon, har ikki tomoni yotiq tukli. Gulpoyasi bargiga deyarli teng, 6–8 gulli, gullari och qizil. Iyulda gullab, iyul–avgust oyida urug‘ beradi.

4. **Tarqalishi.** Farg‘ona viloyati: Oloy tizmasining dengiz sathidan 1600–2000 m balandlikdagi Shohimardon, (Qubbon ko‘li, Yordon qishloqlari atroflari da) Uvlardisoyda hamda So‘x, Peshkaut daryolarining havzalarida tarqalgan. Tojikiston va Qirg‘iziston hududlarida ham uchraydi. Tarqalish maydoni (EOO) – 93 km$^2$. Turning populyatsiyalari egallagan maydon (AOO) — 16 km$^2$.

5. **O‘sish muhiti.** Toshli quruq qiyaliklarda, ola jinsli tuproq yonbag‘irlarda, toshloqlarda va surilmalarda o‘sadi (dengiz sathidan 1600–2000 m balandlikda).




**2-rasm.** ***Astragalus auratus*** **turining GeoCAT xaritasi.**

6. **Soni.** Yakka-yakka holda, ba'zan kichik-kichik to'plar hosil qilib uchraydi.

7. **Foydalanilishi.** Ma'lumotlar yo'q.

8. **Madaniylashtirilishi.** Ma'lumotlar yo'q.

9. **Muhofaza choralari.** Maxsus muhofaza chora-tadbirlari ishlab chiqilmagan. Turning bioekologiyasin *ex-situ* sharoitida o'rganish zarur.

10. **Adabiyotlar ro'yxati**. [12, 13, 14, 15, 16, 17].

Muhokama. Muhofaza etiladigan hudud tabiatni uzoq muddatli saqlashga erishish uchun qonuniy vositalar orqali tan olinadigan va boshqariladigan geografik maydon hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, himoya qilinadigan hududlar (PA) biologik xilma - xillik namunalarini inson tomonidan qo'zg'atilgan tahdidlardan muhofaza qilishda yordam beradi [25].

Bugungi kunda Markaziy Osiyoning asosiy ekotizimlarini, mintaqaviy turlar xilmaxilligini saqlab qolish maqsadida mintaqada jami 39 ta tabiiy qo'riqxona va milliy

bog'lar, tabiat yodgorliklari tashkil etilgan bo'lib, ular mintaqa hududining 10% ga yaqin maydonini egallaydi [26].

O'zbekiston "Qizil kitob"ining so'nggi (2019) nashrida 314 tur keltirilgan [17]. Ularning 17 turi (5,4%) IUCN Qizil ro'yxatining (CR, EN, VU, LC, DD, NA) turli toifalari bilan baholangan [8, 9]. 2021-yilda O'zbekiston flora va faunasida muhofazaga olingan turlarni xalqaro mezonlar asosida baholash va bio-xilmaxillikni saqlashda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida respublikamiz Markaziy Osiyo mamalakatlari ichida birinchi bo'lib IUCN (International Union for the Conservation of Nature) tashkilotiga a'zo bo'ldi[1].

Bugungi kunda iqtisodiy ahamiyati kam bo'lgan o'simliklarni keng

ko‘lamli muhofaza qilish bo‘yicha kamchiliklar saqlanib qolmoqda [33]. O‘simliklarni saqlash bo‘yicha global strategiya (Birlashgan Millatlar tashkilotining 2010-yildagi Atrof-muhit dasturi) xavf ostida qolgan turlarning kamida 60% ini *in-situ* sharoitida muhofaza etishni taklif etgan [34].

Bundan tashqari, turlarni muhofaza qilish maqsa- dida S.Volis (2022) “Konservatsiyaga yo‘naltirilgan restavratsiya” konsepsiyasini, ya’ni tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan restavratsiyaning Markaziy Osiyoda qo‘llanilishi bo‘yicha o‘z yondashuvlarini bayon etdi [28]. Mazkur konsepsiyada o‘simliklarni muhofaza qilishda asosiy yo‘nalish xavf ostidagi tur emas, balki ushbu turning populyatsiyasini saqlab qolish, mumkin bo‘lgan o‘sish muhiti bo‘lishi lozimligi ilgari surilgan. Hozirgi kunda

Farg‘ona vodiysining O‘zbekistonga qarashli qismida Mingbuloq (10 km$^2$), Chust (1 km$^2$) va Yozyovon tabiat yodgorligi (18,4 km$^2$) muhofaza etiladigan tabiiy hudud sifatida qayd etilgan. Qirg‘iziston hududida esa bu ko‘rsatkich yuqori.

Shuningdek, mazkur hududlar Farg‘ona vodiysida muhofazaga olingan turlarning o‘sish maydonlaridan juda uzoqda joylashgan [11].

**Xulosa** Ushbu tur ustida amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, tahlilga jalb etilgan barcha turlarning qisqarish sabablari sifatida chorva mollarini tartibsiz o‘tlatish, yerlarning o‘zlashtirilishi, degredatsiya va ekstremal ekologik omillar qabul qilindi. Olingan natijalar O‘zbekiston “Qizil kitob”ining 2025-yilda chop etilishi rejalashtirilgan yangi nashrini tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1034-sonli qarori (2018-yil) [3] va O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining "2022–2026-yil- larga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmonida (2022- yil) [4] belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ғуломов Р.К. Фарғона водийсида тарқалган Phlomoides Moench туркуми (таксономияси, географияси, экологияси ва муҳофазаси): Биол. фан. бўйича фал. докт. (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент, 2022. – 43 б.

2. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"i. 2-jildlik. 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2019. – 360 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-dekabrdagi 1034-son "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. [Internet manba]. // URL: https://lex.uz/uz/docs/-4113420 (murojaat etilgan sana: 25.04.2024)

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон "2022–2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони // URL: https://lex.uz/ docs/5841063 (мурожаат этилган сана: 25.04.2024)

5. Global Biodiversity Information Facility. 2024. Free and open acces to biodiversity data. [Online]. URL: https://www.gbif.org. (Date of Access: 30.04.2024).

6. Plants of he World Online. 2024. Facilitated by the Royal Botanic Gardens, Kew. // URL: (Date of Access: 30.04.2024).

7. International Union for the Conservation of Nature. 2019. Guidelines for Using the IUCN Red List Cate- gories and Criteria; Version 14; Prepared by the Standards and Petitions Subcommittee. //

URL: https://www. iucnredlist.org/resources/redlistguidelines (Date of Access: 06.09.2023).

8. International Union for the Conservation of Nature. 2012b. IUCN Red List Categories and Criteria: Ver- sion 3.1. Second edition. Gland, Switzerland and Cambridge, UK: IUCN. // URL: https://www.iucnredlist.org/ resources/categories-and-criteria (Date of Access: 25.04.2024).

9. Bachman S., Moat J., Hill A., de la Torre J., Scott B. Supporting Red List threat assessments with GeoCAT: geospatial conservation assessment tool. // ZooKeys, 2011. – Vol. 150. P. 117–126.

10. World Database on Protected Area. 2023. [Online]. URL: https://www.protectedplanet.net/en (Date of Access: 24.04.2024)

11. Шерматов Г.М. Секция Macrocystis Astragalus // В кн.: Определитель растений Средней Азии. Т.6. – Ташкент: Фан, 1981. – С. 249–251.

12. Красная книга Узбекской ССР: Редкие и находящиеся под угрозой исчезновения виды животных и растений. В 2-х томах. Т. 2. Растения. – Ташкент: Фан, 1984. – 151 с.

13. Красная книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных. В 2-х томах. Т. 1. Растения. – Ташкент: Chinor ENK, 1998. – 336.

14. Красная книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных. В 2-х томах. Т. 1. Растения и грибы. – Ташкент: Chinor ENK, 2006. – 336 с.

15. Красная книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных. В 2-х томах. Т. 1. Растения и грибы. – Ташкент: Chinor ENK, 2009. – 356 с.

16. Eastwood A., Lazkov G., Newton A. The Red List of Trees of

Central Asia. –UK., Cambridge: Fauna & Flora International: 2009. – 31 p.

17. Набиев М.М. Род Calligonum // В кн.: Определитель растений Средней Азии. Т. 2. – Ташкент: Фан, 1971. – С. 191–199.

18. Павлов Н.В. Род Calligonum // Флора СССР. Т. 5. – Москва-Ленинград: Издательство Академии Наук СССР, 1936. – С. 69–70, 553, 580.

19. Павлов Н.В. Род Calligonum // Флора СССР. Т. 19. – Москва-Ленинград: Издательство Академии Наук СССР, 1953. – С. 560.

20. Сосков Ю.Д. Род Calligonum // Флора Таджикистана. Т. 3. – Ленинград: Издательство Академии Наук СССР, 1968. С. – 225, 230, 234.

21. Сосков Ю.Д. Род Calligomum L. – жузгун (систематика, география, эволюция): Дисс. докт.

22. биол. наук. – Ленинград, 1989. – 472 с.

23. Pimenov M.G. (ed.) Conspectus Florae Asiae Mediae. – Vol. 7. –Tashkent: Fan, 1983. – Pp. 245–260

# GLOBALLASHUV DAVRIDA TALAB-YOSHLARDA MA'NAVIY TARBIYANING DINIY-FALSAFIY JIHATLARI

***Abdurasulova Guljahon Mirzakarimovna***
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti
**Tel:**+998500251587

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola zamonaviy yoshlarning diniy tarbiyasi masalasini kompleks tarzda oʻrganadi. Tadqiqotda oilaviy tarbiya, ta'lim muassasalari va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri, shuningdek, diniy qadriyatlarning shakllanishida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy yoshlarning diniy bilim va qadriyatlarni qabul qilishdagi motivatsiyalari, ular duch kelayotgan axborot oqimi va ma'naviy muhitning roli ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari oilaviy va ta'lim muassasalari tarbiyasining samaradorligini oshirish, shuningdek, yoshlar orasida diniy madaniyatni rivojlantirish boʻyicha amaliy tavsiyalarni taqdim etadi. Maqola yangi yondashuvlarni ilgari surib, diniy tarbiyaning faqat an'anaviy shakllariga emas, balki raqamli davr sharoitida yoshlar ongini shakllantirishdagi innovatsion usullarga ham e'tibor qaratadi.*

**Kalit soʻzlar:** *Zamonaviy yoshlar, yoshlar ongi,diniy tarbiya, oilaviy tarbiya, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, pedagogik tajribalar, Oʻzbekiston, diniy tadbirlar, axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar,ilmiy tadqiqodlar.*

**Kirish.**

Zamonaviy jamiyatda yoshlarning diniy tarbiyasi ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Globalizatsiya, texnologik inqilob va axborot oqimlarining tezligi yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy va diniy qadriyatlariga sezilarli ta'sir qiladi. Shu

bois, diniy tarbiya nafaqat diniy bilimlarni o'zlashtirish, balki yoshlarning ma'naviy-axloqiy shakllanishida ham asosiy vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Diniy faoliyat va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunlari yoshlarning diniy bilimini shakllantirish va ularni ma'naviy rivojlantirish uchun qonuniy asoslarni belgilaydi. Shu qonuniy qolipda yoshlarni diniy tarbiyalash metodlarini ilmiy asosda tahlil qilish muhimdir.Zamonaviy yoshlar o'zlarini tez o'zgarayotgan dunyo sharoitida topishga harakat qiladilar. Bunday sharoitda diniy tarbiya ularga ijtimoiy va ruhiy barqarorlikni ta'minlash, hayotiy qadriyatlar tizimini yaratish va insoniylik fazilatlarini mustahkamlash imkonini beradi. Shu bois, yoshlar va diniy tarbiya o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, ularning axloqiy qarorlarini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Bundan tashqari, diniy tarbiyaning samarali shakllari va usullari yoshlarni ma'naviy jihatdan mustahkamlash, jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarga hurmatni rivojlantirish hamda ularning ruhiy barqarorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan, zamonaviy yoshlarning ma'naviy rivojlanishi va diniy qadriyatlar bilan uyg'unligi masalasi, ilmiy tadqiqotlar va pedagogik tajribalar asosida chuqur o'rganilishi zarurdir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning diniy tarbiyasi jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi (Erkinova, 2023; Pardayev & Aralov, 2023). Sobirova (2021) yoshlarning axloqiy qadriyatlarni erta yoshdan shakllantirish ularning kelajakdagi ijtimoiy va ma'naviy xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir qilishini

ta'kidlaydi. Shu bilan birga, yoshlarning diniy ongini rivojlantirish ularning qaror qabul qilish jarayonlariga, stress va muammolarni hal etishdagi qobiliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Islomov, 2022).

Nazirov (2023) ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sirini tahlil qilib, ularni bartaraf etish usullarini ilgari surgan. U ijtimoiy media orqali tarqaladigan noto'g'ri axborot va ekstremistik kontent yoshlarning axloqiy va diniy qadriyatlariga tahdid solishini qayd etadi. Shu munosabat bilan, Davlatov va boshq. (2024) zamonaviy targ'ibot texnologiyalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha dolzarb masalalarni yoritadi. Ularning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, interaktiv o'quv dasturlari va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanish yoshlar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi.

Diniy tarbiya faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi, balki yoshlarning amaliy axloqiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Masalan, jamoat ishlari, ko'ngillilik faoliyati va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali yoshlar nafaqat diniy bilimlarni o'zlashtiradi, balki ularni amalda qo'llashni o'rganadi (Rahmonova, 2022). Shu bilan birga, oilaviy muhitning diniy qadriyatlarni mustahkamlashdagi roli ham alohida ta'kidlanadi, chunki ota-onaning o'z amaliy harakatlari va namunalari orqali yoshlarning ruhiy va axloqiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi (Abdullaev, 2023).

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yoshlarning diniy tarbiyasi nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki amaliy ko'nikmalar va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, buning samaradorligi zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashgan holda oshirilishi mumkin.

## METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat va miqdoriy metodlarni uyg'unlashtirgan. Tadqiqot quyidagi usullar asosida olib borilgan:

Adabiyotlar tahlili: So'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar, anjuman materiallari va qonuniy hujjatlar tahlil qilindi.

Amaliy kuzatuv va intervyular: Toshkent va viloyat maktablari, oliy ta'lim muassasalari va masjidlarda yoshlar bilan intervyular o'tkazildi.

Tajriba asosida tahlil: Oilaviy tarbiya, ta'lim muassasalari va diniy tadbirlar orqali yoshlarni diniy tarbiyalashning samaradorligi o'rganildi.

Metodlar yordamida yoshlarning diniy bilim va ma'naviy-axloqiy xulq-atvori baholandi va samarali tarbiya strategiyalari aniqlandi.

Tajriba va kuzatuv integratsiyasi:

Zamonaviy yoshlar orasida diniy tarbiyaning shakllanish jarayonini o'rganishda, an'anaviy so'rovnomalar va intervyular bilan bir qatorda, ijtimoiy tarmoqlardagi xatti-harakatlarni ham tahlil qilish metodidan foydalanildi.

Moslashuvchanlik prinsipiga asoslangan yondashuv:

Tadqiqot davomida yoshlarning turli ijtimoiy va madaniy kontekstlari hisobga olinib, metodologiya moslashuvchan tarzda ishlab chiqildi. Bu yondashuv diniy tarbiyaning shaxsiy va jamoaviy omillarini bir vaqtda aniqlash imkonini beradi.

Multimetodik kuzatuv:

Tajriba va so'rovnomalarni birlashtirib, yoshlarning diniy qadriyatlarni qabul qilishi va amalda qo'llashini kuzatish uchun multimetodik tahlil ishlatildi. Shu bilan birga, interaktiv guruh mashg'ulotlari orqali yoshlarning o'zaro fikr almashishi tahlil qilindi.

Kontekstual tahlil:

Metodologiyada yoshlarning oilaviy muhit, ta'lim darajasi, va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kabi kontekstual faktorlar asosiy rol o'ynaydi. Bu faktorlar diniy tarbiya jarayonining individual xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Empirik va nazariy integratsiya:

Tadqiqotda empirik ma'lumotlar (so'rovlar, intervyular, kuzatuvlar) bilan nazariy yondashuvlar (islomiy ta'lim asoslari, psixologik va sotsiologik nazariyalar) uyg'unlashtirildi, bu metodologiyani zamonaviy ilmiy talablarga moslashtiradi.

**NATIJALAR**

Oilaviy tarbiyaning samaradorligi: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilalarda diniy qadriyatlar va amaliy axloqiy qoidalar muntazam ravishda yetkazilsa, yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi sezilarli darajada kuchayadi. Ayniqsa, ota-ona o'zining shaxsiy namunalari bilan bolalarga ibrat ko'rsatishi, ularning ongida diniy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim muassasalari roli: Maktab va oliy ta'lim muassasalarida diniy ta'lim dasturlari samarali tatbiq etilganda, yoshlar orasida diniy bilim va axloqiy ongning oshishi kuzatiladi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarning hayotiy qarorlarini shakllantirishda va ijtimoiy muhitga moslashishda yordam beradi.

Diniy tadbirlar ta'siri:

Masjidlar va diniy markazlarda o'tkazilgan turli tadbirlar yoshlarni diniy bilim va axloqiy ko'nikmalar bilan boyitadi. Tadbirlar nafaqat nazariy bilim berish, balki yoshlarni amaliy faoliyatga jalb qilish orqali ularning ma'naviy qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

Axborot texnologiyalari samarasi:

Onlayn platformalar, videokurslar va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni diniy bilim bilan tanishtirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli resurslardan foydalanish yoshlarning mustaqil o'rganish imkoniyatini oshirib, diniy ma'lumotlarga erkin va tezkor kirish imkonini yaratadi.

## MUHOKAMA

Zamonaviy yoshlarni diniy tarbiyalashda eng muhim omil oilaviy tarbiya va ta'lim tizimi hisoblanadi. Oilada ota-onaning o'z harakati, so'zlari va qadriyatlarni namoyish etishi, shuningdek, diniy qadriyatlarni muntazam ravishda tushuntirishi yoshlar ongida mustahkam axloqiy asos yaratadi. Shu bilan birga, maktablar, oliy ta'lim muassasalari va boshqa ta'lim markazlarida diniy ta'limga oid maxsus mavzularni joriy etish, o'quvchilarga to'g'ri va ilmiy asoslangan ma'lumotlarni yetkazish muhim ahamiyatga ega.Hozirgi kunda aksariyat yoshlar gazeta ,jurnal yoki kitob mutolaasiga sust qarashmoqda. Zamonaviy yoshlar o'z bilimlarini ko'pincha internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali olishadi. Bu esa ularda noto'g'ri yoki manipulyatsiya qilingan ma'lumotlarga duch kelish xavfini oshiradi. Shu sababli, ishonchli, ilmiy asoslangan va diniy manbalar bilan ta'minlash, hamda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni o'rgatish yoshlarni noto'g'ri axborotdan himoya qiladi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, masjidlar, diniy markazlar va jamiyatdagi boshqa ijtimoiy tashkilotlarda yoshlar uchun turli tadbirlar, ma'ruzalar va treninglar o'tkazish ularni jamiyatda ijobiy va faol rol o'ynashga rag'batlantiradi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy va ta'lim tizimidagi barqaror diniy tarbiya, zamonaviy texnologiyalar va

jamiyatdagi faol ishtirok birlashganda, yoshlarning axloqiy, ma'naviy va diniy ongini sezilarli darajada oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Erkinova N.B. (2023). Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari. Yosh mutaxassislar ilmiy-amaliy jurnali.
2. Nazirov B.S. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'siri va ularni bartaraf qilishga doir takliflar. O'zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzdan asrash.
3. Sobirova M.A. (2021). Tarbiya fani: yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to'plami, Toshkent.
4. Davlatov O., To'rayev Sh., Musayev M. (2024). Zamonaviy targ'ibot texnologiyalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Toshkent.

# QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY -PSIXOLOGIK OMILLARI

***Haydarova Sevinch Jasur qizi***
Guliston davlat universiteti talabasi
**Tel:** +998902400510
**E-mail:** munisatolibovna@gmail.com

***Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li***
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
**Tel:** +998999144472
**E-mail:** sobirravshanov3@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy -psixologik omillari shuningdek, qizlarda aql-idrokining rivojlanish xususiyatlari va oila haqida tushunchalarning haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** oila, aql-zakovat, turmush, nizo, farzand, xislatlar-jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, tarbiya, oila tarbiya emotsional xislatlar, rivojlanish.

**Аннотация:** В данной статье Социально-психологические факторы подготовки девочек к семейной жизни также даны сведения об особенностях развития интеллекта у девочек и представлениях о семье.

**Ключевые слова:** семья, интеллект, брак, конфликт, ребенок, качества-общительность, искренность, инициатива, активность, воспитание, семья воспитание эмоциональные качества, развитие.

**Annotation:** this article provides information about the socio-psychological factors of preparing girls for family life, as well as the features of the development of intelligence in girls and concepts about the family.

**Keywords:** family, intelligence, marriage, conflict, child, qualities-public, sincerity, initiative, activity, upbringing, family upbringing emotional qualities, development.

Oila – millat asosi, millat poydevori. Ana o'sha oilalarda esa farzand atalmish kelajak hayot davomchisi dunyoga keladi. Har bir xonadonda farzand tug'ilishi katta shodiyonaga aylanadi, ayniqsa, yosh oilada bu xursandchilik yana ham o'zgacha kutib olinishi ta'biiy. Farzand tug'ilgandan so'ng uni tarbiyalash, unib-o'stirish, kelajakda jamiyat hayotida o'z o'rniga ega bo'la oladigan inson qilib voyaga yetkazish, har bir oilaning nafaqat oilaning balki jamiyatimiz, davlatimiz oldiga qo'yilgan eng oliy maqsadlardan biridir. Insonni eng oliy qadriyat sifatida ko'ruvchi bizning mamlakatda uning ta'lim – tarbiya olishi, jamiyatda shaxs bo'lib shaklanishida barcha imkoniyatlar yaratilib berilmoqda.

oila, oila tarbiyasi, yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi pedagog, psixolog, sotsiolog, faylasuf va jamiyatshunos olimlar tomonidan atroflicha o'rganib kelinmoqda. Markaziy Osiyoda yashab o'tgan qomusiy olimlardan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Jaloliddin Davoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvar bobolarimizning asarlarida ushbu masalaga alohida e'tibor berilgan. Keyingi yillarda oila tarbiyasi, yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlash va yoshlarni oilaga tayyorlashga bag'ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, Yu.P.Azarov, G.M.Hamidova, A.K.Atoev, M.J.Inoyatova, O.To'raeva, M.Ochilov, J.Yo'ldoshev, M.Quronovlarning ushbu masalaga oid yozgan darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy tavsiya,

ilmiy maqola va tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Oilaning muqaddasligi, mustahkamligi ko'p jihatdan balog'at ostonasida turgan yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq. Jumladan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lim jarayonining o'rni katta. Ta'lim berish murakkab va mas'uliyatli ish. Ta'lim birinchidan o'qitish, ikkinchidan o'qish, uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishlarni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, bu jarayonda u ta'lim oluvchiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa bilim olishni yanada faollashtiradi. Natijada ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Inson tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyat jarayonini tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini o'zlashtirib oladi.

Narsalar, buyumlar bilan amaliy muoalada bo'lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash orqali u real voqelikni chuqur tushunib boradi.

Ta'limni tashkil etishning shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan. Bizga ma'lumki, buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib sinf-dars tizimini yaratdi. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida

muayyan o'quvchilar (talabalar) guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi. Dars – o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir va o'quv ishlarining markaziy qismi hisoblanadi. O'tgan davr mobaynida ta'limni tashkil etish shakllari o'zgardi, rivojlandi.

Yosh oilada muammolarning va nizolarning bo'lmasligi eng avvalo yoshlarning oilaviy hayotga qanchalik psixologik jihatdan tayyorgarligiga bog'liq. Oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyor bo'lish – integral kategoriya bo'lib, uning turli jabhalari mavjud. Inson o'zini oila qurishga tayyorman deyishi uchun unda quyidagi sifatlar bo'lishi lozim:

1. Avvalo insonda muayyan axloqiy fazilatlar bo'lmog'i darkor, ya'ni oila quraman, turmushga chiqaman deyish, shaxsning bo'lg'usi turmush o'rtog'i, bo'lajak farzandlari, yangi qarindosh-urug'lari oldida yangi, ilgari tajribasidan bo'lmagan mas'uliyatlarni bo'yniga olishni taqozo etadi. Ushbu mas'uliyatlar va ulardan kelib chiqadigan majburiyatlar hayotda yangi rollarni bajarishga hozirlikni nazarda tutadi, ya'ni nikoh uyi ostonasida "kelin" yoki "kuyov" rolida turgan yoshlar endi "rafiqa", "er", "ona", "ota" kabi yangi rollarning mas'uliyatini his etishi shart.

1 Shaxslararo munosabatlarga, hamkorlik qilishga ruhan tayyorgarlik ham o'ta muhim. Chunki, oilaviy hayotda amalga oshiriladigan ko'plab vazifalar va mas'uliyatlar orasida yangi rollarni bajarish borasidagi hamkorlik qilishga ruhiy tayyorgarlik o'zgacha madaniyatni va aqliy salohiyatni talab etadi. Chunki, oila – bu o'ziga xos kichik guruh bo'lib, undagi o'zaro muomala va munosabatlarning uyg'unligi oilaviy baxtning muhim kalitidir.

2 Turmush o'rtog'ining his-kechinmalariga o'rtoq bo'lish, ularni xuddi o'zinikiday his qilib, psixologiyada empatiya hissi deb

ataladi. Psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyorgarlik tayyorgarlik avvalo ana shunday o‘zgalarni tushunish, uning o‘rniga o‘zini qo‘ya olish, qalbiga yo‘l topishni taqozo etadi. Shu ma’noda nikoh shunday psixoterapevtik xususiyatga egaki, u ikki sevishgan qalblarni bir - biriga yaqinlashtiribgina qolmay, ularni bir-birining dardu-hasrati, quvonchu shodligi bilan hamohang yashashga o‘rgatadi. Shu sababli nikoh salomatlikni saqlovchi va inson umrini uzaytirovchi omil sifatida e’tirof etiladi.

3 Nikohga kirish uchun inson estetik jihatdan o‘zini yuksak madaniyat sohibi sifatida tasavvur eta olishi lozim. O‘zbekiston sharoitida yigitni ham, qizni ham nikohgacha va nikohdan so‘ng yaqin qarindoshlar, mahalladoshlar,

do‘st-yorlar qurshaydiki, ular oldida va o‘zaro qallig‘larining o‘zlarida yuksak insoniy madaniyat, dil va xulq-atvorda ibratli bo‘lish muhim. Shu bois ham yosh kelin- kuyovlarda estetik did va madaniyat shakllangan bo‘lishi kerak.

4 Oila tekis va ravon yo‘l emas, unda ba’zi nizoli vaziyatlar ham bo‘lishi tabiiy: qarashlarda, fikrlashda, xatti-harakatlarda nomutanosibliklar ham bo‘lishi mumkin, ana shunday nizoli ziddiyatli vaziyatlardan konsturktiv tarzda chiqib keta olishga ham tayyor bo‘lishlar lozim. Oilaviy munosabatlardagi ana shunday zigizaklar yoki “qirrali vaziyatlar” er va xotinni yanada bir-birining xarakterini yaxshi bilib olishlari uchun imkoniyat ham hisoblanadi.

Biz qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda hayot ko‘nikmalarini shakllantirish borasida psixologiya yo‘nalishi 1 bosqich, 2-bosqich va 3-bosqich talabalaridan “Oila qurayotgan qizlar qanday fazilatlarga egabo‘lishlari lozim?” mavzusida so‘rovnoma tashkil qildik. Talabalar so‘rovnoma yuzasidan berilgan savollarga quyidagicha javob

berishdi:

*1-ilova*

| Javoblar turi | 1-savol | | | | | | 2-savol | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1-o'tkazish | | Jami | 2-o'tkazish | | Jami | 1-o'tkazish | | Jami | 2-o'tkazish | | Jami |
| | 203 | 302 | | 203 | 302 | | 203 | 302 | | 203 | 302 | |
| | N | TS | | N | TS | | N | TS | | N | TS | |
| To'g'ri | 39 | 71 | 110 | 44 | 74 | 118 | 41 | 73 | 114 | 45 | 77 | 122 |
| Noaniq | 54 | 51 | 105 | 51 | 47 | 98 | 55 | 52 | 107 | 57 | 54 | 111 |
| Noto'g'ri | 43 | 42 | 85 | 41 | 43 | 84 | 40 | 39 | 79 | 34 | 33 | 67 |
| Jami | 013 6 | 164 | 300 | 136 | 164 | 300 | 136 | 164 | 300 | 136 | 164 | 300 |

Mazkur jadvaldan ko'rinib turbdiki, oila qurayotgan qizlarga xos fazilatlar bilan shakllanish darajasi tajriba sinov ishlari davomida muayyan darajada o'sdi.

Shuningdek, ota – onalar, mahalla oqsoqollari bilan o'tkazilgan uchrashuv, suhbat, savol javoblar ham olib borilgan oila qurish ostonasida turgan yigitlar va qizlarimizga xos fazilatlarni shakllantirshda ijobiy natijalarga erishildi.

Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan - Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla – yurt mustahkam bo'lsagina davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Shunday ekan avvalo oilani mustahkam bo'lishiga asos yaratuvchi, oila tayanchi, oila ustuni va oila boshlig'i bo'lmish yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasini ilgari surdik. Chunki oilada er erligini qilmasa o'z vazifasini bajarmasa bunday oilada ham ma'naviy ham moddiy yetishmovchiliklar kelib chiqadi, bu esa o'z navbatida oila birdamligi, oila totuvligi, oila hamjihatliligiga rahna soladi va shu oilada kamol topayotgan

farzandlarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Uzoqov X., Yuziev E., Tojiev A. Oila etikasi va psixologiyasi. -T.:O'qituvchi, 1992. -128-b.

2. Usanov A. Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma. Samarqand.: SamDUnashri, 2005.-116-b.

3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari.-T.: Ma'naviyat, 1998. -112 b.

4. Yusupov E. Yoshlarning ma'naviy kamoloti.-T.: O'zbekiston, 1995. -32-b.

5. O'zbek pedagogikasi antologiyasi //Tuzuvchi-mualliflar. K.Xoshimov, Ochilov S.- T.: O'qituvchi, 1995. – 460-b.

6. Quronov M. Maktab ma'muriyati va milliy tarbiya.-T.: Fan, 1991. – 192-b.

7. Quronov M. Mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'q //Jamiyat va boshqaruv j., 1998. 3 - son. - 24 - 26 - b.

8. Mustaqillik: izdoshlari ilmiy-ommabop lug'at /Mualliflar: M. Abdullaev, M. Abdullaeva, G. Abdurazzoqova va boshq.: A.Jalolov va Khonazarov umum. tazf. ostida. -T.: SHarq nashriyot-matbaa konserni, 2000. - 320-b.

# GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING YECHIMLARI

***Hasanboyeva Ruxshonabonu Umidjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi
**Ilmiy rahbar:** ***B.A.Tillayev***
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamda siz globallashuvning salbiy va ijobiy ta'sirlari haqida, milliy o'zlikning yo'qolishiga yoki zaiflashishiga olib kelishi mumkinligi shuningdek, xalqning madaniy va ijtimoiy identitetiga tahdid solish,milliy o'zlikni anglashning dolzarb masalalari, bugungi kunda xalqaro siyosat va jamiyatshunoslikda keng muhokamalarga sabab bo'layotgani haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, milliy o'zlik, madaniyat, identitet, til,an'analar ,jamiyat, yechimlar.

**Annotation:** In this article,you will find all the information about the negative and positive effects of globalization, how it can lead to the loss or weakening of national identity, the pressing issues of national self-awareness, and how these topics are causing widespread discussions in modern international politics and social sciences.

**Keywords:** globalization,national identity, culture, identity, language, traditions, societal solutions.

**Аннотатция:** В этой статье вы получите всю информацию о негативных и позитивных последствиях глобализации, о том, как она может привести к утрате или ослаблению национальной самобытности, об актуальных проблемах национального

самосознания, и о том, как эти темы вызывают широкие дискуссии в современной международной политике и обществознании.

**Ключевые слова:** глобализация национальная, идентичность, культура, идентичность, язык, традиции, общественные решения.

Globallashuv davri — bu dunyo bo'ylab iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarning tez sur'atlarda o'zaro ta'sirini kuchaytiradigan davr. Ushbu jarayon, bir tomondan, xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlasa, boshqa tomondan, milliy o'zlikni, madaniyatni va an'analarni yo'qotish xavfini tug'diradi. Globallashuv madaniy chegaralarni yo'qotib, butun dunyoda yagona madaniy makon shakllanishiga olib kelmoqda. Milliy o'zlik — bu xalqning tarixiy xotirasi, tili, dini, urf-odatlari, madaniyati va ma'naviy qadriyatlarining yaxlit ifodasidir. Milliy o'zlikni anglash esa shaxsning o'z millatiga mansubligini, tarixini, tilini va madaniyatini chuqur his etishidan iborat. Milliy o'zlikni anglash orqali inson o'z xalqiga, ona yurtiga bo'lgan muhabbatini kuchaytiradi, millat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishni o'rganadi. Shu bois, milliy o'zlikni anglash bugungi kunda dolzarb masala sifatida ko'rilmoqda. Ana shunday dolzarb masalalardan biri,madaniy tahdid. Global madaniyatning ta'siri mahalliy an'analarni zaiflashtirishi mumkin. Yosh avlod global madaniyatga ko'proq qiziqish bildirsa-da, bu mahalliy qadriyatlarni unutishga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, til masalasi. Ingliz tilining global dominatsiyasi mahalliy tillarning ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mahalliy tillarni bilish zarurati ularning unutilishiga sabab bo'lmoqda. Uchinchidan, ijtimoiy taraqqiyot. Globallashuv ijtimoiy taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, lekin bu jarayon mahalliy an'analar va qadriyatlarni e'tiborsiz qoldirib ketishi mumkin. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari o'rtasidagi muvozanatni

ta'minlash zarurati alohida ahamiyatga ega. Boshqa davlatlar, masalan, Yaponiya, Koreya, va Germaniya kabi mamlakatlar globallashuv jarayonida o'z milliy qadriyatlarini qanday saqlab qolganini va rivojlantirganini o'rganish, O'zbekistonga o'zining mustahkam milliy o'zligini saqlashda yordam beradi. Xususan, Yaponiyada o'z madaniyatini, qadriyatlarini globallashuvga moslashtirishga muvaffaq bo'lishgan. O'zbekistonga ham shunga o'xshash strategiyalarni joriy etish mumkin, masalan, o'z madaniy merosini global miqyosda targ'ib qilish, milliy qadriyatlarni yoshlar orasida o'rgatish va ularga jahon madaniyatini yuksak darajada o'zlashtirishga yordam berish. Shu bilan birga, O'zbekistonning o'ziga xos milliy madaniyatini va qadriyatlarini saqlashning eng muhim yo'llaridan biri — bu ta'lim tizimini yaxshilash, yoshlarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish va ularni jahon miqyosida o'z qadriyatlariga hurmat bilan qarashga yo'naltirishdir.[1]

Globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borayotgan hozirgi davrda milliy o'zlikni asrab qolish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Dunyo xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarning kuchayishi bir tomondan taraqqiyotga xizmat qilsa-da, boshqa tomondan milliy qadriyatlar va an'analarimizning zaiflashishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar orasida global madaniyatning ta'siri, xorijiy tillarning ustunligi va ommaviy axborot vositalarining chet el namunalariga yo'naltirilgani milliy o'zlikning yo'qolish xavfini kuchaytiradi. Shu bois, ta'lim tizimi, madaniyat sohasi hamda ommaviy axborot vositalari o'zbek milliy identitetini mustahkamlashda asosiy o'rin tutadi. Milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish uchun yoshlarning ona tilini chuqur o'rganishga, milliy qadriyatlarni qadrlashga va o'z tarixiga hurmat bilan qarashga o'rgatish zarur. Globallashuv masalalari ko'plab olimlar tomonidan

o'rganilgan. Xususan, Z. Bauman, S. Huntington va mahalliy olimlardan I. Karimov, Sh. Mirziyoyevlar milliy o'zlikni saqlashning ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar. Birinchi prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Globallashuv shiddat bilan kechayotgan bir davrda milliy o'zlikni asrash – xalqning ma'naviy mustaqilligi garovidir".[2]

Bundan tashqari Shavkat Mirziyoyev ham globallashuv haqida shunday nutq so'zlagan edi: "Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda".[3]

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolish uchun har bir fuqaro o'z madaniy ildizlarini anglash va ularga hurmat bilan qarashni o'z hayotining ajralmas qismiga aylantirishi kerak. Ta'lim, madaniyat va axborot sohalarida milliy qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirish orqali biz globallashuvning ijobiy tomonlarini o'zlashtirgan holda, milliy o'zligimizni yo'qotmasdan rivojlanishimiz mumkin. Zero, milliy o'zlikni asrash – bu nafaqat madaniy merosni saqlash, balki mustaqil tafakkur, g'urur va birlik timsoli.

**Yechimlar:** Milliy o'zlikni saqlab qolish va mustahkamlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Birinchidan, ta'lim tizimi milliy ruhni shakllantirishda eng muhim omildir. Maktab va oliy o'quv yurtlarida milliy qadriyatlar, tarixiy meros, buyuk ajdodlar hayoti haqida chuqur bilim berilishi zarur. Dars jarayonlarida faqat bilim emas, balki milliy g'urur, iftixor va ma'naviy tarbiya ham berilishi lozim. Masalan, "Milliy o'zlik va qadriyatlar" fanini joriy etish yoshlarning millatga sadoqatini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, axborot va texnologiya sohasida milliy kontent yaratish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek madaniyati, tarixi, tili va urf-odatlari haqida qiziqarli videolar, bloglar, o'yinlar tayyorlash yoshlarning milliy o'zligiga bo'lgan e'tiborini oshiradi. Internet makonida milliy qadriyatlarimizni himoya qiladigan onlayn platformalarni rivojlantirish ham zarur.

Uchinchidan, madaniyat va san'at yo'nalishida milliy brendlarni yaratish va targ'ib qilish bugungi kun talabidir. O'zbek kiyimlari, pazandachiligi, musiqa va raqs san'atini xalqaro miqyosda tanitish orqali biz o'z madaniyatimizni dunyoga ko'rsatishimiz mumkin. Har bir kino, qo'shiq yoki asarda milliy ruh sezilib tursa, yoshlar o'z madaniyatidan faxrlanadi.

To'rtinchidan, oila va mahalla muhitida milliy tarbiyani kuchaytirish zarur. Ota-onalar bolalarga ona tilini, qadriyatlarni, urf-odatlarni o'rgatishi, ularning o'z tarixidan faxrlanadigan qilib tarbiyalash kerak. Har bir oilada milliy an'analarni saqlash – millatning kelajagini saqlash demakdir.

Beshinchidan, davlat siyosati darajasida milliy g'oya va ma'naviyatni mustahkamlovchi dasturlarni amalga oshirish lozim. Til siyosatini kuchaytirish, yoshlar orasida milliy qadriyatlarni ilgari suruvchi tanlov va grantlarni qo'llab-quvvatlash-bu boradagi samarali chora-tadbirlardir.

**Xulosa:** Globallashuv davrida milliy o'zlikni anglash muhim masala hisoblanadi. Mahalliy an'analar va identitetlarni saqlab qolish uchun ta'lim tizimini yangilash, madaniy merosni saqlash va global-milliy muvozanatni ta'minlash lozim. Bunda har bir shaxsning o'zligini anglashga bo'lgan intilishi va jamiyatning birligi juda muhimdir. Milliy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish har birimizning

burchimizdir. Faqat shunday boʻlgandagina, biz zamonaviy dunyoda oʻzimizni yoʻqotmasdan, oʻzligimizni saqlab qolishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**


1. Tillayev B.A. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, [2025-5]. 601-bet.
2. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: "Maʼnaviyat" nashriyoti, 2008. — 45-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. — Toshkent: Oʻzbekiston, 2021.


# "KARBONAT ANGIDRID YUTIB, KISLOROD AJRATUVCHI BIOTIZIM"


***Ismanhojayeva Mushtariy Ahmadjon qizi***
Namangan davlat pedagogika insituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
KIM-BU-23 3-kurs talabasi
**Tel:** +998942747177
**E-mail:** aliyevadavlatyor@gmail.com



**Annotatsiya:** Ushbu maqola maxsus xona ichidagi oʻsimliklar yordamida havoni tozalash va kislorod ajratish jarayonini oʻrganishga bagʻishlangan. Tadqiqotda maxsus xona tashkil qilinib, unga turli oʻsimliklar ekilgan va tashqi muhitdan iflos havo ventilatsiya orqali kiritilgan. Oʻsimliklar fotosintez jarayonida karbonat angidridni yutib, kislorod ajratadi va hosil boʻlgan toza havoni xona ichidan tashqariga chiqaradi. Shu orqali xona ichidagi havo filtr vazifasini bajaradi va tashqi muhit havosini sogʻlomlashtirishga yordam beradi. Maqolada

o'simliklarning biofiltr sifatidagi roli, havoning sifatiga ta'siri va fotosintez jarayonining ekologik ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** karbonat angidrid ($CO_2$), kislorod ($O_2$), fotosintez, o'simliklar, biotizim, havo tozalash, ventilyatsiya, biofiltr, atrof-muhitning sog'lomlanishi.

**Аннотация**: Данная статья посвящена изучению процесса очистки воздуха и выделения кислорода с помощью растений в специально организованной комнате. В исследовании была создана специальная комната, в которую высажены различные растения, а загрязнённый воздух снаружи поступал через систему вентиляции. Растения в процессе фотосинтеза поглощают углекислый газ ($CO_2$) и выделяют кислород ($O_2$), а образующийся чистый воздух выводится из комнаты наружу. Таким образом, растения выполняют функцию воздушного фильтра внутри помещения и способствуют оздоровлению воздуха в окружающей среде. В статье проанализирована роль растений как биофильтра, их влияние на качество воздуха и экологическая значимость процесса фотосинтеза.

**Ключевые слова**: углекислый газ ($CO_2$), кислород ($O_2$), фотосинтез, растения, биосистема, очистка воздуха, вентиляция, биофильтр, оздоровление окружающей среды.

**Annotation**: This article is devoted to the study of air purification and oxygen production using plants in a specially organized room. In the study, a special room was set up, in which various plants were planted, and polluted air from the outside was supplied through a ventilation system. During photosynthesis, plants absorb carbon dioxide ($CO_2$) and release oxygen ($O_2$), and the resulting clean air is expelled from the room. Thus, the plants function as an air filter inside the room and contribute to improving the air quality in the surrounding environment. The article

analyzes the role of plants as a biofilter, their impact on air quality, and the ecological significance of the photosynthesis process.

Keywords: carbon dioxide ($CO_2$), oxygen ($O_2$), photosynthesis, plants, biotystem, air purification, ventilation, biofilter, environmental health.

**Kirish.** Hozirgi kunda atrof-muhitning ifloslanishi, ayniqsa ichki havoning sifati, inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bunga binoan, tabiiy va biologik usullar yordamida havoni tozalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'simliklarning fotosintez jarayonida karbonat angidridni yutib, kislorod ajratishi va shu orqali havoni tozalashdagi roli keng o'rganilgan. NASA tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ayrim o'simliklar nafaqat karbonat angidridni yutib, kislorod ajratadi, balki formaldegid, benzen va trixloroetilen kabi zararli moddalarni ham bartaraf etadi [1]. Bu jarayon o'simliklarning stomata orqali havo almashinuvi va ildiz tizimi orqali amalga oshadi [2].

O'simliklarning havoni tozalashdagi samaradorligi ularning turlariga, o'lchamiga va yashash sharoitlariga bog'liq. Misol uchun, NASA tadqiqotlariga ko'ra, sanseveriya (Sansevieria trifasciata) kabi o'simliklar tungi vaqtda ham fotosintez jarayonini davom ettirib, kislorod ajratadi, bu esa ularni uy ichida havo tozalash uchun ideal qiladi [3]. Boshqa bir misol sifatida, Binghamton universiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy o'simliklar, ichki yorug'lik yordamida fotosintez jarayonini amalga oshirib, karbonat angidrid miqdorini 90% ga kamaytirishga erishgan [4]. Bu natija tabiiy o'simliklarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lib, sun'iy tizimlarning samaradorligini ko'rsatadi.

O‘simliklarning havoni tozalashdagi mexanizmi fotosintez va transpiration jarayonlariga asoslanadi. Fotosintezda o‘simliklar karbonat angidrid va suvni qabul qilib, yorug‘lik energiyasi yordamida kislorod va glukozani ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, transpiration jarayonida o‘simliklar suv bug‘ini chiqarib, atrof-muhitning namligini tartibga soladi va havoning sifatini yaxshilaydi [5]. Bu jarayonlar o‘simliklarning stomata orqali amalga oshadi, bu esa ularning havoni filtrlashdagi asosiy mexanizmi hisoblanadi [6].

O‘simliklarning havoni tozalashdagi samaradorligini oshirish uchun ularning yashash sharoitlarini optimallashtirish muhimdir. Bu o‘simliklarga yetarli miqdorda yorug‘lik, suv va ozuqa moddalarini taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, o‘simliklarning turlarini tanlashda ularning havoni tozalashdagi samaradorligini hisobga olish zarur. Misol uchun, sanseveriya va aloe vera kabi o‘simliklar uy ichida havoni tozalash uchun juda mos keladi [7].

Bundan tashqari, o‘simliklar nafaqat havoni tozalash, balki inson salomatligi va ruhiy holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘simliklar atrof-muhitni estetik jihatdan yaxshilaydi, stressni kamaytiradi va kayfiyatni ko‘taradi [8]. Bu holat "biophilia" deb ataladi, ya’ni insonlarning tabiiy muhitga bo‘lgan tabiiy muhabbati. O‘simliklar bilan atrof-muhitni bezash, insonlarning farovonligini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, o‘simliklarning havoni tozalashdagi roli ekologik tizimlarning barqarorligini ta’minlashda ham muhimdir. O‘simliklar karbonat angidridni yutib, kislorod ajratish orqali atmosferadagi gazlar balansini saqlashga yordam beradi. Bu jarayon global iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega [9].

Xulosa qilib aytganda, o'simliklarning havoni tozalashdagi roli nafaqat ularning fotosintez va transpiration jarayonlariga, balki ularning yashash sharoitlariga, turlariga va insonlar bilan o'zaro aloqalariga ham bog'liqdir. Ularni to'g'ri tanlash va parvarishlash orqali ichki havoni tozalash va inson salomatligini yaxshilash mumkin. Shu sababli, o'simliklarni nafaqat dekorativ element sifatida, balki ekologik va salomatlikni saqlash vositasi sifatida ham qabul qilish zarur.

O'simliklarning havoni tozalashdagi samaradorligini oshirish uchun ularni optimal sharoitlarda parvarishlash muhimdir. Bu yorug'lik, suv, ozuqa moddalarini yetarli miqdorda taqdim etish va o'simliklarning turiga qarab joylashtirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, sanseveriya, aloe vera, pothos va spider plant kabi o'simliklar uyni yoki ofisni tozalashda juda samarali ekanligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [10]. Shu bilan birga, o'simliklar bir-birini to'ldiruvchi tarzda tanlanganida, ularning havoni tozalash va kislorod ajratish qobiliyati yanada oshadi.

Yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'simliklarning biofiltr sifatidagi roli sun'iy tizimlar bilan birlashtirilganda ichki havoning sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Masalan, ba'zi zamonaviy biotizimlar o'simliklar bilan birgalikda sensorlar va ventilyatsiya tizimlarini qo'llab, havo tarkibini doimiy nazorat qiladi va iflos havoni chiqarib yuboradi. Bu tizimlar havo sifatini monitoring qilish, kislorod va karbonat angidrid darajasini optimallashtirish imkonini beradi [11]. Shu bilan birga, bunday tizimlar ekologik jihatdan ham foydali bo'lib, ularni shahar muhitida va sanoat binolarida qo'llash orqali havoning ifloslanishini kamaytirish mumkin.

O'simliklar orqali havoni tozalash insoniyat uchun nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy foyda ham keltiradi. Havoning

sifatini oshirish natijasida kasalliklar xavfi kamayadi, ish samaradorligi ortadi va insonlar orasida sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish mumkin. Shu bilan birga, o'simliklar atrof-muhitga biologik barqarorlikni ta'minlash orqali iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. O'simliklar karbonat angidridni yutib, kislorod ajratadi va shu orqali atmosferadagi gazlar balansini saqlashga yordam beradi [12].

Shuni ta'kidlash lozimki, o'simliklarning havoni tozalashdagi samaradorligi faqat ularni joylashtirish bilan cheklanmaydi. Ularning turini tanlash, joylashuvini optimallashtirish, parvarish va suv bilan ta'minlash kabi omillar katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar o'simliklarning mikrobiologik tarkibi, ularning ildiz tizimi va tuproq tarkibi havoni tozalash jarayoniga bevosita ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatmoqda [13].

Kelajakda o'simliklar va sun'iy tizimlarni birlashtirgan hibrid biotizimlar havoni tozalash, kislorod ajratish va atrof-muhitni sog'lomlashtirishda yanada samarali bo'lishi kutilmoqda. Bunday tizimlar uy, ofis va sanoat binolarida qo'llanilganda inson salomatligi va ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim vosita bo'ladi. Shu bilan birga, o'simliklarning estetik va psixologik foydalari insonlarning ruhiy farovonligini oshirishda qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

Umuman olganda, o'simliklar bilan jihozlangan maxsus xonalar va biotizimlar insoniyat uchun tabiiy havoni tozalash vositasi bo'lib, ularni shahar sharoitida, uy va ish joylarida keng qo'llash orqali ekologik muvozanatni saqlash va inson salomatligini yaxshilash mumkin. Shu sababli, ilmiy va amaliy tadqiqotlarda o'simliklarning biofiltr sifatidagi roli va ularni havo tozalash tizimlariga integratsiyalashgan holda qo'llash istiqbollari yanada chuqur o'rganilishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Wolverton, B. C., et al. (1989). Interior Landscape Plants for Indoor Air Pollution Abatement. NASA.
2. Jones, M. (1998). Plant Stomata: Structure and Function. Cambridge University Press.
3. Wolverton, B. C., et al. (1989). Interior Landscape Plants for Indoor Air Pollution Abatement. NASA.
4. Binghamton University. (2024). Researchers Develop Artificial Plants That Purify Indoor Air, Generate Electricity.
5. Li, D., et al. (2024). Study on the Ability of Indoor Plants to Absorb and Purify Indoor Air. National Institutes of Health.
6. Li, J., et al. (2024). Removal of Formaldehyde from Indoor Air by Potted Sansevieria Trifasciata Prain Plants. National Institutes of Health.
7. NASA. (2025). NASA Compiles List of Best Plants to Clean Indoor Air.
8. Ravishankar, R. (2018). Benefits of Indoor Houseplant for Toxic Air Removal in Living Environments. University of North Dakota.
9. Stanford University. (2021). Improved Air Quality Could Enhance Natural Carbon Sequestration by Plants.
10. Wolverton, B. C., et al. (1989). Interior Landscape Plants for Indoor Air Pollution Abatement. NASA.
11. Jones, M. (1998). Plant Stomata: Structure and Function. Cambridge University Press.
12. Wolverton, B. C., et al. (1989). Interior Landscape Plants for Indoor Air Pollution Abatement. NASA.

# UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA TALABA YOSHLARDA HUQUQBUZARLIK VA ZO‘RAVONLIKKA QARSHI IMMUNITETNI OSHIRISH MEHAZIMLARI

***Karimqulova Lobar O‘tkir qizi***
Guliston davlat universiteti talabasi
**E-mail:** ravshanovmirzabek210@gmail.com

***O‘ralova Muborak G‘ulom qizi***
Guliston davlat universiteti talabasi
**E-mail:** oralovamuborak97@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimida huquqbuzarlikka qarshi immunitetni oshirishda oilaning roli, ahamiyati va uning shaxs shakillanishidagi ahamiyati borasida fikr mulohazalar ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** oila, ilm, tarbiya, hayot, ijtimoy munosabatlar, shaxs, imunutet, huquqbuzarlik, huquqiy ong, internet, qaramlik, deviand xulq.

**Аннотация:** В этой статье дается обратная связь о роли семьи, ее значении и значении для формирования личности в повышении иммунитета к правонарушениям в системе непрерывного образования.

**Ключевые слова:** семья, наука, воспитание, жизнь, социальные отношения, личность, иммунитет, правонарушение, правосознание, интернет, зависимость, девиантное поведение.

**Abstract:** This article provides feedback on the role of the family, its significance, and the importance of personality formation in increasing immunity to offenses in the continuous education system.

**Keywords:** family, science, education, life, social relations, personality, immunity, offense, legal awareness, internet, addiction, deviant behavior.

Mamlakatimiz xavsizligini bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuchi bo„lmish o'sib, unib kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama mafkuraviy qurollantirishni zamonnaning o'zi talab qilmoqda. Agar bu tushunchani qurollantirish emas, balki qurollanmog'i kerak desak, bevosita ularni o'z holiga tashlab qo'ygan va ko'ziga "yaltirab" ko'ringan narsani o'zlashtirishga sharoit yaratgan bo'lamiz. Shunday ekan, yoshlarimizda turli xil yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni yanada rivojlantirish ularni turli xil g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish orqali taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog'lom, barkamol avlodlarni tarbiyalab voyaga yetkazish lozim. Shundagina biz istiqbolda ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalashga erishamiz. Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Zero, ma'naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar. Mamlakatimiz xavsizligini bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuchi bo'lmish o'sib, unib kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama mafkuraviy qurollantirishni zamonnaning o'zi talab qilmoqda.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga nisbatan turli ko'rinishdagi zo'ravonlik holatlari ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilik muhokamasida bo'lmoqda. Ba'zan videoga olingan voqealar – tarbiyachi yoki tarbiyachi yordamchisining bolani urishi, haqoratlashi, ruhiy bosim o'tkazishi kabi holatlar o'z vaqtida huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan

o'rganilmoqda. Biroq bu jamoatchilik ishonchini tiklash uchun yetarlimi?

2023–2024-yillarda Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo va boshqa hududlarda sodir bo'lgan qator holatlar ta'lim tizimidagi tizimli muammolarni biroz bo'lsa-da ochiqlashtirdi. Masalan, 2024-yil boshlarida Yangiyo'l tumanidagi bog'chalardan birida ro'y bergan bolaga nisbatan zo'ravonlik videosi keng tarqaldi. Tarbiyachi ishdan bo'shatildi, lekin aybdor faqat tarbiyachimidi? Katta bir tizim nega doim nazoratsiz qolmoqda?

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, zo'ravonlikning asosiy sabablaridan biri – tarbiyachilarning malakasi pastligi va yosh bolalar psixologiyasini tushunmasligidir. Afsuski, kadrlar yetishmasligi, tanish-bilishchilik kabi illatlar oqibatida maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan xodimlar ham ishlab kelayotgani bor gap. Bundan tashqari, ba'zi bog'chalarda bolalar sonining me'yordan ortiqligi, ish soati uzoq va maoshning yetarli emasligi ham sabab bo'lishi mumkin. Bolalar bilan ishlash murakkab, mashaqqatli va sabr-qanoat hamda mehr talab qiladi. Bunday holatlarda tarbiyachilar charchoq, ruhiy tushkunlik va hatto agressiya bilan ishlashga majbur bo'ladi. Shuningdek, muassasalardagi nazorat yetishmasligi ham zo'ravonlik holatlarining keng tarqalishiga zamin yaratmoqda. Ota-onalar farzandini bog'chaga ishonch bilan topshiradi, lekin u yerda nima bo'layotganidan xabardor emas. Videokuzatuv tizimi hamma muassasalarda ham bor deb bo'lmaydi, hisobotlar esa qog'ozda qolmoqda. Agar bola shikoyat qilsa, ishonmaslik yoki e'tiborsizlik bilan qarshilanmoqda.

Xalqaro amaliyotga nazar tashlaydigan bo'lsak, rivojlangan davlatlar bunday muammolarni oldindan bartaraf etish uchun qat'iy

tizimlar yaratgan. Masalan, Finlandiyada har bir bog'chada maxsus litsenziyaga ega, psixologiya kurslaridan o'tgan, pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lgan tarbiyachilar ishlaydi. Bolalarning kunlik faoliyati yuzasidan ota-onalarga elektron hisobot yuboriladi. Yaponiyada "nol toqat" siyosati joriy qilingan. Agar tarbiyachi bolaga nisbatan zo'ravonlik qilsa, u umrbod ta'lim sohasidan chetlatiladi. Shvetsiyada har besh bolaga bitta pedagog to'g'ri keladi va muntazam davlat inspeksiyalari kuzatuv olib boradi. Menimcha, bizda ham shunday tizimni yaratish vaqti keldi. Buning uchun avvalo kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish zarur. Ya'ni, tarbiyachilar maxsus malaka kurslaridan o'tishi, bolalar psixologiyasi bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi shart. Ikkinchidan, videokuzatuv tizimini barcha bog'chalarda joriy etish va ota-onalar uchun kundalik axborot platformalarini yo'lga qo'yish lozim. Uchinchi muhim yo'nalish – huquqbuzarlik uchun jazoni kuchaytirish: zo'ravonlik qilgan tarbiyachilar faqat ishdan bo'shatilib qolmay, jinoiy javobgarlikka ham tortilishi kerak. To'rtinchidan, jamoatchilik va ota-onalarning faolligini oshirish, fidoyi bola himoyachilari qatlamini shakllantirish talab etiladi. Chunki maktabgacha ta'lim yo'nalishi bolaning dunyoqarashi, ishonch va ruhiy barqarorligi shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. U yerda bola zo'ravonlik emas, mehr va e'tibor topishi shart. Agar buni ta'minlay olmasak, ertangi jamiyatda ichki noqis, ruhiy jarohat bilan o'sgan avlod shakllanishi mumkin.

Muammoga yondashuv faqat jazo orqali emas, balki insonparvarlik, bilim va nazorat orqali bo'lishi kerak. Davlat, jamiyat va har bir ota-ona bolaning haqiqiy himoyachisiga aylanishi lozim. Shundagina maktabgacha ta'lim tizimimiz haqiqiy ma'noda sog'lom va xavfsiz muhitga aylanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining shakllanishi o'z-o'zidan kadrlar tayyorlash jarayonining yangicha mazmun kasb etishini ta'minlaydi. Barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim tizimi (shu jumladan, tarbiya) jarayonining yangi mazmuni mazkur jarayonga ilm fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan g'oya, kashfiyot va yutuqlarning tatbiq etilishi. Ushbu jarayonda demokratik, insonparvarlik tamoyillarining ustuvor o'rin tutishi, ta'lim va tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish (ya'ni, ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy subyektlaridan biri bo'lgan o'quvchi – ta'lim oluvchi shaxsning hurmat qilinishi[3]. Uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmati va huquqlari daxlsizligining ta'minlanishi), ta'lim oluvchi (o'quvchi)ning zamonaviy pedagogik jarayondagi faol ishtirokini yuzaga keltirish uchun muayyan shart sharoitlarni yaratish, ularning xohish-istaklari bilan o'rtoqlashish, shaxsiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, ularda mustaqil fikr yuritish layoqatini tarbiyalash, bu borada muayyan ko'nikma hosil qilish, hosil qilingan ko'nikmaning faoliyat malakasiga aylanishga rag'bat bildirish, o'quv (manbalari va ko'rsatmali vositalar) mazmunida yuqorida qayd etilgan g'oyalarning o'rin olishiga erishish, ta'lim oluvchilarda bilim olishga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish, rag'batni yuzaga keltirish, shuningdek, ongli munosabatni qaror toptirish va hokazolar asosida yaratiladi.

Biz uzluksiz ta'lim tizimida talaba yoshlarda huquqbuzarlik va zo'ravonlikka qarshi immunitetni oshirish mehazimlarini aniqlash uchun "zo'rovonlikka moillikni aniqlash" metodikasini ishlab chiqib, aholidan so'rovnoma o'tkazdik. Natijalar esa quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.




Yangiyer shahri aholidan "zo'rovonlikka moillikni aniqlash" so'rovnoma o'tkazilganda quyidagicha natija olindi:

Ijobiy javoblar - 85 %,

salbiy javoblar – 15 %

Bundan ko'rinob turibdiki aholi orasida zo'ravonlik darajasi past va so'rovnoada qatnashgan 85 % aholi zoravonlik holatlariga uchramagan. So'rovnoma ishtirokchilaring kopchlik qismida ijobiy korsatkichlar yuqoriligi ularda ruhiy stress holatlari kam uchraganligi namoyon bo'ldi.

Hulosa qilib shuni aytish kerakki, zo'ravonlikning asosiy sabablaridan biri – tarbiyachilarning malakasi pastligi va yosh bolalar psixologiyasini tushunmasligidir. Afsuski, kadrlar yetishmasligi, tanish-bilishchilik kabi illatlar oqibatida maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan xodimlar ham ishlab kelayotgani bor gap. Bundan tashqari, ba'zi bog'chalarda bolalar sonining me'yordan

ortiqligi, ish soati uzoq va maoshning yetarli emasligi ham sabab bo'lishi mumkin. Bolalar bilan ishlash murakkab, mashaqqatli va sabr-qanoat hamda mehr talab qiladi. Bunday holatlarda tarbiyachilar charchoq, ruhiy tushkunlik va hatto agressiya bilan ishlashga majbur bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Ташметов, Т. Х. (2020). Миллий ғояни ёшлар онгига сингдиришнинг замонавий усуллари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 326-331.

2. Tashmetov, T. K. (2020). THE IMPORTANCE OF THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN RAISING THE SPIRITUALITY OF YOUNG PEOPLE. Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal, 6(11), 25-27.

3. Tashmetov, T. X. (2020). PROSPECTS FOR RELYING ON THE BASIS OF THE NATIONAL IDEA IN PROTECTING YOUNG PEOPLE FROM HARD AND HARMFUL IDEAS. International Journal For Innovative Engineering and Management Research, 9(11), 81-86.

4. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O„zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O„zbekiston. 2016.B-14.

# KIBERXUJUMLARDAN HIMOYALANISH USULLARI

***Dadaxonova Malikaxon Xayrullaxon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi talabasi
**Tel:** 993086139

**Ilmiy rahbar: B.A.Tillayev**
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan bir qatorda keng tarqalgan kiberxavfsizlik tahdidlari va ulardan himoyalanish usullari tahlil qilinadi. Maqolada kiberxujumlarning turlari, ularning jamiyat va shaxs xavfsizligiga ta'siri hamda ularni oldini olish bo'yicha samarali strategiyalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar**: kiberxavfsizlik, kiberxujum, himoyalanish, ma'lumotlar xavfsizligi, antivirus, shifrlash, parol siyosati.

**Аннотация:** В данной статье наряду с развитием современных информационных технологий анализируются распространенные угрозы кибербезопасности и способы защиты от них. В статье освещаются виды кибератак, их влияние на безопасность общества и личности, а также эффективные стратегии по их предотвращению.

**Ключевые слова:** кибербезопасность, кибератака, защита, безопасность данных, антивирус, шифрование, политика паролей.

**Abstract:** This article analyzes common cybersecurity threats and ways to protect against them alongside the development of modern information technologies. The article covers the types of cyberattacks, their impact on the security of society and the individual, and effective strategies for preventing them.

**Keywords:** cybersecurity, cyberattack, protection, data security, antivirus, encryption, password policy.

**Kirish.** Axborot xavfsizligi deganda, shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasida milliy manfaatlarini turli tahdidlardan himoyalanganlik holatini tushunish lozim. Axborot sohasidagi shaxs manfaatlariga, qonun bilan cheklanmagan, jismoniy, ma'naviy va aqliy faoliyatni rivojlantirishda shaxsiy xavfsizlikning ta'minlanganligi nazarda tutiladi. Axborot sohasidagi jamiyat manfaatlariga esa, shaxs qiziqishlarining qondirilishi, demokratik huquqiy davlat qurish, ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanganligi tushuniladi. Axborot sohasida davlat manfaatlari inson va fuqaroni axborot olish va undan foydalanish, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni amalga oshirish maqsadida rivojlangan milliy axborot infrastrukturasini yaratish kabilar kiradi.

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Internet tarmog'i orqali ma'lumot almashish, onlayn to'lovlar, elektron hukumat tizimlari, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi yo'nalishlarda raqamli yechimlar keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, raqamli dunyoning salbiy oqibatlaridan biri — kiberxavfsizlik tahdidlari va kiberxujumlar sonining ortib borishidir.[1]

Bugungi kunda kiberjinoyatchilar nafaqat yirik kompaniyalar, balki jismoniy shaxslarning ham shaxsiy ma'lumotlariga tajovuz qilmoqda. Shu sababli, kiberxavfsizlik masalalari milliy xavfsizlik darajasidagi muhim omilga aylangan.

Kiberxavfsizlik — bu kompyuter tizimlari, tarmoqlar, dasturlar va ma'lumotlarni noqonuniy kirish, o'g'irlash yoki buzilishdan himoya

qilish jarayonidir. Axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlash kiberxavfsizlikning asosiy tamoyillaridir.

Raqamli infratuzilma bilan bog'liq har qanday buzilish iqtisodiy zarar, shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi yoki davlat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Shu sababli, kiberxavfsizlik bugungi global axborot jamiyatida muhim o'rin tutadi.

Kiberxujumlarning 6 ta asosiy turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Fishing (soxta elektron pochta xabarlari) – foydalanuvchini aldash orqali shaxsiy ma'lumotlarni qo'lga kiritish usuli.
2. Malware (zararli dasturlar) – viruslar, troyanlar, shifrlovchi dasturlar (ransomware) orqali tizimga zarar yetkazish.
3. DDoS hujumlar – server yoki saytni ortiqcha so'rovlar bilan band qilib, uning ishlashini to'xtatish.
4. Man-in-the-Middle (MITM) – ikki tomon o'rtasidagi aloqa jarayoniga noqonuniy tarzda aralashish.
5. SQL Injection – ma'lumotlar bazasiga zararli kod kiritish orqali ma'lumotlarni o'g'irlash yoki o'zgartirish.
6. Brute Force – parollarni avtomatik ravishda taxmin qilish orqali tizimga kirish.[2]

Kiberxujumlardan himoyalanish uchun quyida eng samarali usullarni keltirib o'tamiz.

Kuchli parol siyosatini qo'llash. Parollar kamida 8–12 belgidan iborat bo'lishi, harflar, raqamlar va maxsus belgilar kombinatsiyasidan tashkil topishi zarur. Har bir tizim yoki sayt uchun alohida parol ishlatish tavsiya etiladi.

Ikki bosqichli autentifikatsiya (2FA). Foydalanuvchi tizimga kirishda faqat parol emas, balki telefon raqami yoki e-pochta orqali

yuborilgan tasdiq kodini ham kiritadi. Bu usul kiberxavfsizlikni sezilarli darajada oshiradi.

Yana bir samarali usullardan biri fasturiy ta'minotni muntazam yangilash. Tizimdagi eskirgan dasturlar va operatsion tizimlar ko'pincha kiberjinoyatchilar uchun zaif nuqta bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun yangilanishlarni o'z vaqtida o'rnatish muhim. Bundan tashqari, antivirus va xavfsizlik devorlarini (firewall) qo'llash. Antivirus dasturlari zararli fayllarni aniqlab, tizimdan olib tashlaydi. Tarmoq darajasida esa firewall begona kirishlarni to'sadi.[4]

Ma'lumotlarni shifrlash (Encryption). Muhim ma'lumotlar shifrlab saqlanishi lozim. Bu holatda, agar ma'lumot o'g'irlangan taqdirda ham uni o'qish imkoni bo'lmaydi. Yoshlarda kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish faqat texnik masala emas, balki ijtimoiy masaladir. Har bir foydalanuvchi o'z shaxsiy ma'lumotlariga e'tiborli bo'lishi, shubhali havolalarga kirmasligi, noma'lum fayllarni yuklab olmasligi kerak.

Kiberxavfsizlik bugungi raqamli davrning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u shaxsiy, korporativ va milliy xavfsizlikni ta'minlaydi. Kiberxujumlardan himoyalanish texnik vositalar, yuridik mexanizmlar va foydalanuvchi madaniyatining uyg'unligini talab qiladi. Har bir foydalanuvchi o'z raqamli izini nazorat qilishi, axborot texnologiyalaridan ongli va ehtiyotkorlik bilan foydalanishi lozim. Faqat shu yo'l bilan raqamli xavfsiz jamiyatga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. "O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasi 2022–2025 yillar uchun". – Toshkent, 2022.

3. Cybersecurity Ventures Report, 2023.

4. Халимова Н. "Axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari." – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti jurnali, 2022.

## INKLYUZIV TA’LIMNING OILA VA JAMIYATNING TA’SIRI

***Muslima Jaxongirovna***
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola inklyuziv ta’lim va uning jamiyatdagi ahamiyatini, shuningdek oila va jamiyatning ta’lim tizimiga qo‘shgan hissasini tahlil qiladi. Unda ota-onalar va jamoatning inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlashi, pedagogik kadrlarni tayyorlash, maktablarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish hamda nogiron bolalar uchun ijtimoiy muhitni yaxshilash zarurligi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Inklyuziv ta’lim, Jamiyat, Oila, Ta’lim tizimi, Nogiron bolalar, Ota-onalar roli, Ijtimoiy adolat, Farzandlar rivoji, Maxsus ehtiyojlar, Inkluziv ta’lim konsepsiyasi.

Hozirgi kunda inklyuziv ta’lim va inklyuziv jamiyat tushunchalari aholida keng tarqalmoqda. Shunga qaramay, barcha alohida ehtiyojli va nogiron bolalar ham to‘liq inklyuziv ta’limga jalb etilmayapti. Sifatli ta’lim ularning ijtimoiylashuvi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi hamda kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun asosiy shartlardan biridir. Inklyuziv ta’lim turli ta’limiy ehtiyojlarni hisobga oladigan moslashuvchan yondashuvni talab qiladi. 2020-yil 23 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunining 20-moddasida inklyuziv ta’limning qonuniy ta’rifi berildi: “Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilarga teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan”. Shu bilan birga, 2020-2025

yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan Konsepsiya va uning amalga oshirilishi bo'yicha yo'l xaritasi tasdiqlanib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar belgilandi.[2]

Yangi O'zbekistonda maxsus ta'lim tizimida innovatsion yo'nalish-inklyuziv ta'lim rivojlantirilmoqda. Ushbu yo'nalish bo'yicha uzoq muddatli Milliy strategiya ishlab chiqilgan bo'lib, u inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish va har bir bolaga, uning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy holati hamda jismoniy va ruhiy rivojlanishidan qat'iy nazar, ta'lim olishdagi alohida ehtiyojlariga mos sifatli ta'lim berish uchun teng imkoniyatlarni yaratadi.

Inklyuziv ta'lim jamiyatda teng imkoniyatlarni ta'minlash va har bir bolaning o'z imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishiga yordam beradi. Shu bilan birga, bunday tizimning samaradorligi faqat maktab va ta'lim muassasalari bilan chegaralanmaydi; ota-onalar, oila va jamoatchilikning faol ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar-bolaning asosiy ta'lim beruvchilari bo'lib, ular uyda va ta'lim muassasasidagi muhitda farzandlarning muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning faol qo'llab-quvvatlashi bolalarning ta'limdagi muvaffaqiyati, jamiyatda o'zlarini qulay his qilishi va imkoniyatlarini ishonch bilan amalga oshirishiga yordam beradi.[4]

Oila ichidagi ijobiy muhit bolalarga psixologik barqarorlik yaratadi, ota-onalarning farzandlarini tushunishi va doimiy muloqoti ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Bu esa ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'limda ota-onalarning ishtiroki bolalarga nafaqat akademik, balki ijtimoiy va emotsional jihatdan ham yordam beradi.[7]

Shuningdek, inklyuziyaning ahamiyati tarixiy qarashlar va madaniy meroslarda ham oʻz aksini topgan. Jamiyat a'zolari oʻrtasidagi ijobiy munosabatlar barqaror boʻlsa, jamiyat tez rivojlanadi va tashqi ta'sirlarga mustahkam pozitsiyada javob bera oladi. Jamiyatda turli nogironlikka ega shaxslarning mavjudligi tabiiy boʻlib, ularni qoʻllab-quvvatlash ijtimoiy institutlar va davlat tuzilmalarining insonparvarlik va shaxsga yoʻnaltirilgan tamoyillariga bogʻliqdir.

Ta'lim muassasalari, oila, mahalla, tibbiy boʻlimlar, nodavlat tashkilotlar, oʻrta maxsus va oliy ta'lim tizimi tashkilotlari oʻrtasida samarali hamkorlik oʻrnatilganda, nogiron bolalarning sifatli ta'limga qamrab olinishiga erta va samarali erishish mumkin. Bugungi kunda har bir fuqaroning ta'lim olish huquqini ularning ehtiyojlari va mehnat bozorining talablari asosida ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Inklyuziv ta'lim oila, jamiyat va davlat tashkilotlari oʻrtasidagi oʻzaro manfaatli hamkorlikka tayangan holda amalga oshiriladi. Oilada tugʻilgan nogiron farzandning jamiyatga erta integratsiyasida mahalla a'zolarining qoʻllab-quvvatlovi muhim ahamiyatga ega boʻlib, bu ta'sir davlat tashkilotlari, xususan tibbiy va ta'lim tizimi harakatlarisiz toʻliq amalga oshmaydi. Shu zanjirning mustahkamligi shaxslararo munosabatlarning iliqligi va barqarorligiga bogʻliq.

Jamiyatning inklyuziv ta'limga munosabati ham katta ahamiyatga ega. Agar jamiyat inklyuziv ta'limni qoʻllab-quvvatlasa, bu nafaqat ta'lim muassasalarining rivojlanishiga, balki umumiy ijtimoiy madaniyatning oʻsishiga ham yordam beradi. Jamiyatning e'tibori barcha bolalarga teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va turli qatlamlar oʻrtasidagi oʻzaro hurmatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jamoat tashkilotlari, hukumat va ta'lim

muassasalari inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida turli tashabbuslarni amalga oshirmoqdalar. Bunga maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan metodika va resurslarni ishlab chiqish, ta'lim tizimidagi imkoniyatlarni kengaytirish hamda ijtimoiy yordam dasturlarini tatbiq etish kiradi. Ushbu tashabbuslar jamiyatda inklyuziv ta'limning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi va bolalarning barcha qatlamlaridan ta'lim olish imkoniyatlarini teng darajada ta'minlashga yordam beradi.

Shuningdek, 2021 yil 12 oktabrda Vazirlar Mahkamasi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqladi. Mazkur hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, inklyuziv ta'limning tizimli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.[1]

2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan asosiy ustuvor vazifalarni belgilaydi. Ularning jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Alohida ta'limga muhtoj bolalar o'qiydigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- Ushbu ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o'quv qurollari, turli kasblar bo'yicha o'qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- Inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, ta'lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar (yuk ko'tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar) hamda tegishli xodimlar (maxsus o'qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;
- Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash va boshqa tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Doimiy va to'laqonli fikr yuritish uchun turli tomonlarning qarashlarini hisobga olish zarur. Ya'ni, mutaxassislar va mutassaddi organlar fikri bilan bir qatorda jamiyat a'zolarining mulohazalari ham o'rganilishi lozim. Afsuski, hozirgi kunda jamiyatimiz inklyuziv ta'limga to'liq tayyor emas. Umumta'lim maktablariga inklyuziv ta'lim asosida qamrab olingan imkoniyati cheklangan bolalar ommaning salbiy munosabatiga uchrab, jismoniy va ma'naviy zarar ko'rgan holatlar ham kuzatilmoqda. Ba'zi hollarda esa pedagog xodimlarning noto'g'ri yondashuvi bunga sabab bo'lmoqda.

Ota-onalarning farzandlariga berayotgan noto'g'ri ko'rsatmalari esa imkoniyati cheklangan sinfdoshlarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirmoqda. Shu bilan birga, tashkiliy masalalar, moddiy-texnik baza, imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulayliklar yaratish va pedagog kadrlarni tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va bu ishlar yaqin kelajakda o'z samarasini berishi kutilmoqda.

Ammo jamiyat fikri ijobiy tomonga o'zgarmas ekan, imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limdan kutilgan natijaga erisha olmaydilar. Aslida, inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi — imkoniyati

cheklangan bolalarni jamiyat hayotiga qo'shishdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyat a'zolarining, xususan, o'quvchi yoshlar, ularning ota-onalari va ayrim pedagoglarning inklyuziv ta'limga qarshi bo'lishi, shuningdek imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratish holatlari, ayni paytda inklyuziv ta'limning zarurligini va dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki ilgari imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlaridan alohida o'qitilgan, turar joylari ham alohida bo'lgan, eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar bilan birgalikda yashagan va jamiyatdan ajratilgan holatlar ularning ijtimoiy integratsiyasining cheklanganligini ko'rsatadi.

O'zaro muloqotda erkinlikni his qilgan, imo-ishorada gaplashgan va o'zlariga o'xshagan insonlar bilan birga bo'lgan bolalar qulaylik his qilgan. Biroq, bu holatlar sog'lom qatlamdagi odamlarning imkoniyati cheklangan shaxslar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmasligiga, kundalik hayotda ular bilan muloqot qilmasligiga va ularning ham keng imkoniyatlarga ega ekanliklari haqida tasavvurga ega bo'lmasligiga sabab bo'lgan. Masalan, eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning intelektual jihatdan sog'lom ekanliklari ko'pchilikka ma'lum emas; ba'zilar ularni aqliy nosog'lom deb hisoblaydi. Ularning eshitishdagi nuqsonlari ikkilamchi nuqson sifatida nutqning to'liq rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin, ammo to'g'ri korreksion ishlar orqali og'zaki nutqdan foydalanishlari, ya'ni gapira olishlari mumkinligi ko'pchilikni ajablantiradi.

Inklyuziv ta'lim joriy etilganda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki barcha imkoniyati cheklangan shaxslar bilan jamiyatning sog'lom qatlamidagi to'siqlar bartaraf etiladi. Bu insonlarga imkoniyati cheklangan shaxslar bilan muloqot qilish va munosabatda bo'lishni odatiy hol sifatida qabul qilish imkonini beradi. Natijada bolalar ham

o'zlarini nuqsonli yoki kamchilikka ega deb his qilmaydi, balki o'zlarining o'ziga xosligini anglay boshlaydi va bu ularning keng imkoniyatlardan foydalanganiga to'sqinlik qilmasligini tushunishga yordam beradi.[4]

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ovoz kuchaytiruvchi aparat yoki koxlear implantlardan, ko'rishda nuqsoni bo'lganlar qalin oynali ko'zoynaklardan, tayanch harakat a'zolarida nuqsoni bo'lganlar nogironlik aravachalaridan foydalanishdan uyalishni to'xtatadilar. Bularni ularning o'zlari xohlamagan bo'lsa-da, taqdir ularni shunday sinamoqda. Ularni ayblash, mazax qilish, turtkilash yoki ajratish insoniylik, diniy tamoyil va qonun me'yorlariga to'g'ri kelmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalari sog'lom tengdoshlari bilan bir safda bo'lishni, jamiyatdagi boshqa a'zolar kabi erkin bo'lishni istaydilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, imkoniyati cheklangan shaxslar bilan jamiyatning sog'lom qatlami orasidagi to'siqlarni bartaraf etish masalasi dolzarbdir. Jamiyatning inklyuziv ta'lim mohiyatini to'g'ri anglashini ta'minlash, imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatning to'laqonli a'zosi ekanligini tushunishlari va qabul qilishlarini rag'batlantirish uchun turli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Mazkur masala ko'plab konferensiyalarda, jamoat yig'ilishlarida muhokama qilingan va muayyan chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, ijobiy natijalar sekinlik bilan sezilmoqda. Shu bois, keng ommaga mo'ljallangan tadbirlarni ko'paytirish, televideniya va ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish, ijtimoiy roliklar tayyorlash, yoshlar orasida inklyuziv ta'lim mavzusidagi eng yaxshi ijtimoiy roliklar tanlovini tashkil etish muhimdir. Shuningdek, taniqli estrada va kino yulduzlaridan targ'ibot ishlarida foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda

mavzuni faollashtirish, aksiya, chelenj, marafonlar oʻtkazish samarali usullar sifatida ahamiyat kasb etadi.[6]

Bunda taniqli blogerlar yordamidan foydalanish, aholini faollikka chaqirish, shuningdek, tadbirkorlar va yirik tashkilotlarni hamkorlikka jalb qilish muhimdir. Umumta'lim maktablari pedagog xodimlarini inklyuziv ta'limning maqsadi, mohiyati, ahamiyati va tashkil etish tartibi boʻyicha qayta tayyorlash, umumta'lim oʻquvchilari orasida inklyuziv ta'limning mohiyatini ochib beruvchi insholar tanlovlarini oʻtkazish ham samarali choradir. Shuningdek, 8-sinf "Odam va uning salomatligi" darsligi, sinflar kesimida odobnoma, tarbiya, sinf soati, konstitutsiya va huquqshunoslik darslarida imkoniyati cheklangan bolalar, ularning toifalari, nuqson turlari va huquqlari haqida mavzularni kiritish, darsliklarni moslashtirish tavsiya etiladi.

Aholi gavjum joylar, shahar markazlari, savdo va koʻngilochar maskanlardagi reklama e'lonlari uchun ajratilgan joylarda ijtimoiy roliklar va targʻibot materiallarini tarqatish, hayriya aksiyalarini oʻtkazish kabi amaliy ishlarni muntazam olib borish orqali jamiyatni inklyuziv ta'limga tayyorlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim jamiyatda ijtimoiy adolat, tenglik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Oila va jamiyatning inklyuziv ta'limga qoʻshilishi bolalarning oʻziga boʻlgan ishonchini oshiradi, ularning imkoniyatlardan maksimal darajada foydalana olishiga yordam beradi. Ota-onalar va jamoatchilikning bu jarayondagi faol ishtiroki ta'limning umumiy sifatini yaxshilaydi va jamiyatda barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratadi. Kelajakda inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish uchun ota-onalar, jamiyat va davlat tomonidan doimiy qoʻllab-quvvatlash va samarali hamkorlik zarurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son qarori "Alohida ta'lim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida". Tashqi manba: https://lex.uz

2. Oʻzbekiston Respublikasi "Ta'lim toʻgʻrisida"gi Qonuni (2020 yil, 23 sentyabr).

3. "2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi", Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2020.

4. Shomahmudova R. Sh. – "Inklyuziv ta'lim". T.: Oʻqituvchi, 2011. 224 b.

# MAKTABGACHA TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLAR VA URF-ODATLAR ORQALI TARBIYA

***Yoʻldosheva Umida Xusniddin qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi
**Tel**: +998507238808

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va urf-odatlar orqali tarbiyalash jarayoni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar va an'analar bolaning shaxsiyati va madaniy ongini shakllantirishda muhim rol oʻynashi, ularning axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga ta'siri koʻrsatib beriladi. Global jarayonlar fonida milliy oʻzlikni saqlash zaruriyati, maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy madaniyatni tatbiq etish usullari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Ilmiy manbalar tahlili va amaliy tajribalar yoritilib, ota-ona va jamoatchilik bilan hamkorlikning ahamiyati ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, tarbiya, madaniyat, shaxsiyat, xalq og'zaki ijodi, o'yinlar, ma'naviyat

**Аннотация:** В статье проводится научный анализ процесса воспитания дошкольников через национальные ценности и обычаи. Показано, что национальные ценности и традиции играют важную роль в формировании личности и культурного сознания ребенка, влияют на его нравственное и духовное развитие. Рассматривается необходимость сохранения национальной идентичности в условиях глобализации, а также методы внедрения национальной культуры в дошкольное образование с использованием современных педагогических технологий. Подчеркивается важность сотрудничества с семьей и общественностью на основе анализа научной литературы и практического опыта.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, национальные ценности, обычаи, традиции, воспитание, культура, личность, устное народное творчество, игры, духовность

**Abstract:** This article presents a scientific analysis of the process of educating preschool children through national values and traditions. It demonstrates that national values and customs play a vital role in shaping the child's personality and cultural awareness, influencing their moral and spiritual development. The necessity of preserving national identity amid globalization is discussed, along with methods of integrating national culture into preschool education using modern pedagogical technologies. The importance of cooperation with families and the community is emphasized, supported by a review of scientific literature and practical experience.

**Keywords:**preschool education, national values, customs, traditions, upbringing, culture, personality, folklore, games, spirituality

**Kirish:** Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi – bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, uning ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom bo'lib voyaga yetishini tashkil etishdir. Shu sababli, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlar muhim omil sifatida qaraladi. [1] Bugungi kunda globalizatsiya va madaniyatlararo aloqalar ortib borayotgan sharoitda milliy o'zlikni saqlash, madaniy merosni avlodlarga yetkazish, yosh avlodda milliy ruhni shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Milliy qadriyatlar – bu xalqning ijtimoiy hayot tajribasi, axloqiy-ruhiy me'yorlari, madaniy an'analari, urf-odatlari va xalq san'ati majmuasi bo'lib, uning har bir ajralmas qismida insonning shaxsiyati va jamiyatdagi o'rni ifodalanadi.[2] Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar va urf-odatlarni uyg'unlashtirgan holda tarbiyaviy ishlar olib borish bolalar ongining shakllanishida, ularning axloqiy va ma'naviy rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega.

## Milliy qadriyatlar tushunchasi va ularning ta'limdagi roli

Milliy qadriyatlar tushunchasi - Milliy qadriyatlar - bu ma'naviy-axloqiy tizim bo'lib, unda xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari, an'anaviy axloqiy tamoyillari, urf-odatlari va badiiy-estetik qadriyatlari mujassamlanadi. Milliy qadriyatlar xalqning ijtimoiy ongini shakllantiradi, uning o'ziga xosligini va identifikatsiyasini belgilaydi.

Masalan, o'zbek xalqining mehmondo'stligi, mehribonligi, adolatliligi kabi qadriyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantirilishi kerak.

Urf-odatlar va an'analar – bu xalqning tarixiy ravishda shakllangan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ijtimoiy-axloqiy qoidalar, turmush tarzi, bayram va marosimlardir.[3] Ular milliy madaniyatni boyitadi, xalqlararo madaniy aloqalarni mustahkamlaydi.

**Maktabgacha ta'limda urf-odatlarning o'rni**

Bolalar o'z ona madaniyatini o'rganib, milliy urf-odatlarga hurmat bilan qarashi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan milliy bayramlar, marosimlar, xalq o'yinlari, ertaklar bolalarda milliy o'zlikni mustahkamlaydi. Masalan, Navro'z bayrami, Milliy qahramonlar haqida ertaklar, xalq o'yinlari bolalar qalbida milliy iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

Maktabgacha ta'lim dasturlariga milliy qadriyatlarni o'zida aks ettiruvchi mavzular kiritilishi lozim.[4] Masalan, milliy ertaklar, xalq o'yinlari, milliy san'at namunalari orqali bolalarga madaniyatimizni chuqurroq o'rgatish mumkin.

Milliy bayramlar va urf-odatlar asosida o'tkaziladigan tadbirlar bolalarda ona vatanga muhabbat va hurmatni kuchaytiradi. Masalan, Ramazon, Qurbon hayiti, Navro'z bayramlari tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bolalarni milliy o'yinlar, xalq raqslari va qo'shiqlari orqali tarbiyalash, shuningdek, xalq hunarmandchiligi, san'ati bilan tanishtirish ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Bolalarning milliy qadriyatlarni singdirishida ota-ona va mahalliy jamoatchilik ishtiroki muhimdir. [5] Maktabgacha ta'lim muassasalari ota-onalarni ham ushbu jarayonga jalb qilishi lozim.

Milliy qadriyatlarni o'rgatishda multimediyaviy vositalar, interaktiv dasturlar va animatsiyalar bolalar diqqatini jamlash va ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston milliy ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar asosida olib boriladigan tarbiya bolalarning ma'naviy rivojlanishini kuchaytiradi.[6] Tadqiqotlarda bolalarda axloqiy qadriyatlar shakllanishi, milliy an'analar orqali ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanishi tasdiqlangan.

**Xulosa:** Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va urf-odatlar orqali tarbiya yosh avlodda milliy o'zlikni shakllantirish, axloqiy-ruhiy va madaniy merosni asrashda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida bu omillarni samarali tatbiq etish bolalar shaxsini to'laqonli rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash texnologiyalarini takomillashtirish, ularni amaliyotga joriy etish bugungi ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Ilk qadam o'quv dasturi. Toshkent, 2022.
3. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent, 2009.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. Toshkent, 2015.
5. Rahmonov O. Milliy qadriyatlar va ularni ta'lim jarayonida qo'llash. Toshkent, 2018.
6. Abdullaev M. Milliy tarbiya va maktabgacha yoshdagi bolalar. Toshkent, 2020.

# O‘ZBEKISTONDA ZARGARLIK TARMOG‘INI JADALLIK BILAN RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

***Lutfulloyeva Jasmina Rustam qizi***
***Qosimova Muxlisa Axmadjon qizi***
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
“Badiiy zargarlik” bo‘limi 3-kurs talabalari

**Annotatsiya.** Maqolada zargarlik tarmog‘ini yangi bosqichga olib chiqish va bu borada amalga oshirilayotgan rag‘batlar, yurtimizda tayyor zargarlik mahsulotlarini zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo‘llagan holda ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va sifatini yaxshilash bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etish, taqinchoqlarning dizaynida talab etilayotgan uslub, yo‘nalish, texnika va texnologiyalarni ko‘proq o‘zlashtirish, yurtimiz iqtisodiyotida zargarlik tarmog‘ini jadallik bilan rivojlantirish jarayonlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** zargarlik tarmog‘i, drayver, malakali kadrlar, zargarlik taqinchoqlari, texnika, texnologiya, dizayn, innovatsiya, brend, investitsiya.

**Аннотация.** В статье рассматривается необходимость вывода ювелирной отрасли на новый уровень и реализуемые в связи с этим стимулы, эффективная организация работы по увеличению объемов производства и повышению качества готовой ювелирной продукции в нашей стране с использованием современных технологий и технологий, большее усвоение стиля, направления, приемов и технологий, необходимых в дизайне ювелирных изделий, а также бурное развитие ювелирной промышленности в экономике нашей страны.

**Ключевые слова:** ювелирная отрасль, драйвер, квалифицированный кадр, ювелирные изделия, техника, технологии, дизайн, инновации, бренд, инвестиция.

**Abstract.** The article discusses the need to take the jewelry industry to the next level and the incentives implemented in this regard, the effective organization of work to increase production volumes and improve the quality of finished jewelry products in our country using modern technologies and techniques, greater assimilation of the style, direction, techniques and technologies required in jewelry design, as well as the rapid development of jewelry industry in the economy of our country.

**Key words:** jewelry industry, driver, qualified personnel, jewelry, equipment, technology, design, innovation, brand, investment.

O‘zbekistonda bugungi Milliy iqtisodiyot taraqiyoti davrida zargarlik tarmog‘ini yangi bosqichga olib chiqish va yoshlarni ushbu sohada ham zargar usta, ham tadbirkor sifatida faoliyat ko‘rsatishi hamda shu orqali iqtisodiyotning mazkur tarmog‘ini yangi bosqichga olib chiqish uchun huquqiy hujjatlar moliyaviy shart-sharoitlar va barcha turdagi rag‘batlar yetarli darajada.

Yurtimizda zargarlarni moliyaviy rag‘batlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvatlash maqsadida "Hunarmand" hamda "O‘zbekzargarsanoati" uyushmalari tomonidan zargarlik asarlarini tadqiq etish, saqlab qolish va zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo‘llagan holda innovatsion buyumlarni yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zargarlikning qadriyat sifatida qayta anglanishi jarayonlarida o‘rganish, tarixiy, asl badiiy qadriyatlar tizimida zargarlik maktablarining o‘ziga xosligini saqlab qolish hamda yangiliklarni ijodiy talqin etishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu

esa, O'zbekiston zargarlik san'ati va sanoatining badiiy, texnik va texnologik uslublarini, mahalliy xususiyatlarini tiklashda va rivojlantirishda metodologik asos bo'ladi.

Maqolada bugungi globallashuv davrining iqtisodiy, ijtimoiy-tarixiy omillari va badiiy jarayon xususiyatlari ta'sirida shakllangan O'zbekiston zargarlik tarmog'ini mahalliy sanoatning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish, sohani yanada rivojlantirish maqsadida malakali kadrlarni tayyorlash va bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tadqiq etishdagi tarixiy-madaniy, etnologik, tarixiy-semantik, qiyosiy tahlil, badiiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Mazkur ilmiy maqolada yuqoridagi medologiya va tadqiqot usullaridan foydalanib quyidagi vazifalar asosida tadqiqot amalga oshirildi:

– O'zbekiston zargarlik san'ati va sanoatining mahalliy xususiyatlarini o'rni va ahamiyatini belgilash hamda ularning shakllanishi, rivojlanishidagi asosiy badiiy, texnik-texnologik jarayon va muammolarni aniqlash;

– O'zbekiston zargarlik zeb-ziynat buyumlarining maishiy hayotdagi o'rni, turkumi bilan bog'liq masalalarni iqtisodiy, texnikaviy, tarixiy-ijtimoiy o'zgarishlar kesimida tadqiq etish;

– Zamonaviy jarayonda zargarlik tarmog'ida an'ana va innovatsiya masalalarini aniqlash;

– Zargarlikda zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llashning samarali usullarini aniqlash;

– Milliy iqtisodiyot taraqiyotida zargarlik sohaning o'rni va rolini aniqlash;

– Davlat tomonidan yaratib berilayotgan qo‘llab-quvvatlash choralarining O‘zbekiston zargarlik tarmog‘i rivojiga ta’sirini ochib berish;

– O‘zbekiston zargarlik tarmog‘ini kadrlar bilan ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish;

Bugungi kundagi O‘zbekiston zargarlik sohasini texnik-texnologik jihatdan rivojlanishi yo‘lidagi tashkiliy-amaliy muammolarga tanqidiy yondashish va ularning yechimiga yordam beradigan tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Yurtimizda tayyor zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va sifatini yaxshilash bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etish, uning dizaynida talab etilayotgan uslub, yo‘nalish, texnika va texnologiyalarni ko‘proq o‘zlashtirish, xalqaro talablarga muvofiq zargarlik mahsulotlarini sertifikatlashtirish va standartlashni ta’minlash, sifat menejmentining zamonaviy usullarini keng joriy etish, shuningdek, dunyo bozorlarida raqobatbardosh bo‘lgan, yuqori sifatdagi zargarlik mahsulotlari va qimmatbaho metallar hamda toshlardan yasalgan zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini zamonaviy texnologik uskunalar va innovatsion izlanishlarni tatbiq etish tajribasiga ega xorijiy investorlarni jalb etish sohaning rivojiga kerakli omil bo‘lib xizmat qiladi.

1963 yili Toshkentda artellar uyushmasi tomonidan zargarlik fabrikasi tashkil etilib, undagi zargarlar sodda va ixcham ko‘rinishdagi qizil ko‘zli ziraklar, uzuklar, bilakuzuklar yasay boshladilar. An’anaviy shakl elementlarini o‘zida namoyon etgan bu kabi taqinchoqlar respublikadan chetga ham chiqarib sotilgan. Shu orqali u O‘rta Osiyodagi birinchi zargarlik zavodi sifatida faoliyat yuritdi. Buyumlar

oltin, tompak, melxior, neyzilber, jez, mis, kumush singari ma’danlardan yasalib, billur, yoqut, sapfir, topaz, ametist, anor tosh, aleksandrit kabi toshlarni qirralab ishlov berish orqali, shuningdek, dur, feruza, rangli shishalar bilan bezatigan. Zavodda zargar ustalar, kimyogar-texnologlar, toshlarga ishlov beruvchilar, chizmalar yaratuvchi rassomlar hamkorlik asosida ishlab, tez yasaladigan, hamyonbop, qulay va o‘z davri uchun mashhurlik cho‘qqisiga chiqqan taqinchoqlarni yaratishda birgalikda xizmat qilganlar.

Bu davrda sanoatlashgan tizimga xos bo‘lgan qizil ko‘zli, sodda va ixcham, bir qolipdan chiqqan taqinchoqlarni yasalishi kabi salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Shu davrning o‘zida aholining barcha qatlami uchun mo‘ljallangan, hajm jihatidan katta bo‘lmagan, ammo badiiy jihatdan mukammal bo‘lgan Buxoro zargarlik maktabiga xos “Shibirma” sirg‘asi, “Tapishi dil” bo‘yin bezagining yaratilishi va keng muomalaga kiritilishi sohaga ijobiy ta’sirini ko‘rsatganligini ko‘rish mumkin. Sababi shu taqinchoqlar orqali sohaning badiiylik darajasi nisbatan ushlab turilishiga qisman bo‘lsada erishildi.

1972 yilda fabrika ko‘pgina tsexlardan iborat katta zavodga aylantirildi. Bu davrda M.M.Troshin zavodning bosh rassomi sifatida faoliyat olib borgan. 1970-yillarning oxiri – 1980-yillarning boshlarida M.Troshin, U.Shoakbarov, I.Djavarov, A.Shapovalov, D.Sadikov, X.Malikov, Yu.Korolyev, A.Naumsev, A.Levicheva, Sh.Sagdullayev, A.Krivonosov, V.Krivonosova, N.Barikin, A.Vaxitov, Ye.Pshakina va boshqalar zargarlik taqinchoqlarining 150 ga yaqin nusxalarini yasash ustida izlanishlar olib borganlar. 1970-yillarda “Qimmatbaho metallar” tsexida Ya.Manapov, M.Djavarov, A.Vaxitov, Z.Djalalitdinov, G.Levin, M.Xoronov, X.Karimov, G.Sungarovlar boshdan oxirigacha oltindan

takrorlanmas taqinchoqlar yaratganlar. Kubachidagi dog'istonlik I.Djavarov ushbu tsexni va undagi ustalar guruhini boshqargan.

1978 yilda O'zbekiston xalq san'ati ustalari birlashmasi tashkil qilinib, uning oldiga milliy san'atning unutilgan an'analarini va asrlar davomida yo'qolib ketgan turlarini tiklash vazifasi qo'yildi. Shu maqsadda o'z san'ati sohasida izlanayotgan yosh va iste'dodli ustalar birlashmaga taklif qilindi. Xalq amaliy san'ati bilan shug'ullanuvchi barcha ustalar, shu jumladan ko'plab zargarlar "Usto" birlashmasi qanoti ostiga to'plangach, ularning iste'dodi chinakkam yuksaldi, chunki bu birlashma yangilikka intiluvchi ustalarga imkoniyat yaratib, har tomonlama ko'maklashardi.

1997 yilda tashkil etilgan "Musavvir" xalq san'ati ilmiy-ishlab chiqarish markazi, xalq hunarmandlarining Respublika "Hunarmand" uyushmasi, keyingi yillarda esa "Nigoriston" Respublika xalq san'ati firmasida ko'plab hunarmandlar va xalq amaliy san'ati ustalari qatorida zargarlar ham o'z faoliyatlarini samarali olib bordilar. Bugungi kunda bu kabi tashkilotlar qatoriga zargarlik sanoatiga oid masalalar bilan shug'ullanadigan tashkilot – "O'zbekzargarsanoati" uyushmasini ham kiritish o'rinlidir. Mazkur uyushma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 noyabrdagi "2018-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3388-son Qarori bilan tashkil etilgan bo'lib, quyidagilar "O'zbekzargarsanoati" uyushmasining asosiy faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi: O'zbekistonning turli hududlarida zargarlik san'atining ko'p asrlik an'analarini saqlash va rivojlantirish, zargarlik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni muvofiqlashtirish, ilmiy-texnikaviy, texnologik, investitsiyaviy va eksport siyosatini izchil olib borish, tayyor zargarlik

mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va sifatini yaxshilash bo'yicha ishlarni samarali tashkil etish, uning dizaynida talab etilayotgan yo'nalishlar va texnologiyalarni ko'proq o'zlashtirish, xalqaro talablarga muvofiq zargarlik mahsulotlarini sertifikatlashtirish va standartlashni ta'minlash, sifat menejmentining zamonaviy usullarini keng joriy etish, mahsulotlarni sotish bozorlarini kengaytirish bo'yicha marketing tadqiqotlari o'tkazish, ichki va tashqi bozorlarda zargarlik buyumlariga bo'lgan narxlarni monitoring qilish, zargarlik mahsulotlari eksporti hajmlarini oshirish, zargarlik mahsulotlariga bo'lgan narxlarni shakllantirishga oid maqbul mexanizmni ishlab chiqish bo'yicha takliflar va tavsiyalar berish, dunyo bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan, yuqori sifatli zargarlik mahsulotlari va qimmatbaho metallar va toshlardan yasalgan san'at mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini hamda zamonaviy texnologik uskunalar va innovatsiyaviy izlanishlarni tatbiq etish tajribasiga ega xorijiy investorlarni jalb etish, "O'zbekzargarsanoati" uyushmasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlarga normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish orqali davlatdan yordam olishida ko'maklashish, imtiyoz va preferensiyalar taqdim etish, xalqaro moliya institutlari mablag'larini hisobga olgan holda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, zargarlik sanoati uchun tizimli professional kadrlar tayyorlashni tashkil etish va yangi ish o'rinlari yaratish va hokazo.

Bugungi kunda yurtimizda zargarlik san'atini sanoatlashtirgan tartibda keng ko'lamda ishlab chiqarish maqsadida turli zargarlik zavodlari, klasterlari, korxonalari va brendlari ishga tushirilgan bo'lib, zamonaviy zargarlik taqinchoqlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Eng asosiysi mazkur tashkilotlarda yangi ish o'rinlari yaratish orqali

professional kadrlar ish bilan ta'minlanayotganligini alohida ta'kidlash joiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 18 maydagi "O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5721-son Farmoni ijrosini ta'minlash doirasida mamlakatimiz hududida sifatli va raqobatbardosh zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Markaziy Osiyodagi eng yirik bo'lgan Toshkent shahridagi sobiq "Fonon" ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi hududida zargarlik zavodi tashkil etildi. 2021 yilning 15 yanvar kuni "Gold Moon Tashkent" MChJga qarashli bo'lgan ushbu zavodning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Shuningdek, 2020 yilda Namangan shahrida tashkil etilgan, o'zbek milliy brendini dunyoga tanitishni maqsad qilgan "Gavhar Jewel Group" MCHJ qoshida 2021 yil 15 sentyabrda "Gavhar" kompaniyasi o'zining ish faoliyatini boshladi. Qimmatbaho metallar va toshlarni xarid qilish, qayta ishlash va boshqa barcha zargarlik faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi ushbu korxonaning loyiha qiymati 6,5 million AQSH dollarini tashkil etdi. Mahsulot sifatli va xaridorgir bo'lishi uchun Italiya, Germaniya va Turkiya davlatlaridan korxonaga dastgohlar keltirib o'rnatildi. Qolaversa, ishlab chiqarish jarayoniga ushbu davlatlardan yuqori malakali mutaxassislar ham jalb etildi. Xorijdan kelgan mutaxassislar korxona xodimlarining klassifikatsiyasini oshirishda katta yordam beradi. Mazkur korxona faoliyat boshlashi natijasida 40 dan ziyod aholi ish bilan ta'minlandi hamda 150 dan ziyod mahalliy zargarlar bilan kooperatsiya asosida ishlash yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda yurtimizda zargarlik sohasini yangi bosqichga olib chiqishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Sababi zargarlik mahsulotlari

butun dunyoda haridorgir. Mamlakatimizda bu soha ko'p yillar e'tibordan chetda qolgan edi. Zargarlik korxonalari asbob-uskunalarining 80 foizi eskirgan, ayrimlarida ishlab chiqarish to'xtagan edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 8 may kuni o'tkazilgan yig'ilishda zargarlikni chinakam sanoat darajasiga olib chiqish vazifasini qo'ygan bo'lib, ko'p o'tmay, ya'ni 18 mayda davlat rahbarining "O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5721-son farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq, sohaga chet el investitsiyalarini faol jalb etish, raqobatbardosh va sifatli zargarlik buyumlarini tayyorlashda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Xulosa sifatida maqolada keltirilgan fikr-mulohazalarga tayanib bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. An'analarini saqlagan holda zamonaviy, texnika va texnologiyalarni qo'llash orqali innovatsion zargarlik mahsulotlarini yaratish;
2. Internet tarmog'ida O'zbekiston zargarlari ijodini targ'ibot qiluvchi hamda mahsulotarni yorituvchi onlayn platformaga ega veb-sayt tashkil qilish;
3. Olimlarning tadqiqotlari va rivojlangan davlatlarning tajribalariga tayanib sohaga oid zarur o'quv adabiyotlar yaratish;
4. Zargarlik sanoati uchun tizimli professional kadrlar tayyorlashni tashkil etish;
5. Zargarlik san'ati va zargarlik sanoatini o'zaro integrasiyasini yo'lga qo'yish;
6. Zargarlik sohasida zamonaviy texnika uskunalari va innovatsion izlanishlarni amaliyotga tatbiq etish;

7. Xalqaro talablarga muvofiq zargarlik mahsulotlarini sertifikatlashtirish va standartlashni ta'minlash;

8. Milliy zargarlik san'ati an'analari asosida zamonaviy mahsulotlarni sanoatlashtirilgan tizimda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

9. Zargarlik sanoatiga milliy zargarlik an'analarini kiritish orqali "O'zbek zargarlik brendi"ni yaratish;

10. Zargarlik korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni "O'zbekiston zargarlik brendi" nomi ostida jahon zargarlik bozoriga olib kirish va sohada eksportni rivojlantirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. Alijewa S. (1997). Die Juwelierkimst //M. Wostok. DeutscMand. – Berlin. 1997. – Seite 60-61.

2. Akilova K. Традиционное ювелирное искусство Узбекистана XIX-XXI веков: школы, мотивации, технологии, мастера // Milli Azərbaycan Tarixi Muzeyi – 2011. – Baki: "Yelm", 2011. – 356 səh.

3. Binafsha Nodir. O'zbekiston badiiy hunarmandchiligi. – T.: "San'at" jurnali nashriyoti, 2025. – 420 b.

4. Dadamukhamedov B.F. (2021). Jewellery of Uzbekistan: Equipment and Technology // The American Journal of Social Science and Education Innovations. Impact Factor: 2021:5.857. – Mesa: The USA Journals. Volume 03, Issue 03-2021. Published: March 25, 2021. – P. 212-217.

5. Dadamukhamedov B.F. (2023). Development Processes of Innovative Jewelry Art in Uzbekistan. // Current Research Journal of History. SJIF Impact Factor: 2023:6.531). Volume 04, Issue 02-2023. – Berlin: Master Journals. Published: February 10, 2023. – P. 01-06.

6. Dadamukhamedov F.G. (2024). The Jewelry Industry in Uzbekistan is One of the Main Drivers of the Domestic Industry // Central Asian Journal of Arts and Design. Volume:05. Issue:02. Feb.2024. – Spain: Central Asian Studies Publisher. – P. 6-11.

7. MacDougall, Galina and Yekaterina Yermakova. (2014). Jewellery of Central Asia: Silver Ornaments from the Collection of K.Boranbayev. – Oxted, UK: Hurtwood Press, 2014. – P. 434.

8. Soibjonova R. Yangi O‘zbekistonda zargarlik tarmog‘ini mahalliy sanoatning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish. “Fan va texnika taraqqiyotida yoshlar” iqtidorli talabalar va magistrantlarning III respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, 2024. – 125-126 b.

9. Khakimov A. The Art of The Northern regions of Central Asia. //History of Civilizations of Central Asia, Volume VI. – Paris: UNESCO Publishing, 2005. – 614-624 p.

**10.** Xakimov A. O‘zbekiston san’at tarixi. Qadimgi davr, o‘rta asrlar, hozirgi zamon. – T.: Zilol buloq, 2022. – 528 b.

# TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISHDA JONLI TABIAT BURCHAGI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TABIIY-ILMIY KOMPOTENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI

***Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi***
University of Business and Science
Pedagogika mutaxassisligi
M.PD-24-01-guruh talabasi

**Annotatsiya**: Ushbu ilmiy ishda ta'lim muassasasini boshqarishda jonli tabiat burchagidan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali mexanizmlari tadqiq qilinadi. Boshlang'ich ta'limda jonli tabiat burchagi o'quvchilarga tabiat hodisalarini bevosita kuzatish, tajriba o'tkazish va o'zaro munosabatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa tabiiy fanlarga qiziqish va ekologik ongni oshirishga xizmat qiladi. Ishda ta'lim muassasasi rahbarlari tomonidan ta'lim jarayonini samarali boshqarish, pedagogik jamoani rag'batlantirish va innovatsion metodlarni joriy etish orqali tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni yanada rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarda tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar**: Ta'lim muassasasi boshqaruvi, jonli tabiat burchagi, boshlang'ich sinf o'quvchilari, tabiiy-ilmiy kompetensiyalar, ekologik madaniyat, innovatsion boshqaruv, pedagogik metodlar, ta'lim sifati

**Абстрактный:** В данной научной работе исследуются эффективные механизмы формирования естественно-научных компетенций у учеников начальных классов посредством использования живого природного уголка в управлении

образовательным учреждением. В начальном образовании живой природный уголок предоставляет учащимся возможность непосредственно наблюдать природные явления, проводить эксперименты и развивать взаимосвязи. Это способствует повышению интереса к естественным наукам и формированию экологического сознания. В работе анализируются пути дальнейшего развития естественно-научных компетенций через эффективное управление образовательным процессом руководителями учреждений, стимулирование педагогического коллектива и внедрение инновационных методов. Результаты исследования направлены на повышение качества начального образования и формирование ответственного отношения к природе у учащихся.

**Ключевые слова:** Управление образовательным учреждением, живой природный уголок, ученики начальных классов, естественно-научные компетенции, экологическая культура, инновационное управление

**Abstract:** This scientific study explores effective mechanisms for developing natural science competencies among primary school students through the use of a living nature corner in the management of educational institutions. In primary education, the living nature corner provides students with opportunities to directly observe natural phenomena, conduct experiments, and develop interpersonal relationships. This fosters interest in natural sciences and enhances ecological awareness. The study analyzes ways to further develop natural science competencies through effective management of the educational process by school leaders, motivating the teaching staff, and implementing innovative methods. The results of the research aim to

improve the quality of primary education and foster responsible attitudes toward nature among students.

**Key words:** Educational institution management, living nature corner, primary school students, natural science competencies, ecological culture, innovative management, pedagogical methods, education quality

**KIRISH**

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda zamonaviy bilimlarni shakllantirish bilan birga, ularni ekologik madaniyat va tabiatga mas'uliyatli munosabat ruhida tarbiyalashdir. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarda dunyoqarash va qiziqishlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishni qo'zg'atish va tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari ustuvor vazifa hisoblanadi. O'quvchilarning tabiat hodisalarini o'z ko'zlari bilan ko'rishi, bevosita tajriba o'tkazishi ularning bilimi va tushunchalarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Bunday imkoniyatlarni yaratishda jonli tabiat burchagi muhim o'rin tutadi.

Jonli tabiat burchagi – bu ta'lim muassasasida tashkil etilgan tabiiy muhit bo'lib, u yerda o'quvchilar o'simliklar, hayvonlar va tabiiy jarayonlarni yaqindan kuzatish imkoniga ega bo'ladilar. Bu nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun ham qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, jonli tabiat burchagi o'quvchilarda ekologik ong va tabiatni asrashga doir mas'uliyatni oshiradi, ularni atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Shu bilan birga, ta'lim muassasasining samarali boshqaruvi jarayonida jonli tabiat burchagidan foydalanish pedagogik jamoani

innovatsion metodlarni qo'llashga undaydi, ta'lim sifatini oshirishda yangi yo'nalishlarni ochib beradi. Rahbarlarning ta'lim jarayonini boshqarishdagi faoliyati, pedagoglarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha kompetensiyalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu ilmiy ishda jonli tabiat burchagidan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali mexanizmlari va ta'lim muassasasi boshqaruvidagi innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda ekologik ongni shakllantirish va ularning tabiatga mas'uliyatli munosabatini kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga asos bo'ladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI:**

Hozirgi ta'lim jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish va tabiiy fanlar kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning tabiatga bo'lgan qiziqishlarini qo'zg'atish va amaliy tajriba asosida bilim berish muhimligi ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlangan.

O.X. Sobirov (2018) o'z ishida jonli tabiat burchagining boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'rgatishda samarali vosita ekanligini qayd etadi. U ta'kidlaydiki, o'quvchilarning hayvonlar va o'simliklarni bevosita kuzatishi ularning ilmiy kompetensiyalarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, jonli tabiat burchagi o'quvchilarda ekologik ongni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.Xalqaro tadqiqotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Misol uchun, J. Smith va hamkasblari (2020) o'quvchilarning tabiat bilan bevosita muloqoti

ularning ekologik xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirishini ko'rsatgan. Ularning tadqiqoti jonli tabiat burchaklaridan foydalanish ekologik bilimlar va ko'nikmalarni oshirishda samarali ekanligini dalillaydi.Shuningdek, ta'lim boshqaruvi sohasidagi tadqiqotchilar rahbarlarning innovatsion yondashuvlari va pedagoglarni rag'batlantirish mexanizmlari ta'lim sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi (R. Karimova, 2021). Bu, ayniqsa, tabiiy fanlarni o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalar va amaliy mashg'ulotlarni joriy etishda dolzarbdir.

O'zbekiston sharoitida esa, ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va ta'lim standartlari jonli tabiat burchaklaridan foydalanishni rag'batlantiradi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2019). Bu hujjatlar ta'lim muassasalarida tabiiy muhitni yaratish va o'quvchilarning ekologik bilimlarini oshirish yo'lida tizimli ishlarni olib borishni taqozo etadi.

Keltirilgan adabiyotlar jonli tabiat burchagi nafaqat ta'lim jarayonini boyitish, balki ekologik madaniyatni shakllantirish va boshqaruvning innovatsion yondashuvlari orqali ta'lim sifatini oshirishda ham muhim vosita ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, ushbu ilmiy ishda jonli tabiat burchagidan foydalanishning samarali mexanizmlari va ta'lim muassasasi boshqaruvidagi yondashuvlar tahlil qilinadi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI:**

Ushbu tadqiqotda jonli tabiat burchagidan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va ta'lim muassasasi boshqaruvidagi innovatsion yondashuvlarni o'rganish maqsad qilingan.

**TAHLILLAR VA NATIJALAR:**

Tadqiqot davomida jonli tabiat burchagidan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini shakllantirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlanib, bu usul o'quvchilarning tabiatga bo'lgan qiziqishini oshirish va ekologik ongini rivojlantirishda samarali ekanligi ko'rsatildi. Eksperimental guruh o'quvchilarining bilimlari va ko'nikmalarida aniq rivojlanish kuzatildi, ular tabiat hodisalarini chuqurroq tushunishlari va mustaqil ravishda kuzatish hamda tajriba o'tkazish imkoniyatlarini yaxshi qabul qilishdi.

Shuningdek, jonli tabiat burchagida amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishni uyg'otdi, bu esa ularning faolligi va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirdi. Nazorat guruhiga nisbatan eksperimental guruhda ekologik mas'uliyat hissi va atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalari ancha yaxshilandi.Pedagoglar va ta'lim muassasasi rahbarlari bilan o'tkazilgan so'rovnomalar va intervyular natijasida jonli tabiat burchagidan foydalanish ta'lim jarayonini yanada jonlantirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun qulay sharoit yaratishi qayd etildi. Shuningdek, rahbarlarning faol boshqaruvi va pedagoglarni rag'batlantirish mexanizmlari ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.Umuman olganda, tadqiqot natijalari jonli tabiat burchagi o'quvchilarda tabiiy fanlar bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish hamda ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi.

**XULOSALAR:**

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, jonli tabiat burchagidan foydalanish boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishda juda samarali vosita hisoblanadi. Bu usul oʻquvchilarning tabiiy fanlarga qiziqishini oshirish, ularni mustaqil kuzatuv va tajriba oʻtkazishga ragʻbatlantirish, shuningdek, ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.Eksperimental guruh oʻquvchilari jonli tabiat burchagida oʻtkazilgan amaliy mashgʻulotlar orqali tabiat hodisalarini chuqurroq anglash, tabiiy jarayonlarni mustaqil ravishda kuzatish va tahlil qilish koʻnikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega boʻldilar. Bu esa ularning tabiiy fanlarga nisbatan bilim darajasini oshirish bilan birga, ularning mantiqiy fikrlash va ilmiy izlanishlarga boʻlgan qobiliyatlarini ham kuchaytirdi.Ta'lim muassasalarida jonli tabiat burchagini tashkil etish va undan samarali foydalanish pedagogik jarayonni yanada jonlantiradi, oʻquvchilarning faolligini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu oʻquvchilarning amaliy koʻnikmalarini shakllantirish va ekologik madaniyatni rivojlantirishga hamda tabiiy fanlarni oʻrganishga boʻlgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.Tadqiqot davomida ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruvdagi faoliyati va pedagoglarni ragʻbatlantirish, qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari jonli tabiat burchagidan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishda muhim rol oʻynashi aniqlangan. Rahbarlarning innovatsion yondashuvlari va pedagoglar bilan doimiy muloqati ta'lim jarayonida yangi metodlarni qoʻllashga turtki beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida jonli tabiat burchagidan foydalanishning samarali mexanizmlari hamda ta'lim muassasasi boshqaruvidagi innovatsion yondashuvlar boʻyicha aniq va amaliy

tavsiyalar ishlab chiqish mumkinligi ta'kidlanadi. Bu tavsiyalar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda ekologik ongni kuchaytirish va tabiatga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.Shuningdek, tadqiqotda aniqlangan natijalar ta'lim jarayonida jonli tabiat burchagini kengroq joriy etish, pedagoglarning malakasini oshirish va ta'lim boshqaruvidagi innovatsiyalarni tatbiq etish yo'lida yangi strategiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sobirov, O.X. (2018). Boshlang'ich sinflarda jonli tabiat burchagidan foydalanishning samaradorligi. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.

2. Smith, J., Brown, L., & Taylor, M. (2020). The impact of direct nature contact on students' ecological behavior. Journal of Environmental Education, 45(2), 123-138. https://doi.org/10.1080/00958964.2020.1731234

3. Karimova, R. (2021). Innovatsion boshqaruv usullari va pedagoglarni rag'batlantirish ta'lim sifatiga ta'siri. Samarqand: Ilmiy maqolalar to'plami.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. (2019). Ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi. Toshkent.

5. Jones, A., & Smith, B. (2017). Hands-on learning in natural settings: Enhancing students' scientific skills. Environmental Education Research, 23(4), 456-472.

6. Islomova, N. (2019). Boshlang'ich ta'limda ekologik ongni shakllantirish metodlari. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.

7. Johnson, M., & Williams, P. (2018). Innovative approaches to school leadership and management. Educational Management Journal, 32(3), 290-305.

8. Nurmatov, T. (2020). Ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni rivojlantirish: amaliy tajribalar. Toshkent: Ilmiy nashr.

9. White, R., & Green, S. (2019). Environmental education and student engagement: A global perspective. International Journal of Educational Research, 94, 45-60.

10. Ahmadova, D. (2021). Boshlang'ich ta'limda tabiat bilan bog'liq o'quv metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

# ALMASHLAB EKISHNING TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

***Abduqodirov Asliddin Najmiddin o'g'li***
Qarshi davlat texnika universiteti
irrigatsiya muhandisligi fakulteti
Agranomiya yo'nalishi talabasi
**Tel:** 95 903-63-52
**E-mail:** abduqodirovasliddin@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo'jaligining samarali rivojlanishida asosiy agrotexnik ishlardan bir bo'lgan almashlab ekishning tuproq unumdorligini oshirishdagi ahamiyati va qishloq xo'jaligini rivojlantirish nazarda tutilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение севооборота, как одного из основных агротехнических приёмов, в повышении плодородия почвы и развитии сельского хозяйства.

**Annotation:** This article discusses the importance of crop rotation, one of the main agrotechnical practices, in increasing soil fertility and developing agriculture.

**Kalit so'zlar:** Almashlab ekish, o'simlik, turlari, rotatsiya, sxema, klassifikatsiya, maqsad, ahamiyati.

**Ключевые слова:** Севооборот, растение, виды, ротация, схема, классификация, цель, значение.

**Keywords:** Crop rotation, plant, types, rotation, scheme, classification, purpose, significance

**Almashlab ekish -** ekinlarni ayrim dalalarda yillar davomida navbatma – navbat ekilib turishiga aytiladi. Tuproq unumdorligini ta'minlash va ekinlarning hosildorligini oshirishning samarali tadbiri hisoblanadi. Almashlab ekish — dehqonchilik tizimining eng muhim qismidir. Almashlab ekish sinalgan agrotexnik chora hisoblanadi. Almashlab ekishni tasniflash ikki belgiga asoslanadi. Bularning biri — almashlab ekishda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsuloti (paxta, don, ozuqa, sabzavot va boshqalar)ning asosiy turi. Ikkinchisi — biologik xususiyati, yetishtirish texnologiyasi va tuproq unumdorligiga ko'rsatadigan ta'siri jihatidan bir-biridan farq qiladigan ekinlar guruhlari nisbati (dukkakli don, donli va texnika ekinlari, sabzavot-poliz ekinlari, ko'p yillik o'tlar) hisoblanadi. Almashlab ekish joriy etilmay, bir yerning o'ziga bir xil ekinlar surunkasiga chalingan tuproqning fizik xususiyatlari yomonlashadi, ekinlar hosildorligi pasayadi, har xil kasallik va zararkunandalar, shu sharoitga moslashgan begona o'tlar ko'payadi (poliz ekinlarida shumg'iya, g'o'zada vilt, boshoqli g'alla ekinlarida qorakuya va boshqalar) zarar keltiradi. Ekinlar kasalliklari, zararkunandalariga qarshi kurashda, dalalarni begona o't bosib ketishini bartaraf etishda almashlab ekish samarali yordam beradi [1].

Asosan almashlab ekish **uchta guruhga** bo‘linadi:

1. Dala almashlab ekish - ekin tarkibida 50% va undan ortiq maydonni donli, qator orasiga ishlov beriladigan asosiy ekinlar egallaydi.
2. Yem – xashak almashlab ekish (pichanzor, yaylov) kabi almashlab ekish ekinlari.
3. Maxsus almashlab ekishda- maxsus agrotexnika talab qiladigan ekinlar nazarda tutiladi, sug‘oriladigan, nam iqlim mintaqalarida qo‘llanadigan. Uning asosiy ekinlari: sabzavot va poliz ekinlari, kanop, beda, g‘o‘za, tamaki, sholi almashlab ekish turlari keng tarqalgan hisoblanadi.[2]

Rotatsiya - ekinlarni tartibi bilan belgilangan sxemada har bir dalaga ekish uchun ketgan vaqtga aytiladi. Bunda ekinlarini loyihalashda mahsulot yetishtirish rejimi, tuproq-iqlim sharoiti inobatga olinib amalga oshiriladi. Xo‘jalik hududida ekinlarning kartalari, aagroximoy kartogrammalari asosida agrotexnika choralari ishlab chiqiladi, guruhlarga ajratiladi. Amalga oshirilishida bu joyning tabiiy sharoiti, tuproqning unumdorlik darajasi, atrof-muhitning o‘zgaruvchan sharoiti, tabiiy yem-xashak hisobga olinib, ekin maydonlari tarkibi aniqlanadi.[3]

Almashlab ekishga kiritilgan ekinlarning ro‘yxati yoki shu ekinlar bilan band bo‘lgan dalalarning bir – biriga bo‘lgan nisbatiga **almashlab ekish sxemasi** deb aytiladi. Almashlab ekishda asosan ekinlarni quyidagi joylashtirishlar bor. Masalan: 1:2:7, 1:2:3:1:2 kabi sxemalari bor. Almashlab ekishda boshoqli don ekinlarini joylashtirish bo‘yicha tavsiyalarga binoan 1:2:7 sxemasiga ko‘ra ekinlar quyidagicha: 1 (g‘alla): 2 (beda): 7 (g‘o‘za) — g‘o‘za 70% yoki 1:2:3:1:2 sxemasida esa ekinlar- 1 (g‘alla) : 2 (g‘o‘za): 3 (beda): 1 (g‘alla) : 2 (g‘o‘za) — g‘o‘za 40% joylashtirilib, almashlab ekish dalasida g‘o‘za salmog‘ini 10-20%

kamaytirishga erishildi. Tuproq unumdorligi past, meliorativ holati yomon yerlarga 1:3:5 sxemalari — 1 m (meliorativ) : 3 (beda) : 5 (g'o'za) yoki 1 m (meliorativ): 3 (beda) : 4 (g'o'za) : 1 (g'alla) — g'o'za 44,4 — 55,5% bo'lgan namunaviy tavsiyalar berildi. [4, 5]

Almashlab ekish klassifikatsiyasi – bu ekinlarni bir-biridan keyin ekish tartiblarini ilmiy va amaliy jihatdan turkumlashdir. U tuproq unumdorligini saqlash, hosildorlikni oshirish va agrotexnik talablarni bajarish maqsadida qo'llaniladi. Masalan: donli almashlab ekish (bug'doy, arpa, makkajo'xori), dukkakli almashlab ekish (noxat, loviya, soya, beda). Klassifikatsiya ekin turi, yer turi, ekinlar joylashuvi va almashinish davriga qarab aniqlanadi.

Tuproq unumdorligini oshiradi – turli ekinlar almashib ekilganda tuproqdagi oziqa moddalari muvozanatda saqlanadi. Masalan, dukkaklilar azotni to'playdi, don ekinlari esa ko'proq fosfor va kaliy iste'mol qiladi. Kasallik va zararkunanda hasharotlar kamayadi. Almashlab ekish natijasida tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlari yaxshilanadi, bu esa yuqori va barqaror hosil olishga olib keladi. Almashlab ekish qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanish, yuqori hosildorlik va ekologik muvozanatni ta'minlashning eng muhimi hisoblanadi.[6]

**Xulosa.** Almashlab ekish qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligini saqlash va oshirishning asosiy agrotexnik tadbirlaridan biridir. Bir joyda ketma-ket bir xil ekin ekish tuproqning kasallik va zararkunandalarning ko'payishiga olib keladi, almashlab ekish esa buni oldini oladi. Turli ekinlarning almashib ekilishi tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilaydi, yovvoyi o'tlarning tarqalishini cheklaydi va ekotizim muvozanatini saqlaydi. Almashlab ekish tizimlari orqali dehqonchilikda hosildorlik barqarorligi ta'minlanadi va iqtisodiy

samaradorlik oshadi. U uzoq muddatli barqaror qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Almashlab ekish nafaqat tuproq unumdorligini oshiradi, balki hosildorlikni ko'paytiradi, ekologik barqarorlikni ta'minlaydi va iqtisodiy jihatdan foydali bo'ladi. Turli ekinlarning almashib ekilishi tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilaydi, yovvoyi o'tlarning tarqalishini cheklaydi va ekotizim muvozanatini saqlaydi. Almashlab ekish tizimlari orqali dehqonchilikda hosildorlik barqarorligi ta'minlanadi va iqtisodiy samaradorlik oshiradi hosildorlikni ko'paytiradi, ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Kasallik va zararkunandalarni ham kamaytirishga asos bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O. Ramazonov "Tuproqshunoslik va dehqonchilik" Toshkent B-12

2. S. Abdullayev "Tuproqshunoslik va melioratsiya "Toshkent 2018. B-227

3. X. Namozov "Tuproqshunoslik va melioratsiya "Toshkent 2017.

4. M. Qodirova (2020). "Tuproqshunoslik va melioratsiya" Samarqand: Registon nashriyoti.

5. Smith, J., & Jones, P. (2020). The impact of organic fertilizers on "Soil Science Discepline" journal.

6. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (2023). Soil fertility and sustainable agriculture.

# YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING DIFFERENSIYALLASHUVI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

***Dehqanova Shohista***
University of Business and Science
Pedagogika mutaxassisligi
M.PD-24.01- guruh magistranti

**Annotatsiya**: Ushbu maqola yuqori sinf o'quvchilaridagi shaxslararo munosabatlarning differinsiyallashuvi va pedagogik muammolarini, bugungi kundagi dolzarbligini ochiqlab beradi, o'smir yoshdagi bolalarning psixologik va fizalogik holatlaridagi o'zgarishlari, muomaladigi kamchiliklari hamda bularning sabab va mohiyati haqida ko'rib chiqilgan. O'smir yoshidagi bolalar bilan muloqot jarayonida pedagoglar uchun yordam va tavsiyalar berib borilgan, ilmiy jihattan yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar**: o'qituvchi, ta'lim, pedagogik faoliyat, pedogog muloqoti, tolerantlik, empatik qobiliyat, muvaffaqiyat motivlari, bilim, malaka, kasb.

**Аннотация**: В данной статье раскрываются вопросы дифференциации межличностных отношений и педагогических проблем среди учащихся старших классов, а также их актуальность в современное время. Рассматриваются изменения в психологическом и физиологическом состоянии подростков, недостатки в их общении, причины и сущность этих явлений. Приводятся рекомендации и советы для педагогов по общению с подростками, материал изложен с научной точки зрения.

**Ключевые слова:** учитель, образование, педагогическая деятельность, педагогическое общение, толерантность, эмпатические способности, мотивы успеха, знания, навыки, профессия.

**Abstract**: This article explores the differentiation of interpersonal relationships in high school students and the pedagogical issues arising from it, the article highlights the relevance of the issue in today's context, examining the psychological and physiological changes in adolescents, the shortcomings in their communication, as well as the causes and essence of these factors. The article offers practical guidance and recommendations for educators on communicating with adolescents and elaborates on these aspects from a scientific standpoint.

**Key words**: teacher, education, pedagogical activity, pedagogical communication, tolerance, empathic ability, success motives, knowledge, skills, profession.

**KIRISH.**

Insoniyatning koʻp yillik tajribasi asosida shuni koʻrish mumkinki, birgalikda yashash, ishlash va hamkorlikda faoliyat koʻrsatish, katta va kichik guruhlarda muhitning ijobiy boʻlishi uchun shaxslararo munosabat etarli darajada shakllangan va rivojlangan boʻlishi muhimdir.Ayniqsa pedagoglar bu borada koʻplab ishlar olib borishlari kerak.

Har bir bola oʻsib rivojlanib voyaga yetib borar ekan albatta u bolada ong ham oʻzi va yoshiga monan oʻsishi shart. Inson tugʻilishidan to oʻlgunga qadar turli hil munosabatlarning guvohi boʻlishi aniq. Shaxsning atrofidagi insonlar bilan oʻrnatadigan munosabati uning psixologik, ijtimoiy va intelliktual salohiyatiga bogʻliq, agar bu salohiyat yaxshi rivojlanmagan boʻlsa uning kelajagi uchun shunchalik havflidir.

Bizning har bir inson bilan qilgan muloqotimiz bu bizning yutug'imiz desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki insonning muloqoti uning ichki dunyosini va ma'naviy dunyosini ochiqlab beradigan katta asosli belgilardan biridir. Insonning ma'naviyati va hulqi go'zal bo'lishi uchun albatta muloqoti ham go'zal, samimiy, so'zlardan aniq va maqsadli mohirlik bilan foydalanishi uning qanchalik ko'p kitoblar o'qiganini ko'rsatibgina emas balki uning ahloqini ham namoyon qiladi.

Ushbu maqola asosida pedagogik muammolar hamda unga yechimlarni ko'rib chiqa

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Shuni ko'rsatadikizamonaviy ta'lim tizimida zamonga mos bo'lgan pedagogklar ishlashi talab qilinmoqda, jumladan pedagog har qanday holatda ham o'ziga va kasbiga monan bo'lishi talab qilinadi. Aynan o'smir yoshidagi yuqori sinf o'quvchilari bilan muloqot davomida ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari talab qilinadi. Bu borada bir necha nazariy asoslarni keltirib o'tamiz, birinchidan F.M. Qo'chqarovaning fikricha "Talabalarning «Pedagogik konfliktologiya» o'quv fanini o'rganishi ularning kasbiy tayyorgarligi uchun zarur omillardan biridir. Pedagogik konfliktlar va uning xususiyatlarini bilish va psixologik usullardan foydalanishning bolajak o'qituvchilar uchun juda zarurligi shundaki, pedagogik faoliyat odamlar bilan munosabatlar o'rnatish, jarayonda to'g'ri yondashuvni topish va «odam - odam» tipidagi doimiy aloqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar hayot va kasbiy muvaffaqiyatning asosidir. Bolajak o'qituvchilar o'qituvchi va o'qituvchi orasidagi nizolarni hal qilish va salbiy oqibatlarning oldini olish bo'yicha yetarli bilimlarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi o'zining kasbiy faoliyatida nizolar, shaxsning rivojlanishi va turli sharoitlarga moslashishdagi qiyinchiliklar, shaxslararo munosabatlarning

kelishmovchiligi bilan bogʻliq keng koʻlamli muammolarni hal qilishi kerak". Darhaqiqat har bir pedagog oʻzining kasbi yuzasidan munosabati barqaror boʻlishi muhim hisoblanadi, bu munosabat oʻqituvchi oʻquvchi, oʻqituvchi oʻqituvchi yoki oʻqituvchi rahbar oʻrtasidagi munosabatlar ijobiy boʻlishi shu yerda tarbiya va bilim oluvchilarga ham oʻnavbatida ta'sir etadi.

Mening fikrimcha pedagog qayerda boʻlishidan qatiy nazar munosabati, muomalasi, oʻzini tutishi chegarada boʻlishi shart, chunki pedagoglar ta'lim dargohidagina emas balki har yerda na'muna boʻlishi shart deb oʻylayman. Pedagog yaniy oʻqituvchi kiyinishda ham, oilasida ham na'munali boʻlsagina u haqiqiy oʻqituvchi nomiga loyiq boʻladi, endi bilim darajasidan soʻz yuritadigan boʻlsak oʻqituvchi nafaqat yoʻnalishi hamda boshqa fanlardan va zamonaviy texnalogiyadan ham habari boʻlishi shart. Nima uchun?, shuncha ma'lumot kerakmi? Degan savolga men har doim kerak chunki bugungi kunimiz jadal rivojlanib bormoqda, zamonaviy ta'limga zamonaviy pedagoglar zarur ekanini aytib oʻtamoqchiman. Ikkinchi mutahasisimiz fikrini koʻrib chiqadigan boʻlsak : Viliem Kurtulaj fikricha "Ta'lim bu qobiqli holatda boʻladigan pedagogik jarayonlardir. Huddi aktiyorlarga erkinlik berilmagani kabi ta'limda ham erkinlik boʻlmaydi, chunki oquvchi va oqituvchi oʻzining rolini oʻrnida ijro etadi" deydi muallif oʻz maqolasida. "Ammo talim bir hokimyat, bu hokimyatda kuchlar boʻlib bu kuchlar oʻqituvchi va oʻquvchi oʻz rollarini mohirlik bilan qobiqdan chiqmay oʻynab berishadi. Maktab kabi ta'lim muassasasi bilimlarni oʻrganadigan va ishlab chiqaradigan, oʻquvchilarning iste'dodlari, qiziqishlari va moyilliklari kashf etiladigan va rivojlanadigan joy va makon boʻlishi kerak. Shunday boʻlish uchun ta'lim muassasasi erkinlik joyi boʻlishi kerak, bu erda hokimiyat mashqlari jalb qilingan aktyorlarga (talabalar yoki

o‘qituvchilarga) cheklovlar yoki cheklovlar qo‘yolmaydi. Shuning uchun, kuch munosabatlari bilim/bilimlarni yaratish va uzatish jarayoniga, shuningdek, ta’lim muassasalarida aktyorlarning o‘zlariga qanday ta’sir qilishini tushunish muhimdir” deb yozgandi. Albatta yosh avlodni tarbiyalash bu hammaning ham qo‘lidan keladigan ish emas, yoshlar qay darajada bo‘lsa ham ularga mehr ko‘rsatish, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, to‘g‘ri bilim berish pedagoglarni ishi hisoblanadi.

O‘smir yoshdagi bolalarda fizalogik tomondan o‘zgarishlar sodir bo‘lib, bu bolani ruhiyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, bu borada quyidagi uchinchi mutahasisimizni fikrini ko‘rib chiqamiz: XasanboyIbragimov quyidagicha fikir yuritadi “O‘smirlik 11-12 yoshdan, 14-15 yoshgacha bo‘lan davrni o‘z ichiga oladi.Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinfdan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas»- ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O‘smirlik bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jismoniy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakillanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘atga yetish davri bo‘lib, yangi xislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Bular ta’sirida o‘smirning xarakteri, atrofdagi kishilar bilan muomalasi, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealarga munosabati tez o‘zgarib boradi. Ba’zan ijtimoiy masalalar to‘g‘risida noto‘g‘ri tassavvur va yanglish fikrlar hosil bo‘lishi tufayli u muayyan tartib qoidalarga tanqidiy ko‘z bilan qaraydi”. Bu borada shuni takidlash kerakki bolalarni aynan o‘smir yoshida miyya faoliyati keskin ravishda faollashib, rivojlanib boradi, ichki organlari kattalashib rivojlanadi,

bolalarni bu yoshida gormonal rivojlanishi jadallashadi, natijada bolada turli hil o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bolalarni rivojlanishi aynan 13-18 yosh oralig'ida sodir bo'ladi. O'smir yoshidagi bolalar kichik yoshdagi bolalardan farqli ravishda kattalarga yordamchi emas balki ular bilan teng ma'sulyatli bo'lishni va jiddiy ishlar bilan shug'ullanishni hohlaydilar.

Bolalarda o'smirlik davrida psixologik o'zgarishlar juda murakkab bo'ladi, bu borada to'rtinchi mutaxasisimizni fikrini ko'rib chiqsak: Karakulova Umida quyidagicha fikr yuritadi: " O'smirlik yoshi – uning dunyoqarashi, e'tiqodi, nuqtai nazari, prinsiplari, o'zligini anglashi, baholashi va hokazolar shakllanadigan davr sanaladi. Afsuski tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki so'ngi yillarda o'smirlar o'rtasida deviant xulq-atvor ko'rinishlari ko'p uchramoqda. Ko'pincha o'smirlik boshlanish vaqti 12-13 yoshda ilk uchqunlari namoyon bo'ladi. Bu yosh hali ham dunyoni bolalarcha idrok etadigan, biroq o'ta taqlidga beriluvchan eng xavfli yoshdir, ayni paytda o'zini kattalar sifatida ko'rsatishga bo'lgan cheksiz istagi paydo bo'ldi. Bolalar odatdagidek harakat qilsalar ham, bu davrda bolani nazoratsiz qoldirmaslik kerak. Musiqa va kiyinishdagi imtiyozlarning o'zgarishi, shuningdek, qo'pollikning birinchi ko'rinishlari tashvish beruvchi signal bo'lishi mumkin". Darhaqiqat bolalarni aynan o'smirlik davrida ilim yoki hunar bilan band qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Agar o'z vaqtida chora ko'rilmasa quyidagicha muammolarni keltirib chiqishi tabiiy:

-Turli yomon guruhlar yoki insonlarga qo'shilish.

-O'g'irlikga moyillik.

-Erta jinsiy faoliyat.

-Jinoyatchilikka moyillik.

-Turli oqimlarga qo'shilib ketish.

Hayoti uchun havfli mashg'ulotlari bilan shug'ullanish va boshqalarga olib keladi. Agar ularni mehnatga jalb qilinsa, bo'sh qoldirilmasa ko'plab yutuqlar, kelajagi uchun zamin yaratadi.

Yuqoridagi bolalardagi muammolarni pedagoglar yordamida hal qilsa bo'ladi, albatta barcha pedagog bolalar tarbiyasiga hech qachon befarq bo'lmaydi, chunki yosh avlodni tarbiyasi pedagoglar uchun har doim muhim hisoblanadi. Bu borada beshinchi mutahasisimizni fikrini ko'rib chiqsak bo'ladi: QodirovaGulshoda fikriga ko'ra " Jamiyatimizda yoshlar tarbiyasida ayrim bo'shliqlar vujudga kelayotganini dunyoqarashi past, bilimi zaif, yosh bo'lsada, jinoyatga qo'l urgan, giyohvandlikga moyil, ichkilik va chekishga ruju qo'ygan, o'qishga qiziqmaydigan, tarbiyasi og'ir bolalarning borligi tashvishli holdir. Bolaning maktab vaqtida shakllanishida o'qituvchi, mutaxassis pedagog xodimlar, ya'ni sinf rahbarlari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining roli kattadir. Ta'lim muassasasida tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan ishlar tartibi:

-Tarbiyasi og'ir bolalar va noqobil oila farzandlari uchun alohida kuzatuv ishlarini

olib borish;

-Tarbiyasi og'ir bolaning yashash joyida ham nazoratga olinishini ta'minlash;

-Voyaga yetmagan oquvchilarning ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishini doimiy

nazorat qilib borish;

-Mahallada hamda maktabda tarbiyasi og'ir bolaning qiziqarli ish bilan shug'ullanishini ta'minlash.

-Maktab psixologi bilan hamkorlikda tarbiyasi og'ir o'quvchilarning psixik holatlarini kuzatib borish."

Bu fikrlar albatta juda ham to'g'ri ,chunki o'smir yoshlarning 6 yoki 7 soati maktabda o'tsada bolalarning tarbiyasi maktab psixologi va sinf rahbariga juda ham katta aloqasi bor, bolalarning tarbiyasi, bilimi sinf rahbarining pedagogik maxoratiga bog'liqdir. Mening fikrimcha har bir o'smir yoshidagi bolalarni o'zgartirish mumkin, ularni jazolab emas balki katta ishonch va mehr bilan o'zgartirsa bo'ladi. Albatta buning uchun sinf rahbar va psixolog hamda fan o'qituvchilari izlanishi, ishlashi va kamchiliklarni bartaraf qilib bu bolalarga ishonishi kerak, shuni ham aytish kerakki ularni fikrini qo'llab quvvatlash ham zarur.

Aynan o'smir yoshidagi yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish bilangina emas ularni ichki kechinmalarini tushunish va tinglash ham zarur hisoblanadi, ayniqsa ular oilasidagilarning yuzta gapidan bittasini olsada, tashqi omildan ta'sir etuvchilarni o'nta gapini hammasini oladi, albatta bunga shu o'smirning ustozlari yordam berishi zarurdir.

Yuqorida keltirilgan jumla bir tomondan to'g'ri bo'lsa ikkinchi tomondan mening fikrimcha ozgina yanglish tomoni bor, chunki ta'limda erkinlik beriladigan bo'lsa yuqori sinf o'quvchilari bundan oqilona foydalanishni o'rniga, salbiy tomonga foydalanishlari mumkin. Misol uchun pedagog auditoryani jalb qilishi qiyin bo'lishi mumkin, albatta o'tish davrida bolalarning qiziqishi, dunyoqarashi turlicha bo'lishi mumkin, bu esa ta'lim olishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqori sinf o'quvchilarining shaxslararo munosabatlarining diffirinsiallashuvi pedagogik muammoning asosiysi bu pedagogning muomilasi hisoblanadi, pedagog o'smir yuqori sinf o'quvchilari bilan madanyatli va o'z aro hurmat asosida muloqot qilmas ekan albatta ta'lim berishda ham qiynaladi. Pedagog bolalarni tushunishi ularni ham fikrlarini inobatga olishi, erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratishi, ota-onalariga ularni ichki kechinmasi va istaklarini tushintirib berishi

kerak, bunday ishlarni qilish uchun albatta pedagogda sabr, fidoiylik, bolalarni sevish talab qilinadi, asosiysi psixologik koʻnikmalar ham oʻz navbatida judda kerak boʻladi.

Bu borada oltinchi mutahasisimiz Turdiyev Namozbek fikriga koʻra quyidagicha maʼlumotlarni olishimiz mumkin : "oʻquvchilar bilan muomala qilish pedagogning oʻz tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Biz uchun esa soʻzlashishni bilishlozim. Soʻzlashishni, muloqot olib borishni doimo oʻrganib borishi lozim. U darsni samarali olib borishni, soʻzlashishni bilishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun taʼlim-tarbiya jarayonida oʻquvchilar bilan muloqotni yoʻlga qoʻya olishi lozim.Oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi muloqot boʻlishi uchun oʻqituvchi yetarli darajada qobiliyatga ega boʻlishi kerak, hamda oʻz-oʻziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak: Nimaga oʻrgatish? Kimni oʻrgatish? Qanday oʻrgatish? Nimaga oʻrgatish: a) lm-fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, oʻquv predmetini toʻliq oʻzlashtirish; b) malaka, koʻnikma va qobiliyatni shakllantirish; v) oʻquv predmetlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni amalga oshirish; g) oʻquv mazmunini tushunarli tizim asosida koʻrish." demak yuqoridagi fikrlardan koʻrinib turibdiki oʻqituvchi darsga qoʻyiladigan talablarni avvalambor aniqlab, oʻz oldiga maqsad va rejalarini qoʻyib soʻngra dars boshlasa albatta qay darajadagi sinf boʻlishidan qatiy nazar bu sinfda muammo hech qachon boʻlmaydi, hatto oʻquvchilarda ham boʻsh vaqt boʻlmagani uchun vaqt tez oʻtib turli hil ziddiyatlar bartaraf boʻladi.

Oʻquvchilarning koʻpchiligi muomalali emasligi, baʼzilari esa odamovi boʻlishlariga koʻp guvoh boʻlganmiz, bunga sabab oila muhiti, ota va ona bolaning fikrini umuman inobatga olishmaydi. Bola ota-ona

uchun bir buyum kabi qaraladi, shaxsyati shakillanmay qolgan bola o'zini erkin his qilolmaydi, ochiq gapira olmaydi, yoki oilada haqoratlangan bola alamini tashqi muhitdan oladi natijada yoshlar o'rtasida jinoyatchilik kuzatiladi, bu holat yoshlarni hayotini barbot qilishi mumkin. Bu holatlarda o'qituvchi bir insonni hayotini saqlab qoluvchi, bir insonga imkon yarata oluvchi yagona shaxs xisoblanadi.

Bu borada D. Nosirning shunday fikriga ko'ra " O'quvchi o'z o'qituvchisini xaqqoniy va talabchan, kundalik xayot muommolarini to'g'ri hal qilishga o'rgatuvchi shaxs sifatida tasavvur etadi. O'quvchilar o'qituvchidagi har bir noaniq harakatlarni o'z vaqtida ilg'ab oladilar. Shu bilan birga ayrim o'quvchilar paydo bo'lgan muammoni asosan bir taraflama, voqeaning emotsional tarafiga asoslangan holda hal etmoqchi bo'ladi. O'z o'quvchisining tabiatini yaxshi o'rganib, tushungan o'qituvchi bunday paytda talabaga muayyan holatdan to'g'ri xulosa chiqarib olishda yordam berishi kerak. O'qituvchi o'z fikrini doimo xaqiqiy fikrga asoslangan holda ishontirish yo'li bilan tushuntirishi lozim". Demak o'qituvchini biz to'g'ri yo'lga eltuvchi ham deyishimiz mumkin. Har bir sinfda bo'layotgan muammoga o'qituvchi yechim bera oladi.

Mazkur ilmiy maqolada quyidagi metadallogik yondashuvlar qo'llanildi. Tahliliy metod- mazkur o'zbek, rus, ingliz adabiyotlari o'rganilib g'oya va takliflar, fikrlar ajratib olindi. Tajriba sinov metodlari- sinflarda tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan suhbat va treninglar o'tkazildi va natijaga erishildi. Kuzatuv va so'rovnoma metodlari- yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida suhbatlar o'tkazilib ularning fikrlari tinglandi. Taqqoslash metodi- o'zbek va xorij metodlari o'rganildi va qiyosiy tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Demak yuqori sinf o'quvchilari 15-17 yosh hisoblanadi bu yoshda shaxs shakillanish darajasi eng faol hisoblanib, bu davrda o'z "men" larini anglab, shaxsiy qadryatlari va mustaqil fikrlashlari shakillanib boradi. Bu davrda shaxslar aro munosabatlar tobora differinsiyallashib boradi, ya'ni do'stlik, hamkorlik va ijtimoiy masofa aniqlanadi. Bu jarayon:

- Ijtimoiy mavqe;

-Shaxsiy fazilatlar;

-Muloqot madaniyati ;

-Oilaviy tarbiya kabi omillar asosida shakillanib boradi. Bu paytda o'qituvchi tomonidan ijtimoiy tenglik, sinf orasida lider va chetda qolganlarni teng lash, guruhlar ichida ijtimoiy konflektni bartaraf etish juda muhim sanaladi, shunda sinf o'quvchilari o'qituvchini har bir gapiga quloq soladi.

Har qanday tarbiyasi og'ir o'quvchini to'g'ri yo'lga solsa bo'ladi, uni jazolab emas balki mehr ko'rsatibgina to'g'irlash mumkin, bu tajriba va amalyotlarda ham o'z isbotini topgan. O'smir yoshdagi bolalarning dunyo qarashi va muomilasi albatta vaziyatga qarab o'zgarib turadi, ayniqsa 15-17 yoshda organizmida tubdan o'zgarish, gormonal o'zgarish sodir bo'lganida oliy nerv faoliyatida ham turlicha o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin, bu esa insonning hulqi va o'zini tutishiga albatta ta'sir qilmay qolmaydi. Shuning uchun o'smir yoshdagi bolalar ta'sirchan, jaxldor, arazchi ba'zida yeg'loq bo'lib qolishadi, natijada turli ziddiyatlar kelib chiqadi. Bu paytda ota va ona hamda o'qituvchi ko'magida bu ruhiy holatdan o'quvchilar ossongina chiqib ketishlari mumkin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki o'tish davrida o'smirga ko'mak juda zarur hisoblanadi.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, pedagog shaxsida shakillanuvchi shaxslararo munosabatlar dinamikasi, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini o'zi takomillshtirish, kasbiy martabaga erishish kabi sifatlar orqali shaxslararo munosabatlarda "ijtimoiy persipsiya" va sotsial intellekt mazkur munosabatlarning samarador bo'lishiga yo'l ochadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. F.M.Qo'chqarova. Pedagogik konfliktologiya. /darslik/. –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. 216 b. Toshkent 2021 yil

2.Viliem KURTULAJUniversiteti Eötvös Loránd (ELTE), Budapest, HungariFakulteti i Edukimit dhe PsikologjisëShkolla Doktorale e EdukimitE-mail: viliemkurtulaj@gmail.com

3. "O'smirlikdavrining fiziologik-psixologik va jismoniy jihatdan o'ziga hos xususiyatlari". Xasanboy Abdusalomovich Ibragimov.

4. "O'smirlikdavriningpsixologikxususiyatlarivadeviantxulq-atrof muammosi." Karakulova Umida Abduvakilovna O'zMU Jizzax filiali"Oila psixologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi. 2022-yil

5. "Tarbiyasi og'ir o'quvchilar psixologiyasi va ular bilan induvidual va guruhiy korreksion ishlar." Qodirova Gulshoda To'lqin qizi Toshkent viloyati chirchiq shahar 7- maktab psixologi.2024

6.Turdiyev Namozbek Baxriddin o'g'li Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchi maqola. 2023

7. "O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagiijobiy munosabatlar orqali ijobiyqobiliyatlarini shakillanishi" D.Nosirov O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona minatqaviy filiali.2024

8. "Student Engagement in the School: Interpersonal and Inter-Center Differences" Iker Ros*, Javier Goikoetxea, Joaquín Gairín , and Pablo Lekue UPV/EHU, Autonomous University of Barcelona 2012

9.«Психолого-педагогическое сопровождение профессионального самоопределения старшеклассников» И.А. Юрьева, Г.В. Ахметжанова 2013

10. "Особенности межличностных отнешений у подростков" Белорусский национальный технический университет, г. Минск, Республика Беларусь Научный руководитель преподаватель Каминская Т, С 2020

# BOSHLANG'ICH TALIM JARAYONIDA STEM TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLANILISHI

***Qodirova Sarvinoz Erkinjon qizi***
Namanga davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
**Tel:** +998995280602
**E-mail:** qodirovasarvinoz328@gmail.com
**Ilmiy rahbar:** f.f.d (PhD) Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda STEM ta'limini joriy etish masalalari yoritilgan. Unda STEM yondashuvi orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, STEM fanlarini integratsiyalashgan holda o'qitishning afzalliklari va boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quvchilarning qiziqishlarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada amaliyotda uchraydigan asosiy muammolar — o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi, darslik va resurslar taqchilligi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni qo'llashdagi cheklovlar

ko'rsatib berilgan. Yakunda, boshlang'ich sinflarda STEM yondashuvini samarali joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar va tavsiyalar beriladi

**Аннотация:** В данной статье освещаются вопросы внедрения STEM-образования в начальных классах. Он демонстрирует возможности развития у учащихся независимого мышления, решения проблем, творчества и практических навыков с помощью подхода STEM. Также будут проанализированы преимущества интегрированного преподавания предметов STEM и их роль в формировании интересов учащихся у учащихся начальной школы. В статье показаны основные проблемы, встречающиеся на практике- недостаточная, методическая подготовка учителей, нехватка учебников и ресурсов, а также ограничения на применение современных технологий. В заключение приводятся предпосылки и рекомендации, необходимые для эффективного внедрения подхода STEM в начальных классах

**Abstract**: This article covers the issues of the introduction of STEM education in the elementary grades. It shows the possibilities of independent thinking, problem solving, creativity and the development of practical skills in students through the STEM approach. It also analyzes the benefits of integrated STEM science teaching and its role in shaping students ' interests in primary students. The article outlines the main problems encountered in practice — insufficient methodological training of teachers, lack of textbooks and resources, as well as restrictions on the application of modern technologies. In conclusion, the necessary conditions and recommendations are given for the effective introduction of the STEM approach in the elementary grades

**Kalit so‘zlar:** STEM, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion metodlar, integratsiya, ko‘nikma, an’anaviy ta’lim, innovatsion usul, ta’lim

**Ключевые слова**: STEM, современные технологии, инновационные методы, интеграция, навыки, традиционное образование, инновационный метод, образование

**Key words:** STEM, modern technologies, innovative methods, integration, skills, traditional education, innovative method, education

“Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur”[1]

“Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelingan edi. Bunday usul o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so‘ndirar edi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan”[2]

Boshlang‘ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e’ibor berish lozim. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi.

STEM ta'limi birinchi bor Amerikada Massachusets Texnologiyalar Institutida (MIT) ishlab chiqilgan. Bu mashhur institutning shiori «Mind and hand» – «Aql va qo'l» dir. Massachusets Texnologiyalar instituti STEM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba'zi o'quv yurtlarida STEM ta'lim markazlarini yaratidi. Avstraliya, Buyuk Britaniya, Isroil, Kanada, Xitoy, Singapur, AQSH ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Ta'limning maqsadi ta'lim oluvchilarni ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni loyihalashtirish asosida o'qitish orqali tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, matematika va san'at fanlaridan samarali foydalanishga o'rgatishdir.

"STEAM – hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda, STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko'rinadi, lekin uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda va aniq ekanini ko'rishimiz mumkin, ya'ni: S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san'ati, ijod, matematika. Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardir. Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalardagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi" [3]

"Kichik yoshdagi bolalar uchun tayyorlanadigan kitoblarni STEM ta'lim tizimi doirasida qanday strukturalashtirish mumkin: **S** – Science Kichik yoshdagi bolalarni fan olamiga olib kirishda hayvonot olami, dengiz hayvonlari, o'simlik va hasharotlar haqidagi kitoblardan foydalansa bo'ladi.

**T** – Technology Atrofimizda, bolalar xonasida, kundalik faoliyatimizda uchraydigan texnologiya buyumlari aks etgan qiziqarli

kitoblar bolani texnologiya olamiga olib kiradi. Qaychi, g'ildirak, mashina, oyisining kir yuvish mashinasi, telefon va hokazolarni kitobda ichini ko'rsatgan holda namoyon qilish, buyumlar haqida hikoyalar o'qish mumkin. Qiziqarli hikoya bilan namoyon bo'lgan texnologik buyumlar illyustratsiyasi bolani miyasida savollar paydo bo'lishiga, tahliliy o'ylashiga turtki bo'lishi mumkin

**E**– Engineering Injinerlik sohasiga bolalarni olib kirishni shakllarni o'rganishdan boshlasa bo'ladi. Shakllar, ularning atrofimizdagi buyumlarda aksi, shakllarning bir-biri bilan munosabati haqidagi biron shaklga ega bo'lgan kitob foydali vosita bo'ladi

**A** – Art Bolani san'at olamiga olib kirishni bolaligidan boshlash zarur. Milliy va dunyo miqyosida buyuk san'at arboblari asarlari, san'at namunalaridan tashkil topgan kitoblar, bolalar ko'ziga yosh psixologiyasini inobatga olgan illyustrasiyalar STEM ta'limi tamoyiliga munosib bo'ladi. Malevichning "Qora kvadrat" rasmi orqali shaklni ko'rsatish, Monkning "Qo'rquv" asari orqali hissiyotlarni namoyon qilish kabi faoliyatlar bolalarni qiziqtira oladi

**M** – Math Kichik yoshdagi o'qishni bilmaydigan bolalarga ham sanash asoslarini o'rgatish mumkin. Faqat bu 1+1 kabi zerikarli, bolaning neyrofiziologik rivojlanishiga to'g'ri kelmaydigan ta'lim bo'lmay, balki interaktiv innovatsion yondashuvga ega ta'limini qo'llashdir. Kitob illyustrasiyadagi hayvonlar soni, barmoqlar soni, yuzdagi a'zolarning yonida "1" (og'zi bitta) yoki "2" (ko'zi ikkita) sonlarining namoyon bo'lishi bolada matematika asoslarini shakllanishida va sonlarga qiziqishi uyg'onishiga yordam beradi " [4]

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, STEM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat - muammoni hal qilish (problem-solving skills) qobiliyati

shakllanadi. O'zbekiston Respupblikasida STEM ta'lim tizimini davlat ta'lim tizimiga kiritish bo'yicha o'tgan 2 yil mobaynida ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin xususiy maktablarda buning imkoni osonroq bo'lsa, umumiy ta'lim tizimiga STEM ta'lim tizimini kiritishda bir qator muammolar borligi ta'kidlanmoqda. 2019- yilning dekabr oyida Xalq ta'limi vazirligi Xitoyda bo'lib o'tgan Shanghai International STEM Education Expo (STEAMEX) ko'rgazmasida ishtirok etdi. O'zbekistonda STEM ta'lim tizimini umumiy xalq ta'limiga tadbiq etish borasida AQSH mutaxassisi jalb qilindi. Undan tashqari Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbuslari bilan yurtizmida tashkil etilgan prezident maktablarida STEM ta'lim tizimi orqali ta'lim beriladi

Zamonaviy tadqiqotlar STEM tizimi maktab ta'lim tizimiga oid bo'lgani bilan, uni eng kichik yoshdan, boshlang'ich davrdan boshlab tadbiq etish muhim ekanligini ta'kidlamoqda. Bolaning eng kichik yoshidan boshlab STEM tizimiga olib kirishning 'batlantirilishi lozim. Boshlang'ich ta'lim tizimida STEM tizimi bo'yicha faoliyat kundalik ish rejasi asosida olib borilishi mumkin. STEM ta'lim tamoyillarga asoslanadigan faoliyatlarni ishlab chiqish va amalga tadbiq etish muhim hisoblanadi.

"STEAM texnologiyasida bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi – Massachusets Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori "Mens et Manus" (Aql va qo'l). Massachusets Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o'rganish va tanishish imkoniyatini berish

uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba'zi ta'lim muassasalarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi." [5].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A., "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T:2008-y., 3-bet.

2. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A., "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T:2008-y., 14-bet.

3. O'zRes OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI. "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi": o'quv-uslubiy majmua / Buxoro davlat universiteti pedagogika instituti, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi. – Buxoro, 2021-y

4. O'zRes OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI. "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi": o'quv-uslubiy majmua / Buxoro davlat universiteti pedagogika instituti, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi. – Buxoro, 2021-y

5. O'zRes OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI. "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi": o'quv-uslubiy majmua / Buxoro davlat universiteti pedagogika instituti, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi. – Buxoro, 2021-y.

# PSIXOLOGIYA FANINI O'RGANISHDA XORIJIY TILLARNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

***Soliyeva Rayxona A'zam qizi***
Guliston davlat universiteti
Psixologiya yo'nalishi 1 bosqich talabasi
**Tel:** +998950731929
**E-mail:** rayxonasoliyeva099@gmail.com

***Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li***
Guliston davlat universiteti,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
**E-mail:** sobirravshanov3@gmail.com

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada psixologiya fanini o'rganishda xorijiy tillarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xorijiy tillarni bilish psixologik tadqiqotlarni tushunish, xalqaro ilmiy jamoatchilik bilan hamkorlik qilish va kasbiy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** psixologiya, xorijiy tillar, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik, kasbiy rivojlanish, psixodiagnostika, ilmiy adabiyot, xalqaro tajriba.

**Аннотация:** Анализ значения языков в изучении психологии в трёх статьях. Важные факторы для улучшения способности знать иностранцев, сотрудничество в научных исследованиях и профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** психология, исследования, языки, научные исследования, международное сотрудничество, профессиональная индустрия, научная литература, международный опыт.

**Abstract:** This article analyzes the role and importance of foreign languages in the study of psychology. Knowledge of foreign languages is an important factor for understanding psychological research,

cooperation with the international scientific community, and professional development.

**Keywords:** psychology, foreign languages, scientific research, international cooperation, professional development, psychodiagnostics, scientific literature, international experience.

Psixologiya fani inson ongini, xatti-harakatlarini va emotsiyalarini o'rganadigan muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Bugungi kunda psixologiyaning turli yo'nalishlari – klinik psixologiya, neyropsixologiya, pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va eksperimental psixologiya – dunyo bo'ylab olimlar tomonidan faol rivojlantirilmoqda. Xorijiy tillarni bilish psixologiyani chuqur o'rganish, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga kirish va kasbiy faoliyatni kengaytirish uchun muhim vositadir. Ushbu soha global miqyosda rivojlanib borayotgani sababli, xorijiy tillarni bilish ilmiy manbalarga kirish, xalqaro tajribadan foydalanish va kasbiy rivojlanish imkonini yaratadi. Ko'pgina fundamental tadqiqotlar, diagnostik metodlar va terapiya usullari dastlab ingliz, nemis, frantsuz yoki rus tillarida ishlab chiqilgan. Shu sababli, xorijiy tillarni o'rganish psixologiya sohasida samarali ishlash va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun muhim hisoblanadi.

**Psixologiyani o'rganishda xorijiy tillarning afzalliklari quyidagilardan iborat:**

- Psixologiyaning rivojlanishi ko'plab xalqaro tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar asosida shakllangan. Ingliz, rus, frantsuz va nemis tillarida yozilgan adabiyotlar psixologiyaning asosiy nazariyalari va yangi tadqiqot natijalarini o'z ichiga oladi. Xorijiy tillarni bilish zamonaviy tadqiqotlarni asl manbalardan o'rganish;

- Jahon ilmiy jurnallaridagi maqolalarni tushunish va tahlil qilish va maqola berish (masalan, Journal of Psychology, American Psychologist);
- Dunyo miqyosidagi yetakchi olimlarning asarlarini tarjimasiz o‘qish;
- Xalqaro psixologik metod va yondashuvlarni o‘rganish;
- Ko‘plab psixologik testlar, baholash usullari va trening dasturlari dastlab xorijiy tillarda yaratilgan bo‘lib, psixologik test va diagnostika vositalarining asl variantlari bilan ishlash (masalan, MMPI, MBTI, WAIS);
- Xorijiy psixologik yondashuvlar va terapiya usullarini o‘zlashtirish (masalan, kognitiv-hulqiy terapiya, geştalt-terapiya);
- Xalqaro anjumanlarda ishtirok etish, xalqaro ilmiy konferensiyalarda qatnashish, taqdimot qilish va tajriba almashish;
- Chet ellik olimlar bilan ilmiy hamkorlik qilish;
- Turli millat vakillari bilan ishlash imkoniyati;
- Onlayn konsultatsiya va xalqaro mijozlar bilan ishlash;
- Axborot texnologiyalaridan bemalol foydalana olish;
- Psixologik ilovalar va dasturlarni o‘rganish;
- Onlayn kurslar va vebinarlarni tushunish;
- Global psixologik tadqiqotlarda ishtirok etish.
- Chet elda ta’lim olish va malaka oshirish.

Psixologiya bo‘yicha eng muhim ilmiy manbalar asosan ingliz, rus, nemis va frantsuz tillarida nashr etiladi. Jahon miqyosida yetakchi tadqiqot jurnallari – American Psychologist, Journal of Experimental Psychology, Psychological Review – ingliz tilida chop etiladi. Ushbu manbalarga bevosita murojaat qilish imkoniyati psixologik nazariyalar va amaliy yondashuvlarni to‘g‘ri tushunish uchun zarurdir. Aks holda,

tarjimalardagi ma’lum semantik o‘zgarishlar ilmiy izlanishlarning to‘liq va aniq qabul qilinishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Xorijiy tillarni bilish psixologik tadqiqotlarni o‘qish bilan birga, zamonaviy psixodiagnostik test va metodikalarni o‘rganishga ham yordam beradi. Masalan, Minnesota Ko‘p Fazali Shaxsiylik Testi (MMPI), Wechsler intellekt testi (WAIS), Rorshax testi kabi ko‘plab baholash usullari dastlab ingliz yoki nemis tillarida ishlab chiqilgan. Ushbu testlarni qo‘llash uchun ularning original versiyalari va tavsiflari bilan ishlash muhim. Chunki psixologik baholashning aniqligi ko‘pincha so‘z va atamalarning to‘g‘ri tushunilishiga bog‘liq.

Psixologiya sohasida xalqaro ilmiy hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Ko‘plab yetakchi universitetlar psixologiya bo‘yicha magistratura va doktorantura dasturlarini ingliz tilida taklif qiladi. Masalan, Harvard University, Stanford University, University of Oxford kabi universitetlar psixologiya sohasida innovatsion tadqiqotlar olib boradi. Ushbu muassasalarda tahsil olish va xalqaro ilmiy anjumanlarda qatnashish xorijiy tillarni bilishni talab qiladi. Bundan tashqari, dunyo bo‘ylab psixologlarning hamkorlik tarmoqlari mavjud bo‘lib, ularning asosiy muloqot tili ingliz tilidir. Bugungi kunda psixologiya axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi psixologik tahlil tizimlari, onlayn konsultatsiyalar va psixologik sog‘liqni qo‘llab-quvvatlovchi mobil ilovalar ko‘pincha xorijiy tillarda ishlab chiqiladi. Masalan, Headspace, Calm, BetterHelp kabi platformalar psixologik muammolarni bartaraf etishga yordam beruvchi zamonaviy texnologiyalarni taklif qiladi. Ushbu ilovalarning ilmiy asoslarini to‘g‘ri tushunish va ulardan samarali foydalanish uchun xorijiy tillarni bilish zarur.

Kasbiy faoliyat nuqtayi nazaridan, xorijiy tillarni bilish xalqaro miqyosda psixologik xizmat ko'rsatish imkoniyatini kengaytiradi. Bugungi kunda onlayn psixologik maslahatlar butun dunyo bo'ylab ommalashgan bo'lib, psixologlar turli millat vakillari bilan ishlaydi. Masalan, xalqaro miqyosda psixoterapiya bilan shug'ullanadigan mutaxassislar mijozlar bilan ingliz, rus yoki boshqa tillarda suhbat olib borishlari zarur. Shuningdek, ko'plab xalqaro tashkilotlar, jumladan, WHO (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti), APA (Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi), EFPA (Yevropa Psixologiya Federatsiyalari Assotsiatsiyasi) kabi tashkilotlar global tadqiqotlar va maslahat xizmatlarini taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, psixologiya fanini o'rganishda xorijiy tillarni bilish ilmiy va amaliy jihatdan rivojlanish uchun muhim omildir. Psixologiya fanlarini o'rganishda xorijiy tilni bilish nafaqat ilmiy izlanishlar,adabiyotlar va metodikalar bilan ishlash, balki xalqaro hamkorlik, kasbiy o'sish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu sababli, psixologiya sohasida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan har bir mutaxassis va psixologiyaga qiziqadiganlar xorijiy tillarni o'rganishga e'tibor qaratishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. V. Karimova. Psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2002.
2. M. Xolnazarova, Sh. Fayziyeva. Psixologik trening asoslari. O'quv qo'llanma, 2022.
3. Z. Nishonova. Psixologik xizmat psixokorreksiya. Darslik. Ijod pres, 2019.
4. R. Mey. Iskusstvo psixologicheskogo konsultirovaniya. Moskva, 1994.

5. N. Samoukina. Prakticheskiy psixolog: lektsii, konsultirovanie, treningi. Moskva, 1997.

6. American Psychological Association (APA). Journal of Psychology.

7. Beck, A. T. Cognitive Therapy and the Emotional Disorders. New York: International Universities Press, 1976.

8. American Psychological Association (APA). (2021). Publication Manual of the American Psychological Association (7th ed.). Washington, DC: American Psychological Association.

9. Gerrig, R. J., & Zimbardo, P. G. (2018). Psychology and Life (20th ed.). Pearson Education.

10. APA Dictionary of Psychology. (2023). Key Psychological Terms and Definitions. American Psychological Association.

11.Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

# O'ZBEK ADABIY TILINING TARIXIY LEKSIK QATLAMLARI

***Xo'jaqulova Sevinch Iskandar qiz***
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
**Tel:** +998(77)025 51 56
**E-mail:** sevinchxojaqulova099@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek adabiy tilining leksik tarkibi tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. O'zbek tili lug'at boyligining shakllanish jarayonida qadimgi turkiy qatlam, arabcha va forscha so'zlar, shuningdek, yangi davrda kirib kelgan ruscha va xalqaro leksika unsurlari o'rganiladi. Shuningdek, adabiy til leksikasining tarixiy qatlamlari xalq madaniyati, ijtimoiy hayot va milliy tafakkur bilan bog'liq holda yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье анализируется лексический состав узбекского литературного языка с исторической точки зрения. В процессе формирования словарного состава узбекского языка исследуются древнетюркский пласт, арабские и персидские слова, а также элементы русской и интернациональной лексики, вошедшие в современную эпоху. Также выделяются исторические пласты лексики литературного языка в связи с народной культурой, общественной жизнью и национальным мышлением

**Abstract:** This article analyzes the lexical composition of the Uzbek literary language from a historical point of view. In the process of forming the vocabulary of the Uzbek language, the ancient Turkic layer, Arabic and Persian words, as well as elements of Russian and international lexicon that have entered in the modern era, are studied. Also, the historical layers of the lexicon of the literary language are

highlighted in connection with folk culture, social life and national thinking.

**Kalit so'zlar**: O'zbek adabiy tili, leksik qatlam, qadimgi turkiy so'zlar, arabcha-forscha leksika, ruscha unsurlar, milliy madaniyat, tarixiy leksik jarayon.

**Ключевыес слова:** Узбекский литературный язык, лексический пласт, древнетюркские слова, арабо-персидская лексика, русские элементы, национальная культура, исторический лексический процесс.

**Key words:** Uzbek literary languge, lexical layer, ancient Turkic words, Arabic-Persian lexicon, Russian elements, national culture, historical lexical process.

Leksikologiyada tilda mavjud bo'lgan so'zlar, ya'ni o'sha tilning lug'at boyligi haqida so'z olib boriladi. Tilning lug'at tarkibi, uning tarixiy-etimologik kelib chiqishi, genetik tuzilishi o'rganiladi. Til shakllanar ekan uning lug'at tarkibi ham shaklanadi. O'zbek tilining lug'at tarkibi o'zbek xalqining butun taraqqiyot yo'lini o'zida aks ettiradi. Til tarixi jamiyatning tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'langanligi tufayli uning lug'at tarkibi hayotdagi har qanday o'zgarishni har taraflama ifodalaydi. O'zbek tili leksik tarkibi va grammatik vositalari shu tilning boyligi hisoblanadi va bularning barchasi birdaniga paydo bo'lgan emas.O'zbek tilining lug'aviy tarkibi Juda uzoq davrlardan beri leksik semantik hamda shakliy tuzilishiga uzilishiga ko'ra ma'lum o'zgarishlarga uchrab bugungi holatga kelgan. Bizga ma'lumki, har qanday tilning lug'at tarkibi faqat o'z so'zlaridan iborat bo'lmaydi. Unga boshqa tillardagi so'z va vositalar ham o'tishi mumkin.O'zbek tili ilk davrlarda turkiy qabila va chet tillarga xos ayrim leksik birliklardan tashkil topgan bo'lsa, keyinchalik o'zbek tili lug'at

tarkibiga fors-tojik, arab, rus tillaridan so'zlar o'tib o'zlashadi va o'zbek tilining lug'at tarkibi boyidi. O'zbek tili leksikasining tarixiy shakllanishini bilish uchun so'zlarni tarixiy etimologik jihatdan o'rganib, ularning etimologik qatlamlariga ajratish zarur. O'zbek tili O'rta Osiyodagi qadimiy xalqlarning turkiy tillar sistemasidagi tillardan biri bo'lib, uning lug'at sostavi ham qadimiydir. O'zbek tili leksikologiyasining tarixiy etimologik shakllanishini taxlil qilishda dastlab o'zbek tilining qardosh tillar bilan aloqasi, so'ngra qardosh bo'lmagan tillar bilan aloqasi aniqlanadi. Bu bilan ularning o'zaro ta'siri ham ko'rib o'tiladi.Kelib chiqish nuqtai nazardan ko'ra o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan so'zlar ajratib olinadi. Bularga turkiy so'zlar kirib, o'zbek tilining asosiy qadimiy qatlamini tashkil qiladi. Bularni umumturkiy so'zlar deb ham nomlanadi.Turkiy xalqlar qadimda boshqa xalqlar bilan ham aloqa bo'lgan. Shunga o'zbek till leksikasi tarkibida chet tillarga xos bo'lgan negiz qadimiy uyg'ur, so'g'd, xitoy, arab, mo'g'il, fors-tojik tili elementlari ham mavjud. Shunga muvofiq o'zbek tili ikki qatlamga, ya'ni o'z va o'zlashgan qatlamga bo'linadi.

O'z qatlam deganda aslan shu tilniki bo'lagn so'zlar va shular asosida yasalishlar, shuningdek, o'z affiks bilan boshqa til so'zlardan yasalishlar tushuniladi. O'z qatlamga umumturkiy so'zlar, o'zbekcha so'zlar, paralel so'zlar o'z qatlamga oid so'zlarning fonetik belgilari, o'z qatlamga oid so'zlarning fonetik strukturasi, o'z qatlamning tematik tasnifi kiradi. O'zbek tili lug'at tarkibidagi eng qadimiy so'zlar umum turkiy so'zlardir. Bu so'zlar turkiy tillarda hozir ham illarda hozt ham ishlatiladi. Umum turkiy so'zlarning asosini bosh, ko'z, qosh, yuz, uch, kel, yot, bo'l kabi bir bo'g'inli so'zlar tashkil qiladi.

O'zlashgan qatlam. Hozirgi o'zbek tilining lug'at sostavida o'z qatlamdan tashqari o'zlashgan qatlam ham mavjud. Bu qatlam o'zbek

xalqining boshqa xalqlar bilan madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari orqali o'zlashgan. O'zlashgan qatlamni asosan forscha-tojikcha, arabcha, internatsional ruscha so'zlar tashkil qiladi. O'zbekcha so'zlar turkiy tillarning O'rta Osiyo va Qozog'iston territoriyasida yashovchi xalqaro tiliga xos so'zlar hamda forscha-tojikcha, rus tili orqali o'tgan so'zlarga qo'shimchalar qo'shish orqali yasalgan so'zlar kiradi: buva, dada, bog'dorchilik, purkagich, kabilar. Fors-tojikcha so'zlar ham shu jumladandir. O'zbek tilining lug'at sostavida fors tillariga oid so'zlarning bo'lishi bu xalqlarning uzoq tarixiy o'tmishi bilan bog'liq. Bu xalqlar asrlar bo'yi  siyosiy, madaniy aloqada bo'lganlar. Shuning uchun ham hozirgi o'zbek tilida xom, ko'p, kalta, dasturxon, dazmol, xokandoz, obdasta , xum, choyshab, marvarid, paypoq va boshqa ko'plab  forscha so'zlar uchraydi. O'zbek tiliga arab tilidan ham so'zlar kirib kelgan.

Arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arabcha so'zlar o'zbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hoi arablaming Markaziy Osiyonini bosib olishi bilan bog'liq. Kitob, maktab, xalq, m aorif , shoir, m a 'no. ilhom, kasb, qassob, s a n 'at, asbob, bino, imorat, ovqat, g'alla, fil, parranda, hasharot, inson, oila, amma, xola, dim  idora kabi so'zlar arab tilidan kirib kelgan. O'zbek tilidagi arabcha so'zlar ko'proq ot va sifat turkumiga tegishli bo'lib, ulaming belgilari quyidagilardir: a) ikkita unli yonma-yon keladi: doim, shoir, muomala, shijoat, shuur, inshoot. murojaat, tabiiy; b) tutuq belgisi (') ishtirok etadi: m a 'no, qaVa; d) -iy, -viy qo'shimchalarini olib yasalgan bo'ladi: asabiy, oilaviy)  [1. 60-b]

Arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar orasida tarixan yasama bo'lgan adabiy, badiiy, g'olibiyat, voqeiy, voqean, oilaviy kabi leksemalar ham bor. Bunday leksemalar bilan birga o'zlashtirilgan «-iy», «-viy», «-an» affikslari o'zbek tilida so'z yasovchi affikslar darajasiga ko'tarilgan, natijada o'zbek tilida so'z yasash imkoniyatlari kengaygan. Hozirgi

o‘zbek tilida shu affikslar vositasida yasalgan juda ko‘p yangi leksemalar mavjud: texnikaviy, fizikaviy, tubant turkiy kabi. Bulardan tashqari, arabcha leksik o‘zlashmalar o‘zbekcha yoki tojikcha so‘zlar bilan ma’no munosabatiga kirishib, o‘zbek tilining sinoni-mik qatorlarini boyitgan: o‘rinbosar (o‘zb.) - muovin (ar.), guvoh (f-t.) - shohid (ar.), aniq (ar.) - ravshan (so‘g‘d.) kabi [2. 190-b].

O‘zbek tiliga so‘zlarni boshqa tillardan o‘zlashtirishni ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ular tilni boyishi uchun katta xizmat qiladi. Bu usullardan biri o‘zicha olishdir. Bu usul deganda bir tildagi so‘zni ikkinchi tilga hech qanday o‘zlashtirishsiz, yoki ayrim fonetik o‘zgartirish yo‘li bilan olingan so‘zlar tushuniladi. Masalan: Disk- diska kabi. Bundan tashqari kalkalab olish usuli ham mavjud. Bu usulda boshqa tildagi so‘zning morfologik tarkibidan qismma- qism nusxa olish orqali o‘zbekcha so‘z yasash tushuniladi.kalkalashni ikki xil turi bor. To‘liq kalkalash va yarim kalkalashdir.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, o‘zbek tarixiy leksik qatlamlari til taraqqiyotining muhim bosqichlarini aks ettiradi. Qadimgi turkiy ildizlar, arabcha-forscha madaniy qatlam, ruscha va xalqaro terminlar o‘zaro uyg‘unlashib, o‘zbek adabiy tilining hozirgi boy va serqirra lug‘at tarkibini shakllantirgan. Ushbu jarayon o‘zbek xalqining tarixiy tajribasi, madaniy aloqalari va milliy tafakkurining til orqali namoyon bo‘lishidir. Til shakllanar ekan uning lug‘at tarkibi ham o‘sib, rivojlanib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hamroyev M.Ona tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / M. Hamroyev, D. Muhamedova, D Shodmonqulova, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva; O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. 276 b

2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / H.Jamolxonov. - T.: «Talqin», 2005. - 272 b

3. B.Mengliev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qarshi. 2004.

4. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adably till. Toshkent, 1975.

5. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. Toshkent, 1985.

6. Ne'matov H. Rasulov. R, O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari, Toshkent, 1995.

7. Usmonov.S. Umumiy tilshunoslik, 151 bet, Toshkent, 1972.

8. Mirtojlev. M. O'zbek tili leksikolog tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent

## AYOL – JAMIYATNING MA'NAVIY TAYANCHI VA KELAJAK TARBIYACHISI

***Xakimova Sarvinoz Sharifjon qizi***
Namangan davlat Pedagogika instituti
Psixologiya yo'nalishi magistri
**E-mail:** hakimovasarvinoz140@gmail.com

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada ayolning farzand tarbiyasidagi va jamiyat hayotidagi beqiyos o'rni, ularning ma'naviy, ijtimoiy hamda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotda ayollarning ma'naviy salohiyati, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning ayollar faolligini oshirish borasidagi g'oyalari va islohotlari ilmiy asosda yoritilgan. Maqola orqali ayol shaxsining oilaviy muhit, farzand kamoloti va ijtimoiy barqarorlikdagi o'rni haqida xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ayol, ona, farzand tarbiyasi, jamiyat, ma'naviyat, oila, axloq, davlat siyosati, ayollar faolligi, Yangi O'zbekiston.

**Аннотация**: В статье рассматривается уникальная роль женщин в воспитании детей и жизни общества, их роль в формировании духовных, социальных и нравственных ценностей. В исследовании также освещаются духовный потенциал женщин, государственная политика, направленная на их поддержку, а также идеи и реформы Президента Ш.М. Мирзиёева, направленные на повышение активности женщин на научной основе. В статье представлены выводы о роли женщин в семейной среде, развитии детей и социальной стабильности.

**Ключевые слова**: женщина, мать, воспитание детей, общество, духовность, семья, нравственность, государственная политика, активность женщин, Новый Узбекистан.

**Abstract**: This article highlights the unique role of women in raising children and in the life of society, their role in the formation of spiritual, social and moral values. The study also sheds light on the spiritual potential of women, state policy aimed at supporting them, and the ideas and reforms of our President Sh.M. Mirziyoyev to increase women's activity on a scientific basis. The article presents conclusions about the role of women in the family environment, child development and social stability.

**Keywords**: woman, mother, child rearing, society, spirituality, family, morality, state policy, women's activity, New Uzbekistan.

**Kirish**. Bugungi globallashuv va axborot asrida jamiyatning ma'naviy barkamolligini, ijtimoiy barqarorligini ta'minlash, insonparvarlik tamoyillarini hayotga tatbiq etishda ayollarning o'rni va roli beqiyosdir. Zero, ayol bu nafaqat oila, balki butun jamiyatning

ma'naviy tayanchi, ezgulik va mehr-muruvvat manbaidir. Har qanday millatning taraqqiy darajasi, ma'naviy qadri va madaniy yetukligi, avvalo, uning ayollariga bo'lgan e'tibori bilan o'lchanadi. O'zbekiston Respublikasida ham ayollar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotdagi faolligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ayollarimiz jamiyat hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etmoqda, ularning salohiyati va fidoyiligi tufayli Yangi O'zbekistonning poydevori mustahkamlanmoqda."[1] Shu bois, bugungi kunda ayol shaxsining ma'naviy-axloqiy yetukligini ta'minlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, oilaviy qadriyatlar va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini yanada mustahkamlash dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ayollar faqatgina oila muhitining emas, balki butun jamiyatning ma'naviy muvozanatini saqlovchi kuch sifatida e'tirof etiladi. Ularning farzand tarbiyasidagi fidoyiligi, ijtimoiy jarayonlardagi faolligi, milliy qadriyatlarni avaylab, kelajak avlodga yetkazishdagi hissasi beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ayol - bu hayotning ma'nosi, mehr va sadoqat timsoli, balki butun jamiyatning ma'naviy tayanchi, millatning kelajagini tarbiyalovchi buyuk kuchdir. Zero, xalqimizda "Ayol bor joyda hayot bor, mehr bor, bunyodkorlik bor" degan dono naql bejiz aytilmagan. Haqiqatan ham, oila deb ataluvchi buyuk qo'rg'onni ayolsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayol - bu oila tinchligi, mehr va totuvlikning asosidir. Ayollar haqida qancha so'z yuritmaylik, ularning kuchi, fidoyiligi va hayotdagi o'rni oldida har qanday so'z ojiz qoladi. Ularning mehnati, sabr-toqati va mehr-muhabbati tufayli hayot go'zallik va ma'no kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning

huquq va manfaatlarini himoya qilish, kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Ayolni e'zozlash - ezgulik va adolat mezoni degan g'oyani hayotga tadbiq etish maqsadida aholimizning qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, iste'dodi va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, onalik va bolalaikni himoya qilish davlat siyosatining markazida turadi.[2] Shu boisdan, bugungi kunda "Ayol – jamiyatning ma'naviy tayanchi va kelajak tarbiyachisi" mavzusi nafaqat dolzarb, balki milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimiz va ijtimoiy taraqqiyotimizning markazida turadigan muhim masaladir. Ayol bu – ona, opa, ustoz, do'st, maslahatchi, oilaning yuragi va jamiyatning tayanchidir. Bizning tinch osoyishta yurtimizda prezidentimizning tashabbuslari bilan ayollar uchun keng ko'lamli imkoniyat eshiklari ochiq. Yaratilayotgan barcha say-harakatlar ayollarni ilmli qilish uchun chunki ayol ilmli bo'lsa yurt ilmli bo'ladi. Ilmli ayollar borasida so'z borar ekan, buyuk ajdodlarimizning yozgan hikmat-u nasihatlari yodimizga kela- veradi. Ularning har bir so'zi ilm olishga targ'ib etadi.

Jumladan, Buxorodagi madrasaning peshtoqiga Mirzo Ulug'bek tomonidan "Ilm olishga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir", degan hadis bitilgan edi. Demak, ilm olishda o'g'il farzand kabi qizlarni ham keng jalb etish kerakligi necha ming asr avval aytilgan ekan. Har bir qizimizning kelajagi oila, jamiyat va Vatanimiz kelajagidir. Yaqin o'tmishdagi zamondoshimiz Abdurauf Fitrat ham "ayollarimiz – millat onalari ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur", deya o'z asarida yozib, qizlarni ilm olishga da'vat etganini tarix sahifalarida ko'rishimiz mumkin. Har bir davrda buyuk

ajdodlarimiz oiladagi farzandlarning ilmli bo'lishiga pand-u nasihat qilgan. Qisqa qilib aytganda, ilm – bu ma'rifat deymiz. Jaholatni ham yuksak ilm-ma'rifatimiz bilan yengamiz. Hayotimizga kirishga urinayotgan yot g'oyalarga ham ilmga intilishlarimiz bilan o'rin qoldirmaymiz. Ilm butun hayot yo'llarimizni yoritadi. Darhaqiqat, sharqda ayol nafaqat oilaning, balki jamiyatning ham poydevori hisoblanadi. Oilani mustahkamlash, ilm o'rganish va jamiyatda shaxs sifatida shakllanish ayollarning borliqqa ta'sirini ko'rsatuvchi ulkan imkoniyatlardir. Ayol oila a'zolarining nafaqat taqdirini, balki milliy ruhiyatini ham shakllantiradi. Shu sababli ayolning oila ichidagi roli jamiyatning umumiy barqarorligi uchun ham asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ularning ilm olishga bo'lgan intilishi nafaqat o'z hayotini, balki jamiyatni ham yuksaltiradi. Farzandlarga tarbiya berish uchun ham, jamiyatni boyitish uchun ham ilm zarur. Lekin bu ilm uni o'rganish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ayol ilm o'rganish orqali avvalo o'zini anglaydi, hayot mohiyatini tushunadi va ichki dunyosini boyitadi. Ayolning ilm-fanga intilishi faqatgina oilasiga yoki o'z kasbiy faoliyatiga xizmat qilmasdan, balki jamiyat uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayolning farzandga ta'siri buyuk. U mehri, so'zlari bilan bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyaviy ta'sir – shaxs xulq-atvorini shakllantiruvchi pedagogik omil

Ayol kishiga hayotda o'z o'rnini topishda birinchi o'rinda iroda kerak. Muayyan maqsad yo'lida harakat qilayotganda kutilmagan mag'lubiyat bo'lishi tabiiy. Shunday holatlarda odam to'xtab qolsa, qiyin vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'ysa hech qanday natijaga erisholmaydi. Keyingi galda ko'ngil xotirjamligi va ishonch turadi. Ayol hayotdan xotirjam bo'lsa, va eng muhimi o'ziga bo'lgan ishonchni his qilsa, har qanday mag'lubiyatni, har qanday qiyinchilikni yenga oladi.

Xulosa qilib aytganda, ayol shaxsining jamiyatdagi o'rni va roli beqiyosdir. U nafaqat oila muhitining mehr-muruvvat manbai, balki kelajak avlod tarbiyasining asosiy tayanchi, ma'naviy barkamol jamiyatning yaratuvchisidir. Farzandning shaxs sifatida shakllanishida onaning ibrati, mehr-muhabbati va tarbiyaviy ta'siri hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ayol o'zining hayotiy pozitsiyasi, axloqiy fazilatlari, ma'naviy yetukligi orqali nafaqat oilasiga, balki butun jamiyatning ma'naviy qiyofasiga ta'sir ko'rsatadi. Bugungi globallashuv davrida ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim olishi, kasbiy va ijtimoiy faolligini oshirish, shuningdek, onalik va oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani bejiz emas. Chunki ayolning faolligi – jamiyat taraqqiyoti, millatning ma'naviy yuksalishi, farzandlar kelajagi bilan chambarchas bog'liqdir.

Shunday ekan, har bir jamiyatning rivojlanish darajasi, avvalo, uning ayollariga bo'lgan hurmati va e'tibori bilan o'lchanadi. Ayolni e'zozlash, uning salohiyatini ro'yobga chiqarish, farzand tarbiyasida ustuvor o'rinni berish – millat kamoloti, Vatan ravnaqi va Yangi O'zbekistonning mustahkam poydevorini barpo etishning eng muhim garovidir.

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan O'zbekiston ayollariga tabrik so'zi. — T.: president.uz, 2023-yil 7-mart.

2. Mirziyoyev. Sh.M.- Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "Ozbekiston" nashriyoti. 2021.B.53

3. Fitrat A. Oila. – Toshkent: Maorif nashriyoti, 1923. B 56.

4. Fitrat. Tanlangan asarlari. I jild. -T., Ma'naviyat. 2000.

# KARATE SPORT TO'GARAGI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINI CHAQQONLIK JISMONIY SIFATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

***Mahmudjonov Asilbek Abduvoxid o'g'li***
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
***Adhamova Nozligul Sadriddin qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi
**E-mail:** asilbekmahmudjonov19981126@gmail.com.

**Annotatsiya:** mazkur maqolada karate sport to'garagi orqali maktab o'quvchilarining chaqqonlik jismoniy sifatini rivojlantirish metodikasi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar, dinamik harakatlar va o'yinli metodlarning samaradorligi o'rganildi. Natijalar o'quvchilarda chaqqonlikning sezilarli darajada yaxshilanganini ko'rsatdi. Karate mashg'ulotlari yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bilan birga, ularning psixologik va irodaviy sifatlarini ham shakllantiradi.

**Kalit so'zlar:** karate, chaqqonlik, jismoniy sifat, maktab o'quvchilari, metodika, mashg'ulot.

**Аннотатция:** в статье анализируется методика развития ловкости у школьников через кружки карате. В ходе исследования изучалась эффективность специальных упражнений, динамических движений и игровых методов, направленных на развитие ловкости. Результаты показали значительное улучшение уровня ловкости у учащихся. Тренировки по карате способствуют не только физическому развитию детей, но и формированию их психологических и волевых качеств.

**Ключевые слова:** карате, ловкость, физические качества, школьники, методика, тренировка.

**Annotation:** this article analyzes the methodology of developing agility in schoolchildren through karate sports clubs. The study examined the effectiveness of specific exercises, dynamic movements, and game-based methods aimed at enhancing agility. The results showed a significant improvement in students' agility levels. Karate training not only improves physical fitness but also shapes the psychological and volitional qualities of young people.

**Keywords:** karate, agility, physical qualities, schoolchildren, methodology, training.

**KIRISH**

**Mavzuning dolzarbligi.** Maktab o'quvchilarini har tomonlama rivojlantirish, ularning jismoniy sog'lig'ini mustahkamlash hamda qobiliyatlarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Prezidentimizning 2020-yil 24-yanvardagi PQ–4563-sonli qarorida sportni rivojlantirish orqali sog'lom avlodni shakllantirish va yoshlarni jismoniy faollikka jalb qilish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu qaror asosida maktablarda sport to'garaklarini tashkil etish, ayniqsa, karate kabi jismoniy va intellektual rivojlanishni ta'minlovchi sport turlarini targ'ib qilish muhim vazifa sifatida qayd etilgan [1].

Chaqqonlik jismoniy sifatlari o'quvchilarning nafaqat sport sohasida, balki kundalik hayotdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Karate sport turi orqali ushbu sifatni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar nafaqat ularning jismoniy qobiliyatlarini oshiradi, balki intizom, o'z-o'zini boshqarish va iroda kabi fazilatlarini ham shakllantiradi.

Ushbu maqolada karate sport to'garaklari orqali maktab o'quvchilarining chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishning ahamiyati va

metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – o'quvchilarda chaqqonlik jismoniy sifatini rivojlantirish uchun samarali metodikani ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashdan iborat. Mazkur tadqiqot natijalari, nafaqat maktab ta'limi doirasida, balki jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sohasida ham ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism.** Karate sport turi nafaqat jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, balki shaxsning umumiy psixologik va intellektual qobiliyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Karate mashg'ulotlari o'quvchilarning chaqqonlik, muvozanatni ushlash, tezkor qaror qabul qilish va koordinatsiyani rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa nafaqat sport bilan shug'ullanishda, balki kundalik hayotda ham tezkor va moslashuvchan bo'lish imkonini beradi.

Chaqqonlik – jismoniy sifatlar ichida tezlik, koordinatsiya va muvozanat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u sportning barcha turlarida, ayniqsa, karateda muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh o'quvchilarda chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar ular uchun tabiiy jarayon bo'lib, ularning rivojlanish bosqichlarida bu sifatlarni mustahkamlash muhimdir. Karate sporti bu borada universal vosita bo'lib, turli yoshdagi o'quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini samarali rivojlantiradi [2].

Shuningdek, karate mashg'ulotlari vaqtida o'quvchilarning harakatlari tezkor va aniqlik bilan bajarilishini ta'minlovchi turli maxsus mashqlar va kombinatsiyalar qo'llaniladi. Bu jarayon o'quvchilarning markaziy asab tizimini rag'batlantiradi, harakatlarni boshqarish va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini oshiradi. Yosh xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqilgan dasturlar chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan asosiy vositalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, karate sport turi o'quvchilarda chaqqonlik sifatini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib, bu sifatni shakllantirish orqali ularning umumiy jismoniy va psixologik rivojlanishiga hissa qo'shiladi. Shu sababli, karate to'garaklari ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi [4].

**Metodik yondashuvlar.** Maktab o'quvchilarining chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishda karate sport to'garaklarida maxsus metodik yondashuvlar qo'llaniladi. Ushbu metodikalar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi va individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Mashg'ulotlar uch bosqichda tashkil etiladi: kirish qismi (tayyorgarlik), asosiy qism (mashq bajarish), va yakuniy qism (tanalish va baholash).

Mashg'ulotlarda chaqqonlikni rivojlantirish uchun quyidagi vositalar ishlatiladi:

- **dinamik mashqlar**: tezkor harakatlarni rivojlantirish uchun yugurish, sakrash, va yo'nalishni o'zgartirish mashqlari.
- **maxsus texnikalar**: karate harakatlari va kombinatsiyalarini tezlik bilan bajarish.
- **o'yinli metodlar**: harakatli o'yinlar orqali koordinatsiya va reaksiyani yaxshilash.

Har bir mashg'ulot haftalik jadvalga asoslangan holda amalga oshiriladi. Quyidagi jadvalda 13-14 yoshli o'quvchilar uchun haftalik mashg'ulotlar dasturi keltirilgan:

**13-14 yoshli oʻquvchilar uchun haftalik mashgʻulotlar dasturi**

**1-jadval**

| **Kun** | **Mashgʻulot turi** | **Asosiy maqsad** | **Mashgʻulot davomiyligi** |
|---|---|---|---|
| Dushanba | Dinamik mashqlar | Harakat tezligini rivojlantirish | 60 daqiqa |
| Chorshanba | Texnik mashqlar | Karate kombinatsiyalarini shakllantirish | 60 daqiqa |
| Juma | Oʻyinli mashqlar | Chaqqonlik va muvozanatni rivojlantirish | 60 daqiqa |
| Shanba | Tahlil va baholash mashgʻulotlari | Natijalarni baholash va yakunlash | 60 daqiqa |

Mazkur metodik yondashuv oʻquvchilarning chaqqonlik jismoniy sifatini samarali rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Mashgʻulotlar jarayonida oʻquvchilarni doimiy ravishda ragʻbatlantirish va natijalarni kuzatish muhim ahamiyatga ega.

**Tajriba natijalari.** Karate sport toʻgaragi orqali chaqqonlikni rivojlantirish boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqotlar natijalari oʻquvchilarning jismoniy sifatlarida sezilarli ijobiy oʻzgarishlarni koʻrsatdi. Tadqiqot davomida 13-14 yoshdagi 30 nafar maktab oʻquvchisi ikki guruhga boʻlindi: eksperimental guruh (karate mashgʻulotlari) va nazorat guruhi (umumiy jismoniy tarbiya mashgʻulotlari). Tajriba uch oy davomida haftasiga uch marta oʻtkazildi.

**Eksperimental guruh**da chaqqonlikni rivojlantirish uchun maxsus mashq dasturi qoʻllanildi. Ushbu dastur quyidagilarni oʻz ichiga oldi:

- dinamik tezlik mashqlari (tezkor yugurish va yoʻnalishni tez oʻzgartirish).
- karate texnikalarini birlashtirgan kombinatsiyalarni bajarish.
- reaksiya tezligini oshirishga qaratilgan oʻyinli mashqlar.

tajriba yakunida chaqqonlikni baholash uchun maxsus testlar oʻtkazildi. quyidagi natijalar kuzatildi:

- eksperimental guruhda oʻquvchilarning chaqqonlik darajasi 20-25% ga yaxshilandi.
- nazorat guruhida esa bu koʻrsatkich atigi 5-7% ni tashkil etdi.

**Eksperimental guruh natijalari:**

- harakatni tezkor boshlash va tugatish qobiliyati oshdi.
- reaksiya tezligi va koordinatsiyada sezilarli yaxshilanish kuzatildi.
- karate texnikalarini bajarish sifatida barqarorlik paydo boʻldi.

Ushbu natijalar karate sport toʻgaraklarida chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan metodikaning samaradorligini isbotladi. Bu yondashuvni boshqa jismoniy tarbiya dasturlarida ham qoʻllash maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.**

Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari karate sport toʻgaraklarining maktab oʻquvchilarida chaqqonlik jismoniy sifatini rivojlantirishdagi samaradorligini koʻrsatdi. Karate mashgʻulotlari jarayonida qoʻllanilgan maxsus metodikalar – dinamik mashqlar, karate texnik kombinatsiyalari va oʻyinli mashqlar – oʻquvchilarning chaqqonlik darajasini sezilarli darajada yaxshilashga imkon berdi.

Eksperimental guruhda chaqqonlik 20-25% ga oshgani va natijalarning barqaror bo'lishi ushbu metodikaning amaliyotda keng qo'llanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuv, mashg'ulotlar muntazamligi va mashqlar turlicha bo'lishining ahamiyati katta.

Karate mashg'ulotlari nafaqat chaqqonlik sifatini rivojlantiradi, balki o'quvchilarda intizom, iroda, diqqat va o'z-o'zini boshqarish kabi muhim fazilatlarni ham shakllantiradi. Shu sababli, maktablarda karate to'garaklarini tashkil qilish o'quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kelgusida bu yondashuvni boshqa yosh guruhlari va jismoniy sifatlarni rivojlantirishga moslashtirish, shuningdek, boshqa sport turlari bilan integratsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Karate sport to'garaklari ta'lim va sport tizimidagi muhim vosita sifatida faol rivojlantirilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PQ–4563-sonli qarori "Sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori

2. Azizov, S. V., Mahmudjonov, A. A., & Oripov, A. F. (2024). SPRINTERLARNI TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI. Экономика и социум, (6-2 (121)), 85-90.

3. Doston No'monjon o'g, E. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING

O'RNI. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 717-721.

4. G'ofirjonova, A. I. (2022). MILIY HARAKATLI O 'YINLARNI SPORT ELEMENTLARINI O 'ZLASHTIRISHDA QO 'LLASHNING SAMARADORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(9), 171-176.

5. Makhmudovich, G. A. (2024). THE IMPORTANCE OF SPECIAL METHODS IN INCREASING THE EFFICIENCY OF SPORTS EXERCISES. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 730-734.

6. Makhmudovich, G. A., & Abduvokhid o'g'li, M. A. (2024). THE ROLE OF SPORTS IN ACHIEVING SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 13(01), 13-15.

7. Mahmudjonov, A. A., Izatullayev, A. M., & Ergashaliyev, D. N. (2024). THE IMPORTANCE OF GENERAL PHYSICAL FITNESS IN INCREASING THE EFFICIENCY OF SPORTS TRAINING IN PRIVATE SCHOOLS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 755-759.

8. Makhmudovich, G. A. (2024). METHODS OF MONITORING THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH GYMNASTICS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 735-739.

9. Makhmudovich, G. A. (2024). MOVEMENT SKILLS OF YOUNG GYMNASTS AND THE LAWS OF ITS FORMATION. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 751-754.

10. Muxtorjon o'g'li, I. A., Doston No'monjon o'g, E., & Abduvoxid o'g'li, M. A. (2024). STOL TENNISI BILAN SHUGULLANUVCHI OSMIRLARNING HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(22), 398-402.

11. Jo'rayev, T. T., Mahmudjonov, A. A., & Shamsitdinova, M. F. (2024). THE EFFECTIVENESS OF USING NATIONAL ACTION GAMES IN DEVELOPING SPORTS ELEMENTS. MASTERS, 2(3), 29-33.

# BOLALAR FAOLIYAT TURLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA BILISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

***Abdullajonova Saodat G'ayrat qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
70110201- "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha talim)" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
**Tel:** +99877 395 02 42)
**E-mail:** abdullajanovasaodat7@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar faoliyat turlarini integratsion yondashuv asosida tashkil etish orqali bilish kompetensiyalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo'llashning samaradorlik omillari, ularning maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni hamda tarbiyachilarning metodik mahoratini oshirishdagi roli yoritilgan.

Maqolada nazariy va amaliy tajribalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar**: integratsion yondashuv, maktabgacha ta'lim, bilish kompetensiyasi, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim, metodika, bolalar faoliyati, pedagogik yondashuv, kognitiv rivojlanish, metodik tavsiyalar.

**Аннотация**: В статье рассматриваются вопросы формирования познавательных компетенций у детей через интегративный подход к видам деятельности. Анализируются возможности применения инновационных и цифровых технологий в дошкольном образовании, их влияние на развитие детей и повышение методической компетентности педагогов. На основе теоретических и практических данных разработаны методические рекомендации.

**Ключевые слова**: интегративный подход, дошкольное образование, познавательная компетенция, инновационные технологии, цифровое обучение, методика, детская деятельность, педагогический подход, когнитивное развитие, методические

**Annotation**: The article analyzes the development of cognitive competencies in preschool children through an integrative approach to various types of activities. It highlights the effectiveness of using innovative and digital technologies in preschool education and their impact on improving teachers' methodological skills. Based on theoretical and practical research, methodological recommendations are proposed.

**Keywords**: integrative approach, preschool education, cognitive competence, innovative technologies, digital learning, methodology, children's activity, pedagogical approach, cognitive development, methodological recommendations.

**Kirish**

Bugungi kunda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilishni, bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirishda yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning ta’lim sifatini oshirish, ularning bilish kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini eng dolzarb mavzulardan biriga aylantirdi. Maktabgacha, boshlang‘ich va o‘rta ta’limda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, mustaqil o‘ylash va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida integratsion yondashuvlarni qo‘llash kerakligi hamda bu jarayonda innovatsion metodlar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarning (masalan, interaktiv darsliklar, masofaviy va aralash ta’lim, elektron o‘quv resurslari, AKT savodxonligi) ahamiyati ortib , XXI asr malakalari talabining — kreativlik, innovatsion fikrlash, texnologiyalar bilan ishlay olish, axborot-savodxonlik — bolalikdan boshlab shakllantirilishi kerakligi davlat siyosati va pedagogik amaliyotda keng tan olinmoqda. Shu bois “Bolalar faoliyat turlariga integratsion yondashuv asosida bilish kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi” mavzusi tadqiqot uchun dolzarb, zamonaviy va amaliy ahamiyatga ega. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun hamda Prezident qarorlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli ta’lim muhitini shakllantirish, pedagoglarning malakasini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bilish kompetensiyalarini shakllantirish — bu bolaning o‘zini o‘rab turgan olamni idrok etish, mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va

amaliy faoliyatda bilimlarni qo'llay olish qobiliyatidir. Integratsion yondashuv esa turli faoliyat turlarini bir-biri bilan uyg'unlashtirib, bolada kompleks fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**1. Integratsion yondashuvning pedagogik mohiyati**

Integratsion yondashuv — bu ta'lim jarayonida turli fanlar, mavzular yoki faoliyat turlarini o'zaro bog'lab, bolada yaxlit dunyoqarashni shakllantirish metodidir. Maktabgacha ta'limda bu yondashuv o'yin, mehnat, nutqiy, musiqiy va tasviriy faoliyatlarni uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, "tabiat bilan tanishuv" mashg'ulotida bolalar kuzatuv o'yini o'tkazib, raqamli ilova orqali jonivorlar haqida video tomosha qiladi, so'ng tasviriy faoliyat orqati tasvirlabi o'z taassurotlarini ifodalaydi. Bu jarayon integratsion ta'limning amaliy ko'rinishidir.

**2. Bilish kompetensiyalarining tarkibiy qismlari**

Bilish kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

Axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmasi;

Ijodiy fikrlash va muammoni hal etish qobiliyati;

Muloqot va hamkorlik madaniyati;

O'z faoliyatini baholash va refleksiya.

Bu kompetensiyalarni shakllantirish uchun o'qituvchi bolani mustaqil fikrlashga undaydigan, interaktiv va raqamli vositalarni o'z ichiga olgan mashg'ulotlarni tashkil etishi zarur.

**3. Innovatsion texnologiyalarning roli**

Innovatsion texnologiyalar maktabgacha ta'limda quyidagi vazifalarni bajaradi: Bolaning diqqatini jamlash va motivatsiyani oshirish; Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish; O'yin orqali o'rganish imkonini berish; Ijodkorlikni rivojlantirish; shuningdek, ta'limda inkluziv pedagogika, differentsial yondashuvlar va interfaol

metodlarning keng qo'llanilishi bolalarning bilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Integratsion yondashuv esa turli faoliyat turlarini (ma'naviy-axloqiy, badiiy, tilshunoslik, tabiiy fanlar va texnologiyalar) birlashtirib, bolada keng ko'lamli bilim va tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, "Learning Apps", "Khan Academy Kids", "ABCmouse" kabi interaktiv dasturlar bolalarda mantiqiy fikrlash, nutq rivoji va matematik tasavvurni mustahkamlaydi.

**4. Raqamli texnologiyalar asosida metodik yondashuv**

Raqamli texnologiyalarni integratsion ta'lim jarayoniga qo'llashda quyidagilar muhim: Multimediali taqdimotlar va videodarslar; Virtual ekskursiyalar (Google Earth, YouTube Kids); Sensorli o'yinlar va AR (Augmented Reality) dasturlari; Elektron portfoliosh shakllantirish. Ushbu texnologiyalar orqali bolalar bilimni nafaqat tinglaydi, balki uni amalda sinab ko'radi, tajriba asosida o'zlashtiradi.

**5. Tadqiqot natijalari va amaliy tavsalariy**

Tadqiqot davomida maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalar asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar natijasi shuni ko'rsatdiki: Integratsion yondashuv asosida o'qitilgan bolalarda diqqat va xotira 25–30% yaxshilangan; Mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalari rivojlangan; O'yinli raqamli texnologiyalar bolalarda o'rganishga ijobiy motivatsiya uyg'otgan.

Amaliy tavsiyalar:

1. Tarbiyachilar uchun raqamli texnologiyalarni o'qitish bo'yicha muntazam seminarlar o'tkazish.

2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida "Innovatsion metodika burchagi"ni tashkil etish.

3. Integratsion mashg'ulotlar uchun o'quv-didaktik elektron resurslar yaratish.

**Xulosa**

Integratsion yondashuv asosida bolalarning bilish kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish bugungi ta'lim taraqqiyotining zarur sharti hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolalarda nafaqat bilim, balki mustaqillik, ijodkorlik va hamkorlik ruhini ham rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni kengroq joriy etishning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4312-son qarori. — Toshkent, 2019.

2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. — Toshkent: Adolat, 2020.

3. Jo'rayev, A. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018.

4. Qodirova, N., Xudoyberdiyeva, G. Raqamli ta'lim texnologiyalari. — Toshkent: "Innovatsiya ziyo", 2022.

5. Rasulova, D. Bolalar bilish jarayonini rivojlantirish metodikasi. — Namangan, 2017.

6. Karimova, M. Maktabgacha ta'limda integratsion yondashuv asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

7. Shirinova, Z. Innovatsion metodlar va raqamli vositalar. — Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2024.

# INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA ELEKTR MAGNITIZM FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH

***Jo'rayeva Muxlisa Botirjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Fizika astronomiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi
***Ilmiy raxbar:* D. A. Alijanov** PhD.,
Namangan davlat pedagogika instituti
O'quv metodik ta'minot bo'limi boshlig'i

**Kirish.** Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimi shiddat bilan o'zgarib, yangi bilim va texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonida talabaning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish ustuvor masalaga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham aynan shu yo'nalishga qaratilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, eng asosiysi, talabalarning mustaqil fikrlash va ijodiy izlanish kompetensiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilab berildi.

Fizika fani, xususan, elektromagnitizm bo'limi nafaqat nazariy murakkabligi, balki hayotiy va texnikaviy amaliyot bilan chambarchas bog'liqligi bilan ham ajralib turadi. Mazkur fan bo'yicha chuqur bilimlarni egallashda talabadan mustaqil izlanish, tajriba o'tkazish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va nazariy tushunchalarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish talab etiladi. Shunday sharoitda, elektromagnitizm fanidan mustaqil ta'limni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish nafaqat metodik zarurat, balki zamonaviy ta'lim jarayonining strategik talabi sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimining joriy etilishi, masofaviy ta'lim texnologiyalarining kengayishi hamda elektron resurslar bazasining boyitilishi talabalarning mustaqil ta'limini

samarali tashkil etish uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Shu bilan birga, bu jarayon oʻqituvchidan an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, ta'limni innovatsion metodlar, interfaol uslublar va integratsiyalashgan didaktik vositalar asosida tashkil etishni talab qilmoqda.

Demak, elektromagnitizm fanidan mustaqil ta'limni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ularni mustaqil izlanishga jalb etish va zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlashning muhim metodologik omili hisoblanadi. Ushbu maqolada mazkur masalaning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinib, amaliyotda qoʻllash imkoniyatlari yoritiladi.

## ASOSIY QISM

**Adabiyotlar tahlili.** Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xususan oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy bilimlarni egallash imkoniyatlarini kengaytirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan farmon va qarorlari (2017 yil 20 apreldagi PQ-2909, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847, 2020 yil 27 iyuldagi PQ-4805 va boshqalar) oliy ta'lim muhitida mustaqil oʻqish, mustaqil fikrlash va mustaqil izlanish koʻnikmalarini shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi.

Pedagogik adabiyotlarda mustaqil ta'lim talabaning shaxsiy faolligini rivojlantirish, oʻzini-oʻzi boshqarish, ijodiy izlanish va oʻz bilimini mustaqil ravishda boyitishga qaratilgan jarayon sifatida talqin qilinadi (Qodirov, 2021; Joʻraeva, 2022). Shu bilan birga, innovatsion yondashuv asosida mustaqil ta'limni tashkil etish talabalarning nafaqat bilim olish, balki ularni amaliyotga qoʻllash, tanqidiy tahlil qilish va

muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida joriy qilinayotgan kredit-modul tizimi ham mustaqil ta'limning mazmun va shaklini yangicha yo'nalishda tashkil etishni talab etmoqda. Xususan, har bir fanning o'quv dasturlarida mustaqil ta'lim soatlarining ulushi sezilarli darajada oshirilgan bo'lib, bu jarayon talabaning o'z ustida ishlashini, qo'shimcha ilmiy-pedagogik va elektron manbalarni o'zlashtirishini talab qilmoqda (Karimov, 2020).

So'nggi ilmiy izlanishlarda (Tursunov, 2021; Abdurahmonova, 2023) ta'kidlanganidek, mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar – masofaviy ta'lim platformalari, elektron resurslar, interfaol metodlar, loyiha va tadqiqot faoliyatiga asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, ayniqsa, elektromagnitizm kabi nazariy va amaliy jihatdan murakkab yo'nalishlarni o'qitishda talabalar bilimini mustahkamlashga yordam beradi.

Xorijiy adabiyotlarda ham (Biggs & Tang, 2011; Knowles, 2015) mustaqil ta'lim zamonaviy oliy ta'limning ajralmas qismi sifatida talabalarning "umrbod ta'lim olish" kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil sifatida ko'riladi. Shu jihatdan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosati jahon tajribasi bilan uyg'unlashgan holda, innovatsion yondashuv asosida mustaqil ta'limni rivojlantirishga qaratilganini ko'rish mumkin.

Demak, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, elektromagnitizm fanidan mustaqil ta'limni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish bugungi kunda nafaqat metodik zarurat, balki oliy ta'lim tizimi oldida turgan strategik vazifalardan biridir. Bu yo'nalishda amalga

oshirilayotgan islohotlar pedagogik amaliyotda yangicha metod va texnologiyalarni joriy etishni talab etmoqda.

**Metodologiya**

Ushbu tadqiqotning metodologik poydevorini O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda oliy ta'lim sohasini modernizatsiya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilg'or ilmiy-pedagogik konsepsiyalar tashkil etadi. Xususan, PQ-2909 (2017), PF-5847 (2019) va PQ-3775 (2018) hujjatlarida belgilangan vazifalar oliy ta'lim jarayonida talabaning mustaqil ta'lim faoliyatini kuchaytirish, uni innovatsion fikrlash va ijodiy izlanishga yo'naltirish hamda umrbod ta'lim olish kompetensiyasini shakllantirish zaruratini metodologik asos sifatida belgilaydi. Ushbu qarorlar ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni keng joriy etish, talabaning o'z ustida ishlash mexanizmlarini rivojlantirish va mustaqil o'qishni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Metodologiya asosida quyidagi ilmiy-pedagogik yondashuvlar qo'llanildi:

1. **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv** – talabaning mustaqil ta'lim jarayonida individual qiziqishi, o'zlashtirish sur'ati va shaxsiy intilishlari inobatga olindi. Bu jarayonda har bir talabaning o'z ustida ishlashga bo'lgan motivatsiyasi hamda intellektual salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

2. **Faol ta'lim yondashuvi** – elektromagnitizm fanini o'qitishda talabalarning nafaqat bilimlarni qabul qilishi, balki ularni tahlil qilishi, mustaqil izlanishi va amaliyotda qo'llashi uchun sharoit yaratildi. Loyiha ishlari, amaliy topshiriqlar, laboratoriya tajribalari va virtual simulyatsiyalar metodologiyaning asosiy komponentlari sifatida

belgilandi.

3. **Innovatsion-pedagogik yondashuv** – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish orqali mustaqil ta'limni tashkil etish nazarda tutildi. Ayniqsa, Moodle, Google Classroom, hamda milliy "ZiyoNET" platformalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

4. **Integrativ yondashuv** – elektromagnitizm fanidagi nazariy tushunchalarni fizika, matematika, informatika va texnologiya fanlari bilan bog'lab o'qitish orqali talabalar dunyoqarashini kengaytirish metodik asos sifatida qabul qilindi.

Metodologik asos sifatida pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov ishlari, anketa va suhbatlar yordamida empirik ma'lumotlar to'plandi. Shu bilan birga, mustaqil ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvning samaradorligini aniqlash uchun taqqoslash, tahlil va sintez metodlari qo'llanildi.

Umuman olganda, ushbu metodologiya O'zbekistonda amalga oshirilayotgan oliy ta'lim siyosati bilan uzviy bog'liq bo'lib, elektromagnitizm fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, ularni innovatsion faoliyatga tayyorlash va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishni asosiy maqsad qilib oladi.

Elektr magnitizm fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish nazariy jihatdan bir necha pedagogik va didaktik konsepsiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Avvalo, mustaqil ta'limning metodologik mohiyati talabaning shaxsiy faolligini, intellektual izlanishini va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayon zamonaviy ta'lim paradigmasida o'quvchi (talaba) markazli yondashuv tamoyiliga

asoslanadi. Ushbu yondashuvda oʻqituvchi bilim manbai va nazoratchi sifatida emas, balki taʼlimiy muhitni tashkil qiluvchi, yoʻnaltiruvchi va motivatsiya beruvchi subyekt sifatida talqin qilinadi.

Taʼlim jarayonida mustaqil taʼlimning nazariy asoslari Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi, Deweyning "tajribaviy taʼlim" gʻoyalari, shuningdek, konstruktivistik pedagogika nazariyalari bilan hamohangdir. Bunda talaba bilimni tayyor shaklda emas, balki izlanish, tajriba va muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali oʻzlashtiradi. Shuningdek, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, muammoli fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantirish elektromagnit hodisalarni oʻrganishda nazariy asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy jihatdan qaralganda, elektromagnitizm boʻyicha mustaqil taʼlimni samarali tashkil etish bir necha yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi:

1. **Didaktik asoslar** – taʼlim mazmunining tizimliligi, fanlararo integratsiya, nazariya va amaliyot birligiga tayangan holda bilimlarni egallash.

2. **Psixologik asoslar** – talabada mustaqil izlanishga ehtiyoj, motivatsiya va refleksiv tafakkurni shakllantirish.

3. **Pedagogik asoslar** – oʻqituvchi tomonidan mustaqil taʼlimni yoʻlga qoʻyishda metodlar, vositalar va shart-sharoitlarni yaratish.

Shuningdek, nazariy asos sifatida Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim sohasida olib borilayotgan islohotlarning strategik tamoyillari ham katta ahamiyatga ega. Xususan, uzluksiz taʼlim tizimida "umrbod oʻqish" kompetensiyasini shakllantirish, talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash mustaqil taʼlimni rivojlantirish gʻoyalariga bevosita mos keladi.

Natijada, elektromagnitizm fanida mustaqil ta'limni tashkil etish nafaqat talabaning fanga oid bilim va ko'nikmalarini boyitadi, balki uning intellektual salohiyatini, ijodiy tafakkurini va ilmiy dunyoqarashini kengaytiruvchi nazariy asoslangan jarayon sifatida qaraladi.

**Amaliy va innovatsion yondashuvlar**

Elektr magnitizm fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda amaliy va innovatsion yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi, zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi muhim yo'nalishlar hisoblanadi. Amaliy yondashuv, avvalo, nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash, laboratoriya tajribalari, texnik qurilmalar bilan ishlash hamda muammoli topshiriqlarni mustaqil hal qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Talabalar elektromagnit hodisalarni real hayotdagi texnologik jarayonlar, elektronika, aloqa vositalari va energiya tizimlari bilan bog'lab o'rganishi ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash va kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuv esa, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, raqamli ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Xususan, elektromagnit maydonlar, to'lqinlar yoki elektr zanjirlarini modellashtirish uchun dasturiy vositalardan foydalanish talabaga murakkab jarayonlarni ko'rgazmali tarzda idrok etish imkonini beradi. Shu bilan birga, masofaviy ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom, EdX va boshqalar) yordamida mustaqil ta'limni tashkil etish talabaning o'z vaqtini boshqarish va individual ta'lim trayektoriyasini belgilash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy va innovatsion yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi

mustaqil ta'lim samaradorligini oshiradi. Masalan:

**Amaliy topshiriqlar** – elektr zanjirlarini tuzish, magnit maydonini o'lchash, elektromagnit induksiya hodisasini kuzatish orqali real tajriba asosida bilim olish.

**Innovatsion topshiriqlar** – virtual tajriba o'tkazish, onlayn simulyatsiya dasturlari yordamida nazariy qonuniyatlarni modellashtirish, raqamli o'quv resurslari asosida ijodiy loyiha tayyorlash.

O'zbekiston oliy ta'lim siyosatida ham aynan shu ikki yondashuv uyg'unligi ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Jumladan, talabalarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarga ega qilish, innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishni tashkil etish orqali mustaqil ta'limning mazmuni boyitilmoqda.

***Follower robot loyihasi misolida***

Follower roboti odam yoki obyektni aftamatik ravishda kuzatib boradigan robotdir. U ultratovush sensorlari orqali atrofdagi narsalarni sezadi va  distansiyani aniqlab, to'siqlarni aylanib o'tadi. Follower roboti yuk ta'shishda, xizmat ko'rsatishda yoki tayanch harakatida nuqsoni bor shaxslarni hayot tarzini yengillashtirishda, airaportlarda yuk ta'shishda xizmat qiladi. Bu robot 3 ta funksiyada ishlaydi. Ergashuvchi rejim, aftamatik hamda bluetooth rejim asosiy boshqaruv tamoyili. hisoblanadi.

Robotni yig'ishda talabalar elektr zanjiri, kuchlanish, qarshilik, elektromotor va dasturlash asoslarini o'rganadilar. Natijada ular nafaqat nazariy bilimni, balki texnik ijodkorlik ko'nikmalarini ham egallashadi

Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning eng qulay va natijador shakllaridan biri bu loyiha asosida o'qitishdir. Talabalarga

elektromagnitizm fani bo'yicha nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini beruvchi loyihalardan biri — Follower robot yaratish jarayonidir.

**Xulosa.** Mazkur maqolada elektromagnitizm fanidan mustaqil ta'limni innovatsion yondashuv asosida tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilindi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, kredit-modul tizimiga o'tish, raqamli ta'lim muhitini joriy etish va talabalarni umrbod ta'lim olishga yo'naltirish kabi ustuvor vazifalar mustaqil ta'limning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Bu esa o'quv jarayonini faqatgina auditoriya mashg'ulotlari bilan cheklab qolmasdan, balki talabalarni mustaqil izlanishga, o'z ustida ishlashga va nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga yo'naltirishni talab etadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, elektromagnitizm fanida amaliy mashg'ulotlar va innovatsion texnologiyalar uyg'unligi talabalarda chuqur bilim olish, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, **Follower robot** kabi loyiha asosidagi topshiriqlar talabalarni nafaqat fan qonuniyatlarini puxta o'zlashtirishga, balki zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash, dasturlash va ijodiy faoliyat yuritishga ham undaydi.

Shu boisdan, elektromagnitizm fanini o'qitishda mustaqil ta'limni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish pedagogik jihatdan o'zini oqlaydi. Bunday yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan mustahkamlash, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish va kelajakdagi kasbiy faoliyatida raqobatbardosh bo'lishlariga zamin yaratadi.

## References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017, April 20). *Oliy*

*ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida* (PQ-2909-son qaror). https://lex.uz/docs/3171587

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, October 8). *O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi* (PF-5847-son farmon). https://lex.uz/docs/4545884

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2018, June 5). *Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida* (PQ-3775-son qaror). https://lex.uz/docs/3764334

4. Qodirov, S. (2021). *Oliy ta'limda mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning metodik asoslari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

5. Jo'raeva, M. (2022). *Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar*. Namangan: NDPI ilmiy axborotlari.

6. Karimov, A. (2020). Kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta'limni tashkil etish masalalari. *Oliy ta'lim muammolari jurnali, 2*(1), 45–52.

7. Tursunov, H. (2021). Masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida mustaqil ta'limni tashkil etish tajribalari. *Pedagogika va innovatsiyalar jurnali, 4*(3), 78–85.

8. Abdurahmonova, G. (2023). Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar mustaqil o'qishini faollashtirish. *Ta'lim va rivojlanish ilmiy jurnali, 1*(2), 33–40.

# YOSH OILALARDA ZO'RAVONLIK OQIBATIDA KELIB CHIQUVCHI NIZOLARNI BARTARAF ETISHNI TA'MINLASH UCHUN PSIXOSOTSIAL YORDAM

***Ergasheva Moxina Narzulla qizi***
O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
Psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti talabasi
**Tel:** +998930026506
**E-mail:** ergashevamoxina320@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yosh oilalarda zo'ravonlik oqibatida kelib chiquvchi nizolarni bartaraf etishni ta'minlash uchun psixosotsial yordam shakllari va amaliyotda qollaniladigan metod va vositalar haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, shaxs, rivojlanish, shakllanish, nikoh, din, tarbiya, metod, nizo, konfilikt, ta'lim.

**Аннотация:** В этой статье представлена информация о формах психосоциальной помощи и методах и инструментах, используемых на практике для обеспечения разрешения конфликтов, вызванных насилием в молодых семьях.

**Ключевые слова:** семья, личность, развитие, становление, брак, религия, воспитание, метод, конфликт, конфронтация, образование.

**Abstract:** This article provides information about the forms of psychosocial assistance and the methods and tools used in practice to resolve conflicts caused by violence in young families.

**Keywords:** family, personality, development, formation, marriage, religion, upbringing, method, conflict, confrontation, education.

Bugungi kunda oilaviy barqarorlikni saqlash, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash masalasi jamiyat taraqqiyotining eng muhim ijtimoiy

vazifalaridan biridir. So'nggi yillarda yosh oilalar orasida turli sabablarga ko'ra kelib chiqayotgan nizolar, ayniqsa zo'ravonlik holatlarining ko'payishi ijtimoiy-psixologik muammolardan biriga aylandi. Bunday holatlar nafaqat oila a'zolarining ruhiy salomatligiga, balki farzandlarning ma'naviy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois yosh oilalarda zo'ravonlik oqibatida kelib chiquvchi nizolarni bartaraf etishda psixosotsial yordam tizimini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. [1]

Oilaviy zo'ravonlik — bu bir oila a'zosi tomonidan boshqa a'zoga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy tazyiq o'tkazish holatidir. Yosh oilalarda bu jarayon ko'pincha quyidagi sabablarga bog'liq bo'ladi:

- Ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar (ishsizlik, moddiy yetishmovchilik);
- Ruhiy yetuklikning pastligi, emotsional boshqaruvdagi muammolar;
- Nikohga tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi;
- O'zaro muloqot madaniyatining pastligi;
- Ijtimoiy stereotiplar (ayollarga yoki erkaklarga nisbatan noto'g'ri qarashlar);

Bolalikdagi travmatik tajribalar natijasida, oila ichida doimiy nizolar, ishonchsizlik, ruhiy beqarorlik va ajralish holatlari ko'payadi.

Psixosotsial yordam — bu shaxsning ruhiy (psixologik) va ijtimoiy (sotsial) jihatdan tiklanishini ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuvdir. U shaxsga o'z his-tuyg'ularini boshqarish, muammolarni hal etish, ijtimoiy munosabatlarni tiklashda yordam beradi. Psixosotsial yordam - shaxslararo munosabatlardagi qiyinchiliklar bilan bog'liq turli xil psixologik muammolarni, shuningdek, chuqur shaxsiy muammolarni hal qilishga qaratilgan odamlar bilan bevosita ishlash. [2]

Psixosotsial yordamning asosiy maqsadi — zo'ravonlikdan jabrlangan yoki nizoga duch kelgan shaxsni ruhiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy resurslar bilan bog'lash, va barqaror hayot tarziga qaytarishdan iboratdir.

Psixologik yordam turlari

Psixoprofilaktika (ogohlantirish).

Psixologik ta'lim (maslahatda, psixoprofilaktikada — ma'ruzalar, seminarlar).

Psixodiagnostika (muammolarni aniqlash va boshqalar) psixologik ko'rsatkichlar).

Psixologik maslahat (moslashuv, rivojlanish va shaxsiy potentsialni kengaytirishda psixologik norma doirasida bo'lgan odamlarga psixologik yordam).

Psixoterapiya (chuqur shaxsiy muammolarni hal qilishga va shaxsni chuqur o'zgartirishga qaratilgan) klinik va klinik bo'lmagan bo'lishi mumkin.

Psixiatriya (yordamning tibbiy shakli, dori vositalaridan foydalanish yoki insonni bemor sifatida emas, balki boshqa dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs deb hisoblaydigan, dori vositalaridan cheklangan darajada foydalanadi, shuning uchun psixoterapevtik yo'ldan boradi).

Psixokorrektsiya (emotsional holat nuqtai nazaridan ham, shaxsiy xususiyatlar nuqtai nazaridan ham normani tiklash).

Psixologik yordam — bu mijozga psixologik muammolarni mustaqil ravishda hal qilish imkonini beradigan va yordam beradigan o'ziga xos o'zaro ta'sir. [3]

Shuningdek, psixologik yordam turlarini quyidagilarga boʻlish mumkin: psixologik maslahat; psixologik tuzatish; inqirozga aralashuv; psixologik reabilitatsiya; psixologik trening, psixoterapiya;

Psixologik yordam turlarini qat'iy ravishda suv istemol qilish mumkin emas. Kesishadigan joylar mavjud. Mezon — kim yordam beradi (ta'limdagi farq), mutaxassis mijoz yoki bemor bilan kim ishlaydi (moslashish — bu me'yor mezon), nima yordam beradi (dorilar, psixoterapevtik, maslahat usullari)

Zoʻravonlikka uchragan yoki unga guvoh boʻlgan shaxs bilan ishlashda quyidagi bosqichlar muhim hisoblanadi:

1-psixologik yordam:

- Jabrlanuvchining ruhiy holatini aniqlash va xavfsizlikni ta'minlash;
- Stress, qoʻrquv, aybdorlik yoki gʻazab holatlarini kamaytirish;
- Oʻzini qadrlash hissini tiklash, oʻziga ishonchni oshirish;
- Ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tarmogʻini shakllantirish.

2. Ijtimoiy yordam

- Huquqiy maslahatlar berish (himoya orderi, ajralish, aliment masalalari boʻyicha);
- Ijtimoiy xizmatlar, boshpana yoki bandlik markazlariga yoʻnaltirish;
- Oila a'zolari bilan vositachilik (mediatsiya) orqali ishlash;
- Jamiyatda oilaviy zoʻravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

3. Ta'limiy va profilaktik yondashuvlar:

- Yosh oilalar uchun "oilaviy hayot psixologiyasi" boʻyicha treninglar oʻtkazish;

- Erkak va ayollarning teng huquqliligini targ'ib qilish;

- Stressni boshqarish, muloqot madaniyati va konfliktologiya bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish. [5]

4. Psixosotsial yordam tizimining samaradorligini oshirish yo'llari

- Yosh oilalar bilan ishlash jarayonida psixosotsial yordamning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur:

1. Mahalliy darajada ixtisoslashgan markazlar tarmog'ini kengaytirish — har bir hududda psixolog, sotsial xodim, huquqshunos va mediatorlardan iborat jamoalar faoliyat yuritishi lozim.

2. Kadrlar malakasini oshirish — zo'ravonlik bilan bog'liq holatlarda ishlovchi mutaxassislarning maxsus tayyorgarligini ta'minlash.

3. Axborot va targ'ibot ishlarini kuchaytirish — yosh oilalarga mo'ljallangan media loyihalar, seminar va treninglar tashkil etish.

4. Davlat va nodavlat sektor hamkorligini kuchaytirish — NNTlar, mahalla institutlari va ijtimoiy xizmatlarning o'zaro aloqalarini mustahkamlash.

Psixologik yordamning maqsadi zo'ravonlik qurboni uning boshidan kechirgan travmaning keyingi rivojlanishiga salbiy ta'sirini kamaytirish, xulq -atvoridagi og'ishlarning oldini olish va jamiyatda qayta moslashishga yordam berishdan iborat. Ushbu maqsadlarga asoslanib, psixolog quyidagicha taktik vazifalarni qabul qiladi:

- zo'ravonlik qurbonining ruhiy salomatlik darajasini baholaydi va boshqa turdagi yordam ko'rsatuvlarini aniqlaydi;

- vujudga kelgan muammolarni hal qilish uchun undan yanada to'g'ri foydalanish uchun bolaning individual psixologik xususiyatlarini o'rganadi;

- muammolarning mustaqil hal qilinishini ta'minlab, bolaning yashirin psixologik resurslarini safarbar qiladi;
- shaxsiy nomuvofiqlik va ijtimoiy moslashuvni tuzatishni amalga oshiradi;
- shaxsni yanada rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlarini ochib beradi;
- jabrlangan bolaga psixologik yordam koʻrsatish uchun boshqa oila a'zolari, qarindoshlari, tengdoshlari, ishonchli kishilari va ma'lumotli shaxslarni jalb qiladi.

Psixologik maslahatning asosiy usuli bu intervyu. Zoʻravonlik qurboni shaxsining haqiqiy va potentsial imkoniyatlarini ochib beradigan maxsus savollar va topshiriqlar yordamida psixolog mijoz bilan muloqotda maslahatchining shaxsini qabul qilishdan va suhbatdagi vaziyatdan mumkin boʻlgan narsalar toʻgʻrisida ma'lumot toʻplashga oʻtadi. muammoni hal qilishning muqobil usullari va usullari. [6]

Suhbat chogʻida psixolog zoʻravonlik qurbonining shaxsiyatini soʻzsiz qabul qilishini, hukm qilmaslikni koʻrsatib, faoliyatni, his-tuygʻularini va tajribalarini oʻzgartirishga yordam beradigan boshqa taniqli usullardan foydalanishi mumkin. Koʻpincha bu natijalarga mijozni tinglashning turli xil variantlari orqali erishiladi (T. Gordon):

Yosh oilalarda zoʻravonlik oqibatida kelib chiquvchi nizolarni bartaraf etish — bu faqat individual muammo emas, balki jamiyat barqarorligiga bevosita ta'sir koʻrsatuvchi ijtimoiy masaladir. Shu sababli, bu jarayonda psixosotsial yordam tizimini rivojlantirish, mutaxassislar oʻrtasidagi hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, yoshlarni oilaviy hayotga puxta tayyorlash zarur. Bunday yondashuv orqali oila institutining mustahkamligi, sogʻlom psixologik muhit va farzandlar

tarbiyasining barqarorligi ta'minlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Karimova, V. (2020). Oila psixologiyasi asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti. [1,6]

2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). (2021). Violence Against Women: Key Facts. [2,5]

3. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2008). Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being. American Psychologist. [3,4]

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-martdagi PQ–102-son qarori "Xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida".

5. UNFPA O'zbekiston. (2022). Oilaviy zo'ravonlik holatlarida psixosotsial yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

6. BMTning rasmiy veb-sayti https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/ viendec93.shtml

7. Akmalova, P. D. (2019). The concept of moral personality development in creativity of thinkers of central asia. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 9(1), 135-141.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi. Zarafshon gazetasi, 2018-yil 8-mart, № 28 (22988). 1-b.

# MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA “METODIK MAHORAT SOATI”NI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI

***Sobirova Nazokat Turobjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
70110201- “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
**Tel:** +99891-051-61-08
**E-mail:** sobirova.nazokat94gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metodik mahorat soatini tashkil etishning mazmuni, maqsadi va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, metodik mahorat soatini samarali tashkil etishda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va innovatsion yondashuvlar tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** metodik mahorat soati, innovatsion texnologiya, raqamli ta’lim, pedagogik kompetensiya, ilg‘or tajriba, kasbiy rivojlanish.

**Abstract:** This article discusses the content, purpose, and importance of organizing a methodological master class in preschool educational organizations. It also analyzes modern pedagogical technologies, digital tools, and innovative approaches used in the effective organization of a methodological master class.

**Keywords:** methodological master class, innovative technology, digital education, pedagogical competence, best practices, professional development.

**Аннотация:** В статье рассматриваются содержание, цели и значение организации методического мастер-класса в дошкольных образовательных организациях, анализируются современные

педагогические технологии, цифровые инструменты и инновационные подходы, используемые для эффективной организации методического мастер-класса.

**Ключевые слова:** методический мастер-класс, инновационные технологии, цифровое образование, педагогическая компетентность, передовой опыт, профессиональное развитие.

Bugungi junda ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini maktabgacha ta'lim tizimiga e'tibor katta.Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yosh avlodning bilimli, barkamol, tafakkurli insonlar bo'lib ulg'ayishida maktabgacha ta'lim tizimining roli beqiyos." Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodik mahorat soatini to'g'ri tashkil etish, u orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodik mahorat soati — pedagogik jamoaning malakasini oshirish, ilg'or tajribalarni tahlil qilish va amaliyotga joriy etish uchun muhim vosita hisoblanadi. An'anaviy shakldagi metodik mashg'ulotlardan farqli ravishda, zamonaviy metodik mahorat soatlari raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar hamda interaktiv vositalar bilan boyitilgan bo'lishi lozim. Metodik mahorat kuni va Metodik mahorat soati‖ tadbirlarini o'tkazish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy rivojlanishi uzluksizligini ta'minlash, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifati va samaradorligi oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'RQ 595-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil va 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-152-sonli Farmoni, 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-sonli Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 30-noyabrdagi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 362-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida o'quv dastur ishlab chiqilgan.

**Metodik mahorat soati** – bu pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, tajriba almashish, ilg'or yondashuvlarni o'rganish va yangi pedagogik g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish jarayonidir. Ushbu mashg'ulotlar tarbiyachilarning kasbiy o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Metodik soatning asosiy maqsadi** — pedagogning kasbiy refleksiyasini shakllantirish, o'z faoliyatini tahlil qilish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlarni izlashdan iborat.

"Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarining o'quv dasturiga pedagoglarga har bir ta'limiy faoliyat bo'yicha metodikani chuqurroq o'rgatish maqsadida mutaxassislik bo'yicha metodikalarni o'rgatishga alohida e'tibor berilgan:

1-Mavzu: Dastlabki yillarda matematika – Singapur tajribasi asosida kognitiv rivojlantirish.

2-Mavzu: "Quvnoq matematika".MTT katta va tayyorlov guruhlari uchun mashq daftarini yuritilish mazmuni.

3-Mavzu: Kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlash.

4-Mavzu: Tabiat va jamiyat.

5-Mavzu: Muloqot va til ko'nikmalarini shakllantirish.

6-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z orqali fikrlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.

7-Mavzu: Ijtimoiy-emotsional rivojlanishni rag'batlantirish.

8-Mavzu: Jismoniy rivojlanish va motorika.

9-Mavzu: Estetik ta'lim va ijodkorlik.

10-Mavzu: Bolaning mustaqil harakat qilishi va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda applikatsiya ta'limiy faoliyatini o'rni.

11-Mavzu: Mustaqillik va o'zini boshqarish ko'nikmalari.

12-Mavzu:Mustaqillik va o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogning metodik praktologiyasi. Ushbu dasturda metodikalarni o'rgatish bo'yicha tinglovchining auditoriya o'quv yuklamasi 36 soat bo'lib, shundan: Nazariy Faoliyatlar – 12 soat; Amaliy Faoliyatlar – 24 soat.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar metodik faoliyatni takomillashtirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Jumladan: Multimedia vositalari yordamida taqdimot, videodars va elektron materiallar tayyorlash,onlayn platformalar (Google Meet, Zoom, Moodle, Teams) orqali masofaviy metodik mashg'ulotlar o'tkazish,elektron test tizimlari orqali pedagoglarning bilim va malakasini baholash,bulutli texnologiyalar (Google Drive, OneDrive) yordamida metodik materiallar almashinuvi,sun'iy intellektga asoslangan dasturlar orqali metodik tahlillarni avtomatlashtirishda metodik mahorat soatini tashkil etishda yuqori samara beradi.Shuningdek,raqamli vositalar pedagoglar uchun nafaqat o'qitish jarayonini qulaylashtiradi, balki o'z faoliyatini baholash va o'z ustida ishlashga zamin yaratadi.

Xulosa

Metodik mahorat soatini samarali tashkil etish maktabgacha ta'lim tizimida o'qitish sifati va samaradorligini oshiradi. Bu jarayon tarbiyachilarning ijodiy faolligini, yangi texnologiyalarni qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Har bir tashkilotda metodik mahorat soatlarini tizimli, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish – zamonaviy ta'limning muhim talabi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. — Toshkent, 2022.

2. "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonun. — Toshkent, 2019.

3. Nurmatova S.Y., Rasulova O.M. Maktabgacha ta'lim metodikasi va texnologiyasi. — Toshkent: Fan, 2023.

4. Yapon va Finlandiya maktabgacha ta'lim tajribalariga oid ochiq manbalar (2024-yil).

# “RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOLALARNING AQLIY RIVOJIGA TA’SIRI”

***Baxromjonova Iroda Akmaljon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi 1- bosqich talabasi
**Ilmiy rahbar:** ***B.A.Tillayev***
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta’siri tahlil qilinadi. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya vositalari kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ularning bolalar psixologik, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga bo‘lgan ta’siri dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Maqoladada bolalarning raqamli qurilmalardan foydalanish xususiyatlari, bu jarayonning til o‘zlashtirish, muloqot, diqqat-e’tibor, ijodkorlik va harakat faoliyatiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglarning raqamli vositalarni samarali va maqsadli qo‘llashdagi roli hamda muvozanatli foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Maqola raqamli texnologiyalar ta’sirini chuqur tahlil qilish orqali maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiyalar, ekran vaqti; kognitivrivojlanish, xotira, e’tibor, ta’lim, bola rivojlanishi.

**Аннотация**: В данной статье анализируется влияние цифровых технологий на развитие детей дошкольного возраста. Сегодня информационно-коммуникационные технологии стали неотъемлемой частью повседневной жизни, а их влияние на психологическое, когнитивное и социальное развитие детей считается актуальной проблемой. В освещаются особенности

использования детьми цифровых устройств, положительные и отрицательные стороны этого процесса на усвоение языка, общение, внимание, креативность и двигательную активность. Также рассматривается роль родителей и педагогов в эффективном и целенаправленном использовании цифровых инструментов, даются рекомендации по их сбалансированному использованию. Статья направлена на разработку современных подходов в системе дошкольного образования посредством глубокого анализа влияния цифровых технологий.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, экранное время, когнитивное развитие, память, внимание, образование, развитие ребенка.

**Abstract**: This article analyzes the impact of digital technologies on the development of preschool children. Today, information and communication technologies have become an integral part of everyday life, and their impact on the psychological, cognitive and social development of children is considered a pressing issue. The study highlights the characteristics of children's use of digital devices, the positive and negative aspects of this process on language acquisition, communication, attention, creativity and motor activity. It also discusses the role of parents and educators in the effective and targeted use of digital tools, and provides recommendations for their balanced use. The article serves to develop modern approaches in the preschool education system through an in-depth analysis of the impact of digital technologies.

**Keywords**: digital technologies, screen time, cognitive development, memory, attention, education, child development

Raqamli inqilob hayotning barcha sohalariga, jumladan, bolalar rivojlanishiga ham ta'sir qiluvchi zamonaviy jamiyatni jadal sur'atlar

bilan o'zgartirmoqda. Ekran qurilmalari - smartfonlar, planshetlar, kompyuterlar va televizorlar bolalar kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ular nafaqat ko'ngilochar maqsadlarda, balki o'rganish, muloqot qilish va ma'lumot olish uchun ham qo'llaniladi. Biroq, texnologiyadan keng foydalanish mutaxassislarni xavotirga solmoqda, chunki uning bolalar salomatligi va rivojlanishiga, ayniqsa kognitiv funktsiyalarga ta'siri faol ilmiy munozaralar mavzusi bo'lib qolmoqda. Kognitiv funktsiyalar - bu axborotni idrok etish, tahlil qilish va qayta ishlashni ta'minlaydigan aqliy jarayonlar to'plami. Bularga diqqat, xotira, fikrlash, nutq va idrok kiradi. Bu jarayonlar bolaning o'rganishi va ijtimoiy moslashuvida asosiy rol o'ynaydi. Kognitiv funktsiyalarning eng jadal rivojlanishi maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshida sodir bo'ladi, bu bolalarni atrof-muhit, shu jumladan raqamli texnologiyalar ta'siriga ayniqsa sezgir qiladi. Ushbu mavzuning dolzarbligi bolalarning ekranlar oldida o'tkazadigan vaqtining sezilarli darajada oshishi bilan bog'liq. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, besh yoshgacha bo'lgan bolalarga kuniga bir soatdan ko'p bo'lmagan ekran vaqtini o'tkazish tavsiya etiladi, ammo aslida bu ko'rsatkich ancha yuqori. Gadjetlar bilan uzoq muddatli o'zaro aloqalar mutaxassislarni tashvishga solmoqda, chunki bu bolaning kognitiv rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Biroq, raqamli texnologiyalarga faqat salbiy nuqtai nazardan qaramaslik kerak. O'quv dasturlari, interfaol multimedia va rivojlantiruvchi ilovalar mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, ekran vaqtining kognitiv funktsiyalarga ta'siri nafaqat uning davomiyligiga, balki raqamli kontentning sifatiga, shuningdek, gadjetlardan foydalanish va boshqa faoliyat o'rtasidagi muvozanatga bog'liq.

So‘nggi o‘n yilliklarda bolalarning ekran qurilmalari oldida o‘tkazadigan vaqti tez o‘sdi. Smartfonlar, planshetlar, kompyuterlar va televizorlar ularning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi, bu muqarrar ravishda kognitiv rivojlanishga ta’sir qiladi. Biroq, bu ta’sir darajasi va uning uzoq muddatli oqibatlari hali ham ilmiy munozaralar mavzusidir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, yosh bolalarda ekranda ishlashning tavsiya etilgan me’yorlaridan oshib ketish konsentratsiyaning yomonlashishi, xotira darajasining pasayishi, nutq rivojlanishining kechikishi va boshqa kognitiv buzilishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu jarayonlar ayniqsa muhimdir, chunki diqqat, xotira, fikrlash, idrok va nutq muvaffaqiyatli o‘rganish va ijtimoiy moslashish uchun asosdir. Kognitiv funktsiyalarning shakllanishi maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshida eng faol sodir bo‘ladi, shuning uchun bolalar tashqi omillar, jumladan raqamli texnologiyalar ta’siriga ayniqsa zaifdir. Shunday qilib, ushbu mavzuni o‘rganish raqamli texnologiyalarning bolalarning kognitiv rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini yaxshiroq tushunishga, salbiy oqibatlarni minimallashtirishga yordam beradigan omillarni aniqlashga va sog‘lom raqamli muhitni yaratish uchun samarali strategiyalarni taklif qilishga imkon beradi.

Ekran vaqtining bolalarning kognitiv funktsiyalariga ta’siri bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili o‘tkazildi. Ma’lumot to‘plashning asosiy usuli 5-12 yoshdagi bolalarning 60 nafar ota-onasi o‘rtasida so‘rov o‘tkazish edi. So‘rovnomada gadjetdan foydalanish chastotasi va davomiyligi, iste’mol qilinadigan kontent turlari (ta’lim, ko‘ngilochar), shuningdek, ekrandagi vaqtning bolalar xatti-harakati va o‘quv yutuqlariga ta’siri haqidagi savollar mavjud edi. Bundan tashqari, raqamli qurilmalar ustidan ota-onalar nazorati darajasi baholandi.

Olingan ma'lumotlar bizga mavjud tendentsiyalarni aniqlash, mumkin bo'lgan bog'liqliklarni aniqlash va raqamli muhitning bolaning kognitiv rivojlanishiga ta'sirini baholash imkonini berdi. 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarning ota-onalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovni tahlil qilish ekrandan foydalanishning asosiy tendentsiyalarini va uning kognitiv rivojlanish, xatti-harakatlar va akademik ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqladi.[1]

Aksariyat bolalar (75%) kuniga ikki soatdan ko'proq vaqtini gadjetlarga sarflaydi, bu tavsiya etilgan me'yorlardan oshib ketadi. Eng ko'p ishlatiladigan qurilmalar smartfonlar (80%) va televizorlar (70%). Ekran vaqtining asosiy qismi ko'ngilochar kontentga sarflanadi: multfilmlar (60%) va video o'yinlar (50%), ta'lim dasturlari esa atigi 40% ni tashkil qiladi. Ish kunlarida bolalarning qariyb 50 foizi gadjetlardan kuniga ikki soatdan ko'proq foydalanadi, dam olish kunlari esa bu ko'rsatkich oshadi, ba'zi bolalar (20 foiz) ekranlar oldida to'rt soatdan ko'proq vaqt o'tkazadilar. Jismoniy faollik, shuningdek, ekran vaqtining miqdori bilan bog'liq. Bolalarning yarmi (50%) haftada bir necha marta jismoniy faoliyat bilan shug'ullanadi, ammo 30% o'tirgan turmush tarzini olib boradi, bu raqamli qurilmalardan uzoq vaqt foydalanishning natijasi bo'lishi mumkin. Ota-ona nazorati ekran vaqtini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalarning 40 foizi yotishdan oldin gadjetlardan foydalanishni cheklaydi, 30 foizi ekran vaqtining davomiyligini nazorat qilish uchun taymerlardan foydalanadi, 20 foizi kontentni birgalikda ko'rishni mashq qiladi, 10 foizi esa raqamli qurilmalardan foydalanishni cheklash uchun hech qanday chora ko'rmaydi. Bolalarning akademik faoliyati va kognitiv funktsiyalari ham ekran vaqtiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bolalarning 70 foizi o'qish paytida

diqqatni jamlashda qiynaladi, 25 foizi esa o'rtacha ko'rsatkichdan past.[2]

Shunday qilib, olingan ma'lumotlar mumkin bo'lgan kognitiv, xulq-atvor va jismoniy oqibatlarning oldini olish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish va boshqa tadbirlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini tasdiqlaydi. Bu natijalar bolalarning diqqati, xotirasi va emotsional holatiga ortiqcha ekran vaqtining salbiy ta'sirini ko'rsatuvchi xorijiy tadqiqotlarga mos keladi. Ekranda uzoq vaqt ishlash bolalarning kognitiv funktsiyalari, hissiy holati va xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aniqlanishicha, gadjetlardan ortiqcha foydalanish konsentratsiyaning pasayishi, xotira buzilishi, asabiylashish, charchoq va jismoniy faollikning pasayishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, ta'lim mazmunidan mo''tadil va nazorat ostida foydalanish mantiqiy fikrlash va ishchi xotira kabi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Xalqaro ilmiy ma'lumotlarga mos keladi, bu ekran vaqtining ta'sirining ikki tomonlama xususiyatini tasdiqlaydi. Mo'tadillikda, raqamli qurilmalar bolaning kognitiv rivojlanishiga yordam berishi mumkin, ammo haddan tashqari foydalanish xatti-harakatga, akademik ko'rsatkichlarga va umumiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xatarlarni minimallashtirish va ekran vaqtini samarali boshqarish uchun bir nechta asosiy strategiyalarni o'z ichiga olgan keng qamrovli, multidisipliner yondashuv zarur. Birinchi navbatda, Amerika Pediatriya Akademiyasi (AAP) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan kunlik ekran vaqtini 1-2 soatgacha cheklash tavsiya etiladi.[3]

Ota-onalar taymer va kabi raqamli vositalardan foydalanishlari kerak. Bolaning ekran oldida o'tkazadigan vaqtini nazorat qilish uchun maxsus ilovalar. Iste'mol qilinadigan kontentning mazmuniga alohida

e’tibor qaratish lozim: ta’lim dasturlari xotira va mantiqiy fikrlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ko‘ngilochar dasturlarga haddan tashqari ishtiyoq esa diqqatni jamlash va uyqu buzilishiga olib kelishi mumkin. Ekran vaqtini nazorat qilishdan tashqari, bolalarni jismoniy faollikka undash muhim rol o‘ynaydi. Muntazam jismoniy mashqlar, yurishlar va faol o‘yinlar gadjetlardan uzoq vaqt foydalanishning salbiy oqibatlarini qoplashga yordam beradi. Ota-ona kontentini nazorat qilish ham muhim vositadir: maxsus dasturlar va birgalikda ko‘rish xavfsiz raqamli muhitni yaratishga yordam beradi. Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun ekran vaqtining ta’siri haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan ta’lim tashabbuslari ham muhim emas. Axborotga ega bo‘lgan kattalar samarali nazorat strategiyalaridan ko‘proq foydalanishadi, bu esa gadjetlardan ortiqcha foydalanish bilan bog‘liq xavflarni kamaytiradi. Bundan tashqari, bolalarda raqamli savodxonlikni rivojlantirish, ularni ekran oldida vaqtni boshqarish va sog‘lom raqamli odatlarni shakllantirishga o‘rgatish kerak. Texnologik qaramlikning oldini olishda psixologik yordam ham katta rol o‘ynaydi. Shunday qilib, ekran vaqtini optimallashtirish turli strategiyalarning kombinatsiyasini talab qiladi: gadjetlardan foydalanish vaqtini cheklash, sifatli kontentni tanlash, jismoniy faollikni rag‘batlantirish, ota-ona nazorati va ta’lim dasturlarini joriy etish. Bunday integratsiyalashgan yondashuv raqamli texnologiyalarning salbiy oqibatlarini minimallashtiradi va ularning bola rivojlanishi uchun imkoniyatlarini maksimal darajada oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alekhine A.N., Pultsina K.I. Axborot texnologiyalarining bolalarning kognitiv rivojlanishiga ta’siri: zamonaviy tadqiqotlarni ko‘rib chiqish. // Ta’limda inson psixologiyasi 2020

2. Anderson D.R., Subrahmanyam K. Raqamli ekranli media va kognitiv rivojlanish. // Pediatriya 2017, 140

3. Kristakis D.A. Chaqaloqlar uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish oqibatlari: biz nimani bilamiz va nimani oʻrganishimiz kerak? //Acta Pediatrica 2009

# OʻSPIRINLIK DAVRIDA STRESSLI VAZIYATLARNI OLDINI OLISHDA KOPING STRATEGIYALARI VA ULARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

***Rasuljonova Gulnoza Avazjon qizi***
Guliston davlat universiteti
Psixologiya yoʻnalishi 1-bosqich talabasi
**E-mail:** gulnozarasuljonova57@gmail.com

**Annotatsiya**: ushbu maqolada oʻspirinlik davrida uchraydigan stressli va muammoli vaziyatlarga psixologik javob sifatida shakllanadigan koping strategiyalari (moslashuv usullari) va psixologik himoya mexanizmlarining oʻziga xos xususiyatlari. shuningdek, hissiy muvozanatni saqlash, sogʻlom psixologik rivojlanish va konstruktiv yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** Oʻspirinlik, stress, koping strategiyalari, psixologik himoya, hissiy muvozanat, muammoli vaziyatlar.

**Аннотация**: В данной статье будут проанализированы особенности цветных стратегий, формирующихся как психологический ответ на стрессовые и проблемные ситуации, возникающие в рамках психологического реагирования и механизмов психологической защиты. Освещается важность

сохранения эмоционального баланса, здорового психологического развития и конструктивных подходов.

**Ключевые слова**: подростковый возраст, стресс, эффективные стратегии, психологическая защита, эмоциональное равновесие, проблемные ситуации.

**Annotation**: This article will analyze the features of colored strategies formed as a psychological response to stressful and problematic situations that occur in a psychological response and psychological protection mechanisms. The importance of maintaining emotional balance, healthy psychological development and constructive approaches are covered.

**Keywords**: adolescence, stress, effective strategies, psychological protection, emotional balance, problematic situations

O'spirinlik inson hayotidagi o'tish davridir. Bu bosqichda shaxsiyat shakllanadi, mustaqil fikr va qarorlar paydo bo'ladi. Biroq bu davr, ayniqsa psixologik jihatdan, stresslarga to'la bo'ladi. O'spirinlar o'zlarini kashf etish yo'lida ko'plab muammoli vaziyatlarga duch keladilar. Bu holatlarda ular ichki ziddiyatlarga, xavotirga, ba'zida esa ruhiy tushkunlikka tushishadi.Stressli holatlarda o'spirinning qanday strategiya tanlashi — uning psixologik himoyasi va hissiy muvozanatiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli koping strategiyalarining to'g'ri shakllanishi ularning sog'lom rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi [1].

Stress manbalari va muammoli vaziyatlar o'spirinlar quyidagi asosiy stress manbalariga duch kelishadi: Oila a'zolari bilan kelishmovchiliklar; O'qishdagi bosim va baholarga bog'liq tashvishlar; Tashqi ko'rinishga oid komplekslar;

Do'stlar bilan nizolar yoki yolg'izlik; Kelajakka nisbatan ishonchsizlik

O‘spirinlikda stress holatlari ko‘pincha ota-onalar bilan bo‘lgan munosabatlar, jismoniy o‘zgarishlar va ijtimoiy bosimlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu esa ularning o‘z-o‘zini anglash va boshqarishiga salbiy ta’sir qiladi [2].

Emotsiyaga yo‘naltirilgan koping: ichki hissiy holatni yengillatishga qaratilgan: musiqa eshitish, meditatsiya, sport bilan shug‘ullanish.Shuningdek, o‘spirinlarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyasi yuqori bo‘lsa, ular stressli holatlarda konstruktiv strategiyalarni tanlashga moyil bo‘lishini ta’kidlaydi. Bunday o‘spirinlar yordam so‘rashdan cho‘chimaydi, o‘z hissiyotlarini ifodalashda erkin bo‘lishadi [2].

Psixologik himoya va koping strategiyalari o‘rtasidagi farq ko‘p hollarda o‘spirinlar ongli koping strategiyalariga emas, balki avtomatik psixologik himoya mexanizmlariga murojaat qiladilar. Masalan:

Proyeksiya (o‘zida mavjud muammoni boshqalarga yuklash). Bu himoya usullari vaqtincha stressni kamaytirsa-da, asl muammoni bartaraf etmaydi. Aksincha, ular o‘spirinning ijtimoiy rivojlanishida to‘siq bo‘lishi mumkin [4]

Hissiy muvozanatni shakllantirish — o‘spirinlarning o‘zini tushunish, boshqalar bilan sog‘lom muloqot qilish, vaziyatni tahlil qilish qobiliyatlarini oshirish orqali yuzaga chiqadi. Bu borada maktab psixologlari, o‘qituvchilar va ota-onalar quyidagilarga e’tibor qaratishlari zarur:

O‘spirinlarni eshitish va ularning his-tuyg‘ularini rad etmaslik; Stress holatida qo‘llab-quvvatlash; Ijobiy o‘z-o‘zini baholashni rivojlantirish; Ijtimoiy-emotsional treninglar o‘tkazish [2].

O‘spirinlarda koping strategiyalarini shakllantirish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- Ota-onalar bilan emotsional bog‘liqlikni mustahkamlash;
- Maktablarda stressga qarshi treninglar tashkil qilish;
- Ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish (masalan: muammoni ochiq muhokama qilish, konfliktlarni hal qilish texnikalari);
- Moslashuvchan fikrlashni rivojlantirish.

Xulosa qib aytganda, o‘spirinlik — bu shaxs shakllanishi, hayotiy pozitsiya tanlanishi va mustaqil qaror qabul qilish bosqichidir. Biroq, bu jarayon stressli va murakkab kechadi. Shuning uchun koping strategiyalarini o‘rgatish, psixologik himoya usullarini tahlil qilish, hissiy muvozanatni shakllantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar zarur. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu yo‘nalishda olib borilgan maqsadli ishlar o‘spirinlarning psixologik barqarorligi va ijtimoiy muvaffaqiyatini oshiradi [1].Stressli vaziyatlarga nisbatan koping strategiyalarning shakllanishi o‘spirinning shaxs sifatida yetuklashuvi va ruhiy salomatligi uchun muhimdir. Ijobiy koping strategiyalarni o‘zlashtirilgan o‘sprinlar muammolarni yengib o‘tishda faol va bardoshli bo‘ladilar. Shu bois ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni kuchaytirish, ota-onalarni bu borada ma’lumotli qilish, yoshlar bilan muntazam ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xolmatova D. O‘spirinlik davrida stressga qarshi kurashish yo‘llari// Yosh psixologlar jurnali.- 2020 [1]
2. G‘afurova M. O‘spirinlikda ijtimoiy-emotsional kompetensiyani rivojlantirish // Psixologiya va hayot.-2020 [2].
3. Lazarus, R.S., & Folkman, S. Sress, Appraisal and Coping.New York // Springer Publishing Company.-1984 [3].
4. Compas, B.E., Connor-Smith, J.K., Saltzman, H., Thomsen, A.H., & Wadsworth, M.E. Coping with stress during childhood and

adolescence // Problems, progress, and potential in theory and research.- 2001 [4].

# ILK O'SPIRINLARDA NIZOLAR PAYDO BO'LISHI VA ULARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAVSIFI

***Samatova Sevinch Eshmurod qizi***
Guliston davlat universiteti talabasi
**E-mail:** samatovasevinch1@gmail.com
**Tel:** +998994038670

***Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li***
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
**Tel:** +998999144472

**Annotatsiya**: ushbu maqolada ilk o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari shuningdek, ilk o'spirinlarning aql-idrokining rivojlanish xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** ilk o'spirin, aql-zakovat, ma'naviy-psixologik qiyofa, ahloqiy xislatlar-jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik, emotsional xislatlar, rivojlanish.

**Аннотация**: В этой статье будут представлены психологические особенности раннего подросткового возраста а также информация об особенностях развития интеллекта ранних подростков.

**Ключевые слова**: ранний подросток, интеллект, духовно-психологический образ, нравственные качества-общительность, искренность, инициативность, активность, трудолюбие, эмоциональные

**Annotation**: this article provides information on the psychological characteristics of early adolescence as well as the features of the development of the intelligence of early adolescents.

**Keywords**: early adolescence, intelligence, spiritual-psychological appearance, moral qualities-public, sincerity, initiative, activity, hard work, emotional qualities, development.

Ilk o'spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta'lim jarayoni qo'yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o'rtasidagi ziddiyatlardir. Turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar o'spirinning ahloqiy, aqliy, estetik jihatdan tez o'sishi orqali bartaraf qilinadi.

Ilk o'spirinlik yoshidagi yetakchi omil yuqori sinf o'quvchisi faoliyatining xususiyati, mohiyati va mazmunidagi tub burilishdir.

Mazkur maqolani yoritish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tarixi va ma'naviy merosini o'rganishga oid bergan uslubiy ko'rsatmalari hamda, R.Z. Asomovaning "Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi" nomli kitobi tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Ta'lim psixologiyasi va uning xususiyatlari haqida tahlil olib borildi.

Ilk o'spirin o'quvchida o'zini anglash zamirida o'z-o'zini tarbiyalash istagi tug'iladi va bu ishning yollarini topish, ularni kundalik turmushga tadbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. Ozlariga ma'qul ma'naviy-psixologik qiyofaga ega bolish uchun oqilona olcham, mezon, vazifalarni bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar.

Nizolarni o'rganish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar avvalo o'spirin shaxsining xarakter xususiyatlaridagi yopiqlik omilida ro'y beradi. SHuningdek, bu davrda ta'lim muassasalaridagi o'ziga xos muhit ham o'spirinlarning turli xil nizolar atrofidagi ta'sirlashuvlarga olib keladi. Bundan tashqari o'spirin shaxsining irodaviy xususiyatlarini noto'g'ri tarbiyalash, oila va mahalla institutlaridagi ijtimoiy muammolar ham bu nizolarning omili bo'lishi mumkin. Shu sababli ta'lim sohasi parametrlarini belgilashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va rivojlanish tendentsiyalarini o'quv jarayonlarida doimo inobatga olish zarur.

Pedagogik konfliktologiya sohasiga murojaat qilib, o'spirinning asosiy vaqti o'tadigan o'quv muassasalaridagi pedagogik nizolarga ham o'rin ajratishni zarur deb bildik. Fikrimizcha, alohida olingan shaxs sifatida o'spirinlardagi nizoli vaziyatlarni o'rganish jarayonida psixologiyadan tashqari pedagogika, sotsiologiya, fiziologiya kabi fan sohalaridagi nazariy va amaliy bilimlar bilan ham tanish bo'lish, yosh xususiyatlaridagi tahlil natijalarini ilmiy tadqiq eta olish shart. Bu tadqiqot metodologiyasida ahamiyatli sanalib, ilmiy xulosalarni yanada samarali bo'lishida yordam beradi. O'spirinlar o'rtasidagi nizolarni klassifikatsiyasini tuzish orqali o'rganish jarayonini soddalashtirishga e'tibor qartilishni lozim deb topdik. Chunki, turli rakurslarning turli o'lchov me'yorlari yordamida tahlili bir qancha murakkabliklar va tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi va bu orqali olingan natijalarni aniqlik darajasini sezilarli tarzda kamaytirishi mumkin. asosiy maqsad nazariy farazlarni amalda o'z tasdig'ini qay darajada topishini baholab, o'spirinlik davridagi nizoli holatlarning individul va jamoaviy tarzda ko'rinlarini psixologik tahlili bo'lib, nizolarni klassifikatsiyalashda turli sohalarning nizolar to'g'risidagi ta'riflarini ham hisobga oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qo'llangan metodlarning turli sohalardagi yondashuvlar bilan aloqadorligini ham ko'rib chiqishimiz lozim. Bu yondashuvlar asosida nizolar va yosh davrlaridagi psixologik o'zgarishlarni o'rganishda birmuncha qulayliklar yaratadi.Mavzuni metodologik mustahkamligini ta'minlash zarurati nazariy ma'lumotlarni amaliy mashg'ulotlarga bog'lash va o'spirinlar bilan bevosita trening mashg'ulotlari davridagi kutilmalar va real holat o'rtasidagi farqlarni ham to'g'ri baholay olish lozim. Ya'ni so'rovnomalar, suhbatlardan olingan natijalarni trening mashg'ulotlaridagi natijalar bilan o'zaro farqlari bo'lishi tabiiy bo'lib, o'spirinning nazariy savollarga bergan javoblari bilan ularning nizoli vaziyatlarga tushirilgan vaqtdagi holati o'zaro farqlanishi, xatto zid bo'lishi ham mumkin. SHuning uchun ham test so'rovnomalari natijalari va trening vaqtidagi baholash mezonlari bir-birini to'ldiruvchi vazifasini ham bajarishi lozim. So'rovnoma o'tkazish jarayonida o'spirinning mazkur so'rovnomaga kompitentligi, savolnoma validligi to'liq ta'minlash zarur. O'spirin savollarga javob berish jarayonida mo''tadil holatda, turli salbiy emotsional ta'sirlardan holi bo'lishiga e'tibor qaratish tadqiqot sifatini oshiradi. So'rovnomalar asosan ta'lim muassasalari sinfxonalarida o'tkazilishini hisobga olib, o'spirinlar guruhining bir-biriga ta'sir darajasini minimal darajada kamaytirish muhim. Savollarga holislik va ma'suliyat bilan javob berilishini ta'minlash uchun yo'riqnoma tushunarli va standartlashgan bo'lishi, o'spirin tushunmagan savollariga maksimal darajada javob olish imkoniyati yaratilgan bo'lishi shart.

O'spirinlarda moddiy dunyo to'g'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Tanqidiy

tafakkurning rivojlanishi oʻquv materiallarini puxta oʻzlashtirishta, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, voqelikni isbotlash va asoslash koʻnikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. Hodisalar toʻgʻrisida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Oʻspirinning qobiliyati va iste'dodi ta'lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi.

Qobiliyatning oʻsishi bilimlar, koʻnikmalar, malakalarning sifatiga bogʻliq boʻlib, shaxsning kamol topish jarayoniga qoʻshilib ketadi. Demak, maktabda oʻtiladigan, darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashgʻulotlar, referat, konspekt yozish kabi faoliyat turlari oʻspirinlar oʻzlashtirish uchun zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi. Boʻlarning barchasi ilmiy-nazariy tafakkurning shakllanishiga, tevarak atrofdagi vokelikning umumiy qonuniyatlarini oʻsishiga, aqliy imkoniyatla-rining vujudga kelishiga, tabiat va jamiyat rivojlanishining qonunlarini anglashiga muhim shart-sharoit yaratadi. Yuqoridagilardan koʻrinib turibdi-ki, oʻsmirlik yoshida oʻquvchilar aqliy faoliyatining omillari va usullari bilan qurollangan boʻladilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Asomova R.Z. Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi. Psix.f.n.. dis.-T., 2002. -137 b.

2. Azizxoʻjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: Nizomiy,

3. Gʻoziev E.«Psixologiya». Toshkent. "Oʻqituvchi". 1994.

4. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T.1991.

5. Gʻoziev E. "Pedagogik psixologiya asoslari". Toshkent. 1997.

6. Ishmuhammedov R.Abduqodirov A.Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.Toshkent -2008.

# MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA INGLIZ TILI O'QITISH JARAYONIDA SLIME METODIKASINING SAMARADORLIGI

***Sobirjonova Husnida Tojimat qizi***
Namangn Davlat Pedagogika Institutining
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi XTA-BU-22 talabasi
**E-mail:** ergashev.tohir@icloud.com
**Tel:** +998935066804

***Boltabaeva Marifatkhon Baxromjon qizi***
Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi
**E-mail:** boltabayevamarifathon@gmail.com
**Tel:** +998942755577

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida ingliz tilini o'rgatishda slime metodikasining amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nutqiy faolligini rag'batlantirish, ingliz tilini sezgi va tajriba asosida o'zlashtirish, shuningdek, o'quv jarayonini ijodiy muhitda tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida slime yordamida o'tkazilgan mashg'ulotlarning samarasi, o'quvchilarning motivatsiyasi va kommunikativ faolligi o'rganilgan. Metodikaning psixologik-pedagogik asoslari hamda uning dars jarayonidagi innovatsion ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** slime metodikasi, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, ingliz tili, o'yin texnologiyasi, ijodiy yondashuv, motivatsiya, interfaol mashg'ulot.

**Annotation:** This article explores the effectiveness of using the slime methodology in teaching English to preschool and primary school learners. The approach aims to enhance students' speech activity, support sensory-based language acquisition, and make the learning

process more engaging and creative. The study examines how slime-based activities influence learners' motivation, communication skills, and participation in lessons. The psychological and pedagogical foundations of this method, as well as its innovative contribution to language teaching, are discussed in detail.

**Keywords:** slime methodology, preschool education, primary education, English language, play-based learning, creative approach, motivation, interactive teaching.

**Аннотация:** В статье рассматривается эффективность применения методики «slime» при обучении английскому языку детей дошкольного и младшего школьного возраста. Данный подход способствует развитию речевой активности, формированию языковых навыков через сенсорное восприятие и повышению интереса к обучению. В исследовании анализируются результаты занятий с использованием слайма, уровень мотивации учащихся и их коммуникативная активность. Освещены психолого-педагогические основы методики и её инновационное значение в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** методика slime, дошкольное образование, начальная школа, английский язык, игровые технологии, мотивация, творческий подход, интерактивное обучение.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'quvchilarning tafakkuri, nutqiy faolligi va ijodkorligini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy pedagogika an'anaviy dars shakllarini interaktiv, tajribaviy va sensor yondashuvlar bilan boyitishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, qiziqarli va faol

ishtirokni ta'minlovchi yangi metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shunday innovatsion usullardan biri "slime" metodikasi hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolalarning o'rganish faoliyatini o'yin, tajriba va sezgi asosida tashkil etishga imkon beradi.[1] Slime vositasi orqali o'quvchi nafaqat ingliz tili leksik va fonetik birliklarini o'zlashtiradi, balki rang, shakl va harakat orqali tilni sezgir idrok etish, muloqotga kirishish, diqqatni jamlash hamda ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Slime metodikasining asosiy afzalligi -o'quv jarayonini hissiy va interfaol muhitga aylantirishi, bolalarning tabiiy o'rganish ehtiyojini qo'llab-quvvatlashidir. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlari-o'quvchini faollikka undash, mustaqil fikrlash va amaliy tajriba orqali bilim olishga yo'naltirish tamoyillariga to'la mos keladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi slime metodikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ochib berish, uning maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ta'sirini aniqlash hamda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va motivatsiyasiga bo'lgan ijobiy ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iboratdir.[2] "Slime" metodikasining pedagogik asoslari. Hozirgi davr ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchi shaxsining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shulardan biri - slime metodikasi bo'lib, u bolalarning o'rganish jarayonida sezgi, harakat va tafakkurni birlashtiruvchi faol o'yin texnologiyasidir. Ushbu yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyiliga asoslanadi, ya'ni har bir o'quvchi o'z individual tajribasi va hissiy idroki orqali yangi til birliklarini o'zlashtiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan, slime metodikasi faol ta'lim nazariyasi va konstruktivistik yondashuv tamoyillariga tayanadi. Bu metod bolani bilimni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki uni faol izlab topuvchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo'llovchi subyekt sifatida shakllantiradi. Natijada o'quvchi dars jarayonida faol, mustaqil va ijodkor ishtirokchiga aylanadi.[3] Slime metodikasida psixologik jihatdan ishlashda bolalarning hissiy holatini muvozanatlashtiradi, stressni kamaytiradi hamda diqqatni jamlash qobiliyatini kuchaytiradi. Yumshoq va egiluvchan tuzilishga ega bo'lgan slime o'quvchilarda sensor sezgilarni rivojlantiradi, bu esa ularning xotira, tasavvur va nutq faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Shuningdek, slime vositasi bolalarda ko'rish, eshitish va sezish orqali tilni o'zlashtirish imkonini yaratadi. Bu multimodal ta'lim shakli hisoblanib, kichik yoshdagi o'quvchilar uchun eng samarali o'rganish usullaridan biridir. Slime bilan bog'liq mashg'ulotlar jarayonida bolalar inglizcha so'zlarni amaliy harakatlar bilan bog'laydi, natijada bilimlar uzoq muddatli xotirada saqlanadi.

Slime metodikasini metodik asoslarini  tatbiq etish uch bosqichda amalga oshiriladi tayyorgarlik, faol mashg'ulot va mustahkamlash. Tayyorgarlik bosqichida o'qituvchi mavzuga mos so'zlar, ranglar yoki shakllarni tanlaydi hamda ularni slime orqali ifodalash uchun topshiriqlar beradi. Faol mashg'ulot bosqichida o'quvchilar slime yordamida so'z va iboralarni yasaydi, ularni talaffuz qiladi va muloqotda ishlatadi. Mustahkamlash bosqichida esa o'quvchilar o'z yaratgan shakllar asosida suhbatlar tuzadi yoki so'zlarni takrorlaydi.[4] Metodik jihatdan bu usul kommunikativ va interfaol o'qitish prinsiplariga tayangan bo'lib, o'quvchilarning faol muloqotini, ijodkorligini va mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi. Slime dars jarayonini o'yin bilan uyg'unlashtiradi, shu orqali o'quvchilarni ingliz tili muhitiga tabiiy

tarzda jalb etadi. Slime metodikasining amaliy ahamiyati oʻtkazilgan kuzatuvlarga asoslangan holda slime metodikasi ingliz tilini oʻqitish jarayonida yuqori natijalar berishini koʻrsatdi. Ushbu metod oʻquvchilarning soʻz boyligini kengaytiradi, talaffuzni yaxshilaydi va yangi bilimlarni tezroq oʻzlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, slime bilan ishlash bolalarda hamkorlik, diqqat, muloqot madaniyati va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Oʻqituvchi ingliz tilidan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini, ularning aqliy va jismoniy rivojlanish xususiyatlarini mukammal bilishi shart. Shuningdek, u sabrli, xotirjam va doʻstona munosabatda boʻlishi, har qanday improvizatsiyaga tayyor turishi, zamonaviy oʻquv adabiyotlari, onlayn platformalar, oʻyinlar, qoʻshiqlar, multfilmlar, krossvordlar bilan ishlashni bilishi talab etiladi. Oʻqitishning global maqsadi boshqa tilda muloqot qilish, fikrlarni yetkazish, maktab va universitetda chet tilini oʻrganish uchun mustahkam baza yaratish hamda oʻrganilayotgan til madaniyatiga ijobiy munosabatni shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda tanlangan metodika faqat til koʻnikmalarini emas, balki bolalarning umumiy nutq va fikrlash funksiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, slime metodikasining ta’lim amaliyotiga joriy etilishi oʻquv jarayonini hissiy jihatdan boy, interaktiv va samarali shaklga keltiradi. Bu usul kichik yoshdagi bolalarning tabiiy oʻrganish ehtiyojlarini qoʻllab-quvvatlab, ularni oʻyin orqali bilim olishga va til muhitini faol his etishga undaydi.

"Slime texnologiya"dan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish pegagogik jarayonda oʻyin texnologiyalaridan foydalangan holda dars jarayonini tashkil etishning bir turi sanaladi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda esa chet tillarini sensorli sezish orqali

o'yin jarayonlarini tashkil etish, til o'rgatish jarayonini osonlashtirishga olib keladi. O'quvchilar slimelarda biror bir hayvon yoki shu kabi narsalarni yashash moboynida biz ularga o'zlari yasayotgan narsalari orqali uning har bir elementar detallarigacha lug'at qilib o'rgatishimiz, ular yordamida shakllar va xattoki ranglarni, bundan tashqari ularga ta'rif berishni. Ya'ni og'zaki nutq faoliyatini ham shakllantirishimiz mumkin. Ingliz tilini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bu texnologiyalar o'quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. O'yinli texnologiyalar yordamida o'quvchilar nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, balki ularning amalda qo'llash ko'nikmalarini ham mustahkamlaydilar. Ta'lim sohasida innovatsion yondashuvni joriy etish esa zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishishning muhim omillaridan biridir. Dars jarayonlari boshlang'ich va maktabgacha yosh davridagi o'quvchilarning xususiyatidan kelib chiqib shu kabi interfaol metodikalar yordamida dars o'tishni takomillashtirish tufayli samarali natijalarga erishsa bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Vasikova. N. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). – 2024. – Vol. 7, Issue 9 (September). – P. 183.
2. Shamsimatova, B. R. Ingliz tilini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan samarali foydalanish samarasi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. № 5. 656-b.
3. J. Jalolov. Ingliz tilini o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" Toshkent-2012.

4. Azimov S. M. O'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatishda metodik usul va yondashuvlar hamda o'qituvchining psixologik bilimi // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Jild 1, № 7. – B. 45–52.

5. Azimov S. M. The place and significance of the English language worldwide // International Journal of Scientific Researchers. – 2024. – Vol. 5, Issue 2. – P. 31–35.

6. Boltabayeva.M.B. The expression of the human "inner self" in Graham Greene's novels // Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) issn (e): 2347-6915 Vol. 13, Issue 1 January (2025) page 49-51.

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'TILAYOTGAN MUSIQA MASHG'ULOTLARINING SIFATI

***To'rayeva Nilufar Maxammadjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi
**Tel:** +998946749400

**Anotatsiya**: Maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarining sifatini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, u bolalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonidagi pedagogik metodlar, o'qituvchilar malakasi va dasturiy ta'minotning samaradorligini chuqur o'rganadi. Tadqiqot jarayonida musiqa mashg'ulotlarining sifatini aniqlash mezonlari, bolalarning musiqiy qobiliyatlarini baholash usullari va ta'lim jarayonida kuzatiladigan pedagogik qiyinchiliklar ilmiy asoslangan. Shuningdek, maqolada xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan musiqiy tarbiya va maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, ular o'zaro taqqoslangan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola natijalari

maktabgacha ta'lim tizimida musiqiy faoliyat sifatini oshirish uchun strategik yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, musiqa mashg'uloti, sifat mezonlari, pedagogik metodlar, musiqiy tarbiya, bolalar rivoji, ta'lim jarayoni.

**Annotation**: The article is dedicated to analyzing the quality of music lessons in preschool education institutions. It deeply examines pedagogical methods, teacher qualifications, and the effectiveness of educational programs in developing children's musical abilities. The research identifies criteria for assessing the quality of music lessons, methods for evaluating children's musical abilities, and pedagogical challenges observed in the educational process. Additionally, the article analyzes and compares scientific studies conducted by foreign scholars aimed at improving music education and the quality of preschool education, and develops practical recommendations. The results of the article serve to define strategic directions for enhancing the quality of musical activities in the preschool education system.

**Keywords**: Preschool education, music lessons, quality criteria, pedagogical methods, music education, child development, educational process.

**Аннотация**: Статья посвящена анализу качества музыкальных занятий в дошкольных образовательных учреждениях. В ней глубоко изучаются педагогические методы, квалификация педагогов и эффективность программного обеспечения в процессе развития музыкальных способностей у детей. В ходе исследования научно обоснованы критерии оценки качества музыкальных занятий, методы оценки музыкальных способностей детей и педагогические трудности, наблюдаемые в образовательном процессе. Также в статье

анализируются научные исследования зарубежных ученых, направленные на улучшение музыкального воспитания и качества дошкольного образования, проводится их сравнительный анализ и разрабатываются практические рекомендации. Результаты статьи служат основой для определения стратегических направлений повышения качества музыкальной деятельности в системе дошкольного образования.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, музыкальные занятия, критерии качества, педагогические методы, музыкальное воспитание, развитие детей, образовательный процесс.

**Kirish.** Maktabgacha ta'lim tizimi, insonning psixologik, ijtimoiy va estetik rivojlanishining dastlabki bosqichlarida shakllanadigan muhim strukturalardan biri sifatida, zamonaviy pedagogik va psixopedagogik tadqiqotlarda alohida oʻringa ega. Shu kontekstda, musiqiy ta'lim va musiqa mashgʻulotlari bolalar uchun nafaqat san'atiy didni rivojlantirish vositasi, balki kognitiv, emotsional va ijtimoiy qobiliyatlarning integratsiyalashgan shakllanishi sifatida ham koʻriladi. Maktabgacha davr — bolalar ongining sezgir va plastiklik jihatdan yuqori boʻlgan davri boʻlib, bu davrda musiqa faoliyati ular uchun tashqi dunyo bilan oʻzaro aloqani mustahkamlash, intellektual va hissiy rivojlanishni uygʻunlashtirish, shuningdek, estetik didni shakllantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashgʻulotlarining sifati bevosita bolalarning musiqiy qobiliyatlari, nutq rivoji, ritmni sezish va ijodiy ifoda koʻnikmalariga ta'sir qiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy ta'lim jarayoni bir nechta oʻzaro bogʻliq komponentlardan tashkil topgan boʻlib, ular orasida oʻqituvchining malakasi, pedagogik metodlar, dasturiy va material-

texnik bazaning sifati hamda oʻquvchilarning individual xususiyatlari asosiy rol oʻynaydi. Shu bilan birga, musiqa mashgʻulotlarining samaradorligi koʻplab parametrlar orqali baholanadi: musiqiy materialni qabul qilish va qayta ishlash tezligi, ritmik va melodik sezgi, ijodiy fantaziya va ijtimoiy interaktivlik. Bularning barchasi maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa faoliyatining sifatini ilmiy asosda aniqlashni talab qiladi[1]. Musiqa mashgʻulotlari bolalar rivojida koʻplab funksiyalarni bajaradi. Birinchi navbatda, ular kognitiv rivojlanishga, xususan, eslab qolish, diqqatni jamlash va fikrlash jarayonlarini shakllantirishga yordam beradi. Ikkinchidan, musiqiy faoliyat emotsional intellektni rivojlantiradi, bolalarda hissiy ifoda va empatiya koʻnikmalarini mustahkamlaydi. Uchinchi jihat, musiqa orqali ijtimoiy moslashuv, guruhda ishlash koʻnikmalari va kommunikativ qobiliyatlar rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, musiqa mashgʻulotlarining sifati bolalarning individual rivoji va ijtimoiy integratsiyasi bilan bevosita bogʻliqdir. Pedagogik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqiy ta'lim berishda metodik yondashuvlarning turlicha ekanligi, ularning natijaviyligi va samaradorligi haqida keng ilmiy muhokamalar mavjud. Masalan, Gordon "Music Learning Theory" konsepsiyasida bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida tonal va ritmik sezgi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni, shuningdek, individual va kollektiv faoliyatning samaradorligini ta'kidlaydi.[2] Hallam esa musiqa mashgʻulotlarining bolalarning kognitiv va hissiy rivojiga ta'sirini eksperimental va empirik tadqiqotlar bilan dalillaydi, bunda oʻquv jarayonining metodik jihatlari va oʻqituvchining pedagogik kompetensiyasi asosiy rol oʻynaydi.[3] Bu yondashuvlar oʻzaro integratsiyalashgan holda musiqa mashgʻulotlarining sifatini baholash va optimallashtirishga xizmat

qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'limda musiqa mashg'ulotlarining sifati nafaqat pedagogik jarayonning samaradorligi, balki bolalarning kreativ va estetik rivoji, shuningdek, ularning jamiyatga moslashuv qobiliyatini aniqlashda ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi.[4] Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarini ilmiy asosda tahlil qilish, sifat mezonlarini aniqlash va pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish bugungi kunda nafaqat o'quv jarayonini takomillashtirish, balki milliy ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladigan dolzarb vazifa hisoblanadi. Maqola davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarining sifati bilan bog'liq asosiy pedagogik muammolar, ularni ilmiy tahlil qilish metodlari va amaliy tavsiyalar yoritiladi. Shu bilan birga, xorijiy olimlarning tadqiqot natijalari, ularning metodologik yondashuvlari va bolalarning musiqiy rivojlanishidagi tajribaviy natijalari uzviy tarzda tahlil qilinadi. Mazkur kirish qismi maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarining samaradorligini ilmiy asosda baholash va takomillashtirish uchun zarur nazariy va amaliy asoslarni taqdim etadi.

Adabiyotlar tahlili: Maktabgacha ta'limda musiqa mashg'ulotlarining sifatini tahlil qilish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar bir qator muhim konseptual va metodologik natijalarni taqdim etadi. Shu nuqtai nazardan, Gordon o'zining "Music Learning Theory" asarida bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida tonal va ritmik sezgi, shuningdek, individual va kollektiv ijodiy faoliyatning muhimligini ko'rsatadi.[5] U bolalarning musiqiy qobiliyatlarini tizimli ravishda rivojlantirishni, pedagogik strategiyalarni va o'quv jarayonidagi faol ishtirokni integratsiyalashgan shaklda tashkil etishni tavsiya qiladi. Gordonning tadqiqotlari musiqiy

ta'limning nafaqat san'atiy, balki kognitiv va emotsional rivojlanish bilan bevosita bog'liqligini ilmiy asosda dalillaydi va maktabgacha ta'lim tizimida mashg'ulotlar sifatini baholash mezonlarini belgilashga imkon beradi. Boshqa bir muhim manba sifatida Hallamning tadqiqotlari keltiriladi, u musiqa mashg'ulotlarining bolalarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojiga ta'sirini eksperimental va empirik metodlar orqali tahlil qiladi. Hallam o'z ishlarida musiqa mashg'ulotlarining bolalarda diqqat, eslab qolish, ritm va melodik sezgi kabi kognitiv komponentlarini shakllantirishdagi rolini ko'rsatadi, shuningdek, o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi va metodik yondashuvning ta'lim sifatiga ta'sirini batafsil tahlil qiladi.[6] Shu bilan birga, Hallam musiqiy mashg'ulotlarni guruhda tashkil etishning bolalarning ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini ham yoritadi. Gordon va Hallamning ilmiy ishlari o'zaro uzviy bog'lanib, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarining sifatini baholash va optimallashtirishning kompleks yondashuvini shakllantiradi. Gordonning nazariy yondashuvi pedagogik strategiyalarni tizimli ravishda ishlab chiqishga imkon beradigan konseptual asos sifatida xizmat qilsa, Hallamning empirik tadqiqotlari ushbu strategiyalarning amaliy samaradorligini tekshirish va baholash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu ikki olimning ishlari bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega bo'lib, maktabgacha ta'limda musiqa mashg'ulotlarining sifatini aniqlash va takomillashtirishda muhim ilmiy baza hisoblanadi.[7] Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqa mashg'ulotlarini samarali tashkil etish, ular uchun musiqiy didni, ritm va tonal sezgini rivojlantirish, shuningdek, ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik metodlari aniq ilmiy

dalillarga asoslangan bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, Gordon va Hallamning ishlari maktabgacha ta'lim tizimida musiqa mashg'ulotlarining sifatini oshirishga qaratilgan metodologik va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Metodologik qism: Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarining sifatini aniqlash va baholash uchun integratsiyalashgan metodologik yondashuv qo'llanildi, bunda sifat ko'rsatkichlarini o'rganish uchun kuzatuv va eksperiment metodlari, pedagogik testlar va anketalar orqali bolalarning musiqiy qobiliyatlari, ritm va tonal sezgi, ijodiy faollik va emotsional ifoda ko'nikmalari baholandi, shuningdek, o'qituvchilarning metodik kompetensiyasi, dasturiy va material-texnik bazaning samaradorligi ham kompleks tahlil asosida o'rganildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarining sifati bevosita o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi, metodik yondashuvlarning mosligi, bolalarning individual musiqiy qobiliyatlari va dasturiy hamda material-texnik bazaning samaradorligiga bog'liq bo'lib, kuzatuv va eksperimental tadqiqotlar orqali aniqlangan mezonlar asosida musiqiy mashg'ulotlarda ritm va tonal sezgi rivoji, ijodiy faollikning oshishi, emotsional ifoda ko'nikmalari va guruhda interaktiv faoliyat samaradorligi yuqori darajada bo'lgani, shuningdek, o'qituvchilarning metodik malakasi va faol pedagogik yondashuvi mashg'ulot sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan tasdiqlandi.

Muxokama: Maktabgacha ta'limdagi musiqa mashg'ulotlarining sifati masalasi ilmiy doirada keng bahs-munozaralarga sabab bo'lgan, va bu borada Gordon va Hallam ning tadqiqotlari o'zaro polemik jihatga ega. Gordon bolalarning musiqiy qobiliyatlari tizimli rivojlanishi uchun

tonal va ritmik sezgi, shuningdek, individual ijodiy faoliyatning markaziy ahamiyatini ta'kidlaydi, u o'z tadqiqotlarida musiqa mashg'ulotlarining pedagogik metodlar orqali tartiblangan va bosqichma-bosqich rivojlantirilishini nazarda tutadi.[8] Unga ko'ra, bolalarning musiqiy didi va ritmik sezgisi faqat metodik jihatdan izchil tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali optimal rivojlanadi. Shu bilan birga, Gordon guruhdagi ijodiy faoliyat va kollektiv mashg'ulotlarni bolalarning individual qobiliyatlarini boyituvchi vosita sifatida qadrlaydi, chunki bu ularni ijtimoiy interaktivlik va musiqiy muvofiqlik ko'nikmalarini shakllantirishga undaydi. Boshqa tomondan, Hallam musiqa mashg'ulotlarining bolalar rivojiga ta'sirini eksperimental va empirik tadqiqotlar orqali yoritadi va u metodik yondashuvlarning samaradorligi masalasida Gordon bilan qisman farq qiladi.[9] Hallam bolalarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivoji musiqiy mashg'ulotlarning sifatidan tashqari, pedagogning individual yondashuvi, mashg'ulot tezligi, materiallar va mashqlar turining mosligi bilan ham bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi.[10] Unga ko'ra, metodik tizimning qat'iyligi ba'zan bolalarning ijodiy ifoda va emotsional erkinligini cheklashi mumkin, shuning uchun pedagogik yondashuv moslashuvchan va bolalar ehtiyojlariga javob beruvchi bo'lishi lozim. Gordon va Hallamning yondashuvlari o'zaro qarama-qarshi bo'lib tuyulsa-da, ular maktabgacha ta'limdagi musiqa mashg'ulotlarining sifatini oshirish borasida uzviy ilmiy integratsiyaga imkon beradi. Gordonning tizimli va strukturalangan metodologiyasi Hallamning empirik va adaptiv yondashuvi bilan birlashganda, pedagogik jarayonni maksimal samarali tashkil etish imkonini beradi. Shu munosabat bilan, bu ikki olimning tadqiqotlari musiqiy mashg'ulotlarda metodik qat'iylik va pedagogik moslashuvchanlikni uyg'unlashtirish orqali bolalarning musiqiy,

kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir qilishning ilmiy asoslangan strategiyasini shakllantiradi.

Xulosa: Ushbu tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarining sifatini tahlil qilish va baholashga qaratilgan bo'lib, u bolalarning musiqiy qobiliyatlari, ritm va tonal sezgi, ijodiy faollik, emotsional ifoda va ijtimoiy interaktivlik kabi komponentlar bilan bevosita bog'liqligini ilmiy asosda tasdiqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, musiqa mashg'ulotlarining samaradorligi pedagogik metodlar, o'qituvchilarning malakasi, dasturiy va material-texnik bazaning sifatiga bog'liq bo'lib, tizimli va uzviy yondashuvlarni qo'llash orqali mashg'ulotlar sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Gordon va Hallamning ilmiy ishlari o'zaro uzviy bog'langan holda maktabgacha ta'limdagi musiqa mashg'ulotlarining sifatini baholashning nazariy va empirik asoslarini taqdim etdi, bunda Gordonning tizimli metodologiyasi va Hallamning adaptiv pedagogik yondashuvi pedagogik jarayonni optimal tashkil etishning muhim ilmiy baza sifatida xizmat qiladi. Shu orqali bolalarning musiqiy rivoji, kognitiv va hissiy ko'nikmalari, shuningdek, ijtimoiy integratsiyasi samarali tarzda shakllanadi. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy ilmiy xulosalar shundan iboratki, maktabgacha ta'limda musiqa mashg'ulotlarining sifati faqat metodik qat'iylikka emas, balki pedagogning moslashuvchan yondashuvi va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olishga bog'liq. Shu munosabat bilan, maqola natijalari asosida tavsiya etiladi: pedagogik metodlarni tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirish, o'qituvchilarning metodik malakasini oshirish, musiqa mashg'ulotlarini bolalarning individual qobiliyatlariga moslashtirish va dasturiy hamda material-texnik bazani optimallashtirish orqali maktabgacha ta'limda musiqiy faoliyat sifatini maksimal darajada oshirish. Shu tariqa,

tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarining sifatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishga, pedagogik jarayonni optimallashtirishga va bolalarning musiqiy, kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga samarali hissa qo'shishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Atxamjonovna, B. D., & Shohbozbek, E. (2025). RESPUBLIKAMIZDA MAKTABGACHA TA'LIMDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH. Global Science Review, 4(5), 221-228.

2. Abdusattarovna, O. R. X., & Shohbozbek, E. (2025). IJTIMOIY FALSAFADA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH. Global Science Review, 4(5), 175-182.

3. Ergashbayev, S. (2025). Yoshlarning ma'naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'lim jarayonlarining o'rni (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida). Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(2), 3-9.

4. Maxliyo, S., & Shohbozbek, E. (2025). YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYO QARASHINI SHAKILLANTIRISDA MAKTABGACHA TA'LIMNING O'RNI. Global Science Review, 4(4), 83-89.

5. Shohbozbek, E. (2025). BO'LAJAK PEDAGOGLARNING TADQIQOTCHILIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPSUAL ASOSLARI. Global Science Review, 1(1), 328-338.

6. Эргашбаев, Ш. (2025). O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314-316.

7. Топилдиев, О. Р. (2015). Роль семьи, махалли и образовательных учреждений в воспитании молодежи. Общество: социология, психология, педагогика, (3), 29-30.

# JADIDLAR DAVRI PEDAGOGIKASI VA ULARNING PEDAGOGIK QARASHLARI

***Obilov Azizbek***
Navoiy Davlat Universiteti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidlar davridagi yozuv, oʻqitilish tizimi, kitoblari va asosiy masala xalqni ziyoli qatlamini yaratishb maqsadida jadidlar oʻzining tizimlarini yaratganligi va har bir jadidning oʻziga xos darsliklar yaratilganligi va har biri darslikni xalqning ma’naviyatini oshirganligi bilan ajralib turadi.

**Kalit soʻzlar:** Jadid, maktab, oʻquvchi, darslik,kitob.

Milliy oʻzlikni anglash shakllantiradigan uchlik – oʻtmish, bugun va kelajak qaygʻuradigan fidoyilarning diqqat markazida boʻlib kelgan. Uchinchi Renessanisni yigirmanchi asr marifatparvarlari amalga oshirishi mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uygʻonish gʻoyasiga bagʻishlab, oʻlkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni gʻaflat botqogʻidan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar va shu yoʻlda oʻzlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Dunyoda ilmdan boshqa najot yoʻq va boʻlmagay” dergan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildi[1].

Ismoil Gaspirali tomonidan ishlab chiqilgan “Usuli jadid” nomi tarixda kata oʻrin tutgan singari, Mahmudxoʻja Behbudiy nomi ham Turkiston maktab-maorifda keng oʻrin egallaydi. U birinchi boʻlib

oʻlkada yangi usuldagi maktablarni tashkil etush targʻibotchilardan hamda amaliyotchilardan hisoblanadi. Mahmudxoʻja Behbudiy "Usuli jadid" maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, maktabda oʻtiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilish, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimning vazifalari, ularning ta'minot narsalari va boshqa koʻp jihatlarini Gaspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan oʻrgandi. Shular asosida "Usuli jadid"maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. Nafaqat tashkil etisg, u shu maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik koʻrsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, oʻz hovlisida maktablar ochdi. Mashhur pedagog Abdul Qodir Shukuriyning yangi usuldagi maktabni oʻz hovlisiga koʻchirib keldi. Mahmudxoʻja Behbudiy "Usuli jadid" maktablari uchun bir qancha darsliklar yozadi. "Muntahbai joʻgʻrofiya umumiy", "Kitobatul-atfol", "Muhtarasi tarixi islom" "Matxall joʻgʻrofi umroniy", "Muhtarasi joʻgʻrofiyat rusiy", "Amaliyoti islom" va boshqa kitoblar darslik sifatida oʻqitilgan. Mahmudxoʻja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozgan asarlari maktablarning islohida katta hodisa boʻladi. Ayni davrda bu draslik nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qoʻllanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yoʻqolganicha yoʻq[2].

Milliy uygʻonish pedagogikasining asoschilaridan biri Abdulla Avloniydir. Ma'lumki, jaddidlarning asosiy maqsadini "Turkiston faqat ilm-u ma'rifatgina ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy tanglikdan xolos etdi." Abdulla Avloniy 1907-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi oʻquv asbob jihozlarini oʻzgartirdi, oʻz qoʻli bilan parta va doskalar yasadi. Maktabda qabul qilingan bolalarning asosiy qismi

kambag'al kishilarning bolalari bo'lganligi uchun ularni kiyim-kechak,oziq-ovqat,daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida "Jamiyati xayriya" tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi. "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada "Maktab kutubxonasi" nomli kitob do'koni ochadi. Avloniyning maktabi o'z oldiga qo'ygan maqsad vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski eski usul maktablaridan farq qiladi. U o'z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumot beradi. Abdulla Avloniyning ilk o'quvchilaridan biri Toshkent Davlat universitetida uzoq yil dars bergan taniqli pedagog, marhum Yusuf Tohiriy edi. Abdulla Avloniy "Usuli jadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy sherlari" hamda "Birinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq"(1913) "Ikkinchi muallim"(1915), "Maktab gulistoni" (1917) kabi darslik va o'qish kitoblarni yaratdi.Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyati, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug'lab, o'z xalqini ilmli, madaniyatli bo'lishga chaqirdi[3].Asrimizni boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelargina edi. Shular orasida Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" ham o'ziga xos o'ringa ega.

Munavvar qori 1901-1904-yillarda qrimlik do'sti Rasm Keshod yordamida Toshkentda "Usuli savtiya "maktabini ochadi. U maktabni avval o'z hovlisida, keyin boshqa joylarda ochishga harakat qildi. U maktabni isloh qilmay turib, odamlarning ongida o'zgarish yasab bo'lmasligini yaxshi tushunib yetgan edi. Munavvar qori ziyoli yoshlarni chet elga yuborishni, u yerda ilm-fanni o'rganishga targ'ib qiladi. Masalan, u 1916-yili Toshkentda yig'ilish nurq so'zlab shunday deydi: "O'zbek ziyoli bolalarining Germaniyaga yuborib o'qitishga juda

muhtojmiz, bolalar o'qib, ilm tehsil olib kelsalar, millatga kata xizmat qila oladilar"[5].

Fitratning pedagogikaga qo'shgan ilk hissalaridan biri 1917-yilda yozilgan "O'quv" nomli kitobi hisoblanadi. Bu kitob asosan kata sinf uchun mo'ljallangan edi. Bu kitob o'sha yilllarda Buxorodagina emas, Samarqand, Toshkemt, ham m. Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov o'quv kitoblari singari yangi usul maktablari uchun juda nafli tarbiya kitobi bo'lib qolgan edi. A. Fitrat 1922-1923 yillarda Buxoro Xalq Respublikasidan Germaniyaga, Turkiyaga talabalar yuborish, u yerdagi ilg'or yevropa ta'lim-tarbiyasi, ilm-fan, texnika sirlarini o'rganish, yangi Buxoro Xalq Respublikasi va Turkistonda maorif va madaniyatni rivojlantiruvchi milliy kadrlar tayyorlash tashbbuskori va tanlovchilardan biri bo'ldi[4].

Xulosa:Bu maqola orqali jadidlarning hammasi har xil tizimiga ega ekanligi.Ularning o'ziga xos har xil talab va qarashalari bor edi. Ular maktabni tashkil etish orqali xalqni manaviyatini va madaniyatini rivojlantirish va o'zini kimligini bilishga yordam berardi.Hattoki bollarni chetga yuborish orqali ongini rivojlantirish usulini qo'lladi.Ular o'z maqsadlariga kam bo'lsada erishdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Zunnunova A.Pedagogika nazariyasi. Toshkent. "O'qituvchi".2003

2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkemt. 1999 yil.

3. A.Boboxonov, M.Maxsumov,A.Avloniy pedagogika faoliyati.

4. K.Hoshimov, M.Inomova. Pedagogika tarixi. Toshkent. 2006 yil

5. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi-muallif. O. Hasanboeva. T. "O'qi-tuvchi".1993.

# TRANSLATION THEORY AND PRACTICE IN TEACHING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

***Yunusov Muhammadyusuf Voxid o'g'li***
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi K.XTA-AU-22 talabasi
**E-mail:** muhammadyusufyunusov321@gamil.com

***Boltabaeva Marifatkhon Baxromjon qizi***
Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi
**E-mail:** boltabayevamarifathon@gmail.com
**Phone:** +998942755577

**Annotation**: Translation theory and practice play a pivotal role in the teaching of foreign languages, particularly English, by providing students with tools to better understand the nuances and complexities of a target language. By combining traditional translation methods with modern pedagogical technologies, language learning becomes more accessible, engaging, and effective. This research suggests that the continued integration of translation theory and technological innovations will shape the future of language teaching, providing students with enhanced opportunities to master foreign languages in an interactive and comprehensive manner.

**Keywords**: Innovative Pedagogical Technologies, Blended Learning, E-Learning, Flipped Classroom, Interactive Learning, Virtual Reality, Cultural Awareness, Critical Thinking.

**Аннотация**: Теория и практика перевода играют ключевую роль в преподавании иностранных языков, особенно английского, предоставляя студентам инструменты для лучшего понимания тонкостей и сложностей целевого языка. Сочетание традиционных методов перевода с современными педагогическими технологиями делает изучение языка более доступным, увлекательным и

эффективным. Данное исследование предполагает, что дальнейшая интеграция теории перевода и технологических инноваций будет определять будущее преподавания иностранных языков, предоставляя студентам расширенные возможности для интерактивного и комплексного освоения иностранных языков.

**Ключевые слова**: инновационные педагогические технологии, смешанное обучение, электронное обучение, перевернутый класс, интерактивное обучение, виртуальная реальность, культурная осведомленность, критическое мышление.

**Annotatsiya**: Tarjima nazariyasi va amaliyoti xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'qitishda muhim rol o'ynaydi, talabalarga maqsadli tilning nozikliklari va murakkabliklarini yaxshiroq tushunish uchun vositalarni taqdim etadi. An'anaviy tarjima usullarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan birlashtirish til o'rganishni yanada qulay, qiziqarli va samarali qiladi. Ushbu tadqiqot tarjima nazariyasi va texnologik innovatsiyalarni yanada integratsiyalash xorijiy tillarni o'qitishning kelajagini shakllantiradi, talabalarga interaktiv va keng qamrovli tilni o'zlashtirish uchun kengaytirilgan imkoniyatlar yaratadi, degan xulosaga keldi.

**Kalit so'zlar**: innovatsion pedagogik texnologiyalar, aralash ta'lim, elektron ta'lim, o'zgaruvchan sinf xonasi, interaktiv ta'lim, virtual haqiqat, madaniy xabardorlik, tanqidiy fikrlash.

Language learning has become an essential skill, particularly in mastering foreign languages like English. With the rapid evolution of technology and education, traditional teaching methods are being complemented and, in some cases, replaced by innovative pedagogical technologies that offer more interactive, engaging, and effective learning experiences.[1] Among the core aspects of foreign language teaching,

Translation Theory and its practical application continue to play a crucial role. Translation, as a tool for understanding and mastering a second language, helps students bridge the gap between their native and target languages by focusing on vocabulary, grammar, syntax, and cultural context.

The integration of innovative pedagogical technologies—such as online learning platforms, virtual reality (VR), mobile applications, and interactive software—has transformed the way languages are taught and learned. These technologies provide students with more flexible and personalized learning opportunities, enhancing the effectiveness of language acquisition. [2] The combination of Translation Theory and technological innovations creates a dynamic environment for students to not only understand the linguistic aspects of a foreign language but also experience and practice real-world applications of the language.

This paper seeks to explore the relationship between translation theory and innovative pedagogical technologies in language teaching. Specifically, it will examine how translation theory can be integrated with modern technological tools to improve student learning outcomes. The paper also investigates the role of translation exercises in enhancing cultural awareness, vocabulary acquisition, and critical thinking skills, as well as the potential of advanced teaching methodologies like blended learning, e-learning, and the flipped classroom model. Ultimately, this study aims to highlight how translation theory, when paired with cutting-edge teaching technologies, can offer students a more comprehensive and interactive learning experience, contributing to their success in mastering foreign languages.

Translation Theory in Language Teaching provides the foundational principles that guide the process of converting one language

into another.[3] It offers various approaches, including literal translation, dynamic equivalence, and communicative translation. These methods are not just applicable in literary translation but are also crucial for language learners to understand the structural and cultural nuances of a foreign language. Literal Translation focuses on direct word-for-word conversion, which may be useful for beginners in understanding basic vocabulary and grammar. However, it often fails to convey idiomatic expressions or cultural meanings. Dynamic Equivalence refers to translating the meaning of the original text in a way that is contextually appropriate and easily understood by the target audience. This approach emphasizes meaning over form and helps learners understand how language functions in different cultural contexts. Communicative Translation focuses on the natural flow of language in communication, aiming to make the translation sound as if it were originally written in the target language. This is particularly important in language teaching as it emphasizes fluency and comprehension, rather than focusing solely on grammatical accuracy. In the context of language teaching, translation exercises enable students to practice not only vocabulary but also to immerse themselves in the cultural and contextual aspects of a foreign language. This helps bridge the gap between theoretical knowledge and practical use, enhancing learners' ability to think critically and use the language in a real-world context.

Translation serves several purposes in the language learning process. Firstly, it helps learners understand the relationship between their native language and the target language. By translating phrases, sentences, or texts, students can see how different grammatical structures and vocabulary work in each language. This not only reinforces their understanding of the target language but also deepens

their knowledge of their own language.[4] Translation exercises also promote cultural understanding. Language is deeply tied to culture, and learning how certain expressions or idioms are translated into another language can reveal a great deal about the values, history, and traditions of different cultures. This cultural aspect is an important part of language learning, as it enables students to gain a more holistic understanding of the language they are studying. Moreover, translation promotes cognitive skills such as problem-solving and critical thinking. As students work through translation tasks, they must analyze and compare linguistic structures and meanings, thus improving their ability to reason and think critically. This cognitive engagement can lead to better retention of vocabulary and grammar.

The integration of innovative pedagogical technologies has revolutionized language teaching, making learning more interactive, engaging, and accessible. Online Learning Platforms Tools like Moodle, Duolingo, and Rosetta Stone offer structured courses that allow students to practice their language skills in a flexible and personalized way.[5] These platforms often include translation exercises that help reinforce vocabulary and grammar, while also providing instant feedback on progress. Virtual Reality provides immersive learning environments where students can interact with the language in real-world contexts. For example, students can practice ordering food in a restaurant, asking for directions, or having a conversation in a simulated environment. This approach gives learners a deeper understanding of how language functions in daily life and helps them practice their skills in a safe and controlled environment. These technological tools not only enhance language learning but also encourage autonomous learning. Students can access learning materials anytime, anywhere, allowing them to

practice and reinforce their skills outside the traditional classroom setting.

Blended learning combines traditional face-to-face instruction with online learning, offering a flexible and comprehensive approach to language teaching. This method allows students to engage with learning materials outside of class, such as watching videos or completing online translation exercises, while utilizing classroom time for discussions, problem-solving, and real-life applications. Blended learning helps students take ownership of their learning process. For example, they can use online platforms to practice translating short texts or engage with interactive exercises, then apply those skills in classroom activities like group discussions or role-playing exercises. E-learning platforms have also significantly contributed to language learning. These platforms provide a wealth of resources, from vocabulary-building exercises to comprehensive translation practice tasks. E-learning enables students to access a broad range of materials, from grammar explanations to translation examples, at their own pace. By combining the flexibility of online learning with the personalized support of in-class instruction, blended learning and e-learning create a rich and interactive learning environment that caters to diverse learning styles. The flipped classroom model has gained popularity in recent years as an innovative teaching strategy. In this model, students are introduced to new content outside of the classroom, typically through online videos or reading materials. The flipped classroom also encourages active learning. Instead of passively receiving information, students take an active role in their education, collaborating with peers and receiving immediate feedback from instructors.

In conclusion, the integration of Translation Theory and innovative pedagogical technologies has the potential to significantly enhance the process of language learning, particularly in mastering foreign languages like English. Translation not only facilitates understanding between languages but also deepens students' cultural awareness, enhances vocabulary acquisition, and strengthens their critical thinking abilities. By applying translation theory in the classroom, educators can offer students valuable insights into the structures, idiomatic expressions, and cultural contexts of the target language. Moreover, the use of modern pedagogical technologies such as online learning platforms, virtual reality, interactive software, and blended learning models provides an engaging and dynamic learning experience. These technologies allow for personalized learning, making it easier for students to access resources at their own pace and reinforcing their skills through practical, real-world applications. The flipped classroom model further empowers students to engage in active learning, applying theoretical knowledge to hands-on practice.

**References:**


1. In Translation and Language Education: Pedagogical Intersections. Continuum. (2009) (pp. 19-38)
2. Chun, D. M. The Role of Technology in Language Learning: From Theory to Practice. In The Cambridge Handbook of Technology and Language Teaching Cambridge University Press. (2017) (pp. 567-580).
3. Godwin-Jones, R. Using Technology in Language Teaching. Language Learning & Technology, (2018) 22(2), 1-8.
4. Hill, J. Virtual Reality in Language Learning: The Future of Language Education? In Innovations in Language Learning and Teaching (2015). (pp. 45-60).

5. Boltabayeva M.B. The Clash of Religious and Secular Views in Graham Greene's Works // Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) Vol: 4, No 1, 2025, Page: 1-8.

6. Anderson, C. Flipped Classrooms in Language Learning: Enhancing Student Engagement and Learning Outcomes. Language Education & Technology Journal, (2017). 6(3), 67-81.

7. Arnesen, L., & Madsen, T. Exploring the Role of Interactive Technologies in Language Education. Journal of Digital Learning, (2020). 25(1), 32-48.

8. Lee, L. Language Learning with Mobile Apps: Empowering Students and Teachers. Language Education in Asia, (2020). 11(2), 100-112.

# THE DIFFERENCES BETWEEN A SINGLE GENDER EDUCATION AND COEDUCATION.

***Mohlaroy Mamasoliyeva Egamberdi qizi***
Fourth-year student of Fergana State University
**E-mail:** mamasoliyevm788@gmail.com
**Phone:** +998942692409

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bir jinsli va aralash ta'lim turlarining talabalarga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Tadqiqotning maqsadi — o'g'il va qizlarni alohida o'qitish ularning o'qish samaradorligi, o'ziga ishonchi va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdir. Tadqiqot 18–22 yoshdagi 100 nafar qiz talaba o'rtasida o'tkazilgan. Ishtirokchilar orasida bir jinsli maktabda ham, aralash maktabda ham o'qiganlar bor edi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bir jinsli

ta'lim o'quvchilarga ko'proq diqqatni jamlash, o'z fikrini erkin ifoda etish va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday o'quvchilar keyinchalik qarama-qarshi jins vakillari bilan muloqot qilishda biroz qiynalishlari mumkin. Xulosa qilib aytganda, har ikki tizimning ham o'z afzallik va kamchiliklari bor. Eng yaxshi natija esa — bir jinsli ta'limning jiddiy o'quv muhiti bilan aralash ta'limning ijtimoiy tajribasini uyg'unlashtirgan muhitda erishiladi.

**Kalit so'zlar:** bir jinsli ta'lim, aralash ta'lim, o'ziga ishonch, yetakchilik, o'quv natijalari

**Аннотация:** Данная статья изучает влияние раздельного и совместного обучения на процесс обучения, уверенность в себе и социальное развитие студентов. Цель исследования — определить, способствует ли разделение учащихся по полу созданию более эффективной и поддерживающей образовательной среды. Опрос был проведён среди 100 студенток в возрасте от 18 до 22 лет. Результаты показали, что обучение в однополых школах способствует большей уверенности в себе, концентрации внимания и развитию лидерских качеств. Однако выпускницы таких школ могут испытывать трудности в общении с противоположным полом. В заключение автор отмечает, что обе формы обучения имеют свои преимущества и недостатки, а эффективность зависит от индивидуальных особенностей учащихся.

**Ключевые слова:** раздельное обучение, совместное обучение, уверенность, лидерство, учебные достижения

**Abstract:** This paper explores how single-gender and coeducational schools influence students' learning, confidence, and social development. The study aims to understand whether separating students by gender can create a more effective and supportive learning

environment. To examine this, a survey was conducted among 100 female students aged 18–22. The participants included those who had studied in both single-gender and mixed schools. The results showed that single-gender education often helps students feel more confident, focused, and supported, giving them more space to develop leadership skills and express their opinions freely. However, the research also found that students from single-gender schools may face challenges communicating with the opposite gender later in life. The study concludes that both systems have strengths and weaknesses, and the success of each largely depends on students' personalities, needs, and goals. A balanced approach—combining the academic focus of single-gender education with the social interaction of coeducation—may provide the most effective learning experience for young people.

**Keywords:** single-gender education, coeducation, student confidence, leadership, learning outcomes

**Introduction.**

Single-sex education is the practice of conducting educational environments where males and females attend separate classes or separate buildings, these are more common among private schools. Public schools on the other hand have notoriously been coeducational. Single gender classrooms are those where the males and females would not necessarily be separated into different buildings, but simply educated in classrooms solely the peers of the same sex. Single gender environments do affect the students differently than coed schools; however, the effects are more dramatic when it comes to girls according to Lee, V. E., & Bryk [1].

The purpose of the article to urge the pupils who are at the edge of applying for universities or colleges and so on to be more attentive not

only for the size and locations but also for the gender composition of their study place since the atmosphere has a big impact on their studies, too. By suitable study environment, they can achieve more success and feel more confident. This paper attempts to examine benefits and drawbacks of a single gender education for both boys and girls through qualitative and quantitative researches. In this paper, the positive results such as more developed leadership skills and more self-confidence and also some negative effects like less interaction with opposite genders of single-sex education are explained. In coeducation, there are some possible downsides for females and males, for instance, Riordan [2] said: 'Male students generally receive more attention from teachers, and they dominate discussions and classroom interaction at all level'. Additionally, this kind of education has less choices to create specialized lessons for only women or for only men. Moreover, in coeducational study, there are more distractions by opposite genders. Some investors pay attention for the improvement of single gender education. For instance, Senators Kay Bailey Hurtchisom and Hillary Rodham-Clinton sponsored for the purpose of providing direction to schools that wish to establish single gender classes or schools.

## Methodology

A survey was distributed among 100 female college students ages 18 to 22. The college where the survey was distributed is a small religious college. The sample group consists of forty girls whom attended single-sex high school and sixty girls whom coed schools. The survey has 20 questions which are both open ended questions and multiple choice questions. The research being done will strive to produce both quantitative and qualitative results, in order to make sure the information produced is as inclusive as possible.

Additionally, teachers were surveyed on the main benefits of single-sex schooling. in bold letters, one can find those items which I believe are not included in the other list, while those in italics which give a more specific explanation compared with broader one in the other. (Early implementation of Public Single-Sex schools: Perceptions and Characteristics.)

| Effects | Explanations |
|---|---|
| 1. Less distraction | Decreases distractions in learning/Reduces student behavior problems |
| 2. Fairer competition | |
| 3. Mutual support and friendship | Promotes sense of community among students and staff |
| 4. Greater confidence and simplicity | Improves student self-esteem |
| 5. Decreased sex stereotyping | Decrease sex bias in teacher-student interactions |
| 6. Homogenous and sex-sensitive teaching and management | Addresses unique learning styles and interests of boys and girls |
| 7. More engagement | Decreases distractions in learning |
| 8. Higher academic achievement | Improves student achievement |
| 9. Leadership development | Provide more leadership opportunities |
| 10. Avoiding early romantic relationship and attendant problems | Reduces student behavior problems |
| 11. Diminished sexual harassment and sex-related problems | Reduces sexual harassment among students |
| 12. Greater respect for opposite sex | Reduces sexual harassment among students |

## Results and Discussion

Less distractions. When girls attend coed schools they are usually distracted by the other gender with the help of their behavioral differences between sexes.

Mutual support. If people study in a SS school, they see their classmates and friends as a strong support group. Even they can develop lasting and deeper friendship.

Leadership development. In one way of education leadership can be seen and be developed easily. For girls attend single sex schools, they can be school presidents and in other positions which are usually owned by boys in coeducational schools in which girls are given leadership in cooking and sewing projects.

Greater confidence and simplicity. Girls and boys who are taught in separated schools feel comfortable with themselves, their classmates and teachers. They are always open to express their views, beliefs and feelings.

Drawbacks of single-sex education are that in their after-school life they will have difficulties in interaction with opposite genders.[1] But some believe that the main goal of schools is to give relevant education. The solution of it is to attract them after-school mixed-gender programs. If we compare two types of schools and look at the results given above, we cannot say the only one of them more beneficial for children. According to the experiments and surveys, we should be more attentive to the improvements of single gender education in public schools to achieve the results given above. Advocates of single gender education argue that it can lead to improved academic performance, particularly in subjects where one gender traditionally outperforms the other. For example, some studies have found that girls in single gender schools tend

to perform better in math and science than girls in coeducational schools. Similarly, boys in single gender schools may be more likely to take advanced courses and pursue careers in fields traditionally dominated by women, such as nursing or teaching. Single gender education can also provide a more tailored learning experience, as teachers can adapt their teaching styles to better meet the needs of their students. This can be particularly beneficial for students who may struggle in a coeducational setting due to social or academic pressures.

However, critics argue that single gender education can reinforce harmful gender stereotypes and limit students' exposure to diverse perspectives. For example, separating boys and girls may perpetuate the idea that they are fundamentally different and should be treated differently. Additionally, students in single gender schools may miss out on opportunities to interact with people from different backgrounds and experiences, which can limit their ability to empathize and communicate effectively with others.

**Conclusion**

The comparison between single-gender and coeducational schooling demonstrates that both systems possess significant advantages and limitations depending on the students' individual needs, cultural background, and personality traits. The findings of this study indicate that single-gender education provides a structured and supportive environment that encourages self-expression, leadership, and academic achievement, particularly among girls. Students in such environments often display stronger focus, higher self-esteem, and greater willingness to take intellectual risks. These factors contribute to the overall improvement of classroom participation and the development of critical thinking skills. Nevertheless, coeducation remains equally valuable

because it reflects real-life social structures and prepares students for cooperation, mutual understanding, and respect between genders. In coeducational settings, students learn how to work as a team, communicate effectively, and manage differences — all of which are essential for professional and social success. While single-gender education can eliminate certain distractions and biases, it may also limit students' exposure to diverse perspectives, which are crucial for forming well-rounded personalities.

In conclusion, rather than favoring one educational model over the other, it would be more effective to adopt a balanced approach that integrates the best aspects of both systems. Educational policymakers should consider implementing hybrid programs where academic focus and gender-sensitive teaching methods are combined with opportunities for mixed-gender social interaction. Such an approach can nurture academic excellence, emotional intelligence, and interpersonal skills simultaneously. Future research could further investigate how cultural context, teaching style, and subject matter influence the outcomes of both single-gender and coeducational schooling, helping educators design more inclusive and effective learning environments.

**References**

1. Lee, V. E., & Bryk, A. S. (1986). Effects of single-sex secondary schools on student achievement and attitudes. Journal of Educational Psychology, 78(5), 381–395.

2. Riordan, C. (1994). The impact of single-sex and coeducational schools: A review. Review of Educational Research, 64(4), 485–511.

3. Sax, L. (2005). Why gender matters: What parents and teachers need to know about the emerging science of sex differences. New York: Doubleday.

4. Spielhofer, T., O'Donnell, L., Benton, T., Schagen, S., & Schagen, I. (2002). The impact of school size and single-sex education on performance. National Foundation for Educational Research, London.

5. Hudges, T. A. (2006–2010). The advantages of single-sex education. Parents for Education Foundation.

6. Casserly, K. (2011). An educational advantage for women: Women's colleges and leadership development. Boston: Simmons College Press.

7. Hartman, K. (2010). The advantages of single-sex versus coeducational school environments for high school girls. Michigan State University.

8. Mael, F., Alonso, A., Gibson, D., Rogers, K., & Smith, M. (2005). Single-sex versus coeducational schooling: A systematic review. U.S. Department of Education, Office of Planning, Evaluation, and Policy Development.

9. Halpern, D. F., Eliot, L., Bigler, R. S., Fabes, R. A., Hanish, L. D., Hyde, J. S., ... & Martin, C. L. (2011). The pseudoscience of single-sex schooling. Science, 333(6050), 1706–1707/.

10. Signorella, M. L., Bigler, R. S., & Liben, L. S. (2013). Single-sex education: New perspectives and evidence on a continuing controversy. Sex Roles, 69(7-8), 393–401.

# SUNIY INTELEKT (AI) — TEZKOR YORDAMCHI, INSON ESA ASOSIY TARJIMON

***Turgunboyev Doston Rahmatli o'g'li***
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi K.XTA-AU-22 talabasi
***Boltabaeva Marifatkhon Baxromjon qizi***
Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi
**E-mail:** boltabayevamarifathon@gmail.com
**Phone:** +998942755577

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarjima jarayonida sun'iy intellekt (AI) vositalarining o'rni va inson tarjimonining asosiy roli tahlil qilindi. AI vositalari tezkorlik, vaqtni tejash va dastlabki variantni hamda yakuniy matn sifatini to'liq ta'minlay olmaydi. Chunki madaniy noziklik, uslubiy moslik va mazmuniy aniqlik faqat inson tarjimon tomonidan kafolatlanadi. Inson asosiy tarjimon AI bilan hamkorligi tarjima jarayonida eng samarali model sifatida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Tarjima, tarjimon, tarjima jarayoni, ta'lim sun'iy intellekt, AI, tezkor yordamchi, kontekst, madaniy moslik, uslubiy aniqlik.

**Abstract:** This article analyzes the role of artificial intelligence (AI) tools and the leading role of human translators in the translation process. AI tools cannot fully guarantee speed, time savings, and the quality of the source and final text. Cultural sensitivity, stylistic compatibility, and content accuracy are guaranteed only by a human translator. It is shown that collaboration between a human translator and AI is the most effective model for the translation process.

**Keywords:** Translation, translator, translation process, educational artificial intelligence, AI, instant assistant, context, cultural relevance, stylistic accuracy.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль инструментов искусственного интеллекта (ИИ) и ведущая роль человека-переводчика в процессе перевода. Инструменты ИИ не могут полностью гарантировать скорость, экономию времени и качество исходной версии и конечного текста. Поскольку культурная чувствительность, стилистическая совместимость и точность содержания гарантируются только человеком-переводчиком. Показано, что сотрудничество человека-первичного переводчика с ИИ является наиболее эффективной моделью в процессе перевода.

**Ключевые слова:** Перевод, переводчик, процесс перевода, образовательный искусственный интеллект, ИИ, мгновенный помощник, контекст, культурная релевантность, стилистическая точность.

Bugungi globallashuv davrida tarjima sohasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bir tildan ikkinchisiga tezkor va aniq tarjima qilishga bo‘lgan ehtiyoj nafaqat ilmiy doiralar, balki kundalik hayot, ta’lim, biznes va madaniy aloqalarda ham sezilarli darajada ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt (AI) vositalari tarjima jarayonida samarali yordamchi sifatida qo‘llanila boshladi. AI matnni qisqa vaqt ichida katta hajmda qayta ishlay olishi, til grammatikasini tahlil qilishi va so‘zlarni mos ekvivalentlarga almashtira olishi bilan ajralib turadi. Bu tarjimonlar uchun dastlabki variantni tayyorlashda juda katta qulaylik yaratadi. Ammo AI’ning imkoniyatlari cheklangan: u ko‘pincha ma’no nozikliklarini, madaniy kontekstni yoki badiiy uslubni to‘liq bera olmaydi. Shuning uchun ham tarjimada insonning roli asosiy

bo'lib qolmoqda. Inson tarjimon matnni chuqur tahlil qiladi, uslubiy boyliklarni to'liq saqlaydi va AI tomonidan qilingan xatolarni tuzatadi. Demak, AI — tezkor yordamchi, inson esa sifat va mazmun kafolatchisi hisoblanadi.

AI vositalarining tarjimada yordamchi sifatidagi afzalliklari va cheklovlarini yoritish, inson tarjimonning hal qiluvchi o'rnini ko'rsatish hamda ularning hamkorlikdagi samaradorligini tahlil qilishdir, taqqoslash metodi asos qilib olingan. Ya'ni, AI vositalari tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar va inson tarjimonlari tomonidan yaratilgan tarjimalar o'zaro qiyoslandi. Bu jarayonda tarjimalar uchta asosiy mezon bo'yicha baholandi: tezkorlik, aniqlik va uslubiy boylik. Shuningdek, tahliliy metod qo'llanilib, AI tarjimasi va inson tarjimasi o'rtasidagi farqlar chuqur o'rganildi. Bunda AI dasturlarining grammatik jihatdan to'g'riligi, leksik boylikni qamrab olishi hamda matnning umumiy mazmunini yetkazib bera olish darajasi tahlil qilindi. Inson tarjimoni esa matnga uslubiy go'zallik qo'shishi, madaniy kontekstni saqlab qolishi va AI e'tibordan chetda qoldirgan ma'no nozikliklarini to'ldirishi bilan baholandi. Metod sifatida, amaliy kuzatish va tajribaviy yondashuv ham qo'llanildi. Bunda turli sohalarga oid matnlar — ilmiy, texnik va badiiy tarjimalar misol tariqasida tanlab olindi. AI vositalari yordamida dastlabki tarjimalar bajarildi, so'ng ularning natijalari inson tarjimoni tomonidan qayta ko'rib chiqildi. Shu asosda AI va insonning tarjima jarayonidagi real o'rni aniqlandi. Bundan tashqari, mavzu bo'yicha ilgari chop etilgan maqolalar, ilmiy manbalar va tarjimashunoslikka oid adabiyotlar ham o'rganildi. Bu esa nazariy asosni mustahkamlashga xizmat qildi va mavzuni yanada chuqurroq yoritish imkonini berdi. Maqola yozishda qo'llanilgan metodlar AI va inson tarjimonning o'zaro aloqadorligini ilmiy asosda tahlil qilishga, ularning afzallik va

kamchiliklarini aniqlashga hamda ularning hamkorlikdagi imkoniyatlarini ko'rsatishga yordam berdi.

O'tkazilgan kuzatuvlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, AI tarjima vositalaridan foydalanish jarayoni tezlik va qulaylik jihatidan sezilarli natijalar bermoqda. Masalan, matnni bir necha soniya ichida tarjima qilib, umumiy mazmunni tushunish imkoniyatini yaratadi. Bu jihat ayniqsa vaqt tanqis bo'lgan vaziyatlarda yoki dastlabki ko'rib chiqish bosqichida foydali bo'ladi. Shuningdek, AI vositalarining doimiy takomillashib borishi ularning samaradorligini yil sayin oshirmoqda. Shu bilan birga, inson tarjimonining roli hamon asosiy o'rinda qolmoqda. Chunki AI tomonidan berilgan tarjimalarda mantiqiy xatolar, kontekstdan chetga chiqish, shuningdek, madaniy va uslubiy nozikliklarning to'liq aks etmasligi kuzatildi. Masalan, AI ayrim iboralarni so'zma-so'z tarjima qilishi natijasida asl matnning emotsional ohangi yoki badiiy qiymati yo'qolib ketishi mumkin. Shu sababli, AI'dan olingan tarjimalar yakuniy matn sifatida emas, balki yordamchi manba sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. AI va insonning hamkorligi tarjima jarayonida samaradorlikni ikki baravar oshirishi mumkin. Inson tarjimon AI tomonidan yaratilgan xom variantni tezda tahrirlab, mazmuniy aniqlik, uslubiy uyg'unlik va madaniy moslikni ta'minlaydi. Bu esa, bir tomondan, tarjimonning ishini yengillashtirsa, ikkinchi tomondan, yuqori sifatli natijani kafolatlaydi. Ushbu soha bo'yicha o'qituvchilar va talabalarga ham muhim tavsiyalar beradi. Tarjima jarayonida AI'dan foydalanish amaliy mashg'ulotlarda talabalarning til sezgirligini rivojlantirish, ularni xatolarni topib tuzatishga o'rgatish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Bu jihatdan qaraganda, AI faqatgina texnologik yordamchi emas, balki o'quv jarayonining ham muhim bo'g'ini sifatida ko'rilmoqda.

AI tezkor va dastlabki variantni berishda foydali bo'lsa-da, yakuniy matn sifatida qabul qilish mumkin emas. Buning sababi shundaki, tarjima jarayoni faqat so'zlarni boshqa tilga ko'chirish emas, balki ma'no, uslub va madaniy kontekstni ham to'g'ri yetkazishni talab qiladi. AI esa hozircha bu nozikliklarni to'liq qamrab olish darajasiga yetmagan. AI vositalari tarjimon uchun xom materialni tezkor yaratishda yordam beradi. Inson esa ularni tahrir qilish, uslubiy moslashtirish va kontekstual chuqurlik berish orqali yakuniy natijani sifatli qiladi. Bu ikki jarayon bir-birini to'ldiradi va natijada samarali hamkorlik yuzaga keladi. Masalan, tarjimonlar AI vositalari yordamida tezroq natija olishlari, ko'proq loyihalarni bajarishlari va o'z e'tiborini ijodiy, uslubiy jihatlarga qaratishlari mumkin. Shu bois, AI'ni raqib emas, balki kasbiy hamkor sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa AI vositalarining qo'llanilishi ta'lim tizimi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar AI yordamida tezkor tarjimalarni ko'rib, ulardagi xatolarni aniqlash va tahrirlashni o'rganadilar. Bu jarayon ularning til sezgirligini rivojlantiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi. AI — tezkor yordamchi, inson esa asosiy tarjimon. Bu ikki kuchning uyg'unligi kelajakda tarjima sohasida yanada samarali va sifatli natijalarga olib keladi.

Izlanishlar olib borish jarayonada zamonaviy tarjima "AI" vositalari yordamchi sifatida beqiyos imkoniyatlarga ega. Ular tarjimonning vaqtini tejaydi, dastlabki matn variantini tezkor taqdim etadi hamda umumiy mazmunni tushunishda qulaylik yaratadi. Shu jihatdan qaraganda, AI texnologiyalari tarjima sohasiga yangi bosqich olib kirganini bemalol ta'kidlash mumkin. Shu bilan birga, tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, AI vositalari hali to'liq mukammallikka erishmagan. Ularning natijalari ko'pincha kontekstdan uzilib qolgan,

madaniy nozikliklarni hisobga olmaydigan va uslubiy jihatdan yetarli darajada mos boʻlmagan shaklda namoyon boʻlmoqda. Demak, hozirgi sharoitda AI vositalarini yakka holda ishlatish emas, balki inson tarjimoni nazorati ostida qoʻllash eng maqbul yoʻldir. Ta'lim jarayonida ham AI vositalarining qoʻllanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar AI yordamida tezkor tarjimalarni koʻrib, ulardagi xatolarni aniqlash va tuzatish orqali til sezgirligini rivojlantirishlari mumkin. Bu esa kelajak tarjimonlarining malakasini oshirishda innovatsion yondashuv sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda, mazkur mavzu shuni koʻrsatadiki: "AI — tezkor yordamchi, inson esa asosiy tarjimon." Shu tamoyil zamonaviy tarjima amaliyotining poydevoriga aylanib bormoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Baraniuk, R. Artificial Intelligence and Human Creativity: The Future of Translation Studies. Cambridge University Press. 2021 P.P. 87–103.

2. Vaswani, A., et al. Attention Is All You Need. In NeurIPS 31st Conference Proceedings.2017. P. 2–8.

3. Hutchins, W. J. Machine Translation: History and Development. John Benjamins. 2005. P.45–60.

4. Pym, A. Exploring Translation Theories. Routledge. P. 2014. 132–149.

5. Koehn, P. Neural Machine Translation. Cambridge University Press. 2020 P. 91–112.

6. Bahdanau, D, Cho, K., & Bengio, Y. Neural Machine Translation by Jointly Learning to Align and Translate. arXiv:1409.0473. 2014 P. 9–16.

7. O'Hagan, M & Ashworth, D. (). Translation-Mediated Communication in a Digital World. Multilingual Matters. 2016. P.77–88.

8. Boltabayeva M.B. The Clash of Religious and Secular Views in Graham Greene's Works // Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) Vol: 4, No 1, 2025, Page: 1-8.

9. Wilks, Y. Artificial Companions: Robots and AI in the Human World. Routledge. 2019. P.120–138.

10. Shuhratov, S. Sun'iy intellektning til va tarjima jarayonlaridagi o'rni. Toshkent: Fan va Texnologiya. 2022.P.48–63.

# RAQAMLI MADANIYAT VA MEDIASAVODXONLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

***Pazliddinova Mashhura Olimjon qizi***
Namangan davlat pedagogika institute
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi, 1-bosqich talabasi
**Ilmiy rahbar: *B.A.Tillayev***
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**: Maqolada raqamli madaniyat va mediasavodxonlik tushunchalarining o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Raqamli madaniyatning zamonaviy jamiyatdagi o'rni, mediasavodxonlikning axborot iste'molida tutgan ahamiyati hamda ularning shaxsning axborot bilan ishlashdagi madaniyatini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, maqolada tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi va raqamli etikaga oid masalalar ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar**: raqamli madaniyat, mediasavodxonlik, axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, internet etikasi.

**Abstract**: This article analyzes the interrelationship between the concepts of digital culture and media literacy. The role of digital culture in modern society, the importance of media literacy in information consumption, and their role in shaping an individual's culture of working with information are highlighted. The article also considers issues related to critical thinking, information security, and digital ethics.

**Keywords**: digital culture, media literacy, information culture, critical thinking, information security, internet ethics.

**Аннотация**: В статье анализируется взаимосвязь понятий «цифровая культура» и «медиаграмотность». Рассматривается роль цифровой культуры в современном обществе, значение медиаграмотности в потреблении информации и её роль в формировании культуры работы личности с информацией. В статье также рассматриваются вопросы, связанные с критическим мышлением, информационной безопасностью и цифровой этикой.

**Ключевые слова**: цифровая культура, медиаграмотность, информационная культура, критическое мышление, информационная безопасность, интернет-этика.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida inson hayoti internet, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har bir inson raqamli muhitda axborot iste'mol qiluvchi, tarqatuvchi va baholovchi sifatida faol ishtirok etadi. Raqamli muhit nafaqat qulaylik, balki mas'uliyatni ham talab etadi. Chunki internetdagi har bir harakat — ma'lumot almashish, fikr bildirish yoki kontent yaratish — insonning raqamli madaniyati darajasini ko'rsatadi. Aynan shu nuqtada raqamli madaniyat va mediasavodxonlik tushunchalari o'zaro uzviy bog'lanadi. Ular insonning raqamli makondagi faoliyatini maqsadga yo'naltiradi, tanqidiy fikrlashni

rivojlantiradi va axborotdan ongli tarzda foydalanish madaniyatini shakllantiradi. Hozirgi kunda raqamli madaniyat nafaqat texnik ko'nikmalarga ega bo'lishni, balki ijtimoiy, axloqiy va huquqiy mas'uliyatni ham qamrab oladi. Masalan, foydalanuvchi onlayn muhitda o'zining va boshqalar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, soxta axborotni tarqatmaslik, internet etikasi qoidalariga amal qilish orqali madaniy raqamli shaxs sifatida shakllanadi. O'zbekiston Respublikasida ham raqamli madaniyatni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida axborot texnologiyalarini ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tatbiq etish, yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish va mediasavodli jamiyatni shakllantirish ustuvor maqsad sifatida belgilangan.[1] Shu bois, bu mavzuning dolzarbligi ortib bormoqda, chunki har bir fuqaro raqamli makonda ongli ishtirokchi bo'lishi, axborot xavfsizligini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda o'z hissasini qo'sha olishi zarur.

Raqamli madaniyatning mohiyati

Raqamli madaniyat — bu insonning raqamli muhitda madaniyatli, xavfsiz va ongli tarzda faoliyat yuritish qobiliyatidir. U nafaqat texnologiyadan foydalanish ko'nikmasini, balki uni mas'uliyat bilan ishlatish, boshqalar huquqiga hurmat bilan qarash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Raqamli madaniyat, shuningdek, internet etikasi va onlayn xulq-atvor me'yorlarini bilish hamda virtual muloqot madaniyatiga amal qilishni nazarda tutadi. Bu ko'nikmalar jamiyatda axborot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli madaniyatning yana bir muhim jihati — axborot xavfsizligidir. Har bir inson shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, parol, elektron manzillar, bank

rekvizitlari kabi ma'lumotlarni sir saqlashni bilishi zarur. Bugungi kunda kiberxavfsizlik masalalari nafaqat texnik, balki madaniy muammo sifatida ham ko'rilmoqda. Chunki foydalanuvchining ongli yondashuvi va ehtiyotkorligi axborot xavfsizligini ta'minlashda eng muhim omildir

Mediasavodxonlikning ahamiyati

Mediasavodxonlik — bu insonning turli axborot manbalarini tahlil qilish, ularning ishonchliligini aniqlash, yolg'on yoki manipulyativ ma'lumotlarni ajrata olish qobiliyatidir.[2] Bugungi kunda axborot oqimi nihoyatda tez va keng bo'lgani sababli, bu ko'nikma har bir inson uchun zarur ehtiyojga aylangan. U tanqidiy fikrlashni rivojlantirib, yangiliklar, reklama manipulatsiyalari yoki ijtimoiy tarmoqdagi noto'g'ri malumotlarga ko'r-ko'rona ishonmaydi. Mediasavodli inson nafaqat o'qigan yoki ko'rgan ma'lumotni tahlil qiladi, balki uni to'g'ri talqin qilib, ijobiy maqsadlarda foydalanishni biladi. Mediasavodli yoshlar tanqidiy tafakkurga ega bo'lib, raqamli muhitda mas'uliyatli va ongli ishtirokchi sifatida shakllanadilar. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va axborot madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Raqamli madaniyat va mediasavodxonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

Raqamli madaniyat va mediasavodxonlik bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim tushunchadir. Raqamli madaniyat va mediasavodxonlik bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim tushunchadir. Mediasavodxonlik — raqamli madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, insonning axborotni ongli tahlil qilishiga, uni to'g'ri talqin etishga va maqsadga muvofiq foydalanishga yordam beradi.[3] Raqamli madaniyat esa mediasavodxonlikni amalda qo'llash, ya'ni o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni real raqamli muhitda to'g'ri tatbiq etish uchun asos

yaratadi. Bu ikki yo‘nalish birgalikda insonning raqamli olamdagi madaniy, axloqiy va ijtimoiy xatti-harakatlarini boshqaradi. Ularning o‘zaro bog‘liqligi, avvalo, ta’lim tizimida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy o‘qituvchilar dars jarayonida raqamli vositalardan foydalanib, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, mustaqil axborot izlash va uni baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda mediasavodxonlik axborotni tahlil qilishni o‘rgatsa, raqamli madaniyat esa o‘sha axborotni amalda, etik me’yorlarga asoslanib qo‘llashni ta’minlaydi. Shu orqali yoshlar nafaqat bilimli, balki mas’uliyatli raqamli fuqaro sifatida shakllanadilar. Raqamli madaniyat va mediasavodxonlikning bog‘liqligi oilaviy muhitda ham muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda raqamli tafakkur, media etikasi va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot madaniyati inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Shaxsning raqamli muhitda o‘zini tutishi, tanqidiy fikrlash orqali manipulyatsion kontentni ajratib olish ko‘nikmalari jamiyatning axborot xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, raqamli madaniyatni rivojlantirish ta’lim tizimi, oilaviy tarbiya va ommaviy axborot vositalarining uzviy hamkorligini talab etadi. Bunday hamkorlik jamiyatda ongli, madaniyatli va mas’uliyatli axborot iste’molchilari hamda yaratuvchilarini tarbiyalashning eng samarali yo‘lidir. Raqamli madaniyat va mediasavodxonlik nafaqat ta’lim yoki axborot sohalarida, balki siyosiy, iqtisodiy va psixologik jarayonlarda ham muhim omilga aylanmoqda. Insonning raqamli muhitdagi xulqi endilikda uning shaxsiy qadriyatlarini, dunyoqarashini va ijtimoiy mas’uliyatini ifoda etadi. Masalan, foydalanuvchining onlayn axloqi, fikr bildirish madaniyati yoki raqamli iz qoldirish odati — ularning ijtimoiy portretini shakllantiradi. Shu bois, raqamli madaniyat endilikda shunchaki “internetdan foydalanish qobiliyati” emas, balki axborot etikasi, raqamli izni

boshqarish va raqamli shaxsiyatni himoya qilish madaniyatiga aylanmoqda.[4]

Zamonaviy tahlillar shuni koʻrsatadiki, insonning raqamli xulqi uning psixologik holati bilan bevosita bogʻliq. Ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ravishda tasdiqlanish (like) istagi, maʼlumot ortiqchaligi (information overload) va virtual tazyiq (cyber pressure) — bularning barchasi raqamli madaniyat darajasiga taʼsir etuvchi omillardir. Shuning uchun, raqamli madaniyatni rivojlantirishda faqat texnik va axloqiy emas, psixologik tayyorgarlik ham muhim oʻrin tutadi [5].

Xalqaro tajriba ham bu yoʻnalishda eʼtiborga molik. Masalan, Finlyandiya va Janubiy Koreya maktablarida mediasavodxonlik alohida fan sifatida oʻqitiladi. Oʻquvchilarga nafaqat axborotni tahlil qilish, balki vizual savodxonlik — yaʼni surat, video va reklamalardagi yashirin gʻoyalarni tahlil qilish koʻnikmalari ham beriladi. Bu yondashuv yoshlarni manipulyativ kontentga nisbatan immunitetli qiladi va tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi.

Oʻzbekistonda esa "Raqamli Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi doirasida axborot etikasi, kiberxavfsizlik va media tahlil fanlarini bosqichma-bosqich oʻquv dasturlariga kiritish ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, raqamli madaniyatga oid oʻquv kurslarida virtual masʼuliyat, raqamli izni boshqarish, va sunʼiy intellekt bilan ishlash etikasi kabi yangi mavzular paydo boʻlmoqda.

Yana bir muhim jihat — raqamli ijtimoiy adolat masalasi. Bugungi raqamli muhitda hamma foydalanuvchilar bir xil imkoniyatga ega emas: texnologik tengsizlik (digital divide) hali ham mavjud. Qishloq joylarida internet sifati, texnik jihozlar, yoki raqamli oʻqituvchilar yetishmasligi raqamli madaniyat rivojiga toʻsqinlik qilmoqda. Shu sababli, davlat siyosatida inklyuziv raqamli taʼlim, axborotga teng kirish imkoniyatlari

va ayollar hamda yoshlar uchun media savod dasturlari muhim oʻrin tutishi lozim.

Xulosa

Raqamli madaniyat va mediasavodxonlik zamonaviy inson uchun ajralmas tushunchalardir. Ular birgalikda insonning raqamli muhitdagi ongli, madaniyatli va xavfsiz faoliyatini ta'minlaydi. Bu ikki tushuncha insonning texnologiyalar bilan munosabatini faqat foydalanuvchi darajasida emas, balki axborotni tahlil qiluvchi, baholovchi va mas'uliyatli ishtirokchi sifatida belgilaydi. Yoshlar ushbu ikki sohani chuqur oʻrganar ekan, ular nafaqat texnologiyadan toʻgʻri foydalanishni, balki axborotga tanqidiy va mas'uliyatli munosabatda boʻlishni ham oʻrganadilar. Bu esa ularning raqamli tafakkurini kengaytiradi, axborot muhitida mustaqil qaror qabul qilish, ishonchli manbalarni tanlash va kiberxavflarga nisbatan ogohlikni oshirishga yordam beradi. Natijada, raqamli madaniyat va mediasavodxonlikning uygʻun rivojlanishi jamiyatda ongli axborot iste'moli, madaniy muloqot va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bois, bu ikki tushuncha nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki jamiyatning intellektual va ma'naviy yuksalishi uchun ham muhim omil hisoblanadi..

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi toʻgʻrisidagi qarori. – Toshkent, 2020.

2. Toʻlaganova G. Axborot madaniyati va mediasavodxonlik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

3. Livingstone, S. Media Literacy and the Challenge of New Information and Communication Technologies. – Communication Review, Vol. 7, 2004.

4. Saidov A., Mamatqulov D. Raqamli madaniyat va uning ijtimoiy ahamiyati. – "Axborot texnologiyalari jurnali", №3, 2022.

5. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing, 2018.

6. Xamidova Z. Raqamli madaniyat va yoshlarning axborotga munosabati. – "Innovatsion ta'lim jurnali", №2, 2023.

# DIDAKTIKA ASOSIDA O'QUVCHILARGA CHET TILI O'QITISHNING ASOSIY METODLARI

***Azimov Samandar Murodjon o'g'li***
Namangn Davlat Pedagogika Institutining
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi XTA-BU-22 talabasi
**E-mail:** azimovsamandar196@gmail.com
**Tel:** +998942422220

***Boltabaeva Marifatkhon Baxromjon qizi***
Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi
**E-mail:** boltabayevamarifathon@gmail.com
**Tel:** +998942755577

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada chet tilini o'qitishda didaktik yondashuvning ahamiyati hamda uning zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. O'quvchilarning til o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, interfaol dars metodlarini qo'llash va o'quv motivatsiyasini oshirish bo'yicha samarali yondashuvlar bayon etiladi. Shuningdek, didaktikaning asosiy tamoyillari hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalar misollar asosida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** didaktika, chet tili ta'limi, ingliz tili, samarali metodlar, interfaol yondashuv, kommunikativ kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, motivatsiya.

**Annotation:** This article analyzes the significance of the didactic approach in teaching foreign languages and its integration with modern educational methods. It focuses on developing learners' communicative competence, applying interactive teaching strategies, and enhancing students' motivation in the learning process. The study also highlights key didactic principles and innovative technologies that contribute to improving the quality and effectiveness of language education.

**Keywords:** didactics, foreign language teaching, English language, effective methods, interactive approach, communicative competence, innovative technologies, motivation.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение дидактического подхода в обучении иностранным языкам и его сочетание с современными педагогическими методами. Особое внимание уделяется развитию коммуникативной компетенции учащихся, использованию интерактивных методов обучения и повышению мотивации в процессе изучения языка. Также анализируются основные принципы дидактики и инновационные технологии, способствующие повышению качества и эффективности обучения.

**Ключевые слова:** дидактика, обучение иностранным языкам, английский язык, эффективные методы, интерактивный подход, коммуникативная компетенция, инновационные технологии, мотивация.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish metodikasi, usullari, tamoyillari bir-birini to'ldirib doimiy ravishda uyg'unlikda amalga

oshib kelmoqda. Zamon talabi bo'lmish xorijiy tillarni o'rganishning ilg'or texnologik, pedagogik mahoratga tayangan holda yangi na'munalari ishlab chiqilmoqda. Xususan, ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, chet tili ta'limida didaktika tamoyillari asosida zamonaviy metodlarni qo'llash zarurati ortib bormoqda. Didaktika ta'limning nazariy asosi sifatida o'quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi qonuniyatlar, prinsiplari va metodlarini belgilaydi. Didaktika - pedagogika fanining muhim va mustaqil yo'nalishlaridan biri bo'lib, ta'lim jarayoni, o'qitish hamda o'rganish faoliyatining mazmuni, shakllari va qonuniyatlarini o'rganadi. U o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek, ularning e'tiqod va dunyoqarashini rivojlantirish jarayonining nazariy asoslarini belgilaydi. "Didaktika" atamasi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, "o'qitish" yoki "o'rgatish" ma'nosini bildiradi.[1] Didaktika ta'limning mazmuni, shakli, usuli va tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi pedagogik nazariya sifatida ta'lim jarayonini tashkil etishning ilmiy yo'nalishini belgilab beradi. Bu yo'nalish ta'limni yanada samarali tashkil etish, o'quvchi shaxsini rivojlantirish va o'qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur tushuncha ilk bor XVII asrda nemis pedagogi V. Ratke[2] tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u didaktikani ta'lim nazariyasi sifatida shakllantirishga asos solgan. Keyinchalik bu sohada mashhur chex mutafakkiri Ya.A. Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida ta'lim jarayonini "hammani hamma narsaga o'rgatuvchi san'at" sifatida izohlab, didaktikaning nazariy asoslarini yaratgan. Didaktika o'qitish jarayonining asosiy savollariga javob izlaydi: nima uchun o'qitish kerak,

nimani oʻqitish kerak, qanday oʻqitish kerak, kimlarni oʻqitish kerak va qaysi vositalardan foydalanish zarur. Bu savollarga berilgan javoblar ta'limni tizimli tashkil etish, uning samaradorligini oshirish hamda oʻquvchilarning shaxsiy rivojini ta'minlashga qaratilgan. Didaktik fikrlarning shakllanishi va rivojlanishida G. Pestalotstsi, I. Gerbart, K.D. Ushinskiy, P. Kapterev, V. Ostrogorskiy kabi mashhur olimlarning hissasi beqiyosdir.[3] Ularning ilmiy izlanishlari ta'lim jarayonining nazariy va amaliy asoslarini yanada boyitib, zamonaviy didaktik tizimlarning rivojlanishiga poydevor yaratgan.

Chet tili oʻqitish jarayonida didaktika fani ta'lim nazariyasining asosiy tayanchlaridan biri sifatida muhim oʻrin egallaydi. Didaktika oʻqitish mazmuni, metodlari va vositalarini ilmiy asosda belgilab beradi hamda oʻquv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chet tili oʻrganish nafaqat bilim olish vositasi, balki madaniyatlararo muloqot, xalqaro hamkorlik va kasbiy raqobatbardoshlik omili sifatida ham qaralmoqda. Shu bois, chet tili oʻqitishda didaktik tamoyillarga asoslangan yondashuvlar oʻqitish jarayonining markazida turadi. Didaktika ta'lim jarayonining mazmunini belgilash bilan birga, oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi muloqotni, interfaol metodlarni qoʻllashni ham nazarda tutadi. Chet tilini oʻrgatishda qoʻllaniladigan didaktik usullar - kommunikativ, kompetensiyaviy, integrativ va interfaol yondashuvlar orqali oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot qilish va oʻz fikrini ifoda etish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy chet tili ta'limida didaktika oʻqituvchi faoliyatini yoʻnaltiruvchi nazariy asos sifatida qaraladi. U ta'lim jarayonining har bir bosqichida metodik tanlov, darsni loyihalash, materialni tanlash va natijani baholash kabi bosqichlarni ilmiy asoslash imkonini beradi. Natijada, didaktika chet tili oʻqitish samaradorligini oshirishda bosh omil sifatida namoyon boʻladi.

Didaktik yondashuvga koʻra, oʻqitish tamoyillari ta'limning qonuniyatlarini belgilovchi va oʻqituvchining amaliy faoliyatida yoʻl-yoʻriq beruvchi asosiy omillardir. Ingliz tili oʻqitish jarayonida oʻquvchilarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari va psixologik ehtiyojlari inobatga olingan holda oʻquv materiali tanlanishi zarur. Bu jarayon oʻquvchining nutq faoliyatini, mantiqiy fikrlashini hamda mustaqil oʻrganish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Didaktikaning asosiy vazifasi - oʻqitish jarayonini samarali tashkil etish, oʻquvchilarda bilim, koʻnikma va malakalarni tizimli shakllantirishdir. Ingliz tilini oʻqitishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi: mazmunli kontekst, tizimlilik, koʻrgazmalilik, individual yondashuv, kommunikativlik va motivatsiya. Ayniqsa, oʻquvchini tinglab tushunish, fikrini mustaqil ifodalash, oʻzlashtirishga tayyor holatda boʻlish kabi koʻnikmalarni shakllantirish oʻqituvchining asosiy maqsadidir. Xorijiy tillarni oʻqitishda didaktik tamoyillar faqat bilim berish emas, balki oʻquvchilarning ijtimoiy faolligini, muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi. Shuningdek, nutqni shakllantirish mashgʻulotlari, interaktiv topshiriqlar va madaniy kontekstli topshiriqlar orqali oʻquvchilarda lingvomadaniy kompetensiya hosil boʻladi. Natijada ingliz tili oʻqitish jarayonida didaktika - ta'limning ilmiy asoslangan tizimi sifatida oʻqituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik, oʻquvchilardan esa faol ishtirokni talab qiladi.[4] Chet til oʻqitish jarayoni ta'limshunoslik, xususan, didaktika fanining nazariy tamoyillariga asoslanadi. Har bir oʻquv predmeti oʻz faoliyatida didaktik qonuniyatlarga tayanadi, chunki ta'lim jarayoni bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda, shaxsning intellektual va madaniy rivojiga ham xizmat qiladi. Chet tili oʻqitish metodikasi didaktikaning xususiy sohasi sifatida shakllanib, oʻquvchida nutq

faoliyatini, kommunikativ qobiliyatni va madaniy muloqot malakalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Til o'qitishning ilmiy asosini lingvodidaktika tashkil etadi. Bu yo'nalish tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyotini birlashtirib, o'quvchilarda tilni egallash jarayonini samarali tashkil etish yo'llarini izohlaydi. Lingvodidaktika, o'z mohiyatiga ko'ra, ta'lim jarayonini til orqali amalga oshirish, ya'ni o'quvchini faol kommunikator sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Chet tili o'qitish boshqa o'quv fanlaridan tubdan farq qiladi. Masalan, matematika, fizika yoki tarix kabi fanlarda o'quvchi asosan bilimni o'zlashtiradi, til o'qitish esa bevosita muloqot faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Bu jihatdan til o'qitishning maqsadi o'quvchini nutqiy faoliyat subyekti sifatida shakllantirishdir. Shu bois o'qituvchi didaktik tamoyillar asosida darsni rejalashtirib, o'quvchilarda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kabi ko'nikmalarni bir butun tizimda rivojlantiradi. Ona tili, ikkinchi til va chet til o'qitish o'rtasida ham o'zaro o'xshashlik va tafovutlar mavjud. Ona tili o'qitish jarayonida o'quvchi avvaldan mavjud tajribaga ega bo'lsa, chet tili o'rganishda yangi lisoniy tizimni shakllantiradi. Shu sababli chet tili o'qitishda amaliy maqsad - nutqni tushunish, fikrni ifodalash va kommunikatsiyada faol ishtirok etish - yetakchi o'rinda turadi. Chet tili o'rganish jarayonida interferensiya, ya'ni ona tilidagi tajribaning yangi tilga salbiy ta'siri tez-tez uchraydi.

Xulosa qilib aytganda didaktik yondashuvlar yordamida bu holatni kamaytirish, o'quvchilarda yangi til tizimini to'g'ri shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim. Bunda o'qitish metodikasining asosiy tamoyillari - tizimlilik, ongli o'zlashtirish, ko'rgazmalilik, faollik va amaliy yo'nalish - muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, chet til o'qitish nafaqat bilim berish, balki shaxsni tarbiyalash, estetik dunyoqarashni shakllantirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish kabi ko'p qirrali vazifalarni

bajaradi. Demak, chet til o'qitishning ta'limshunoslik asoslari o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni, o'quvchidan esa faol ishtirok va mustaqil fikrlashni talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Suvankulov, S. M., Faxriddinov, M. F., Kadirov, J. X. Didaktika ta'limda pedagogik nazariya sifatida // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume 7, Issue 06, June, 2024. P. 130–133.

2. Umrzakova, G. J. Ingliz tili o'qitish tamoyillari // Ijodkor o'qituvchi jurnali. 2023. №25. 5-yanvar. - B. 1–3.

3. J. Jalolov. Ingliz tilini o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" Toshkent-2012.

4. Boltabayeva M.B. The Clash of Religious and Secular Views in Graham Greene's Works // Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) Vol: 4, No 1, 2025, Page: 1-8.

# KIBERXUJUMLAR VA ULARNING TURLARI

***Omonova Madina Kamoliddin qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi
**Tel:** 937437574

**Ilmiy rahbar:** ***B.A.Tillayev***
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kiberxavfsizlik sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lgan kiberxujumlar masalasi tahlil etiladi. Kiberxujumlarning mohiyati, ularning asosiy turlari, maqsadlari hamda oqibatlari haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek,

zamonaviy kiberxavfsizlik strategiyalarining kiberxujumlarga qarshi kurashdagi ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** kiberxavfsizlik, kiberxujum, zararli dastur, ma'lumotlar xavfsizligi, fishing, DDoS, ransomware, axborot tizimi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется вопрос кибератак, являющийся одной из основных проблем сферы кибербезопасности. Приводятся научно обоснованные сведения о сущности кибератак, их основных видах, целях и последствиях. Также освещается значение современных стратегий кибербезопасности в борьбе с кибератаками.

**Ключевые слова:** кибербезопасность, кибератака, вредоносное ПО, безопасность данных, фишинг, DDoS, ransomware, информационная система.

**Abstract:** This article analyzes the issue of cyberattacks, which is one of the main problems in the field of cybersecurity. Scientifically based information is provided on the essence of cyberattacks, their main types, goals, and consequences. The importance of modern cybersecurity strategies in combating cyberattacks is also highlighted.

**Keywords:** cybersecurity, cyberattack, malware, data security, phishing, DDoS, ransomware, information system.

Raqamli texnologiyalar va internet tarmog'ining keng rivojlanishi insoniyat hayotini yengillashtirgan bo'lsa-da, yangi xavf turlarini ham yuzaga keltirdi. Ulardan eng jiddiylaridan biri — kiberxujumlar hisoblanadi.

Kommunikatsiya tarmoqlari jadal rivojlanayotgan bugungi kunda axborot jarayonlari bilan bog'liq munosabatlarda shaxsiy manfaatni ko'zlagan holda o'zganing kompyuteri, serveri yoki tarmog'ini buzish orqali ma'lumotlarni o'g'irlash, tizimdan ruxsatsiz foydalanish yoki tizim egasiga foydalanishdagi noqulayliklarini keltirib chiqaradigan va

firibgarlik orqali pul topish imkonini beradigan kiber hujumlarining soni ortib bormoqda. Axborot texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi bugungi davrda hayotimizning barcha sohalariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Internet va raqamli texnologiyalarning keng ommalashuvi natijasida ko'plab qulayliklar yaratilgani bilan birga, turli tahdidlar, xususan, kiberhujumlar xavfi ham ortib bormoqda.[1]

Axborot resurslari, kompyuter tarmoqlari va mobil qurilmalar orqali amalga oshirilayotgan hujumlar ko'plab shaxsiy va korporativ ma'lumotlarning o'g'irlanishiga, buzilishiga yoki yo'q bo'lishiga olib kelmoqda. Xususan, so'nggi yillarda davlat muassasalari, moliyaviy tashkilotlar, sog'liqni saqlash tizimi va ta'lim sohalarida yuz bergan kiberhujumlar millionlab foydalanuvchilarning ma'lumotlarini xavf ostiga qo'ymoqda. Bu esa zamonaviy jamiyat oldida kiberxavfsizlikni ta'minlash masalasini ustuvor yo'nalishlardan biriga aylantirmoqda.

Kiberxavfsizlik — bu axborotni ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish yoki oshkor etilishdan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisidir.[2] Bu soha nafaqat dasturiy ta'minot va texnik vositalarni o'z ichiga oladi, balki foydalanuvchilarning xatti-harakati, tashkilotlarning siyosati va milliy xavfsizlik darajasidagi choralarni ham qamrab oladi. Kiberhujumlar o'z tabiatiga ko'ra turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, DDoS (Distributed Denial of Service) hujumlari orqali ma'lum bir veb-resurs yoki tarmoq xizmatining ish faoliyatiga xalaqit beriladi; phishing orqali foydalanuvchilarning login-parollari va boshqa shaxsiy ma'lumotlari firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritiladi; ransomware dasturlari yordamida qurilma yoki tizimdagi ma'lumotlar shifrlanib, ularni qayta tiklash evaziga pul talab qilinadi; zero-day hujumlar esa hali aniqlanmagan yoki yamoqlanmagan zaifliklardan foydalanadi.[3]

Yuqoridagi kabi keng tarqalgan va xavfli kiberhujum turlari tahlil qilinadi. Har bir hujum turining texnik jihatlari, aniqlash usullari va ularni oldini olishga qaratilgan profilaktik choralar oʻrganiladi. Ayniqsa, zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlarida sun'iy intellekt, mashinali oʻrganish (machine learning), avtomatlashtirilgan tahlil vositalari va real vaqtda kuzatuv tizimlarining roli yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan samarali himoya strategiyalari, ISO/IEC 27001 kabi standartlar va xavfsizlik protokollari haqida ham ma'lumot beriladi.

Mahalliy adabiyotlarda ham kiberxavfsizlikning umumiy tushunchalari, axborotni himoyalash vositalari, tarmoq xavfsizligi va dasturiy vositalar haqida dolzarb ma'lumotlar mavjud. Biroq, kiberhujum turlarining chuqur tahlili va real vaqt rejimidagi aniqlash texnologiyalariga oid tadqiqotlar cheklangan. Shu sababli, ushbu ilmiy ishda xalqaro va mahalliy adabiyotlar qiyosiy tahlil qilinib, mavjud boʻshliqlarni toʻldirishga harakat qilinadi.

Kiberxujum — bu kompyuter tarmoqlari, dasturlar yoki axborot tizimlariga nisbatan ruxsatsiz kirish, ma'lumotlarni oʻgʻirlash, oʻzgartirish yoki yoʻq qilish maqsadida amalga oshiriladigan raqamli tajovuzdir. Bu hodisa axborot xavfsizligiga tahdid soluvchi eng keng tarqalgan jinoyat shakllaridan biridir.[4]

Ilmiy jihatdan olganda, kiberxujumlar axborot tizimining yaxlitligi (integriteti), maxfiyligi (konfidentsialligi) va mavjudligi (dostupnosti)ga zarar yetkazadi. Ular kompyuter tarmoqlarining himoyasidagi zaifliklardan (zaif parollar, yangilanmagan dasturlar, himoyasiz tarmoqlar) foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Kiberxujumlarning asosiy maqsadi foydalanuvchining yoki tashkilotning axborot resurslariga noqonuniy kirish, moliyaviy zarar

yetkazish, yoki axborot muhitini manipulyatsiya qilishdir. Bunday hujumlar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy xavfsizlikka ham tahdid soladi. Hozirgi dunyoda kiberjinoyatlar moliyaviy, siyosiy, iqtisodiy va axloqiy zarar keltiruvchi global muammoga aylanib bormoqda. Shu bois, ularning turlari, usullari va oldini olish choralarini chuqur oʻrganish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.[5]

Kiberxujumlarning kuchayishi global raqamli iqtisodiyotning asosiy muammosiga aylangan. Shuning uchun zamonaviy kiberxavfsizlik siyosati foydalanuvchilarning raqamli madaniyatini oshirish, himoya texnologiyalarini joriy etish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Kiberxujumlar zamonaviy jamiyatning eng jiddiy raqamli tahdidlaridan biridir. Ularning turlari tobora murakkablashib bormoqda va bu axborot xavfsizligi sohasida doimiy ehtiyotkorlikni talab etadi.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash texnik, tashkiliy va insoniy omillarni birgalikda boshqarishni talab etadi. Har bir foydalanuvchi oʻz ma'lumotlari uchun javobgarlikni his qilishi, tashkilotlar esa axborot himoyasini ustuvor yoʻnalish sifatida koʻrishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, raqamli xavflarning oldini olish uchun kompleks yondashuv – texnologik himoya vositalari, inson omilini inobatga oluvchi strategiyalar va xalqaro xavfsizlik standartlariga asoslangan yondashuv zarur. Mazkur maqolada taqdim etilgan tavsiyalar amaliyotda qoʻllanilsa, kiberxavfsizlik darajasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Hayotning aksariyat sohalarida murakkab va oʻzaro bogʻlangan kompyuter tizimlarida tobora ortib borayotgan bogʻliqlik kiberhujumlarga qarshi zaiflikning asosiy omilidir, chunki deyarli barcha kompyuter tizimlarida tajovuzkorlar tomonidan ishlatilishi mumkin boʻlgan xatolar mavjud. Toʻliq xavfsiz tizimni

yaratish imkonsiz yoki amaliy bo'lmasa-da, tizimga hujum qilishni qiyinlashtiradigan ko'plab mudofaa mexanizmlari mavjud bo'lib, axborot xavfsizligini bugungi dunyoda tez o'sib borayotgan muhim sohaga aylantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasi 2022–2025 yillar uchun". – Toshkent, 2022.

2. Халимова Н. "Kiberxavfsizlik masalalari va ularning dolzarbligi." – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti jurnali, 2022.

3. Rajabov Sh. "Kiberhujum turlarini aniqlash va ularga qarshi samarali strategiyalar" "Экономика и социум" №6(133)-2 2025

**Foydalanilgan internet manbalar:**

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kiberhujum

5. https://kun.uz/78649948

# O'ZBEK JAMIYATIDA MAHALLA INSTITUTINING SHAKLLANISHI VA IJTIMOIY BOSHQARUVDAGI O'RNI

***O'rmonjonova Dilnozaxon Muhammadjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** ushbu ilmiy maqolada O'zbek jamiyatida mahalla institutining shakllanishi va ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni kompleks tahlil qilinadi. Maqolada mahallaning tarixiy evolyutsiyasi, huquqiy asoslari, zamonaviy sharoitdagi funksiyalari va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi roli ilmiy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlar, sotsiologik so'rov va ekspert baholari asosida mahallaning ijtimoiy boshqaruvdagi samaradorligi, shuningdek, uning raqamlashtirish sharoitidagi yangi vazifalari tahli qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mahalla instituti nafaqat an'anaviy, balki zamonaviy jamiyatda ham o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, uning rivojlanish tendensiyalari O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Maqolada mahalla institutini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalla, institut, boshqaruv, jamiyat, fuqarolik, raqamlashtirish, tizim, taraqqiyot.

**Аннотация:** в данной научной статье комплексно анализируется формирование института махалли в узбекском обществе и его роль в социальном управлении. В статье научно исследуются историческая эволюция махалли, её правовые основы, функции в современных условиях и роль в формировании гражданского общества. В ходе исследования на основе нормативно-правовых документов, социологических опросов и экспертных оценок

проанализирована эффективность махалли в социальном управлении, а также её новые задачи в условиях цифровизации. Результаты показывают, что институт махалли имеет уникальное значение не только в традиционном, но и в современном обществе, а тенденции его развития тесно связаны с социально-политическим прогрессом Узбекистана. В статье также представлены научно обоснованные рекомендации по совершенствованию института махалли.

**Ключевые слова:** махалля, институт, управление, общество, гражданственность, цифровизация, система, развитие.

**Abstract:** This scientific article provides a comprehensive analysis of the formation of the mahalla institute in Uzbek society and its role in social governance. The article scientifically examines the historical evolution of the mahalla, its legal foundations, functions in modern conditions, and its role in the formation of civil society. During the research, based on regulatory legal documents, sociological surveys, and expert evaluations, the effectiveness of the mahalla in social governance, as well as its new tasks in the context of digitalization, were analyzed. The results show that the mahalla institute holds unique significance not only in traditional but also in modern society, and its development trends are closely linked to the socio-political progress of Uzbekistan. The article also presents scientifically grounded recommendations for improving the mahalla institute.

**Keywords:** mahalla, institute, governance, society, citizenship, digitalization, system, development.

## KIRISH

O‘zbek jamiyatida mahalla institutining shakllanishi va ijtimoiy boshqaruvdagi o‘rni tarixiy jihatdan chuqur ildizlarga ega bo‘lib, u

O'zbekistonning milliy-ma'naviy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Mahalla nafaqat qadimiy an'ana va urf-odatlarni saqlab qolish, balki fuqarolik jamiyatini shakllantirish, mahalliy o'z-o'zini boshqarish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli bilan zamonaviy davrda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1].

Zamonaviy O'zbekiston sharoitida mahallaning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati yanada kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Mahalla institutini rivojlantirish va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 2-iyuldagi PQ-5163-sonli qaroni [2] ushbu yo'nalishdagi siyosatning muhim bosqichidir. Mazkur qarorda mahallaning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati alohida ta'kidlangan bo'lib, uning ijtimoiy boshqaruvdagi funksiyalarini kengaytirish belgilangan.

Shuningdek, "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni [3] mahallaning huquqiy maqomini anqlab beradi. Qonunga ko'ra, mahalla fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishning asosiy shakli bo'lib, u mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish, fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularning turmush sharoitini yaxshilash vazifasini bajaradi.

Ilmiy adabiyotlarda mahalla institutining o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Xususan, O'zbekistonlik olimlardan A. Hasanovning "O'zbekiston jamiyatida mahallaning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati" [4] asarida mahallaning tarixiy evolyutsiyasi va zamonaviy shakllari tahli qilingan. Shuningdek, M. Mahmudovning "Mahalla boshqaruvi: an'ana va zamonaviylik" [5] nomli tadqiqotida mahallaning ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni va uning rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan.

Biroq, zamonaviy sharoitda mahalla institutining ijtimoiy boshqaruvdagi samaradorligini oshirish, uning huquqiy va ma'muriy mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek raqamlashtirish sharoitida mahallaning yangi vazifalari dolzarb muammo sifatida qolmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbek jamiyatida mahalla institutining shakllanish tarixini o'rganish, uning ijtimoiy boshqaruvdagi o'rnini aniqlash va zamonaviy sharoitda uni rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mahalla institutining O'zbek jamiyatida shakllanishi va ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni masalasi so'nggi yillarda sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik va ijtimoiy falsafa sohalarida keng o'rganilayotgan dolzarb mavzulardan biridir. O'zbekistonlik olimlar tomonidan ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar mahallaning nafaqat an'anaviy, balki zamonaviy jamiyatdagi o'ziga xos o'rni va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan.

Akademik T.S. Sattorovning "O'zbekiston jamiyatida mahalla institutining evolyutsiyasi" nomli fundamental asarida mahallaning qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan tarixiy rivojlanish bosqichlari chuqur yoritilgan. Muallif mahallaning ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni o'zgarishlarini tizimli tahlii qilgan bo'lib, uning zamonaviy shakllanishida an'ana va innovatsiyaning uyg'unlashuvini alohida ta'kidlaydi [4].

Professor M.X. Xolmuhamedovning "Mahalla va fuqarolik jamiyati" nomli monografiyasida mahalla institutining fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi roli va ahamiyati ilmiy asosda o'rganilgan. Muallif mahallani fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organi sifatida uning huquqiy maqomi va ijtimoiy funktsiyalarini kompleks tahlil qilgan [5].

I.S. Islomovning “Mahalla boshqaruvi: nazariya va amaliyot” nomli tadqiqotida mahallaning ijtimoiy boshqaruvdagi samaradorligini oshirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari yoritilgan. Muallif mahalla institutining raqamlashtirish sharoitida yangi vazifalari va funktsiyalarini aniqlashga alohida e’tibor qaratadi [6].

O‘zbekistonlik yosh olimlardan Z.T. To‘rayevaning “Zamonaviy O‘zbekistonda mahallaning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati” nomli dissertatsion tadqiqotida mahallaning siyosiy jarayonlardagi o‘rni va ahamiyati empirik materiallar asosida o‘rganilgan. Muallif mahallaning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlagan holda uning zamonaviy jamiyatdagi o‘rnini takomillashtirish yo‘nalishlarini taklif qilgan [7].

Ushbu tadqiqotimizda quyidagi ilmiy metodlardan foydalandik:

Tarixiy-tizimli tahlil - Mahalla institutining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlarini, uning ijtimoiy boshqaruvdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganishda qo‘llanildi.

Huquqiy-normativ tahlil - Mahallaning huquqiy maqomi, vakolatlari va funktsiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganishda qo‘llanildi.

Sotsiologik so‘rov - Toshkent, Samarqand va Farg‘ona shaharlaridagi 20 ta mahallada 350 nafar aholi o‘rtasida mahallaning ijtimoiy boshqaruvdagi samaradorligi, uning funktsiyalari va muammolarini o‘rganish uchun anketalar o‘tkazildi.

Ekspert intervyusi - Mahalla boshqaruv organlari rahbarlari, mahalla faollari va olimlardan iborat 25 nafar ekspert bilan chuqurlashtirilgan intervyular o‘tkazildi.

Qiyosiy tahlil - O‘zbekiston mahalla institutining mamlakatimizdagi va xorijiy davlatlarning mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining tajribalari bilan solishtirma tahlili olib borildi.

Statistik tahlii - Mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, aholining turmush darajasi va ijtimoiy muammolarini o'rganishda qo'llanildi.

Struktural-funksional tahlii - Mahalla institutining ijtimoiy tizimdagi o'rni, uning tarkibiy qismlari va funktsiyalarini o'rganishda qo'llanildi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodlari asosida shuni aytish mumkinki, mahalla institutining O'zbek jamiyatida shakllanishi va ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni mavzusi nafaqat tarixiy, balki huquqiy, sotsiologik va siyosiy jihatlarni o'z ichiga olgan kompleks tadqiqotni talab qiladi. Bu esa mahallaning zamonaviy jamiyatdagi o'ziga xos o'rni va ahamiyatini aniglash, uning rivojlanish tendensiyalarini prognozlash va samaradorligini oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot davomida O'zbek jamiyatida mahalla institutining shakllanishi va ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni masalasini o'rganish maqsadida olib borilgan sotsiologik so'rov, ekspert intervyulari va statistik tahlillar asosida quyidagi natijalarga erishildi:

Tadqiqotning asosiy qismi sifatida olib borilgan sotsiologik so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, mahalla institutining zamonaviy O'zbek jamiyatidagi o'rni va ahamiyati tobora orthb bormoqda. Toshkent, Samarqand va Farg'ona shaharlaridagi 20 ta mahallada 350 nafar aholi o'trasida olib borilgan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 78% mahallani "o'z uyi" deb hisoblaydi, 85% esa mahalla boshqaruv organlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Ekspert intervyulari davomida mahalla boshqaruv organlari rahbarlari, mahalla faollari va olimlardan iborat 25 nafar ekspert bilan

olib borilgan suhbatlar natijasida mahalla institutining ijtimoiy boshqaruvdagi samaradorligini belgilovchi asosiy omillar aniqlandi. Ekspertlarning 92% mahallaning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi oʻrni va ahamiyatini alohida ta'kidladi.

**1-jadval. Mahalla institutining ijtimoiy boshqaruvdagi samaradorlik koʻrsatkichlari (2020-2024 yillar).**

| № | Koʻrsatkichlar | 2020-yil | 2022-yil | 2024-yil | Oʻzgarish (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Aholining mahalla faoliyatiga ishtirok darajasi | 45% | 63% | 78% | +33% |
| 2 | Mahalla boshqaruv organlarining qarorlarini bajarish darajasi | 52% | 71% | 84% | +32% |
| 3 | Mahalla dasturlari va loyihalarining moliyaviy oʻz-oʻzini ta'minlash darajasi | 28% | 45% | 67% | +39% |
| 4 | Yoshlarning mahalla faoliyatida ishtirok darajasi | 35% | 58% | 76% | +41% |
| 5 | Mahalla ijtimoiy-xizmat koʻrsatish tizimining qamrov darajasi | 61% | 74% | 89% | +28% |
| 6 | Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi | 23% | 47% | 68% | +45% |
| 7 | Mahalla qarorlarining shaffoflik darajasi | 48% | 65% | 82% | +34% |

**2-jadval. Mahalla institutining funksional samaradorligi bo'yicha ekspert baholari.**

| № | Funksional yo'nalish | Samaradorlik darajasi (5 ballik tizim) | Asosiy muammolar |
|---|---|---|---|
| **1** | Ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash | 4.2 | Moliyaviy resurslarning cheklanganligi |
| **2** | Huquqiy masalalarda yordam ko'rsatish | 3.8 | Mutaxassislarning yetishmasligi |
| **3** | Madaniy-ma'rifiy faoliyat | 4.5 | Yoshlar ishtirokining pastligi |
| **4** | Iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash | 3.6 | Loyihalarni moliyalashtirish muammolari |
| **5** | Ekologik va atrof-muhit masalalari | 4.0 | Texnik vositalarning yetishmasligi |
| **6** | Oila va bolalar siyosati | 4.3 | Profilaktika ishlarining zaifligi |
| **7** | Mahalla xavfsizligi | 4.7 | Hamkorlik tizimining noaniqligi |

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalla institutining O'zbek jamiyatida shakllanishi va ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni nafaqat an'anaviy, balki zamonaviy jihatlarni o'z ichiga olgan kompleks hodisadir. Xususan, so'nggi yillarda mahallalarning raqamlashtirilishi, ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanishi sezilarli o'sish kayd etilmoqda. Bu esa mahalla institutining ijtimoiy boshqaruvdagi samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Muhokama qilish joizki, mahalla institutining zamonaviy sharoitda samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillarni inobatga olish zarur:

Huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish - Mahallaning vakolatlari va mas'uliyatlarini aniq belgilash;

Moliyaviy mustaqillikni oshirish - Mahallalarning o'z budjetlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirish;

Raqamlashtirishni jadalashtirish - Mahalla boshqaruvining barcha darajalarida zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish;

Kadrlar tayyorlash - Mahalla boshqaruvi sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yaratish.

Tadqiqot jarayonida quyidagi muammolar aniqlandi:

Mahalla boshqaruv organlarining moliyaviy resurslari cheklanganligi;

Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining hali ham pastligi;

Yoshlarning mahalla faoliyatida faol ishtirok etish darajasini oshirish zarurati;

Mahalla qarorlarining ijrosini monitoring qilish tizimining etarli darajada rivojlanmaganligi'

Mahalla institutining O'zbek jamiyatida shakllanishi va ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni tarixiy jihatdan chuqur ildizlarga ega bo'lib, uni zamonaviy sharoitda rivojlantirish va takomillashtirish O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Ushbu ilmiy tadqiqot natijasida O'zbek jamiyatida mahalla institutining shakllanishi va ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni masalasi kompleks o'rganildi hamda quyidagi asosiy xulosalarga to'xtaldikd:

O'zbek jamiyatida mahalla institutining shakllanishi qadimgi davrlardan boshlanib, u tarixiy bosqichlar davomida an'anaviy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy shakllarga moslashgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalla nafaqat ijtimoiy boshqaruvning an'anaviy instituti, balki zamonaviy fuqarolik jamiyatining asosiy tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritadi. Mahallaning huquqiy maqomi va funktsiyalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun hamda Prezident qarorlari bilan mustahkamlangan bo'lib, uning ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni davlat siyosatida alohida ahamiyatga ega.

Mahalla instituti ijtimoiy boshqaruvning ko'p qirrali vositasi bo'lib, u ijtimoiy himoya, huquqiy masalalarda yordam, madaniy-ma'rifiy faoliyat, iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, ekologik va atrof-muhit masalalari, oila va bolalar siyosati, mahalla xavfsizligi kabi sohalarda kompleks funktsiyalarni amalga oshiradi. Tadqiqot davomida olib borilgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra, aholining 78% mahallani "o'z uyi" deb hisoblaydi, 85% esa mahalla boshqaruv organlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi mahalla institutiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. 2020-2024 yillar davomida mahallalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi 45% ga o'sgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich hali ham etarli emas. Raqamlashtirish jarayoni mahallaning ijtimoiy boshqaruvdagi samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va aholining ishtirokini kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarning mahalla faoliyatida ishtirok etish darajasi 2020-2024 yillar davomida 41% ga

o'sgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkichni yanada oshirish zarur. Yoshlarning mahalla boshqaruvida faol ishtiroki nafaqat mahallaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki yoshlarning o'zini jamiyat a'zosi sifatida his qilishiga, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotiga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy – metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, mahalla institutining huquqiy va institutsional mustahkamlanishi - mahallaning vakolatlari va mas'uliyatlarini aniq belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, shuningdek mahallalarning o'z budjetlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Mahalla boshqaruv organlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish ularning ijtimoiy boshqaruvdagi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchidan, mahalla boshqaruvining raqamlashtirilishi va zamonaviy axborot tizimlarining joriy etilishi - barcha mahallalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, elektron hukumat xizmatlarini kengaytirish va mahalla aholisining raqamli savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha kompleks dastur ishlab chiqish lozim. Bu esa mahalla boshqaruvining shaffofligini oshiradi va aholining qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirokini kengaytiradi.

Uchinchidan, mahalla kadrlarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish va yoshlarning ishtirokini faollashtirish - mahalla boshqaruvi sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yaratish, mavjud kadrlar malakasini oshirish va yoshlarning mahalla faoliyatida faol ishtirokini ta'minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. Yoshlar bilan ishlashning innovatsion shakllarini joriy etish orqali ularning mahalla hayotidagi faolligini oshirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi “Mahalla institutini rivojlantirish va fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlarini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5163-sonli qarori.

2. “Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 02.09.1999-yildagi 802-I-son

3. Hasanov A. O‘zbekiston jamiyatida mahallaning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati. - T.: Fan, 2018. - 256 b.

4. Mahmudov M. Mahalla boshqaruvi: an’ana va zamonaviylik. - T.: O‘zbekiston, 2020. - 184 b.

5. Sattorov T.S. O‘zbekiston jamiyatida mahalla institutining evolyutsiyasi. - T.: Fan, 2019. - 320 b.

6. Xolmuhamedov M.X. Mahalla va fuqarolik jamiyati. - T.: O‘zbekiston, 2020. - 275 b.

7. Islomov I.S. Mahalla boshqaruvi: nazariya va amaliyot. - T.: Iqtisod-moliya, 2021. - 188 b.

8. To‘rayeva Z.T. Zamonaviy O‘zbekistonda mahallaning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati. - T.: Akademnashr, 2022. - 152 b.

# THE ROLE OF INTERACTIVE ACTIVITIES IN ENHANCING VOCABULARY RETENTION AMONG EFL LEARNERS

***Yoqubjonova Gulyora Nodirjon qizi***
Fergana State University, 4th-year student
+998901602322
gulyorayoqubjonova28@gmail.com

**Annotation:** This paper investigates the role of interactive activities in improving vocabulary retention among learners of English as a Foreign Language (EFL). Recognizing vocabulary as a cornerstone of communicative competence, the study combines theoretical and empirical insights to evaluate how interactive, learner-centered techniques influence long-term word retention. Drawing on constructivist and communicative language teaching (CLT) the study analyzes classroom-based evidence demonstrating that interactive tasks—such as role-plays, games, and group discussions—facilitate deeper cognitive engagement and contextualized learning. Findings reveal that interactive activities not only promote better memory retention through repetition and meaningful use but also foster motivation, collaboration, and autonomy in language learners. The paper concludes that integrating interactive strategies into vocabulary pedagogy is essential for sustainable language acquisition and communicative proficiency.

**Keywords:** *Interactive learning; vocabulary retention; EFL learners; communicative language teaching; constructivist pedagogy; task-based learning; learner engagement*

**Introduction:** Vocabulary knowledge plays a pivotal role in second language acquisition, forming the foundation upon which communicative

competence is built. Without a sufficient lexical repertoire, learners struggle to comprehend texts, express ideas, or engage in meaningful interaction. Despite this, traditional methods of vocabulary instruction—such as rote memorization, translation, and list-based exercises—often fail to produce durable learning outcomes. In response, modern pedagogy has shifted toward interactive and communicative approaches that emphasize learner participation and contextual use.

The Communicative Language Teaching (CLT) framework encourages authentic interaction, collaboration, and task-based engagement, suggesting that language is best learned through use rather than passive reception. Within this context, interactive activities—such as role-playing, storytelling, debates, simulations, and vocabulary games—enable learners to use new words in context, promoting both semantic depth and memory retention. Cognitive theories, including Depth of Processing and Dual Coding Theory, further support this by arguing that active manipulation of language items in varied contexts strengthens both neural and associative memory traces.

The growing importance of interactive pedagogy in EFL classrooms raises several questions: *To what extent do interactive activities enhance vocabulary retention? What mechanisms contribute to improved learning outcomes? How can teachers effectively integrate these strategies into their practice?* This study addresses these questions by examining how interactivity influences retention, motivation, and engagement, proposing pedagogical recommendations grounded in empirical and theoretical research.

**Methods:** This study employed a mixed-method approach, combining quantitative and qualitative data to explore the effects of interactive activities on vocabulary retention. The quantitative phase

involved pre- and post-tests measuring vocabulary recall, while the qualitative phase analyzed learner reflections and teacher observations regarding motivation and engagement.

The participants were 60 intermediate EFL learners aged 18–22 enrolled in an English language institute. They were divided into two groups: an experimental group (n = 30) that engaged in interactive vocabulary activities and a control group (n = 30) that received traditional instruction through lists, definitions, and translation. Over six weeks, both groups were taught the same 120 target vocabulary items drawn from an academic English word list. The control group followed a teacher-centered approach emphasizing memorization, repetition, and direct explanation. The experimental group engaged in interactive activities such as:

- Role-plays and dialogues incorporating target vocabulary;
- Collaborative word games (e.g., word bingo, taboo, and matching tasks);
- Story-building exercises requiring learners to co-construct short narratives;
- Peer teaching sessions, where students explained words to classmates.

Pre-tests were administered at the start of the program to ensure comparable baseline knowledge. Post-tests were conducted one week and one month after instruction to measure immediate and delayed retention.

Quantitative data were analyzed using descriptive and inferential statistics (mean score comparison, paired-sample t-tests). Qualitative data from learner journals and teacher notes were analyzed thematically to identify patterns of engagement, motivation, and perceived

effectiveness. Triangulation ensured reliability by cross-referencing numerical results with qualitative feedback.

**Results:** The experimental group demonstrated significantly higher vocabulary retention compared to the control group. Immediately after instruction, the experimental group's mean post-test score (M = 84%) exceeded that of the control group (M = 71%). One month later, delayed post-tests showed sustained retention, with the experimental group maintaining 78% of learned vocabulary, while the control group retained only 62%. The difference was statistically significant ($p < .05$).

Learner reflections revealed increased motivation and confidence among participants in the experimental group. Students reported that interactive tasks helped them "remember words better" and "feel more involved in learning." Teachers observed higher participation rates, spontaneous use of new vocabulary, and a more positive classroom atmosphere. The following themes emerged:

1. **Contextualization and Meaningful Use:** Learners found it easier to recall vocabulary when it was embedded in stories or communicative tasks.
2. **Collaborative Learning:** Peer interaction encouraged negotiation of meaning, leading to deeper lexical understanding.
3. **Emotional Engagement:** Fun and competition in games enhanced attention and reduced anxiety.
4. **Autonomy and Reflection:** Students took greater responsibility for learning and revisiting vocabulary outside class.

**Discussion:** The results support the hypothesis that interactive activities significantly enhance vocabulary retention among EFL learners. The findings align with constructivist principles, which view knowledge as constructed through social interaction and active

engagement. Learners exposed to interactive techniques demonstrated both short-term and long-term retention benefits, highlighting the importance of depth of processing and repeated contextual exposure. Interactive activities facilitate semantic elaboration, allowing learners to integrate new words into their existing mental lexicon. When vocabulary is used in authentic communicative situations—rather than isolated lists—learners form richer associative links that strengthen memory consolidation. Moreover, the emotional and social dimensions of interactive tasks increase motivation and attentional focus, both of which are crucial for long-term retention.

Pedagogically, these findings affirm that interactive methods not only improve lexical acquisition but also foster 21st-century learning skills such as collaboration, creativity, and critical thinking. Teachers play a vital role in designing balanced activities that combine enjoyment with cognitive rigor. For example, task-based language teaching (TBLT) can integrate vocabulary goals into problem-solving or information-gap activities, encouraging learners to apply words meaningfully.

Furthermore, technology can enhance interactivity—through platforms such as Kahoot, Quizlet Live, and Padlet—offering multimodal input and immediate feedback. However, interactive learning requires careful scaffolding: if poorly structured, activities risk becoming superficial or distracting. Therefore, teachers must ensure that tasks maintain clear linguistic objectives, opportunities for recycling, and reflective follow-up discussion.

**Conclusion:** This study concludes that interactive activities play a crucial role in promoting vocabulary retention among EFL learners. By transforming passive vocabulary learning into active, social, and meaningful practice, interactive pedagogy fosters deeper understanding,

long-term memory, and greater learner engagement. The findings underscore the pedagogical shift from teacher-centered to learner-centered instruction, emphasizing interaction, collaboration, and communicative competence as central goals of language education.

Future research should explore the impact of digital interactivity, gamified learning environments, and learner personality factors on vocabulary retention. Ultimately, language teachers are encouraged to integrate interactive techniques as core elements of vocabulary instruction, recognizing that learning words is not merely a process of memorization—but a dynamic act of communication and meaning-making.

**References:**

1. Craik, F. I. M., & Lockhart, R. S. (1972). *Levels of Processing: A Framework for Memory Research. Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior,* 11(6), 671–684.

2. Hymes, D. (1972). *On Communicative Competence*. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin.

3. Krashen, S. D. (1985). *The Input Hypothesis: Issues and Implications*. London: Longman.

4. Paivio, A. (1990). *Mental Representations: A Dual Coding Approach*. Oxford: Oxford University Press.

5. Reinhardt, J., & Zander, V. (2020). *Digital Games and Language Learning: Theory, Development, and Implementation*. London: Bloomsbury Academic.

6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Cambridge, MA: Harvard University Press.

## CHET DAVLATLARIDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSION TA'LIM MUHITI TAHLILI

***Sultonboyeva Baxriniso Ilhomjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
**Tel:** +998336131378

Annotatsiya: Chet davlatlardagi maktabgacha ta'lim tizimida integratsion ta'lim muhitining o'ziga xos xususiyatlari, uning shakllanish omillari hamda qo'llanilayotgan pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Integratsion ta'limning mazmuni, bolalarning ijtimoiylashuvi va rivojlanishidagi ahamiyati xorijiy tajribalar misolida yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim muassasalarida yaratilayotgan inklyuziv va integratsion ta'lim muhiti, zamonaviy metodlar va dasturlar o'rganilib, ularni O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация: В статье проанализированы особенности интеграционной образовательной среды в системе дошкольного образования зарубежных стран, факторы её формирования, а также применяемые педагогические подходы. Раскрыто содержание интеграционного обучения, его значение в социализации и развитии детей на примере зарубежного опыта. Кроме того, изучены создаваемые в дошкольных учреждениях развитых стран инклюзивные и интеграционные образовательные среды,

современные методы и программы, а также показаны возможности их применения в системе образования Узбекистана.

Annotation: The article analyzes the characteristics of the integrative educational environment in the preschool education systems of foreign countries, the factors influencing its formation, and the pedagogical approaches applied. The content of integrative education and its importance in children's socialization and development are revealed through examples of international experience. Furthermore, inclusive and integrative learning environments created in preschool institutions of developed countries, along with modern methods and programs, are studied, highlighting the possibilities of their application within Uzbekistan's educational system.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, chet davlatlar tajribasi, integratsion ta'lim muhiti, inklyuziv ta'lim, pedagogik yondashuv, ta'lim tizimi, xorijiy tajriba, integratsiya, bolalar rivojlanishi.

Ключевые слова: дошкольное образование, опыт зарубежных стран, интеграционная образовательная среда, инклюзивное обучение, педагогический подход, система образования, иностранный опыт, интеграция, развитие детей.

Keywords: preschool education, experience of foreign countries, integrative educational environment, inclusive education, pedagogical approach, educational system, foreign experience, integration, child development.

KIRISH.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish, uni xalqaro tajribalar asosida boyitish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim jarayonida integratsion ta'lim muhitini shakllantirish bolalarning har

tomonlama rivojlanishi, ularning ijtimoiylashuvi va kelajakdagi ta'lim bosqichlariga tayyorgarligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.Chet davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, integratsion ta'lim muhiti nafaqat bolalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi, balki ularning teng huquqli ta'lim olishini, o'zaro hamkorlik, bag'rikenglik va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini ham samarali tashkil etadi. Shu bois, xorijiy mamlakatlarda yaratilgan integratsion va inklyuziv ta'lim tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or jihatlarini milliy ta'lim tizimiga tadbiq etish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga yo'llagan murojaatida "Ilm va ta'limning qadriga yetib, davlatimizda ilm va ta'lim o'rganish bilan muhit yaratilsa,bobolarimizga munosib hayot va kelajakni qura olamiz"- deya ta'kidlaganlar. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, O'zbekistonning ertangi kuniga ishonchni mustahkamlash, ajdodlarga munosib bo'lish uchun islohatlarni ilmdan boshlash kerak.Chunki ilmsiz hech bir sohada natija bo'lmaydi.Keyingi uch yilda bu boradagi muammolarni samarali hal etish, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda qator farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi kompleks sa'y-harakatlar uchun puxta huquqiy zamin yaratildi. Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim ta'lim tizimining ilk bo'g'ini ya'ni asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sohaga juda katta e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda,ularning barchasi bugungi yosh avlodning va pedagog-tarbiyachilarning manfaatlari yo'lida xizmat qilishga , shuningdek maktabgacha ta'lim tizimining tubdan isloh etilishiga qaratilgan. Bu tizimda muammolar shu darajada ko'p ediki, bugungi kunga kelib bu

muammolar asta -sekin oʻz oʻrnini toʻldirmoqda. Bu sohada qator yangi qarorlar, farmoyishlar isloh etildi. Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida ham oʻzgarishlar ham juda koʻp. [Jumladan, "Ilk qadam" davlat oʻquv dasturi ning tasdiqlanishi , "Davlat talablari" "Maktabgacha ta'lim toʻgʻrisida"gi, "Ta'lim toʻgʻrisida"gi qarorlar maktabgacha ta'lim sohasining rivojlanishiga katta sababchi boʻlyapti desak, yanglishmaymiz. Bu qarorlar sohaning yetarli darajada oʻzgarishiga sabab boʻldi. "Ilk qadam" deya nomlangan bu dasturning asosiy tamoyili-ta'lim jarayoniga qoʻshilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlari".] [1] Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktabgacha yoshigacha boʻlgan bolalarni besh yoʻnalishda rivojlantirish kerakligini koʻrsatilgan. Bu besh yoʻnalishni rivojlantirib, toʻrtta kompotensiyaga ega boʻladi, ya'ni u 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi",- deydi Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin.

Yangi dasturda barcha narsaning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazida - bola va uning manfaatlari. Pedagog ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning oʻzi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi. Dastur asosida bilim olish jarayonini oʻyinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yoʻnalish kabi tushunchalar rivojlanadi, sogʻlom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda oʻzlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashadi.

"Ta'lim toʻgʻrisida" gi Qonunning 8-moddasi ham maktabgacha ta'lim sohaiga bagʻishlangani quvonarli holdir.

[Maktabgacha ta'lim muassasalarida yaxshi ish haqi toʻlanmasa, bu kasbga qiziqish boʻlmaydi, albatta. Shu kunga qadar qanchadan-qancha tajribali, yaxshi kadrlar past ish haqi sabab bu kasbni tark etgan. Shu bois joriy yildan boshlab Prezident pedagoglarning maoshini

oshirishga doir qarori chiqqan. Agrippina Shinning so'zlariga ko'ra, o'tgan davr mobaynida maktabgacha ta'lim tizimidagi tarbiyachilar va MTT xodimlarining ta'rif stavkasi biror marta oshirilmagan. 2018 yilning mart oyida Maktabgacha ta'lim vazirligi birinchi marta pedagoglarning bazaviy ta'rif stavkalarini 30 foizga oshirish taklifi bilan chiqdi. Shu yilning sentabridan oliy ma'lumotga ega pedagoglar uchun bazaviy ta'rif stavkalari yana 30 foizga oshiriladi. Hozirda maktabgacha ta'limni moddiy rag'batlantirish masalalari ko'rib chiqilmoqda. Masalan, eng yaxshi tarbiyachi, eng yaxshi mudira, eng yaxshi defektolog kabi tanlovlar g'oliblariga 5-15 minimal oklad shaklida rag'batlantirish rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari, 6 yoshli bolalarni ta'limga qamrab olish bo'yicha qaror loyihasi mavjud. MTV 6 yoshli bolalar bilan ishlovchi tarbiyachilarga o'qituvchi maqomini berish taklifi bilan chiqmoqda. Shunday ekan, tabiiyki, ayni damda Xalq ta'limi vazirligida tatbiq etilayotgan imtiyozlar kelgusida ularga ham tegishli bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, qo'shimcha xizmatlarga talabgor bo'lgan kishilar uchun to'lov asosidagi qo'simcha xizmatlar yo'lga qo'yiladi. Zero 414-sonli qarorda nafaqat davlat, balki byudjyetdan tashqari faoliyatni ham rivojlantirish kerakligi haqida so'z yuritiladi. Mablag'lar MTM hisobiga tushadi, bu ularning mustaqil faoliyati, ularning huquqi, pedagogik tarkib ularni nimaga sarflashni o'zi hal qiladi.] [2]

[Ta'lim tizimida ushbu maqsadlarga erishish, o'qitish jarayonida katta o'zgarishlar talab etiladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

-dasturlar mazmunini o'zgartirish;

- ta'limning yangi usullarini ishlab chiqish va tarqatish;

-o'quv qo'llanmalarini yaratish;

- zamonaviy jihozlar bilan jihozlash;

-o'qituvchilar va boshqa ta'lim xodimlarini tayyorlash;

- ta'lim muassasalarini boshqarishning yangi shakllarini joriy etish.

IN VA. Zagvyazinskiy ta'kidlaganidek, "ta'limning chinakam insonparvarlik missiyasini ro'yobga chiqarish, uning zamonaviy funksiyalarini bajarish va unga yetakchi xususiyat berish yo'lidagi birinchi, eng muhim qadam shundan iboratki, ta'lim siyosatini shakllantiruvchi, ta'lim innovatsiyalari tashabbuskori bo'lgan, standartlar, dasturlar va darsliklarni tuzuvchi, attestatsiyadan o'tkazuvchi, malakli kadrlar doim jahon bilan hamnafas bo'lmog'i lozim.Va bu yerda asosiy narsa bilimning o'zi emas, balki ma'lumotni bilimga aylantirish jarayoni, bu bilimlarni ma'noni shakllantirish orqali o'zlashtirish, boshqacha qilib aytganda, undan foydalanish va egallashni shakllanayotgan shaxsga, uning munosabatlar tizimiga olib keladigan narsadir. Ta'limning asosiy maqsadi va mahsuli shaxsni, uning qobiliyatlarini, ijtimoiy fazilatlarini, o'zligini rivojlantirish, shakllantirish ekanligiga e'tibor qaratish lozim.

IN VA. Zagvyazinskiy zamonaviy sharoitda ta'lim strategiyasini amalga oshirishning bir qancha muhim yo'nalishlarini belgilaydi: markazda ham, hududlarda ham e'lon qilingan va to'liq asoslantirilgan ijtimoiy strategiya va unga ko'p jihatdan to'g'ri kelmaydigan turli ta'lim siyosatini uyg'unlashtirish choralarini ko'rish;

-ta'lim amaliyoti insonparvarlik an'analarining katta ijobiy yukini o'z ichiga oladi, lekin zamonaviy axborot texnologiyalarining yangi vazifalari va imkoniyatlari nuqtai nazaridan jiddiy modernizatsiyaga muhtoj;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish jarayonida pedagogikaning hamkorlik imkoniyatlaridan, talabaga yo'naltirilgan yondashuvlar, daraja va ta'lim imkoniyatlaridan foydalangan holda ularning rivojlantiruvchi ta'sirini ta'minlash maqsadida ta'limning an'anaviy va yangi yondashuvlari, g'oyalari va usullarini integratsiyalash yo'llarini aniqlashtirish va amalga oshirish talab etiladi. tipologik farqlash, loyiha va ta'lim tadqiqot faoliyati, jamoaviy ijodiy faoliyat usullari va boshqa ishonchli isbotlangan yondashuvlar, ularni yangi axborot texnologiyalarining o'zlarining ulkan rivojlanish imkoniyatlari bilan birlashtirish (variantlarni qidirish va tanlash, kognitiv yo'nalishlarni mustaqil tanlash, mumkin bo'lgan oqibatlarni hisoblash qobiliyati), virtual makonda ishlash va hokazo);

O'zbekiston yaqin orada shu darajada rivojlanadiki, Yangi O'zbekiston degan nom jahon davlatlarining qatorida bemalol tura oladi. Yangi O'zbekiston yoshlari yetuk malakaviy kadr bo'lib yetishar ekanmiz, O'zbekistonning gullab yashnashiga o'z hissamizni qo'sha olamiz.Men o'zimga berilayotgan imkoniyatdan unumli foydalangan holda Yangi O'zbekistonda yangi innovatsiyalarni yaratib , jahon innovatsion g'oyalarini targ'ib etgan holda jahon mamlakatlarining ta'lim tizimi bilan tanishib, yangi texnologiya , yangi innovatsiyamni kashf etishga harakat qilaman. Shu jumladan, jahon hamjamiyatida maktabgacha ta'lim tizimini o'rganib chiqdim. Jahon miqyosida ta'lim tizimi qay darajada amalga oshiriladi?

[Rossiyadagi boshlang'ich maktab maktab ta'limining birinchi bosqichi bo'lib, u yerda bolalar keyingi ta'lim uchun fundamental bilimlarni oladilar. Hozirgi kunda maktabda an'anaviy ta'lim tizimiga, shuningdek, mahalliy olimlar L.S. tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalarga asoslangan uchta boshlang'ich ta'lim tizimi mavjud.

Vygotskiy, L.V. Zankov, D.B. Elkonin, V.V. Davydov. Barcha tizimlar talabalarning intellektual va axloqiy rivojlanishiga qaratilgan. Endi bolalar 6 yoshida maktabga borishlari mumkin. Ayni paytda bolalar maktabga qabul qilinayotganda ularning intellektual saviyasi tekshirilyapti.] [3]

[Germaniya – jahon ilm-fani va madaniyati o'choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlarni bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada e'tirof etilgan olmon ta'lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e'tibor beriladi. Ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so'nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o'z o'rniga ega bo'lish amri mahol. Darvoqe, olmonlarga xos temir intizom, birso'zlilik xislatlari ham aynan ta'lim dargohlarida shakllanadi.

Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog'chasi xayriya jamg'armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga korxona va tashkilotlar ham o'z bog'chasiga ega bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmagan bolalarda o'z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda bog'chalarning o'rni katta. Shu bois ham olmonlar bog'chalarni "tafakkur ustaxonasi" deb atashadi.

Bepul va majburiy talim Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab ta'lim tizimida ayrim

farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang'ich ta'lim 4 yil (birinchi sinfdan to'rtinchiga qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiy tartib-qoidalar amal qiladi. Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart qilib belgilangan.] [4]

[Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ta'lim tizimi biznikiga qaraganda ancha farq qiladi. Amerikada uzoq tug'ruq ta'tillari yo'q, shuning uchun chaqaloqlar bolalar bog'chalariga juda erta yuboriladi - ba'zan olti haftadan. Bundan tashqari, bolalar bog'chalari va bolalar bog'chalariga bo'linish yo'q. Besh yoshdan boshlab, bola majburiy ravishda maktabda (bolalar bog'chasida) maxsus guruhlarga borishi kerak.

AQShda siz har qanday ta'mga qarab kunlik parvarish qilishni tanlashingiz mumkin. Birinchidan, ular kattaligi jihatidan farq qiladi: kichik deb ataladigan oila, bolalar bog'chalari (ular atigi 5-6 bolaga ega bo'lishi mumkin) va an'anaviy katta bolalar bog'chalari mavjud, ularda bitta guruhda taxminan 25 kishi bor. Kichik bolalar bog'chalari hatto xususiy uyning hududida joylashgan bo'lishi mumkin. Ularning faoliyati majburiy litsenziyalanadi. Bunday bolalar bog'chalarining afzalliklari: bir nechta bolalar, bu ko'proq individual yondashuvni, oilaviy muhitni, nisbatan arzonlikni anglatadi, ularning aksariyati u yoki bu diasporaga mo'ljallangan (masalan, rus, xitoy yoki frantsuz bolalar bog'chalari mavjud). Kamchiliklari: qoida tariqasida, akademik dastur yirik bolalar bog'chalariga qaraganda kuchsizroq, bunga qo'shimcha ravishda, bolani siqib chiqarishi mumkin - u erda joy kam, bolalar oz, va har xil aloqa yo'q. Katta bog'lar maxsus mo'ljallangan binolarda joylashgan. Shunga ko'ra, ularning ichida bolalar juda ko'p. Qoida tariqasida, bunday bolalar bog'chalarida bolalar beshikdan olinadi - chaqaloq allaqachon olti

haftadan boshlab qoldirilishi mumkin. Ular kun bo'yi maxsus qutilarda uxlashadi. Pampers, chaqaloq formulasi, choyshablar va boshqa barcha narsalarni ota-onalar olib kelishlari kerak. Bolalarni qabul qilish uchun bunday erta yosh AQShda tug'ruq ta'tilining deyarli yo'qligi bilan izohlanadi. Siz uch yillik bolani parvarish qilish to'g'risida unutishingiz mumkin, bu postsovet mamlakatlarida hamma odatlangan. Shtatlarda siz tug'ilgandan keyin bir yarim oy ichida ishlashga borishingiz kerak va ko'pgina amerikalik onalar mehnat foydasini tanlashadi. Bundan tashqari, Amerika bolalar bog'chalarida bolalar odatda to'shakda uxlamaydilar, balki erga yotqizilgan maxsus to'shaklarda. Shu bilan birga, bolalar echinishmaydi - ular turli xil favqulodda vaziyatlarga tayyor bo'lishlari va tayyor bo'lishga vaqt sarflamasliklari kerak. Poyaklar faqat eng kichigi uchun beriladi. Biroq, kichik xususiy bolalar bog'chalarida barcha bolalarni to'shakka joylashtirish mumkin. Bundan tashqari, AQShda diniy jamoaga tegishli bolalar bog'chalari mashhurdir. Masalan, katolik cherkovlarida, Chabadda ibodatxonalarda bog'lar mavjud. Qoida tariqasida, ular odatdagidan ancha arzon. Ammo bolani u erga yuborish uchun ushbu diniy jamoaga a'zo bo'lish kerak. Bolani bolalar bog'chasiga yuborish yoki qilmaslik to'g'risida ota-onalar qaror qiladi, qonunchilik darajasida maxsus talablar yo'q.] [5]

[Finlyandiya Ta'lim va madaniyat vazirligi sayti ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatdagi ta'lim tizimi bir necha bo'g'indan iborat. Maktabgacha ta'lim pulli va uning narxi oilaning moddiy farovonligidan kelib chiqib belgilanadi. Undan keyin bir yillik majburiy maktabgacha tayyorlov bosqichi bo'lib, u bepul. Taqqoslash uchun, O'zbekistonda ham «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga muvofiq bir yillik majburiy maktabgacha tayyorlov ko'zda tutilgan. Finlyandiyada bolalar maktabga 7 yoshdan qabul qilinadi. Boshlang'ich ta'lim olti yil davom etadi. 7-sinfdan boshlab

bolalar o'rta ta'limning uch yil davom etadigan birinchi bosqichiga o'tadi. Boshlang'ich maktabda va o'rta ta'limning birinchi bosqichida barcha bir xil ta'lim olishi kerak: bolalarni, bizning ixtisoslashtirilgan maktablarimizdagi amaliyotdan farqli ravishda, qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab ajratish mumkin emas.[7]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 20 ga yaqin uchrashuvlar o'tkazilib, tajriba almashinuvi, O'zbekistonda eksperimental tarzda bolalar bog'chalarini ochish, birgalikda kadrlar tayyorlash va imly lalanishlar of kalyani o'rganib chiqish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.Safar doirasida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan Koreyaning qator maktabgacha ta'lim va boshqa turdagi muassasalariga tashriflar uyushtirildi va ularning faoliyati o'rganildi, Jumladan bog'chalarning o'ziga xos jihatlari qo'llanilayotgan ta'lim berish uslublari, moliyalashtirish va to'lov tizimlari, pedagogik xodimlarning malaka darajasi va xizmat sharoitlari, oziq-ovqat va moddiy-texnik ta'minot hamda sohalariga tegishli dasturlar va uslublar atroflicha o'rganildi.

Pedagoglar faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo'qligi, davlat bog'chalari pedagoglari ijtimoiy statusining yuqoriligi, bolalar o'zlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, Jumladan xonalarning hatto kichik detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o'yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o'zini tutish va shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini tarbiya qilish kabi alohida jihatlar Koreya maktabgacha ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

Kelishuvlar va Memorandum doirasida quyidagi sohalardagi hamkorlik

nazarda tutilgan: talabalar, ilmiy-pedagogik va boshqaruv mutaxassislari o‘rtasida tajriba almashinuvlari, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishga qaratilgan choralar, jumladan eng yangi dasturlar va uslublarni joriy qilish, hamkorlikda tadqiqotlar, konferensiyalar, ko‘rgazma va seminarlarni amalga oshirish, maktabgacha ta’lim mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha maxsus qo‘shma magistrlik va doktorlik dasturlarini tashkil etish, shuningdek O‘zbekistonda eksperimental ravishda Koreya tizimiga asoslangan eksperimental bog‘chalami tashkil etish kabi muhim vazifalar nazarda tutilgan.

Maktabgacha ta’lim vazirligi delegatsiyasining Koreya Respublikasiga tashrifi davomida bolalarning erta rivojlanishi va maktabgacha ta’lim tizimi sohasiga ixtisoslashgan nufuzli ilmiy-tadqiqot institutlari bilan uchrashuvlar ham o‘tkazildi. Jumladan, 2017 yilning 23 noyabr kuni Koreya bolalar parvarishi va va maktabgacha ta’lim masalalarini o‘rganish Instituti (KICCE) bilan Hadli kelishuv imzolandi. Kelishuv doirasida Maktabgacha ta’lim vazirligi va KICCE hamkorligida qo‘shma tadqiqotlar o‘tkaziladi, pedagogik kadrlarni tayyorlash orqali tajriba almashinuviga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi, seminarlar va konferensiyalar tashkil etiladi. Shu bilan bir qatorda hamkorlik asosida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyalarining ishlab chiqilishi,ta’lim dasturlari va standartlarining qayta ko‘rib chiqilishi, ta’lim statistikasini Joriy qilish nazarda tutilgan.Seul bolalami erta rivojlantirishga ko‘maklashish Instituti (Seoul Early Childhood Education Promotion Institute) bilan 2017 yilning 22 noyabr kuni o‘tkazilgan uchrashuv chog‘ida qo‘shma

tadqiqotlari o'tkazish, tajriba almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatini beruvchi hamkorlikdagi ilmiy-amaliy tadqiqot muassasalarini tashkil etish, o'quv- uslubiy materiallarni tayyorlash borasida kelgusida hamkorlik bitimlarini imzolash kelishib olindi.Yana bir samarali uchrashuv - Maktabgacha ta'lim vazirligining eng muhim salohiyatli hamkori - Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligining Maktabgacha ta'lim va bola parvarishi Departamentida bo'lib o'tdi.] [8]

Integratsion ta'lim muhiti – bu barcha bolalar, jumladan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularni birgalikda o'qitish va tarbiyalash tizimidir. Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim muassasalarida integratsion yondashuv bolalarning individual rivojlanishiga, ijtimoiylashuviga hamda jamiyatda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi.

Finlandiyada maktabgacha ta'limda integratsion dasturlar barcha bolalar uchun yagona ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan. Maxsus pedagoglar va psixologlar bolalar bilan birgalikda ishlaydi.

AQShda "Early Childhood Inclusion" dasturi asosida har bir bola qamrab olinadi, maxsus ehtiyojli bolalar uchun qo'shimcha resurslar taqdim etiladi.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar jamoaviy faoliyatga keng jalb qilinib, tenglik, hurmat va hamkorlik tamoyillari asosida integratsion muhit yaratiladi.

Germaniyada "Kindergarten" tizimida integratsion guruhlar faoliyati keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, logoped, defektolog va tarbiyachilar birgalikda ta'lim jarayonini olib boradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi izchil rivojlanmoqda. "Ilk qadam" davlat dasturi asosida integratsion

yondashuvni tatbiq etish, chet davlatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Xususan, maxsus ehtiyojli bolalarni oddiy guruhlarga qo'shish, ular uchun individual dasturlar ishlab chiqish va pedagoglarni tayyorlash jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.[9]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet davlatlardagi maktabgacha ta'lim tizimida integratsion ta'lim muhiti bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Finlandiya, AQSh, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, integratsion yondashuv nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar balki barcha tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuviga, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda ham maktabgacha ta'lim tizimida integratsion va inklyuziv yondashuvlarni rivojlantirish, xorijiy tajribalarni o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish, maxsus dasturlarni ishlab chiqish, hamkorlik muhitini shakllantirish va zamonaviy metodlardan foydalanish zarur.

Maqolada keltirilgan tahlillar shuni anglatadiki, integratsion ta'lim muhitini yaratish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning teng huquqli ta'lim olishini ta'minlash, ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatga moslashuvini yanada samarali tashkil etish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2022- yil nashr etigan.

2. "BOLALARNI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIGA QABUL QILISH BO'YICHA DAVLAT

XIZMATLARI KO'RSATISHNING MA'MURIY REGLAMENTINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA" 244-son 28.03.2018-yil.

3. Ta'lim islohoti mazmuni. Rossiyada ta'limni isloh qilish bosqichlari https://gigafox.ru/uz/ovulationmenstruation/reforma-obrazovaniya-soderzhanie-etapy-reformirovaniya-obrazovaniya-v/

4. Germaniya ta'lim tizimi va uning besh oltin qoidasi - abt.uz https://abt.uz/blog/germaniya-talim-tizimi-va-uning-besh-oltin-qoidasi

5. Amerikadagi bolalar bog'chalari qanday - ForumDaily https://www.forumdaily.com/uz/kak-ustroeny-detskie-sady-v-amerike/

6. «Finlyandiya tajribasi» O'zbekistonning ta'lim muammolarini hal qila oladimi? – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/08/finland-education/

7. Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimi https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/maktabgacha-va-boshlang-ich-ta-lim/rivojlangan-mamlakatlarda-maktabgacha-ta-lim-tizimi

8. Bahtiyarovna, Y. E. (2018). Some methodology for keenness of teachers of English.

9. Yagyaeva, E. B. (2018). SOME METHODOLOGY FOR KEENNESS OF TEACHERS OF ENGLISH. Вопросы науки и образования, (5), 64-66.

# METALL SIRT YAQINIDA TEBRANUVCHI MAGNIT MAYATNIKNING TORMOZLANISH HARAKATINI NAZARIY O'RGANISH

***Bo'ronov Musobek Orifovich***
O'zbekiston Milliy universiteti
Fizika fakulteti 2-kurs talabasi
**E-mail:** musobek658@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada metall sirt bilan o'zaro ta'sir qiluvchi magnit mayatnikning nochiziqli tebranish harakati nazariy jihatdan o'rganildi. Tizimda silindrsimon neodimiy magnit o'tkazuvchan metall plastinkaga yaqinlashganda, plastinkada hosil bo'ladigan induksion toklar magnit harakatiga qarshi yo'nalgan tormozlovchi kuchni keltirib chiqaradi va tebranishlarni tez so'ndirish mexanizmini tashkil etadi. Faradey va Bio–Savar qonunlari asosida elektr va magnit maydonlar, induksion toklar va ikkilamchi magnit maydonlar ifodalandi, shuningdek, magnitga ta'sir etuvchi bu tormozlovchi kuchning burchakka bog'liqligini aniqlovchi matematik model taklif etildi. Tahlil natijalariga ko'ra, mayatnikning harakati dastlab erkin tebranish bosqichida kechadi, keyinchalik induksion toklarning ta'siri ostida eksponensial tarzda tormozlanadi. Bu model elektromagnit tizimlarda energiya yo'qolish jarayonlarini tushunish va o'quv-tajriba jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy vosita sifatida muhim ekanligi ko'rsatildi.

**Kalit so'zlar:** magnit mayatnik, metall plastinka, induksion toklar, magnit tormozlanish, nochiziqli dinamika.

**Annotation:** This paper presents a theoretical study of the nonlinear oscillatory motion of a magnetic pendulum interacting with a conducting metallic plate. When the cylindrical neodymium magnet

approaches the conductor, induced currents are generated in the plate, producing a drag force that opposes the pendulum's motion and causes a rapid attenuation of oscillations. Based on Faraday's and Biot–Savart's laws, analytical expressions for the induced fields, currents and secondary magnetic field were derived, and a mathematical model describing the angular dependence of the braking force was developed. The analysis reveals two distinct motion regimes: an initial free oscillation phase followed by exponential decay driven by induced currents. The model offers valuable insight into energy dissipation mechanisms in electromagnetic systems and can serve as an instructive demonstration tool in physics education.

**Keywords:** magnetic pendulum, metallic plate, induced currents, magnetic braking, nonlinear dynamics.

**Аннотация:** В данной статье теоретически рассмотрена нелинейная динамика магнитного маятника, который взаимодействует с проводящей металлической пластиной. При сближении цилиндрического неодимового магнита с пластиной в ней возникают индуцированные токи, создающие тормозящую силу, обратную движению маятника, что приводит к быстрому затуханию колебаний. На основе законов Фарадея и Био–Савара получены выражения для электрического и магнитного полей, индуцированных токов и вторичного магнитного поля; далее предложена математическая модель зависимости тормозящей силы от углового положения маятника. Анализ показал, что движение маятника проходит две стадии: свободные колебания и последующее экспоненциальное торможение под влиянием индуцированных токов. Разработанный подход имеет практическую значимость для анализа потерь энергии в электромагнитных системах и может

служить учебным примером демонстрации нелинейных физических процессов.

**Ключевые слова:** магнитный маятник, металлическая пластина, индуцированные токи, магнитное торможение, нелинейная динамика.

**Kirish.** Magnitli tormozlash masalasi, albatta, e'tiborni tortgan va ko'plab ilmiy maqolalarda muhokama qilingan. Bu ishlar orasida magnitning magnit xususiyatiga ega bo'lmagan, o'tkazuvchan trubka ichida erkin tushishidagi magnitli tormozlash tajribalari, Tomson sakrashi hamda gomopolyor motorlari mavjud. Bunday tajribalar fizikadan dars mashg'ulotlari ko'rgazmalarida va ilmiy ochiq eshiklar kunida tez-tez namoyish etiladi. So'nggi yillarda bir nechta maqolalarda fizikani o'qitish va o'rganishda foydalaniladigan magnit mayatnik bilan bog'liq tajribalar tasvirlangan. Magnitli tormozlash kuchi mayatnik tebranishlarining so'nishiga yoki ularning xaotik harakatga o'tishiga olib keladi. Bir tajribada silindrsimon neodimiy magnitdan tashkil topgan magnitli mayatnik mis plastinka qarshisida muvozanat holatidan qo'yib yuborilgan. Magnit bu holatdan chiqarilgach mis plastinkaga qarab harakatlanadi, tebranishi tezda so'nadi va aynan plastinka oldida to'xtaydi. Ushbu maqolada biz magnit mayatnik dinamikasining sifatiy tahlilidan nariga o'tamiz. Mayatnik tebranish tekisligiga perpendikulyar holatda joylashtirilgan mis plastinkada induksiyalangan girdobiy toklar bilan suspenziyalangan magnit mayatnik dinamikasini o'rganamiz. Shuningdek, biz tajriba natijalarini miqdoriy jihatdan tushuntirib beruvchi nazariyani taqdim etamiz. Bu nazariya Maksvell tenglamalarining differensial shaklini o'rta darajada tushunadigan va differensial tenglamalarni yechish bo'yicha oddiy sonli usullarga ega bo'lgan talabalarga ham tushunarli bo'ladi.

**Nazariya.**

A) **Magnitli tormozlash kuchi.** Tizimimizni quyidagicha tasavvur qilamiz: magnit — sof dipol deb qaraladi — uning magnit momenti $P_m$ va og'irligi M mavjud bo'lib, u uzunligi L bo'lgan ipga osilgan va o'tkazuvchanligi σ sigma bo'lgan, qalinligi e'tiborga olinmaydigan yarim-cheksiz plastinka bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi (1-rasmga qarang). Harakat $Oxz$ tekisligida sodir bo'ladi va mayatnik boshlang'ich holatda burchagi $\varphi = \varphi\,(0)$ ga teng, boshlang'ich tezlik esa yo'q. Tizim koordinatalari plastinkaning yuqori markaziy nuqtasidan boshlab olinadi: $Ox$ koordinatasi plastinkaga parallel, $Oz$ koordinatasi esa plastinkaga perpendikulyar yo'nalgan. Plastinka yarim-cheksiz bo'lganligi sababli $x$, $y$, va $z$ koordinatalarining parametrlariga quyidagicha qaraladi:

$$0 \leq x \leq \infty; -\infty \leq y \leq \infty; 0 \geq z \geq -\delta,\ \delta \ll L.$$

Magnitli tormozlash kuchini aniq hisoblab chiqish uchun, avvalo, (2) dan (9)-gacha bo'lgan tenglamalar orqali plastinkada hosil bo'ladigan girdobiy toklarni hisoblashimiz kerak bo'ladi. Shundan so'ng, tormozlovchi kuch (10) dan (19)-gacha bo'lgan tenglamalar asosida aniqlanadi.

Bundan tashqari, tenglamalarni soddalashtirish maqsadida, masala davomida uchraydigan ba'zi atamalarga qisqartirilgan belgilanishlar kiritamiz.

$$x - L\cos\varphi = X;\ y = Y;\ z - L\sin\varphi = Z$$

$$r^2 = (x - L\cos\varphi)^2 + y^2 + (z - L\sin\varphi)^2 \qquad (1)$$

$$\vec{r} = (x - L\cos\varphi)\hat{x} + \vec{y} + (z - L\sin\varphi)\hat{z}$$

Magnit tebranayotganda Faradey qonuniga ko'ra elektr maydon hosil qiladi:

$$\vec{\nabla} * \vec{\mathrm{E}} = -\frac{\partial \vec{\mathrm{B}}}{\partial t} \qquad (2)$$

(2)-tenglamani magnit vektor potensiali $\vec{A}$ orqali quyidagicha yozamiz, bu yerda $\vec{B} = \vec{\nabla} * \vec{A}$ , va $\nabla$ operatorini olib tashlasak, quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$\vec{E} = -\vec{\nabla}V - \frac{\partial\vec{A}}{\partial t} \qquad (3)$$

(3)-tenglamadagi skalyarning gradienti, agar $\vec{A}$ doimiy bo‘lsa, elektrostatik potensial sifatida ishlaydi. Biroq, bizning masalamizda magnitga yaqin hududlardagi magnit maydon kuchi gradient ta’sirini juda kichik qiladi, shuning uchun bu gradient hadni e’tiborga olmasak bo‘ladi [12]:

$$\vec{E} \approx -\frac{\partial\vec{A}}{\partial t} \qquad (4)$$

Dipolning magnit vektor potensiali quyidagicha ifodalanadi:

$$\vec{A}(r) = k_m \frac{\overrightarrow{P_m} * \vec{r}}{r^3} \qquad (5)$$

Bu yerda $\vec{r}$ — dipol markazidan (manba nuqtasi) maydon nuqtasiga (plastinkaga) yo‘nalgan vektor, va $k_m = \frac{\mu_0}{4\pi}$. Shuningdek, dipol yo‘nalishini birlik vektorlar yordamida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\overrightarrow{P_m} = P_m(-\cos\varphi\,\hat{z} + \sin\varphi\,\hat{x}) \qquad (6)$$

(1), (5) va (6)-tenglamalardan foydalanib, $\vec{A}$ ni turli komponentlarga ajratish mumkin.

$$A_x = \frac{k_m P_m y \cos\varphi}{r^3}$$

$$A_y = -\frac{k_m P_m[(z - L\sin\varphi)\sin\varphi + (x - L\cos\varphi)\cos\varphi]}{r^3} \qquad (7)$$

$$A_z = \frac{k_m P_m y \sin\varphi}{r^3}$$

(4) va (7)-tenglamalardan foydalanib, metall plastinkada hosil bo‘ladigan elektr maydon $\vec{E}$ ni aniq hisoblab chiqish mumkin:

$$E_x = k_m P_m \dot{\varphi} \frac{Y[\sin\varphi(X^2 + Y^2 + Z^2) + 3L\cos\varphi(X\sin\varphi - Z\cos\varphi)]}{(X^2 + Y^2 + Z^2)^{\frac{5}{2}}}$$

$$E_y = k_m P_m \dot{\varphi}\frac{-(X\sin\varphi - Z\cos\varphi)[X(X+3L\cos\varphi)+Y^2+Z(Z+3L\sin\varphi)]}{(X^2+Y^2+Z^2)^{\frac{5}{2}}} \quad (8)$$

$$E_z = k_m P_m \dot{\varphi}\frac{Y[-\cos\varphi(X^2+Y^2+Z^2)+3L\sin\varphi(X\sin\varphi - Z\cos\varphi)]}{(X^2+Y^2+Z^2)^{\frac{5}{2}}}$$

Induksion toklarning kuchi Om qonunining differensial shakli orqali aniqlanadi:

$$\vec{j} = \sigma\vec{E} \quad (9)$$

Magnit bilan plastinkadagi induksion toklar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchini hisoblash uchun, mayatnik chastotasi yetarlicha kichik deb hisoblanadi va bu holda Bio–Savar qonunidan foydalanish mumkin.

Plastinkadagi induksion toklar magnitga hosil qilgan magnit maydoni Bio–Savar qonuni orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$\vec{B}\left(\overrightarrow{r^{/}}\right) = k_m\int\frac{\vec{j}*\overrightarrow{r^{/}}}{r^{/3}}dV \quad (10)$$

Bu yerda $r^{/} = r$; $\overrightarrow{r^{/}} = -\vec{r}$; $dV = dxdydz$

Ikkinchi darajadagi magnit maydonni $\vec{r}$ va $r$ orqali qayta yozsak:

$$\vec{B}(r) = -k_m\int\frac{\vec{j}*\vec{r}}{r^{/3}}dV \quad (11)$$

(8), (9) va (11)-tenglamalardan foydalanib, induksion toklar natijasida hosil bo‘lgan ikkilamchi magnit maydon komponentalari quyidagicha bo‘ladi:

$$B_x(r) = -k_m\int\frac{j_y(z-L\sin\varphi)-j_z y}{[((x-L\cos\varphi)^2+y^2+(z-L\sin\varphi)^2)]^{\frac{3}{2}}}dV$$

$$B_y(r) = -k_m\int\frac{j_z(z-L\cos\varphi)-j_x(z-L\sin\varphi)}{[((x-L\cos\varphi)^2+y^2+(z-L\sin\varphi)^2)]^{\frac{3}{2}}}dV \quad (12)$$

$$B_z(r) = -k_m\int\frac{j_x y-j_y(x-L\cos\varphi)}{[((x-L\cos\varphi)^2+y^2+(z-L\sin\varphi)^2)]^{\frac{3}{2}}}dV$$

Magnit bilan plastinkadagi induksion toklar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir energiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$W = -\frac{1}{2}\overrightarrow{P_m} * \vec{B} = -\frac{1}{2}(P_m \sin\varphi\hat{x} - P_m \cos\varphi\hat{z})(B_x\hat{x} + B_z\hat{z}) =$$
$$-\frac{1}{2}(B_x \sin\varphi - B_z \cos\varphi) \qquad (13)$$

Bu magnitga ta'sir qiluvchi kuchni aniqlash imkonini beradi:

$$\vec{F} = -\vec{\nabla}W \qquad (14)$$

Biroq, mayatnik harakati faqat $Oxz$ tekisligida bo'lganligi sababli, biz faqat iplarga perpendikulyar yo'nalishdagi kuchni (ya'ni, tangensial komponentani) hisoblaymiz. Ipdagi kuchlar bilan muvozanatga keladigan komponentlar hisobga olinmaydi.

Mayatnik yo'nalishidagi (tangensial) tormozlovchi kuch $F_\varphi$ quyidagicha aniqlanadi:

$$F_\varphi = -\frac{1}{L}\frac{\partial W}{\partial\varphi} = \frac{P_m}{2L}\frac{\partial}{\partial\varphi}(B_x \sin\varphi - B_z \cos\varphi) = -\frac{\sigma {k_m}^2 {P_m}^2}{2L}\eta(\varphi)\dot{\varphi} \qquad (15)$$

$$\eta(\varphi) = \frac{\partial}{\partial\varphi}\int \psi(X,Y,Z,\varphi)dXdYdZ \qquad (16)$$

$$\psi(X,Y,Z,\varphi) =$$
$$\frac{-(X\sin\varphi - Z\cos\varphi)[3LY^2 + (X\cos\varphi + Z\sin\varphi)(X^2+Y^2+Z^2+3L[X\cos\varphi + Z\sin\varphi])]}{(X^2+Y^2+Z^2)^4} \qquad (17)$$

(17)-ifodadagi $\psi(X,Y,Z,\varphi)$ funksiyasining φ bo'yicha hosilasini olsak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\eta(\varphi) = \int \Gamma(X,Y,Z,\varphi)dxdydz \qquad (18)$$

Bu yerda:

$$\Gamma(X,Y,Z,\varphi) = \frac{24y^2L^2(x\sin\varphi - z\cos\varphi)^2}{[(x-L\cos\varphi)^2+y^2+(z-L\sin\varphi)^2]^5} - \frac{3y^2L(x\cos\varphi + z\sin\varphi)}{[(x-L\cos\varphi)^2+y^2+(z-L\sin\varphi)^2]^4} +$$
$$\frac{-(x\cos\varphi+z\sin\varphi)(x\cos\varphi+z\sin\varphi-L)}{[(x-L\cos\varphi)^2+y^2+(z-L\sin\varphi)^2]^3} + \frac{(x\sin\varphi - z\cos\varphi)^2}{[(x-L\cos\varphi)^2+y^2+(z-L\sin\varphi)^2]^3} +$$
$$\frac{6L(x\cos\varphi+z\sin\varphi-L)(x\sin\varphi-z\cos\varphi)^2}{[(x-L\cos\varphi)^2+y^2+(z-L\sin\varphi)^2]^4} + \frac{-3L(x\cos\varphi+z\sin\varphi)(x\cos\varphi+z\sin\varphi-L)^2}{[(x-L\cos\varphi)^2+y^2+(z-L\sin\varphi)^2]^4} +$$
$$\frac{6L(x\sin\varphi-z\cos\varphi)^2(x\cos\varphi+z\sin\varphi-L)}{[(x-L\cos\varphi)^2+y^2+(z-L\sin\varphi)^2]^4} + \frac{24L^2(x\sin\varphi-z\cos\varphi)^2(x\cos\varphi+z\sin\varphi-L)^2}{[(x-L\cos\varphi)^2+y^2+(z-L\sin\varphi)^2]^5} \qquad (19)$$

**B. Magnit mayatnikning dinamikasi.** Ip yo'nalishiga perpendikulyar yo'nalishda proyeksiya qilingan harakat tenglamasi quyidagicha:

$$ML\ddot{\varphi} = -Mg\sin\varphi + F_\varphi \tag{20}$$

Quyidagi matnni ilmiy mazmun saqlangan holda o'zbek tiliga tarjima qildim. Formulalar, fizik kattaliklar va tushunchalar izchil tarjima qilingan:

Bu yerda $F_\varphi$— bu (15)-ifodada topilgan, magnitga ipga perpendikulyar yo'nalishda ta'sir qiluvchi tormozlovchi kuchdir. (15)-ifodani (20)-ga qo'yib va soddalashtirib, quyidagi differensial tenglamani olamiz:

$$\ddot{\varphi} + \frac{\sigma {k_m}^2 {P_m}^2}{2ML^2}\eta(\varphi)\dot{\varphi} + \frac{g}{l}\sin\varphi = 0$$

Endi fizik qiymatlarni quyidagicha beramiz: Dipolning magnit momenti $P_m = 1.29A\,m^2$ [16]. Magnitning massasi M=10 g, Metall (mis) sirtining o'tkazuvchanligi σ=5.85×10$^8 S\,m^{-1}$[17] va mis plastinkaning qalinligi δ=1× 10$^{-3}$m , erkin tushish tezlanishi g=9.8 m/$s^2$

Dastlabki burchak $\varphi$ (0)=0.33 rad va burchak tezligi $\dot{\varphi} = 0$.

**Xulosa.** Ushbu ishda metall sirt yaqinida tebranuvchi magnit mayatnikning harakatini tavsiflovchi nazariy model muvaffaqiyatli ishlab chiqildi. Taklif etilgan yechim magnitning vaqt bo'yicha tezligi va holatini aniqlash imkonini beradi hamda tormozlovchi elektromagnit kuchlarning intensivligi haqida sifatli tushuncha beradi. Olingan natijalar fizikadagi murakkab, noaniq dinamik tizimlarni o'rganishda, shuningdek, o'quv jarayonida tajriba namunasi sifatida foydali metodik vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Current Damper." *Journal of System Design and Dynamics*, 2(5), 1148-1159 (2008).

2. Chen, H., Xiao, Y., Shi, J., & Wan, W. "An Analytical Approach to Eddy Current in Electromagnetic Damping." arXiv preprint (2019).

3. Li, Z-X., et al. "Electromagnetic buffering considering PM eddy current loss under intensive impact load." *Vict . Pulsed… / Extrica* (2019).

4. Saxena, A., & Patel, R. K. "Vibration control of cantilever beam using Eddy Current Damper." *International Journal of Engineering Science and Innovative Technology* 2(3) (2013).

5. "Review Paper on Optimal Robust Control of Contactless Breaking System Using Eddy Current System." *International Journal of Scientific Research in Science, Engineering and Technology*, Vol. 4, Issue 5 (2018).

6. "Analysis and Suppression of the Eddy Current Damping Force of the Cooling Plate of a Permanent Magnet Linear Motor." *Symmetry*, 13(11), 2025 (2021).

7. "Precision Motion Control with Active Eddy Current Damper." *Key Engineering Materials*, Vol. 447-448, pp. 493-497 (2010).

8. "Semi-active stabilisation of a pipe conveying fluid using eddy-current dampers: state-feedback control design, experimental validation." *Meccanica*, 54, 761-777 (2019).

9. Ebrahimi, B., Khamesee, M. B., & Golnaraghi, F. "Permanent magnet configuration in design of an eddy current damper." *Micro-system Technologies* (2008).

# ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ. ЦЕЛИ, ЗАДАЧИ И ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИГРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ.

***Хусанова Махлиё Тохиржоновна***
Студентка Наманганского государственного
педагогического института

**Научный руководитель: *Пардабоева Дилфуза Рустамовна***
старший преподаватель кафедры филологии Наманганского
государственного педагогического института.

**Аннотация**: В статье представлена информация о целях и задачах эффективной организации уроков с использованием игровых технологий.

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada darslarni o'yin texnologiyalari orqali samarali tashkil etishning maqsad va vazifalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Abstract**: This article provides information on the goals and objectives of effectively organizing lessons through game technologies.

**Ключевые слова:** Игровые технологии, педагогика, учебный процесс, умения

**Kalit so'zlar:** O'yin texnologiyalari, pedagogika, dars jarayoni, mahurat

**Keywords**: Game technologies, pedagogy, teaching process, skills

Всем хорошо известно, что для развития у детей чувства ритма, такта, музыкального слуха и памяти необходимо с ранних лет тесно знакомить их с музыкальными играми. Игра наряду с трудом и учением – один из основных видов деятельности человека, удивительный феномен нашего существования. По определению, игра – это вид деятельности в условиях ситуаций, направленных на воссоздание и усвоение общественного опыта, в котором складывается

и совершенствуется самоуправление поведением. Значение игры невозможно исчерпать и оценить развлекательно-реактивными возможностями. В этом и содержится её феномен, что является развлечением, отдыхом, она способна перерасти в обучение, в модель воспитания. Игру как метод обучения и воспитания, передачи опыта старших поколений младшим люди использовали с древности. Широкое применение игра находит в народной педагогике, в дошкольных и внешкольных учреждениях. В современной школе, делающей ставку на активизацию и интенсификацию учебного процесса, игровая деятельность используется в следующих случаях:

– в качестве самостоятельных технологий для усвоения понятия, темы и даже раздела учебного предмета;

– как элементы (иногда весьма существенные) более обширной технологии;

– в качестве технологии урока (занятия) или фрагмента;

– как технология внеклассной работы.

«Понятие "игровые педагогические технологии" включает достаточно обширную группу методов и приёмов организации педагогического процесса в форме различных педагогических игр». Педагогическая игра в отличии от обычных игр обладает существенным признаком — чётко поставленной целью обучения и соответствующими ей педагогическими результатами, которые могут быть обоснованы, выделены в явном виде и характеризуются учебно-познавательной направленностью. «Игры – особо организованное занятие, требующее напряжения эмоциональных и умственных сил» — М.Ф. Стронин. Игра всегда предполагает принятия решения, как поступить?, что сказать? Решение этих вопросов обостряет мыслительную деятельность играющих. Для детей игра прежде всего

— увлекательное занятие. В игре все равны. Она посильна даже самым слабым ученикам. Чувство равенства, радость – всё это даёт ребятам возможность преодолеть стеснительность, мешающую благотворно сказываться на результаты обученья.

Игра представляет собой небольшую ситуацию, построение которой, напоминает хроматическое произведение со своим сюжетом, конфликтом и действующими лицами. В ходе игры ситуация проигрывается несколько раз и при этом каждый раз в новом варианте. Но вместе с тем ситуация игры — ситуация реальной жизни. Несмотря на чёткие условия игры в ней обязательно есть элемент неожиданности. Услышав неожиданный вопрос, ребёнок начинает думать, как на него ответить. Поэтому для игры характерно спонтанность речи. Речевое общение, включающее не только речь собственную, как жест, мимику, имеет целенаправленность и носит обязательный характер.

В человеческой практике игровая деятельность выполняет такие функции:

развлекательную (это основная функция игры – развлечь, доставить удовольствие, воодушевить, пробудить интерес);

коммуникативную: усвоение диалектики общения;

самореализации в игре как полигоне человеческой практики;

диагностическую: выявление отклонений от нормального поведения;

функцию коррекции: внесение позитивных изменений в структуру личностных показателей;

межнациональной коммуникации: усвоение единых для всех людей социально-культурных ценностей;

социализации: включение в систему общественных отношений, усвоение норм человеческого общежития.

Большинству игр присущи четыре главные черты:

Свободная развивающая деятельность, предпринимаемая лишь по желанию ребёнка, ради удовольствия самого процесса деятельности, а не только от результата. Творческий, в значительной мере импровизационный. Очень активный характер – это деятельности. Эмоциональная приподнятость деятельности, соперничество, состязательность, конкуренция, аттракция и т. п. (чувственная природа игры, «эмоциональное напряжение»);

Наличие прямых или косвенных правил. Отражающих содержание игры. В структуру игры как деятельность органично входит целеполагание, планирование, реализация цели, а также анализ результатов, в которых личность полностью реализует себя как субъект. Мотивация игровой деятельности обеспечивается её добровольностью, возможностями выбора и элементами соревновательности, удовлетворения потребности в самоутверждении, самореализации.

В структуру игры как процесса входят:

Роли, взятые на себя играющими;

Игровые действия как средства реализации этих ролей;

Игровое употребление предметов, т.е. замещение реальных вещей игровыми, условными;

Реальные отношения между играющими;

Сюжет (содержание – область действительности, условно воспроизводимая в игре. Значение игры невозможно исчерпать и оценить развлекательно-рекреативными возможностями. В том и состоит её феномен, что являясь развлечением, отдыхом она способна

перерасти в обучение. Игра в обучении — яркий пример двух плановости, когда педагогическая цель скрыта и выступает в завуалированной форме.

Анализ литературы по использованию игры в обучении показывает, что игра – явление полифункциональное. Трудно переоценить воспитательное значение игры, её всестороннее влияние на ребёнка. Игра помогает сплотить детский коллектив, в активную деятельность вовлекаются робкие и застенчивые и это способствует самоутверждению каждого в коллективе. В играх воспитывается сознательная дисциплина, трудолюбие, взаимопомощь, самостоятельность. На уроках игровая форма занятий создаётся при помощи игровых приёмов и ситуаций, которые выступают как средство побуждения учащихся к учебной деятельности.

Реализация игровых приёмов и ситуаций при урочной форме занятий происходит по таким основным направлениям: дидактическая цель ставится перед учащимися в форме игровой задачи; учебная деятельность подчиняется правилам игры; учебный материал используется в качестве её средства, в учебную деятельность вводится элемент соревнования, который переводит дидактическую задачу в игровую; успешное выполнение дидактического задания связывается с игровым результатом.

Программа игровой деятельности состоит из набора развивающих игр, которые при всём разнообразии имеют одну общую идею. Каждая игра – это набор задач. Задачи даются ребёнку в различной форме – в виде модели, плоского рисунка в изометрии, чертеже, устной или письменной инструкции — и таким образом знакомят его с разными способами передачи информации. Задачи могут быть самые разнообразные: лёгкие – доступные малышам и

трудные – непосильные для взрослого. Поэтому задачи могут развивать ребёнка, постоянно усложняя задачи. Это позволяет ребёнку идти ребёнку вперед и совершенствоваться самостоятельно.

В развивающих играх удалось объединить один из основных принципов обучения от простого к сложному с очень важным принципом обучения творческой деятельности самостоятельно по способностям. Это позволяет решать сразу несколько проблем, связанных с развитием творческих способностей:

Развивающие игры могут дать «пищу» для развития творческих способностей с раннего возраста;

Задания всегда опережают развитие способностей;

Поднимаясь самостоятельно, доходя до определённого уровня, ребёнок развивается наиболее успешно;

Все развивающие игры разнообразны по содержанию, но создают атмосферу непринуждённости, радости.

В игровой модели учебного процесса создание проблемной ситуации происходит через введение игровой ситуации. Основу деятельности составляет игровое моделирование, часть деятельности учащихся происходит в условно-игровом плане. Итоги игры выступают в двойном плане — как игровой, так и учебно-познавательный результат. Дидактическая функция игры реализуется через обсуждение игрового действия, анализ соотношения игровой ситуации как моделирующей, её соотношение с реальность. Важнейшая роль принадлежит обсуждению, в котором учащиеся совместно анализируют результаты игры, соотношение игровой модели и реальности.

Результативность дидактических игр зависит от систематического их использования. Целенаправленности

программы игр в сочетании с обычными дидактическими упражнениями. Игровая технология строится как целостное образование, охватывающее определённую часть учебного процесса и объединённое общим содержанием, сюжетом, персонажем. Игровой сюжет развивается параллельно основному содержанию обучения, помогает активизировать учебный процесс, осваивать учебные элементы. Составление игровых технологий из отдельных игр и элементов — забота каждого учителя начальной школы.

Игровые технологии используются в обучении с незапамятных времён. В настоящее время они чаще используются в сфере начального образования. В средней и в высшей школе обращаются к игровым технологиям редко. Игры могут использоваться при знакомстве друг с другом на начальных этапах обучения; могут сочетаться с различными психолого-педагогическими тренингами по развитию коммуникации. Также они могут использоваться непосредственно в процессе обучения. Игры следует разделить по виду деятельности на физические (двигательные), интеллектуальные (умственные), трудовые, социальные и психологические.

По характеру педагогического процесса выделяются следующие группы игр:

А) обучающие, тренировочные, контролирующие и обобщающие;

Б) познавательные, воспитательные, развивающие, социализирующие;

В) репродуктивные, продуктивные, творческие;

Г) коммуникативные, диагностические, профориентационные, психотехнические и др. Обширна типология педагогических игр по характеру игровой методике. Три большие группы составляют: игры

с готовыми «жёсткими» правилами; игры «вольные», правила которых устанавливаются по ходу игровых действий; игры, которые сочетают свободную игровую стихию и правила, принятые в качестве условия игры и возникающие по её ходу. Важнейшие из других методических типов; предметные, сюжетные, ролевые, деловые, имитационные и игры — драматизации.

Таким образом, игра – исторически обусловленный, естественный элемент культуры, представляющий собой вид произвольной деятельности индивида. В игре происходит воспроизводство и обогащение социального опыта предшествующих поколений, освоение норм и правил человеческой жизнедеятельности через добровольное принятие игровой роди, виртуальное моделирование игрового пространства, условий своего собственного бытия в мире. То есть игра является одним из способов освоения человеком мира и отношений в нем, способом самоутверждения человека, состоящим в произвольном конструировании действительности в условном плане. В качестве средства, метода и технологии обучения разнообразные игры широко используются в педагогическом процессе.

Игра является моделью игры как таковой. Игра важнейшее средство воспитания школьников. Игра деятельность спонтанная, непринужденная. Мир игр очень разнообразен. Существуют разные варианты классификации игр. Каждая игра уникальна, содержит в себе различные функции. Каждый вид игр помогает в развитии ребенка, как здорового человека, так и здоровой личности. При правильном подборе игр можно спланировать и создать условия для нормального развития и социализации ребенка.

**Литература:**

1. Вавилова Л.Н., Кузина Т.С. Методические рекомендации/ Под общ. ред. В. М. Паниной. – Кемерово: Изд-во ГОУ «КРИРПО», 2007.- 94 с.

2. Дыбина О.В. Игровые технологии ознакомления дошкольников с предметным миром. Практико-ориентированная монография – М.: Педагогическое общество России, 2008. – 128 с.

3. Ермолаева М.Г. Игра в образовательном процессе: Методическое пособие/ М.Г. Ермолаева. – 2-е изд., доп. – СПб.: СПб АППО, 2005. – 112 с.

4. Кукушин В.С., Болдырева-Вараксина А.В. Педагогика начального образования/ Под общ. ред. В.С. Кукушина. – М.: ИКЦ «МарТ»; Ростов н\Д: Издательский центр «МарТ», 2005. – 592 с.

# KICHIK YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKUR VA XOTIRANI RIVOJLANTIRISH

***Hamidova Odinaxon Nusratillayevna***
Namangan davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishini 1-kurs talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va xotirani rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari, shuningdek o'yin faoliyatining ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Maqolada shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va didaktik o'yinlardan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, tafakkur, xotira, aqliy rivojlanish, o'yin faoliyati, diqqat, pedagogik yondashuv, muloqot va kuzatuv, bolalar psixologiyasi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются психолого-педагогические основы развития мышления и памяти у детей дошкольного возраста, а также значение игровой деятельности в этом процессе. В работе освещаются преимущества личностно-ориентированного подхода и использования дидактических игр в образовательной практике.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, мышление, память, умственное развитие, игровая деятельность, внимание, педагогический подход, общение и наблюдение, детская психология.

**Abstract:** This article discusses the psychological and pedagogical foundations of developing thinking and memory in preschool children, as well as the importance of play activities in this process. The article highlights the advantages of a learner-centered approach and the use of didactic games in educational practice.

**Keywords:** preschool education, thinking, memory, cognitive development, play activity, attention, pedagogical approach, communication and observation, child psychology.

Har tomonlama barkamol va yetuk shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta'lim tizimida dolzarb mavzulardan biridir. Kichik yoshdagi bolalarda tafakkur va xotirani rivojlantirish — bu ijtimoiy-emotsional, nutqiy va jismoniy rivojlanishni bir butunlikda qo'llab-quvvatlovchi jarayondir. Shu bois, ta'lim jarayonida har bir bola individual rivojlanish sur'atlari va qiziqishlariga mos yondashuv talab etiladi. Maktabgacha yosh shaxsning shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Maktabgacha yokida bog'cha yosh davri 3 yoshdan 7 yoshgacha davrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda bolalarda diqqat, tasavvur, idrok va nutq jadal rivojlanadi. Aynan shu davr bolaning tafakkuri, xotirasini shakllantirishga asos yaratadi. Neyropsixologlar ta'kidlaganidek, 3–7

yosh oralig'ida bolaning frontal bo'limlari faollashadi, bu esa rejalashtirish, tahlil qilish va eslab qolish jarayonlarini faollashtiradi. [1] Shu sababli bu davrda mantiqiy o'yinlar, konstruktiv mashg'ulotlar, hikoya tuzish kabi faoliyatlar orqali miya faoliyatini mustahkamlash samarali bo'ladi.

Xotira deganda idrok etilgan narsa va hodisalarni yokida o'tmish hodisalarini esda qoldirish va zarur bo'lganda tiklashdan iborat psixik jarayon tushuniladi. Xotira ta'lim va tarbiya bilim olish shaxsiy tajriba shakllantirishning asosi hisoblanadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda xotira asosan idrok etishda ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilarga asoslanadi. Misol uchun rangbarang o'yinchoqlar yokida turli tuman rasmlar bilan tasvirlangan ertak kitoblar e'tiborini tortadi va shu tarzda bola xotirasi shakllana boshlaydi. Bola uchun hissiy jihatdan quvonchli yoki hayratli holatlar oson esda qoladi. Shu bois ta'lim jarayonida musiqali, teatr elementlari qo'shilgan, ijobiy his-tuyg'u uyg'otuvchi o'yinlar xotirani mustahkamlaydi. Kichik yoshdagi bolalar atrof-muhitni o'yin, kuzatish va muloqot orqali o'rganadilar. Shu sababli, tarbiyachining maqsadi — bolaning fikrlash jarayonini faollashtirish va eslab qolish qobiliyatini tabiiy yo'l bilan rivojlantirishdan iboratdir.

Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Nemiz psixologi Vilyam Shtern (1871-1938) fikricha, bolalarda ham katta yoshdagi odamlarda ham ma'nosiga tushunib o'zlashtirishga nisbatan mexanik egallash kam miqdordir. [2] Psixolog A.N.Leontevning ta'kidlashicha, xotiraning rivojlanishi bevosita faoliyat bilan bog'liq bo'lib, bola faoliyati jarayonida ma'lumotni eslab qolish va qayta tiklashga o'rganadi. [3]

Tafakkur-bu inson ongining eng yuqori shakli bo'lib, u orqali shaxs hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi, tahlil qiladi va

umumlashtiradi. Bolalarda tug'ma emas, balki tajriba, o'yin, muloqot va ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich shakllandi. Bola tug'ilishidanoq tafakkur qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Tafakkur bolaning o'sib, bilim va tajribalarining ortib borishi jarayonida rivojlanadi.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish tafakkur va xotirani mashq qilishda samarali natija bermoqda. Albatta, ularni me'yorida va pedagogik nazorat bilan qo'llash zarur.

Bolalar tafakkuri atrof-muhitni bevosita kuzatish orqali rivojlanadi. Tabiat hodisalarini, o'simlik va hayvonlarni kuzatish, ularni taqqoslash, o'z fikrini ifodalash — bu jarayon tahliliy tafakkurni shakllantiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalik, bola tug'ilganidan boshlab, maktab yoshigacha bo'lgan davrini qamrab olgan. O'yin bolaning xulq-atvori va bilish jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Z.V.Manuylekoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq va ko'nikmalarni oldinroq va osonroq egallash mumkin. [4]

Bog'cha yoshidagi kichik bolalarda ko'proq obrazli xotira rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ular eshitgan narsalariga nisbatan ko'rgan narsalarni yaxshi eslarida olib qoladilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda idroklari konkret obrazli xarakterga ega. Ularda hali nutq to'la-to'kis shakllanmagan.

Bolalar xotirasini o'stirishda tarbiyachi va ota onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol o'ynaydi. Bola bilan gaplashganda nutq sodda va tushunarli bo'lishi kerak shu orqali rivojlanishga urg'u berdi. Bolalarda tug'ma emas, balki tajriba, o'yin, muloqot va ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich shakllandi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda

tafakkur oʻziga xos boʻladi: ular hali mavhum tushunchalar orqali emas, koʻrgan, ushlagan va his qilgan narsalari asosida fikrlaydilar shu bois bu yoshda tafakkur obrazli-amaliy xarakterga ega.

Til va xotira oʻzaro bogʻliq: bola narsani nomlashni oʻrganganida uni eslab qolish osonlashadi. Shu bois soʻz boyligini oshirish, hikoya tuzish, ertakni qayta soʻzlab berish kabi mashgʻulotlar xotirani rivojlantiradi. Bolalar xotirasini oʻstirishda tarbiyachi va ota onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol oʻynaydi. Bola bilan gaplashganda nutq sodda va tushunarli boʻlishi kerak orqali rivojlanishga urgʻu berdi. Bolalarda tugʻma emas, balki tajriba, oʻyin, muloqot va ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich shakllandi.

Oʻyin faoliyati bolalarning tafakkurini, diqqatini, xotirasini hamda muloqot koʻnikmalarini rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi.

Oʻyin-bu bolaning tafakkurini shakllantiruvchi asosiy mexanizmdir. Bola oʻyin orqali sabab-oqibat aloqalarini tushunadi, tahlil qiladi, tasavvurini kengaytiradi va mustaqil fikrlashni oʻrganadi. Kichik yoshdagi bolalar uchun harakatli oʻyinlar — "topib kel", "harakatni takrorla", "narsani joyiga qoʻy" kabi mashqlar orqali miyaning analizator tizimi faollashadi va bu tafakkur hamda xotirani mustahkamlaydi. Ammo ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun bolalarga erkinlik beruvchi oʻyinlar — masalan, "Nima boʻlishi mumkin?", "Boshqa yoʻl bilan yechamiz" kabi topshiriqlarni qoʻllash lozim. Bular bola tafakkurining moslashuvchanlik va mustaqillik qirralarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va xotirani rivojlantirish jarayoni murakkab, biroq nihoyatda muhim psixologik-pedagogik jarayondir. Bola faoliyatining tabiiy shakli boʻlgan oʻyin, muloqot va kuzatishlar orqali bilish jarayonlari bosqichma-bosqich shakllandi. Soʻnggi yillarda maktabgacha ta'limda raqamli

texnologiyalardan foydalanish tafakkur va xotirani mashq qilishda samarali natija bermoqda. Albatta, ularni me'yorida va pedagogik nazorat bilan qo'llash zarur.

Tarbiyachilar va ota-onalar bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, unga qulay o'quv-muhit yaratishlari, o'yin va didaktik mashg'ulotlar orqali tafakkur va xotirani rivojlantirishga sharoit yaratishlari zarur. Shu tarzda bola shaxsining aqliy, ijtimoiy rivojlanishi uyg'un holda amalga oshadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xalilova N.I, Asranboyeva M.I, Oribboyeva.D.D, Boymirzayeva.D.D, "Umumiy psixologiya" Namanganga-2025.

2. Z.Nishonova, G.Alimova, "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". Toshkent-2006.

3. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi o'quv dasturi Namangan-2025. Badritdinova Madina Baxromovna

# "O'QITUVCHINING PEDAGOGIK QOBILIYATI VA PEDAGOGIK MULOQOTI-ZAMONAVIY TA'LIMNING ASOSI!".

***Yigitaliyev Shahbozbek***
Namangan davlat pedagogika instituti, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi mutaxassisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogning kasbiy faoliyatida pedagogik qobiliyat va muloqot madaniyatining o'rni, zamonaviy ta'limdagi ahamiyati, shuningdek, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o'qituvchining o'quvchi bilan samarali aloqasi o'quv jarayonining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qilishini

ko'rsatadi. Maqola zamonaviy ta'lim paradigmasida pedagog shaxsining ijodkor, muloqotga ochiq va refleksiv qobiliyatlarini shakllantirish zarurligini yoritadi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot, kommunikativ kompetensiya, zamonaviy ta'lim, shaxsiy rivojlanish, interaktiv metodlar, professional mahorat.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat bilim beruvchi, balki shaxs rivojlanishiga yo'naltiruvchi, o'quvchini mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka undovchi yetuk mutaxassis bo'lishni talab qiladi. Shu boisdan pedagogik qobiliyat va muloqot madaniyati o'qituvchilik kasbining asosiy poydevoridir.

Pedagogik qobiliyat o'qituvchining o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish, o'quvchi psixologiyasini tushunish va individual yondashuvni tanlay bilish salohiyatini ifodalaydi. Pedagogik muloqot esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik aloqaning mazmunini belgilaydi.

Zamonaviy pedagogning kommunikativ salohiyati, emotsional barqarorligi, empatiyasi va shaxsiy madaniy darajasi o'quv jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu jihatdan pedagogik muloqot — ta'lim samaradorligining asosi hisoblanadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy-tahliliy yondashuv — pedagogik qobiliyat va muloqot konsepsiyalarini solishtirish, ularning zamonaviy talqini asosida tahlil qilish.

Empirik kuzatuv — o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot jarayonini kuzatish orqali real pedagogik muhitni o'rganish.

Suhbat va anketa — o'qituvchilarning muloqot uslubi, pedagogik refleksiya va empatiya darajasini aniqlash.

Tahliliy modellashtirish — samarali muloqotga asoslangan o'qituvchi faoliyati modelini ishlab chiqish.

Ushbu metodlar yordamida zamonaviy pedagogning kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi omillar hamda ularni rivojlantirish yo'llari tahlil qilindi.

Pedagogik qobiliyat va pedagogik muloqot zamonaviy ta'limning asosiy poydevori sifatida ta'lim jarayonining samaradorligi va o'quvchilarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu ikki tushuncha bir-birini to'ldiradi va o'qituvchining faoliyati, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi hamda ta'lim muhitining sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Quyida ushbu mavzuni batafsil yoritib, pedagogik qobiliyat va muloqotning zamonaviy ta'limdagi o'rni, ularning tarkibiy qismlari, ahamiyati va amaliy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Pedagogik qobiliyatning mohiyati

Pedagogik qobiliyat o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil qilish, o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarni samarali yetkazish, ularning qiziqishini uyg'otish va o'quv jarayonini boshqarish qobiliyatidir. Bu qobiliyat bir nechta muhim komponentlarni o'z ichiga oladi:

Professional bilim va ko'nikmalar: O'qituvchi o'z fan sohasida chuqur bilimga ega bo'lishi, shuningdek, zamonaviy ta'lim metodlari va texnologiyalaridan xabardor bo'lishi kerak. Masalan, interaktiv ta'lim usullari (masalan, loyiha asosidagi ta'lim, gamifikatsiya) yoki raqamli vositalardan (Kahoot, Google Classroom) foydalanish zamonaviy ta'limda muhim ahamiyatga ega.

Tashkiliy qobiliyatlar: O'qituvchi sinfni boshqarish, darsni rejalashtirish va o'quvchilarning e'tiborini jalb qilishda usta bo'lishi

lozim. Bu, ayniqsa, turli xil qobiliyat va qiziqishlarga ega o'quvchilar guruhida muhimdir.

Psixologik va ijtimoiy sezgirlik: O'qituvchi har bir o'quvchining individual xususiyatlarini (temperament, o'quv uslubi, motivatsiya darajasi) hisobga olishi va ularga mos yondashuv topishi kerak. Bu qobiliyat o'quvchilar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuv: Zamonaviy ta'lim doimiy ravishda rivojlanmoqda. O'qituvchi yangi texnologiyalar, ta'lim trendlari va global talablarga moslashish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Masalan, STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvi yoki sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalaridan foydalanish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagogik muloqotning o'rni

Pedagogik muloqot – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatning asosiy shakli bo'lib, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu nafaqat bilim almashish, balki o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beruvchi muhim vositadir. Pedagogik muloqotning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

O'zaro hurmat va ishonch: O'qituvchi o'quvchilar bilan ochiq, do'stona va hurmatga asoslangan muloqot qilishi kerak. Bu o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga va xato qilishdan qo'rqmasligiga yordam beradi.

Empatiya va tushunish: O'qituvchi o'quvchilarning his-tuyg'ularini, qiyinchiliklarini va ehtiyojlarini tushunishi lozim. Masalan, agar o'quvchi mavzuni tushunishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qituvchi sabr-toqat bilan alternative tushuntirish usullarini qo'llashi kerak.

Faol tinglash: O'quvchilarning savollari, fikrlari va takliflarini diqqat bilan tinglash pedagogik muloqotning muhim qismidir. Bu o'quvchilarning o'zini qadrlangan his qilishiga yordam beradi.

Konstruktiv fikr-mulohaza: O'qituvchi o'quvchilarning xatolarini tanqid qilish o'rniga, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatishi va ijobiy yo'nalishda rag'batlantirishi kerak. Masalan, "Bu yaxshi urinish, endi buni yanada yaxshilash uchun shunday qilib ko'ring" kabi yondashuv o'quvchining motivatsiyasini oshiradi.

Raqamli muloqot: Zamonaviy ta'limda onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'qituvchilar virtual sinflar, guruh chatlari yoki videokonferensiyalar orqali o'quvchilar bilan samarali muloqot qurishlari kerak.

Zamonaviy ta'limdagi ahamiyati

Zamonaviy ta'limda pedagogik qobiliyat va muloqotning ahamiyati quyidagi jihatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish: Samarali muloqot va qobiliyatli o'qituvchi o'quvchilarni o'qishga undaydi. Masalan, o'qituvchi real hayotiy misollar yoki interaktiv usullar orqali darsni qiziqarli qilishi mumkin.

Individual yondashuv: Har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari bor. Pedagogik qobiliyat o'qituvchiga har bir o'quvchiga mos dars uslubini topishga yordam beradi. Masalan, ba'zi o'quvchilar vizual materiallarni, boshqalari esa amaliy mashqlarni afzal ko'radi.

Tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish: Zamonaviy ta'lim faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarda muammolarni hal qilish, ijodiy yondashish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunda o'qituvchining savol-javob uslubi, muhokama usullari va ochiq muloqoti muhim rol o'ynaydi.

Global talablarga moslashish: Bugungi kunda ta’lim global mehnat bozori talablariga javob berishi kerak. O‘qituvchilar o‘quvchilarni 21-asr ko‘nikmalariga (masalan, jamoaviy ish, raqamli savodxonlik, kommunikatsiya) tayyorlashda pedagogik qobiliyat va muloqotdan foydalanadilar.

Darsda interaktivlik: O‘qituvchi darsda o‘yin elementlarini (masalan, quizlar yoki guruh loyihalari) joriy qilib, o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Bu pedagogik muloqotning samarali shakli hisoblanadi.

Onlayn ta’limda muloqot: Zoom yoki Microsoft Teams orqali dars o‘tayotgan o‘qituvchi o‘quvchilar bilan doimiy aloqada bo‘lib, ularning savollariga tezkor javob berishi va virtual muhokamalarni tashkil qilishi mumkin.

Individual yordam: Agar o‘quvchi matematikadan qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qituvchi unga qo‘shimcha mashqlar yoki oddiyroq tushuntirish usullarini taklif qilishi mumkin, bu esa pedagogik qobiliyatning namoyonidir.

Pedagogik qobiliyat va muloqotning zamonaviy talqini an’anaviy o‘qituvchilik modelidan farq qiladi. Endilikda o‘qituvchi bilim manbai emas, balki o‘quvchi faoliyatini yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi shaxs sifatida ko‘rilmoqda.

Interfaol metodlar (debat, rol o‘yinlari, “aqliy hujum”, “fikrlar almashinuvi”) o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni jonlantiradi, ta’limni subyekt-subyekt asosida tashkil etishga yordam beradi.

Pedagogik muloqotda emotsional intellekt, tinglash madaniyati, neverbal vositalar (mimikalar, imo-ishoralar) muhim o‘rin tutadi. Shu bois o‘qituvchining o‘z ustida doimiy ishlashi, refleksiv fikrlashini

rivojlantirishi, har bir muloqotda o'zini tahlil qilishi — kasbiy yuksalishning garovidir.

## Xulosa

Pedagogik qobiliyat va pedagogik muloqot zamonaviy ta'limning ajralmas qismidir. O'qituvchining professional bilimlari, tashkiliy ko'nikmalari va o'quvchilar bilan samarali muloqot qurish qobiliyati ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, o'quvchilarning motivatsiyasini va muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Zamonaviy ta'limda o'qituvchilar nafaqat bilim yetkazuvchi, balki o'quvchilarni ilhomlantiruvchi, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi murabbiy sifatida harakat qilishlari kerak.

Pedagogik qobiliyat va muloqot zamonaviy ta'limning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ular quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirilishi zarur:

Pedagogik psixologiya asosida treninglar — o'qituvchilar uchun kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish kurslarini tashkil etish.

Interfaol metodlardan foydalanish — ta'limda muloqotga asoslangan metodlarni joriy etish.

Refleksiv amaliyot — har bir darsdan so'ng o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi.

Empatiya va etika madaniyati — o'quvchi shaxsini hurmat qilish, insonparvar muloqotni shakllantirish.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yuldashev, Sh. (2023). *Pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

2. To'raqulova, N. (2022). *Pedagogik qobiliyat va zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining roli*. Namangan: NDU.

3. Xo'jayev, D. (2021). *Pedagogik psixologiya: o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlari*. Toshkent: Fan va texnologiya.

4. Sodiqova, R. (2020). *Zamonaviy o'qituvchi shaxsining kommunikativ kompetensiyasi*. Toshkent: TDPU ilmiy axborotlari, №3.

5. Mudrik, A. V. (2020). *Kommunikatsiya i vospitaniye: sotsialno-pedagogicheskiy aspekt*. Moskva: Prosveshcheniye.

6. Kuzmina, N. V. (2016). *Professionalizm pedagogicheskoy deyatelnosti*. Moskva: Znanie.

7. Shirinov, A. (2022). *Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda refleksiya metodining ahamiyati*. O'zbekiston pedagogika jurnali, №5, 27–33.

8. Hasanov, O. (2021). *Ta'lim jarayonida interfaol muloqotning psixologik omillari*. Innovatsion ta'lim jurnali, №4, 60–67.

9. UNESCO. (2023). *Teachers in the Digital Era: Building Competence for 21st Century Learning*. Paris: UNESCO Publishing.

10. OECD. (2022). *Teaching and Learning International Survey (TALIS): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners*. Paris: OECD Publishing.

11. Zaynutdinova, L. (2023). *Pedagogik muloqotda empatiya va ijtimoiy kompetensiyaning ahamiyati*. Ta'lim taraqqiyoti, №6, 14–21.

# O'ZBEK ADABIYOTI VA UNI O'QITISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI

***Shamilova Zuhra***
Namangan davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi
**E-mail:** khusnitdinovnazuhra@gmail.com
**Ilmiy rahbar:** ***Ikramova Muhtaram***,
Namangan davlat pedagogika institutining tayanch doktoranti
**E-mail:** muhtaramikramova@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek adabiyotini o'qitishning zamonaviy usullari va ta'lim jarayonidagi samarali yondashuvlar tahlil qilinadi. Alisher Navoiy, Cho'lpon, Fitrat kabi adiblarning fikrlari hamda zamonaviy metodik adabiyotlar asosida o'quvchilarning adabiyotga qiziqishini oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, UNESCO va OECD xalqaro tajribasi asosida raqamli ta'lim vositalarining ahamiyati ham yoritilgan.

**Annotation:** The article analyzes modern methods of teaching Uzbek literature and effective approaches in the educational process. It highlights the views of writers such as Alisher Navoi, Cho'lpon, and Fitrat, as well as ways to increase students' interest in literature based on contemporary methodological works. In addition, the importance of digital learning tools is examined in the context of UNESCO and OECD international experience.

**Аннотация:** В статье рассматриваются современные методы преподавания узбекской литературы и эффективные подходы в образовательном процессе. Освещаются взгляды таких писателей, как Алишер Навои, Чулпон и Фитрат, а также пути повышения интереса учащихся к литературе на основе современных методических трудов. Кроме того, на основе международного опыта

ЮНЕСКО и ОЭСР раскрывается значение цифровых образовательных средств.

**Kalit so'zlar:** O'zbek adabiyoti, zamonaviy metodika, innovatsion yondashuv, interfaol usul, raqamli ta'lim, ijodiy fikrlash, estetik tarbiya.

**Kirish.** Adabiyot insonning ruhiy dunyosini shakllantiruvchi eng muhim manba hisoblanadi. O'zbek adabiyoti esa xalqimiz tarixiy xotirasi va ma'naviy boyligining ko'zgusidir. Alisher Navoiy "Adab – insonni inson qilur" deya adabning tarbiyaviy kuchini ta'kidlagan (Navoiy, Mahbub ul-qulub, 2019). Fitrat esa "Adabiyot – millat ko'zgusidir" degan (Fitrat, O'zbek adabiyoti tarixi uchun materiallar, 2017). Shuningdek, Cho'lpon "Millatning istiqboli – ilmda, millatning saodati – ma'rifatda" deya ilm va adabiyotning millat kelajagidagi o'rnini ko'rsatgan (Cho'lpon, Kecha va kunduz, 2019). O'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari, milliy ruh, tarixiy va madaniy qadriyatlarni yoritadi. O'qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni qo'llashlari muhim ahamiyatga ega. O'zbek adabiyoti boy madaniyat va tarixga ega, bu uni o'qitishda muhim bo'lgan asosiy yutuqlarni keltirib chiqaradi. Zamonaviy yondashuvlar bilan yaxshi tushuniladi.

**Asosiy qism. Adabiyotning tarbiyaviy o'rni.**

O'zbek adabiyoti yoshlarni milliy qadriyatlar va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Navoiy o'zining "Xamsa" asarida insonparvarlik va muhabbatni ulug'lagan (Navoiy, Xamsa, 2016). Shuningdek, Cho'lpon asarlarida erkinlik va ma'rifat g'oyalari asosiy o'rinni egallaydi.

Bugungi kunda adabiyotni o'qitishda innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutadi. J. Yo'ldoshev interfaol metodlarning samaradorligi haqida shunday deydi: "O'quvchi darsda faol ishtirok etsa, asarni chuqurroq o'zlashtiradi" (Yo'ldoshev, Adabiyot o'qitish metodikasi,

2020). Shu bois "Aqliy hujum", "Debat", "Insert" kabi metodlar keng qoʻllanilmoqda. O. Hasanboyeva esa pedagogik mahorat va innovatsion yondashuvlarni oʻrganar ekan, "Oʻqituvchi darsni nafaqat oʻrgatuvchi, balki ijodiy jarayon rahbari sifatida olib borishi kerak" deya ta'kidlaydi (Hasanboyeva, Pedagogik mahorat va innovatsion metodlar, 2018). Oʻzbek adabiyoti oʻqitishda zamonaviy yondashuvlar yaratilmoqda. Interaktiv metodlar va texnologiyalar yordamida talabalar adabiyotga qiziqishni oshirmoqda. Oʻzbek adabiyoti oʻqitishda zamonaviy yondashuvlar yaratilmoqda. Interaktiv metodlar va texnologiyalar yordamida talabalar adabiyotga qiziqishni oshirmoqda. Natijada, oʻqitish samaradorligi oshadi va yoshlar adabiyotga boʻlgan muhabbatlarini yanada chuqurlashtirmoqda. Bu esa milliy madaniyatni rivojlantirish uchun muhimdir. Zamonaviy yechimlar oʻqituvchilarga innovatsion usullarni qoʻllash imkonini beradi. Virtual darslar va onlayn platformalar uchun adabiyotning qiziqarli shakllari ishlab chiqilmoqda.

**Texnologiyalar va Ta'limni Integratsiya qilish**

UNESCO ta'lim boʻyicha hisobotida "Adabiyotni oʻqitishda raqamli resurslardan foydalanish yoshlarning oʻqishga boʻlgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi" deyiladi (UNESCO, Teaching Literature in the Digital Age, 2021). OECD ham oʻz tadqiqotlarida innovatsion ta'lim resurslarini qoʻllash ta'lim sifatini oshirishini alohida qayd etgan (OECD, Innovating Education and Educating for Innovation, 2016). Oʻzbek adabiyotini zamonaviy texnologiyalar yordamida oʻqitish uzluksiz rivojlanmoqda va talabalarga keng imkoniyatlar ochmoqda. Digital platformalar orqali bilimlar yetkaziladi. Integratsiya qilish esa oʻqitishda innovatsion yechimlar yaratadi, oʻqituvchilar va talabalar uchun yangi interaktiv yondashuvlarni taqdim etadi. Bu davr uchun muhim ahamiyatga ega. Yangi texnologiyalar va ta'lim metodlarini

qo'llash adabiyotni kengroq ommaga yetkazishga va yosh avlodda milliy madaniyatga qiziqishni oshiradi. Bugungi kunda audiokitoblar, elektron darsliklar va onlayn kutubxonalar o'quvchilarga adabiy merosni kengroq o'rganish imkonini bermoqda. Masalan, Navoiy g'azallarini audio shaklda tinglash yoki Cho'lpon she'rlarini video taqdimot orqali tahlil qilish o'quvchilarning estetik zavqini yanada kuchaytiradi.

**Integrativ yondashuv**

Adabiyotni tarix, san'at va falsafa bilan bog'lab o'qitish ham samarali natija beradi. Fitratning "adabiyot millat ko'zgusi" haqidagi fikri ham bu yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. O'zbek adabiyoti va uni o'qitishning zamonaviy usullari yoshlarni adabiyotga qiziqtiradi, interaktiv metodlar o'quv jarayonini jonlantiradi va samaradorligini oshiradi. Interaktiv usullar yordamida o'quvchilar mavzuni chuqur o'zlashtiradi, ijodiy fikrlash imkoniyatlari kengayadi va milliy madaniyatimiz rivojlanishiga turtki bo'ladi. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari bilan adabiyot darslari qiziqarli va tushunarli bo'ladi, bu esa talabalarni faol fikrlashga va yozuvchilarga mehr bilan qarashga undaydi.

**Milliy Madrasa va Kutubxonalar Roli**

Milliy madrasalar va kutubxonalar milliy madaniyatni saqlashda muhim joy tutadi, ular adabiyotni yoshlar orasida ommalashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Yangi pedagogik yondashuvlar va kutubxona texnologiyalari orqali o'qitish jarayoni sifati oshadi, bu esa milliy adabiyotni chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

**Yozma va Og'zaki Ta'lim Resurslari**

Innovatsion metodlar orqali adabiyot shunchaki o'qishdan ko'ra, uni tushunishga va milliy merosni asrab saqlashga qaratilgan ta'limni yaratish muhim. O'zbek adabiyoti va uni o'qitish zamonaviy

texnologiyalar bilan integratsiya qilinmoqda, shuningdek, yozma va og‘zaki ta’lim usullarini rivojlantirish muhimdir. Yozma va og‘zaki ta’lim resurslari yordamida talabalar adabiy asarlarni chuqurroq anglab, madaniyat, tarjima va tarjima madhiyasini rivojlantirish mumkin. Kelajak uchun Innovatsion Yechimlar Onlayn platformalar va interaktiv dasturlar adabiyotni yanada qiziqarli va tushunarli qilmoqda. Zamonaviy yechimlar o‘qituvchilar va talabalar uchun imkoniyatlarni kengaytiradi. O‘zbek adabiyotining zamonaviy o‘qitish usullari innovatsion texnologiyalar bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yoshlar uchun motivatsiya yaratadi.

**Xulosa.**

O‘zbek adabiyotini o‘qitish bugungi ta’lim tizimida nafaqat bilim berish, balki yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashning muhim omilidir. Chunki adabiyot insonni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalaydi, badiiy tafakkurni shakllantiradi, milliy o‘zlikni anglashga yordam beradi. Shu bois adabiyotni o‘qitish jarayonida zamonaviy yondashuvlarga tayanish dolzarb masalaga aylangan.

Klassik adiblarimizning asarlari bugungi o‘quvchilar uchun ham bebaho manba bo‘lib qolmoqda. Navoiy, Cho‘lpon, Fitrat kabi mutafakkirlarning g‘oyalari nafaqat o‘z davrida, balki bugun ham yosh avlodni erkin fikrlashga, milliy qadriyatlarni qadrlashga undaydi. Ularning fikrlarini zamonaviy metodlar orqali tahlil qilish o‘quvchilarni adabiy merosga yaqinlashtiradi.

Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar adabiyot ta’limini yanada mazmunli qiladi. Interfaol metodlar o‘quvchilarni darsda faol ishtirok etishga jalb qiladi, raqamli texnologiyalar esa o‘rganish jarayonini qiziqarli va zamonaviylashtiradi. Loyiha ishlari, guruhiy

topshiriqlar va integrativ yondashuv o'quvchilarda mustaqil tahlil qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xalqaro tajriba ham ko'rsatadiki, adabiyot ta'limida raqamli vositalar va kreativ yondashuvlar natijadorlikni oshiradi. UNESCO va OECD tavsiyalari o'zbek adabiyotini o'qitishda ham samarali qo'llanishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim jarayonida an'anaviy usullar bilan bir qatorda innovatsion yechimlarni uyg'unlashtirish zarur. Umuman, o'zbek adabiyotini o'qitishning zamonaviy yechimlari o'quvchida nafaqat bilim, balki mustaqil fikr, estetik did, ma'naviy yuksaklik va ijodiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, kelajak avlodning intellektual va ma'naviy rivoji uchun eng ishonchli poydevor hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Navoiy A. "Xamsa" Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2016."ISBN:9789943263406
2. Navoiy A. "Mahbub ul-qulub" Toshkent, 2019. ISBN:9789943205710
3. Cho'lpon "Kecha va Kunduz" Toshkent, 2019.ISBN:9789943267770
4. Hasanboyeva O. "Pedagogik mahorat va innovatsion metodlar " Toshkent, 2022. ISBN:5170290896, ISSN:21816833
5. UNESCO. "Teaching Literature in the Digital Age "Paris,2021. ISBN:9786023923298
6. OECD "Innovating Education and Educating for Innovation" Paris, 2016 . ISBN:9780264265080, ISSN:20769679

# AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI O‘QITISH METODIKASI

***Baxromjanova Rayxona Zafar qizi***
Namangan davlat pedagogika isntituti talabasi
**Ilmiy rahbar: *B.A. Tillaev***
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola axborot texnalogiyalarining zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda sun’iy intellekt, tarmoq texnologiyalari, kiberxavfsizlik, dasturiy ta’minot ishlab chiqish va ma’lumotlar bazasi kabi yo‘nalishlar AT ta’limida muhim o‘rin tutadi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются информационные технологии как одна из основных движущих сил развития современного общества. Сегодня такие направления, как искусственный интеллект, сетевые технологии, кибербезопасность, разработка программного обеспечения и баз данных, играют важную роль в ИТ-образовании.

**Abstract:** This article considers information technology as one of the main driving forces of the development of modern society. Today, areas such as artificial intelligence, network technologies, cybersecurity, software development, and databases play an important role in IT education.

**Kalit so‘z:** Axborot texnalogiya, ta’lim, interfaollik, virtual muhit, dasturlar, dasturiy ta’minot.

**Ключевые слова:** Информационные технологии, образование, интерактивность, виртуальная среда, программы, программное обеспечение.

**Keywords:** Information technology, education, interactivity, virtual environment, programs, software.

Axborot texnalogiyalar bo'limini o'qitishning samaradorligi innovatsion metodlar, zamonaviy o'quv vositalari va amaliy mashg'ulotlarga asoslangan yondashuvlar orqali oshirilishi mumkin. Axborot texnologiyalarini o'qitishning metodikasi, ilg'or usullari va samarali ta'lim texnologiyalari tahlil qilinadi.

Informatika darslarida "axborot texnologiyalari" bo'limini o'qitishda quyidagi interfaol metodlarni qo'llash juda samarali bo'lishi mumkin. Bu metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, ularni mustaqil fikrlashga va muammolarni hal qilishga undaydi. Quyidagi metodlar orqali darslarni yanada interaktiv va qiziqarli qilish mumkin:

"Proyektga asoslangan o'qitish (Project-Based Learning)". Bu metodda o'quvchilar real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun guruhlar shaklida ishlaydilar. Masalan, o'quvchilarni axborot texnologiyalaridan foydalanib, o'zlarining kichik web-saytlarini yaratishga yoki ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishga undash mumkin. Bunday faoliyat o'quvchilarga texnologiyalarning amaliy jihatlarini o'rgatadi va ular o'z bilimlarini real loyihalarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi. - "Gamifikatsiya (Gamification)". [1]

Gamifikatsiya – o'quvchilarga axborot texnologiyalarini o'rganishda o'yin elementlarini kiritishdir. Bu metod o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va darslarni qiziqarli qiladi. O'quvchilarni turli darajalarda sinovdan o'tkazish va ball to'plash orqali o'zlarini baholash imkoniyati beriladi.[2]

"Blended Learning (Aralash o'qitish)". Blended learning — bu an'anaviy dars va onlayn o'qitish metodlarining uyg'unlashgan shakli. O'quvchilar o'zlarining kompyuterlarida onlayn kurslar yoki video darsliklarni ko'rib, keyin esa o'qituvchilar bilan amaliy mashg'ulotlar

o'tkazadilar. Bu metod axborot texnologiyalarini o'rgatishda juda samarali bo'lib, o'quvchilarga o'z vaqtida o'rganish imkoniyatini beradi.

"Kollaborativ o'qitish (Collaborative Learning)". Bu metodda o'quvchilar guruhlarga bo'linib, axborot texnologiyalari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun birgalikda ishlaydilar. Ular bir-birlariga bilim ulashadilar va muammolarni birgalikda hal qilishadi. Bu yondashuv o'quvchilarga jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni o'rgatadi.

"Tadqiqot asosida o'qitish (Inquiry-Based Learning)". Tadqiqot asosida o'qitish metodida o'quvchilar o'zlari qiziqtirgan savollarni berishadi va ularni mustaqil ravishda yechish uchun tadqiqotlar o'tkazadilar. Bu metod o'quvchilarning tahlil qilish, izlanish, mantiqiy fikrlash va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

"Virtual laboratoriyalar (Virtual Labs)". Axborot texnologiyalariga oid amaliy mashg'ulotlar va tajribalar uchun virtual laboratoriyalarni yaratish o'quvchilarga nazariy bilimni amaliyotga o'tkazishda yordam beradi. O'quvchilar kompyuter orqali turli virtual vositalarni ishlatib, axborot texnologiyalarini qo'llashda bilimlarini mustahkamlashadi.

"Qisqa va tezkor sinovlar (Quizzes and Polls)". Interfaol sinovlar va so'rovnomalar o'quvchilarning bilimlarini tekshirish va baholash uchun juda samarali vosita bo'lishi mumkin. O'quvchilarga elektron shaklda qisqa testlar yoki savollar taqdim etilib, ular o'z bilimlarini baholaydilar va o'qituvchi bu orqali o'quvchilarning tayyorgarligini kuzatishi mumkin.

"Diskussiya va debatlar (Discussions and Debates)". Axborot texnologiyalarining o'quvchilarga ta'sirini yoki axborot xavfsizligi masalalarini muhokama qilish orqali ularni o'z fikrlarini aniq va

mantiqiy ifodalashga undash mumkin. Bu metod o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ishlashadi, bu esa ularning faolligini oshiradi. O'quvchilar savollarni yechish orqali o'rgangan bilimlarini mustahkamlaydilar va darsni yanada qiziqarli va samarali o'tkazadilar. O'quvchilar faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'rganadilar.

Ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalarni, shu jumladan multimediyali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining interfaol o'zaro aloqalarini ta'minlash, multimediali o'quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo'ladi. Multimedia axborotlarni har xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi. Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. Ta'lim tizimida multimedia texnologiyalari nazariy, amaliy, ko'rgazmali, ma'lumotli, trenajyorli va nazorat qismlarini birlashtirish yo'li bilan o'quvchilarga ijobiy va samarali ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Bundan tashqari ta'lim tizimida multimediali o'quv kurslaridan foydalanish nazariy materiallarning namoyishlarini sifatli video yozuvlari, virtual laboratoriya ishlari va amaliyotlarni, turli jarayonlarning imitasion animasiyali modellarini yaratish imkonini beradi, bu uchun

o'quvchilarning o'quv sinflari, kompyuter sinflari, o'qitishning texnik vositalari xonasida, uslubiy xonalarda, kutubxonalarda amaliy shug'ullanishlarini tashkillashtirish lozim bo'ladi. Ta'lim tizimida foydalaniladigan barcha multimediali o'quv kurslari amaliy tadbiqdan va tajribadan o'tgan bo'lishi bilan birga, o'ziga xos pedagogikpsixologik xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak. Multimediali o'quv kurslarining pedagogik-psixologik xususiyatlari bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun foydalaniladigan o'quv materiallarining tasvirlanish hamda ifodalanish formasiga va ko'rinishiga bog'liq bo'ladi. Ular faqatgina misol va masalalar yechish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish jarayonidagina emas, balki butun o'quv jarayonida o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Ta'lim tizimida yaratilayotgan multimedia o'quv kurslarining asosiy xususiyatlaridan biri, shu mavzuni o'rganishning ma'lum bir nozik jihatlari bilan aniqlanadi, ular esa o'z navbatida katta sondagi ko'rgazmali materiallarni talab qiladi, chunki ularning ishtirokisiz jonli dunyoning turli tumanligini, uni qurishni zarurligini, biologik, ximik va fizika jarayonlarning hosil bo'lish mexanizmini va rivojlanishini to'liq namoyish qilib bo'lmaydi. Ta'lim tizimi uchun multimediali o'quv kurslarini yaratishda shu sohaning asosiy didaktik masalalaridan biri – o'qitishni modellashtirish va tasavvurlash obyektlariga ta'sir qilishning umumiy metodlari muhim o'rinlardan birini egallaydi. Multimedia o'quv kurslarini yaratishda va ulardan foydalanish lokal kompyuter va Internet tarmog'i keng imkoniyatlarni ochib beradi. Multimediali o'quv kurslarini butun dunyo kompyuter tarmog'iga joylashtirilishi, ulardan o'quv jarayoni foydalanishda to'g'ridanto'g'ri murojoat qilish, o'quvchilarga axborotlarni topish, izlash va o'rganish faoliyatini

shakllantirish va kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Xulosa qilib aytganda, multimedia oʻquv kurslarini yaratishda eng avvalo turli dasturiy vositalar bilan yaratiladigan interfaol komponentalarga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Axborot texnologiyalari boʻlimini oʻqitishda amaliyotga yoʻnaltirilgan metodlar, interfaollik va innovatsion texnologiyalar asosiy oʻrin tutadi. Loyiha asosida oʻqitish, gamifikatsiya, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni oʻzlashtirishadi, balki, real muammolarni hal qilish koʻnikmalariga ham ega boʻladilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Sherdil, Tillayev, and Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna. "INFORMATIK AVA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDAN DARSDAN TASHQARI MASHGULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI." PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI 13.02 (2025): 152- 155

2. Турсунова, Луиза Шамсиддинов Гиесжон. "ОБРАЗ ПЕДАГОГА В ИНФОРМАЦИОННОМ МИРЕ." Uz-conferences. No. 1. 2024

3. Shamsiddinov, Gʻiyosjon, Barchin Roʻziqulova, and Laziza Inatillayeva. "BOSHLANGʻICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI." Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования 3.10 (2024): 39-41.

4. Normurodova, Sadoqat, Durdona Zayniddinova, and Shaxina Asadova. "MA'LUMOTLAR BAZASI BOʻLIMINI OʻQITISH METODIKASI." Молодые ученые 3.5 (2025). 130-134.

# YOSHLAR VA EKOLOGIYA: EKOLOGIK ONGNI OSHIRISH VA TABIATNI MUHOFAZA QILISHDA YOSHLARNING ROLI

***Ikromova Tursunoy Abdullajon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: ***B.A.Tillayev***
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarning ekologik ongini shakllantirish va ularni tabiatni asrashga jalb etish masalalari yoritilgan. Bugungi kunda ekologik muammolarni kamaytirish uchun yoshlarning faolligi, mas'uliyati va tashabbusi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ta'lim jarayonida ekologik tarbiyaning o'rni, yoshlarning ekologik loyihalarda ishtiroki hamda ularning tabiatga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish yo'llari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, ekologiya, ekologik ong, tabiat, ekologik tarbiya, mas'uliyat, ekologik muammo.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы формирования экологического сознания молодежи и их участия в защите природы. Подчеркивается значение активности, ответственности и инициативы молодых людей в решении экологических проблем. Также анализируется роль образования в развитии экологической культуры среди молодежи.

**Ключевые слова:** молодежь, экология, экологическое сознание, природа, образование, ответственность, екологическая проблема.

**Annotation:** This article analyzes the formation of environmental awareness among youth and their involvement in nature protection. It emphasizes the importance of youth activity, responsibility, and

initiative in solving ecological issues. The article also discusses the role of education in developing environmental culture and raising ecological consciousness among young people.

**Keywords:** youth, ecology, environmental awareness, nature, education, responsibility, environmental problem.

Bugungi kunda ekologik muammolar dunyo aholisining dolzarb mavzularidan biriga aylanib bormoqda. Dunyo boʻylab aholining koʻpayishi , texnologiyaning jadal sur'atlarda rivojlanishi, ishlab chiqarish korxonalarining ortib borishi natijasida atrof-muhitga salbiy ta'sir koʻrsatmoqda. Shu sababli atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash har bir insonning, ayniqsa, yoshlarning zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yoshlar jamiyatda har sohada eng faol va tashabbuskor qatlam hisoblanadi. Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishda ham muhim rol oʻynaydi. Ular texnologiyalardan yaxshi foydalanadigan va jamiyatdagi oʻgarishlarga tez moslasha oladigan avlod sanaladi.

Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Buning uchun jamiyatda axloqiy-ekologik ongni shakllantirish va zamonaviy bilimlarni oʻzlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi boʻlish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak".[1]

Yu.Sh. Shodimetov «Ijtimoiy ekologiyaga kirish» kitobida shaxsning ekologik madaniyati, ya'ni atrof tabiiy muhitga amaliy ongli munosabatini shakllantirish masalalarini oʻrgangan. Muallif turli yosh davrlarida ekologik ongni rivojlantirish xususiyatlarini tahlil qilib, «oʻrta maktab yoshida shaxs sogʻlom turmush tarzini shakllantirish va saqlab borish, inson bioijtimoiy tabiatining yaxlitligini, uning atrof olam bilan oʻzaro bogʻliqligini, tabiatning tizimliliga va biosferaning yashash uchun

yaroqli sifatlardan mahrum bo'lishining xavfligini tushunish negizida ekologik jihatdan maqsadga muvofiq faoliyat olib borish bo'yicha bilim, ko'nikma va mahorat, asos hamda ijtimoiy yo'l-yo'riq kasb etadi» deb yozadi.[2]

Ye.B. Aydarov o'zining "O'quvchi yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish» maqolasida yoshlar ma'naviy-ahloqiy qiyofasining ekologik madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi: «Bugungi kunda o'quvchi yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi asosan ularning ekologik bilim darajasi, tabiatni asrash va muhofaza qilishga bag'ishlangan dunyoqarashi va tafakkur doirasining kengligi asosida ekologik madaniyati shakllanadi. O'quvchi yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlari asosan inson shaxsining ruhiy-ma'naviy-axloqiy va ekologik tarbiya jihatlarini ham o'z ichiga oladi".[3]

K. Yunusov "Sotsiologiya" darsligida o'rta maktabning yuqori sinflari o'quvchilarini ekologik tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, "O'rta maktabning yuqori sinflari yoshlarning maktab ta'limi va tarbiyasi siklini yakunlaydi, o'rta maktabni bitiruvchilarning ko'pchiligi mehnat faoliyatini boshlab yuboradi, ular o'quv sinflariga qaytishsa, bu vaqtinchalik bo'lib, o'quv faoliyati ular uchun asosiy kuch sarflaydigan soha bo'lmay qoladi. Shuning uchun yoshlarni faol mehnat faoliyatiga tayyorlash, shu jumladan ularning ekologik ta'lim-tarbiyasi uchun alohida mas'uliyat o'rta maktablarining yuqori sinflari zimmasidadir"[4]

Ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyatni shakllantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Ekologik madaniyatning pedagogik asoslari va uni shakllantirish metodikasi Y.B. Aydarov, Z. Abdullaev, Y.Sh. Shodimetov, K. Yunusov, T. Djarlepesov kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.  Z. Abdullaev "Ekologik

munosabatlar va ekologik ong" asarida ekologik ong va dunyoqarashning shakllanish jarayonini tahlil qilib, "agar dunyoqarash insonning dunyoga, o'ziga va o'zining atrof muhit bilan munosabatlariga qarashli bo'lsa, endigi dunyoqarash insonning, atrof dunyoning, bir so'z bilan aytganda "olam-inson" tizimining yaxlitligini tushunish yo'nalishida qayta ko'rib chiqishni shartlab qo'yadi" deb ta'kidlaydi.[5]

**Xulosa:** Mening fikrimcha, tabiatni asrash har bir insonning muqaddas burchidir. Atrof-muhit himoyasida nafaqat hozirgi, balki kelajak avlod ham munosib hissa qo'shishi hamda ekologik volontyorlik jamoalarida faol bo'lishi lozim . Shunday ekan har kim inson o'z hayotida kichik bo'lsa ham tabiatga foydali ish qilsa, Yer sayyorasi yanada go'zal va sog'lom bo'ladi. Shunday ekan, tabiatni asrashni o'zimizdan boshlaylik!

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild. -Toshkent: 2020. O'zbekiston. -B. 387.

2. Tilbury D. Environmental Education for Sustainability: Defining the New Focus of Environmental Education in the 1990s // Environmental Education Research. - 2017. - №1. -P.195-212.

3. Ye.B. Aydarov O'quvchi yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish. Zamonaviy ta'lim / sovremennoe obrazovanie, 2019, 8(81). -B.65.

4. Stapp W., et al. The Concept of Environmental Education // Journal of Environmental Education. - 2018. - №1. - P.30-31.

5. Эpгамeв A3., Pydenko I., DavleTov C. Ocnovbi эkologii. — TamkenT: YzbekicTon, 1996. — C. 13—23.

# O'QUV-TARBIYA ISHLARINI TASHKIL ETISHDA INTERNETDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

***Yusupova Feruza Yunus qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1- bosqich talabasi
**Ilmiy rahbar: B.A.Tillayev**
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda internet texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. O'quv-tarbiya ishlarini samarali tashkil etishda internetning imkoniyatlari kengayib, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yangi o'quv va tarbiyaviy usullarni taqdim etmoqda. Ushbu ishda internetning o'quv-tarbiya jarayonida qanday foydalanilishi va uning ta'lim sifatini qanday oshirishi masalasi ko'rib chiqiladi. Internetning onlayn ta'lim platformalari, elektron kitoblar, video darslar, interaktiv resurslar va onlayn forumlar kabi vositalar orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni yanada qiziqarli, samarali va erkin bo'ladi. Ushbu texnologiyalar, shuningdek, o'qituvchilarga ta'lim jarayonini individual tarzda boshqarish va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Maqola, shuningdek, internetdan foydalanishning pedagogik afzalliklarini va uning ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarga ta'sirini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** O'quv-tarbiya ishlari, internet texnologiyalari, onlayn ta'lim, elektron resurslar, interaktiv ta'lim, ta'lim samaradorligi, pedagogik yondashuv, ta'lim platformalari, o'quvchilarni baholash, masofaviy ta'lim, ta'limda innovatsiyalar.

**Аннотация:** в настоящее время развитие интернет-технологий кардинально меняет систему образования. Возможности интернета в

организации учебно-воспитательного процесса расширяются, предлагая учащимся и преподавателям новые методы обучения и воспитания. В данной работе рассматривается, как интернет используется в учебно-воспитательном процессе и каким образом он может улучшить качество образования. С помощью таких инструментов, как онлайн-платформы для обучения, электронные книги, видеоуроки, интерактивные ресурсы и онлайн-форумы, процесс получения знаний становится более интересным, эффективным и свободным. Эти технологии также предоставляют преподавателям возможность индивидуально управлять процессом обучения и анализировать уровень усвоения материала учащимися. Статья также показывает педагогические преимущества использования интернета и его влияние на изменения в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** Учебно-воспитательная работа, интернет-технологии, онлайн-образование, электронные ресурсы, интерактивное обучение, эффективность образования, педагогический подход, образовательные платформы, оценка учащихся, дистанционное обучение, инновации в образовании.

**Annotation:** Currently, the development of internet technologies is radically changing the education system. The opportunities of the internet in organizing educational and instructional activities are expanding, offering students and teachers new methods of learning and teaching. This work discusses how the internet is used in the educational process and how it can improve the quality of education. Through tools such as online learning platforms, e-books, video lessons, interactive resources, and online forums, the process of acquiring knowledge becomes more engaging, effective, and flexible. These technologies also

provide teachers with the opportunity to manage the learning process individually and analyze students' understanding of the material. The article also demonstrates the pedagogical advantages of using the internet and its impact on changes in the educational process.

**Keywords**: Educational and upbringing work, internet technologies, online education, electronic resources, interactive education, education effectiveness, pedagogical approach, education platforms, student assessment, distance education, innovations in education.

Zamonaviy ta'lim tizimi dunyodagi texnologik o'zgarishlarga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Internetning keng tarqalishi va uning ta'lim jarayoniga ta'siri o'quv-tarbiya ishlarining sifatini oshirishga katta imkoniyatlar yaratdi. Ta'limda internet texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o'quvchilarga bilim olishda yordam berib, balki o'qituvchilarga darslarni samarali tashkil etish, interaktivlikni oshirish va o'quvchilar bilan aloqada bo'lishda yangicha yondashuvlarni kiritdi.

Internet orqali ta'limning masofaviy va interaktiv shakllari ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida yanada rivojlantirishga imkon yaratdi. Onlayn ta'lim platformalari, elektron resurslar, video darslar, forumlar va boshqa internet vositalari o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash, yangi ma'lumotlar olish va o'qish jarayonida ko'proq erkinlikka ega bo'lish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shu bilan birga, o'qituvchilarga darslarni individual va differentsial tarzda o'tkazish imkoniyatlari yaratiladi, bu esa o'quvchilarning bilim darajasini aniq tahlil qilish va har bir o'quvchining ehtiyojiga mos ta'lim berish imkonini beradi. Ushbu jarayonda internet texnologiyalarining o'rni va ahamiyati haqida chuqurroq tahlil qilish maqsadida, ushbu ishda internetning

o'quv-tarbiya jarayonidagi roli va uning samaradorligi ko'rib chiqiladi.[1]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda internetdan foydalanishning samaradorligini o'rganish maqsadida quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi:

Tadqiqotning metodologiyasi o'quv-tarbiya jarayonida internet texnologiyalarining samaradorligini o'rganishga, uning pedagogik afzalliklari va cheklovlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, bu metodlar ta'lim tizimida internet texnologiyalarining integratsiyasini yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi.

O'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda internetdan foydalanish masalasi hozirgi kunda ko'plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda yoritilmoqda. Internetning ta'lim jarayoniga ta'siri haqidagi ilmiy tahlillar, asosan, uning o'quvchilarning motivatsiyasi, bilim olish usullari, ta'lim samaradorligi va pedagogik uslublarga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.[2]

**1. Internetning ta'lim jarayonidagi roli.** Internet texnologiyalari ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratdi. Finkel (2020) o'zining "Onlayn ta'limning afzalliklari" nomli maqolasida onlayn ta'limning shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni ta'minlashda ahamiyatini ta'kidlaydi. U onlayn resurslar yordamida o'quvchilar o'z vaqtini va resurslarini boshqarishda erkinlikka ega bo'lishini, natijada, ta'lim sifatini oshirishini ko'rsatadi. Shuningdek, o'qituvchilar uchun ham yangi pedagogik yondashuvlar, masofaviy o'qish va individual ta'lim usullari samarali ishlashini ta'kidlagan.[3]

**2. Elektron ta'lim va interaktiv resurslar.** Yang (2019) o'z tadqiqotida elektron ta'lim platformalarining o'quvchilarga qanday yordam berishini tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, internet orqali ta'lim

olish imkoniyatlari nafaqat bilim olishni osonlashtiradi, balki o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga ham katta turtki beradi. Masalan, videodarslar, interaktiv mashqlar va onlayn testlar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Bu turdagi resurslar o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faolliklarini oshiradi va ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.[4]

**3. Masofaviy ta’lim va o‘quvchilarning motivatsiyasi.** Choi (2021) o‘zining tadqiqotida masofaviy ta’limning o‘quvchilarning motivatsiyasiga ta’sirini o‘rganadi. Tadqiqotda masofaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarning o‘z vaqtida o‘qish va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatlarini oshiradi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini baholash va o‘zlashtirishda mustaqilliklarini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, masofaviy ta’limda o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan aloqasi va motivatsion faoliyatlari alohida ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan.[5]

**4. Internet va interaktiv o‘quv materiallari.** Internetdan foydalanishning boshqa bir jihati, o‘quvchilarga interaktiv o‘quv materiallarini taqdim etishdir. Harms (2018) o‘z maqolasida interaktiv dasturlar va o‘quv ilovalarining ta’limdagi o‘rnini tahlil qiladi. U, interaktiv o‘quv resurslari yordamida o‘quvchilarni faollashtirish, ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va o‘zlashtirish jarayonini qulaylashtirish mumkinligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, interaktiv resurslar o‘quvchilarga xatolarini tezda tuzatish va bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi.[6]

**5. Onlayn resurslarning pedagogik afzalliklari.** Pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan, internet texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni haqida o‘z fikrlarini bildirgan tadqiqotchilar orasida Zhai (2022) o‘zining maqolasida, internetning o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga

bo'lgan ta'sirini o'rgangan. U onlayn ta'limning o'quvchilarni kreativ fikrlashga, mustaqil qarorlar qabul qilishga va kooperativ ishlarni bajarishga undashini qayd etadi. Bu esa, ta'lim jarayonida internetning pedagogik foydaliligini isbotlaydi.[7]

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, internet texnologiyalaridan foydalanish o'quv-tarbiya jarayonida samarali vosita bo'lib, o'quvchilarning bilim olish jarayonini engillashtiradi va motivatsiyasini oshiradi. Internetning ta'limda qo'llanilishi nafaqat o'quvchilar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv va masofaviy ta'lim usullari o'quvchilarning bilim darajasi va ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

**Natija:** Tadqiqotning asosiy maqsadi o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda internet texnologiyalarining ahamiyatini va samaradorligini aniqlash edi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, internetning ta'lim jarayonidagi roli har jihatdan ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

**1. O'quvchilarning motivatsiyasi oshadi.** Internet texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonida motivatsiyalarini kuchaytiradi. Onlayn ta'lim platformalari, video darslar va interaktiv mashqlar o'quvchilarga o'z bilimlarini yanada mustahkamlash imkoniyatini beradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'qish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

**2. Shaxsiylashtirilgan ta'lim.** Internet orqali ta'limning asosiy afzalliklaridan biri – bu shaxsiylashtirilgan o'qish imkoniyatini yaratishdir. O'quvchilar turli o'quv resurslari va platformalar orqali o'ziga mos o'qish tempini tanlashlari mumkin. Bu metod nafaqat

o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi, balki ularning bilim olishda erkinligini ta'minlaydi.

**3. Interaktiv ta'lim usullari samaradorligi.** Interaktiv o'quv materiallari (video darslar, o'yinlar, testlar) yordamida ta'lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi. O'quvchilar amaliy mashqlar va interaktiv tahlillar orqali o'z bilimlarini mustahkamlashadi va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishni osonlashtiradilar. Shu tarzda, o'quvchilar faollashib, o'qish jarayonida yanada ko'proq ishtirok etadilar.

**4. Masofaviy ta'limning o'quvchilarga ta'siri.** Masofaviy ta'limning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga bo'lgan ta'siri ijobiy bo'lgan. Bu usul, ayniqsa, o'quvchilarga o'z vaqtini boshqarish imkoniyatini yaratib, ular mustaqil ravishda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masofaviy ta'limning keng tarqalishi o'quvchilarga ko'proq qulayliklar yaratdi, ayniqsa chekka hududlarda yoki maxsus ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun.[8]

**5. O'qituvchilar uchun imkoniyatlar.** O'qituvchilar uchun internet resurslari va onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish ta'lim jarayonini boshqarishni osonlashtiradi. Ular o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqroq baholash, individual yondashuvlar va maxsus materiallar taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, internet orqali o'qituvchilar bir-birlari bilan tajriba almashish va pedagogik yangiliklar haqida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**6. Internet texnologiyalarining pedagogik afzalliklari.** Internet texnologiyalarining pedagogik jihatdan afzalliklari aniq ko'rinmoqda. Ularning yordamida o'quvchilarni kreativ fikrlashga, o'z-o'zini boshqarishga va mustaqil o'qishga undash mumkin. Internetning o'quv-tarbiya jarayoniga kiritilishi, ta'lim jarayonini yanada

zamonaviylashtirishga va uni individual tarzda boshqarish imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi.[9]

Internet texnologiyalarining o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda qo'llanilishi ta'lim jarayonini samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. Onlayn ta'lim platformalari, interaktiv resurslar va masofaviy o'qish imkoniyatlari o'quvchilarning bilim olish jarayonini engillashtiradi va o'qish motivatsiyasini oshiradi. O'qituvchilar uchun ham yangi pedagogik usullarni qo'llash imkoniyatlari yaratiladi, bu esa ta'lim sifatini yanada oshiradi. Shu sababli, internet texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishini yanada kengaytirish va uni doimiy ravishda rivojlantirish muhimdir.

Internetning o'quv tarbiya ishlarida qo'llanilishi, albatta, ta'lim tizimini yanada samarali va qulayroq qilishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda texnologiyalar ta'limga chuqur kirib bormoqda, va bu jarayon o'quvchilarni o'qitishning yangi metodlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Internetda mavjud bo'lgan turli resurslar, interaktiv vositalar va onlayn platformalar ta'limning yangi shakllarini keltirib chiqarmoqda.

Biroq, internetdan to'g'ri foydalanish ham muhim. Agar o'quvchilar faqat internetga tayanib qolsa, ular an'anaviy ta'lim metodlaridan chetga chiqishi mumkin. O'qituvchilar internetda mavjud materiallarni tanlab, sifatli va samarali darslar yaratishlari kerak. Shuningdek, internetning salbiy ta'sirlari — vaqtni behuda o'tkazish, noto'g'ri manbalardan foydalanish va axborot xatoliklari — ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Internetda o'qish va o'qitish jarayonining samarali bo'lishi uchun o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik, aniq maqsadlar va rejalashtirilgan strategiyalar zarur. Shuning uchun, internetning

imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun o'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari va ta'lim jarayonini zamon talablariga moslashtirishlari kerak.

Umuman olganda, internet o'quv tarbiyaga yangi imkoniyatlar yaratib, ta'limni kengaytirish va uni yanada interaktiv qilishga xizmat qiladi. Faqat uning samarali va ongli foydalanilishi ta'lim sifatini oshirishi mumkin. O'quv tarbiya ishlarini tashkil etishda internetdan foydalanish bugungi kunda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Internetning imkoniyatlari o'quvchilarga yanada samarali va qiziqarli o'quv jarayonini ta'minlashda yordam beradi. Quyidagi usullar orqali internetdan foydalanish mumkin:

**1. Resurslardan foydalanish:** Internetda turli o'quv resurslari mavjud. Bu o'quv materiallari, videodarslar, bilimlarni mustahkamlash uchun testlar va amaliy mashg'ulotlar bo'lishi mumkin. O'quvchilar bu resurslar orqali o'z bilimlarini mustahkamlashlari va kengaytirishlari mumkin.

**2. Onlayn darslar va kurslar:** Internet orqali masofaviy ta'limni tashkil etish imkoniyati mavjud. Onlayn darslar va interaktiv kurslar orqali o'quvchilar o'zlari uchun qulay va mos vaqtni tanlab ta'lim olishlari mumkin.

**3. Forumlar va bloglar:** O'quvchilar bilim olish jarayonida o'z fikrlarini forumlar va bloglarda baham ko'rishlari, savollar berishlari va turli mavzularda muhokama qilishlari mumkin. Bu o'zaro tajriba almashish va bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

**4. Pedagogik platformalar:** O'quvchilar va o'qituvchilar uchun maxsus platformalar, masalan, Google Classroom, Moodle va boshqa tizimlar orqali darslarni boshqarish, o'quv jarayonini kuzatish, baholash va qo'llab-quvvatlash amalga oshiriladi.

**5. Interaktiv vositalar:** O'qituvchilar o'quvchilarni interaktiv vositalar orqali ta'limga jalb qilishlari mumkin. Bu online kvizlar, videokonferensiyalar, virtual laboratoriyalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Bular yordamida o'quvchilar darslarga yanada faolroq qatnashishadi.

**6. Mahalliy va global axborot tarmoqlari:** Internet orqali o'quvchilar global va mahalliy yangiliklardan xabardor bo'lishlari, ilmiy va madaniy tadbirlar haqida ma'lumot olishlari mumkin. Bu ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Umuman olganda, internet o'quv tarbiya ishlarini samarali va innovatsion shaklda tashkil etish imkonini beradi.[10]

**Xulosa.** Internet o'quv tarbiya ishlarini tashkil etishda katta imkoniyatlar yaratadi. U o'quvchilarga bilim olishda yanada kengroq resurslarga erishish, interaktiv usullar orqali o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilish, masofaviy ta'limni amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, internet ta'lim jarayonini global miqyosda kengaytirish, yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish va o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratadi.

Biroq, internetdan foydalanishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Aksariyat o'quvchilar, ayniqsa yosh guruhlaridagi o'quvchilar, internetdagi axborotlarni tanqidiy tahlil qilishni o'rganishlari zarur. Bundan tashqari, o'qituvchilar internetning salbiy ta'sirlarini bartaraf etish va o'quvchilarga internetni samarali va maqsadga muvofiq ishlatish bo'yicha ko'nikmalarni o'rgatishlari kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ахмедов А. **"Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar"** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

2. Савченко А. П. **"Информационные технологии в образовании"** – Москва: Академия, 2020.

3. Axmedova D. **"O'quv jarayonida internet resurslaridan foydalanish imkoniyatlari"** – O'zMU Ilmiy jurnali, 2022.

4. Hasanov B. **"Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri"** – Pedagogika va psixologiya jurnali, 2021.

5. Alimov U. **"Masofaviy ta'limning zamonaviy shakllari va ularning samaradorligi"** – Innovatsion ta'lim tadqiqotlari, 2020.

6. Normurodova, S. X., et al. "Using mind maps in formation of imagination and creative thinking skills in 5-6 year-old children." European Journal of Molecular and Clinical Medicine 7.11 (2020): 339-343.

7. Нормуродова, Садокат. "РАЗВИТИЕ ВООБРАЖЕНИЯ И НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ 1-ГО КЛАССА ПРИ ОБУЧЕНИИ АЛФАВИТУ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММЫ SCRATCH." Предпринимательства и педагогика 3.3 (2024): 144-150.

8. Ganiev, A. G. "others. The role of travel lessons in the Shahrisabz Zoo in teaching foreign languages and developing their imagination to pupils of preschool educational institutions. International scientific and practical conference."Kazakhstan. Pavladar (2020): 249-251.

9. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. "Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies." Academicia Globe 2.04 (2021): 206-211.

10. Maxmudjonovna, Yaxiyaxonova Muhiba. "Developing full-fledged thinking skills in firstgraders through the perception of the

“surrounding world” (using the example of a Mind Map). "Czech Journal of Multidisciplinary Innovations 35 (2024): 31-37.

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI

***Yo‘ldosheva Umida Xusniddin qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi
**Tel**: +998507238808

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirishning asosiy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Ekologik tarbiyaning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi muhim ahamiyati yoritilgan. Tabiatni kuzatish, ekologik o‘yinlar, tabiat qo‘ynida mehnat qilish, badiiy-estetik faoliyat va loyiha ishlari orqali bolalar bilan olib boriladigan ish mazmuniga alohida e’tibor qaratilgan. Quyidagi asosiy yo‘nalishlar belgilangan: atrof-muhitga nisbatan qiziqishni rivojlantirish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish, hissiy ta’sirchanlik va tirik tabiat uchun mas’uliyatni tarbiyalash. Muallif ekologik tarbiyada tizimli yondashuv va pedagoglar bilan ota-onalar hamkorligining ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.

**Annotation:** This article analyzes the key aspects of forming the foundations of ecological culture in preschool children. It highlights the importance of environmental education in the comprehensive development of a child’s personality. Special attention is given to activities such as observing nature, ecological games, working in nature, artistic-aesthetic activities, and project-based tasks. The following

priority areas are identified: developing interest in the environment, fostering a careful attitude toward nature, nurturing emotional sensitivity, and instilling a sense of responsibility for living nature. The author emphasizes the significance of a systematic approach in ecological education and the importance of collaboration between educators and parents.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы ключевые аспекты формирования основ экологической культуры у детей дошкольного возраста. Освещается важность экологического воспитания в всестороннем развитии личности ребёнка. Особое внимание уделено таким видам деятельности, как наблюдение за природой, экологические игры, труд в природной среде, художественно-эстетическая деятельность и проектные работы. Выделены следующие приоритетные направления: развитие интереса к окружающей среде, формирование бережного отношения к природе, воспитание эмоциональной восприимчивости и чувства ответственности за живую природу. Автор подчёркивает значение системного подхода в экологическом воспитании и важность сотрудничества педагогов с родителями.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiya, ekologik kompetensiya, ekologik tarbiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, ekologik ong, barqaror xatti-harakatlar.

**Keywords:** Competence, ecological competence, environmental education, preschool children, ecological consciousness, sustainable behavior

**Ключевые слова:** Компетенция, экологическая компетенция, экологическое воспитание, дети дошкольного возраста, экологическое сознание, устойчивое поведение.

**Kirish:** Ekologik madaniyat asoslarini shakllantirish bugungi kunda maktabgacha ta’limning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Aynan shu yoshda bolalarda atrof-muhit to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlar, tabiatga nisbatan ongli va ehtiyotkor munosabat shakllana boshlaydi, bu esa kelgusida ekologik savodxonlikka asos bo‘ladi. Ekologik tarbiya bolalarning kundalik hayotida va mashg‘ulotlar orqali bolalar bog‘chasining umumiy pedagogik jarayonida amalga oshiriladi.

**Asosiy qism:** Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish – bu bolaning tabiatga nisbatan ijobiy munosabatini, ekologik ongini va barqaror xatti-harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz tarbiyaviy jarayon hisoblanadi. Ushbu yoshda tabiat bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish, hissiy-estetik kechinmalar orqali ekologik qadriyatlarni singdirish o‘ta samarali hisoblanadi.

**Pedagoglarning bolalarga ekologik tarbiya berishdagi vazifalari quyidagilardan iborat:**

**1. Biologik tasavvurlarni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish:**

Yer yuzida hayot paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan tanishtirish (mikroorganizmlar, o‘simliklar, hayvonlarning xilma-xilligi, yashash muhiti va h.k.);

Bilimlarni bolalarga tushunarli shaklda yetkazish;

Tabiatga ijobiy munosabatni shakllantirish.

**2. Ekologik ongni rivojlantirishga sharoit yaratish:**

- Jonli va jonsiz tabiat vakillari bilan tanishtirish;
- Tabiat obyektlarining o‘zaro aloqadorligini tushuntirish;
- Inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashga yordam berish;

- Atrof-muhit ifloslanishi muammosi, xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish;
- Tabiatga ehtiyotkorlik va javobgarlikni rivojlantirish.

**Ekologik tarbiyaning mazmuni:**

Ekologik tarbiya mazmuni ekologiyaning asosiy g'oyalari (bioekologiya, inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya) asosida tuziladi. Faniy tushunchalar bolalar psixologik va pedagogik xususiyatlariga moslashtirilgan holda quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- Moslashuvchanlikka ega bo'lgan tabiat obyektlari (o'simlik, hayvon)dan foydalanish;
- Ekologik rivojlantiruvchi muhit yaratish – ya'ni o'simliklar, hayvonlar, kuzatish uchun qulay sharoitlar yaratish.

Bu yondashuv maktabdagi tabiiy fanlarni o'rgatishdan farq qiladi va unga tayyorlov bosqichi sifatida qaraladi.

**Ekologik tarbiyada muhitning ahamiyati:**

Maktabgacha ta'lim muassasasi hududidagi tabiiy muhit (guruh ichidagi tabiat burchaklari, yaxshi tashkil etilgan ochiq maydon) bolalarga tabiat bilan bevosita muloqot qilish imkonini beradi. Bu:

- Tabiat hodisalarini tizimli ravishda kuzatish;
- Muntazam mehnat faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining ichki va tashqi muhitini ekologik jihatdan boyitish bolalarning kuzatuvchanligini, mustaqil fikrlashini va hissiy-estetik dunyoqarashini rivojlantiradi. Guruh xonalarida tashkil etilgan **"tabiat burchaklari"** orqali o'simlik va hayvonlarga doimiy g'amxo'rlik qilish, ularni parvarishlash, harorat va yorug'likni nazorat qilish orqali bolalar muayyan ekologik mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga o'rganadilar.

Tashqi hududda tashkil etilgan **mini bog'lar**, **ekologik so'qmoqlar**, **kichik issiqxonalar** bolalarning amaliy ekologik faoliyatga faol jalb qilinishiga xizmat qiladi. Tabiiy muhitda bolalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

- o'simlik va hayvonot olamining xilma-xilligini tanib olish;
- tabiatda yuz beradigan o'zgarishlarni (fasllarning almashinuvi, ob-havo hodisalari) kuzatish;
- ekologik muammolarni (chiqindilar, ifloslanish, suv tanqisligi va boshqalar) sodda tilda anglash va ularga nisbatan hissiy munosabat bildirish.

Bunday faoliyatlar ekologik ong va madaniyatning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolalarda ijtimoiy mas'uliyat, rahmdillik, ehtiyotkorlik, hamkorlik kabi ijobiy insoniy fazilatlarni ham rivojlantiradi.

**Pedagog va ota-onalar hamkorligi**: Ekologik tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan pedagog va ota-onalar o'rtasidagi tizimli hamkorlikka bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim muassasasi ekologik faoliyatni yo'lga qo'ygan taqdirda ham, bola oilasida bu qadriyatlar mustahkamlanmasa, kutilgan natijaga erishish qiyin bo'ladi. Shu bois, tarbiyachilar:

- ota-onalar uchun ekologik mavzulardagi seminar-treninglar o'tkazishlari;
- bolalar bilan birgalikda o'tkaziladigan ekologik tadbirlar (ekosayllar, daraxt ekish aksiyalari, chiqindi yig'ish tashabbuslari)da ularni faol ishtirok etishga jalb etishlari;
- ekologik odatlarni kundalik hayotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar berishlari zarur.

Oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi uzviylik bolada tabiatga nisbatan barqaror munosabat va mustahkam hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik madaniyat shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olish zarur:

1. **Yoshga mos yondashuv** – bolalarning rivojlanish darajasi, bilish qobiliyati va psixologik xususiyatlariga mos metodlardan foydalanish;
2. **O‘yin asosida o‘rgatish** – ekologik mazmunga ega rolli, didaktik, harakatli o‘yinlar orqali bilim va ko‘nikmalarni singdirish;
3. **Interfaol metodlar** – suhbatlar, tajribalar, munozaralar, loyiha ishlarini qo‘llash orqali bolalarda tanqidiy va ekologik fikrlashni shakllantirish;
4. **Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim** – har bir bolaning qiziqishi va individualligini inobatga olgan holda, differensial yondashuv asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish;
5. **Tabiat bilan bevosita muloqot** – ekskursiyalar, sayrlar, tabiatda kuzatishlar olib borish orqali real hayotiy tajriba berish.

Ushbu shart-sharoitlar mavjud bo‘lsa, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni nafaqat samarali, balki bolalar uchun qiziqarli, mazmunli va hayotga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan ko‘nikmalarga boy bo‘ladi.

**Xulosa**: Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish ularning shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Ekologik ong, hissiy sezgirlik, barqaror xatti-

harakatlar va ijtimoiy mas'uliyat kabi jihatlar aynan erta bolalik davrida shakllanishi bilan ahamiyatlidir. Tabiat bilan bevosita muloqot, o'yinlar, estetik faoliyatlar va loyiha asosida ta'lim berish orqali bolalarda ekologik qadriyatlar samarali tarzda singdiriladi.Bunda pedagoglar va ota-onalarning faol hamkorligi, ekologik muhitning mavjudligi, shuningdek, yoshga mos, interfaol yondashuvlarning qo'llanilishi ushbu jarayonning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir. Maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiyani tizimli va izchil tashkil etish orqali ekologik ongli, tabiatga mas'uliyat bilan qaraydigan avlodni voyaga yetkazish imkoniyati yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimova, R. (2020). *Ekologik tarbiyaning psixologik asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.

2. Nishonova, S. (2019). *Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya metodikasi*. Samarqand.

3. UNESCO. (2017). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris.

4. Мамедов, Н.М. (2008). *Экологическая культура: человек, общество, природа*. Москва: Мысль.

5. Tadjibayeva, M. (2022). O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiyaning dolzarb masalalari. *Ilmiy-amaliy jurnal*, 2.

# AMIR TEMUR DAVRIDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI

***Murodillayeva Jumagul Xakimjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Tarix yo‘nalish talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk sarkarda Amir Temur davrida o‘zbek davlatchiligining yuksalishi haqida bir qancha beqiyos o‘rni xususida fikr yuritilgan. Temuriylar sulolasining nafaqat hozirgi O‘zbekiston, balki butun Yevroosiyo hududlarini o‘z ichiga olgan ulkan va qudratli davlatni tuzishga muvaffaq bo‘lganligi, shuningdek, Amir Temur, uning avlodlari Mirzo Ulug‘bek, Boysung‘ur Mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo kabi shoh va shahzodalar, temuriy malikalar Temuriylar ma’naviyati poydevorini o‘zlarining ilm-ma’rifatga bo‘lgan hurmati tufayli mustahkamlab borib, bu yo‘lda o‘z hisoblaridan ko‘plab qurilishlar va tashkiliy-moliyaviy ishlarni amalga oshirganliklari e’tirof etilgan.

**Аннотация:** В данной статье возникновение узбекской государственности во времена великого лидера Амира Темура рассматривается с точки зрения нескольких уникальных аспектов. Дело в том, что династии Тимуридов удалось создать огромное и мощное государство, включавшее в себя не только современный Узбекистан, но и весь Евразийский регион, а также Амира Темура, его потомков Мирзо Улугбека, Бойсунгура Мирзо, Хусейна Бойгаро, Бабура Мирзо Ита. признается, что цари и князья, тимуридские принцессы своим уважением к науке и образованию укрепили основы духовности Тимуридов и, таким образом, провели за свой счет многие строительные и организационные и финансовые работы.

**Abstract:** In this article, the rise of Uzbek statehood during the time of the great leader Amir Temur is discussed in terms of several unique aspects. The fact that the Timurid dynasty managed to create a huge and powerful state that included not only present-day Uzbekistan, but also the entire Eurasian region, as well as Amir Temur, his descendants Mirzo Ulugbek, Boysungur Mirzo, Husayn Boygaro, Babur Mirzo It is acknowledged that the kings and princes, the Timurid princesses strengthened the foundation of the spirituality of the Timurids due to their respect for science and education, and in this way, they carried out many constructions and organizational and financial works at their own expense.

**Kalit so'zlar:** ta'lim islohotlari, Movarounnahr, faoliyat, Toshkent, Samarqand, Dehqonchilik madaniyati, "Temur tuzuklari"

**Ключевые слова:** образовательные реформы, Моваруннахр, деятельность, Ташкент, Самарканд, Земледельческая культура, «Правила Темура».

**Key words:** educational reforms, Movarounnahr, activity, Tashkent, Samarkand, Farming culture, "Temur's rules"

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 1-oktabr Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan yo'llagan tabriklarida "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmunmohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak", deb ta'kidladilar.

Tarixda o'z makoni va zamoni bilan shunday voqealar va insonlar bo'ladiki, ular jamiyatning ham, unda yashayotgan kishilarning ham

ijtimoiy taqdirini oʻzgartirib yuboradilar. Bizning Vatanimizda shunday ulugʻ tarixiy voqealar ham, millatning dardiga darmon boʻlgan vatanparvar farzandlar ham nihoyatda bisyor boʻlganligiga oqsoch tarix guvoh. Ana shu milliy va umumbashariy silsilada bir buyuk zot borki, u Vatanimiz oʻtmishi, buguni va ertasida behad yuksak oʻrin tutadi. Ul muhtaram inson sohibqiron Amir Temur hazratlaridir.[1]

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat timsoliga aylandi. Istiqlolimizning har bir tadbirida, mustaqil davlatimizning har bir qadamida ul buyuk zot ruhi bizga hamrohu – hamnafas boʻlib bormoqda. 1363 yili Tugʻluq Temurning vafoti Movarounnahr uchun boʻlgan kurashlarni kuchaytirib yubordi. Lekin moʻgʻul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahrni bermasligi ma’lum edi. SHu munosabat bilan Temur va Amir Husaynning birlashgan kuchlari 1365 yilda Movarounnahrdan haydalgan Ilyosxoʻja qoʻshinlariga qarshi kurash boshlaydilar. Toshkent va Chinoz oraligʻida boʻlgan mashhur «Loy jangi» ittifoqchilar oʻrtasidagi kelishmovchilik tufayli magʻlubiyat bilan tugaydi. Ana shu voqeadan soʻng Amir Temur va Amir Husayn oʻrtasida ixtilof boshlanadi. «Loy jangi»da gʻalaba qilgan Ilyosxoʻja yesa Movarounnahrdagi harbiy harakatlarini kengaytirdi. Endi u katta qoʻshinlar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlonozoda va Abu Bakr Kalaviy boshliq sarbadorlar Ilyosxoʻjaga qarshi chiqadilar. Mahalliy aholining vatanparvarlik namunalarini koʻrsatib qarshilik koʻrsatganliklari tufayli Samarqandni qamal qilib turgan moʻgʻul qoʻshinlari Movarounnahrni butunlay tashlab ketishga majbur boʻldilar. Samarqandliklarning moʻgʻullar ustidan erishgan gʻalabasi toʻgʻrisidagi xabarni eshitgan Amir Temur va Amir Husayn Movarounnahrga yoʻl olishib, Samarqand yaqinidagi Konigilda sarbadorlar rahbarlari bilan

uchrashadilar. Bu uchrashuvda o'zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning rahbarlari hiyla yo'li bilan o'ldiriladi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Amir Husayn egallab, uning hukmronligi o'rnatiladi. Shundan boshlab Temur va Husayn o'rtasidagi munosabat yanada keskinlashadi. Demak, bu vaqtga kelib Movarounnahrda o'zaro urushlarga barham bera oladigan markazlashgan davlat tuzish o'ta zaruriyatga aylangandi. Buni anglagan Amir Temur Amir Husaynga qarshi zimdan kurash olib borib, Balxni qamal qilish paytida o'z ittifoqchisi Xuttalon hokimi Kayxusrav qo'li bilan 1370 yili Husaynni chetlashtiradi. Mana shu davrdan e'tiboran Amir Temurning Movarounnahrda yakka hukmronlik faoliyati boshlanadi. Bu esa uning qariyb 35 yillik hukmronligi va ko'plab jahongirlik harbiy yurishlari uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Amir Temur o'zini Amir Kuragoniy deb atay boshladi. Chunki, u Amir Husaynning beva xotini Chingizxon avlodidan bo'lgan Saroymulkxonimni o'z nikohiga olgan edi. Keyinchalik unga atab maqbara qurdiradi. Temur qisqa vaqt ichida Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'idagi yerlarni, Farg'ona va SHosh mulklarini o'ziga bo'ysindirdi. 1372-1388 yillar orasida Xorazmga 7 marta harbiy yurish qilib, uni ham o'ziga bo'ysundirdi.Temur Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi 1389, 1391, 1394-1395 yillarda 3 marta yurish qilib, uni ham yengdi. Oltin O'rda qudrati to'lasincha sindirildi. 1395 yilda Shimoliy Kavkaz hamda Terak daryosi bo'yida Temur va To'xtamish o'rtasida shiddatli jang bo'lib, bu jang Temur g'alabasi bilan tugadi. Bu g'alabalar Temur qo'shinlarining quyi Povolje, Astraxan, Shimoliy Kavkaz, Azov bo'ylariga chiqish uchun keng yo'l ochildi. Temurning Xorazm, Movarounnahr yerlariga va Oltin O'rdaga yurishlari, poytaxtning Keshdan Samarqandga ko'chirilishi O'rta Osiyoda markazlashgan davlatni tashkil qilishga qaratilgan bo'lsa, uning Eron, Kavkaz,

Hindiston, Old va Kichik Osiyoga harbiy yurishlari imperiyani kengaytirish maqsadida amalga oshirilgandi. Temur oʻzining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda 5 sarbadorlar davlatini, Hirotda kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni oʻz tasarrufiga kiritdi. Amir Temur 1398 yilda Hindistonga qilgan harbiy yurishida Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga qilgan yurishida yesa Halab va Beyrut shaharlarini, 1401 yilda Damashq shahrini egallaydi. 1402 yilda usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni magʻlubiyatga uchratadi. Bu gʻalaba bilan Temur yevropaning usmoniylar asoratiga tushishini bir necha oʻn yillar orqaga suradi. Temur 1404 yilda Kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga harbiy yurish taraddudini koʻradi. Aslida Temur yirik sarkarda boʻlib, kuchli harbiy boshqaruv tizimini yaratadi. Samarqand atrofida atab goʻzal bogʻlar yaratgan Temur tugʻilgan joyi Keshda Oqsaroy, Jome masjidi, madrasalar barpo ettirdi. Turkiston shahrida Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini qurdiradi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Toshkent kabi shaharlar hunarmandchilik va savdo markazlariga aylandi. Amir Temur savdo yoʻllari rivojiga va uning tinchligiga alohida e'tibor berdi. U boy oʻljalar bilan cheklanib qolmay, balki jahon karvon savdosi yoʻllari (Evropa va Oʻrta Osiyo mamlakatlarining Uzoq Sharq bilan) ustidan hukmronlik qilishni ham oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygandi. Sohibqiron Oltin Oʻrda hududidan oʻtgan shimoliy savdo yoʻlini ishdan chiqarish va savdo yoʻlini Oʻrta Osiyo orqali oʻtgan eski ipak yoʻliga yana burib yuborishga zoʻr berib harakat qildi. Amir Temur davlatining mafkurasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izga solib yoʻnaltirishdan tashqari siyosiy hayotda ham katta kuchga aylandi. U chet davlatlar bilan aloqani kengroq yoʻlga soldi. U

davr shart-sharoitlaridan kelib chiqib, tashqi siyosatda qat'iy faol harakat qilib, o'z saltanati dovrug'ini jahon miqyosiga olib chiqa oldi. Amir Temurning Yildirim Boyazid ustidan bo'lgan g'alabasidan so'ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya erkin aloqalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif yetgan. U yevropa mamlakatlari bilan yaqin qo'shnichilik qilish, savdo karvon yo'llarini rivojlantirish niyati borligini ko'rsatib, o'z davlati shuhratini yevropaga tarqata oldi. Davlatning faol tashqi siyosat yuritishi ko'p jihatdan mamlakatning ichki ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu-asrlar sinovidan o'tgan ijtimoiy qonuniyat. Davlat tashqi dunyo bilan hamkorlik qilmasdan xalqaro nufuzga erisha olmasligini Amir Temur juda yaxshi bilgan. Masalan, uning Sharq va yevropaning Fransiya, Ispaniya, Italiya, Xitoy, Hindiston, Misr, Rum (Turkiya) kabi davlatlari bilan faol iqtisodiy, savdo v. h. aloqalar o'rnatganligi to'g'risida asosli dalillar, hujjatlar, maktublar mavjud. U kishining maqsadi mamlakatlararo yagona savdo-iqtisodiy makon yaratish edi. Amir Temurning "Dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak" degan shiorida xalqaro iqtisodiy-savdo aloqalarini keng miqyosli yo'lga qo'yish, undan barcha ellarni, birinchi navbatda, o'zining xalqini bahramand etish g'oyasi mujassamlashgan. Temur davridagi ilm-fan, me'morchilik, san'at sohalari o'z davriga nisbatan yuqori darajada rivojlanib, yuksak ma'naviy boylik darajasiga ko'tarildi. Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta e'tibor berdi. Samarqandni poytaxt qilib olgach dunyoning turli joylaridan keltirilgan binokorlar, me'morlar tomonidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar qurildi. Hattoki g'ariblarga oziq-ovqat beradigan g'aribxonalar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan maxsus joylar ham qurilgan. Shahar atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh,

So'zangaron, Feruza kabi nomlar bilan darvozalar quriladi. Temurning qarorgohi sifatida noyob ma'muriy bino Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar qad ko'taradi.

Amir Temur davlatchiligining hosilasi o'laroq mamlakat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari tez rivojlandi. Ekin maydonlari kengaydi, mevali bog'lar, yangi sug'orish ishlari barpo etildi. Dehqonchilik madaniyati yanada yuksaldi. Movarounnahr shaharlari ijtimoiy qiyofasini o'zgartirib kengaydi, obodonlashdi, yirik hunarmandchilik va savdo, madaniy va ma'muriy markazlarga aylandi. Turkiston yirik iqtisodiy mintaqa sifatida shuhrat qozondi. Aholining moddiy-maishiy turmush sharoiti farovonlashdi. Natijada jamiyatning ijtimoiy, madaniy, ma'naviy taraqqiyoti uchun qulay shart-sharoit yaratildi. Amir Temurning boshqa davlat boshliqlaridan farqi, u butun umri davomida bunyodkorlik ishlari bilan mashg'ul bo'lganligida. El-ulus dardi, Vatan obodligi va yaxlitligi g'ami bilan yashadi. Ul ulug' zotning bizga qoldirgan "Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim" [2] degan o'gitomus so'zlari fikrmizning isbotidir. Amir Temur davlatining mafkurasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izga solib yo'naltirishdan tashqari siyosiy hayotda ham katta kuchga aylandi. U chet davlatlar bilan aloqani kengroq yo'lga soldi. U davr shart-sharoitlaridan kelib chiqib, tashqi siyosatda qat'iy faol harakat qilib, o'z saltanati dovrug'ini jahon miqyosiga olib chiqa oldi. Amir Temurning Yildirim Boyazid ustidan bo'lgan g'alabasidan so'ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya erkin aloqalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif yetgan. U yevropa mamlakatlari bilan yaqin qo'shnichilik qilish, savdo karvon yo'llarini rivojlantirish niyati borligini ko'rsatib, o'z davlati shuhratini yevropaga tarqata oldi. Davlatning faol tashqi siyosat

yuritishi ko'p jihatdan mamlakatning ichki ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu-asrlar sinovidan o'tgan ijtimoiy qonuniyat. Davlat tashqi dunyo bilan hamkorlik qilmasdan xalqaro nufuzga erisha olmasligini Amir Temur juda yaxshi bilgan. Masalan, uning Sharq va yevropaning Fransiya, Ispaniya, Italiya, Xitoy, Hindiston, Misr, Rum (Turkiya) kabi davlatlari bilan faol iqtisodiy, savdo v. h. aloqalar o'rnatganligi to'g'risida asosli dalillar, hujjatlar, maktublar mavjud. U kishining maqsadimamlakatlararo yagona savdo-iqtisodiy makon yaratish edi. Amir Temurning "Dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak" degan shiorida xalqaro iqtisodiy-savdo aloqalarini keng miqyosli yo'lga qo'yish, undan barcha ellarni, birinchi navbatda, o'zining xalqini bahramand etish g'oyasi mujassamlashgan.

Amir Temur davrida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror bo'lgan. U o'z davrining fan va madaniyat homiysi sifatida ham shuhrat qozondi. Doimo kamsitilgan va e'tibordan chetda bo'lgan mazhab tarafdorlarini o'z homiyligiga olgan. Darvesh, faqir-miskinlarni o'ziga yaqin tutib, ularni ranjitmaslikni o'zining insoniy burchlaridan biri deb bilgan. Amir Temur hayotining so'nggi yillarida o'zining esdaliklari va tuzuklarini yozib qoldirdi "Temur tuzuklari" da davlat tuzilishining asosiy bo'g'inlari, ularning vazifa, funksiyalari, vazirlarning faoliyatlari, turli hil ijtimoiy guruhlar, tabaqalarga munosabat, qo'shin tuzilishi davlatning moliya va soliq siyosati, mulkiy munosabatlar hamda shu singari dolzarb masalalar, ularni hal yetish yo'llari aniq ifodalangan. Ma'rifatparvarligi va aqlli bilan nom chiqargan SHohruh davrida asriy ilm-fan, madaniyat an'analari qayta jonlana boshlagan edi. SHahar qayta qurildi. Hirotdagi eng gavjum joylardan biri SHohruhning o'g'li Boysunqur tashkil etgan kitobxona nomini olgan joy bo'lib qoldi. Bu yerda o'z davrining yeng sara kitoblari qayta ko'chirilar, sotib olinar va

sotilar edi. Bu paytda hukmdor va amaldorlarning homiyligi natijasida tasviriy san'at, amaliy san'at, xattotlik san'ati oʻz rivojini maromiga yetqazdi. Mirak Naqqosh boshchiligidagi sharq miniatyura san'ati ham oʻz faoliyatini shu yerdan boshlagan edi. Hirotlik va xurosonlik koʻplab badavlat zodagonlar, savdogarlar ham ilm-fan, madaniyatga homiylik qila boshlaydilar. Masalan, SHohruh hukmronligi davrida zodagon Hoji Arslon Tarxon oʻzining ma'rifatparvarligi bilan nom chiqargan edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. "Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining oʻn toʻqqiz yillik bayramiga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish toʻgʻrisida". Oʻzbekiston Respubilkasi Prezidentining qarori. "Xalq soʻzi", 2010 yil 1 – iyul; Qarang: "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash toʻgʻrisida". Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "Xalq soʻzi", 1995 yil 1 – yanvar

2. Karimov I. A. Amir Temur-faxrimiz, gʻururimiz; YAngicha fikrlash va ishlash-davr talabi. 5-jild, Toshkent, "Oʻzbekiston", 1997 yil, 187-bet.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil
29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaati.

4. Usmonov Q. "Oʻzbekiston tarixi". Toshkent, 2016 yil.

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIGA QAMRAB OLISHNING AHAMIYATI

***Arabboyeva Maftuna Sodirjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'limi 1-kurs magistranti

**Tayanch so'zlar:** bola, ta'lim, tarbiya, shaxs, rivojlanishi, maktabgacha ta'lim, majburiy ta'lim.

## KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi har bir davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Chunki bolalik davri inson hayotining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, unda bola shaxsining shakllanishi, aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik rivoji asos solinadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu soha so'nggi yillarda keskin islohotlar jarayonini boshdan kechirmoqda va bu islohotlar bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

## ASOSIY QISM

Maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi birinchi navbatda bolalarning ta'limga bo'lgan dastlabki qiziqishini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentning 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-sonli qarori bilan Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Ushbu qaror asosida bolalarni maktabgacha ta'limga jalb etish darajasini oshirish,

yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, pedagoglarning malakasini oshirish ishlari yo'lga qo'yildi.

Maktabgacha ta'limga qamrovning oshishi nafaqat bolalar uchun, balki jamiyat uchun ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnagan bolalar keyingi bosqichlarda, ya'ni maktab ta'limida, o'zlashtirish darajasi va ijtimoiy moslashuv jihatidan yuqori natijalarga erishadi. Psixologik nuqtai nazardan, bu yoshda bola nutqi, tafakkuri, xotirasi, diqqat va ijtimoiy his-tuyg'ulari shakllanadi. Maktabgacha ta'lim muhitida esa bu jarayon tizimli va maqsadli yo'lga qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrov darajasi keskin oshdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilda bolalar qamrovi atigi 27 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 70 foizdan oshgan. Bu esa sohada olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi. Yangi turdagi xususiy bog'chalar, oilaviy nodavlat ta'lim tashkilotlari, qisqa muddatli tayyorlov guruhlari tashkil etilayotgani tufayli ta'lim tizimining qamrovi yanada kengaymoqda.

Shu bilan birga, hali ham ayrim hududlarda qamrov darajasi yetarli emas. Qishloq joylarda infratuzilmaning yetishmasligi, malakali pedagoglar sonining kamligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi kabi muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat tomonidan bir qator strategik dasturlar ishlab chiqilgan. Jumladan, 2030-yilgacha mo'ljallangan maktabgacha ta'lim konsepsiyasi qamrovni 100 foizga yetkazishni ko'zda tutadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni jalb etish nafaqat ularning bilim olish jarayoniga tayyorligini ta'minlaydi, balki ijtimoiy tenglikni ham ta'minlaydi. Barcha ijtimoiy qatlam bolalari sifatli ta'lim

olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa kelajakda ijtimoiy tafovutlarni kamaytiradi, raqobatbardosh avlodni shakllantiradi.

Ilmiy nuqtai nazardan, erta yoshda ta'lim olgan bolalarning neyropsixologik rivojlanish darajasi yuqori bo'lishi aniqlangan. Masalan, Vygotskiy va Piaget nazariyalariga ko'ra, bola 3-6 yosh oralig'ida asosiy kognitiv jarayonlarni egallaydi, shu sababli bu davrda maqsadli pedagogik ta'sir muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan o'rganish uchun bola eng avval sog'lom, jismoniy chiniqqan va chidamli boiishi kerak. Sistemali ta'lim uchun bolaning aqliy rivojlanishi, ya'ni, aniqrog'i, maktabga umumiy ruhiy tayyorgarligi muhim deb hisoblanadi.

Bola birinchi sinfda uchta fan (o'qish, yozuv va matema-tika)ning asoslarini, tabiat va jamiyat to'g'risida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak-atrofdagi hodisalar haqida ma'lum tasavvur bilan maktabga kelishi kerak.

Bolaning o'quv materialni o'zlashtirishi va ta'limning bola qobiliyatlariga mos kelishi uning aqliy faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Bolaning yaxshi o'qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari hamda aqliy faoliyat bilan shug'ullanish odatlari ta'sir qiladi. Bola tahlil qilishni, ya'ni narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim bolmaganlarni umumlashtirish, guruhlash kabilarni o'rganishi kerak. Bola zehnli, ziyrak, topqir, mustaqil boiishi kerak. Zavq, xursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatiga nisbatan bolada qiziqish paydo boiadi.

Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rviojlanish darajasiga, uning lug'at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to'g'ri gapira olishiga bog'liq boladi.

Bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiyo'rnida hamo'zgarishlar sodir boiadi. Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoasidan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga Oldingi jamoada bola o'zining huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, yangi shakllanayotgan maktab jamoasida esa bolao'zini boshidan ko'rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan aniqroq va qattiqroq belgilanadi. Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri nafaqat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida muvaffaqiyatlio'qish bolib qoladi.

Maktabda uzoq muddat ota-ona g'amxo'rligisiz boigani sababli, bola o'z yoshiga mos his-tuyg'u va iroda mustahkamligiga ega boiishi,o'z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o'quvchi o'qishga ijobiy yondashsa,o'qishni xohlab, intilsa, ta'limdagi bosh-lang'ich qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etadi. Irodali bolish bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega.

Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakter ijobiy jihatlarining shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqotda, sinfdoshlar bilan do'stona munosabato'rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi. Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi. Biror tomonining rivojlan-magani, zaifligi (aqliy, his-tuyg'uli, irodaviy yoki amaliy) mak-tabdao'zlashtirmaslikning sabablaridan bo'lishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfda o'quv fanlarning (o'qish, yozuv, matematika) mazmuninio'zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Masalan,

matematikani o'qitishda o'qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvnio'rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to'g'ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi.

Shu kabi bilim, malaka va ko'nikmalar maktabga maxsus tayyor-garlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarinio'zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi. Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlash-tirilgan, jadalo'qitish zarur hisoblanadi.

Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har tarafiama shakllantirishda ay-nan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo'llanilmasa, rivojlanish to'xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi.

7 yosh-bola yangi sharoitga tezo'rganadigan va o'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi.

Y.A. Kamenskiy bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o'qishni boshlaydigan vaqt deb hisoblagan. Bolaning ona maktabida 5-6 yil ta'lim- tarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarada tutilgan) u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan.

Maktabga tayyor bo'lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday ob-havoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, uo'zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish — bu nafaqat ta'lim tizimini takomillashtirish, balki kelajak avlodning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojini ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir. Davlat siyosatida bu yo'nalishga e'tiborning ortishi mamlakatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, pedagoglarning malakasini oshirish, infratuzilmani yaxshilash va aholining barcha qatlamlarini ushbu tizimga faol jalb etish — ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3305-sonli qarori, 2017-yil 30-sentabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy hisobotlari, 2023–2024-yillar.

3. Vygotskiy L.S. "Bolalik psixologiyasi", Moskva, 1984.

4. Piaget J. "Bolaning tafakkuri va nutqi", Toshkent: O'qituvchi, 1990.

5. www.preschool.uz rasmiy veb-sayti ma'lumotlari.

# INFORMATSION TEXNOLOGIYALARNING TA’LIM TIZIMIGA INTEGRATSIYASI

***Ergashaliyeva Ruxshona Furkatbek qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishi 1-kurs talabasi
**Tel:** +998947754407

**Ilmiy rahbar:** ***B. A. Tillayev***
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya**: Mazkur maqola informatsion texnologiyalarning ta’lim tizimiga integratsiyasini o‘rganadi. Hozirgi kunda, dunyo bo‘ylab ta’lim tizimida yangi texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon o‘quv jarayonini samarali qilish, o‘qituvchilar va o‘quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratish va global ta’lim tizimiga integratsiyani ta’minlashga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar**: Ta’lim tizimi, informatika, texnologiyalar, ta’limda innovatsiyalar, onlayn ta’lm, integratsiya.

**Аннотация**: Данная статья исследует интеграцию информационных технологий в систему образования. В настоящее время применение новых технологий в образовательной системе по всему миру имеет большое значение, так как это помогает сделать учебный процесс более эффективным, создает новые возможности для учителей и учащихся, а также обеспечивает интеграцию в глобальную образовательную систему.

**Ключевые слова**: Система образования, информационные технологии, технологии, инновации в образовании, онлайн-обучение, интеграция.

**Annotation**: This article examines the integration of information technologies into the education system. Nowadays, the application of new

technologies in the education system worldwide is of great importance, as it helps to make the learning process more effective, creates new opportunities for teachers and students, and ensures integration into the global education system.

**Keywords**: Education system, information technology, technologies, innovations in education, online learning, integration.

**Kirish**

Insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri – ta'limdir. Har bir davrda ta'lim tizimi jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanib, yangi texnologiyalarni oʻz ichiga olgan. Bugungi kunda, global miqyosda informatika va texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim tizimiga jiddiy ta'sir koʻrsatmoqda. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish oʻquvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, oʻqituvchilarga esa yangi usullar va vositalar yordamida samarali ta'lim berish imkonini yaratmoqda.

Shu bilan birga, texnologiyalarning ta'lim tizimiga integratsiyasi nafaqat yangi imkoniyatlar yaratadi, balki ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Internetning keng tarqalishi, onlayn ta'lim platformalarining rivojlanishi, shuningdek, oʻquvchilar va oʻqituvchilarning texnikaviy bilimlarini rivojlantirish zarurati – bularning barchasi ta'lim tizimida informatika va texnologiyalarni muvaffaqiyatli qoʻllash uchun asosiy omillardan biridir.

Informatsion texnologiyalar va ta'lim tizimi:

Umumiy tushunchalar. Informatsion texnologiyalar (IT) zamonaviy dunyoda barcha sohalarni oʻz ichiga olgan keng atamadir. IT-ga kiruvchi texnologiyalar orasida kompyuter texnikasi, dasturiy ta'minot, tarmoqlar va kommunikatsiyalar, internet, bulutli hisoblash, sun'iy intellekt va boshqa raqamli texnologiyalar mavjud. Ta'lim

tizimining o'zgarishi aynan ushbu texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi.[1]

Ta'lim tizimi esa o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni berish, o'quv jarayonini boshqarish, muayyan pedagogik metodlarni qo'llash va ta'limni samarali tashkil etishdan iborat. O'qituvchilar va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, o'quv dasturlari, ta'lim muassasalarining infratuzilmasi – bularning barchasi ta'lim tizimining tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Bugungi kunda texnologiyalarning ta'lim tizimiga integratsiyasi ta'limning sifatini oshirishga, shuningdek, uning yanada zamonaviy va samarali bo'lishiga yordam bermoqda.

Texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilishning asosiy maqsadi – o'quvchilarga bilim olishda yangi imkoniyatlarni yaratish va o'qituvchilarga ta'limni samarali tashkil etish uchun zarur vositalarni taqdim etishdir. Bu jarayon nafaqat texnologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, balki pedagogik metodologiya, o'quv jarayonining shaxsiylashtirilishi va ta'limni global miqyosda rivojlantirishni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Informatsion texnologiyalarning ta'lim tizimiga integratsiyasi

Informatika va texnologiyalarni ta'lim tizimiga integratsiya qilishning bir nechta usullari mavjud. Ular o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash, o'qituvchilarga o'quv jarayonini boshqarish va shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlarini yaratish uchun keng qo'llaniladi.

Onlayn ta'limning rivojlanishi va imkoniyatlari

Onlayn ta'lim - bu texnologiyalar yordamida masofaviy ta'lim olish imkoniyatidir. Onlayn ta'limning o'sishi so'nggi yillarda sezilarli darajada ortdi, chunki internet va mobil texnologiyalar o'quvchilarga dunyoning turli burchaklaridan bilim olish imkonini beradi. onlayn

kurslar, videodarslar, vebinarlar va interaktiv platformalar orqali oʻquvchilar oʻzlarining tezligi va jadvali boʻyicha oʻqishlari mumkin.

Bu usul ta'lim jarayonini yanada shaxsiylashtiradi, chunki har bir oʻquvchi oʻzining individual ehtiyojlariga mos ravishda oʻqish vaqtini va usulini tanlashi mumkin. Onlayn ta'lim shuningdek, oʻqituvchilarga kengaytirilgan resurslar va materiallar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi, bu esa ularning ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.[2]

Elektron ta'lim resurslari va platformalari

Elektron ta'lim resurslari ta'limni raqamlashtirish jarayonining ajralmas qismidir. Bular oʻquv dasturlari, elektron kitoblar, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar va boshqa raqamli vositalar boʻlib, oʻquvchilarga interaktiv va amaliy bilim olish imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, matematikadan, kimyodan yoki biologiyadan virtual tajriba oʻzgartirish uchun virtual laboratoriyalar orqali oʻquvchilar laboratoriya ishlarini amalga oshirishi mumkin.

Ta'lim platformalari esa oʻquvchilarga onlayn kurslar, testlar, interaktiv materiallar va forumlar orqali bilim olish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu platformalarda oʻquvchilar oʻz bilimlarini baholash, oʻqituvchilar bilan muloqot qilish va oʻquv jarayonini oʻzlashtirish uchun samarali vositalardan foydalanishlari mumkin.

Texnologiyalar yordamida ta'limni shaxsiylashtirish

Birinchi navbatda, ta'limda informatika va texnologiyalarning integratsiyasi oʻquv jarayonini shaxsiylashtirishga yordam beradi. Shaxsiylashtirilgan ta'lim oʻquvchining individual qobiliyatlari, qiziqishlari va oʻqish usullariga mos ravishda tuzilgan ta'lim dasturlarini oʻz ichiga oladi. Bunday ta'lim oʻquvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishga imkon beradi va oʻquvchilarni maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradi.

Bu usul o'quvchilarga o'z bilimlarini yanada chuqurroq va samarali o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Masalan, sun'iy intellekt yordamida o'quvchi uchun individual o'quv dasturi ishlab chiqilishi, shuningdek, avtomatik baholash tizimlari orqali o'quvchilarni tezda tahlil qilib, kerakli yordam ko'rsatish mumkin.

Ta'limda informatsion texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari

Informatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga integratsiya qilishning bir nechta afzalliklari mavjud, ularning har biri ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'quvchilar uchun afzalliklar

Tezkor bilim olish: o'quvchilar internet, onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida istalgan vaqtda va joyda o'qish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu ular uchun ta'lim jarayonini tezroq va samaraliroq qilish imkonini beradi.

Interaktiv o'qish: Multimediya, simulyatsiya va virtual laboratoriyalar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini interaktiv tarzda o'rganadilar, bu esa ularga o'qish jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi.

O'z-o'zini boshqarish: O'quvchilar o'z ta'limlarini boshqarish, masalan, o'quv materiallarini o'z vaqtida ko'rish va o'z sur'atida o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'qituvchilar uchun afzalliklar

Kursni boshqarish: o'qituvchilar o'quvchilarning muvaffaqiyatini kuzatish va ularga individual yordam ko'rsatish uchun turli onlayn tizimlardan foydalanishlari mumkin. Bu o'qituvchilarga o'quvchilarning o'qish jarayonini aniq baholash imkonini beradi.

Interaktiv darslar: O'qituvchilar darslarni yanada interaktiv qilish va o'quvchilarga ta'limni samarali taqdim etish uchun raqamli

vositalardan, jumladan, video darslar, onlayn testlar va boshqa platformalardan foydalanishlari mumkin.

Ta'lim tizimida informatika va texnologiyalarni joriy etishdagi muammolar.

Ta'lim tizimida informatika va texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari juda ko'p bo'lsa-da, bu jarayon o'zida bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Resurslarning yetishmasligi. Birinchi navbatda, barcha ta'lim muassasalarida zarur texnologik vositalar va internet ulanishi mavjud emas. Bu raqamli tafovutni keltirib chiqaradi, ya'ni ba'zi o'quvchilar va o'qituvchilar texnologiyalardan foydalana olishadi, boshqalari esa bu imkoniyatlardan cheklangan.

O'qituvchilarni malakasini oshirishdagi qiyinchiliklar

O'qituvchilarni yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyorlash ham muhim muammolardan biridir. Ular uchun doimiy malaka oshirish va yangi raqamli vositalarni o'rgatish zarur.

O'quvchilar orasidagi raqamli tafovut

Bundan tashqari, ba'zi o'quvchilar internetga ulanish imkoniyatiga ega emaslar, bu esa ularning ta'lim olish jarayonida orqada qolishiga olib kelishi mumkin. Bu muammo nafaqat jismoniy resurslar, balki, o'quvchilarning raqamli ko'nikmalariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Kelajakda ta'lim tizimida informatika va texnologiyalarning roli

Kelajakda ta'limda texnologiyalar yanada muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt (AI), virtual haqiqat (VR) va blokcheyn kabi yangi texnologiyalar ta'limni yanada interaktiv, shaxsiylashtirilgan va samarali qilish imkonini beradi.

Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi o'qituvchilarga darslarni shaxsiylashtirish va o'quvchilarning ehtiyojlariga

moslashtirish imkonini beradi. Virtual haqiqat esa o'quvchilarga yangi muhitlarda tajriba orttirish imkonini yaratadi.

Informatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga integratsiya qilish – bu ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy omillaridan biridir. Bu jarayon o'quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratadi, o'qituvchilarga esa samarali ta'lim berish imkonini beradi. Biroq, bu jarayonni amalga oshirishda bir qator muammolar ham mavjud. Shuning uchun ta'lim tizimini yanada yaxshilash uchun texnologiyalarni to'g'ri va samarali qo'llash zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Anderson, T. (2013). Theories for learning with emerging technologies. Routledge.

2. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning.

3. Garrison, D. R., & Anderson, T. (2003). E-learning in the 21st century: A framework for research and practice. Routledge.

4. UNESCO (2020). The future of education: Reimagining the role of technology in learning. UNESCO Publishing.

# SUN'IY INTELLEKTNING TELEVIZION TEXNOLOGIYALAR BILAN INTEGRATSIYASI VA KELAJAGI

***Abdullayeva Diyora Adxamjon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi
**Ilmiy rahbar:** ***B.A.Tillayev***
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining televizion sohadagi qo'llanilishi, ularning foydasi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida to'xtaladi. Televizion texnologiyalar bilan SI integratsiyasi, ayniqsa, kontentni shaxsiylashtirish, ovoz va tasvirni tanib olish, ovozli buyruqlar va suhbat imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Ushbu maqola sun'iy intellektning kontent yaratuvchilarga taqdim etayotgan imkoniyatlari va foydalanuvchilar tajribasini oshirish borasidagi o'zgarishlarni muhokama qiladi. Integratsiyalangan SI texnologiyalari tufayli televidenie sohasi qanday o'zgarayotganligi va kelajakda qanday yangi imkoniyatlar yaratishi haqida xulosalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt (SI), Televizion texnologiyalar, Shaxsiylashtirilgan kontent, Ovozli buyruqlar, Ovoz va tasvirni tanib olish, Foydalanuvchi tajribasi, Televizor boshqaruvi, Media sanoati, Kelajak texnologiyalari

**Annotation:** This article discusses the application of artificial intelligence (AI) technologies in the television industry, their benefits, and prospects for future development. The integration of AI with television technologies plays a significant role, particularly in personalizing content, recognizing voice and images, and advancing voice commands and conversational capabilities. The article examines the

opportunities AI provides for content creators and the improvements it brings to user experiences. It concludes by exploring how the television industry is transforming due to integrated AI technologies and what new opportunities it may create in the future.

**Keywords:** Artificial Intelligence (AI), Television Technologies, Personalized Content, Voice Commands, Voice and Image Recognition, User Experience, TV Control, Media Industry, Future Technologies

**Аннотация:** В данной статье рассматривается применение технологий искусственного интеллекта (ИИ) в телевизионной индустрии, их преимущества и перспективы развития. Интеграция ИИ с телевизионными технологиями играет важную роль, особенно в персонализации контента, распознавании голоса и изображений, а также в развитии голосовых команд и диалоговых возможностей. В статье обсуждаются возможности, которые ИИ предоставляет создателям контента, и изменения, улучшающие пользовательский опыт. В завершение рассматривается, как телевизионная отрасль трансформируется благодаря интеграции технологий ИИ и какие новые возможности могут появиться в будущем.

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект (ИИ), Телевизионные технологии, Персонализированный контент, Голосовые команды, Распознавание голоса и изображений, Пользовательский опыт, Управление телевизором, Медиаиндустрия, Технологии будущего

**Kirish.** Sun'iy intellekt (AI) jadallik bilan raqamli televideniya evolyutsiyasining harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Shaxsiylashtirilgan kontent tavsiyalaridan tortib ilg'or ishlab chiqarish texnikasigacha AI biz televizor kontentini qanday iste'mol qilishimiz, ishlab chiqarishimiz va ular bilan o'zaro munosabatimizni qayta

shakllantirmoqda. Raqamli o'tish radioeshittirish olamida mumkin bo'lgan chegaralarni kengaytirishda davom etar ekan, sun'iy intellekt tomoshabinlar tajribasini oshirish, kontent yetkazib berishni yaxshilash va hattoki televideniyaning kelajagiga ta'sir qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. AI raqamli televideniyeni o'zgartirishning eng ko'zga ko'ringan usullaridan biri bu shaxsiylashtirilgan kontent tavsiyalaridir. Netflix, Amazon Prime Video va YouTube kabi striming platformalari tomoshabin xatti-harakati, afzalliklari va tomosha tarixini tahlil qilish uchun murakkab AI algoritmlaridan foydalanadi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali sun'iy intellekt keyingi ko'rish ehtimolini bashorat qila oladi va qiziqishlaringizga mos keladigan takliflarni taqdim etadi. Ushbu tavsiya tizimlari shunchaki mashhur shoularni taklif qilishdan tashqarida. Hujjatli filmlar, komediyalar yoki dramatik seriallarni afzal ko'rasizmi, ular sizning odatlaringizdan o'rganish orqali moslashtirilgan tomosha tajribasini yaratadilar. Natijada, tomoshabinlar kontentni qidirishga kamroq vaqt sarflaydi va undan zavq olishga ko'proq vaqt ajratadi, bu esa tomosha qilish tajribasini muammosiz va yoqimli qiladi.

AI shuningdek, televizor kontentini yaratish va ishlab chiqarish usulini inqilob qilmoqda. Raqamli televideniye olamida AI vositalaridan ssenariy yozishdan tortib post-prodyuserlikgacha ishlab chiqarishning turli jihatlarini tartibga solish uchun foydalanilmoqda.Ssenariy yozish bo'yicha yordam, sun'iy intellektga asoslangan vositalar yozuvchilarga dialog yaratish, syujet ishlanmalarini taklif qilish va hattoki mumkin bo'lgan klişelar yoki skriptlardagi nomuvofiqliklarni aniqlashga yordam beradi.Avtomatlashtirilgan tahrirlash, AI asosiy sahnalarni avtomatik aniqlash, tasvirlarni belgilash va hatto tahrirlarni taklif qilish orqali tahrirlash jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin. Bu

muharrirlarga AI yanada zerikarli vazifalarni hal qila olishini bilib, o'z ishlarining ijodiy jihatlariga e'tibor qaratish imkonini beradi.Vizual effektlar AI tasvir va videolarning keng ma'lumotlar to'plamidan o'rganish orqali yanada real vizual effektlarni yaratish uchun ishlatiladi. Bu yuqori sifatli kontentni yanada samarali va tejamkor ishlab chiqarish imkonini beradi, bu ayniqsa byudjeti cheklangan teleko'rsatuvlar uchun qimmatlidir.

**Asosiy qism**. Sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rganish sohasidagi yutuqlar teleradiokompaniyalarga jonli voqealarni kengroq yoritishni taklif qilish usullarini taqdim etadi. Ushbu muammoni hal qilish texnologiyasi jonli yozuvlar uchun tomoshabinga tabiiy ko'rinadigan bir qator kadrlar yaratishni o'rganmoqda. Ushbu sun'iy intellekt yangiliklar uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tekshirish uchun ham foydalidir. Bundan tashqari, ko'rish va ovozi zaif tomoshabinlar tajribasini yaxshilash uchun ham foydalanish mumkin.Raqamli o'tish analogdan raqamli eshittirishga sezilarli o'tishni ko'rsatdi va AI integratsiyasi uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Raqamli televideniya bilan AI tizimlari talab qiladigan katta hajmdagi ma'lumotlarni qo'llab-quvvatlash uchun infratuzilma allaqachon mavjud. Ushbu o'tish teleradiokompaniyalarga signalni qayta ishlashni yaxshilaydigan, tasvir sifatini yaxshilaydigan va tarmoqli kengligidan foydalanishni optimallashtiradigan AI texnologiyalarini joriy qilishni osonlashtirdi.AI, shuningdek, tomoshabinlar uchun raqamli raqamli almashinuvni ta'minlashda ham rol o'ynaydi. Misol uchun, sun'iy intellektga asoslangan vositalar signal muammolarini aniqlash va hal qilishda yordam berishi mumkin, bu esa tomoshabinlar raqamli televideniyaga o'tishda minimal buzilishlarni boshdan kechirishlarini ta'minlaydi. AIning raqamli landshaftga uzluksiz integratsiyalashuvi

uning televizor tajribasini doimiy ravishda yaxshilash potentsialini ta'kidlaydi.

AI bilan televizorning kelajagi.Sun'iy intellekt rivojlanishda davom etar ekan, uning raqamli televideniyega ta'siri yanada chuqurlashishi mumkin. Biz kontentni shaxsiylashtirish bo'yicha keyingi yutuqlarni kutishimiz mumkin, bunda sun'iy intellekt nafaqat ko'rsatuvlarni tavsiya qiladi, balki kontentning o'zini ham dinamik ravishda moslashtiradi – ehtimol, tomoshabinning individual xohishiga ko'ra suratlarni o'zgartirish yoki hatto sahnalarni o'zgartirish orqali.Ishlab chiqarishda sun'iy intellekt tez orada avtonom tarzda butun shoularni yaratishi mumkin, bunda kadrlar, skriptlar va vizual effektlarni inson aralashuvisiz uyg'un epizodlarga aralashtirib yuborish mumkin. Bu televideniyada inson ijodining o'rni haqida savollar tug'dirishi mumkin bo'lsa-da, kontentning yangi shakllari uchun ajoyib imkoniyatlarni ochib beradi.Bundan tashqari, 5G va virtual reallik kabi sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar televideniya tajribasiga ko'proq integratsiyalashgani sayin, tomoshabinlar televizorni tomosha qilish va tomosha qilish o'rtasidagi chegaralarni yo'qotib, hech qachon bo'lmaganidek kontentga sho'ng'ishlari mumkin bo'ladi. [2] Sun'iy intellekt raqamli televideniyada yangi davrning boshida turibdi, biz qanday qilib yaratishimiz, iste'mol qilishimiz va teleko'rsatuvlar bilan o'zaro ta'sir qilishimizning barcha jihatlarini yaxshilaydi. Shaxsiylashtirilgan tavsiyalardan tortib, interaktiv tomosha va ilg'or ishlab chiqarish texnikasigacha AI televizorni yanada dinamik, sezgir va jozibali vositaga aylantirmoqda. Raqamli o'tish ushbu innovatsiyalar uchun zamin yaratishda davom etar ekan, sun'iy intellekt shubhasiz televizor kelajagini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi - bizni tomosha qilish tajribasi yanada shaxsiylashtirilgan, immersiv va

kundalik hayotimizga muammosiz integratsiyalashgan davrga yaqinlashtiradi.



Yagona kamerali tashqi translyatsiya.Ba'zilar sun'iy intellekt tizimlari inson ekipajining o'rnini bosayotganidan xavotirlanishlari mumkin. Aslida, hozirda texnologiya aks holda efirga uzatilmaydigan voqealarni yoritish uchun qo'llanilmoqda. Britaniya radioeshittirish korporatsiyasi (BBC) yaqinda bu borada tadqiqot o'tkazdi (Ishlab chiqarishda AI). Bu ikki yoki uchta kamerani o'rnatishni taqlid qilish uchun ultra yuqori aniqlikdagi (UHD), statik kameralardan foydalangan.Ushbu kameralar tomonidan qayd etilgan 4K piksellar soni translyatsiya uchun zarur bo'lganidan ancha yuqori. Bu shuni anglatadiki, turli xil kompozitsiyalar ishlab chiqarish jarayonida oddiygina tasvirlarni kesish orqali amalga oshirilishi mumkin.Ushbu arzon narxlardagi statik kameralardan foydalanish kichikroq jonli voqealarni bir kishilik ekipaj bilan yoritishga imkon beradi. Shuningdek, u tashqi eshittirish guruhiga ko'proq joylarni qamrab olish imkonini beradi. Kattaroq sozlashni osonlashtirmaydiganlar, shu jumladan. Turli

xil kompozitsiyalar va ekinlar real vaqt rejimida tayyorlanishi mumkin, bu esa tasvirlarni hatto jonli efirga uzatish imkonini beradi.Avtomatik ramkalash va tartiblash.AI ushbu UHD statik kameralar bilan birgalikda qo'llaniladi. Bu unga kerakli ekinlarni ham, yemlardan tortishish ketma-ketligini ham avtomatlashtirish imkonini beradi.Tizim kadrlarni kadrlash uchun kamera operatorlari uchun ikkinchi xususiyat bo'lgan asosiy kompozitsiya qoidalaridan foydalanadi. Shuningdek, u sub'ektlarni aniqlash uchun yuzni aniqlash texnologiyasidan foydalanadi. Keyinchalik mavzular va ularning atrofiga mos keladigan keng, o'rta va yaqin kompozitsiyalarni tanlashni o'rganish mumkin.AI tizimiga ushbu kadrlarni tomoshabin uchun tabiiy tuyuladigan ketma-ketlikda joylashtirishni o'rgatish mumkin. Bu tizimdan har bir kadrning uzunligini va mavzu qachon gapirayotganini hisobga olishni talab qiladi. Tomoshabinlar yoki boshqa sub'ektlarning har qanday reaktsiyalari hisobga olinadi.Inson operatori bilan parallel ravishda o'tkazilgan testlarda tizimda tajribali kamera operatorining nozik tomonlari yo'q. Biroq, natija hali ham ta'sirchan va AI hali ham takomillashtirilmoqda. Chalg'ituvchi elementlar ramkaning chetini buzadigan yoki noqulay tarzda yopishgan ekinlar kamera operatori oldini olishni bilishi kerak bo'lgan narsalardir. Biroq, AI uchun maxsus qoidalar mavjud bo'lmasa, u ularga e'tibor berishni bilmaydi.

AI hozirgi vaqtda sun'iy intellekt texnologiyasi yuqori ishlab chiqarish qiymati uchun foydalanish uchun etarli darajada takomillashtirilmagan. Lekin u byudjetli eshittirish imkoniyatlarini taklif etadi. Virtual ko'p kamerali o'rnatish arzon bir kamerali translyatsiyani almashtirishi mumkin.Bu panel muhokamalari, vloggerlar va boshqa jonli efirlarga foyda keltiradi. Biroz takomillashtirish bilan ushbu texnologiyadan komediya, musiqa va

hattoki sportni yoritish kabi jonli ijrolar uchun foydalanish mumkin. AI yordamida yangiliklarni topish Yaponiya radioeshittirish korporatsiyasi (NHK) tomonidan ishlab chiqilgan aqlli ishlab chiqarish tizimi. Bu ijtimoiy media va atrof-muhit monitoringi tizimlarini yangilik holatlari haqida xabar berish uchun moʻljallangan.Tizim turli yangiliklar toifalari qatoriga boʻlingan maʼlum soʻz va iboralarni izlashga oʻrgatiladi. Keyinchalik ular ishlab chiqarish guruhiga yuqori chastotali hisobotlarni koʻrish imkonini berish uchun guruhlarga boʻlinadi. Tizim, shuningdek, kuchli yomgʻir va suv toshqini haqida ogohlantirish uchun hukumat tizimlaridan suv darajasini kuzatishi mumkin. Kengaytirilgan yuz va nutqni aniqlash yuzni aniqlash tizimlari turli telekoʻrsatuvlardagi aktyorlarni kataloglashda yordam berish uchun foydalanilmoqda. Sunʼiy intellektdagi yutuqlar, hatto pastroq yorugʻlik yoki noaniq burchaklar buni qiyinlashtiradigan holatlarda ham yaxshiroq tanib olish imkonini beradi. Nutqni aniqlash yangilik maqolalarini kataloglash uchun ham foydalidir. Dastur hozirda muntazam eshittirish nutqini avtomatik transkripsiya qila oladi. Biroq, u hali ham baʼzi intervyular bilan kurashadi, bu erda mavzu tezroq yoki kamroq aniq gapiradi.

Audio va koʻrish qobiliyati zaif odamlar uchun AI koʻzi ojizlar uchun sport translyatsiyalari kabi jonli dasturlar uchun AI yordamida avtomatlashtirilgan audio tavsiflarni yaratish mumkin. Bu audio eshittirishga hamroh boʻlgan oʻyin jarayonining skriptini yaratadi.Texnologiyadan nutq sintezatori yordamida radio yoki televidenie uchun sport uchun audio sharhlar yaratish uchun ham foydalanish mumkin. Bu faktlar va statistikani osongina yaratish mumkin boʻlgan sport va yangiliklar hisobotlarida qoʻllaniladi. Nutqni sintez qilish texnologiyasi jadal surʼatlar bilan takomillashtirilmoqda va endi tabiiy ovoz ohangini yaratish mumkin.Eshittirish maʼlumotlarini

ko'rsatish usuli sifatida kompyuter tomonidan yaratilgan imo-ishora tili ham mumkin. Jonli imzo qo'yuvchi o'rniga, CG animatsion qahramoni endi kontentni imo-ishora tiliga o'tkazishi mumkin. Efirda sun'iy intellektning boshqa qo'llanilishi.Eshittirishda AI va mashinani o'rganishdan foydalanish foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun doimiy ravishda kengayib bormoqda. AI texnologiyasi hatto oq va qora tasvirlarni qayta bo'yash jarayonini tezlashtirish uchun ham qo'llaniladi. U shunga o'xshash ramkalardagi arxiv materiallari va rang ma'lumotlaridan foydalanadi. Bu filmning besh soniyasini rang berish vaqtini 30 daqiqadan 30 soniyagacha qisqartirish imkonini beradi.[3]

**Xulosa.** Sun'iy intellektning televizion texnologiyalar bilan integratsiyasi so'nggi yillarda katta qadamlar qo'ymoqda va bu jarayon televideniyening turli jihatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Yagona kamerali tashqi translyatsiya, avtomatik ramkalash va tartiblash kabi texnologiyalar yordamida sun'iy intellekt kichik ekipajlar tomonidan yoritilishi qiyin bo'lgan voqealarni samarali tarzda efirga uzatishga imkon yaratmoqda. Shuningdek, NHK tomonidan ijtimoiy media monitoringi va yangiliklarni avtomatik topish tizimi hamda yuz va nutqni aniqlash kabi yangi vositalar bilan sun'iy intellekt yangiliklarni ishlab chiqarish va boshqarishda muhim rol o'ynamoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. "Sun'iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasi (2021–2030)". – Toshkent, 2021.

2. Yo'ldoshev, A. "Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari." – TATU Ilmiy axborotnomasi, 2022.

3. Nazarov, B. Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2020.

4. Zohidov, S. "Sun'iy intellektning ijtimoiy va axloqiy jihatlari." – O'zbekiston Milliy universiteti jurnali, 2023.

## HOZIRGI DAVR PSIXOLOGIYASINING RIVOJLANISH TARIXI

***Abdurashidova Dilfuza Akmaljon qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola qadimiy davrlarda psixologiya qanday ko'rinishda bo'lganligi va qanday bosqichlardan o'tib hozirgi mukammal ko'rinishga kelganligi. psixologiyaning insonlar hayotidagi ahamyati va psixik kasalliklar sababini bayon qiladi.

**Kalit so'zlar:** Depressiya, eksperimental, ong, psixologiya, psixik, ruh, psixoanaliz, konditseonerlik, bixeviorizm, kashshof, pragmatizm.

**Absract:** This article describes what psychology looked like in ancient times and the stages it went through to reach its current perfektion, the importance of psychology in human life, and the causes of mental illnesses.

**Keywords:** depressions, experimental, consciousness, psychologiy, spirit, conditioning, behaviorism, pioneering, pragmatizm.

Har bir xalqning o'z kelib chiqish tarixi mavjud. Psixologiyaning kelib chiqishi esa qadimgi davrga borib taqaladi, ammo uning zamonaviy ilmiy fanga aylanishi IX asr oxiri X asr boshlariga to'g'ri keladi. Psixologiya sohasida juda ko'p allomalar o'z izlanishlarini olib borgan shu jumladan:

1. Vilgelm Vunlt eksperimental usullar bilan inson ongini òrganish mumkinligini isbotlagan.

2. Zigmund Freyd psixoanaliz nazariyasini ishlab chiqqan.

3. Ivan Pavlov konditsionerlik nazariyasini yaratgan.

4. B.F.Shemner bixeviorizm nazariyasini asoslab bergan.

Qadimda yunon faylasuflari inson ongini va xulqi-atvorini tushunishga harakat qilganlar, bu esa psixologiya tushunchasining dastlabki qadami bo'ldi.Psixologiyani ilmiy asoslarda rivojlanishida esa Vilgem Vunltning 1879-yilda birinchi eksperimental psixologiya labaratoriyasi yaratib o'zini psixolog deb atagan ilk shaxs bo'ldi,[1] shuning uchun Vilgem Vultni ko'pincha psixologlar otasi deb atashadi va psixologiya sohasiga muhim hissa qo'shgan boshqa ilk olimlar qatoriga quyidagilar kiradi:

Hermann Ebbinghaus (1850-1909)-xotira tadqiqotlarida kashshof bo'lib, eslash va unutish jaryonlarini o'rganishga asoslangan unutish egri chizig'ini ishlab chiqqan. Ebbinghaus eksperimental yondashuv orqali xotira mexanizimlarini tushunishga harakat qilgan.

William James (1842-1910)-amerikalik faylasuf va psixolog bo'lib, pragmatizim falsafiy oqimining asoschilaridan biri hisoblanadi. James "Psixologiyaning prinsiplari" asari orqali funksionalizm yondashuvini rivojlantirib, inson ongining amaliy jihatlarini o'rganishga urg'u bergan.[2]

Ivan Pavlov (1849-1936)-rossiyalik fiziolog bo'lib,klassik shartli reflekslar (klassik shartlashish) bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.[3]Uning mashhur qo'ng'iroq va it tajribalari inson va hayvonlarning o'rganish jarayonlari haqidagi tushunchalarni tubdan o'zgartirdi.

Bu olimlarning ishlari psixologiyani shakillantirishda va uning turli yo'nalishlarining rivojlanishida muhim ahamyat kasb etgan.

Inson psixologiyasi bu murakkab tushunchga jamiyatdagi har bir shaxsning o'z psixikasi va ularning barchasi o'zidan, fikirlash doirasidan kelib chiqqan holda tashqi olamdan axborotni qabul qiladi va javob

qaytaradi. Psixologlarda shunday narsa borki jamoa bo'lib ishlashdan ko'ra individual ishlash yaxshi samara beradi. Psixologiya juda ko'p tarmoqli bo'lganligi sababli quidagi bo'limlarga bo'linadi.

1. Kosmik psixologiya.
2. Pedagogik psixologiya.
3. Tibbiyot psixologiyasi.
4. Siyosiy psixologiya.
5. Eksperimental psixologiya.
6. Huquq psixologiyasi.
7. Genetik psixologiya.[4]
8. Din psixologiyasi, va boshqa psixologiyaning tarmoqlariga ajralishining asosiy sababi uning tarkibida tadbiqiy sohalar vujudga kelishidir.Psixologiya sanoatda, ta'lim tizimida, sport, transport, radio, televideniya va boshqa tuzilmalarda muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok qilmoqda.

Psixologiya inson ruhiyati bilan uzviy bog'liq va ruhiyatga juda ko'p omillar ta'sir qilishi mumkin.Insonlarda psixik kasallik ruhiyatga qilingan turli ta'sirlar sababli yuzaga keladi. Quyidagi jadval inson ruhiyatiga ta'sir qiluvchi omillar tasvirlangan.




Psixologiya juda ham qiziqarli soha shuning uchun ham chet mamlakatlar bu sohada turli xil qiziqarli tajribalar ishlab chiqqan. Misol tariqasida: Insonlar turli xil maqolalarni

o'qiyotganida ulardagi harflarni o'rnini almashtirilsa ham qiynalmasdan o'qishlari mumkin ya'ni bunday ko'rinishda; szdo'a hlfarar tabitri qndaay tihusri miuhim eams. Eng mumhii bnircihi va ogirxi haflrar o'z jdyoia trihusi lziom.

Bu tajriba ustida Cambridge unversiteti o'quvchilari ish olib borish orqali aniqlagan va bunda inson miyyasi har qanday holatda ham harflarni tiklab o'qiy olishini bilishimiz mumkin.[5]

Yana bir oddiygina misol: Insonlar bilan muloqot qilayotganda faqatgina ko'ziga qarash orqali u insonning gaplariga yolg'on aralashayotganini bilish ham mumkin, ya'ni suhbat davomida gaplariga yolg'on qo'shilgan insonda ko'z qorachig'ining xatti- xarakati o'zgaradi. Bu metodni sinab ko'rish uchun albatta tajriba talab etadi.

Psixik kasalliklar bo'lgandan keyin albatta ularning davosi ham bor. Juda ko'p chiligni qiynaydigan jarayon oddiygina asabilashish, albatta, noo'rin , hech qanday sabablarsiz ham bu holatga tushiladi.

Asabiy stressga tushadigan insonlar turlicha bo'ladi, ba'zi kishilar stressga bardoshli bo'lib bu holatdan tez chiqa oladi. Boshqalar esa aksincha o'zlarini yo'qotib qo'yishadi. Bitta arzimagan yoqimsiz voqea butun kun (hatto uzoqroq )davomida izini qoldirishi mumkin. Stress holatlarga qanday tushmaslik mumkin, musiqa tinglash, tabiat to'vushlari va film tomosha qilish yoki sayr qilish, mashqlar bilan shug'ullanish, narmal uyqu va to'g'ri ovqatlanish, uy hayvonlar bilan do'stlashish orqali o'ziggizni stress holatiga tushub qolishdan saqlashinggiz mumkin.

Stress holatidan chiqishda ko'p chilikka yordam bergan usul :O'ziggiz bilan yolg'iz qoling. Chuqur nafas oling va keskin chiqaring . Dag'al sochiq, mato parchasi yoki choyshab oling.Mato qanchalik qattiq bo'lsa shunchalik yaxshi. Muhimi u quruq bo'lishi kerak. Ikkala qo'liggiz

bilan sochiqni mahkam ushlang va bor kuch bilan uni g'ijimlay boshlang, xuddi yuvatotgandagi kabi. Barcha muskullarni maksimal zo'riqtirgan holda bajaring. Zo'riqish cho'qqisiga yetganini his qilgach, bir daniga tinchlaning.Qo'llar bir zum ozod bo'lishi kerak. Bunda sochiq qo'llardan yerga tushib ketishi mumkin. Ayni lag'za mutloq sokinlikni his eting va barcha mushaklarni bo'shashtirib, xotirjam bo'ling. Tushkun xolatlar o'tib ketganini anglab yeting.



Xulosa qilib aytish joizki psixologiya paydo bo'lgan davrdan beri kundan kun rivojlanib, yangiliklar kiritilib kelinmoqda va shu o'rinda aytish kerakki psixologiya insoniyat uchun katta yordam ko'rsatishadi. Turli xil psixikaga oid kasalliklarni o'rganadi.

Psixologiya fani oddiy fan hisoblanmaydi, u nafaqat qiziqarli balkim bir insonning dunyo qarashlarini ham o'zgartirib hayotini albatta ijobiy tomonga tubdan o'zgartirib yuborishga ham qodir.

**Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:**

1. Badritdinova.B.M COGNITIVE METHODS AND PERSON NATIONAL PECIULR.

2. Badritdinova, B.M. S. G'aniyeva. N.O O'SMIRLIK DAVRIDA IJTIMOIY QO'RQU HOLATLARINING PSIXOPROFLAKTIKA VA

PSIXOKOREKCIYA . Eurasion journal of social Scien ces, Philosophy, and Culture (2) 3 307-309.

3. Т Нишонова, П.С Ергашев. "Олий мактаб психологияси" (2003

4. G'.B.Shumarov, I.O. HAYDAROV, N.A.Sog'inov,F.A Akramov, G. Solihova, G.Niyozbekov. "Oila Psixologiyasi" O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunarta'limi markazi.- T.: "Sharq", 2007.- 296 b

## PSIXOLOGIYADA SHAXS IJTIMOIYLASHUVI MUAMMOSI

***Yoqubxo'jayeva Marjonabonu Abdurahimxuja qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti talabasi

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni psixologik nuqtai nazardan o'rganiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni, unga ta'sir etuvchi omillar, ijtimoiylashuvdagi muammolar va psixologik yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** shaxs, ijtimoiylashuv, psixologiya, ijtimoiy muammolar, oilaning roli, maktab, do'stlar, psixologik yordam, identitet.

**Аннотация**: В данной статье процесс социализации личности изучается с психологической точки зрения.

**Ключевые слова**: личность, социализация, психология, социальные проблемы, семейная роль, школа, друзья, психологическая поддержка, идентичность

**Abstract**: In this article, the process of socialization of a person is studied from a psychological point of view.

**Key words**: personality, socialization, psychology, social problems, family role, school, friends, psychological support, identity.

**Kirish**. Ijtimoiylashuv — shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topish, shaxsiy va ijtimoiy faoliyatni tashkil etish jarayoni bo'lib, bu psixologiyaning eng muhim tarmoqlaridan biriga kiradi. Shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni ijtimoiy dunyo bilan o'zaro munosabatlar orqali shakllanadi va har bir shaxs uchun o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun oilaning, ta'lim muassasalarining, do'stlar va guruhlarning roli muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni, unga ta'sir etuvchi omillar, ijtimoiylashuvdagi muammolar va psixologik yondashuvlar ko'rib chiqiladi.Shaxsning psixologik rivojlanishida oilaning o'rni beqiyosdir. Bolalikda oilaning o'zaro aloqalari va farzandga berilgan tarbiya shaxsning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Oila orqali bolalar me'yorlarga, axloqiy qadriyatlarga, va ijtimoiy mas'uliyatga oid dastlabki ma'lumotlarni oladilar.Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida ta'lim muassasalari, ayniqsa, maktablarning roli katta. Maktabda o'qish, o'qituvchilar bilan muloqot, do'stlar bilan aloqalar o'quvchilarning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va jamiyatda o'z o'rnini topishda yordam beradi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning ijtimoiy identiteti rivojlanadi. Shaxs, boshqa odamlar bilan muloqot qilish orqali o'zini jamiyatda qanday qabul qilinishini tushunadi. Bu jarayon ijtimoiy munosabatlar va rollar orqali amalga oshadi.

Oila shaxsning birinchi ijtimoiylashtiruvchi muhitidir. Oila a'zolari o'rtasidagi muloqot, shaxsning xulq-atvori va jamiyat bilan o'zaro munosabatlari qanday shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Oila orqali bolalar asosiy ijtimoiy qadriyatlar, me'yorlar va etika haqida tushuncha hosil qiladilar. Maktab o'quvchilar uchun muhim ijtimoiylashtiruvchi maydondir. U yerda o'qish, o'qituvchilar va tengdoshlari bilan muloqot

qilish orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Maktab ta'limi nafaqat bilim berishni, balki shaxsni jamiyatga moslashtirishni ham maqsad qiladi.Do'stlar va guruhlar shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi. Odamlar o'zlarini do'stlari va tengdoshlari bilan solishtirish orqali ijtimoiy pozitsiyalarini anglaydilar. Do'stlar va guruhlar shaxsga o'zini tanish, o'zini anglash va ijtimoiy rollarni qabul qilishda yordam beradi. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu muammolar ko'pincha shaxsning o'zini jamiyatda qabul qilishida yoki jamiyatning unga nisbatan munosabatlarida ko'rinadi. Ba'zi shaxslar ijtimoiy munosabatlar va muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu masalan, introvertlik, ijtimoiy fobiya, yoki boshqa psixologik holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday shaxslar o'zini jamiyatda erkin his qilishlari uchun qo'shimcha psixologik yordamga muhtoj bo'lishadi. Ijtimoiylashuvda muvaffaqiyatsizliklar, masalan, ijtimoiy aloqalar bilan bog'liq muammolar, stress, depressiya, va boshqa psixologik muammolarga olib kelishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, o'ziga nisbatan salbiy tasavvurlarni shakllantirishi va shaxsning o'zini izolyatsiya qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun psixologik yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Psixoterapiya va maslahatlar, ayniqsa, ijtimoiylashuvdagi muammolarni hal qilishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Shaxsga o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy aloqalardagi xavotirlarni yengish bo'yicha psixoterapevtik yordam ko'rsatish ijtimoiylashuv jarayonini yengillashtiradi.

Xulosa. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun turli treninglar va mashqlar yordamida shaxsni muloqotda bo'lish, jamiyatda o'zini erkin tutish, va boshqalar bilan hamkorlik qilishga o'rgatish mumkin.

Shaxsning ijtimoiylashuvi – bu murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u psixologik rivojlanishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiylashuvning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun oilaning, ta’lim tizimining, do‘stlar va guruhlarning roli katta. Shaxsning ijtimoiylashuvidagi muammolarni hal qilish uchun psixologik yondashuvlar va maslahatlar zarur. Ijtimoiylashuv jarayoni shaxsni jamiyatda faol va barqaror pozitsiyaga ega qilishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A. Sh. Soliyev. (2011). Ijtimoiy psixologiya. Toshkent: Universitet nashriyoti.

2. N. G. Kurnosova. (2008). Psixologiya va ijtimoiylashuv. Moskva: Yuridik nashriyoti.

3. M. D. Mukhammadiev. (2014). Shaxs va uning ijtimoiylashuvi. Toshkent: Akademnashr.

4. J. R. Mukhammadova. (2010). Ijtimoiylashuv va shaxsiy rivojlanish. Tashkent: Psixologiya Instituti.

# 2007-YILDA TOSHKENT –ISLOM MADANIYATINING POYTAXTI

***Yoqubxo'jayeva Marjona Abdurahimxo'ja qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Amaliy psixologiya yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Toshkentning islom madaniyati tarixida muhim o'rin egallaganligi bu yerdan yetishib chiqqan allomalar Toshkentga islom kirib kelishidan bugungi kungacha bu yerda islom madaniyati bilan bog'liq tarixiy jarayonlar atroflicha o'rganiladi. Ushbu maqolada siz dunyo tarixida muhim o'rin egallagan Toshkentning tomonidan e'tirof etilishining ahamiyatini bilib olasiz

**Аннотация:** В данной статье изучено важное место Ташкента в истории исламской культуры. Подробно изучаются исторические процессы, связанные с исламской культурой, от внедрения ислама в Ташкенте до сегодняшнего дня. В этой статье вы узнаете о важности признания ИСЕСКО Ташкента, занимающего важное место в мировой истории.

**Abstract:** This article examines the important place of Tashkent in the history of Islamic culture, and the historical processes related to Islamic culture here from the time of the arrival of Islam in Tashkent to the present day, which scholars have studied here. In this article, you will learn about the significance of the recognition of Tashkent by ISESCO, which has played an important role in world history.

**Kalit so'zlar:** ISESKO, islom, O'zbekiston, Umar Termiziy, jamiyat, madaniyat, tarix, alloma.

**Ключевые слова:** ИСЕСКО, ислам, Узбекистан, Умар Термизи, общество, культура, история.

**Keywords:** ISESCO, Islam, Uzbekistan, Umar Termizi, society, culture, history, scholar.рия, ученые.

Yurtimiz azaldan insoniyat tamadduni,jumladan,islom madaniyati rivojida alohida o'rin tutadi.Buyuk ajdodlarimizning ilm-fan va madaniyatning ko'plab sohalari taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasini dunyo tan olgan.

O'zbekiston istiqlolga erishgach, ajdodlar qoldirgan boy madaniy merosni tiklashva yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.Buyuk alloma va aziz avliyolarimiz muqaddas qadamjolarini ta'mirlash va obodonlashtitish,ularning boy ilmiy va madaniy merosini o'rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Imom Buxoriy,Imom Termiziy, Imom Moturidiy,Burhoniddin Marg'inoniy singari benazir allomalrning muborak nomlari qayta tiklanib,ularning merosini o'rganishga e'tibor kuchaydi."Masjidi Kalon","Shohi Zinda", "Ko'kgumbaz" kabi ko'plab masjid va madrasalarqayta ta'mirlandi.Bu o'zgarishlar xalqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etilmoqda va yuqori baholanmoqda.

Islom konferensiyasi tashkilotining tuzilmalaridan biri bo'lgan Ta'lim,fan va madaniyat masalalari bo'yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESKO)tomonidan Toshkent shahrining 2007-yilda "Islom madaniyati poytaxti"deb e'lon qilinishi O'zbekiston,xususan,uning poytaxti islom sivilizatsiyasi tarixida o'ziga xos o'ringa ega ekanidan dalolat beradi.

O'zbek xalqi milliy davlatchiligi qadimiy va boy tarixga ega.Shunga mos ravishda o'zbek diplomatiyasining ham chuqur tarixiy ildizlari bor. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

"Qadimdan mamlakatimiz hududida diplomatiya an'analari shakillangan, ajdodlarimiz yaqin va uzoq xorij bilan do'stlik va hamkorlikda yashashga intilganlar"[1].

1991-yil 31-avgustda o'zbek davlatchiligi tarixida tub burulish pallasi bo'ldiRespublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasi O'zbekistonning davlat mustaqilligi e'lon qilindi. Xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi va xalqaro huquqning subyekti sifatida o'zini namoyon qilgan yangi mustaqil davlat "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi [2]

Mustaqillik yillarida O'zbekiston milliy qadriyatlarni hamda sivilizatsiyalar va madaniyatlar chorrahasi kabi o'zining tarixiy ro'lini tiklashda katta yo'lni bosib o'tdi. O'zbekiston o'z rivojining sifat jihatidan yangi bosqichiga qadam qo'ygan bugungi kunda, milliy yangilanishdan milliy farovonlikka o'tish eng muhum ustuvor vazifadir.

O'zbekiston diplomatiyasida madaniy omilning roli sezilarli darajada oshdi. O'zbekistonning xalqaro imijini, uning dunyo tizimidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlashda tashqi siyosiy va iqtisodiy sohalarda ustuvor maqsadlarga erishish yo'lida mamlakatning madaniy sivilizatsiyon imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan madaniy – gumanitar hamkorlik kengaymoqda,milliy madaniyat v aim-fan yutuqlarini chet elda ommalashtirish yuzasidan faol chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridagi diplomatik vakolat xonalari yordamida Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Misr, Bahrayn, O'mon, Qatar, Iordaniya, Eron, Hinsidon, Pokiston kabi musulmon davlatlari bilan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish bo'yicha faol sa'y-harakatlar qilinmoqda O'zbekiston Respublikasining mazkur davlalar bilan aloqalari avvalo iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Respublikamizning Arab mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorligini yanada rivojlantirish bo'yicha tadbirlar dasturi alohida ahamiyatga molik. Jumladan Saudiya Arabistonida O'zbekistonnig birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi" asari arab tilida nashr etilgan. Saudiya Arabistoni O'zbekistonga asrlar davomida islom merosini boyitgan, islom madaniyati va sivilizatsiyasi ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar yurti sifatida ham katta ehtirom bilan qaraydi.

ISESCO tomonidan Toshkentning 2007-yilda "Islom madaniyatining poytaxti" deb e'lon qilingani ham Saudiya Arabistonida katta mamnuniyat bilan qabul qilindi. Shu munosabat bilan yurtimizda o'tkazilgan yirik xalqaro tadbirlarda Saudiya Arabistoni vakillari faol ishtirok etdilar. 2007-yilda Podshoh Faysal

nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqod markazida "Xorazm Mamun akademiyasi va uning jaxon ilm-fani rivojida tutgan o'rni" mavzusida ilmiy anjuman o'tkazildi. Xorazm Mamun akademiyasi bilan mazkur markaz o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum imzolandi.

Bunday madaniy aloqalarni Qohira davlati misolida ham ko'rishimiz mumkin. Madaniy aloqalar sirasiga "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi homyligida Qohiradagi Ahmad Shavqiy muzeyida O'zbekiston an'anaviy va zamonaviy san'ati nomli ko'rgazma o'tkazilganini aytib o'tish o'rinlidir.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik intituti hamda Misr Arab Respublikasidagi "Dor al-kutub va alvasoyiq" milliy kutubxonasi o'rtasida ilmiy-madaniy hamkorlik o'rnatish yuzasidan tegishli hujjat imzonlangani ilmiy aloqalarni yanada faollashtirishga xizmat qilmoqda.

Ilmiy aloqalarning debochasi sifatida Misr tomonidan O'zbekistonga Qohira shahridagi yirik kutubxonalarda saqlanayotgan, diyorimizda tug'ulib o'sgan va butun islom olamida katta shuhratga ega bo'lgan o'z zamonasining peshqadam allomalaridan biri HakimTermiziy nomi bilan hurmat qozongan Hasan at-Termiziy, mashhur alloma hadis ilmi rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan buyuk namoyonda al-Bugiy at-Termiziy hamda yana bir termizlik olim Umar Termiziy qalamiga mansub 10 dan ortiq qo'lyozmalarning eelektron nusxalari taqdim etildi.

O'zbekiston va Qatar xalqlarining tarixiy, madaniy va ma'naviy yaqinligi, mamlakatlarimizni o'zaro hamkorlikni kengaytirish yo'lidagi mushtarak intilishlari ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish uchun puxta zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston islom hamkorlik tashkiloti hamda ISESCO ga a'zo bo'ldi.

Islom hamkorlik tashkiloti homiyligida nafaqat islom madaniyati, balki insoniyat sivilizatsiyasini rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ko'p qirrali diniy va ma'naviy merosini o'rganish maqsadida O'zbekiston rahbari yurdimizda xalqaro ilmiy tadqiyqod markazlarini tashkil qilishni taklif etdi.

Islom konferensiyasi tashkiloti tarkibidagi muassasalardan biri- Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) 2007-yilda Islom madaniyatining poytaxti, deb e'lon qildi.Butun Osiyo qit'asining vakili bo'lgan Toshkent bilan bir qatorda arab dunyosidan Fes (Marokash) va Tripoli (Liviya) shaharlari, shuningdek, Afrika qit'asidan Senegal poytaxti – Dakar shaharlari ham Islom madaniyatining poytaxtlari, deb e'lon qilindi.[6] O'zbekistonning Islom madaniyati va ilmi oldidagi islom merosi va yodgorliklarini asrash

va yanada boyitish borasidagi mislsiz xizmatlari uchun Toshkent shunday yuksak faxrli nomga sazovor bo'ldi.

Haqiqatan ham mustaqil O'zbekistonning poytaxti musulmon dunyosidagi o'ziga xosligi, mahobatli madrasa va masjidlarining binolari ,minglab nodir qo'lyozmalarga boy bo'lgan kutubxonalari,islom uyg'onishi davrining buyuk ustalari,alloma va memorlari ijodiga mansub namunalari ko'z qorachig'iday avaylab-asralayotgan muzeylari bilan butun dunyodan kelayotgan mehmonlarini hayratga soladi.Toshkentda Imom al-Buxoriy nomli Toshkent Islom instituti,Ko'kaldosh nomidagi madrasa va 1-Prezident I.Karimov tashabbusi bilan barpo etilgan Toshkent Islom Universiteti faoliyat ko'rsatmoqda.

Ko'rib o'tkanimizdek, jahondagi minglab shaharlar orasidan aynan Toshkent 2007-yilda islom madaniyatining poytaxti, deb tanlandi. Toshkent nomzodining tanlanishida ISESCO birinchi galda respublika rahbariyatining o'zbek xalqi madaniy va ma'naviy qadriyatlarini qayda tiklashga yo'naltirilgan siyosati shuningdek, O'zbekiston hukumati tomonidan islom sivilizatsiyasi yodgorliklarini himoya qilish va ko'z qorachig'iday asrash bo'yicha ko'rilayotgan chora tadbirlar e'tiborga olindi. Shuningdek, ISESCO ning bunday to'xtamga kelishi Osiyo qit'asidagi eng ko'hna shaharlardan biri-boy madaniyatga ega bo'lgn Toshkentning dunyo taraqqiyoti tarixida alohida o'rin tutishi bilan izohlanadi. 1-prezident Islom Karimov bu e'tirofni "o'zbek xalqining ilom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasiga berilgn munosib baho," deb ta'rifladi va shu munosabat bilan 2007-yil 3- mart kuni president farmoni e'lon qilindi. Bu boradagi ishlarni amalga oshirish uchun bunyotkorlik yanada avj oldirildi. Jumladan,qisqa mudatlarda Hazrati Imom

majmuasi tubdan qayta tamirlandi, yangi minora, masjid, xiyobonlar bunyod etilib, unda koʻplab shaharlikalar oʻz beminnat mehnatlari bilan hissa qoʻshdilar. Koʻkaldosh madrasasi (XVI asr), Shayx Zayniddinbobo (XIII-XIX asrlar), Zangi Ota(XIV-XX asr), Xoʻja Alambador (XIX asr), Shayx Xovandi Tohur (XV asr), Yunusxon maqbaralari (XV asr), Abulqosim madrasasi(XIX asr) va boshqalar tamirlandi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil davlat poytaxti azim Toshkent hali-hanus mamlakatda olib borilayotgan tub siyosiy va iqtisodiy islohotlarning markazi boʻlib kelmoqda va u hamon qadimiy tarixiy asoslarga ega shahar boʻlib qolaveradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Mirziyoyev Sh. Oʻzbekiston manfaatlarini xalqaro miqyosida qat'iy himoya qilish-diplomatik korpusimizning asosiy vazifasidir. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.

2. "Toshkent" ensiklopediyasi. 2009-yil

3. www.tashkent.uz "Toshkent shahar xokimligi rasmiy sayti.

4. www.uza.uz "Oʻzbekiston Milliy axborot agentligi" rasmiy sayti.

5. Asqarov a. va boshqalar "Oʻzbekiston tarixi": Toshkent, "ma'naviyat", 2023-yil.

6. http://mustaqillik.uz/ru/events/view/143 [Murojaat qilingan sana: 20.04.2024]

# MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| 1 | Iqlim isishiga qarshi kurashishda “Yashil makon” umummilliy loyihasining ahamiyati<br>**Qoriyev M., Ikramova N.** | 3 |
| 2 | Quyosh energiyasidan foydalanish<br>**Dusov Y. Sh.** | 14 |
| 3 | Oilaviy nizolarning paydo boʻlish sabablari va uni bartaraf etishning psixologik asoslari<br>**Ravshanov S. A., Raxmatullayeva M. A.** | 23 |
| 4 | Yoshlar ongida vatanparvarlik tuygʻularini uygʻotishning oʻziga xoslik xususiyatlarini takomillashtirish<br>**Xamrakulov Oʻ. M.** | 30 |
| 5 | Oilada zoʻravonlik turlari va oqibatlari<br>**Murodova N. A.** | 41 |
| 6 | Ota-onalarning bolaga munosabati va oilaviy zoʻravonlikning bolalar rivojlanishiga ta’siri<br>**Abdumuradova F. N.** | 47 |
| 7 | Rivojlangan oʻrta asrlarda oʻrta osiyo tarixi tarixshunosligi ayrim jihatlari<br>**Samiyev A. S.** | 54 |
| 8 | Shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda motivatsiyaning oʻrni<br>**Ravshanov S. A., Djuraboyeva D. A.** | 64 |
| 9 | Инновационные подходы к созданию и использованию электронных учебников: анализ тенденций и перспектив<br>**Абдулвохидов Э. А., Дадамирзаева М.** | 68 |
| 10 | Language and ideology in george orwell’s 1984: a philological and ideological inquiry<br>**Shokirov S. N.** | 73 |
| 11 | Oʻsmirlik davrining psixologik xususiyatlar va bu davrda muloqot xususiyatlari<br>**Roziqova M. O., Joʻraboyeva R. M.** | 80 |
| 12 | 8 milliardlik aholi: insoniyat qanday bu darajaga yetdi?<br>**Ne’matullayeva M.** | 85 |

# MUNDARIJA


13 Zamonaviy pedagogk texnologiyalar orqali yosh avlodni ilm-fanga jalb etishning ustuvor yo'nalishlari
**Sulaymonbekov S., Sharipova N. Sh.** ............................ 88

14 Xviii–xix asrlarda o'rta osiyoda qulchilik munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari
**Abduqahorov A. A.** ........................................................ 96

15 Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiscal siyosat
**Adilova Y. Sh., Choriyev A., Ganjiyev E.** ......................... 107

16 Kam ta'minlangan oila farzandlari bilan ijtimoiy ish olib borishda psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati (o'rta yoshli bolalar timsolida)
**Abduraxmonova Z. I.** .................................................... 112

17 Buyuk ipak yo'lining o'zbekiston tarixidagi o'rni va bugungi davrdagi ahamiyati
**Obidova R. A.** ............................................................ 117

18 Oiladagi zo'ravonlik va uning ko'rinishlari
**Murodova N. A.** .......................................................... 123

19 Modern teaching techniques in education
**Ne'matullayeva M.** ...................................................... 128

20 Tanqidiy fikr va raqamli ong: media savodxonlik nega bugun muhumroq?
**Mirzamuradova Sh. B.** ................................................ 135

21 Mustaqillik yillarida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari
**Nurqulova D.** ............................................................. 141

22 Ko'zga yoqimli, ongga xavfli: reklamalardagi manipulyatsiya san'ati
**Yusupova A. A.** .......................................................... 151

23 Improving listening and speaking skills through online games and collaboration
**Iskandarova S. J.** ........................................................ 156

24 Hayvonlarning psixik faoliyati va rivojlanishi jarayonlari
**Bahodirova M. I., Ravshanov S. A.** ................................. 163

# MUNDARIJA


25 Aqli zaif bolalarda nutq buzilishining o'ziga xosligi
**Abdullayeva D. X., Ravshanov S. A.** ............................... 169

26 Mediasavodxonlikning zamonaviy jamiyatdagi o'rni va ahamiyati
**Abdusamatova Z. M.** ................................................ 178

27 Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda o'quv jarayonining mintaqaviy komponentini kuchaytirish
**Rahmatova N.** ...................................................... 182

28 Axborot tizimiga ruxsatsiz kirishdan himoyalanish
**Mamasharipova D. M.** ............................................... 187

29 O'quvchilar o'rtasida kitobxonlik savodxonligini rivojlantirish va uning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri
**Nuriddinova A. B.** ................................................. 192

30 XIX asr O'rta Osiyo tarixi tarixshunosligining rivojlanish omillari
**Nishonov A. L.** .................................................... 198

31 O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning rivojlanishi va uni qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari
**Baratova Sh. N.** ................................................... 207

32 Dialektal matnlarda so'z yasalishi va sintaktik tahlil
**Olimova O. M.** ..................................................... 213

33 The creation of particular learning methods for blind children
**G'ulomova D.** ...................................................... 220

34 Milliy g'oya –buyuk ajdodlar merosining davomchisi sifatida
**Hasanova D. A.** .................................................... 226

35 Inson huquqlari — jamiyatning eng muhim qadriyati
**Sharopova D. D.** ................................................... 233

36 Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni
**Kucharboyeva D. O.** ................................................ 238

37 Ekologik ta'limda muammoli vaziyatlar metodining qo'llanishi
**Avazova M.** ........................................................ 244

# MUNDARIJA


38 Farg'ona vodiysida muhofazaga olingan *Astragalus auratus* o'simlik turini IUCN mezonlari asosida baholash natijalari
**Umaraliyeva Sh. F.** ........................................ 252

39 Globallashuv davrida talab-yoshlarda ma'naviy tarbiyaning diniy-falsafiy jihatlari
**Abdurasulova G. M.** ........................................ 262

40 Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari
**Haydarova S. J., Ravshanov S. A.** ........................................ 269

41 Globallashuv davrida milliy o'zlikni anglashning dolzarb masalalari va ularning yechimlari
**Hasanboyeva R. U.** ........................................ 276

42 "karbonat angidrid yutib, kislorod ajratuvchi biotizim"
**Ismanhojayeva M. A.** ........................................ 281

43 Uzluksiz ta'lim tizimida talaba yoshlarda huquqbuzarlik va zo'ravonlikka qarshi immunitetni oshirish mehazimlari
**Karimqulova L. O'., O'ralova M. G'.** ........................................ 288

44 Kiberxujumlardan himoyalanish usullari
**Dadaxonova M. X.** ........................................ 295

45 Inklyuziv ta'limning oila va jamiyatning ta'siri
**Muslima J.** ........................................ 299

46 Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va urf-odatlar orqali tarbiya
**Yo'ldosheva U. X.** ........................................ 307

47 O'zbekistonda zargarlik tarmog'ini jadallik bilan rivojlantirish jarayonlari
**Lutfulloyeva J. R., Qosimova M. A.** ........................................ 312

48 Ta'lim muassasasini boshqarishda jonli tabiat burchagi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy kompotensiyalarni shakllantirishning samarali mexanizmlari
**Yaylovboyeva M. L.** ........................................ 323

# MUNDARIJA

49 Almashlab ekishning tuproq unumdorligini oshirishdagi ahamiyati
**Abduqodirov A. N.** ........................................................ 331
50 Yuqori sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabatlarning differensiyallashuvi pedagogik muammo sifatida
**Dehqanova Sh.** ........................................................ 336
51 Boshlang'ich talim jarayonida stem ta'lim texnologiyasini qo'llanilishi
**Qodirova S. E.** ........................................................ 348
52 Psixologiya fanini o'rganishda xorijiy tillarning ahamiyati va dolzarbligi
**Soliyeva R. A., Ravshanov S. A.** .................................... 355
53 O'zbek adabiy tilining tarixiy leksik qatlamlari
**Xo'jaqulova S. I.** ........................................................ 361
54 Ayol – jamiyatning ma'naviy tayanchi va kelajak tarbiyachisi
**Xakimova S. Sh.** ........................................................ 366
55 Karate sport to'garagi orqali maktab o'quvchilarini chaqqonlik jismoniy sifatini rivojlantirish metodikasi
**Mahmudjonov A. A., Adhamova N. S.** ........................... 372
56 Bolalar faoliyat turlariga integratsion yondashuv asosida bilish kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi
**Abdullajonova S. G'.** ........................................................ 380
57 Innovatsion yondashuv asosida elektr magnitizm fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish
**Jo'rayeva M. B.** ........................................................ 386
58 Yosh oilalarda zo'ravonlik oqibatida kelib chiquvchi nizolarni bartaraf etishni ta'minlash uchun psixosotsial yordam
**Ergasheva Moxina Narzulla qizi** 396
59 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "metodik mahorat soati"ni tashkil etish texnologiyalari
**Sobirova N. T.** ........................................................ 403

# MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| 60 | "Raqamli texnologiyalarning bolalarning aqliy rivojiga ta'siri" **Baxromjonova I. A.** ........ | 408 |
| 61 | O'spirinlik davrida stressli vaziyatlarni oldini olishda koping strategiyalari va ularning psixologik xususiyatlari **Rasuljonova G. A.** ........ | 415 |
| 62 | Ilk o'spirinlarda nizolar paydo bo'lishi va ularning ijtimoiy-psixologik tavsifi **Samatova S. E., Ravshanov S. A.** ........ | 419 |
| 63 | Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarga ingliz tili o'qitish jarayonida slime metodikasining samaradorligi **Sobirjonova H. T., Boltabaeva M. B.** ........ | 424 |
| 64 | Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tilayotgan musiqa mashg'ulotlarining sifati **To'rayeva N. M.** ........ | 430 |
| 65 | Jadidlar davri pedagogikasi va ularning pedagogik qarashlari **Obilov A.** ........ | 440 |
| 66 | Translation theory and practice in teaching innovative pedagogical technologies **Yunusov M. V., Boltabaeva M. B.** ........ | 444 |
| 67 | The differences between a single gender education and coeducation **Mohlaroy M. E.** ........ | 451 |
| 68 | Suniy intelekt (AI) – tezkor yordamchi, inson esa asosiy tarjimon **Turgunboyev D. R., Boltabaeva M. B.** ........ | 460 |
| 69 | Raqamli madaniyat va mediasavodxonlik o'rtasidagi bog'liqlik **Pazliddinova M. O.** ........ | 466 |

# MUNDARIJA


70 Didaktika asosida o'quvchilarga chet tili o'qitishning asosiy metodlari
**Azimov S. M., Boltabaeva M. B.** .................................... 473
71 Kiberxujumlar va ularning turlari
**Omonova M. K.** .................................... 479
72 O'zbek jamiyatida mahalla institutining shakllanishi va ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni
**O'rmonjonova D. M.** .................................... 485
73 The role of interactive activities in enhancing vocabulary retention among efl learners
**Yoqubjonova G. N.** .................................... 497
74 Chet davlatlaridagi maktabgacha ta'lim tizimida integratsion ta'lim muhiti tahlili
**Sultonboyeva B. I.** .................................... 503
75 Metall sirt yaqinida tebranuvchi magnit mayatnikning tormozlanish harakatini nazariy o'rganish
**Bo'ronov M. O.** .................................... 518
76 Игровые технологии. Цели, задачи и теоретико-методологические основы игровой технологии.
**Хусанова М.** .................................... 526
77 Kichik yoshdagi bolalarda tafakkur va xotirani rivojlantirish
**Hamidova O. N.** .................................... 535
78 O'qituvchining pedagogik qobiliyati va pedagogik muloqoti-zamonaviy ta'limning asosi!
**Yigitaliyev Sh.** .................................... 540
79 O'zbek adabiyoti va uni o'qitishning zamonaviy yechimlari
**Shamilova Z.** .................................... 548
80 Axborot texnologiyalarni o'qitish metodikasi
**Baxromjanova R. Z.** .................................... 554
81 Yoshlar va ekologiya: ekologik ongni oshirish va tabiatni muhofaza qilishda yoshlarning roli
**Ikromova T. A.** .................................... 560

# MUNDARIJA


82 O'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda internetdan foydalanishning ahamiyati
**Yusupova F. Y.** ........................................................ 564

83 Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirishning mazmuni va asosiy yo'nalishlari
**Yo'ldosheva U. X.** ........................................................ 575

84 Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi
**Murodillayeva J. X.** ........................................................ 582

85 Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olishning ahamiyati
**Arabboyeva M. S.** ........................................................ 590

86 Informatsion texnologiyalarning ta'lim tizimiga integratsiyasi
**Ergashaliyeva R. F.** ........................................................ 597

87 Sun'iy intellektning televizion texnologiyalar bilan integratsiyasi va kelajagi
**Abdullayeva D. A.** ........................................................ 604

88 Hozirgi davr psixologiyasining rivojlanish tarixi
**Abdurashidova D. A.** ........................................................ 613

89 Psixologiyada shaxs ijtimoiylashuvi muammosi
**Yoqubxo'jayeva M. A.** 618

90 2007-yilda Toshkent –Islom madaniyatining poytaxti
**Yoqubxo'jayeva M. A.** ........................................................ 622

*"Iqtidorli talabalar ilmiy xabarlari" ilmiy-uslubiy jurnali NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2025-yildagi 11-oktabrdagi 10-sonli kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 10). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

*Texnik muharrir: D. Maxkamov*

*Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.*

*Pochta indeksi: 160136,*

*Faks: (0369) 227-27-21,*

*E-mail: Info@namspi.uz*

*"Iqtidorli talabalar ilmiy xabarlari" ilmiy-uslubiy jurnalining 2025-yil 3-soni 637 sahifadan iborat bo'lib, 90 ta ilmiy maqoladan tashkil topgan. Jurnalning elektron holatini har qanday tartibda o'zgartirish yoki soxtalashtirishga uringan subyekt shaxsan javobgar hisoblanadi.*

**Namangan davlat pedagogika instituti – 2025**